950
D 72

ALISHER DONIYOROV

# MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

Otiqov Yosin
17.03.2022

950
D-72

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**Alisher DONIYOROV**

- 10188 -

# MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'iga asosan, 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

(Ro'yxatga olingan raqami 418-040)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

**TOSHKENT**
**NIF MSH**
**2020**

**UDK: 950(575.1)**
**KBK: -63.3(5Uz)**
**D 72**

**Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi / Darslik. Toshkent: NIF MSH, 2020. 444 b.**

*Mazkur darslikda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan hozirga qadar bo'lgan tarixini yorituvchi keng ko'lamdagi adabiyotlarning tarixshunoslik tahlili amalga oshirilgan. Mavzularning mantiqiy ketma-ketlikdagi taqdimoti ilmiy bilimlarning vujudga kelishi va tarixiy tafakkurni rivojlanish jarayoni haqida ma'lum tasavvurlarni uyg'otadi. Shuningdek, tarixiy yo'nalishdagi ilmiy markazlar va muassasalarning Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi roli yoritilgan.*

*Ushbu darslik talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.*

**Mas'ul muharrir:**

**N. Mustafayeva** – tarix fanlari doktori

**Taqrizchilar:**
**B. Ergashev** – tarix fanlari doktori
**B. Odilov** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2020-yil 19-maydagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining **2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'iga** asosan, 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan (Ro'yxat raqami **418-040**).*

**ISBN 978-9943-7011-7-5**

**© A. X. Doniyorov, 2020.**
**© NIF MSH. 2020.**

## SO‘Z BOSHI

“Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin, bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Mazkur merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”[1] - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ushbu so‘zlari bugungi kunda tarix fanida o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolar doirasini belgilab beradi.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari jahon tarixida har bir hudud, mintaqa va mamlakatning o‘rni, uning insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasini o‘rganish hamda anglashni dolzarblashtirmoqda. Bu o‘z navbatida tarix fani zimmasiga katta mas’uliyat yuklab, tadqiqotlar mazmunida uni ifodalashni taqozo etmoqda. Chunonchi, Markaziy Osiyo tarixini xalqaro kontekstda o‘rganish, uning jahon tamaddunidagi o‘rni va ahamiyatini yanada ravshanroq ko‘rsatadi.

Mazkur darslikda Markaziy Osiyo xalqlariga oid ilmiy bilimlarning to‘planishi va evolyusiyasi jarayoni tarix fani rivoji kontekstida yoritilgan. Bunga har bir tarixiy davrda jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy shart- sharoitlarning fan rivojiga ta’siri ko‘rsatilgan. Jamiyatning taraqqiy etishi bilan tarixiy bilimlarning ham takomillashib borishi uzoq vaqt mobaynida yaratilgan adabiyotlar tahlili misolida taqdim qilingan.

Ushbu darslikda Markaziy Osiyo va xususan, O‘zbekiston xalqlari tarixshunosligida mazkur mintaqa tarixiga doir mavjud turli qarashlar, konsepsiyalar tahlili va tadqiqotchilikning turli zamonaviy usullari ifodalangan. Darslikdagi mavzular keng qamrovli, biroq asosiy mazmun Markaziy Osiyo xalqlari tarixining turli davrlari va masalalariga oid manbalar hamda ilmiy adabiyotlar mantiqiy ketma-ketlikda taqdim qilingani bilan yaxlit ilmiy-tarixiy manzarani yaratadi.

Mazkur kitobdagi materiallar “yaxlit” bir tarzda hududiy hodisalar va jarayonlarni yoritishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili orqali, ularni kuzatish imkonini berib, mazkur hudud “global tarix” ning to‘laqonli sub’yekti ekanligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoning qadimiy davrlardan hozirga qadar bo‘lgan tarixi turli masalalari tarixshunosligini qamrab olgan ushbu darslik tarix mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavr va magistrantlarga mo‘ljallangan. Darslikning yakunida bilimlarni mustahkamlovchi savollarning o‘rin olganligi talabalarda mustaqil fikrlash doirasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Darslik talabalarning “O‘zbekiston tarixi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi”, “Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi”, “Markaziy Osiyo va jahon sivilizatsiyasi” va boshqa yordamchi

---

[1] Электрон манба: http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qayerda-joq.

tarix fanlarini o‘zlashtirishida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishiga umid qilib qolamiz.

Qolaversa, ushbu darslik yoshlarda vatanparvarlik hissi, tarixga muhabbat, tarixchi olimlarning ilmiy merosi, tadqiqotchilik tajribasiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, darslikdan olimlar, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar va tarix muammolariga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Darslikni tayyorlashda tarixshunos olimlar: t.f.d., prof. D. A. Alimova, t.f.d., prof. B. Koshanov, t.f.d., prof. N. R. Mahkamova, t.f.d. N. A. Mustafayeva, t.f.d., prof. L. P. Repina, t.f.d., prof. T. Saidqulov, t.f.n., k.i.x. Sh. I. Asadova v.b. tadqiqotlaridan foydalanildi.

## 1-MAVZU: TARIX – INSONIYAT TARAQQIYOTINI O'RGANUVCHI FAN. TARIXSHUNOSLIK – TARIXIY BILIMLARNING MAXSUS SOHASI SIFATIDA. MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGINI O'RGANISH XUSUSIDA

***O'quv maqsadi:*** *Talabalarda tarix fani, tarixiy bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, "Tarixshunoslik" fanining predmeti haqida tushuncha hosil qilish, mazkur fanning maqsad hamda vazifalari haqida ma'lumot berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *tarix, tarixshunoslik, tadqiqot usullari, jamiyat, tarixiy xotira, tarixiy ong, ilmiy, nazariy-metodologik, Fanlar akademiyasi.*

### Tarixni bilish va undan saboq olish...

Ma'lumki, tarix – xalq ma'naviyatining asosi, eng muhimi, u ajdodlarning shonli o'tmishini o'zida mujassamlashtirgan fandir. Tarix – faqatgina ushbu fan sohasining emas, balki millatning har bir vakiliga birdek daxldordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz, buyuk ajdodlarimiz"[2] haqidagi noyob tarixiy ma'lumotlarni dunyo ahliga faxr va g'urur ila baralla yetkazish dunyoda globallashuv jarayonlari kechayotgan pallada ayniqsa dolzarblashmoqda.

Tarixni bilish va undan saboq olishni vatanparvarlikning muhim omili, deb hisoblagan Prezident: "Mana, Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin, xolisona aytaylik, ulug' Sohibqironning "Tuzuklar"ini qancha askar o'qigan? Yoki buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi"[3].

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida bugungi islohotlar jarayonida tarixni yaxshi bilish zarurligiga e'tibor qaratib: "Suvorov maktabini "Temurbeklar" deb o'zgartirdik. Gap nomda emas, g'oyada, mafkurada, g'ururda! Bog'chadayoq bolalarimiz Vatanni, tarixni, madhiyani, bayroqni, Amir Temurni, Birinchi Prezidentimizni... yaxshi o'rganishsin..."[4] va shu o'rinda ushbu mazmundagi fikrlarini rivojlantirib, askarlar harbiy qasamyod qilishdan oldin albatta, "O'zbekiston tarixi" fani va "Temur tuzuklari"dan sinov

---

[2] Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 3 августдаги ижодкор зиёлилар билан учрашувда сузлаган нутки // https://cdn1.img.sputniknews-uz.com/i/logo-itemprop.pngkun.uz. 03. 08. 2017.

[3] Узбекистон Республикаси Президенти, Куролли Кучлар Олий Бош Кумондони Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги йиғилишидаги нутки // kun.uz. 28. 11. 2018.

[4] Shu joyda.

topshirishi kerakligi, qolaversa, tarixiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish har bir fuqaroning sharafli burchi ekanligini ta'kidladi.

O'zbekistonning yangilanish yo'lida "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zligimizni anglash uchun Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" - deb ko'rsatma berdi[5].

Ushbu vazifalarni bajarishda ta'lim muassasalarining zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklanib, milliy o'zlikni anglash va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishning dolzarbligi hamda zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Bugungi kunda tarix va tarixiy fanlarni o'qitish hamda ushbu sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab qaror hamda dasturlar qabul qilinmoqda. Birgina misol, "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqot muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqot natijadorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qarori[6] qabul qilindi. Mazkur Qarorga ko'ra, mamlakatda akademik ilm-fanni yanada rivojlantirish, Fanlar akademiyasining ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi tarkibiga kiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va tadqiqot olib borish tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarini to'g'ridan-to'g'ri byudjetdan moliyalashtirishga o'tkazish maqsad qilingan.

Shuningdek, ushbu Qarorga muvofiq, tarixiy tadqiqotlar markazi bo'lgan Fanlar akademiyasi Tarix instituti uchun quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi:

- O'zbekistonning qadimdan hozirgi davrigacha bo'lgan tarixini tizimli o'rganishni milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan tashkil etish;
- Vatanimizning umumjahon va mintaqa tarixida tutgan o'rni, o'zbek xalqining bunyodkorlik ishlarini turli tarixiy bosqichlarning umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda va o'zaro aloqadorlikda ko'rsatish;
- O'zbekistonda tarixiy tafakkur rivojini tahlil qilish, arxeologik, etnologik, tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlarining nazariyasi hamda metodologiyasini istiqbolli rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni har tomonlama va chuqur tadqiq etish.

---

5 http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/27235 / Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йил 28 декабрь куни Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

6 https://regulation.gov.uz/uz/document/9637 (Фойдаланилган сана: 15.09.2020).

Ijtimoiy fan vakillari oldiga qo'yilgan ushbu vazifalarni bajarish bevosita tarix fani taraqqiyotiga xizmat qilib, xalqning tarixiy ongi va xotirasi hamda har bir fuqaroda Vatan tuyg'usini shakllantirishda muhim omil bo'lishi shubhasizdir.

## Tarix fani: predmeti, funksional vazifalari va tarixchi

Tarix – insoniyat taraqqiyotini o'rganuvchi fandir. U predmeti mazmunidan kelib chiqib, ijtimoiy fanlar tizimiga mansub va ushbu qatorda alohida o'ringa ega.

Tarix mustaqil fan sifatida Qadimgi Gretsiyada vujudga kelib, mil. avv. V asrda yashagan Gerodot ramziy ravishda uning "otasi" hisoblanadi. Ushbu allomaning mashhur "Тарих" asarida aynan tarixni har tomonlama o'rganish zarurligi asoslangan. Gerodot tarix deganda, o'tmish haqida yozib qoldirilgan hikoyalarni nazarda tutgan. Ha, tarix o'tmish haqida hikoya qiladi, o'tmishga aylangan voqea-hodisalar haqida ma'lumot beradi. Agar masalaga bunday yondashilsa, zamonda yuz beradigan barcha voqealar bayoni tarixdir. Biroq, tarix fanining **predmetini** – insoniyat tarixini o'rganish tashkil qiladi. Tarix avvalambor, jamiyat taraqqiyotida insonning tutgan o'rni va rolini o'rganadi. Tarix ko'p avlodlar hayoti davomida insoniyatning to'plagan beqiyos ko'lamdagi ma'naviy-axloqiy, madaniy va ijtimoiy tajribasidir.

Yana shuni ta'kidlash joizki, o'tmish haqidagi bilimlarni anglatuvchi "tarix" ma'lum darajada adabiy ma'noga ham ega. Tarix insoniyat bilimlarining alohida shakli sifatida adabiy ijod doirasida shakllanib, hozirga qadar u bilan aloqasini saqlab qolgan.

Tarix fani inson haqidagi boshqa fanlardan ikki xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchisi, tarix betakror va beqiyos voqea hodisalar bilan ish ko'radi hamda ularning aniq tafsilotlari bilan shug'ullanadi. Masalan, Amir Temurning harbiy yurishlari, Buyuk Fransuz inqilobi va Ikkinchi jahon urushi kabi o'tmish voqealari betakror hamda hamisha yagona faktlar bo'lib qoladi. Tarixning maqsadi bunday faktlarni izlab topish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu aniq voqealar tadqiqotchiga mushohada uchun manba vazifasini bajarib, ularni o'rganish tarixchi faoliyatining asosini tashkil qiladi. Bularning barchasi tarixni empirik fan, ya'ni tarixiy dalillar orqali o'tmish manzarasini keng tasvirlovchi va tasniflovchi predmet deb hisoblash imkonini beradi.

Tarixning empirik xarakteri va uning mantiqiy yakuni ushbu fan tadqiqotchisini o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni mushohada qilish vazifasi qiziqtirmasligi, balki uning asosiy vazifasi, ya'ni voqealarning haqqoniyligi o'rganib, ishonchli tasvirlashdan iborat ekanligini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Tarixning ikkinchi farqli xususiyati – tadqiqot maydonining nihoyatda kengligi va inson faoliyatining har qanday ko'rinishi tarixiy fakt hamda uning

o'rganish predmeti bo'la olishidadir. Tarixchining e'tibori ijtimoiy hayotning xilma-xilligiga yo'naltirilgan bo'lib, uning vazifasi – jamiyatning ma'lum bir davr, sharoit va makonda mavjudligi xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tarixchi boshqa ijtimoiy fan vakillaridan farqli ravishda, turli tiplarga xos bo'lgan hodisalar bilan ish ko'radi: iqtisodiy – insonlarning xo'jalik hayoti; ijtimoiy – jamiyatdagi guruh va qatlamlar, ularning o'zaro munosabatlari prinsiplari, ijtimoiy institutlar – asosiy muassasa va jamiyat hayotini tartibga soluvchi barqaror qoidalar; ruhiy – inson va insonlar hamjamiyatining his tuyg'ulari; siyosiy va huquqiy – siyosiy voqealar, davlat va boshqaruv tashkiliy shakllari, huquqiy norma hamda jamiyat taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan insonlarning ijtimoiy xulq-atvori; madaniy – inson ma'naviyati orqali yaratilgan adabiyot, san'at, ilmiy bilim, shuningdek, ma'lum jamiyat uchun xos bo'lgan dunyoqarash va dunyo haqidagi tasavvurlar.

Tarix fani bir qator muhim ijtimoiy ahamiyatga ega **funksiyalarni** bajaradi. Ular:

– Tarixning fan sifatidagi muhim funksiyasi *bilish* – intellektual-rivojlantiruvchi funksiyadan iborat. Barcha voqealar va jarayonlarni o'zida ifodalagan insoniyat tarixini tashkil qiluvchi xalqlar va mamlakatlarning bosib o'tgan tarixiy yo'lini o'rganish; davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarning turli jihatlarini o'rganadi;

– *tarixiy ongni* shakllantirish funksiyasi. Tarixiy ong bu – ijtimoiy xotira. Tarixiy ong holati jamiyat barqarorligiga bog'liq bo'lganidek, mustahkam tarixiy ong o'z navbatida, jamiyat barqarorligining ko'rsatkichidir;

– *amaliy tavsiyaviy* funksiyasi – uning fan sifatidagi mohiyati tarixiy faktlarga tayangan holda, jamiyat rivoji qonuniyatlarini aniqlab, nazariy mushohada qilish orqali, kelajakda turli xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ilmiy asoslangan siyosiy yo'lni ishlab chiqish va siyosiy mazmundagi qarorlarni qabul qilishga qaratilgan;

– yana bir funksiyasi – *dunyoqarash* bo'lib, o'tmishni bilish dunyo, jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlariga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan qarashni shakllantiradi;

– *tarbiyaviy* funksiyasi – u o'z xalqi va yurtining tarixini o'zlashtirish orqali vatanparvarlik hissi, insoniyatning axloqiy normalari hamda qadriyatlarini shakllantiradi; jamiyat taraqqiyotida ma'lum bir xalq yoki shaxslarning rolini ko'rsatadi.

Tarix ko'p tarmoqli fan bo'lib, u bir qator mustaqil fan sohalaridan tashkil topgan: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy, davlat, fuqarolar, fan, din tarixi. Tarix o'rganish ob'yektining qamroviga ko'ra, jahon tarixi, qit'alar tarixi, Yevropa tarixi, Osiyo va Afrika tarixi, xalqlar tarixi, alohida olingan mamlakatlar (O'zbekiston) tarixi va h.k.

Ushbu fan o'z tadqiqotlarida xronologiya, paleografiya, numizmatika, diplomatika, geraldika, metrologiya, sfragistika, epigrafika, geneologiya,

toponimika va o‘lkashunoslik kabi yordamchi tarix fanlariga tayanadi. Manbashunoslik va tarixshunoslik tarixiy tadqiqotlar jarayonida alohida o‘rin tutadi.

O‘tmishni o‘rganishda tarixiy manbalar asosiy vosita bo‘lib, ular o‘z tavsifiga ko‘ra, yozma, og‘zaki, moddiy va adabiy kabi turlarga bo‘linadi. Biroq, ushbu manbalar tarix manzarasini asl holicha yaratmaydi va ularda mujassamlashgan axborotlarni ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilib bo‘lmaydi. Tarix tadqiqotini amalga oshirishda manbashunoslik ishi muhim o‘rin tutadi. Tarixiy voqealarni tiklash uchun ushbu manbalarni tanqidiy o‘rganish, tahlil va talqin qilish kerak bo‘ladi. Faqat tarixchigina tarix manzarasini o‘z faoliyati orqali tiklay oladi. Manbashunoslik – tahliliy ish bo‘lsa, nazariy umumlashmalar ustida ishlash esa tizimlovchi, selektiv ish, ushbu ikki yo‘nalish tarixiy bilimda bir xilda muhim va zarurdir.

Tarixchining manbashunoslik va umuman, tadqiqotchilik faoliyati haqida so‘z ketganda, shuni ta’kidlash joizki, tarixni o‘rganish hamda konseptual jihatdan anglash bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Tarixiy tadqiqotning muhim manbalari – arxiv hujjatlari, nashrlar, ashyoviy dalillar va h.k. ustidagi maxsus professional ish hisoblanadi. Manbalar bilan ishlashdagi mahorat tadqiqotchining professional darajasi, mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tarixchining fuqarolik qarashi “ijtimoiyligi” tarixiy asarlar xarakterini belgilaydi, manbalarni talqin qilish qobiliyati o‘zi yashayotgan davr nuqtai nazaridan emas, avvalambor, o‘rganilayotgan davr nuqtai nazaridan belgilanadi. Manbalarni tahlil qilishda o‘rganilayotgan davr insonlarining fikrlari, tasavvurlari va jamiyatda kechayotgan jarayonga qarashlaridan kelib chiqish kerak. Bunday yondashuv hatto yaxshi ma’lum bo‘lgan manba matnida noma’lum qirralarni ko‘rish imkonini beradi[7].

Tarix fanining tadqiqot predmeti tarixchini iqtisod, huquq, sotsiologiya, adabiyotshunoslik va san’at tarixi hamda boshqa soha mutaxassislari bilan yaqinlashtiradi. Shuni ta’kidlash joizki, dastavval jamiyatning shakllanish qonuniyatlarini anglashga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tarix fani ikki asr muqaddam vujudga kelgan jamiyat haqidagi bir qator mustaqil fanlarning asosi hisoblanadi. Sotsiologiya, falsafa va psixologiya fanlari tarixiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariya hamda tushunchalarni yaratadi, tarixchi o‘z navbatida, ularga qonunlarni shakllantirish va umumlashtirish uchun “qayta ishlangan xom ashyo”ni yetkazib beradi. Hozirda tarix fani sotsiologiya, antropologiya, iqtisod va psixologiya kabi fanlarning nazariya hamda modellariga jamiyatni anglash vositasi sifatida murojaat qilib, ayni paytda, ushbu nazariyalarning haqqoniyligini sinab ko‘rmoqda.

---

[7] Медушевская О. М. Источниковедение и гуманитарная культура // Отечественные архивы. 1992. № 4; Shu muallif. Архивный документ, исторический источник в реальности настоящего // Отечественные архивы. 1995. № 2.

Tarix – barcha ijtimoiy fanlar orasida eng universali bo'lib, ushbu fanlarning barchasini ildizlari u bilan bog'liqligi va insoniyat jamiyatining o'z o'tmishiga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqadi.

Ma'lumki, tarix o'tmish haqidagi bilimlar va o'tgan zamon haqidagi ijtimoiy tasavvurlar umumlashmasini anglatib, insoniyat taraqqiyotining holatini o'zida aks ettiradi. "Tarixiy xotira", "tarixiy ong", "tarixiy bilimlar" va "tarix fani" kabi tushunchalar tarixning sinonimlari sifatida taqdim etiladi. Mazkur tushunchalarda mujassamlashgan voqea-hodisalar o'zaro aloqador bo'lib, ular orasida ma'lum bir chegarani o'tkazishning iloji yo'q. Bu o'rinda, "tarixiy xotira", "tarixiy ong" tushunchalari aksariyat holda o'tmishning beixtiyor yaratilgan manzarasiga ishora qilsa, "tarixiy bilimlar" va "tarix fani" uni anglash hamda baholashda maqsadli hamda tanqidiy yondashuvni nazarda tutadi[8].

Tarixiy bilimlar qadimda jamiyat va ijtimoiy ong taraqqiyoti jarayonida shakllangan. Insonlarning o'z o'tmishiga bo'lgan qiziqishi, o'zini anglash va etnik identikligini belgilash tendensiyasining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Buning asosida o'zaro bog'liq bo'lgan ikki motiv yotadi – o'zi haqidagi xotirani avlodlarga yetkazish va yashayotgan davrini ajdodlar tajribasiga murojaat qilish orqali anglashga intilish. Insoniyat tarixida turli davrlar va sivilizatsiyalar o'tmishga nafaqat turli shakllar, balki har xil darajada o'z qiziqishlarini ham namoyon qildilar. Jamiyatning rivojlanish jarayonida o'tmish haqidagi xotirani saqlash vositalari, uni o'rganish va bayon qilish o'zgarib bordi, faqat muhim jihati, zamonaning dolzarb savollariga javob izlashda o'tmishdan saboq olish an'anasi o'zgarmadi.

## Tarixshunoslik - tarixiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida

Tarix fani taraqqiyotining murakkab va uzoq yo'lini bosib o'tdi. Ushbu jarayon rivojining har bir bosqichini mushohada va sarhisob qilish hamda istiqboldagi vazifalarini belgilashga doimo ehtiyoj mavjud. Tarixiy bilimlarning to'planishi va rivojlanishi asnosida mazkur jarayonlar hamda uning qonuniyatlarini o'rganuvchi maxsus fan – tarixshunoslik vujudga kelib, u XX asrning o'rtalarida to'liq shakllanib bo'ldi. **Tarixshunoslik** tarixiy bilimlar tizimida tarix fanining tarixini o'rganuvchi fan sifatida joy oldi. "Tarixshunoslik" atamasi haqida so'z yuritilar ekan, uzoq vaqt davomida ilmiy an'anada ushbu atama mazmuniga tarixnavislik, ya'ni tarixni yozish ma'nosi yuklangan va uning "ijodkori" bo'lgan tarixnavisga nisbatan "tarixshunos" termini qo'llanilgan. Fanni yangi sohasining shakllanishi bilan ushbu atamaga fanshunoslikda yangicha mazmun yuklanib, tarixshunoslik tushunchasidan – tarix fanining tarixini o'rganuvchi fanni anglashda qo'llanila boshlandi.

---

[8] Репина Л. История исторического знания: пособие для вузов 2-е изд. М.: Дрофа, 2006. 288 с.

Tarixshunoslik tarixiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida tarix fanining tarkibiy qismi hisoblanadi va ayni paytda, intellektual tarixning ham bir bo'lagidir. Tarix fani va tarixshunoslik o'rtasidagi munosabat bir-birini taqozo qilganidek, ushbu ikki fanning rivojidagi asosiy omillar ham ularning o'zaro aloqadorligi natijasida shakllanadi. Agar tarixiy jarayon tarixchi ishtirokida fanga aylansa, ilmiy bilimlarning to'planib borishi, ma'lum bir tarixiy voqea-hodisa haqida turli tadqiqotchilarning tasavvurlari, qarashlari va konsepsiyalarining shakllanishi, bunga muhitning ko'rsatgan ta'siri hamda rivojlanish omillarini tahlil qilish tarixshunoslik zimmasida. Tarixshunoslik va ushbu sohada amalga oshiriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini aynan tarix fanining holati, rivoji tahlili hamda istiqbolda o'rganilishi kerak bo'lgan mavzularni aniqlash ehtiyoji belgilaydi[9].

Zamonaviy tarixshunoslar jamiyatida ushbu fanning predmetini kengroq ma'noda, aynan fanlararo maydonda tushunish tendensiyasi rivojlanib bormoqda. Tarixshunoslik fan tarixi, madaniyat tarixi va ijtimoiy tarix fanlari oralig'ida tushuniladi. Shu sababli, faqatgina ilmiy bilimlarni ishlab chiqarishga emas, balki ularni o'zlashtirish va tarqatishga ham e'tibor qaratiladi. Hozirda tadqiqotchilar tarixshunoslikda muhit, xo'jalik, madaniy makon, ijtimoiy-madaniy an'ana, intellektual landshaft va intellektual diskurs kabi masalalarga ko'proq murojaat qilmoqda. Bunda tarixshunos nafaqat muayyan tarixiy ta'limot, shu bilan birga uning shaxsiy-individual qismi, yaratilish jarayoni, tarqalishi, ta'siri va taqdiriga ham qiziqadi.

So'nggi o'n yillikda fanda tayyor bilimgagina emas, balki unga erishish usullari va vositalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa, tabiiyki, o'z-o'zidan tarixchi shaxsini, uning laboratoriyasini o'rganishga undaydi.

Tarixshunoslik sohasi barcha ijtimoiy fanlar kabi o'z **funksiyalar**iga ega. Ular:

- bilish;
- nazariy-metodologik;
- bashorat qilish (prognostik) va h.k.

**Tarixshunoslikning bilish funksiyasi** ikki: quyi va yuqori darajada namoyon bo'ladi. Quyi darajasi tarixiy bilimlarning to'planish jarayonini aniqlash, ularni tizimlashtirish va tarixiy tahlilga tayyorlash bilan bog'liq bo'lsa, yuqori darajasi esa tarixshunoslikning ijodiy mexanizmini topish jarayonida namoyon bo'ladi.

**Nazariy-metodologik funksiyasi** tarixshunoslikning qonuniyati va qonunlarini hamda xolis bilimga erishish maqsadi uchun qo'llaniladigan tamoyil hamda usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Tarixshunoslik o'z asarlari bilan tarixiy voqyelik va tarixiy shaxslar, shu jumladan, tarixchi-olimlarni ham

[9] Заболотный В., Камынин В. К вопросу о функциях и месте историографических исследований в развитии исторической науки // Вестник Тюменского университета. Тюмень, 2004. №1.

ideallashtirishga qarshi chiqadi hamda ilmiy jarayonni xolis baholashga xizmat qiladi.

Bashorat qilish **(prognostik) funksiyasi** fanning istiqbolda rivojlanish yo'llari, tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muammolar va mavzularning doirasini aniqlashga yo'naltirilgan[10].

Ta'kidlash joizki, tarixshunoslik rivojlanish jarayonida yordamchi tarix fanlaridan tadqiqot predmeti va vazifalariga ega bo'lgan mustaqil fanga aylanib, uning funksiyalari doirasi muntazam kengayib bormoqda.

Tarixshunoslikning ***maqsadi*** tarix fanining rivojlanish qonuniyatlari, unga ta'sir ko'rsatgan omillar va tamoyillarini aniqlash, ilmiy tarixiy tafakkur vorisiyligi hamda konseptual yondashuvlar uzviy rivojini kuzatishdan iborat.

Tarixshunoslikning asosiy ijtimoiy ***vazifalari:***

- tarixiy bilimlarning to'planish jarayonini o'rganish va ularni tizimlashtirish;
- tarix fanining vujudga kelishi, shakllanishi va uning rivojiga ta'sir ko'rsatgan ob'yektiv shart-sharoit (davlat siyosati)ni yoritish;
- tarixiy nazariyalarning vujudga kelgan davrini falsafiy va siyosiy qarashlar bilan aloqasini o'rganish, turli konsepsiya hamda qarashlarning shakllanishi va tarix fanida turli oqimlar kurashi tarixini tadqiq etish;
- tarixiy tadqiqotlar muammolarining o'zgarishiga doir qonuniyatlari tahlil qilish;
- tarixiy manbalarni tahlil qilish texnikasining takomillashuvi va tarixiy tadqiqot usullarining rivojlanishi ko'rsatish;

shuningdek, tarixiy tadqiqotlar muammolarining *ilmiy-tashkiliy:*

- tarix fani rivojining har bir bosqichida holati, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish shakllarining tahlili, ilmiy-tarixiy muassasa va markazlar tarixi hamda ilmiy jamiyatlar faoliyatini yoritish;
- tarixiy bilimlarning tarqatilishi: ilmiy va ilmiy-ommabop davriy matbuotning holati, tarixiy nashrlar, o'quv adabiyotlari, ushbu komponentlarning tarix fani rivojidagi ahamiyatini;
- tarixchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi hamda tarix ta'limi takomillashuvi va uning tarix faniga ta'sirini;
- tarix fani kadrlari, malakasi va sohalar bo'yicha taqsimlanishi, tarixchi faoliyati (Tarixchi shaxsi va laboratoriyasi)ni o'rganishdan iborat.

Tarixshunoslik fani ham boshqa fanlar singari o'z tadqiqot ob'yekti va predmetiga ega. Tarixshunoslik fanining tadqiqot **ob'yektini** tarixiy (tarixshunoslik) manbasida mujassamlashgan, tadqiqotchilik konsepsiyasi shaklida aks etgan tarixiy bilimni o'rganish tashkil qilsa, uning **predmeti** – tarix

---

[10] Зевелев А. И. Историографическое исследование: методологические аспекты: Учеб. пособие для студ. вузов, обучающихся по спец. «История». М.: Высш. шк., 1987. 160 с.

fanida ma'lum muammoni tadqiq etish jarayonlari va natijalarini tahlil qilishdan iborat.

Tarixshunoslik predmetining kengayib borishi bevosita mazkur fanning muhim jihatlari va nazariy-metodologik tahlil imkoniyatlarining ortib borishiga bog'liq.

Tarixshunoslik, shuningdek, o'z fakti va manbalariga tayangan holda ish ko'radi. Tarixshunoslik **fakti** – tarixchining bir yoki bir nechta tadqiqoti orqali taqdim qilingan konsepsiyasi va qarashlari majmui, tarixshunoslik **manbasi** – monografiya, risola, maqola, taqriz va turli anjumanlarda qilingan ma'ruzalar ekanligini nazarda tutgan holda tahliliy faoliyatni amalga oshirish, ushbu tushunchalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish tarixshunoslikka oid tadqiqotlarning muhim shartlaridan biridir[11].

Tarixshunoslikka oid tadqiqotlarni amalga oshirishda tarix metodologiyasi va uning rivojlanish bosqichlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, mazkur tartiblar tarix fanining nazariy-metodologik asoslari va takomillashuvidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Bu o'rinda, tarix va tarixshunoslik metodologiyalarining o'zaro genetik aloqadorligini alohida qayd qilish zarur[12].

Metodologiya nazariy bilimga asoslangandagina tom ma'noda, ilmiylik kasb etadi. Bu esa metodologiya va nazariyaning o'zaro taqozodorligidan kelib chiqadi. Ilmiy bilimning rivojlangan shakli, qonuniylikni mantiqiy tushuntirish, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning umumlashmasi bo'lgan – nazariya bilishning metodologiyasisiz mavjud bo'la olmaydi. Nazariya va metodologiyaning o'zaro bir-birini boyitishi tarixshunoslikning metodologik jihatlarini tushunishda nihoyatda muhimdir.

Tarixshunoslik ma'lumotlarini umumlashtirish asosida erishilgan nazariy xulosa va qoidalar metodologik bilim to'plamiga kiradi. Fan rivojining tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday nazariya ma'lum dunyoqarash bilan bog'liq. Tadqiqotning nazariy jihatini metodologik jihatidan uzilishi, oxir-oqibatda, nazariyani dogmaga aylantiradi, chunki metodologiya nazariy bilimlarsiz mazkur fan tarixining bilish vazifalarini yetarli darajada hal qila olmaydi. Masalaning bunday qo'yilishi esa nazariy qoidalarning o'zlashtirilishi jarayonida metodologik funksiyalarni bajarishga o'tadi, deyishga asos bo'ladi.

Tarixshunoslikning ***ilmiy nazariyasi*** bir nechta xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- nisbatan mustaqil xarakterga ega bo'lgan tarixshunoslik nazariyasi, ayni paytda, umumtarixiy nazariyalar xarakteriga tobe;

---

[11] Муравьев В. История, исторический источник, историография, история исторического познания размышления о смысле современных исторических исследований / Рубеж истории: проблемы методологии и историографии исторических исследований. Тюмень, 1999.

[12] Qarang: Зевелев А. И. Историографическое исследование: методологические аспекты...

- u istiqboldagi tarixiy tadqiqotlar, yangi tarixiy nazariyalar, qarashlar va baholarni shakllantirishning dasturi, rag'batlantiruvchisi hamda o'ziga xos harakatga keltiruvchi murvati;
- u tarixshunoslikni bilishda yangi nazariy qurilmalarni asoslashning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu ma'noda, tarixshunoslik nazariyasini uning qo'llanilishi jarayonida tarixiy bilimga bo'lganidek, tarixshunoslikka ham amaliy ta'sir ko'rsatib, o'zining takomillashuvini qonuniy deb hisoblash mumkin.

Metodologiya ilmiy uslublarni jipslashtiradi va yo'naltiradi hamda ularning tarixshunoslikni bilishda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Metodologiyani ushbu umumiy maqsadining aniqlashtirilishi tarixiy tafakkur rivojida vorisiylikni o'rnatish; tarixshunoslikning asosiy faktlarini aniqlash mezonlarini belgilash; tarix fanining shakllanishi va rivojida tarixchi hamda uning asarlarini ob'yektiv hissasini qayd qilish; tarixshunoslik fakti va unga doir boshqa materiallarda umumiy, xususiy hamda yakkalikni bilish; ob'yektiv va sub'yektiv omillarga asoslangan holda davrlashtirish mezonlarini yaratish kabi metodologik vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan tamoyil hamda ko'rsatmalar tizimini ishlab chiqishida aks etadi.

Metodologiya tarixshunosning ilmiy tafakkuri rivojiga oid mavjud tajribasi va qarashlarning turlichaligi, ilmiy-tadqiqot usuli hamda vositalarini o'zlashtirishiga ulkan hissa qo'shadi.

Amalda tarixshunoslik metodologiyasi tadqiqotchilik tamoyillari tizimidan foydalangan holda (dunyoqarash, umumilmiy, tarixiy, tarixshunoslikning xususiy) tarixshunoslikning tadqiqotchilik jarayoni, tarixshunoslik ijodi va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi qarash hamda ko'rsatmalarni ishlab chiqadi.

*Metodologiyaning* muhim vazifalaridan yana biri – tarixshunoslik metodlarining xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. "Agar metodologiya bilishning bosh yo'li bo'lsa, metod bu yo'ldan qanday borishni aniqlaydi"[13]. Umumiy ko'rinishda metod insonlarning amaliy va bilish faoliyatida ma'lum natijalarga erishishlaridagi vosita, usul hamda quroldir.

Metodning (usul nazarda tutilmoqda) fan tarixidagi ahamiyati uning metodologiyani boyitishi va takomillashuviga ma'lum material berishi tufayli ortadi.

Usul tadqiqotchiga tanlangan mavzuni tadqiq qilishda yo'nalish beradi, bilish faoliyatini ratsionallashtiradi, uning samaradorligini ta'minlaydi, tadqiqotchi va undan oldingi olimlarning to'plagan fakt hamda ma'lumotlarini tizimlash va baholashga hissa qo'shadi. Bir so'z bilan ifodalaganda, metod o'rganilayotgan jarayon va hodisalar labirintida to'g'ri yo'l topishga yordam beradi. Usullar o'zgarmas birlik emas, ular ijodiy mazmuniga ega bo'lib, vaqt

---

[13] Петряев К. Д. Вопросы методологии исторической науки. 2-е изд., перераб. Киев, 1976. С. 19.

o'tgani sayin takomillashib boradi, ba'zilari iste'moldan chiqadi va o'rnini yangilarga bo'shatib beradi.

Ma'lumki, tarix faniga oid tadqiqotlarda umumilmiy usullarga tayanishi bilan bir paytda, o'z tadqiqot usullarini ham ishlab chiqqan. Tarix fani va tarixshunoslik orasidagi aloqadorlik tadqiqot usullaridan foydalanishda ham bu aloqadorlikni taqozo qiladi.

Tarixshunoslikka oid tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar tizimini quyidagicha tasniflash mumkin:

- tarixshunoslikning o'ziga xosligi va vazifalarini hisobga olgan holda qo'llaniladigan, barcha ijtimoiy fanlar uchun **umumiy** bo'lgan tadqiqot usullari;
- aynan tarixshunos bilishi uchun xos bo'lgan **maxsus** usullar;
- boshqa, avvalambor, yondash fanlardan o'zlashtirilgan va fanlararo tadqiqot usullari.

***Umumilmiy usullar*** tarixshunoslikda konkret qo'llanilganda, uning ilmiy apparatini to'ldirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilik usullari amaliyotda sof holda qo'llanilmaydi, ular bir-biri bilan uyqashadi. Shunisi aniqki, tarixshunoslikka oid tadqiqotlarda turli xil usullarni birikkan holida uchratish mumkin; fanning barcha sohalarida qo'llaniladigan umumilmiy usullar va ilmiy bilimning alohida jihatlarini o'rganishda universal-umumilmiy mazmun kasb etadi.

Tarixshunoslikda aynan unga tegishli ***tadqiqot usullari*** ma'lum ma'noda uning mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Tarix fanida qo'llaniladigan tarixiylik, xronologik, muammoviy-xronologik yondashuv, davrlashtirish va qiyosiy tahlil usullari tarixshunoslik tadqiqotida unga xos mazmun kasb etadi.

Tarixshunoslik tadqiqotida qo'llaniladigan unga ***xos bo'lgan usullar*** anchagina, ular: qiyosiy-tarixiy usul, konkret tahlil, mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, muammoviy xronologik tahlil, davrlashtirish usuli, retrospektiv usul, dolzarblashuv usuli, shuningdek, istiqbollashtirish vositasi, tizimli yondashuv va tahlil.

Tarixshunoslikda tarixiy qiyoslash va parallellar o'tqazish katta ahamiyat kasb etadi. ***Qiyosiy-tarixiy usul*** tarixshunoslikda eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi, bu uning tarixiylikdagi universal salohiyatni birlashtirganligi va tarix fani istiqbolini belgilashi bilan izohlanadi. Ushbu usul shunisi bilan muhimki, uning yordamida ilgari ma'lum bo'lmagan va o'rganilmagan tarixshunoslikka oid, ilmiy muomalaga kiritilgan va tarixshunos tomonidan yuqori baholangan dalillar bilan qiyoslanadi. Shuni ta'kidlash joizki, qiyoslashni ma'lum miqdorda bilimlar to'plangan va voqea hodisalarning turlicha o'rganilganida amalga oshirish mumkin. Qiyoslashning ilmiy qimmati asosan, qiyoslanayotgan tarixshunoslik faktlarini chuqur bilish va tahliliga bog'liq. Tarixshunoslikda ushbu usul uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tarixshunoslik faktlarini u vujudga kelgan tarixiy sharoit bilan bog'liqlikda

o'rganish, shuningdek, taraqqiyotning turli bosqichlarida undagi sifat o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi.

***Konkret tahlil*** tarixshunoslik fani rivojlanishi jarayonida bevosita u vujudga kelgan shart-sharoit va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'rganishni nazarda tutadi. Konkretlashtirish tarix fani rivojiga ta'sir ko'rsatgan aniq sabab va muammolar doirasining kengayishi, yangi mavzularning paydo bo'lishi, yangi g'oya, xulosa hamda umumlashmalarning vujudga kelishini izlab topishni anglatadi.

***Mantiqiy tahlil*** usulida mohiyatida tarixshunoslik tahlilining katta imkoniyatlari mujassamlashgan. Xususan, u tarixshunoslik faktining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish, ushbu usulning qo'llanilishi ilmiy bilimlar to'planish jarayonini kuzatib, tarix fani rivoji erishgan bosqichni xolis ilmiy tadqiq qilish imkonini beradi, natijada uning yordamida asosiy tarixshunoslik fakti aniqlanadi.

Mantiqiy tahlil sintezga o'tishdagi asosiy vosita bo'lib, to'plangan tarixiy bilimlar rivoji tajribasining nazariy mushohadasi orqali amalga oshadi. Tahlil va sintez dialektik o'zaro ta'siri, ularning uyg'unlashuvi mantiqiy tahlil qo'llanilishi samarasi bo'lib, tarix fanida to'plangan bilimlarga asoslanib, ilmiy tafakkur rivojining yaxlit manzarasini yaratish hamda uning rivojlanishi qonuniyatini aniqlash imkonini beradi.

Mantiqiy tahlilning yuqori bosqichi – dialektik sintez bosqichiga o'tilganda, ilmiy tafakkur rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarning tahliliy mushohadasi natijasida tarixiy tafakkurning mohiyati, muhim unsurlari va bosqichlari anglanadi. Ushbu bosqichda tarixshunosning nazariy-metodologik mushohada sohasidagi qobiliyati rivojlanadi.

***Xronologik usul*** – tarixshunoslik dalillarini ularning o'zaro bog'liqligi jarayoni nuqtai nazaridan o'rganilishiga imkon yaratib, bunda alohida bosqich va davrlar tarixiy bilimlarning to'planishi hamda chuqurlashuvini ob'yektiv qonuniyatlarini aniqlash maqsadida qiyoslanadi. Xronologik bayonning tarixshunoslikdagi ahamiyati ham aynan shunda. Bilimlarning tarixshunoslik sohasidagi predmetidan kelib chiqib, tarixiy tafakkur harakati konsepsiya, qarash va g'oyalarning o'zgarib borishi nuqtai nazaridan xronologik ketma-ketlikda kuzatiladi.

***Muammoviy xronologik usul*** keng va katta mavzularni bir qator tor qismlarga bo'lib, har birini ularning o'ziga doir tarixshunoslik faktlarini xronologik ketma-ketlikda o'rganishni ko'zda tutadi.

***Davrlashtirish usuli*** tarixshunoslikda ham tarix fanida bo'lganidek, tarixiy jarayonlarni davrlashtirishda muhim omil vazifasini o'taydi. Biroq, tarixshunoslikning o'ziga xos xususiyati bu – tadqiqotda davr va bosqichlarga bo'lish "tarixshunoslik vaqtining" har bir yangi bo'lagida ilmiy tafakkurning hal qiluvchi yo'nalishini aniqlash hamda tarixshunoslik qatlamlarining vujudga kelishini kuzatishdan iborat.

Tarixshunoslikni davrlashtirish mezonlari – tarix fanida ro‘y bergan sifat o‘zgarishlar, tarixiy ijod xarakteri va metodlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi ta’sirida uning tashkiliy shakllarining transformatsiyasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davrlashtirish xronologik va muammoviy xronologik usullar tadqiqot metodi bo‘lmay, materialni bayon qilish usuli hisoblanadi.

***Retrospektiv usul*** tadqiqotchining tafakkur harakati jarayonini hozirdan o‘tmishga qarab o‘rganadi. Fan rivojini ortga qaytgan holda tahlil qilish, hozirgi paytda saqlanib qolgan eskining unsurlarini o‘rganish va uning asosida tarixda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni tiklash. Ayni paytda, ushbu usul tarixiy tadqiqot xulosalarini tarixiy amaliyotning keyingi ma’lumotlari orqali tekshirishni ham nazarda tutadi.

Tarixshunoslikda retrospeksiya zamonaviy bilimlardan uning o‘tmishdagi holatini o‘rganish imkonini beradi. Tarixshunoslikda ushbu usuldan foydalanish fan rivojining hozirgi bosqichidagi baholash mezonlarini uning o‘tmishiga nisbatan qo‘llash degani emas. Zamonaviy tarix faniga qo‘yilayotgan talablardan kelib chiqib, uning rivojlanishi o‘tgan bosqichiga yondashish ham mumkin emas. Har qanday tarixiy asar o‘z zamonasiga tegishli ekani, davrning kuchli va kuchsiz jihatlari unda aks etganini yodda tutish kerak.

***Dolzarblashuv usuli*** ilmiy bilimlarning bugun va kelajak uchun qimmatini aniqlashni anglatadi. Ushbu usul mazkur fan tarixining yetakchi tamoyillarini aniqlash va ularning o‘tmishdan hozirga o‘zgarib borishi asosida istiqboldagi rivojining ilmiy prognozlarni belgilaydi. Ayni paytda tarixshunosga “tarix saboqlari”asosida keyingi faoliyati uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

***Bashorat qilish.*** Mazkur usul o‘zida o‘tmish va hozirni mujassamlashtirgan tarix fani mohiyatidan kelib chiqadi. Albatta, tarix fani kelajagiga nazar uning o‘tmish va zamonaviy tajribasidan xulosa chiqarib, fanning harakatlanish qonuniyatini o‘zlashtirish asnosida istiqboldagi rivojiga doir ilmiy prognozlarni taqdim qila bilishga bog‘liq. Istiqbolli yo‘nalishlar, mavzular va muammolarni aniqlash tadqiqotchilikning oldingi bosqichlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar darajasidan kelib chiqadi.

Tarixshunoslikda bashorat qilish fan rivojining o‘tgan bosqichlarini tahlil qilishga bog‘liq bo‘libgina qolmay: uning istiqbolli yo‘nalishlarini ayni davrning aniq vazifalari ham belgilaydi.

***Tizimli yondashuv va tahlil.*** Fanning imkoniyatlari asosida tarixshunoslikning umumiy rivoji ko‘rinishida alohida yoki bir nechta maxsus mavzu va muammolarning o‘rganilish holati hamda ularni aloqadorligining yetakchi unsurlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Ma’lumki, mazkur fan tarixiga uni tashkil etuvchi va o‘zaro aloqador unsurlar – tarixchining ijodi, ilmiy va



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

-10188-

ta'lim muassasalari faoliyati hamda davriy nashrlarda asarlar chop etilishining tizimi sifatida qaraladi.

Ushbu usullarning barchasi yoki bir nechtasini bir paytning o'zida tarixshunoslik tadqiqotini amalga oshirishda qo'llash mumkin. Tarixshunoslik tahlilida o'ziga xos, eng muhim prinsip bu – *qadriyatli yondashuvdir*. Uning yordamida o'rganilgan adabiyotlarning bugungi kun tarix fani uchun qimmatli va zaruriy jihatlari aniqlanadi hamda ayni paytda, tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishdagi vorisiylik ta'minlanadi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, tarixshunoslik tadqiqotlarida ushbu usullarni qo'llash bilan bir qatorda bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda fanlararo yondashuv usulidan ham foydalanish ham keng tus olmoqda[14]. Buning sababi, turli gumanitar va ijtimoiy fanlar tadqiqoti umumiy ob'yekti – o'z faoliyatining barcha ko'rinishlari misolida madaniyat mahsuli bo'lgan inson ekanligi. Inson tomonidan yaratilgan manbalarning tahlilchisi hisoblangan tarixshunoslik fani o'z navbatida, boshqa fanlar tadqiqot usullariga tayanishga haqlidir. Bunday tadqiqot usullariga misol tariqasida madaniy-antropologik, ijtimoiy ruhshunoslik (psixoanaliz), prosopografik va diskursiv tahlil usullarini ko'rsatish mumkin.

***Madaniy-antropologik usul*** – tarixshunoslik manbasi muallifining muammoni tanlashdagi yondashuvi va o'z nuqtai nazarini himoya qilishda argumentlar tanlashini ochib berishni ko'zda tutadi; ***ijtimoiy psixologiya (psixoanaliz) usuli*** – biografik asarlarni tahlil qilishda yetarlicha mahsuldor bo'lib, tarixiy shaxslarning ichki tuyg'ulari va hissiyotli tomonini yaxshiroq tushunish imkonini beradi; ***prosopografik usul*** – ("prosopon" grekcha – yuz; tarixiy shaxslar tavsifiga doir o'tmish haqidagi bilimlar sohasi) tarix fani tarixining tarkibiy qismi bo'lgan tarixchilar biografiyasini o'rganishda qo'llaniladi. Prosopografiya jamoaviy biografiya usuli sifatida tarix fani va yo'nalishlari rivojining ma'lum davrlarini o'rganishda foydali bo'lib, olimning hayot yo'li va tajribasining uning qarashlari shakllanishiga ta'sirini yaxshi ko'rsatadi; ***diskursiv tahlil usuli*** – tarixshunoslik manbasi, ilmiy tadqiqot natijalari mazmuni va tarixiy jarayonlar hamda voqealar rivojining ijtimoiy madaniy konteksti o'rtasida korrelyasiyani o'rnatishni nazarda tutadi[15].

Yuqorida keltirilgan tadqiqot usullari tarixshunoslikda qo'llaniladigan bilishning barcha ilmiy usullarini qamrab ololmaydi, biroq ular bir butun yaxlitlikda tarixshunoslik tadqiqotining poydevori bo'la oladi. Tarixshunoslikda metodlar o'z mazmuni va istiqbolda tarix fanida qo'llanishni o'zida aks ettirgan yangi bilimlarga erishishni anglatadi. Metodlar tarixshunos faoliyatini ratsionallashtiradi, uning tadqiqotchilik arsenali samaradorligini ta'minlaydi. Bu bilan tarixshunos ilmiy izlanishining metodologik yo'nalishi belgilanadi.

---

[14] Алимова Д. А. Историческая наука в контексте междисциплинарного синтеза и трансдисциплинарности: путь к полноценному исследованию // O'zbekiston tarixi. 2016. №3–4. С. 74–86.

[15] Камынин В. Д. Теоретические проблемы историографии как научной и учебной дисциплины на рубеже XX–XXI столетий / В. Д. Камынин // Известия Уральского государственного университета. 2010. № 3(78). С. 54-66.

Tarixshunoslik tadqiqotlarini amalga oshirishda muhim shartlardan biri uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi, ularda qo'lga kiritilgan natija va qo'llanilgan tadqiqot usullaridan foydalanish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, tarixshunoslikning tarixiy tadqiqotlar metodikasi va texnologiyalarini asosini o'rgatish vazifasi bilan izohlanadi. Manbashunoslik, arxivshunoslik, arxeografiya va yana bir qator nazariy-metodologik mazmundagi fanlar majmui bilan tarixshunoslikning yaqinligi ushbu shartlarni amalga oshirish imkonini beradi. Tarixshunoslikning mazkur fanlar bilan aloqasi birinchidan, uning ushbu fanlarning rivojlanish tarixini o'rganish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarixshunosning o'z amaliyotida ushbu fanlar tadqiqot usullaridan foydalanishi bilan asoslanadi.

Tarix metodologiyasi va uning rivojlanish bosqichlarini bilish esa, tarix fanining nazariy-metodologik asoslari hamda takomillashuvidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Aynan metodologik tamoyillarning qo'llanishi tarixshunoslik tadqiqotlarida bayoniylik, tarixiy adabiyotlarni qayd qilish, bibliografik sharh bilan cheklanish va mazmunini qaytarish kabi yondashuvdan qochishga imkon yaratadi. Chunonchi, tarixshunoslik tarixiy bibliografiyadan farqli o'laroq, adabiyotlarning bibliografik qaydi bilan emas, balki tarix fanining tarixi, ilmiy tafakkur rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Tarixshunos o'z tadqiqotida o'tmishni o'rganishning ma'lum bir metodologiyasini qo'llaydi va tarixiy adabiyotlarni baholashda unda yoritilgan tarixiy jarayonlar rivojiga oid o'z qarashlaridan xoli emas va shu asosda tarix fani tarixiga doir xolis tahliliy xulosalarini taqdim qiladi. Biroq, ma'lum bir metodologik yondashuv asosida yozilgan adabiyotni boshqa bir metodologik yondashuv asosida baholash to'g'ri bo'lmaydi va bu tarixshunosdan katta bilim, nazariy tayyorgarlik va xulosalarda xolislikni talab qiladi. O'z navbatida, tarixshunos tomonidan fanga oid tadqiqotning o'ziga xos tamoyillari va metodlarini o'zlashtirishi ham nihoyatda muhimdir. Tarixshunos mazkur fanga doir fakt va manbalar bilan ishlar ekan, bu o'rinda, ularning vujudga kelgan paytdagi tarixiy shart-sharoit, uning tarixchi dunyoqarashi va yondashuviga ko'rsatgan ta'siri hamda tarixchining mavzuni yoritishga qo'shgan hissasini baholashi, manbalardagi bugungi tarix fani uchun qimmatli bo'lgan jihatlarni aniqlay olishi kerak.

Tarixshunoslikning zamonaviy holati haqida gap ketganda, shuni ta'kidlash joizki, uning predmetini fanlararo maydonda tushunish tendensiyasi kuzatilmoqda. Tarixshunoslik madaniyat tarixi va ijtimoiy tarix qorishuvida mushohada qilinmoqda. Ushbu munosabat bilan ilmiy bilimning nafaqat vujudga kelishi, balki qo'llanilishi va yoyilishiga ham e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar madaniy muhit, ijtimoiy-madaniy an'ana, intellektual manzara va diskurs kabi kategoriyalarga murojaat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarixshunoslik amaliyoti tarixiy bilimlar haqqoniyligini aniqlaydigan vositalardan biridir. Aynan tarixshunoslik o'tmishni

o'rganish ilmiy amaliyotida qo'lga kiritilgan natijalarni yoritadigan va uning qadriyatli jihatlarini belgilaydigan fandir.

## Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligini o'rganish xususida

Yevroosiyo qit'asining kattagina qismini egallagan Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixining ildizlari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Uning uch qadimiy tamaddun – Old Osiyo, Hind va Xitoy orasida joylashganligi ancha vaqtlar oldin Markaziy Osiyoning tranzit xarakterini belgilab bergan: aynan mazkur mintaqa hududlaridan o'tgan Buyuk Ipak yo'lidan borgan savdo karvonlari madaniyatlar qorishuviga o'z ta'sirini o'tkazgan. Biroq, bu uning o'z taraqqiyot yo'lidan borishiga xalaqit bermagan. Er. avv. II mingyillikda Janubiy Turkmanistonda, er. avv. I mingyillikda esa O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i (Amudaryo va Sirdaryo)da ilk shaharlar vujudga kelgan va bu joylarda hayot qaynagan. Marg'iyona, Xorazm, Sug'd, Farg'ona va Baqtriyada dehqonchilik, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq rivojlangan. Ko'p mingyillar davomida ko'chmanchi va o'troq aholining Eron hamda Turon misolida sermahsul muloqotlari davom etgan. Markaziy Osiyoning qadim tarixidan ma'lumot beruvchi manbalar, arxeologik, epigrafik va numizmatik manbalar to'plana borgan.

Yangi erada "Xalqlarning Buyuk ko'chishi" ro'y berib, Eron madaniy landshafti turkiylar tomonidan asta-sekin surib chiqarildi, asrlar davomida mintaqaning ichki hududlaridan kelgan turk ko'chmanchilarining yangi to'lqini tufayli I–II asrlarda Markaziy Osiyo sahrolari "Dashti Qipchoq" nomini oldi.

Vaqt o'tishi bilan "turkiylar yashaydigan hududlar" "Turkiston" deb atala boshlandi, keyinchalik ushbu nom butun mintaqaga nisbatan qo'llanildi. Arab va forslar Markaziy Osiyoni xalifalik tarkibiga qo'shilganidan so'ng shunday atadilar hamda ushbu hududda islomlashtirish jarayonlari boshlandi. O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i "Movarounnahr" nomini oldi. Uning o'rta asrlar tarixidan ma'lumot beruvchi, sharq tillarida asosan, forsiyda ko'plab yozma manbalar yaratildi.

Ilk o'rta asrlarda mintaqaning madaniy markazlari Xorazm, Sug'd, Balx va nafaqat o'troq dehqonchilik va savdo, shu bilan birga, islom dini, madaniyat hamda san'at markaziga aylandi.

X asrga kelib Sug'dning asosiy shaharlari bo'lgan Samarqand va Buxoro Movarounnahrning eng muhim shaharlariga aylandi. Natijada, ushbu shaharlarda ko'plab arxitektura yodgorliklari qurildi, ilmu fan ravnaq topdi.

XIII asrda Movarounnahr va Dashti Qipchoq insoniyat tarixidagi yirik kontinental imperiya, ya'ni Buyuk mo'g'ul ulusi tarkibiga kirdi. U parchalanganidan so'ng mo'g'ul va turk turli davlatlarining tarkibiga o'tdi. Markaziy Osiyoda qudratli Temur davlatining vujudga kelishi bilan mo'g'ullar davri nihoyasiga yetdi.

Markaziy Osiyoning so'nggi o'rta asrlar davri mintaqaning iqtisodiy va madaniy tanazzuli bilan tavsiflanadi. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi bilan Buyuk ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Markaziy Osiyodagi davlatlar – Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari o'zaro urushlar natijasida siyosiy, iqtisodiy hamda harbiy jihatdan inqirozga yuz tutdi. Bu holat Rossiya imperiyasi tomonidan mazkur davlatlarni mustamlaka va protektoratga aylanishiga yo'l ochib berdi.

1924-yilda sovet hokimiyati tomonidan milliy-hududiy chegaralanish siyosati o'tkazilishi bilan SSSRning siyosiy-ma'muriy xaritasida Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari paydo bo'ldi. 1936-yildagi SSSR Konstitutsiyasiga binoan, ular ittifoqdosh respublikalar maqomini oldi. Sovet davlati parchalanganidan so'nggina 1991-yilda ular mustaqil bo'lib, 1993-yilda 4-yanvarda bo'lib o'tgan uchrashuvda esa o'zlarini O'rta Osiyo emas, balki Markaziy Osiyo respublikalari deb atashni taklif qildilar.

Insoniyat tamaddunida o'ziga xos o'ringa, boy tarix, moddiy va ma'naviy merosga ega bo'lgan ushbu mintaqa, tarixchi, sayyoh hamda turli tadqiqotchilar e'tiborini tortib keldi. Mahalliy tarixnavislar va saroy tarixchilari tomonidan ko'plab yozma manbalar misolida, o'z manfaati va maqsadini ko'zlab kelgan mustamlakachilar – sayyoh, olim, zobit va sharqshunoslar katta hajmdagi asarlar, shuningdek, sovet tarix fani ma'lum darajada ushbu mintaqa tarixiga doir ilmiy merosni qoldirdi. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan tarix fanida ham tub o'zgarishlar ro'y berib, yangi metodologiya va yondashuvlar asosida Markaziy Osiyo tarixiga doir qimmatli asarlar yaratildi.

Asrlar davomida Markaziy Osiyo va unga doir tarixiy bilimlarning to'planishi bilan yaratilgan katta hajmdagi yozma manba hamda ilmiy asarlar tahliliga ehtiyoj vujudga keldi. Ushbu nomoddiy merosni yaratilgan davri va muammolar yo'nalishi bo'yicha tahlil qilish asnosida unga doir yaxlit ilmiy manzarani chizish, o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar doirasini aniqlash, bo'lajak sharqshunoslarga "Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi" fani o'qitilishi hamda darsligini yaratilishiga turtki bo'ldi.

"Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi" predmetining ***maqsadi*** ushbu hudud tarixiga oid to'plangan bilimlar haqida axborot berish, talabalarda muhim tarixshunoslik konsepsiyalarini tahlil qilish malakasini o'zlashtirish, ushbu mavzuni tadqiq qilishda vatan va xorijiy yetakchi ilmiy maktablar tajribasini o'rganish hamda tarixiy tadqiqot usullaridan o'z faoliyatida foydalanishni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu fanning o'qitilishi jarayonida talabalar:

- tarix fani muvaffaqiyatlarini tanqidiy tahlil qilish, tadqiqotchilik va amaliy vazifalarni bajarishda yangi g'oyalarni qo'llash;
- zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda mustaqil ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish;

• tarixiy tadqiqotlarda jahon va Vatan tarixiga doir bazaviy bilimlar, manbashunoslik, maxsus tarix fanlari, tarixshunoslik hamda tarixiy tadqiqot usullari, tarix fani nazariyasi va metodologiyasidan foydalana olish yo'llarini o'zlashtiradi.

Shuningdek, talabalar mazkur fanni o'zlashtirish orqali, Markaziy Osiyo tarixiga doir bilimlarning rivojlanish bosqichlari, ushbu muammoni tadqiq qilgan asosiy tarixshunoslik maktablari faoliyati, tarixiy bilimlardagi konsepsiya va yondashuvlar, tarixiy tadqiqotlarni tarixshunoslik ilmiy metodologiyasi hamda usullari asosida tahlil qilish, tarixshunoslik faktlarni tizimlay bilish va bu orqali xulosalar chiqarishni o'rganadi.

"Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi" darsligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan.

Mazkur darslik Markaziy Osiy xalqlari tarixiga doir bilimlarning vujudga kelishidan to bugungi kunga qadar to'plangan tarixiy tadqiqotlardagi asosiy masalalarni o'rganilishi tahliliga bag'ishlangan. Ushbu hudud tarixini o'rganishdagi yondashuv, konsepsiya va tarixiy tafakkur evolyusiyasi tarix fanirivoji kontekstida yoritilgan. Darslik mazmuni va ushbu fan talabalardatarixiy, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir asarlarni tahliliy mushohada qilish

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarix fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarix fani bir qator muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi, ular haqida ma'lumot bering.
3. Manbashunoslik va tarixshunoslikning tarixiy tadqiqotlarda tutgan o'rnini izohlang.
4. "Tarixiy xotira", "tarixiy ong", "tarixiy bilimlar" deganda nimani tushunasiz?
5. Tarixshunoslik fanining tarixiy bilimlar tizimida tutgan o'rni haqida nimalar bilasiz?
6. Tarixshunoslikning bilish funksiyasi haqida ma'lumot bering.
7. Tarixshunoslikning nazariy-metodologik funksiyasi haqida nimalar bilasiz?
8. Tarixshunoslikning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
9. Tarixshunoslik fakti va manbasini izohlab bering.
10. Tarixshunoslikka oid tadqiqotlarni amalga oshirishda tarix metodologiyasi va uning rivojlanish bosqichlarini ahamiyatini izohlab bering.

11. Tarixshunoslar bilishi uchun xos bo'lgan maxsus usullar nimalardan iborat?

12. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligini o'rganish ahamiyatini tushuntirib bering.

# 2-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMGI DAVR TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Mintaqa tarixini yorituvchi eng qadimgi yozma manbalar, shu jumladan, "Avesto"ni o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Ahamoniylar, yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashlar tarixi yoritilgan forsiy, yunon hamda rim manbalari, ushbu davrdagi adabiyotlar sharhlanadi. Mazkur manbalardagi Markaziy Osiyo davlatlari, xalqlari va qabilalari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Zardushtiylik, "Авесто", Behistun yozuvlari, "Махабхарата", Gerodotning "Тарих", Diodorning "Тарихий кутубхона", Strabonning "География", Arrian Flaviyning "Александрнинг юришлари", Kvint Kursiy Rufning "Буюк Александр тарихи", Pompey Trogning "Филипп тарихи", Polibiyning "Умумий тарих", Ptolomey Klavdiyning "География", Yustinning "Помпей Трог епитоми" asarlari, xitoy yilnomalari, Sug'd tilida bitilgan yodgorliklar, "Хвадай намак", Al-Xorazmiyning "Китоб ат-тарих" ва "Китоб сурат ул-арз" asarlari "Худуд ул-олам", Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlarining qadimgi davr tarixi tarixshunosligi.*

## Markaziy Osiyo tarixiga oid qadimgi manba va yodgorliklar

Ma'lumki, Markaziy Osiyo[16] hududi qadimdan aholi zich yashagan tamaddunlardan biri bo'lib, mazkur mintaqa ko'plab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar kesishgan markaz hisoblangan. Ushbu hududda o'troq va ko'chmanchi tarzda hayot kechirgan ko'plab qabilalar, elatlar istiqomat qilib, qabilalar ittifoqi, shahar, davlatlarning paydo bo'lishi hamda shakllanishiga asos bo'lgan. Mazkur qabila va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti to'g'risida o'sha davrda bitilgan yozma yodgorliklar ma'lumot beradi. Turli hudud, davr va tilda bitilganganligiga qaramay, ushbu yozma yodgorliklar ma'lumotlarga boyligi bilan tarix fani uchun qimmatlidir.

Markaziy Osiyo madaniyati G'arb va Sharqning madaniy unsurlarini bir butunlikda uyg'unlashtirib, ifodalagan holda o'ziga xos individuallik kasb etadiki, ushbu xususiyat keyingi taraqqiyot uchun ham negiz bo'lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval, uning geografik o'rni va tabiiy vositalariga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Mazkur hududda serhosil vodiy va vohalar, sersuv daryolar, cho'llar, dasht va adirlar hamda tog'liklar yonma-yon joylashgan

[16] Darslikda "Markaziy Osiyo" va "O'rta Osiyo" atamalari o'zaro sinonim sifatida qo'llanilgan.

bo‘lib, ushbu xususiyat mahalliy qabila va elatlarning xo‘jalik tarzi, shuningdek, o‘ziga xos madaniyatlarining shakllanishi uchun imkoniyat yaratdi.

Bundan tashqari, ushbu mintaqa Eron, Hindiston, Xitoy, Kavkaz va shu kabi boshqa qo‘shni qadimiy sivilizatsiya makonlari bilan bevosita chegaradosh bo‘lib, Qadimgi Yunoniston va Rim bilan ham doimiy aloqa o‘rnatgan. Markaziy Osiyo hududi ushbu aloqalarda Sharq va G‘arb o‘rtasida vositachilik vazifasini bajarib kelgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududi orqali turli diniy qarashlar, moddiy va ma’naviy madaniyat yutuqlari boshqa mintaqalarga tarqaldi. Ma’lumki, ushbu mintaqada doimiy ravishda bosqinchilik yurishlari, xalqlarning ko‘chishlari, turli ittifoq, davlat va imperiyalarning vujudga kelishi hamda zavolga yuz tutishi sodir bo‘lib, mazkur omil Markaziy Osiyo xalqlari tarixi davomida bir necha bor mahalliy madaniyatni sezilarli o‘zgarishi, sinkretlashuvi va noyoblashuviga olib keldi. Bu haqdagi ko‘plab ma’lumotlarni eng qadimgi yozma yodgorliklarni o‘rganish va tahlil qilish orqali bilib olamiz.

## “Авесто” – O‘rta Osiyo tarixi haqidagi dastlabki yozma manba

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati to‘g‘risidagi bilimlarning bebaho manbasi – “Авесто” kitobi hisoblanadi. Mazkur manba dunyodagi eng qadimgi dinlardan bo‘lgan zardushtiylik tarafdorlari uchun muqaddas kitob hisoblanib, uni tarqalishida Zardusht o‘rni beqiyos. “Авесто” va uning matnlarini to‘planishi ko‘p asrlar davomida amalga oshirilgan. Zardusht ushbu dinning payg‘ambari va faol targ‘ibotchisi hisoblanib, taxminan mil. avv. VII–VI asrlarda dunyoga kelgan tarixiy shaxs hisoblangan[17]. Zardusht din peshvosi bo‘lish bilan birga, katta oila boshlig‘i ham edi. Zardusht o‘z ta’limotini Markaziy Osiyo va Eron hududlarida kezib tarqatadi hamda ko‘plab tarafdorlarni atrofiga to‘plashga muvaffaq bo‘ladi[18]. Uning ta’limoti umumiy hisobda yigirma bir nask (kitob)dan iborat bo‘lib, bizga qadar ulardan faqat beshtasigina yetib kelgan[19].

“Авесто” kitobining yaratilishi haqida turli fikrlar mavjud. Hozirgi kunda qadar ushbu mavzuda turli bahs va munozaralar davom etib kelmoqda. Bizgacha yetib kelgan “Avesto”ning saqlanib qolgan qismlari quyidagilardan iborat:

1. ***Yasna (Yasna)*** – boshqa qismlar orasida eng asosiylaridan biri. Ushbu qism o‘zida 72 bobdan iborat hot yoki gotlarlardan tashkil topgan. Uning eng qimmatlilari 28–34, 43–51, 53-boblar bo‘lib, unda Zardushtning Axuramazda (Axura Mazda)ga she’r-madhiyalari o‘rin olgan[20].

---

[17] Kingsley P. The Greek Origin of the Sixth-Century Dating of Zoroaster // Bulletin of the School of Oriental and African Studies, 1990. T. 53 (2). Pp. 245-265; Сулаймонов Р., Исхоқов М. Заратуштранинг ватани ва яшаган даврига оид мулоҳазалар // O‘zbekiston tarixi. 1999. №1. 45-53-бетлар.

[18] Frye R. N. Zoroastrians in Central Asia in Ancient Times // Journal of the K. R. Cama Oriental Institute, 1992. T. 58. Pp. 6-10.

[19] Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. Тошкент: Халқ мероси, 2001. 12-б.

[20] William M. “Yasna” / Encyclopaedia Iranica, online edition. New York, 2006. (www.iranicaonline.org.)

2. ***Vispered / Visparad (yoki Visprat)*** – “Yasna” qismiga qo‘shimcha madh va ibodat matnlaridan iborat bo‘lib, 24 bobni o‘z ichiga oladi[21].

3. ***Videvdat (yoki Vendidat)*** – “Devlarga qarshi qonunlar” bo‘lib, ushbu qismda yana turli ko‘rsatmalar, zulmat va yovuzlik xudosi Ahriman boshqaruvchi yomonlik kuchlariga qarshi turishga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan, 22 bobdan iborat[22].

4. ***Yasht*** – turli xudolarni sharaflovchi qadimgi madhlardan iborat bo‘lib, asosan, Axuramazda va boshqa yaztlarni madh etuvchi 22 qo‘shiq-gimnni o‘z ichiga oladi[23].

5. ***Xorda Avesto (ba’zan Xurtak Apastak)*** – “Kichik Avesto” sifatida tarjima qilinib, o‘rta fors tilida yozilgan va kundalik ibodat kalimalarini o‘z ichiga olgan. Unda qadimgi madhlardan ham turli parchalar keltirilgan[24].

6. ***Mayda qismlar*** – turli saqlanib qolmagan “Avesto” qismlaridan parcha sifatida yetib kelgan fragmentar kalimalardan iborat. Ulardan eng kattalari Nirangistan (pahlaviyda – Nīrangistān), Pursishnixa (pahlaviyda – Pursišnīhā), Aogemadaecha (pahlaviyda – Aogəmadāēčā), Xadoxt-nask (pahlaviyda – Hādōxt Nask), Afrin-i Zardusht (pahlaviyda – Āfrīn ī Zardušt), Vishtasp-yasht (pahlaviyda – Vištāsp Yašt)dir[25]. Keyinchalik ushbu izoh-tafsirlar bir kitobga jamlanib, “Zend Avesto” deb atalgan. Avestoshunoslarning bergan aniq ma’lumotlariga qaraganda, yodgorlikning bizgacha yetib kelgan qismi 8 million 300 ming kalimadan iborat[26].

O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, Zardushtiylik O‘rta Osiyo hamda Eron hududlarida ming yillar davomida hukmron din bo‘lib keldi va shubhasiz, ushbu din mahalliy xalqlarning ma’naviy qadriyatlarini shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

## Zardushtiylik va “Авесто” tarixshunosligi

Zardushtiylik va uning muqaddas kitobiga bo‘lgan qiziqish uzoq tarixga ega. Ushbu mavzu dunyo olimlarining diqqat-e’tiborida bo‘lib, uning tarixiga doir ko‘plab asarlar yaratilgan.

“Авесто” qo‘lyozmasining paydo bo‘lishi va bizgacha yetib kelishi tarixini kuzatadigan bo‘lsak, hozirgi kunda yo‘qolib ketgan asosiy nusxa “Сосонийлар архетипи” nomi bilan tanilgan. M. Boysning tadqiqotlariga ko‘ra, “Авесто” tilida saqlanib qolgan mavjud eng qadimgi qo‘lyozma milodiy 1323-

[21] Mills L. H. “Visparad” / ZA III: The Yasna, Visparad, Āfrīnagān, Gāhs and Miscellaneous Fragments, Sacred Books of the East. Vol. 31. Oxford: OUP, 1887.
[22] Kellens J. “Avesta” / Encyclopedia Iranica. 3. New York: Routledge & Kegan Paul, 1989. Pp. 35-44.
[23] Kellens J. “Avesta” / Encyclopedia Iranica. 3. New York: Routledge & Kegan Paul, 1989. Pp. 35-37.
[24] Boyce M. Textual Sources for the Study of Zoroastrianism. Manchester: MUP, 1984.
[25] Соколов С. Н. Язык Авесты. В кн.: ОИЯ. М., 1979. С. 134.
[26] Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. ... 15-б.

yildagi nusxadir[27]. "Авесто" matnlarining to'rtdan uch qismi, shu jumladan, noma'lum miqdordagi huquqiy, tarixiy va afsonaviy matnlar yo'qolgan.

Katta qismi makedoniyalik Aleksandr tomonidan yo'q qilinganiga qaramay[28], Sosoniylar davrida ushbu muqaddas kitob matnlarini tiklashga harakat qilindi. X. Xambach "Авесто" matnlarini saqlanish tarixini o'rganib, ushbu muqaddas kitobni saqlab qolishni Ardasher I Papakan[29] va uning bosh ruhoniysi Tansar boshlab bergan[30], degan o'rinli xulosaga keladi. Bu ishni Shopur II davridagi boshqa bosh ruhoniy Adurbad Mahraspandan davom ettirgan, faqatgina Xusrav I Anushervon[31] davri, ya'ni VI asrda o'z yakuniga yetdi.

Avestoshunoslikning keyingi tadrijiy taraqqiyoti o'rta asrlar davriga to'g'ri keladi. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар"[32] asarida "Авесто" haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan[33]. U Hindistonga qilgan safari hamda Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyati davomida "Авесто" tilini mukammal o'rganishga harakat qilgan.

Bundan tashqari, Beruniy davrida Xorazm tili tamoman o'lik tilga aylanmagan edi. Ba'zi tadqiqotchilar, xususan, Jalil Do'stxoh Beruniyning ayrim fikrlariga asoslanib, "Авесто"ning bizga noma'lum qismlari yoki o'sha qismlar mazmuni bilan tanish bo'lgan bo'lsa kerak", degan fikrni bildirgan edi[34].

"Авесто" haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan asarlardan yana biri Ma'sudiy (X asr)ning qalamiga mansub "Муруж аз-зиҳаб" ("Oltin vodiy")dir. Ushbu muallifning yozishicha, Aleksandr Istaxr shahrini bosib olgach, "Авесто"dagi tibbiyot, falsafa, riyoziyot va nujum ilmiga doir matnlarni yunon tiliga tarjima qilib, o'zini yoqib yuborishni buyurgan edi[35].

O'rta Osiyo hududiga Arab xalifaligi davrida islom dini va madaniyatining kirib kelishi natijasida zardushtiylik dini hamda uning saqlanib qolgan matnlari, otashxona va boshqa dinga tegishli ramzlar yo'q qilindi. Aholi orasida ham islomning qabul qilinishi bilan eski dinga ehtiyoj tobora yo'qolib borgan, bu esa zardushtiylik an'analarini yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan.

---

[27] Boyce M. Textual Sources for the Study of Zoroastrianism. Manchester: MUP, 1984. P. 1.

[28] Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts, Part I. Heidelberg: Winter, 1991. Pp. 52-53.

[29] Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков / Институт языкознания РАН. М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2000. Т. 1 (a-ā). С. 208.

[30] Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts, Part I. Heidelberg: Winter, 1991. Pp. 53-54.

[31] Расторгуева В. С. Этимологический словарь иранских языков / В. С. Расторгуева, Д. И. Эдельман. М.: Вост. лит., 2000. Т. 3: f-h., 2007. С. 417.

[32] Абу Райҳон Беруний. Ал-осорул-боқия ан-ал қарунул-ҳолия. Тошкент, 1969.

[33] Саидкулов Т. Урта Осиё тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. I қисм. Тошкент: Ўзбекистон, 1993. 9-10-бетлар.

[34] Дусимов З. Д., Тиллаева М. Б. Хоразм ономистикасининг шакллланиши ва "Авесто" . Тошкент: Фан, 2010. 14-б.

[35] Умарзода М. Овесто сирлари// Жаҳон адабиёти. 1997. №4. 196-б.

Natijada, o'rta asrlarda ushbu din va uning muqaddas kitobini o'rganishga oid ma'lumotlar deyarli uchraymaydi.

Ammo, shunga qaramay, Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixini o'rganishda "Авесто" muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki, "Авесто" faqatgina zardushtiylik dinining urf-odat va e'tiqodlari jamlangan muqaddas kitob bo'libgina qolmay, unda O'rta Osiyo hamda Eronning qadimgi tarixi, madaniyati va siyosiy tuzumi ham aks etgan. yer yuzidagi eng qadimgi dinlar, shu jumladan, zardushtiylik to'g'risida ham ilmiy-tadqiqotlar vujudga kelgan.

Sharqdan farqli ravishda, G'arbda "Авесто" yodgorligi bilan qiziqish davom etgan va ushbu jarayon XVII–XVIII asrlarda qayta shakllana boshlagan. Mazkur jarayonda Oksford universiteti va uning olimlari o'rni beqiyosdir. Tadqiqotlarning aynan ushbu ta'lim dargohida boshlanishiga sabab sifatida Hindiston va uning mahalliy madaniyatini o'rganilishi bilan bog'lash mumkin. Chunki, inglizlarning Hindistonga nisbatan siyosiy rejalari mavjud bo'lib, bu reja avvalo, hudud va uning xalqlarini chuqur tadqiq etishdan boshlangan. Natijada, mahalliy dinlardan biri sifatida Hind o'lkasida saqlanib qolgan zardushtiylik tadqiqotlari aynan shunday paydo bo'lgan edi.

Zardushtiylik va "Авесто"ni ilmiy jihatdan o'rgangan dastlabki olim Oksford universiteti professori T. Xayd[36] (1636–1703) hisoblanadi. Mazkur tadqiqotchi turli qadimgi forsiy manbalarini o'rganish natijasida 1700-yilda bo'lajak asarning qoralama nusxasini tayyorlagan edi, ammo uning ushbu tadqiqoti asossiz ravishda ko'plab tanqidlarga uchradi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, ya'ni 1760-yilda uning tadqiqoti to'liq kitob holida qayta chop etiladi va bu safar kitob unga ancha mashhurlik keltiradi[37].

1728-yilda ingliz olimi Jorj Bauje "Авесто"ning bir necha qismi qo'lyozmalarini Janubiy Hindistondagi zardushtiy ulamolardan qo'lga kiritib, Oksford kolleji kutubxonasiga topshiradi[38]. Bu ham Oksfordda ushbu kitobni tadqiqotiga turtki beradi.

Shunday so'ng 20–30-yil davomida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar to'xtab qoldi, ammo XVIII asrning 60–70-yillarida zardushtiylikka doir ilmiy izlanishlar qayta tiklandi. Ushbu bosqichning shakllanishida fransuz olimi A. Anketil-Dyuperron[39] (1731–1805)ning[40] xizmati beqiyos.

---

[36] Tomas Xayd – avval Eton kollejida, so'ng Kembrijdagi Qirollik kollejida o'qigan. U yerda arab tili professori Avraam Uilk rahbarligida u sharq tillari o'rgandi. 1658-yilda u Oksforddagi Qirollik Kollejida ibroniy tilining o'qituvchisi sifatida ishga olingan va 1659-yilda sharq tillari bo'yicha magistr darajasiga oldi. 1691-yilda Xayd arab tili professori unvonini olgan. Charlz II, Jeyms II va Vilgelm III davrlarida sharqiy tillarning tarjimoni bo'lib ishlagan. U 1703-yil 18-fevralda Oksfordda 66 yoshida vafot etdi.

[37] Hyde Th. Veterum Persarum et Parthorum et Medorum religionis historia. Oxonu, 1760. 580 p.

[38] Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. ... 18-б.

[39] Anketil-Dyuperron – Parijda tug'ilgan. U Parij, Oser va Amersfortda ruhoniylikka o'qigan, ammo ibroniy, arab, fors hamda boshqa sharqiy tillarga qiziqishi uni o'zini butunlay Shu sohaga qaratishiga sabab bo'lgan. U "Avesto"ning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan "Vendidad" ning ba'zi qismlariga qiziqib qoldi va Zardushtning boshqa yozuvlarini kashf qilish uchun Hindistonga sayohat qilishni rejalashtirdi. 1763-yilda Anketil-Dyuperron Yozuvlar akademiyasining a'zosi etib saylandi. 1771-yilda u "Zend-Avesto" ni 3 jildda nashr etdi. 1778-yilda

U 1755-yilda fransuzlarning "Ost-Indiya" kompaniyasi ruxsati bilan Hindistonga keladi. Avvalo, u qadimgi va o'rta fors hamda sankskrit tillarini puxta o'rganib, 1758-yilda Surat shahriga keladi va ushbu hududda yashovchi zardushtiylardan "Авесто" tilini o'rganadi. 1761-yilda Angliya, 1762-yilda esa Parijga qaytib keladi. U o'zi bilan 108 ta noyob qo'lyozmalar va turli qadimiy bitiklar olib keladi[41]. 1763-yilda tadqiqotchi Fanlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilinadi. Faoliyati va tadqiqotlari natijasida 1771-yilda uch tomdan iborat "Зенд Авесто" kitobini nashr ettiradi[42]. Shundan so'ng zardushtiylikning asl ma'nosi va maqsadini aniqlashga qaratilgan turli munozaralar boshlanib ketadi. Garchi, Dyuperron tadqiqoti va tarjimasi atrofida ko'p munozaralar-u bahslar bo'lsa-da, oxir-oqibatda, uni avestoshunoslikning "kashshofi" sifatida tan oladilar[43].

Anketil-Dyuperronning tadqiqoti natijasida G'arb sharqshunoslari "Авесто"ni o'rganishga jiddiy kirishadi. Tadqiqotlar turli Yevropa davlatlarida bir davrda boshlanadi. Endilikda deyarli barcha avestoshunoslar Dyuperron mehnatini e'tirof etib, uning matniga suyana boshladilar. Jumladan, Silvestr De Sasi (1758–1838), Tixsen (1734–1815)[44], Uilyam Jonc (1746–1794)[45] va boshqalar Zardushtni insoniyat beshigidagi birinchi shoir, voiz hamda faylasuf sifatida baholaydi va uni ilm olamiga tanishtirishda A. Dyuperronning xizmati katta ekanligini alohida qayd etadi[46]. Masalan, fors, semit va eroniy tillar bilimdoni bo'lgan Silvestr De Sasi[47] Sosoniylar davrida "Авесто"ning pahlaviy tilida yozilgan matnlarini o'rganib, uning pahlaviy tilidagi sharhlari bilan tanishgach, Dyuperron mehnatini yuqori baholaydi[48].

---

olim Amsterdamda o'zining "Sharq qonunchiligi" asarini nashr etdi. 1798-yilda u Gamburgda "L'Inde en rapport avec l'Europe" kitobini 2 jildda nashr etdi. 1801-1802 yillarda fors tilidan lotin tiliga tarjima qilingan hindlarning muqaddas kitoblari bo'lgan Upanishadlardan ko'chirmalar nashr etildi. Milliy institut tashkil etilganda, Anketil-Dyuperron uning fahriy a'zosi sifatida saylandi. U 1805-yil 17-yanvarda Parijda vafot etgan.

40 Анкетиль-Дюперрон, Абрам Ясент // Энциклопедический словарь / под ред. И. Е. Андреевский. СПб.: Брокгауз – Ефрон, 1890. Т. Ia. С. 789.

41 Kanga K. E. Extracts from the narrative of Anquetil du Perron's travels in India. Bombay, 1876. P. 7.

42 Anquetil-Duperron A. Zend-Avesta, ouvrage de Zoroastre, contenant les idées théologiques, physiques & morales de ce législateur, les cérémonies du culte religieux qu'il a établi, & plusieurs traits importans relatifs à l'ancienne histoire des Parses, volume 1. Paris, 1771.

43 Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. ... 19-б.

44 Klenz H. Tychsen, Oluf Gerhard. In: Allgemeine Deutsche Biographie (ADB). Band 39, Duncker & Humblot. Leipzig 1895, S. 38-51.

45 Cannon G. H. The Life and Mind of Oriental Jones: Sir William Jones, the Father of Modern Linguistics. Cambridge University Press, 2006.

46 Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. ... 19-б.

47 Silvestr de Sasi – 1758-yilda Parijda tug'ilgan. Zodagonlar oilasidan bo'lgan, 1781-yilda u zarbxona boshlig'i maslahatchisi, 1791-yilda esa zarbxona bosh komissari etib tayinlangan. U asosiy ishi bilan parallel ravishda Sosoniylar sulolasining Pahlaviylar davriga oid Eron yozuvlarini o'rgangan. 1795-yilda yangi tashkil etilgan Sharq tillari maktabining arab tili professori bo'ldi. Sasi poliglot edi - u gapirgan tillar orasida ibroniy, suryoniy, samariya, xaldey, arab, o'rta va yangi fors, usmonli turk, ingliz, nemis, italyan va ispan tillari bor edi. 1806-yildan boshlab u fors tili professori sifatida ham faoliyat olib borgan. 1832-yildan u Yozuv akademiyasining kotibi, 1808-yilda qonunchilik korpusi deputati, 1813-yilda baron, 1832-yilda esa Fransiya peri unvonlarini olgan. 1815-yildan - Parij universiteti rektori sifatida faoliyat olib borgan. Sesi Jan-Fransua Shampolon, Jyul fon Mol va Lui Jak Brenelarning ustozi bo'lgan.

48 Саси, Антуан-Исаак // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

Avestoshunoslik tarixshunosligida 1820-yilda J. Rode (1762–1827) tomonidan nashr etilgan “Бақтрияликлар, мидияликлар ва форслар ёки зенд халқлари” nomli asari muhim bo‘lib, o‘sha davr diniy qarashlarini ochib berishda “Авесто” haqida ham qisman ma’lumotlar keltirilgan[49].

Nemis olimlari J. Rode va E. Rask tomonidan XIX asr boshlarida amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar bir tomondan, zardushtiylik dinining katta mintaqani qamrab olgani, haqiqatdan ham yakkaxudolikka asoslangan e’tiqod ekanligi keng tahlil etilsa, ikkinchi tomondan, yodgorlik tilining grammatik xususiyatlari ilk bor ilmiy jihatdan xiyla puxta tekshiriladi. Jumladan, filolog olim H. Homidovning yozishicha, keyinchalik tilshunoslardan Bopp, Jolli, Garda va Jakinalarning turli hajmdagi kitoblari nashr etildiki, ularda “Авесто” tilining fonetik, leksik va morfologik jihatlari u yoki bu darajada o‘rganilgan[50].

Avestoshunoslik atrofidagi vaziyat XIX asr o‘rtalaridan tubdan o‘zgara boshladi. Endilikda zardushtiylik dini ekzotik, ya’ni noyob din sifatida emas, balki o‘z chuqur falsafasiga ega bo‘lgan hamda o‘z davri uchun muhim bo‘lgan dinlardan biri, deb baholana boshlandi. Natijada, tadqiqot doirasiga tilshunos va sharqshunoslardan tashqari, endi faylasuflar ham kirib kela boshladi.

XIX asrda “Авесто” va zardushtiylik ta’limoti G‘arb faylasuflarining diqqatini o‘ziga jalb etadi. H. Homidov ular qatoriga G. Ritterning 12 jildlik “Фалсафа тарихи”[51], Kechelning bir qator maqola va nutqlaridagi “Авесто” sharhlarini kiritgan[52].

XIX asrning o‘rtalarida ijod qilgan fransuz olimi E. Byurnuf[53] (1801–1852) va nemis olimi M. Xaug[54] (1827–1876) ilmiy faoliyati ushbu yo‘nalishni rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. “Авесто”shunoslik tarixida E. Byurnufning 1833–1835-yillarda nashr etilgan “Яснага шарҳ” lar kitobi[55] yangi bir bosqich hisoblanadi. U. A. Anketil-Dyuperron ishini davom ettirib, “Авесто” tilining leksik va grammatik xususiyatlarini puxta o‘rganadi hamda Behistun va

---

49 Rhode J. G. Die heilige Sage und das gesammte Religionssystem der alten Baktrer, Meder und Perser oder das Zendfolks. Frankfurt am M., 1820. 545 p.

50 Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. ... 19-20-бетлар.

51 Риттер Г. История философии древних времен / Соч. Генриха Риттера экстра орд. проф. Берлин. ун-та. Спб.: тип. Ильи Глазунова и К°, 1839. Ч. 1. XXIV. 584 с.

52 Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. ... 20-б.

53 Ejen Byurnuf – Parijda tug‘ilgan. Uning otasi, professor Jan-Lui Byurnuf (1775–1844), taniqli mumtoz tillari olimi vaTatsitning (6 jild, 1827–1833) tarjimasining muallifi edi. Ejen sanskrit tilini A.L. Shezi, Shuningdek, xitoy tilini A. Remuzdan o‘rgangan. 1826 va 1827-yillarda Ejen Byurnuf pali tiliga oid ikkita asarini nashr etdi. Keyin u Anketil-Dyuperron tomonidan Fransiyaga olib kelingan Avesto qo‘lyozmalarini tadqiq qila boshladi. Uning tadqiqotlari tufayli Yevropa ilmiy jamoatchiligi birinchi marta Avesto tili bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. U 1829-1843-yillarda “Вендидад Саде” kitobini qo‘lga kiritdi. 1833-yildan 1835-yilgacha u Yasna qismi haqidagi o‘z sharhini nashr etdi. Xuddi Shu davrda Ejen qadimgi fors mixxati yozuvlarini ochishda muhim hissa qo‘shgan. Uning so‘nggi asarlari “Ҳинд буддизми тарихига кириш” (1844) va Lotus Sutrasining tarjimasi (1852) hisoblanadi. Yigirma yil davomida u Yozuvlar va adabiyot akademiyasining fahriy a’zosi va Frans kollejida sanskrit tili professori bo‘lib faoliyat olib borgan.

54 Haug M. Outline of a grammar of the Zend language. Bombay, 1862. 79 p.; Shu muallif. A lecture on an original speech of Zoroaster. L., 1865. 27 p.; Shu muallif. Essays on the sacred language, writings and religion of the Parsis. Amsterdam, 1971. 427 p.

55 Burnouf E. Commentaire sur le Yasna. P., 1833. 592 p.

Persepol bitiklarida yozilgan til bilan qadimgi hind Vedalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qiladi. Natijada, bu olim yodgorlik leksik qatlamini aniqlashda yangi bir bosqichni boshlab beradi[56]. Nemis sharqshunosi M. Xaug[57] esa Hot (Gat/Gax)larni Avestoning asosiy qismidan ajratib, ularni o'rtasida umumiy jihatlarni tartiblab bergani bilan fanda tanilgan. Ayniqsa, M. Xaugning "Авесто"ni tanqidiy matnlari ustida olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

"Авесто"shunoslikning rivojlanib borishi va turli Yevropa ilmiy markazlaridagi tadqiqot natijalari XIX asrning o'rtalarida "Авесто"ni o'rganishda ikki qarama-qarshi yo'nalishni hosil qildi: 1) an'anaviy yo'nalish bo'lib, uning tarafdorlari o'rta fors tilidagi manbalar va zardushtiylik bitiklariga tayanadi (F. Shpigel[58], F. Yusti[59] va b.); 2) qiyosiy-tarixiy yo'nalish esa qadimgi hind manbalar bilan "Авесто" tilini lingvistik qiyoslash orqali o'z xulosalarini berib boradi (Rot va b)[60].

G'arbiy Yevropada "Авесто"ni o'rganish va uning tarqalishiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri M. Myullerdir[61]. Oksford universitetining professori M. Myuller[62] (1823–1900) tarix, qiyosiy mifologiya va tilshunoslik, dinshunoslik hamda hind adabiyoti bo'yicha ko'plab tadqiqotlarning muallifidir. Xususan, mazkur tadqiqotchi "oriylar"ning kelib chiqishi[63], dunyo bo'yicha ko'chishi va tarqalishi tarixi bo'yicha muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan kam sonli mutaxassislardan biridir. 1874–1904-yillarda Myullerning tashabbusi hamda shaxsiy ishtiroki bilan ingliz tilida 49 tomlik "Sharqning muqaddas kitoblari" nashr qilindi. Shu silsilaning 1, 5, 23, 31-jildlari "Авесто" matnlari

---

56 Ҳомидов Х. "Авесто" файзлари. ... 20 -б.

57 Martin Xaug – Ostdorf (Germaniya)da tug'ilgan. 1848-yilda u Tyubingen universitetiga o'qishga kirdi va u yerda sharq tillari, ayniqsa sanskrit tilini yaxshi o'rgangan. Keyinchalik u Gottingen universitetida ma'ruzalarda qatnashdi va 1854-yilda Bonn universitetida dotsent lavozimiga ishga joylashdi. 1856-yilda u Heydelberg universitetiga o'tdi. 1859-yilda u Hindistonga borish taklifini qabul qildi va u yerda Punadagi universitetda sanskrit tilining professori bo'lib faoliyat olib bordi. Bu yerda uning Zend tili va adabiyoti bilan tanishishi unga adabiyotning ushbu sohasidagi bilimlarini kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. 1866-yilda u Shtutgartga qaytib, keyinchalik Myunxenga sanskrit va qiyosiy filologiya professori sifatida 1868-yilda chaqirilgan. XX asrning boshlarida butun Hindistonda ishlatilgan Bhandarkarning taniqli sanskritcha kitoblarining tuzilishini dastlab doktor Xaug yaratgandir.

58 Spiegel F. Studien uber das Zendavesta. ZDMG, 9, 1855. Pp. 174–192.; Shu muallif. Bemerkungen über einige Stellen des Avesta. ZDMG, 17, 1863. Pp. 48-74.; Shu muallif. Uber das Leben Zarathustras. SBAW, 1, 1867. Pp. 1–92.

59 Justi F. Mistellen zur iranischen Namenkunde. ZDMG, 49, 1895. Pp. 681-690; Shu muallif. Die älteste iranische Religion und ihr Stifter Zarathushtra. Preussische Jahrbücher, 88, 1897. Pp. 55-86, 231-261.

60 Меликов Р. Об Авесте и истории её изучения // Труды научной конференции. Баку: Илм, 2004. С. 57-58

61 Maks Myuller – shoir Vilgelm Myuller oilasida Dessau shahrida (Germaniya) 1823-yilda tug'ilgan. 1836-yildan u Leysig maktabiga, 1841-yilda mahalliy universitetga kirib, u erda klassik tillar, psixologiya va antropologiyani o'rgangan. 1848-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi, ammo o'qishni yana davom ettirishni lozim topdi. Berlin va Parijda filologiya, falsafa, sanskrit va sharq dinlarini chuqur o'rgangan.

62 Müller M. A History of Ancient Sanskrit Literature So Far as it Illustrates the Primitive Religion of the Brahmans. Williams and Norgate, 1859.

63 Muller M. Natural religion; the Gifford lectures delivered before the University of Glasgow in 1888. London, New York: Longmans, Green, and Co., 1889. 642 p.

hisoblanadi. Ulardan "Вендидод", "Зенд Авесто"ning bir qismini (1-tom, 1880; 33-tom, 1883) Dj. Darmsteter tarjima qilgan[64].

"Авесто"ni o'rganishning keyingi bosqichi fransuz olimi Dj. Darmsteter[65] (1849–1894) nomi bilan bog'liq. U Oliy tadqiqotlar maktabida ustozi M. Breal (1832–1915) qiyosiy lingvistika va A. Bergendan sanskrit tilini puxta o'rgandi. Natijada, u "Avesto" va zend matnlarini tarjima ishlarini boshlab yuborgan. U 1892–1893-yillarda 3 tomdan iborat bo'lgan "Зенд Авесто" kitobini o'zining filologik sharhlari bilan chop ettirdi[66]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, J. Darmsteter "Авесто" ning mavjud kitoblari tanqidiy matnini tuzish, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilishdan tashqari, yodgorlikning adabiy qiymati xususidagi bir qancha tadqiqotlar muallifi hamdir.

XIX asr oxirlariga kelib yuqorida tilga olingan ikki yo'nalishdan tashqari uchinchi yo'nalish vakillari, ya'ni ikkala yondashuvni hisobga olgan tadqiqotchilar guruhi shakllandi. Ular qatoriga K. Geldner[67], J. Darmsteter[68], X. Xyubshman[69], A. Vilyams Djekson[70], V. Geyger[71] va boshqalarni kiritish mumkin.

XX asrda ham avestoshunoslik fani rivojlandi. Orientalistikaga bo'lgan qiziqishning ortishi, manbaviy asoslar va fundamental asarlarning yaratilishi bu soha taraqqiyotiga yo'l ochib berdi. Bu davrdagi mashhur tadqiqotchilardan biri bu X. Bartolome[72] (1855–1925) bo'lib, gap shundaki, mazkur olim "Авесто" tarjimalari, asl matni va u haqidagi tadqiqotlarni 30 yil davomida o'rganib chiqadi, pahlaviy va yodgorlik tilini puxta o'zlashtiradi, "Авесто" tili xususida bir qancha maqolalar yozadi, ma'ruzalar qiladi. Va nihoyat, 1878-yilda

---

[64] Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. ... 21-б.

[65] Djeym Darmsteter – Lotaringiyadagi Chateau-Salen shahrida yahudiy oilasida tug'ilgan. U Parijda tahsil olgan, u erda Mishel Breal va Abel Bergen rahbarligida sharqShunoslikka muhabbat paydo bo'lgan. 1875-yilda u "Авесто" mifologiyasiga bag'ishlangan dissertatsiya himoya qildi. 1877-yilda u Oliy maktabning fors tili o'qituvchisi bo'lib ishlay boshladi. U "Études iraniennes" (1883), o'n yildan so'ng esa Avesto va unga aloqador Zendning to'liq tarjimasini o'zining tarixiy va filologik sharhlari bilan nashr etdi (Zend Avesto, 3 jild, 1892–1893-yy.). Shuningdek, u Maks Myuller tomonidan nashr etilgan "Шаркнинг мукаддас китоблари" turkumidagi "Авесто" ni tahrir qilgan (4 va 23-jildlar).

[66] Darmesteter J. Alexandre le Grand dans le Zend-Avesta. REJ. V, 1892. Pp. 189–196.

[67] Geldner K. F. Avesta - Die heiligen Bücher der Parsen (3 vols.). Stuttgart, 1885-1895; Shu muallif. Avesta, the Sacred Books of the Parsis (3 vols.). Stuttgart, 1896, 1891 and 1896.

[68] Darmesteter J. Fragment d'un commentaire sur le Vendidad. JA, 1883. Pp. 101-122.

[69] Hübschmann H. «Persische Studien». Strassburg, 1895.

[70] Williams Jackson A. Zoroaster, the Prophet of Ancient Iran. New York, 1898.

[71] Geiger W. Vaterland und Zeitalter des Awesta und seiner Kultur. Sitz. der phil.-hist. Classe,3 Mai 1884.; O'sha muallif. The Age of the Avesta and Zoroaster, co-authored with Friedrich Spiegel, translated into English by Darab Dastur Peshotan Sanjana. London, 1886.

[72] Xristian Bartolome – Germaniyada tug'ilgan. 1872–1877-yillarda Myunxen universiteti, Erlangen universiteti va Leypsig universitetlarida filologiya bo'yicha tahsil olgan. Bartolome asosan G. Xyubshman va F. Shpigeldan ta'lim olgan. 1877-yilda Leysigda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1879-yilda u Halle-Vittenberg universitetida o'qituvchi, 1884 yilda sanskrit va hind-yevropa tilshunosligi bo'yicha dotsent unvoniga ega bo'ldi. 1885-yilda u Myunsterda professor bo'lib ishladi. 1889-yilda Gissen universiteti hind-yevropa tilshunosligi professori, keyin Strasburg universitetida xuddi Shu lavozimda ishlagan. 1909-yildan 1924-yilgacha Geydelberg universitetida dars bergan. Shuningdek, olim Gessendagi Rossiya imperatorlik akademiyasining a'zosi va 1904-yildan Rossiya Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, 1909-yilda esa Geydelberg Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosiga aylangan.

"Qadimgi Eron tili lug'ati"ni chop ettiradi[73]. Hot (Gat)larning tarjimasini yaratadi. X. Bartolome lug'atidan foydalanib F. Volf "Авесто"ni mukammal tarjima qiladi va u 1910-yilda Strasburgda chop etiladi[74]. Keyingi yillardagi barcha avestoshunoslar o'z tadqiqotlarida ana shu ikki manbaga asoslanmoqda.

X. Bartolomening "lug'ati" "Авесто" va uning tilini o'rganishdagi dadil bir qadam edi. A. Makovelskiyning ta'kidlashicha, Andreas ushbu "lug'at"ni tanqid qilib chiqqan. Adreasning fikricha, mavjud "Авесто" matnlari qadimiy "Авесто" tilida emas, balki oromiy yozuvida yozilgan, shu sababli ularni qadimiy deyish nojoiz[75].

XX asrdagi mashhur avestoshunoslardan London universiteti professori Meri Boys[76] (1920–2006) Eron tarixi va madaniyatiga oid asarlar bilan zardushtiylikning o'rta asrlar hamda yangi davrdagi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Uning Hindistonga qiziqishi oilasi tufayli paydo bo'lgan edi, chunki uning otasi Kalkutta shahrida sudya bo'lib ishlagan. M. Boys 1952-yilda Kembrijning Nyunxem kollejida dissertatsiyasini himoya qilgan.

Shu davrdan boshlab uning hayoti to'liq zardushtiylarni o'rganishga bag'ishlangan. M. Boys 1963–1964-yillarda Yazd vodiysining shimolida 24 ta qishloqlarda olib borgan dala-qazilma ishlari vaqtida zardushtiylarning e'tiqodlari va rasm-rusumlarini o'rgandi. Yuqoridagi ishlari natijasida olim 4 jilddan iborat "Зардуштийлик тарихи"[77] nomli yirik ilmiy asarini tayyorladi va qisman nashr etdi. Shuningdek, bu olimni zardushtiylikning vujudga kelish davri haqida fikrlari ham munozaralidir. Uning qarashlarini rossiyalik etnolog va tarixchi olim V. Shnirelman oriylar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotida atroflicha tadqiq qilgan[78]. M. Boys haqida turli taniqli gazeta va jurnallarda ham maqolalar chop etilgan[79].

Rossiyada ham avestoshunoslik o'zining boy an'analariga ega. Mazkur mamlakatda "Авесто"ni o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Dastlabki rus tilida bajarilgan mukammal asar sifatida K. A. Kossovichning ishlari tan olinadi[80]. Shuningdek V. V. Bartold[81], K. G. Zaleman,

---

[73] Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. Strassburg, 1904, 2000 col.

[74] Avesta. die heiligen Bücher der Parsen. Übers. auf der Grundlage von Chr. Bartholomae's altiranischem Worterbuch von Fritz Wolff. Strassburg: K.J. Trubner, 1910. 460 p.

[75] Маковельский А.О. Авесто. Баку: АН Азербайджанской ССР, 1960. С. 9-10.

[76] Boys M. A History of Zoroastrianism, Vol. 1 (Handbuch der Orientalistik Series). Leiden: Brill; Repr. 1996 as A History of Zoroastrianism: Vol 1, The Early Period.

[77] Boys M. A History of Zoroastrianism, Vol. 2 (Handbuch der Orientalistik Series). Leiden: Brill Publishers. Repr. 1996 as «A History of Zoroastrianism: Vol 2, Under the Achaemenians»; Shu muallif. A History of Zoroastrianism: Vol. 3, Zoroastrianism Under Macedonian and Roman Rule (Handbuch der Orientalistik Series). With Frantz Grenet. Leiden: Brill Publishers.

[78] Шнирельман В. А. Арийский миф в современном мире. М.: Новое литературное обозрение, 2015. Т. 1. 536 с.

[79] Bivar A. D. H. Professor Mary Boyce, The Times, 13 April 2006; Albert de Jong, Professor Mary Boyce, The Independent, 28 April 2006; Hintze A. Professor Mary Boyce, Daily Telegraph, 28 April 2006.

[80] Коссович К. Четыре статьи из Зендавесты. СПб., б.и., 1861. 159 с.

[81] Бартольд В. В. Сочинения. Т. VII. М.: Наука, 1971. 536 с.

A. L. Pogodin[82], K. A. Inostransev kabi olimlar ham “Авесто”ni o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar.

Sovet olimlaridan A. A. Freyman[83], ye. E. Bertels[84], M. M. Dyakonov[85], V. V. Struve[86], B. G. Fafurov[87], I. G. Aliev[88], V. I. Abaev[89], S. N. Sokolov[90], O. A. Makovelskiy[91] va O. Klimalar[92] “Авесто”ni o‘rganishga munosib ulush qo‘shdilar. Ammo, sovet davri tarixchilarining asarlarida davr va siyosiy mafkuraning ta’siri yaqqol seziladi. Masalan, ular zardushtiylikning sinfiy mohiyatini ochib berishga harakat qilganlar, bu esa o‘sha davrdagi aksariyat adabiyotlar uchun xos bo‘lgan holat hisoblanadi.

Mazkur muqaddas kitobga bag‘ishlangan XX asrning ikkinchi yarmidagi tadqiqotlardan biri A. O. Makovelskiyning Ozarbayjon Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan “Авесто” китобидир[93]. H. Homidovning ta’kidlashicha, to‘qqiz bobdan tashkil topgan ushbu asarning dastlabki sahifalarida “Авесто”ning tarkibiy qismlari va tili, asarning yaratilishi, “Вендидод”ning geografik qimmati, yodgorlikning kosmologik hamda astronomik ahamiyati bir-biriga uzviy bog‘langan holda sinchkovlik bilan, tadrijiy o‘rganilgan. Bundan tashqari, risolada Zardusht hayoti, dunyoqarashi, “Авесто” yaratilgan davrda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy ahvoli masalalarini ham tahlil etilgan[94], biroq muallif sovet davrida ijod qilganligi sababli, uning asarida ham siyosiy mafkuraning ta’siri sezilib turadi.

XX asrning so‘nggi yillardi “Avesto” va uning ba’zi qismlari tarjimalari paydo bo‘ldi. Masalan, 1994-yilda I. M. Steblin-Kamenskiy[95] tarjimasidagi “Авесто” chop etilgan bo‘lib, unda tadqiqotchi tomonidan asosan Videvdat qismini tahliliga e'tibor qaratilgan.

XXI asrda ham ba’zi tadqiqotchilar nafaqat “Авесто”, balki zardushtiylar va ularning urf-odatlarini ham o‘rganishga katta qiziqish bildirganlar. Masalan,

---

82 Погодин А. Л. Жизнь Зороастра. СПб.: Попова, 1903. 146 с.
83 Фрейман А. Среднеперсидский язык и его место среди иранских языков. В. кн: Восточные записки, т. 1. Л. 1928.
84 Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. М.,1960. 523 с.
85 Дьяконов М. М. Очерки по истории древнего Ирана. М.: ИВЛ, 1961. 443 с.
86 Струве В. В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. Л.: Наука, 1968. 246 с.
87 Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. М.: Наука, 1972. 664 с.
88 Алиев И. История Мидии. Баку, 1960.
89 Абаев В. И. Пятый столбец Бехистунекой надписи Дария I и Анти-дэвовская надпись Ксеркса / ВДИ. 1963, N3. С. 116; Shu muallif. Миф и история в Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. М.: Наука, 1974. С. 310-321.
90 Соколов С. Н. Языx Авесты. М.: ИВЛ, 1964. 414 с.
91 Маковельский А. О. Авесто. Баку: Изд-во АН АзССР, 1960. 144 с.
92 Клима О. История авестийской, древнеперсидской и среднеперсидской литературы. Рипка Я. История персидской и таджикской литературы. М., 1970.
93 Маковельский А. О. Авесто. Баку: АН Азербайджанской ССР, 1960.
94 Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. ... 23-б.
95 Авесто. Видевдат / Перевод И. М. Стеблин-Каменского/. М.: ГРВЛ, 1994. 190 с.

M. Meytarchiyan zardushtiylarning dafn marosimlarini atroflicha tadqiq qilgan[96].

"Авесто"ning eng keng tarqalgan hududlardan biri, Eron bo'lib, ushbu davlatda R. Urazovaning aniqlashiga ko'ra, XX asrda eronlik olimlardan Ibrohim Purdovud, Hoshim Rizoiy va Jalil Do'stxohlarga tegishli "Авесто"ning izohli forsiy tarjimasi, ikki jildlik avestoshunoslikka doir tadqiqotlar paydo bo'ldi[97].

Avestoshunoslik yo'nalishining O'zbekistondagi rivojini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu soha sovet davrida, aniqrog'i XX asrning 50-yillarda shakllana boshladi. Dastlab N. M. Mallayev "X–XII асрлар адабиёти" risolasida Sharq xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari haqida fikr yuritib, "Авесто"ning adabiy qimmatini qayd etgan. Uning fikrlari "Ўзбек адабиёти тарихи" (1963–1967–1976-yillar) darsligiga kiritilgan.

"Ўзбек адабиёти тарихи"ning ko'ptomlik nashrida (I jild, 1977-yil) ham ushbu adabiy yodgorlikning adabiy qimmati birmuncha to'g'ri izohlangan va tahlil qilingan.

XX asrdagi avestoshunoslarning aksariyat qismini filologlar tashkil qilgan, natijada "Авесто" nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham o'rganilgan.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida "Авесто" va uning tarixini o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi. Ta'kidlash joizki, 2001-yilda Respublikada "Авесто" kitobi yaratilganiga 2700 yil to'lishi keng miqyosda nishonlanishi va Xorazmda katta tantanalarning xalqaro darajada o'tkazilishi o'zbek avestoshunosligini yangi bosqichga ko'tardi.

"Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Авесто" yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti, – degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvda, – bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy va tarixiy merosidir. "Авесто" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"[98]. Ushbu so'zlar "Авесто" tarixini o'rganish dolzarbligini belgilab berdi va mazkur mavzuni o'rganishga e'tiborni kuchaytirdi. Respublikada "Авесто"ning o'rganilishiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi, qator ilmiy maqolalar, risolalar, ilmiy-ommabop nashrlar yuzaga keldi.

---

[96] Мейтарчиян М. Б. Погребальные обряды зороастрийцев. М.- СПб., 2001. С. 248.

[97] Уразова Р. Зардуштийлик маъбудларининг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. Тошкент, 2017. 7-б.

[98] Каримов И. А. Речь на торжествах 2700-летия Авесты, 2001, 3 ноября // http://islomkarimov.uz/ru/page/ijtimoiy-hayot-2001-yil (Фойдаланилган сана: 21.03.2020)

Mustaqillik davrida avestoshunoslik va uning tarjimasi bo'yicha ishlar jonlandi. M. Is'hoqov[99] A. P. Qayumov[100] va A. Mahkam[101] kabi olimlar keng jamoatchilikka "Авесто"ning tarjimasiga doir ishlarini taqdim qildilar.

"Ўзбекистон тарихи" jurnalining "Авесто" yubileyiga bag'ishlangan maxsus ruknida ushbu mavzuning turli jihatlariga doir tadqiqotlarning so'nggi natijalari chop etildi[102].

"Авесто"ning yaratilganiga 2700 yil to'lishi munosabati bilan V. Livshits, E. Rtveladze, M. Is'hoqov, E. Oxunjonov, A. Sagdullayev, R. Abdukamilov va Sh. Shaydullayevlarning yangicha talqindagi maqolalari e'lon qilindi[103].

Bundan tashqari, 2001-yilda chop etilgan "Авесто" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni"[104] nomli maxsus to'plamda ushbu mavzuning turli masalalariga doir maqolalar o'rin oldi. I. Jabbarov va S. Jabbarovlarning[105] jahon dinlari tarixiga doir kitobida zardushtiylik tarixi batafsil yoritib berildi.

XXI asr boshlarida O'zbekistonda avestoshunoslar safi ancha kengaydi. H. Homidov[106], M. Eshmurodov[107], M. Imomnazarov[108], G. T. Mahmudova[109], R. Urazova[110] va boshqalarning asarlarida zardushtiylikning mohiyati ochib berildi. Bundan tashqari, 2000-yilda ilmiy-badiiy qissa shaklida T. Karimning

---

[99] Авесто алқовлари / М.Исҳоқов тарж. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1999. № 1. 70-79-бетлар; № 2. 63-74-бетлар; № 3. 63-72-бетлар; № 4. 67-72-бетлар; № 5. 72- 74-бетлар; 2000. № 1. 63-74-бетлар; № 2. 72-80-бетлар; № 3. 70-76-бетлар; № 4. 52-62-бетлар; № 6. 62-69-бетлар.

[100] Қаюмов А. П. Хурдо Авесто. // А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А. Отахўжаев, Қ. Содиқов. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Тошкент: Ёзувчи, 2000. 4-32-бетлар.

[101] Авесто: Тарихий-адабий ёдгорлик // Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001. 384 б., 16 б. зарварақ.

[102] Буряков Ю. Состояние металлургического производства и период возникновения Авесты // O'zbekiston tarixi. 2001. №3. С. 17–22; Исомиддинов М. Илк зардуштийлик даври ва Самарқанд // Shu joyda. 42-47-бетлар; Исҳоқов М. "Авесто" да эзгулик ва ёвузлик (мифологик қатламлар таҳлили асосида) // Shu joyda. 22-30-бетлар; Мирзаев Т., Жўраев М. "Авесто" мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // Shu joyda. 30-37-бетлар; Сагдуллаев А. "Авесто" нинг илк диний маросимларини ўрганишда археологик маълумотлар // Shu joyda. 3–9-бетлар; Сулейманов Р. и др. Эпоха Заратуштры и начало урбанизации древного Нашхаба // Shu joyda. С. 9–17.

[103] Лившиц В. Авесто – исторический источник / Сб. «Авесто» и ее роль в истории развития человечества. Ташкент-Ургенч, 2001; Ртвеладзе Э. В. Зороастризм в Бактрии // «Авесто» и ее место в истории развития человечества. Ташкент-Ургенч, 2001; Абдукамилов Р. Авестийские тексты о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структуры // O'zbekiston tarixi. 2000. №3. С. 3–8; Ахунджанов Э. В. Принципы и хронология кодификации Авесты // ОНУ. 2001. № 1; Сагдуллаев А. С. Авесто географияси ҳақида // "Авесто" қадимий тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи. ТДШИ "МОХТ" кафедраси илмий-амалий семинари материаллари. Тошкент, 2001. 27–28-бетлар; Шайдуллаев Ш. "Авесто" ва моддий маданият // O'zbekiston tarixi. 2004. №3. 3–12-бетлар.

[104] "Авесто" ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Тошкент: Фан, 2001. 186 б.

[105] Жаббаров И., Жаббаров С. Жаҳон динлари тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

[106] Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. Тошкент: Халқ мероси, 2001.

[107] Эшмуродов М. Авестода табиат культлари талқини . Тошкент: ТДПУ нашриёт-матбаа бўлими, 2002. 97 б.

[108] Имомназаров М., Эшмуҳамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Тошкент: ТИУ, 2001. 118-б.

[109] Маҳмудова Г. Т. Философская сущность Авесты. Ташкент: Изд-во журнала "Санъат", 2010. 255 с.; Shu muallif. About natuve land of zoroastrianizm and Avesta. USA., Kontinent, 2008. 93 p. Yana qarang: Махмудова Г. Т. Историко-философский анализ учения зороастризма (на материалах Авесты). Автореф. дисс. ... на соискание уч. степени док. филос. наук. Ташкент, 2012. 47 с.

[110] Уразова Р. Зардуштийлик маъбудларининг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори дисс. ... автореф. Тошкент, 2017. 50 б.

S. Tolstov va boshqa olimlarning asarlaridagi dalillar asosida yozilgan "Муқаддас "Авесто" изидан" kitobi nashr etildi[111].

2001-yilda H. Boboyev va S. Hasanovlarning "Авесто" – маънавиятимиз сарчашмаси"[112] kitobi olti fasldan iborat bo'lib, ularda ko'proq kitobning ma'rifiy-huquqiy ahamiyati bayon qilingan. Mualliflar kitobni yozishda asosan, rus manbalariga suyangan, shu sababli ko'pgina atama va nomlarning yozilishida jiddiy kamchiliklar mavjud.

Ma'lumki, "Авесто"da uchraydigan ko'p udum va marosimlar aynan, yoki ba'zi bir o'zgarishlar bilan xalqimiz orasida davom etib kelmoqda. Jumladan, A. Ashirovning 2001-yilda chop etilgan "Авесто"дан мерос маросимлар"[113] nomli risolasida Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida an'ana sifatida davom etib kelayotgan marosimlar haqida ancha izchil fikrlar yuritilgan, ko'plab yangi dalillar keltirilgan.

2004-yilda H. Boboyev, T. Do'stjonov va S. Hasanovlar tomonidan "Авесто – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги"[114] deb nomlangan asar chop etildi. Mazkur asarda "Авесто" kitobi xalqimiz tarixini o'rganishdagi muhim manbaligi asoslab berilgan.

E. Rtveladze va A. Sagdullayevlarning "Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии"[115] kitobida ko'plab qadimiy yozma manbalar qatorida Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy tarixini o'rganishda "Авесто"ning ahamiyati ham yoritib berildi.

XXI asr boshlarida chop etilgan ishlarning salmog'i sohadagi rivojlanishni ko'rsatayotganiga qaramay, O'zbekistonda ilmiy avestoshunoslik endigina shakllanib kelmoqda, – deb yozadi R. Urazova. Uning dinshunoslik, falsafiy, filologik va adabiyotshunoslik kabi muhim hamda yetakchi tarmoqlari belgilanmoqda. Mazkur holat sohadagi o'z yechimini kutayotgan muammolarini hal qiluvchi tadqiqotlar yaratilishiga umid bog'lash uchun asos bo'la oladi[116].

## Eron ahamoniylari va yunon-makedonlar bosqinining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatining antik davrdagi rivoji Ahamoniylar sulolasi boshchiligidagi bosqinchilik tufayli o'zgarishlarga

---

[111] Карим Т. Муқаддас "Авесто" изидан. Тошкент, 2000.

[112] Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. "Авесто" – маънавиятимиз сарчашмаси. Тошкент: Адолат, 2001.

[113] Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. 32 б.

[114] Бобоев Ҳ., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. "Авесто" – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. Тошкент, 2004.

[115] Ртвеладзе Э. В., Сагдуллаев А. С. Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Ташкент, 2006.

[116] Уразова Р. Т. Мустақил Ўзбекистонда Авестошунослик ва унинг истиқболлари //"Авесто қадриятлари: замонавийлик, дин ва фалсафа". Халқаро илмий-назарий конференция. Тўплам. Тошкент, 2013. 45-51-бетлар.

uchradi. Avvaldan mustaqil bo'lgan Baqtriya, Sug'd va Xorazm davlatlarining mil. avv. VI–IV asrlarda Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga satrapliklar[117] sifatida kirdi. Imperiya tarkibiga kirishi, yagona boshqaruv, qonunchilik, pul tizimining o'rnatilishi va oromiy yozuvining umumdavlat miqyosda qo'llanilishi Markaziy Osiyo xalqlarining mahalliy madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu davlatning paydo bo'lish qisqa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Ahamoniylar imperiyasining (ba'zi adabiyotlarda "Oriylar imperiyasi" *Ariyānām Xšaçam*[118]) asoschisi Kir II (mil. avv. 558–530) mil. avv. 558-yilda pasargad, marafi, pasti kabi fors qabilalarini birlashtirib, ularning yagona hukmdoriga aylandi. Mil. avv. 545–539-yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo hududlari – Marg'iyona, Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Sattagidiya, Araxosiya, Gandxara va sak qabilalari yerlari, mil.avv. 539–525-yillarda esa Bobildan Misrgacha bo'lgan yerlar ham Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kiritildi.

Imperiya hududi ayniqsa Doro I (mil. avv. 522–486) juda ham kengaydi va haqiqiy imperiyaga aylandi. Doro I dan so'ng mamlakatni Kserks I, Artaksers I, Kserks II, Dariy II Oxos yoki Not, Artakserks II, Artakserks III Oxos va sulosa so'nggi vakili Dariy III Kodoman (mil. avv. 336/335-330)[119] tomonidan boshqarilgan. Doro I davrdan boshlab, ya'ni mil. avv. 521-yilda mamlakat 20 satrapliklarga bo'lingan holda boshqarilar, barcha hududlarda ahamoniy sulola vakillari hukmronlik qilar va barcha hudud vakillari ularga siyosiy qaram edi. O'rta Osiyodan Baqtriya va qo'shni xalqlar – 12 satraplik, Sak va qo'shni qabilalar – 15 satraplik, Parfiya, Sug'd va Xorazm – 16 satraplik sifatida kiritilgan[120].

Bundan tashqari, harbiy jihatdan ham O'rta Osiyo hududi xalqlaridan fors askarlari qatoriga doimiy ravishda yosh yigitlarni tanlab olinar edi. Bu ham o'z navbatida, mahalliy xalq antropologiyasi, keyinchalik aralash oilalarning paydo bo'lishi va sinkretik madaniyatni shakllanishiga olib keldi.

Ahamoniylar hukmronligi va ushbu davrdagi O'rta Osiyo xalqlariga doir ma'lumotlarni yoritishda bir nechta asosiy manbalarga tayanildi:

1. **Behistun qoyatosh yozuvlari**. Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi epigrafik manbalardan biri Midiyadagi shoh Doro I (mil. avv. 522–486) buyrug'iga binoan, qadimgi forsiy, elam va bobil (akkad) tillarida mixxatning turli ko'rinishlarida tosh qoyaga bitilgan Behistun (Bisutun) yozuvidir. Bitik Erondagi Kirmonshoh va Hamadon shaharlari oralig'ida joylashgan bo'lib, asosan, mil. avv. 523–521-yillardagi voqealarini o'z ichiga oladi[121].

---

[117] Xshatra (xšaθra) – viloyat.

[118] Фрай Р. Наследие Ирана. М.: Восточная литература РАН, 2002. С. 20.

[119] Ахемениды // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[120] Waterfield R., Dewald C. Herodotus – The histories, 1998. P. 593.

[121] Дандамаев М. А. Отражение содержания Бехистунской надписи в труде Геродота // Краткие сообщения Института народов Азии. Иранская филология. М., 1963. Т. 67. С. 190-192.

Ushbu qoyatosh bitiklari o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning 30–40-yillarida ossuriyashunoslik fanining asoschilaridan biri, sharqshunos Genri Roulinson[122] (1810–1895) bitikning forsiy matnini ko‘chirib olgan va deyarli butunlay o‘qib chiqishga erishgan, bu esa Qadimgi Sharq xalqlarining boshqa mixxat yozuvlarini o‘qishda kalit vazifasini bajardi. Ma’nosi bo‘yicha yozuv matni Ahamoniylar davlatida asosan, mil. avv. 522–519-yillarda bo‘lib o‘tgan hodisalarning rasmiy talqinidir. Yozuvning asosiy qismida Kambiz (*Kambūjiya II*, mil. avv. 530–522)ning o‘limidan so‘ng Doro I (*Dārayavahuš I*) ning davlatni qamrab olgan qo‘zg‘olonlar va beqarorlikka qarshi, Fors davlatini saqlab qolish uchun olib borgan kurashi haqida hikoya qilinadi. Yozuvda keltirilgan ma’lumotlarni Gerodotning ushbu hodisalar haqidagi hikoyasi to‘ldiradi.

A. Nizovskiyning fikriga ko‘ra, yozuv qadimgi Midiya hududida Bobil va Ekbatanani bog‘laydigan yo‘ldan 105 metr balandlikda bitilgan. Yozuvning o‘lchamlari 7 metr balandlikda va 22 metr kenglikda[123]. Barelefda mag‘lubiyatga uchragan dushmanlari bilan uchrashadigan Axuramazda xudosi homiyligida Doro I tasvirlangan. Yozuvlar ostidagi tosh vertikal ravishda kesilgan va saqlash uchun deyarli eltib bo‘lmagan.

M. Dandamayevning tadqiqotlariga asosan, Gerodot va boshqa qadimgi yunon tarixchilari ushbu voqealar haqida o‘z asarlarida hikoya qiladilar, ammo ularning hikoyalari Behistun yozuvida keltirilgan versiyadan sezilarli farq qiladi. Ba’zi zamonaviy tarixchilar, aslida Doro o‘zi podshoh bo‘lish uchun Bardiyani sehrgar Gaumata deb e’lon qilib o‘ldirgan, deb hisoblaydi[124].

2. **Doro I ning pilik yozuvi.** Hamadon yaqinida tasodifan topilgan kumush pilikchadagi yozuv (boshqa bir oltin pilikcha bilan birga) Doro I hukmdorligi davrida O‘rta Osiyo Ahamoniylar mulkiga kirganligiga yana bir dalolat bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu pilikchani topgan odam uning ustiga yozuvlar o‘yib yozilganiga ahamiyat bermay, kumushning bahosidan kelib chiqqan holda, uni boshqa odamga sotib yuborgan. U esa, o‘z navbatida, bu topilmani sakkiz parchaga bo‘lib, qadimiyotchiga sotib yuborgan. Baxtli tasodif tufayli kumush va oltin pilikchalarning fotosuratlari saqlanib qolgan. Aynan ushbu suratlar bo‘yicha aniqlandiki, mixsimon yozuv qadimgi forsiy, elam va bobil tillarida, ya’ni Ahamoniylarning ayni o‘sha Behistun qoyalaridagi rasmiy yozuvlari, Persepol qurilmalari va Suzadagi Artakserks (Artaxshas) II ustunlarida uchraydigan bitiklar tillarida yozilgan. Ehtimol, kumush pilakcha

[122] Rawlinson H. The Persian Cuneiform Inscription at Behistun, Decyphered and Translated; With a Memoir on Persian Cuneiform Inscriptions in General, and on That of Behistun in Particular // Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland, 1841. Vol. 10.

[123] Низовский А. Генри Роулинсон и Бехистунская надпись // 100 великих археологических открытий. М.: Вече, 2002. 544 с.

[124] Дандамаев М. А. Uvāmaršiyuš amariyata Бехистунской надписи // Древний мир: Сборник статей: [Посвящается] акад. В. В. Струве / Акад. наук СССР. Ин-т народов Азии. М.: Издательство восточной литературы, 1962. С. 371-376.

(oltin pilakcha bilan bir qatorda) Doro I ning Ekbatana (hozirgi Hamadon)dagi mil. avv. 518-yildan keyin qurilgan saroyining poydevoriga ko'mib qoldirilgandir. Asosiy (qadimgi forsiy) matn (qolgan ikkisi – tarjimalar) A. A. Semenov tomonidan nashr etilgan[125].

3. **Doro I ning Suzadagi yozuvi.** Suzadagi mixxat Elamning sobiq poytaxti bo'lgan ushbu shaharda fors shohlarining asosiy qarorgohlaridan biri barpo etilishi haqida hikoya qiladi. Yozuv matnida O'rta Osiyoga taalluqli ma'lumot keltiriladi.

N. Obnorskiyning fikriga ko'ra, mil. avv. 538-yilda Kir II ushbu shaharni egallagan. Kirning o'g'li Kambiz II o'z poytaxtini Suzaga ko'chirdi. Doro I sun'iy tepalikda qurilgan, o'zi uchun juda tor bo'lgan Elam podshohlarining qadimiy saroyini topgan va uni o'z xohishiga ko'ra tiklagan. Artakserks I davrida ushbu saroy yonib ketgan va yuz yildan so'ng Artaxerxes II boshchiligi ostida u qayta tiklangan[126].

Qadimgi shaharning hududi 1836-yilda Genri Roulinson[127], so'ngra Ostin Genri Leyard[128] tomonidan o'rganilgan. 1851-yilda Uilyam Loftus tomonidan kichik qazish ishlari olib borilgan, u bu yerni Suzaning tarixiy manbalaridan ma'lum bo'lganligini aniqlagan[129]. 1885–1886-yillarda Ogyust va Janna Delafua Suzada birinchi fransuz qazish ishlarini boshladilar[130].

Jak de Morganning ekspeditsiyasi 1897–1911-yillarda katta qazish ishlarini olib bordi[131] va mazkur tadqiqoit ishlari Roland de Mekenem nazorati ostida 1914-yilgacha, ya'ni Birinchi jahon urushi boshlangunga qadar davom etdi[132]. Qazuv ishlari urushdan keyin yana Mekenem boshchiligida qayta tiklandi va Ikkinchi jahon urushigacha davom etdi. Ushbu davr bilan bog'liq ishlarning natijalari deyarli nashr etilmay qoldi[133].

Roman Girshman 1946-yilda qazish ishlarini o'z zimmasiga oldi va uni 1967-yilgacha davom ettirdi[134]. 1970-yillarda qazilmalar Jan Perro boshchiligida qayta tiklandi va Eronda Islom inqilobidan oldin amalga oshirildi.

---

[125] История Шугнана (Тарих-й Шуғнон / пер. А. А. Семенова. Ташкент, 1916.

[126] Обнорский Н. П. Сузы // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[127] Rawlinson H. The Persian Cuneiform Inscription at Behistun, Decyphered and Translated; With a Memoir on Persian Cuneiform Inscriptions in General, and on That of Behistun in Particular // Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland, 1841. Vol. 10.

[128] Layard, A. H. Nineveh and Babylon A narrative of a second expedition to Assyria, during the years 1849, 1850, and 1851. London, 1867.

[129] Loftus W. K. Travels and researches in Chaldæa and Susiana; with an account of excavations at Warka, the "Erech" of Nimrod, and Shush, "Shushan the palace" of Esther, in 1849-52. New York, Robert Carter & Brothers, 1857.

[130] Dieulafoy J. A Suse 1884–1886. Journal des fouilles. Paris, 1888.

[131] Jacques de Morgan. Mission scientifique en Perse, 3 parts II–IV, Etudes géologiques. Paléontologie, Part II. Echinides fossiles by Gustave Cotteau and Victor Gauthier; Part III. Echinides fossiles (supplément) by Victor Gauthier; Part IV. Mollusques fossiles by H. Douvillé, Paris: E. Leroux, 1895–1904.

[132] Mecquenem de Roland. Céramique peinte de Suze et petits monuments de l'époque archaïque (with Edmond Pottier), 1912.

[133] Mecquenem de Roland. Mission en Susiane (with Jean-Vincent Scheil), 1935.

[134] Ghirshman R. Iran: from the earliest times to the Islamic conquest, 1954.

Suzada topilgan bitiklar Persepoldagi topilmalarga qaraganda juda kam, shunga qaramay, ushbu topilmalarda siyosiy va iqtisodiy faoliyat mavjudligini uchratish mumkin. Yozuvlarda tasvirlangan ma'lumotlar bir nechta yunon manbalarida ham hujjatlashtirilgan. Masalan, Persepoldan topilgan bir nechta bitiklarda podshoh tomonidan qabul qilingan satraplar, Persepol va Suza o'rtasidagi karvon harakatlari, shuningdek, Kichik Osiyodan kelgan elchilar haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, Suza – shohlar hazina saqlagan joylardan biri bo'lgan. Xalq hayoti haqidagi ba'zi yozma dalillar ham Suzada topilgan, juda kam uchraydigan iqtisodiy manbalarda aks etgan[135].

4. **Persepol shahri yozuvlari.** Persepoldan topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar – releflar katta ilmiy qiymatga ega. XIV–XVIII asrlar oralig'ida Persepol xarobalari Yevropa sayohatchilarining qiziqish ob'yektiga aylandi. O. Xartigning yozishiga qaraganda, sayohatchilar safida birinchi bo'lib Odorik Friulskiy (1286–1331) 1318-yilda Xitoyga ketayotganda kirib o'tgan edi[136]. 150 yildan so'ng bu erga yana bir Venetsiya fuqarosi Iosafat Barbaro[137] (1413–1494) tashrif buyurdi. Ispaniyalik diplomat Garsiya de Silva Figeroa[138] (1550–1625), Shoh Abbos I sudiga yuborilgan, 1619-yilda Persepolisga tashrif buyurgan va bir qator yunoncha yozuvlarning tarjimasini qoldirgan. 1621-yilda Pietro della Valle mixxat yozuvlarini nusxa ko'chirgan birinchi Yevropalikdir.

Yevropaliklar orasida Persepol shahrini o'rganish XVII–XVIII asrlarda (1621 y.) italiyalik sayyoh Pedro Della Valle[139] (1586–1652) va daniyalik olim K. Niburning nomi bilan bog'liq. A. Madraimovning tadqiqotlarida qayd etilishicha, XX asrning 30-yillaridan boshlab nemis olimi E. Xersfild, amerikalik E. Shmidt, fransuz olimi A. Godar hamda eronlik tadqiqotchilar M. Mustafoviy va A. Somiylar tomonidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlari natijasida Persepolda juda ko'p noyob yodgorliklar ochildi[140].

5. **Naqshi Rustam**. Persepoldan qariyb 5 km masofada, uning shimol tomonida Husaynkuh qoyalarida Doro I va Ksereks I (mil. avv. 486–465-yillar), Artakserks I (mil. avv. 465–424-yillar) hamda Doro II (mil. avv. 424-404-yillar)ning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. A. Madraimovning fikriga ko'ra, mazkur yodgorlik sosoniy sarkardalardan Rustam (636-yilda arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan)

---

[135] https://iranicaonline.org/articles/susa-iii-the-achaemenid-period (Фойдаланилган сана: 24.03.2020)

[136] Hartig O. «Odoric of Pordenone.» The Catholic Encyclopedia Vol. 12. New York: Robert Appleton Company, 1911.

[137] Скржинская Е. Ч. «История жизни Иосафата Барбаро»// Каспийский транзит. Т.2. М., 1996.

[138] Фигероа, Гарсиа // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[139] Pietro della Valle. Viaggi di Pietro della Valle, il pellegrino : descritti da lui medesimo in lettere familiari all'erudito suo amico Mario Schipano, divisi in tre parti cioè : La Truchia, La Persia, e l'India, colla vita dell'autore. Brighton: G. Gancia, 1843. Vol. 1.

[140] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент: Фан, 2007. 32-33-бетлар.

nomi bilan ham bog'liq bo'lib, tarixda ko'pincha "Naqshi Rustam" deb ataladi[141].

Naqshi Rustam ma'muriy jihatdan Ferv viloyatining Mervdesht shahristonining bir qismi, Mervdesht shahri yaqinida joylashgan. Bir necha yuz metr Naqshi Rustamni Naqshi Rajabdan ajratib turadi. Ushbu majmuada taqdim etilgan buyumlar turli davrlarga tegishli: Elamiy (mil. avv. 3 ming yillik), Ahamoniy (mil. avv. 330-550-yillar) va Sosoniylar (mil. 221–656-yillar). Majmuaning o'zi Persepolis va Istaxr yaqinida joylashgan.

Hojiobod tog'i Persepolisdan ikki kilometr shimolda joylashgan. Unda Naqsh-Rajab yodgorliklari, jumladan, Ardashir I Papakan va Shopur I Sosoniy kabi qahramonlarga bag'ishlangan barelef va yozuvlar o'yib tushirilgan. Ushbu bareleflar boy kiyim kiygan hukmdorlarning go'zalligi va kuchining timsolidir. Bundan tashqari, rasmda Axuramazdaning ramzi ko'rsatilgan. Bareleflar bilan birga kelgan matnlar uchta tilda: o'rta fors, parfiya va yunon tillarida yozilgan. Ushbu matnlar yuqorida tavsiflangan davrda zardushtiylik hukmron din rolini o'ynay boshlaganiga dalildir.

**Ahamoniylar davrida Baqtriya**. Ahamoniylar imperiyasining XII satrapi hisoblangan Baqtriya o'lkasida arxeologlar tomonidan o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab ahamoniylar davri yodgorliklari o'rganilib kelinmoqda. Dastlab, Janubiy Tojikiston hududidagi Qalai Mir, Bolday tepa yodgorliklari o'rganilib, shu tadqiqotlar asosida M. M. Dyakonov[142] Baqtriyada ilk sinfiy munosabatlar va davlatchilik haqidagi dastlabki fikrlarni bildirgan edi. Surxon vohasida esa 60 yillardan boshlab Ahamoniylar davri yodgorliklari aniqlanib o'rganila boshlandi. Hozirgi kunda esa faqat Surxon va Sherobod vohalarida shu davrga oid o'nlab yodgorliklar aniqlangan bo'lib, ayrim yodgorliklar to'liq A. A. Asqarov, L. I. Albaum, A. S. Sagdullayev, Sh. B. Shaydullayev va boshqa olimlar tomonidan ochib o'rganildi[143].

Ahamoniylar davri yodgorliklarining soni ortib borishi bilan tadqiqotchilar ularni sug'orilish shoxobchalariga qarab rayonlashtirish masalasini ham yechishga kirishganlar. E. V. Rtveladze ushbu davr yodgorliklarini 5 ta sug'orilish rayoni (Ulanbuloqsoy, Sherobod, Bandixonsoy, Mirshodi va Vaxshuvar)ga[144], A. S. Sagdullayev esa 8 ta rayonga ajratgan edi[145].

**Ahamoniylar davrida Xorazm**. Aksariyat tarixchilar O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vohalari va Xorazm mil. avv. 545–539-yillar oralig'ida Eron ahamoniylari tomonidan bo'ysundirilgan, degan xulosaga kelgan.

---

141 Shu joyda. 33-б.

142 Дьяконов М. М. Археологические работы в нижнем течении реки Кафирниган // МИА. 1958. №37; Забелина Н. Н. Раскопки на городище Калаи-Мир // МИА. 1958. №37.

143 Аскаров А. А., Альбаум Л. И. Поселение Кучуктепа. Ташкент, 1979; Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, 1987; Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент, 2000.

144 Ртвеладзе Э. В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // Советская археология. 1975. №2.

145 Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, 1987.

Jumladan, akademik A. A. Asqarovning fikriga ko'ra, Kir II ning mil. avv. 545-yildan O'rta Osiyoda boshlagan istilochilik yurishlarini uch bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichda u Parfiya va Kaspiybo'yi, ikkinchi bosqichda Baqtriya va Amorgiya, uchinchi bosqichda esa Orolbo'yi saklari (massagetlar) ustiga yurish qiladi[146]. Kir II ning Baqtriya, Parfiya, Marg'iyonaga qilgan yurishlari ushbu hududlarning bo'ysundirilishi bilan tugagan bo'lsa, mil. avv. 530-yilda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari sak-massagetlar ustiga qilgan yurishi uning uchun muvaffaqiyatsiz yakunlangan.

Kir II ning massagetlarga ("podsho Amorg saklariga", ya'ni sakaravaklarga, Ktesiyning rivoyatiga ko'ra, derbiklarga) qarshi yurishi xorazm-eron munosabatlariga bevosita dahldordir. S. P. Tolstovning fikricha, harbiy yurish tashkil etish zaruratining o'ziyoq ushbu qabilalarning Kirga bo'ysunmaganligi va qisman unga dushman bo'lganligini ko'rsatadi. Kir xozirgi Xorazm hududlariga qadar kirib bormay, aftidan, uning yurishlari ancha janubiy hududlar orqali amalga oshirilgan[147].

Orolbo'yi saklari mil. avv. 518-yilda Doro I (522–486) tomonidan istilo qilingan. Doro I ning Kirmonshoh shahri yaqinidagi Behistun qoyasiga yozdirgan zafarnomasida tobe etilgan 23 ta mamlakat va xalqlar orasida Xorazm ham qayd etiladi. A. Sagdullayev va A. Asqarovlarning asarlaridagi ma'lumotlarga asosan, Naqshi Rustam yozuvlarida Doro I ga xiroj to'lovchi sharqiy viloyatlar orasida Xorazm ham sanab o'tiladi. Suza shahridagi saroy qurilishida Xorazmdan feruza toshi (to'q ko'k yoqut) keltirilganligi qayd qilingan. Shuningdek, Persepol shahrida Doro I va Kserks saroyiga olib boruvchi tosh pillapoya devorlarida Eron ahamoniylariga tobe mamlakatlardan xiroj olib kelgan vakillarning bo'rtma rasmlarining 8 qatorida sug'diyonaliklar, 11 qatorida saka tigraxaudalar, 13 qatorida parfiyaliklar, 15 qatorida baqtriyaliklar, 17 qatorida esa xorazmliklar aks etgan bo'lib, xorazmliklar qo'llarida dudama xanjar, jangovar harbiy bolta va bilaguzuk tutib, ot yetaklab kelayotgan holda tasvirlangan[148].

Qadimgi Sharqning eng yirik davlati bo'lgan Ahamoniylar saltanatiga mil. avv. 334–330-yillarda Makedoniyalik Aleksandr uzil-kesil barham beradi. Saltanatning sharqiy viloyatlari (Ariya, Baqtriya, Sug'diyona)ni esa Aleksandr 330–327-yillarda zabt etadi.

Xorazm makedoniyalik istilochilarga nisbatan ham mustaqil mavqyeda turgan. Arrianning yozishicha Xorazm shohi Farasman 1500 otliq askari bilan 329-yilning qishida Baqtrada qishlovni o'tkazayotgan Aleksandr huzuriga tashrif buyuradi. Kvint Kursiy Ruf Xorazmshoh nomini Fratafern shaklida

---

[146] Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007. 132–134-бетлар.

[147] Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л.: изд-во Академии наук СССР, 1948. С. 105.

[148] Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ... 132–134-бетлар; Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. 31–32-бетлар.

keltiradi[149]. Yu. A Rappoportning fikricha, Xorazmshohning asl ismi Farasman bo'lib, Fratafern uning o'g'li bo'lgan. Xorazmshoh o'g'lini Aleksandr qarorgohiga yuborgan[150]. Yunon muarrixlari Aleksandr shuhratini ko'tarib ko'rsatish uchun Fratafernni shoh deb yozganlar. Farasman (Fratafern) Aleksandrga kolx va amazonkaliklarga qarshi yurish qiladigan bo'lsa, ittifoqchilik qilishni taklif qiladi. Aleksandrning navbatdagi rejasi Hindistonni egallash bo'lganligi sababli, Xorazm bilan ittifoq tuzib, Hindiston yurishidan keyin ushbu masalaga e'tibor qaratishni mo'ljallagan bo'lishi mumkin. Ammo, Aleksandr mil. avv. 325-yilda Hindistonda Sharq yurishlarini to'xtatib, Bobilga qaytadi.

V. V. Bartoldning fikriga ko'ra, mil. avv. 328-yilda Xorazm Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarning makedoniyaliklarga qarshi kurashini ,sak va massagetlar kuchi bilan qo'llab-quvvatlaydi hamda Spitamenning o'ziga boshpana beradi. Spitamen halok bo'lgan 328-yil kuzidan keyingi davrlardagi Xorazm-Makedoniya munosabatlari to'g'risida yozma manbalarda hech qanday ma'lumot qolmagan.

Shunday qilib, yunon-makedon istilosidan O'rta Osiyoning faqat ikkita hududi – Farg'ona va Orol dengizi bo'ylarida sak-massaget qabilalarini birlashtirgan Xorazmgina o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan keyingi davrlardagi Xorazm davlatida kechgan voqealar xususida yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli mavjud emas[151].

## Makedoniyalik Aleksandr istilosi davri tarixshunosligi

Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari mil. avv. 329-yilda Oks (Amudaryo)dan o'tib, yurtimiz hududiga bostirib kiradi. Aleksandrning ushbu harbiy yurishlari uning istagiga muvofiq, shohni kuzatib kelayotgan ba'zi adib va muarrixlar tomonidan yozib borilishi ko'zda tutilgan edi. Makedoniyalik lashkarboshilardan Aristobul[152], Ptolomey Lag[153] va dengizchi Darga Nearx ana shunday dastlabki tarix yozuvchilari edi. Ushbu muarrixlarning xotiralari keyinroq o'tgan Arrian[154], Strabon[155] va boshqa mualliflarning asarlarida ham keltirilgan, ammo mazkur manbalarning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan.

---

149 Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. ред. А. А. Вигасин. М.: Изд-во МГУ, 1993. VIII. 1. 8. С. 167.

150 Рапопорт Ю. А. Религия древнего Хорезма: некоторые итоги исследований // Этнографическое обозрение. 1996. № 6.

151 Бартольд В. В. Сочинения. Том 3. Работы по исторической географии. М.: Наука, 1964. С. 544.

152 Kassandriyalik Aristobul (mil. avv. taxminan 380–290-yy.) – Iskandarning istilolari haqida tarixiy manba bo'lgan xotiralar muallifi hisoblanadi.

153 Smith W. Lagus (1) // Dictionary of Greek and Roman Biography and Mythology. Boston, 1870. Vol. 2.

154 Арриан. Поход Александра. / Пер. М. Е. Сергеенко. Вступ. ст. О. О. Крюгера. М.-Л.: Изд-во АН, 1962. 384 с. (с приложением «Александра» Плутарха и кн. XVII «Исторической библиотеки» Диодора)

155 Страбон. География / пер. с др.-греч. Г. А. Стратановского, под общей редакцией С. Л. Утченко. Ленинград: Наука, 1964. 944 с.

Aleksandrning Sharqqa harbiy yurishlari vaqtida qanday voqealar yuz berganligi undan 300-400-yil keyin yashagan tarixchilarning asarlarida ham qayd etilgan. Mazkur tarixchilar o'z tadqiqotlarida Aleksandr zamondoshlarining asar va esdaliklardan foydalangan.

Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari tavsifi yunon tarixchisi Arrian[156] (mil. avv. II asr) va Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf[157] (mil. I asr) asarlarida saqlanib qolgan. Ularda Aleksandrning yurishlari mufassal yoritilgan. Plutarx[158] (mil. I–II asrlar) bilan Yustin[159] (mil. II asr) esa uning O'rta Osiyoga qilgan yurishlari haqida deyarli og'iz ochmaydilar. Sitsiliyalik Diodorning "Tarixiy kutubxona"[160] asari (mil.avv. I asr)da ko'p o'rinlar yo'qolgan. Mazkur asar 17 ta kitobdan iborat bo'lib, Aleksandrning Amudaryo ortiga yurishi tasvirlangan boblarning faqat sarlavhalarigina saqlanib qolgan, xolos.

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufga nisbatan Arrianning asari O'rta Osiyo voqealari bayonida ancha ishonchli manba hisoblanadi. Arrianning o'zi Osiyodagi janglarda qatnashgan. Uning asari aslida harbiy san'atga bag'ishlansa-da, u Aleksandr zamondoshlari Aristobul va Ptolemey Lag esdaliklaridan foydalangan, ba'zi o'rinlarda esa ulardan ko'chirmalar keltirgan. Aristobul bilan Ptolemey Lag asarlarida faqat o'zlari qatnashgan voqealarni bayon etganliklari uchun Arrian ularda bo'lmagan voqealarning yetishmagan o'rinlarini Kursiy Ruf kitobidagi hikoyalar bilan to'ldiradi.

Makedoniyalik Aleksandr va uning davriga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar bo'lishga qaramay, uning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari haqida juda ham kam mualliflar ma'lumot qoldirganligi o'ziga xos muammolardan biridir. Tarixiy manbalardan Sug'diyona poytaxti Maroqanda qanday qilib makedoniyaliklar qo'liga o'tib qolganligini tasavvur etish qiyin.

Kvint Kursiy Rufning yozishicha, Aleksandr shaharda qo'shin qoldirib, atrofdagi qishloqlarga o't qo'ygan. Muallifning guvohlik berishicha, Maroqanda qal'asi devorining uzunligi 70 stadiy[161] bo'lib, shahar ichkarisida yana bir devor bo'lgan[162]. Tarixchi I. Sh. Shifman[163] esa Maroqand shahri jangsiz taslim bo'lgan, degan taxminni bildiradi. Aleksandr qo'shinlari Maroqandani egallagach, Yaksart tomonga yuradilar. Bu yurish vaqtida Aleksandr qo'shinlariga qo'zg'olonchi sug'dliklar hujum qiladi.

---

[156] Арриан. Поход Александра. / Пер. М. Е. Сергеенко. Вступ. ст. О. О. Крюгера. М.-Л.: Изд-во АН, 1962. 384 с.

[157] Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. ред. А. А. Вигасин. 2-е изд., испр. М.: Издательство МГУ, 1993.

[158] Плутарх. Сочинения. / Пер. Т. Г. Сидаша. (Серия «акμη»). СПб.: Издательство СПбГУ. 2008. 384 с.

[159] Юстин, историк // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[160] Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Ч.1-6. / Перевод И. А. Алексеева. СПб., 1774-1775.

[161] Stadiy – Bobilda birinchi marta joriy qilingan, so'ngra yunonlarga o'tib, uning yunoncha nomini olgan ko'plab xalqlarning qadimiy o'lchov tizimlarida masofani o'lchash birligi (Taxminan 178–200 metr).

[162] Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. ред. А. А. Вигасин. 2-е изд., испр. М.: Издательство МГУ, 1993.

[163] Шифман И. Ш. Александр Македонский. Л.: Наука: Ленинградское отделение, 1988. 205 с.

Diodorning ma'lumotlariga qaraganda, Aleksandr qo'zg'olonchilardan 120 mingtasini o'limga hukm qiladi. Ushbu raqam mubolag'ali bo'lib ko'rinsada, qo'zg'olon qanchalik keng tus olganligini ko'rsatadi[164].

Strabonning yozishicha, Aleksandr O'rta Osiyoda yangi shaharlar barpo eta boshlaydi. Chekka Aleksandriya shahri Xo'jand yaqinida qurilgan makedoniyaliklar uchun tayanch istehkomlaridan biri hisoblanar edi[165].

Tarixiy manbalarda Aleksandr va uning lashkarboshilari O'rta Osiyoda 12 ta shahar bunyod etganligi aytiladi. Shu bilan birga, I. Sh. Shifman Aleksandr qo'shinlarining Sug'diyonadagi vayronagarchiliklarini Chingizxon istilosiga o'xshatadi[166]. Ushbu vayronagarchiliklar oqibatida mamlakat aholisining soni keskin kamayib ketadi.

Yunon-makedonlar Baqtriya, Sug'diyona va Markaziy Osiyoning qolgan hududlarini ham mustamlakalariga aylantirdi. Aleksandrning istilochilik siyosatini uning vorislari (Salavkiylar) davom ettirdi. Aleksandr vafotidan 75 yil o'tgach, Baqtriya satrapi Diodot o'zini mustaqil hukmdor, deb e'lon qildi. Pompey Trogning yozishicha, minglab shaharlar Diodot qo'l ostiga o'tdi. "Қадимги авторлар Ўрта Осиё ҳақида" to'plami (ushbu kitob 1940-yilda Bajenov[167] tahriri ostida Toshkentda nashr etilgan edi)da yozilishicha, O'rta Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil topadi. O'zbekistonda nashrga tayyorlangan ushbu xrestomatiyada O'rta Osiyo xalqlarining mil. avv. VI asrdan milodning III-asriga qadar bo'lgan tarixi, geografiyasi va tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

## Yunon va rim tarixchilari asarlari tarixiy manba sifatida

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida O'rta Osiyo xalqlari haqida turli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu xalqlar tarixini yozish Gomer va Esxil kabi adiblar tomonidan boshlangan. Lekin, skif (sak va massaget), sug'diyonaliklar, baqtriyaliklar, xorazmiylar haqida keng va aniq ma'lumotlarni birinchi bo'lib mil. avv. V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Umuman olganda O'rta Osiy haqida Gerodotdan tashqari Gekatiy (mil. avv. VI asr), Ksenofont (mil. avv. V–IV asr), Polibiy (mil. avv. II asr), Sitsiliyalik Diodor (mil. avv. I asr), Pompey Trog (mil. avv. I asr), Strabon (mil. avv. I asr), Kvint Kursiy Ruf (mil. I asr), Plutarx (mil. I-II asr), Arrian (mil. II asr), Yustin (mil. II–III asrlar) kabi muarrixlar ham O'rta Osiyo xalqlari turmush tarzi, urf-odatlari va mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar beradi.

---

[164] Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Ч.1-6. / Перевод И. А. Алексеева. СПб., 1774-1775.
[165] Страбон. География / пер. с др.-греч. Г. А. Стратановского, под общей редакцией С. Л. Утченко. Ленинград: Наука, 1964.
[166] Шифман И. Ш. Александр Македонский. Л.: Наука: Ленинградское отделение, 1988. С. 21-68.
[167] Древние авторы о Средней Азии (6 в. до н. э. - 3 в. н. э.). Хрестоматия. Ред. Баженов Л.В. Ташкент, 1940.

**Miletlik Gekatey**[168] (miloddan avvalgi VI asr)ning ma'lumotlari antik davr yozma yodgorliklarining eng qadimgisidir. Ushbu mavzudagi oz sonli ma'lumotlar orasida Gekateyning ma'lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Gekatey "Ер куррасининг тасвири"[169] nomli asarining Osiyoga bag'ishlangan qismida Xorazm haqidagi ma'lumotlar yozib qoldirgan. Keyinchalik yaratilgan Afiney (mil. avv. II–I asrlar) va vizantiyalik Stefanlarning (mil. VI asr) "Қабилалар тавсифи" asarlarida Gekatey tomonidan keltirilgan ma'lumotlar saqlanib qolingan. Unda quyidagi jumlalarni o'qish mumkin: "...parflarning (Parfiya – Turkmaniston janubi) sharqida tekisliklar tog'larni egallagan xorasmiylar yashaydi". Vizantiyalik Stefan Gekatiyga suyangan holda "Xorasmiya: praflarning sharqidagi shahar" deb yozgan edi[170].

Qadimgi yunon mualliflari Gerodot, Strabon, Eratosfen, Efor va boshqalar O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar yozib qoldirar ekanlar, eng avvalo, Gekatey ma'lumotlariga suyanadilar.

Gekateydan so'ng O'rta Osiyo davlatlari haqidagi ma'lumotlarni mil. avv. 519–512-yillarda Doro I ning farmoniga ko'ra, Eronning janubidan Hind daryosi sohillariga sayohat qilgan kiriyalik Skilak ham o'zining "Sayohatnoma" asarida yozib qoldirgan va bu haqida Gerodot o'z asarlarida ma'lumot beradi.

Gekatey asarining birinchi rus tilidagi tarjimasi V. A. Sheffer[171] tomonidan 1883–1884-yilda amalga oshirilgan. Ingliz va boshqa xorijiy tillarga asosan XX asrda ko'p marotaba tarjima hamda tahlil qilingan[172]. Eng so'nggi xorijiy tadqiqotlarda 2003-yilda J. Vaysxofer tomonidan yozilgan biografiyani tilga olish mumkin[173].

**Gerodotning "Тарих" asari.** Galikarnaslik Gerodot[174] – mil. avv. V asrda yashagan yunon tarixchisi bo'lib, garchi o'zi bayon qilayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri ifodalashi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtai nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi. Gerodotning asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiylar, issedonlar, massagetlar, skiflar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Uning "tarix otasi" taxallusini olishiga Sitseron sababchi sifatida ko'rsatiladi[175].

---

168 Гекатей // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.
169 http://simposium.ru/ru/node/12704 (Фойдаланилган сана: 22.03.2020)
170 Максимова М. И., Античные города юго-восточного Причерноморья, М.-Л., 1956, стр. 25; там же она ссылается на мнение 'многих ученых' о том, что Гекатей писал ~520-х гг. до н. э.
171 Шефферъ В. А., Очерки греческой историографіи, Вып. I, Киевъ, 1884.
172 Hugh Ch. "Hecataeus of Miletus". Encyclopædia Britannica. 13 (11th ed.). Cambridge University Press, 1991. P. 193.; Shotwell J. T. The History of History. NY: Columbia University Press, 1922.; The Ancient Greek Historians; Bury, John Bagnell. – NY, Dover Publications, 1958. Pp. 14, 48.
173 Wiesehöfer J. (2003). "Hecataeus of Miletus". Encyclopedia Iranica (Online ed. https://iranicaonline.org/articles/hecataeus-of-miletus ).
174 Геродот. История. / Пер. и прим. Г. А. Стратановского. Статья В. Г. Боруховича. (Серия "Памятники исторической мысли".) Л.: Наука, 1972. 600 с.
175 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик.... 37-бет.

Gerodot mil. avv. 455–445-yillar davomida Liviya, Misr, Ossuriya, Ekbatanaga qilgan sayohatlari natijasida qadimgi Sharq xalqlari tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdi. Tarixchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, Gerodot o'zining "Тарих" asarida Baqtriya, Baqtra va baqtriyaliklarni 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmiylarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlari, dini hamda tarixi haqida ma'lumotlar bergan.

Gerodotning O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqidagi ma'lumotlari – Ahamoniylarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, fors podshosi Kir II va massagetlar malikasi To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, Ahamoniylar podsholarining piyoda hamda otliq qo'shinlari safida o'rta osiyoliklarning ishtiroki, ularning harbiy san'ati va qurol-aslahalari, yo'lboshchilari, fors-yunon urushlarida ko'rsatgan jasoratlari, etnik jihatdan turlicha bo'lgan ko'plab xalqlarning Ahamoniylar davlatiga bo'ysunishi, ularga turli soliqlar to'lashi, sak-massagetlarning urf-odatlari, turmush tarzi va diniy e'tiqodlari kabi ko'plab qiziqarli ma'lumotlardan iborat.

Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, skiflar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Gerodot: "Ular bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdo-sotiq uchun ham ekardilar", – deb yozgan edi[176].

Gerodot skiflarning chorvachilik ishlariga ham qiziqib qaraydi. Uning qayd etishicha, ko'chmanchi skiflar ko'chganda qulay bo'lishi uchun namatdan g'ildirakli arava – uy yasab olar edilar. Yuk tashishda ular otlardan tashqari mollardan ham foydalangan. Olimning fikricha, skiflar kuchli davlatga ega edi. Gerodot Kaspiy dengizidan sharq tomondagi hududni "bepoyon tekislikdan iborat" deb atagan, Araks (Amudaryo) daryosini ham tilga olgan.

Shuningdek, Gerodot yunon-fors urushlari bilan bog'liq ma'lumotlar orasida baqtriyaliklar haqida ham to'xtaladi. Gerodotning ma'lum qilishicha, Midiya va Lidiyani zabt qilgan Ahamoniylar shohi Kir II o'ziga juda katta tashvish keltirayotgan Baqtriya xalqi, sak va massagetlarga qarshi urushga "shaxsan o'zi boshchilik qilish, yunonlarga qarshi urushga esa boshqa lashkarboshini yuborishga" majbur bo'ladi. Bu esa Baqtriyaning ushbu davrda ancha qudratli davlatlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi.

Yunon tarixchilarining asarlarida saklar "dengiz orqasidagi saklar", "massaget-saklar", "katta saklar", "amirgiy saklar", "kaspiylar" va "ortokoribanti" kabi nomlar bilan tilga olingan[177].

Gerodot O'rta Osiyoning qadim aholisidan biri saklarni tasvirlar ekan, "saklar boshlariga uchi nayzali qalin namat, tik turuvchi qalpoq kiyganlar. Ular

---

[176] Геродот. История в девяти книгах. Л.: Изд-во "Наука", 1972 / Перевод и примечания Г. А. Стратановского, под общей редакцией С. Л. Утченко. Редактор перевода Н. А. Мещерский. Книга I, Клио. С. 214–215.

[177] Геродот. История в девяти книгах. Л.: Изд-во "Наука", 1972. С. 216–230.

shalvor kiyganlar, sak kamoni va xanjar bilan qurollangan. Bundan tashqari, ularda sagaris – ikki tomoni jangovor oybolta ham bor edi", deb qayd etilgan. Boshqa o'rinlarda ham Gerodot saklarning mardonavorligi va jangovorligini bir necha bor ta'kidlaydi.

Gerodot saklarning bir qismi chorvachilik, boshqa katta qismi esa Eron shohiga boj to'lovchi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi bo'lganligini yozib qoldiradi.

Gerodot "Тарих" asarining uchinchi kitobi 92 bobida ortokoribanti deb atalgan xalqlar to'g'risida ma'lumot beradi. Uzoq izlanishlardan so'ng ushbu nom Eronda qoyatoshlarga yozilgan "tigraxauda saklari" atamasining yunoncha talaffuzi ekanligini aniqladi. Mazkur xalqlar keyinchalik Markaziy Osiyoda ham o'zlarining qadimiy bosh kiyimlarini saqlaganlar, shuning uchun ular boshqa saklardan farqli o'laroq, yunonlar tomonidan "ortokoribanti" deb nomlangan.

"Sak" atamasining etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Yunonlar "sak" so'zi "skiflar yoki saklarning shohi" nomini bildiradi yoki yunoncha "saka" – "qalqon" so'zidan kelib chiqqan, deb qayd etsa, ba'zilar esa qadimgi Eron tilida "sak" (yurmoq, chopmoq, yugurmoq) so'zi bilan bog'lab, "yuguruvchi", "tez yuruvchi", "ko'chmanchi", "sayyoh" ma'nosini bildiradi, deb ta'kidlaydi.

Gerodot massaget qabilalari haqida nisbatan ko'proq ma'lumotlar beradi. Uning xabar berishicha, massagetlar jasur va ko'p sonli qabilalardir. Ular Sharqda, quyosh chiqish yo'nalishida, Araks daryosining narigi yonida, issedonlar ro'parasida joylashgan. Ba'zilar ularni skif qabilalari, deb ham hisoblagan. Massagetlarning kiyim-kechaklari va turmush tarzi skiflarnikidan uncha farq qilmaydi. Ularning otliq va piyoda qo'shinlari bo'lib, an'anaga ko'ra, kamon, nayza va harbiy cho'qmorlar bilan jang qiladilar. Temir va mis massagetlar yerida umuman uchramaydi, ammo oltin va kumush ularda juda ko'p[178]. Shuningdek, Gerodot massagetlar malikasi To'marisning fors podshosi Kir II bilan munosabatlari va ular o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar haqida ham batafsil ma'lumotlar beradi[179].

Muarrixlar "massaget" nomi biror qavmning asl nomi emas, balki xalqning maishatini anglatuvchi laqab bo'lishi kerak deydilar. Masalan, "massaget" so'zi tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarni ajratib, "Mas'ya" baliq, "ka" yeguvchi, "ga"lar, ya'ni "baliq, yeguvchilar" degan laqab bo'lganini taxmin qiladilar. Qadimgi Eron tillari bo'yicha mutaxassis L. M. Oranskiy "massagetlar sak qabilalarining katta ittifoqini tashkil etgan bo'lsa kerak. "Massaget" atamasini "katta saklar" (mas – katta, saka – sak, t – ko'plik qo'shimchasi) sifatida talqin etish mumkin", deb hisoblaydi[180]. Tarixiy faktlarga suyaniladigan bo'linsa, massagetlar miloddan avvalgi 700-yillarda skiflarni

---

[178] Геродот. История в девяти книгах. ... Книга 1, Клио. С. 216–230.
[179] Shu joyda. 215-216-бетлар.
[180] Оранский И. М. Введение в иранскую филологию. 2-е изд. М.: Наука, ГРВЛ, 1988. С. 56–87.

Markaziy Osiyoning g‘arbidan siqib chiqarib, o‘zlari ushbu hududlarni ishg‘ol qilgan. Gerodot ularning yashash joylari sifatida Orol dengizining janubiy sharqi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtalarini ko‘rsatadi.

Gerodot Ahamoniylar davridagi O‘rta Osiyo davlatlari va xalqlari haqida ham ma’lumot bergan. Gerodotning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriya Ahamoniylar davlatining o‘n ikkinchi viloyati (satrapligi)ni tashkil yetib, 300 talant, Parfiya, Xorazm, Sug‘diyona va oriylar o‘n oltinchi viloyat bo‘lib, 300 talant, saklar va kaspiybo‘yi xalqlari o‘n beshinchi viloyat bo‘lib, 250 talant, Parikaniya va Osiyo habashlari o‘n yettinchi viloyat bo‘lib, 400 talant boj to‘lagan. Bundan ko‘rinadiki, Markaziy Osiyo va Xuroson viloyatlaridan ahamoniylar har yili 1250 talant miqdorida boj olib turganlar[181].

Gekatey va Gerodot asarlarida O‘rta Osiyoning qadimiy mamlakatlari – Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona, dengiz va daryolari – Kaspiy dengizi, Amudaryo, Sirdaryo va aholisi va qabilalari – saklar, massagetlar, Sug‘diyonaliklar, baqiriyaliklar, xorazmliklar haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Bevosita Gerodot asari o‘rganilish tarixiga nazar tashlansa, “Tarix” asarining nemis olimi Shteyn tomonidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869–1871-yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856–1860-yillar[182]) hamda rus (F. G. Mishenko, Moskva, 1858–1860-yillar[183]) tillariga tarjima qilingan. 1982-yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A. I. Dovatur, D. P. Kallistov va I. A. Shishovalar[184] tomonidan yangidan nashr etilgan[185].

**Ksenofont va uning “Киропедия” asari.** Bu davr tarixchilaridan yana biri mil. avv. V–IV asrlarda yashagan Ksenofont[186] hisoblanadi. Asli kelib chiqishi afinalik bo‘lgan Ksenofont hayotining ko‘p qismini Sparta mulklarida o‘tkazgan va spartaliklar bilan birga fors shahzodasi Kir yurishlarida qatnashib Bobilgacha boradi (mil. avv. 401 y.). Ksenofont ko‘pgina asarlar yozgan bo‘lib, ular orasida mil. avv. 371–355-yillarda yozilgan “Киропедия”[187] asari alohida ahamiyatga egadir. Tarixchi ushbu asarida Ahamoniylar davlatining asoschisi Kir II va O‘rta Osiyodagi girkanlar va saklar haqida ko‘pgina ma’lumotlar beradi.

---

[181] Геродот. История в девяти книгах. Л.: Изд-во “Наука”, 1972. Перевод и примечания Г.А.Стратановского, под общей редакцией С. Л. Утченко. Редактор перевода Н. А. Мещерский. Книга 1, Клио. С. 215–216.

[182] The Histories of Herodotus, A Translation By George Rawlinson. L.:Scribe Publishing, 2018. 358 p.

[183] Геродот. История в девяти книгах. Перевод с греческого Ф. Г. Мищенка, с его предисловием и указателем. М., 1886.

[184] Доватур А. И., Каллистов Д. П., Шишова И. А. Народы нашей страны в «Истории» Геродота. Тексты, перевод, комментарий. М.: Наука. 1982.

[185] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 37-б.

[186] Ксенофонт // Военная энциклопедия : [в 18 т.] / под ред. В. Ф. Новицкого … [и др.]. СПб.; [М.] : Тип. т-ва И. Д. Сытина, 1911-1915.

[187] Киропедия. / Пер., ст. и прим. В. Г. Боруховича и Э. Д. Фролова. Отв. ред. С. Л. Утченко. (Серия “Литературные памятники”). М.: Наука, 1976. 336 с.

Shuningdek, mazkur asarda baqtriyaliklar ham bir necha marta tilga olinadi. Misol uchun, ushbu asarda Ksenofont sak kabilalarini Girkaniya bilan qo'shni yashab Kir bilan ittifoqchilikda bo'lganliklari haqida ma'lumot beradi. Qolaversa, tarixchi saklarni Kirning Bobilga tantanali kirib kelishi va otlar musobaqalarini tasvirlagan paytida ham eslatib o'tadi. Ksenofont Baqtriya, Kir bosib olgan o'lkalar va xalqlar haqida xabar bersa-da, ushbu voqealar qachon bo'lgani va qanday kechgani haqida hech qanday ma'lumotni keltirmaydi[188].

Ksenofontning "Киропедия" asari 1976-yilda V. G. Boruxovich va E. D. Frolova[189], "Юнонистон тарихи" asari 1993-yilda R. Svetlova[190], "Сармоя китоби" asari 1964-yilda E. Frolova[191], "Отда юриш санъати" asari 2005-yilda V. Ponaryadov[192] va "Гиерон" asari 2006-yilda A. Rossius[193] tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va chop etilgan.

**Ktesiy va uning "Форслар" kitobi.** Asli kelib chiqishi Kichik Osiyoning Knid shahridan bo'lgan Ktesiy[194] (mil. avv. V–IV asrlar) tabiblik bilan shug'ullangan. U bir qancha muddat ahamoniylar podshosi Artakserks II (mil. avv. 404–359-yy.) huzurida saroy tabibi vazifasida ishlagan[195]. Ktesiy podsho oilasiga ancha yaqin bo'lib, Suzada va ehtimol, Ekbatanada ham yashagan. Podsho saroyida faoliyat ko'rsatgan davrida Ktesiy ahamoniylar davlati tarkibidagi Sharq, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari haqida ko'plab hikoyalar eshitgan hamda podsho yilnomalaridan foydalanib, "Форслар" asarini yaratgan (mil. avv. IV asrning boshi)[196]. Uning ushbu asarida baqtriyaliklar va ularning qo'shnilari haqida ko'pgina ma'lumotlar saqlangan. Jumladan, tarixchi Ossuriya podshosi Nin va Baqtriya podshosi Oksiart va Kir II ning baqtriyaliklar bilan urushlari, Baqtriyaning juda ko'p mustahkam istehkom hamda va qal'alari haqida hikoya qiladi.

Ktesiy asarlari turli tillarga tarjima qilingan va o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan 1824-yilda nemis olimi Ch. Boxr[197], 1882-yilda J. Mak Krindl[198], 1913-yilda F. Jeykob[199], 1978-yilda T. Bravn[200], 1997-yilda

---

188 Киропедия / Пер., ст. и прим. В. Г. Боруховича и Э. Д. Фролова. Отв. ред. С. Л. Утченко. (Серия "Литературные памятники")..... С. 130–190.

189 Киропедия. ...

190 Греческая история. / Под ред. Р. В. Светлова. (Серия "Античная библиотека". Раздел "Античная литература"). СПб.: Алетейя. 1993. 448 с.

191 О доходах. / Пер. Э. Д. Фролова. // Хрестоматия по истории древней Греции. М., 1964.

192 О верховой езде. / Пер., вступ. ст. и комм. В. В. Понарядова. Сыктывкар, 2005. 80 с.

193 Гиерон, или Слово о тирании. / Пер. А. А. Россиуса. // Лео Штраус. О тирании. СПб., 2006.

194 Brown T. S. Suggestions for a Vita of Ctesias of Cnidus // Historia. 1978. Bd. 27.

195 Пьянков И. В. Восточные сатрапии державы Ахеменидов в сочинении Ктесия. М., 1966. С. 4.

196 Ктесий. О Персии (отрывок). Об Индии [в пересказе Фотия] // Древний Восток в античной и раннехристианской традиции. М.: Ладомир. 2007. С. 31-38.

197 Ctesiae Cnidi Operum reliquae // Fragmenta collegit, textum e codd. recognovit, prolegomenis et perpetua annotatione instruxit indicesque adiecit J. Ch. F. Baehr. Francofurti ad Moenum, 1824.

198 Mc Crindle J.W. Ancient India as Described by Ctesias the Cnidian. Calcutta-London, 1882.

199 Jacoby F. Ktesias (7) // Pauly's Real-Encyclopädie der classischen Altertumswissenschaft. Suppl. Hft. 2. 1913.

200 Brown T. S. Suggestions for a Vita of Ctesias of Cnidus // Historia, 1978. Bd. 27

K. Kartunen[201], 2008-yilda A. Nikols[202], 2010-yilda P. Yan[203] va boshqalar[204] tomonidan tarjima va tahlil qilingan. Rus tiliga esa 1966 hamda 1975-yillarda I. Pyankov[205] va boshqalar[206] tomonidan tarjima qilingan.

**Polibiyning "Умумий тарих" asari.** Polibiyning "Умумий тарих"[207] daliliy ma'lumotlarga boyligi va voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Polibiy qadimgi yunon tarixchisi, davlat arbobi va harbiy sarkarda bo'lib, mil. avv. 220-yildan mil. avv. 146-yilgacha bo'lgan Rim, Yunoniston, Makedoniya, Kichik Osiyo va boshqa mintaqalarda sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan 40 jildlik "Умумий тарих" (yoki "Tarix") asarining muallifidir. Ushbu to'plamning faqat dastlabki 5 ta jildi to'liq saqlanib qolgan bo'lib, qolganlari qisman yetib kelgan.

Polibiy o'zining "Тарихи" ni pragmatik asar deb atagan va birinchi navbatdagi vazifasini siyosiy hamda harbiy tarix voqealarini yoritishni tushungan. Tarixni "hayot muallimi" deb hisoblagan holda, u tarixchining asosiy vazifasini tavsiflashda emas, balki hodisalarni tushuntirish va hodisalarning sabablari hamda ularning o'zaro aloqalarini ochishda ko'rgan[208]. Uning bu qarashlari hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Tit Liviy o'z asarlarini yozishda ko'p marotaba Polibiyga murojaat qilgan va uni "katta hurmatga sazovor bo'lgan muallif" deb ta'riflagan[209]. Liverpul universiteti professori Frenk Uilyam Uolbenk tomonidan Polibiyning ishiga hozirgi kungacha bo'lgan eng mashhur sharhlar 3 jildda (1957, 1967, 1979) nashr etilgan[210].

Polibiy Fukididdan keyingi o'ringa qo'yilgan bo'lib, u tarixni davriy ketma-ketlikda, olimpiada yillariga asosan yoritib borgan. Uning asarida chalkash ma'lumotlar, xatoliklar birmuncha kamroq uchraydi. Shu sababli uning qadimiy davr muarrixlari orasida obro'si yuqori.

Uning asarida mintaqa to'g'risida turli ma'lumotlar, masalan Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) haqida, Antiox I ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor[211]. "Умумий

---

201 Karttunen K. Ctesias in Transmission and Tradition // Topoi, 1997. 7. 2. P. 635-645.

202 Nichols A. The complete fragments of Ctesias of Cnidus: translation and commentary with an introduction. Diss. Gainesville, 2008.

203 Jan P. Stronk: Ctesias' Persian History. Part I: Introduction, Text, and Translation, Wellem Verlag. Düsseldorf, 2010.

204 Ctesias' History of Persia. Tales of the Orient. Lloyd Llewellyn-Jones and James Robson. Routledge, 2010. 253 p.

205 Пьянков И. В. Восточные сатрапии державы Ахеменидов в сочинении Ктесия. М., 1966; Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия (текст, перевод, примечания). Душанбе, 1975.

206 Ктесий. О Персии (отрывок). Об Индии [в пересказе Фотия] // Древний Восток в античной и раннехристианской традиции. М.: Ладомир, 2007.

207 Полибий // Античные писатели: Словарь / Акад. гуманит. наук; Науч. ред.: М. В. Белкин, канд. ист. наук. СПб.: Лань, 1999. 446 с.

208 Полибий // Плата - Проб. М.: Советская энциклопедия, 1975.

209 Полибий // Античные писатели: Словарь ...

210 Walbank F. W. Polybius. University of California Press, 1979.

211 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 40-41-бетлар.

тарих" asarining matni 1882–1904-yillarda to'rt jildda Leypsigda chop etilgan[212]. Uning 1922–1927-yillarda inglizcha V. R. Paton [213] va rus tilida F. G. Mishenko, 1986-yildagi S. B. Mirzaev[214], 1995-yildagi G. S. Samoxina[215] hamda 2007-yildagi K. Frits[216] tomonidan qilingan tarjimalari mavjud.

**Diodorning "Тарихий кутубхона" asari.** Diodor[217] (mil. avv. I asr) yirik tarixchi olim bo'lib, Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahrida tug'ilgan. U "Tarixiy kutubxona" nomli 40 ta kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan ushbu asar asosan, Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan to milodiy I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek, skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va yurtimizning Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud[218].

Diodor Efor va Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, ushbu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga ega. Diodorning ushbu asari to'la holda hozirgi kungacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 ta, ya'ni qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1–5 kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari (mil. avv. 500–449-yillar)dan to mil.avv. 301-yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan 11–20 kitoblarigina saqlanib qolgan, xolos. Ushbu asar 1774–1775-yillarda rus tarixchisi I. Alekseev[219] olti qismli va 1874–1875-yillarda F. G. Mishenko tomonidan ikki qismli qilib nashr etilgan[220].

V. Strogetskiyning fikricha, Diodorning qarashlari tarix fani uchun muhimdir. Ijtimoiy nuqtai nazardan, Diodor qullikka qarshi bo'lganligini ta'kidlaydi. Ushbu xulosa har xil jamiyatlarda ham, tenglik e'lon qilingan va xususiy mulk mavjud bo'lmagan ideal jamiyatlarda ham real hayotni tavsiflashning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi[221].

Uzoq vaqt davomida Diodor tarixchi sifatida salbiy baholandi, uning ishiga tanqidiy munosabat ustun keldi. V. Strogetskiyning o'rinli xulosasiga ko'ra, uning asarlaridagi asosiy kamchiliklar sifatida birlamchi manbalarga

---

212 Polybii Historiae, editionem a Ludovico Dindorfi curatam, retractavit Theodorus Buttner-Wobst, Lipsiae in aedibus B. G. Teubneri, vol. 1, vol. 2, vol. 3, vol. 4, vol. 5, 1882-1904.

213 Polybius: The Histories. The Loeb Classical Library (in Ancient Greek, English, and Latin). Translated by Paton, W.R. London; New York: William Heinemann; G.P. Putnam's Sone, 1922-1927.

214 Мирзаев С. Б. Полибий. М.: Юрид. лит, 1986. 108 с.

215 Самохина Г. С. Полибий: эпоха, судьба, труд. СПб., Изд-во СПбГУ, 1995. 191 с.

216 Фриц К. фон. Теория смешанной конституции в античности: критический анализ политических взглядов Полибия. / Пер. с англ. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. 419 с.

217 Щепкин Е. Н. Диодор Сицилийский // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

218 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 38-б.

219 Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Ч.1-6. / Перевод И. А. Алексеева. СПб., 1774-1775.

220 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 32-33-бетлар.

221 Строгецкий В. М. Возникновение и развитие исторической мысли в Древней Греции (на материале изучения «Исторической библиотеки» Диодора Сицилийского). Горький, 1985.

nisbatan notanqidiy munosabat, xronologiyada kuzatiladigan ko'plab chalkashliklar va voqealarning haqiqiy sabablari o'rniga o'zining bashoratlari yozish va b. kuzatiladi[222].

XIX asrda tarixchilar orasida qadimiy tarixiy manbalar, shu jumladan, "Тарихий кутубхона" asariga nisbatan ham o'ta tanqidiy munosabat mavjud edi. Yagona manba konsepsiyasining klassik vakili K. A. Folkvardsenning fikricha, Diodor yunon tarixini Eford, Sitsiliya tarixini Timey, Rim tarixini esa Fabiydan ko'chirgan deb hisoblagan[223]. Ushbu gipotezani Diodor asarini manbaviy tahlil qilish asosida Novorossiysk universiteti professori M. I. Mandes ishonchli tarzda rad etgan edi[224].

Ko'pgina tadqiqotchilar XX asrda ham "Тарихий кутубхона" asariga faqat tanqidiy munosabatda bo'lishda davom etdilar. Ularning bu haqdagi umumlashtirilgan fikrini J. Byuri bildirgan bo'lib, unga ko'ra, "Diodorning qadr-qimmati faqat u eslatib o'tgan mualliflarning so'zlarini saqlab qolishda va boshqa hech narsada emas" deb yozgan edi[225]. A. D. Nok esa hatto tarixchini "o'zini talablari bor kichkina odam", deb tanqid qilgan[226].

Tarixshunoslikning Diodor asarlariga nisbatan tubdan yangi munosabati XX asrning 30-yillarda paydo bo'ldi. Bu yangicha qarashning shakllanishida M. Kunsning dissertatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotchi asar matnlari muallifning o'zi, ya'ni Diodor tomonidan yozilganligi isbotlab berdi[227]. Hozirgi kunda ham uning asariga turlicha qarashlar davom etmoqda, ammo olimning tarix faniga qo'shgan xissasi katta ekanligini hech kim inkor etmaydi.

**Pompey Trogning "Филипп тарихи" asari.** Pompey Trog[228] (mil. avv. I – milodiy I asrlari o'rtalari) – "Филипп тарихи" asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. Asli Galliyadan bo'lgan Rim tarixchisi Avgust davrida yashab o'tgan. Trog yunon manbalaridan, asosan Timagendan foydalangan holda Ossuriya shohi Nin davridan to o'zi yashab o'tgan zamonigacha bo'lgan dunyo tarixiga oid asar yozgan[229].

J. Yardley va V. Xekkelning yozishiga ko'ra, 44 ta kitobdan iborat ushbu asar afsonaviy Assuariya podsholari zamonidan to Rim imperatori Avgust (mil. avv. 63 – milodiy 14-yil) davrigacha bunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (mil.avv.

---

222 Строгецкий В. М. Диодор Сицилийский и его «Историческая библиотека» в оценке историографии // Вестник древней истории. 1983. № 4. С.176-186.

223 Volquardsen Ch.A. Untersuchungen Uber die Quellen der griechischen und sicilischen Geschichten bei Diodoros. Buch XI-XVI. Kiel: Schwers'sche Buchhandlung, 1868.

224 Мандес М. И. Опыт историко-критического комментария к греческой истории Диодора. Отношение Диодора к Геродоту к Фукидиду. Одесса: Экон. тип., 1901. 479 с.

225 Bury J.B. The Ancient Greek Historians. New York, 1958. Pp. 235-236.

226 Nock A.D. Posidonius // The Journal of Roman Studies, 1959. Vol. 49. Pp. 1-15.

227 Kunz M. Zur Beurteilung der Prooemien in Diodors Historischen Bibliothek. Univ. Zurich, 1935. (Diss.).

228 Трог Помпей // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

229 Shu joyda.

359–336-yillar) va Aleksandr davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan[230].

44 kitobdan faqat “Prolog” qismi, ya’ni Yunian Yustin[231] kitoblarning qisqacha mazmuni ko‘chirmasi saqlanib qolgan. Filippning tarixini yozishda Trog Gerodot, Ktesiy, Polibiy, Timey va boshqalarning asarlaridan foydalangan. Mazkur asarning qimmati shundaki, u bir talay noma’lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim va Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo‘lishi hamda tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda, inqirozga uchrashini qayd etadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch bu – urf-odat va taqdir, deb hisoblagan.

Pompey Trog skiflarni dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri, deb hisoblaydi (qadimiylikda ular misrliklar bilan bahslashadilar, degan mashhur ibora ham unga tegishli). “Skif” atamasi xalqning aniq nomi emas, balki ularning turmushini sifatlovchi ma’noni anglatgan. Yunon muarrixlarining ma’lumotlariga qaraganda, skiflar qadimda G‘arbda Dnepr daryosidan tortib, Sharqda Tyan-Shan tog‘larigacha cho‘zilgan dasht va sahrolarda yashagan. Ularning qabilalari massaget, dax, sak (shak) va derbik kabi nomlar bilan atalgan.

“Филипп тарихи” asarida skiflar Baqtriya, Aleksandr davrida Baqtriya va Sug‘dda qurilgan shaharlar, Aleksandr vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlari, Parfiya podsholigini tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya hamda Midiyaning o‘zaro munosabatlariga oid muhim ma’lumotlar mavjud[232]. A. Madraimovning tadiqotlariga asosan, Pompey Trogning ushbu asari Yustin (II–III asr) tarafidan kiskartirilib qakta ishlangan shaklda bizning zamonimizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935-yilda nashr qilingan. Uning ruscha tarjimasi 1954–1955-yillarda A. A. Dekonskiy va M. M. Rijskiy tomonidan “Вестник древней истории” jurnalida chop etilgan[233].

**Strabonning “География” asari**. Strabon[234] (mil. avv. I asr) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan biri bo‘lib, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohi), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotel (mil. avv. IV asr)ning shogirdi, qariyb 80 yil umr ko‘rgan. Mil. avv. 44-yilda Strabon Iskandariyaga sayohat qildi, u yo‘lda Afrika bo‘ylab suzib, dengizdan Kirenani ko‘rib o‘tdi. Iskandariyada u o‘sha paytdagi mashhur sayohat yo‘li, ya’ni Nil bo‘ylab Efiopiya chegarasigacha bordi. Uning

---

[230] John C. Yardley, Waldemar Heckel, Justin: Epitome of the Philippic History of Pompeius Trogus. Vol. I, Books 11-12: Alexander the Great. Oxford, 1997.

[231] Марк Юниан Юстин. Эпитома сочинения Помпея Трога «Historiae Philippicae». СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2005.

[232] https://web.archive.org/web/20060519214545/http://www.1september.ru/ru/his/2002/01/3.html. (Фойдаланилган сана: 25.03.2020)

[233] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 39-б.

[234] Страбон. География / пер. с др.-греч. Г. А. Стратановского, под ред. О. О. Крюгера, общ. ред. С. Л. Утченко. М.: Ладомир, 1994.

yo'nalishi quyidagi nuqtalar bo'ylab o'tgan edi: Geliopolis, Memfis, Piramidalar, Arsinoya, Fiva, Siena, Fila oroli, Efiopiya chegaralari va boshqa hududlar[235]. Ushbu sayohatlar uning keyingi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Strabonni dunyoga tanitgan, 17 ta kitobdan iborat "География" asaridir. A. Madraimovning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu asarda Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Oxa (Xarirud), Oks hamda Yaksart daryolari, saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, toxarlar, xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, ushbu xalqlarning turmush tarzi, urf-odat, e'tiqodlari, shuningdek, Parfiya va Baqtriyaning mil. avv III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim hamda qimmatli ma'lumotlar mavjud[236]. Masalan, sak qabilalari makedoniyalik Aleksandr istilosigacha Sirdaryoning quyi oqimida yashagan bo'lsa, keyinchalik Karki, Kalif va Shimoliy Afg'oniston yerlariga ko'chib o'tgan, Strabon ularni "dax" va "day" nomlari bilan atagan. Strabonning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Baqtriya, Sug'diyona, Midiya va Eron aholisi so'zlashadigan til bir-biriga yaqin bo'lgan.

Topilgan ashyolar qadimgi odamlarning kulolchilikda antik olamda tengi yo'q ustalar bo'lganligidan dalolat beradi. Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyonaning kulol ustalari yasagan sopol idishlar o'ziga xos san'at asarlari darajasiga ko'tarilgan. Bundan tashqari, shohona saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joylar qurishda o'lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsiz darajaga ko'tarilgan.

Asarning XII–XIV boblarida Kichik Osiyo tarixi yoritilgan bo'lsa, XV bobdan esa Eron va Hindiston haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Asarning XVI bobi Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Assiriya, Vaviloniya, Mesopotamiya, Suriya, Finikiya va Arab mamlakatlaridan hikoya qilsa, XVII bob esa Misr, Efiopiya va Liviya o'lkalariga bag'ishlangan.

Strabon Kaspiy dengizining sharqiy qismida yashovchi massagetlar hayotiga to'xtalar ekan, ushbu qabilalar haqida o'zidan oldin yashagan muarrixlar qariyb hech narsa yozmaganligini qayd etadi. Muallif Qora dengizning shimoliy qismida yashovchi skif, sarmat qabilalari haqida to'xtalar ekan, ushbu joylarni "varvarlarning yerlari" deb ataydi.

Kitob uchun asosiy manbalar sifatida Afinalik Eratosfen, Artemidor, Apollodor asarlaridan, Iberiya, Keltika, Italiyani tavsiflash uchun Polibiy va Posidoniy ma'lumotlaridan, Sitsiliya va quyi Italiya tavsiflash uchun Antiox ma'lumotlaridan, bundan tashqari Feofan, Megasfen, Nearxa, Onesikrita kabi tarixchilarning ishlaridan foydalangan[237].

---

[235] Shu joyda. География / пер. с др.-греч. Г. А. Страгановского, под ред. О. О. Крюгера, общ. ред. С. Л. Утченко. М.: Ладомир, 1994. С. 777.

[236] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 41-42-бетлар.

[237] Страбон // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

G‘arbda, o‘rta asrlarda Strabon va uning asari noma’lum edi. “География”ning bitta qo‘lyozmasini Jovanni Aurispa 1423-yilda Venetsiyaga olib kelgan (uni mashhur Ankon Kiriyak sotib olgan)[238]. G. Stratanovskiyning yozishicha, Vizantiya olimi Georgi Gemistiy Plifon[239] 1438-yilda Strabonning boshqa qo‘lyozmalarini olib kelib, ularga gumanistlar e’tiborini qaratgan[240].

Strabonning “География” asari 1815-yilda (Napoleon I tashabbusi bilan) Parijda nashr etildi (4 jildda); keyin G. Kramer (Berlin, 1844–1852, 3 jildda)[241], A. Meineke (1866-yilda)[242], K. Myuller va F. Dyubner (Parij, 1853–1856)[243] tomonidan maxsus xarita va sharhlar bilan qo‘shib nashr qilingan. Kitobning to‘liq ruscha tarjimasi F. G. Mishenko[244] tomonidan 1879-yilda, G. A. Stratanovskiy[245] tomonidan 1964 va 1994 yillarda qaytadan nashr etilgan.

**Kvint Kursiy Ruf va uning “Буюк Александр тарихи” asari.** Kvint Kursiy Ruf[246] (mil. I asr) – mashhur Rim tarixchisi bo‘lib, Aleksandrning turli mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat “Буюк Александр тарихи” asarini yozgan. Mil. avv. II–I asrlarda yozilgan mazkur asarning asl matn saqlanib qolmagan. Bir necha asrlar davomida u turli xil o‘zgarishlar, qisqartirishlar, qo‘shimchalar va qayta nashrlarni boshdan kechirdi, faqatgina milodiy III asrga kelib uning qisman to‘liq shakli topildi. Asardagi matnlar uchta asosiy guruhdan iborat: A, B va C. Ushbu turli xil nashrlarning qo‘lyozmalari Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Rim davrining so‘nggi nashri bilan bir qatorda asl yozuvning muallifi xalqdan kelib chiqqan iskandariyalik bo‘lgan deb ishoniladi.

Asarda O‘rta Osiyoga doir turli qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Kvint Kursiy Ruf Baqtriyani tabiati turli-tuman va go‘zal, unumdor yerlari ko‘p, sersuv, ekinzorlarga boy mamlakat, deb ta’riflaydi. Uning yozishicha, o‘lkaning aholisi ko‘p, ular bug‘doy va arpani ko‘p ekadilar, uzumzorlari bepoyon. O‘lkada mevalarning barcha turlari o‘sadi. Chorva mollarini boqishga qulay, yilqisi ko‘p, chopar otlarga boy mamlakat. Ayni paytda o‘lka hududida qumloq va ekin bitmaydigan yerlar ham anchagina. Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha, “skiflarning hatto nutqi ham jozibador edi. O‘zining go‘zal nutqi va

[238] Bigi E. Aurispa, Giovanni. Dizionario Biografico degli Italiani (in Italian). 1962. Vol.4
[239] Георгий Гемист Плифон. Речи о реформах / Пер. и пред. Б. Т. Горяинова // Византийский временник. 1953. Т. 6. С. 386–414.
[240] Стратановский Г. А. Страбон. География. Рукописное предание и первые издания Страбона (http://ancientrome.ru/publik/article.htm?a=1267926004)
[241] Kramer G. Strabonis Geographica, 3 vols, containing Books 1–17. Berlin: Friedericus Nicolaus, 1844-52.
[242] Strabo (1852–1853). A. Meineke (ed.). "Strabo, Geography". The Perseus Digital Library (in Greek). Tufts University.
[243] Стратановский Г. А. Страбон. География. Рукописное предание и первые издания Страбона (http://ancientrome.ru/publik/article.htm?a=1267926004)
[244] Страбон. География / перев. на русск. яз. Ф. Мищенко. М., 1879.
[245] Страбон. География / пер. с др.-греч. Г. А. Стратановского, под ред. О. О. Крюгера, общ. ред. С. Л. Утченко. М.: Ладомир, 1994.
[246] Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. ред. А. А. Вигасин. 2-е изд., испр. М.: Издательство МГУ, 1993.

madaniyatiga ega bo'lgan skiflarning o'sha davrlarda o'ziga xos adabiyoti ham bo'lgan"[247].

Kvint Kursiy Rufning "Александр Македонский тарихи" asarida skiflarning jasurligi va mardligini ta'riflaydi. Uning yozishicha, Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. "Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 kishini o'limga mahkum etganda, ular o'limdan ham qo'rqmasdan, xalq qo'shiqlarini baralla aytib, xursand bo'lib borardilar", – deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan Aleksandr asirlarni o'limdan saqlab qolib, hibsdan ozod qiladi.

Asarda massagetlarning jasoratlari haqida ham yorqin satrlar mavjud. "Massagetlar 800 nafar otliq jangchilarini qishloq yaqinidagi o'rmonga yashirib qo'yadilar. Bir necha kishi poda haydab, o'rmonga qarab bemalol ketaveradi. Tayyor o'ljani qo'ldan chiqarmaslik uchun Attin o'zining 300 otliq jangchisi bilan hech shubha qilmasdan o'rmonga kirib boradi. Massagetlar Attin qo'shiniga qo'qqisdan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashlaydilar".

Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning yozishicha, dastlabki paytda Aleksandr Spitamenga katta-katta va'dalar beradi, hatto Sug'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko'ra o'limni afzal biladi[248].

Ushbu asarda Spitamen fojiasiga sabab bo'lgan xoin, qo'rqoq va sotqinlarga doir ko'p ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, Kvint Kursiy Rufning asarida hozirgi O'zbekiston hududining Aleksandr qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen qo'zg'oloni keng yoritib berilgan.

Mazkur asar fors, arab, suryoniy, arman, kopt, malay va boshqa tillarda keng tarqalgan va V asr oxirlarida arman tiliga tarjima qilingan[249]. O'rta asr Sharqining buyuk shoirlari Firdavsiy[250], Nizomiy Ganjaviy[251], Alisher Navoiy[252] va boshqalar Aleksandr haqida turli hikoya hamda asarlar yozganlar.

XII asrda Lambert Tursk[253] va Aleksandr Bernelarning[254] fransuz tilidagi metrik versiyalari paydo bo'ldi. Fransuz tilidagi tarjimalar ingliz tilidagi asarlar asosini tashkil etdi (Aleksandr asari 1438-yilda Shotlandiyada tarjima qilingan), L. Lamprextning asari (taxminan 1130-yilda), Ulrix fon Eshenbax va Rudolf

---

[247] Квинт Курций Руф. История Александра Македонского.... 69–133-бетлар.

[248] Shu joyda.

[249] The Oxford Encyclopedia of Ancient Greece and Rome. Oxford University Press, 2009. Vol. I. P. 63.

[250] Фирдоуси / Османов М.-Н. О. // Ульяновск - Франкфорт. М.: Советская энциклопедия, 1977. (Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров; 1969-1978, т. 27).

[251] Статья «Низами Гянджеви» // История всемирной литературы: В 9 томах. АН СССР, 1983.

[252] Навои А. Стена Искандара / пер. В. Державина. Художественная литература, 1972.

[253] Ламбер, французский поэт // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[254] Александръ де-Берне, или Бернейскій // Энциклопедический словарь, составленный русскими учеными и литераторами. СПб., 1861.

Emskiy (XIII asrda) nemis she'riyatida ham taqdim etilgan[255]. XVI asrda 24 ta tilda "Александр асари"ning 90 ta koʻrinishlari ma'lum boʻlgan.

1470-yilda kitobning birinchi bosma nashri Venetsiyada chop etildi. Hatto oʻsha paytda ham yoʻqolgan qismlarni boshqa mualliflarning asarlaridagi ma'lumotlar bilan toʻldirishga birinchi urinishlar qilingan. XVI–XVII asrlarda "Буюк Александр тарихи"ning yuzga yaqin nashri paydo boʻldi[256] va mazkur kitob asosida bir nechta pesalar yozilgan.

Kitobning eng taniqli nashrlaridan biri – fransuz akademiyasining faxriy a'zosi Klod de Vojla[257] tomonidan 1653-yilda nashr etilgan tarjimasi hisoblanadi. "Буюк Александр тарихи" 1841-yilda Myusel, 1867-yilda T. Nyoldeke va 1885-yilda esa Fogellar tomonidan nemis tilida nashr etilgan[258].

Kvint Kursiy Rufning asarlari rus tiliga ham tarjima qilindi. Uning asarlarining lotin tilidan rus tiliga birinchi tarjimasi 1709-yil Moskvada amalga oshirilgan. Tarjimon noma'lum. 1709–1724-yillar oraligʻida jami 5 ta kitob nashr etilgan. Keyinchalik turli yillarda bir qator tadqiqotchilar tomonidan Kvint Kursiy Ruf asarlari rus tiliga oʻgirildi va nashr etildi[259].

**Plutarx va uning "Қиёсий ҳаётнома" asari.** Plutarx[260] (mil. I–II asr) yunonistonlik tarixchi va faylasuf, Rim imperiyasi davrida ijod qilgan muarrixlardan. Olim Beoteya yaqinidagi Xeroneya hududida tavallud topgan. Plutarx zamondoshlariga ham jamoat arbobi sifatida, ham faylasuf sifatida yaxshi tanish edi. U bir necha bor Rimga va Italiyaning boshqa joylariga tashrif buyurgan, oʻzining koʻplab talabalari boʻlgan, ularga yunon tilida dars bergan. Rimda Plutarx koʻplab taniqli insonlar bilan doʻstona munosabatlarni oʻrnatdi. Ular orasida Arulen Rustic, Lutsiy Mestriy Flor, Kvint Sosiy Senetsion bor edi. Rimlik doʻstlari Plutarxga qimmatli xizmatlarni koʻrsatdilar. Ular yordamida Plutarx Mestrius oilasining toʻliq rasmiy a'zosiga aylanib, Plutarx Rim fuqaroligini oldi va yangi ism – Mestrius Plutarx deb atala boshladi. U Senetsion tufayli oʻz viloyatidagi eng nufuzli shaxsga aylandi: imperator Trayan Axayya gubernatoriga har qanday tadbirlarni Plutarx bilan oldindan kelishmasdan

---

[255] Zeidler. «Die Quellen von Rudolfs von Ems Wilhelm von Orlens». Берлин, 1894.
[256] История Александра Великого / Пер. А.Егунова // Поздняя греческая проза. М.: Худ. лит., 1960. С. 397-416.
[257] Венгерова З. А. Вожела, Клод Фавр // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.
[258] Bernhard M. Gründerzeit der Orientalistik. Theodor Noldekes Leben und Werk im Spiegel seiner Briefe. Ergon-Verlag. Würzburg, 2013.
[259] Крашенинников, Степан Петрович // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907; Квинта Курция о жизни Александра. С дополнениями И. Фрейнсгемуса. / Пер. А. Мартоса. СПб, 1819. Ч. 1. 380 с. Ч. 2. 334 с.; Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги. / На лат. и рус. яз., пер. К. А. Морозовой и И. А. Мироновой (кн. III), В. С. Соколова и А. Ч. Козаржевского (кн. IV-V, IX-X), И. А. Мироновой (кн. VI), Д. А. Дрбоглава (кн. VII), А. Ч. Козаржевского (кн. VIII) под ред. В. С. Соколова. М., Издательство МГУ, 1963. 478 с.; Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. ред. А. А. Вигасин. 2-е изд., испр. М.: Издательство МГУ, 1993.
[260] Плутарх // Большая российская энциклопедия. Т. 26. М., 2014.

o'tkazishni taqiqladi. Ushbu holat Plutarxga o'z vatani, ya'ni Xeroneyada ijtimoiy va ta'lim faoliyati bilan erkin shug'ullanish imkoniyatini bergan edi.

Lampriusning katalogiga ko'ra, Plutarx o'zidan so'ng 210 ga yaqin asar qoldirgan. Ularning muhim qismi hozirgacha saqlanib qolgan. Uyg'onish davri noshirlaridan kelib chiqadigan an'anaga ko'ra, Plutarxning adabiy merosi ikki katta guruhga bo'linadi: falsafiy va publitsistik asarlar, ular umumiy nom bilan "Ахлоклар" deb nomlangan[261].

Plutarx o'zining ilmiy mashhurligiga eklektik falsafiy mulohazalar yoki axloq to'g'risidagi yozuvlari uchun emas, balki biografik xarakterdagi asari tufayli erishdi. Plutarx o'z maqsadlarini Amilius Paulusning tarjimai holini yozishga kiritishda qayd etgan, ya'ni qadimgi buyuk insonlar bilan muloqot tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi va agar tarjimai hol qahramonlarining hammasi ham jozibali bo'lmasa-da, salbiy misollar ham tarixiy va tarbiyaviy qimmatga ega.

O'zining biografiyasida Plutarx har qanday harakat fazilat yaratadi deb, axloq sohasida inson harakatlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotiga amal qiladi. Plutarx asarlarida o'z navbatida qahramonning tug'ilishi, yoshligi, fe'l-atvori, faoliyati va o'limini tavsiflovchi biografiyalar sxemasiga amal qiladi. Ammo, Plutarx hech qaysi asarida tarixiy faktlarni tanqidiy tekshirib ko'rmagan. U uchun mavjud bo'lgan ulkan tarixiy materialdan juda erkin foydalangan, va doimo "biz tarixni emas, balki biografiyani yozmoqdamiz", deb ta'kidlagan. Uning asarlarida ko'plab axloqiy fikrlar, shoirlarning turli xil so'zlari, hatto hajviy latifalar ham mavjud. Plutarxning tarjimai holi muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, uning qo'lida keyinchalik yo'qolgan ko'plab qimmatli manbalar bo'lgan.

Uning asarlarining qimmati shundan iboratki, "Қиёсий ҳаётнома"[262] asarida u rimlik va yunonistonlik mashhur insonlar biografiyasini qiyoslab ta'riflagan. Bugungi kungacha 22 juft shaxsning biografiyasi bizga ma'lum. Jumladan, S. Averinsevning qayd etishicha, ular orasida bir-biriga mos tushgan ko'plab juftliklarni uchratish mumkin: Afina va Rimning afsonaviy asoschilari – Tesey va Romul; birinchi qonun to'plami mualliflari – Spartalik Likurg va Numa Pompiliy; mashhur sarkardalar – Buyuk Aleksandr va Yuliy Sezar; taniqli notiqlar – Sitseron va Demosfen va boshq[263].

---

[261] Shu joyda. 454-6.

[262] Сравнительные жизнеописания / Пер. С. П. Маркиша, М. Е. Грабарь-Пассек, С. И. Соболевского. Т. I–III. М–Л., 1961–1964; второе издание: Т. I–II. М., 1994.

[263] Аверинцев С. С. Добрый Плутарх рассказывает о героях или счастливый брак биографического жанра и моральной философии // Плутарх. Сравнительные жизнеописания в двух томах. М.: Наука, 1994. С. 653.

Bugungi kungacha saqlanib qolgan qismlari turli tillarga tarjima qilingan. Fransuz tilida ilk nashr 1572-yilda Parijda Jakyu Amyut tomonidan bajarilgan[264] va 1971-yilda qayta nashr qilingan.

Plutarx asarlarining rus tilidagi tarjimalari XVIII asrdan boshlab chop etilgan. 1771 va 1786-yillarda S. Pisarev[265], 1789-yilda I. Alekseev[266], 1807-yilda Ye. Sferin[267], 1810–1821-yillarda S. Distunis[268], 1862-yilda V. Gere[269], 1889-yilda A. Suvorin[270], 1893-yilda Ya. Elpinidskiy[271], 1961–1964, 1973-yillarda S. S. Averinsev[272], M. L. Gasparov va S. P. Markish[273], 2000-yilda G. A. Ivanova[274] tomonidan nashr qilingan.

**Klavdiy Ptolomey va uning "География" asari.** Ptolomey Klavdiy[275] (mil. II asr) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan. Jahonga mashhur "Алмагест" – "Ал-мажастий" (18 ta kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini oʻz ichiga oladi)[276], "Optika" (5 ta kitobdan iborat), "География"[277] va "Германлар ҳақида тушунча" (3 ta kitobdan iborat)[278] shular jumlasidandir.

Lekin, olimga shuhrat keltirgan asarlari "Алмагест" va "География"dir. "География"ning (8 ta kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrogʻi uning 24-bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bagʻishlangan va katta ilmiy qimmatga ega[279].

Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatlari keltirilgan hamda unga 27 ta xarita ilova qilingan. Ptolomeyning "География"sida Girkaniya, Margʻiyona, Baqtriya, Sugʻdiyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va Sugʻdiyonaning mashhur

---

[264] Les oeuvres morales & meslées de Plutarque, translatées de grec en françois par Jacques Amyot. Paris: M. de Vascosan, 1572; R Paris: Mouton, etc., 1971.
[265] Писарев С. Наставления Плутарха о детоводстве. СПб., 1771.
[266] Алексеев И. Нравственные и философические сочинения Плутарха. СПб., 1789.
[267] Сферин Е. О суеверии. СПб., 1807.
[268] Дистунис С и др. Плутарховы сравнительные жизнеописания. СПб., 1810, 1814-16, 1817-21.
[269] Жизнеописания Плутарха / под ред. В. Герье. М., 1862.
[270] Суворин А. Жизнь и дела знаменитых людей древности. М., 1889.
[271] Елпидинский Я. С. Религиозно-нравственное мировоззрение Плутарха Херонейского. СПб., 1893. 462 с.
[272] Аверинцев С. С. Плутарх и античная биография: К вопросу о месте классика жанра в истории жанра. М., 1973.
[273] Плутарх. Сравнительные жизнеописания: В 3 тт. / Изд. подготовили С. С. Аверинцев, М. Л. Гаспаров, С. П. Маркиш. Отв. ред. С. С. Аверинцев. М.-Л.: Издательство АН СССР, 1961-1964.
[274] Плутарх. О лике, видимом на диске Луны. / Пер. Г. А. Иванова. По материалам сборника «Философия природы в античности и в средние века». М.: Прогресс-Традиция, 2000.
[275] Toomer G. Ptolemy (or Claudius Ptolemaeus). Complete Dictionary of Scientific Biography, 1970.
[276] Захаров А.И. Античная фотометрия и датирование звездного каталога "Альмагеста" по величинам входящих в него южных звезд // Русский переплет, 2000.
[277] Клавдий Птолемей. Руководство по географии (отрывки) // Античная география / Пер. С. К. Апта и В. В. Латышева. М., 1953. С. 286-323.
[278] Клавдий Птолемей. Германия Магна. Перевод с древнегреческого с комментариями Александра Козинского. М: Litres, 2018. 180 с.
[279] Еремеева А. И. Памятные даты истории астрономии в 1987 году // Астрономический календарь на 1987 г. М.: Наука, 1986. С. 262-268.

shaharlari, ushbu mamlakatlar, ular bilan tutash o'lkalar hamda ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

A. Bogolyubovning fikriga ko'ra, "География" asarida Ptolomey matematik geografiya va kartografiyaga asos solgan[280]. Skandinaviyadan Misrgacha va Atlantika okeanidan Hindixitoygacha bo'lgan sakkiz ming punktning koordinatalarini nashr etdi. N. Borisovskayaning bergan ma'lumotiga asosan, Klavdiy Ptolomey keng va puxta to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuningdek, hali topilmagan va, ehtimol, abadiy yo'qolgan, yer yuzining xaritasini tuzgan[281]. Asosan, sayohatchilar hikoyalariga binoan, tuzilgan ushbu ma'lumotlar va xaritalar to'g'ri bo'lmasa-da, yerning aholi yashaydigan hududlarining kengligi hamda ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatish uchun o'sha vaqtda juda muhim sanalgan.

Ptolemey shaxsi va uning asarlari ko'plab rus hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Rus tadqiqotchilaridan I. Veselovskiy[282], N. Idelson[283], A. Bogolyubov[284], A. yeremeeva[285], Yu. Yefremov va ye. Pavlovskaya[286], V. Bronshten[287], M. Klayn[288], G. Matvievskaya[289], G. Kurtik[290] va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Xorijlik tadqiqotchilardan M. Shal[291], A. Drashman[292], G. Tumer[293], V. Xyut[294], G. Brumellen[295], A. Berker[296] va A. Jonslarning[297] ilmiy izlanishlarini alohida qayd etish kerak.

---

280 Боголюбов А. Н. Математики. Механики. Биографический справочник. К.: Наукова думка, 1983. 639 с.
281 Борисовская Н. А. Старинные гравированные карты и планы. М.: Галактика, 1992. С. 7-8.
282 Веселовский И. Н. Очерки по истории теоретической механики. М.: Высшая школа, 1974. 287 с.
283 Идельсон Н. И. Этюды по истории небесной механики. М.: Наука, 1975. 496 с.
284 Боголюбов А. Н. Математики. Механики. Биографический справочник. К.: Наукова думка, 1983. 639 с.
285 Еремеева А. И. Памятные даты истории астрономии в 1987 году // Астрономический календарь на 1987 г. М.: Наука, 1986. С. 262-268.
286 Ефремов Ю. Н., Павловская Е. Д. Датировка «Альмагеста» по собственным движениям звёзд // Доклады Академии наук СССР. 1987. Т. 94. № 2.
287 Бронштэн В. А. [www.astro-cabinet.ru/library/Ptolemey/Bron_ogl.htm Клавдий Птолемей] / Отв. ред. А. А. Гурштейн. М.: Наука, 1988. 239 с.
288 Клайн М. Математика. Поиск истины. М.: Мир, 1988. 2295 с.
289 Матвиевская Г. П. Очерки истории тригонометрии. Ташкент: Фан, 1990. 160 с.
290 Куртик Г. Е. Понятие скорости в античной науке: Аристотель - Птолемей // Исследования по истории физики и механики. 1991-1992. М.: Наука, 1997. С. 219-248.
291 Шаль, Мишель. Исторический обзор происхождения и развития геометрических методов / Пер. В. Я. Цингера. М., 1883.
292 Drachmann A. G. Heron and Ptolemaios // Centaurus, 1, 1950. P. 117-131.
293 Toomer G. Ptolemy (or Claudius Ptolemaeus). Complete Dictionary of Scientific Biography, 1970.
294 Хютт В. Птолемей // Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция: Л. И. Ильичёв, П. Н. Федосеев, С. М. Ковалёв, В. Г. Панов. М.: Советская энциклопедия, 1983. С. 552-553.
295 Brummelen van G. Lunar and planetary interpolation tables in Ptolemy's Almagest // Journal for the history of astronomy, 25, 1994. P. 297-311.
296 Barker A. Scientific Method in Ptolemy's Harmonics. Cambridge, 2000.
297 Jones A. Ptolemy. In: New Dictionary of Scientific Biography, 2007.

**Arrian Flaviy va uning “Александр юришлари” asari.** Arrian Flaviy[298] (mil. II asr) yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geografi bo‘lib, asli Kichik Osiyoning Nikomediya shahrida tug‘ilgan. Ustozi Epiktetdan falsafa bo‘yicha darslar olgan. Juda yuqori davlat lavozimlari, jumladan, Kappadokiya hokimi va Afinada arxont-eponim[299] bo‘lib, faoliyat olib borgan. Imperator Antoniy Piy davrida Rimning konsuli bo‘lib ishlagan. Lavozimidan kelib chiqqan holda ko‘p marotaba sayohatlarga borgan va ko‘p yurtlarni o‘z ko‘zi bilan kuzatgan.

U “Александр ҳакида”, “Парфияликлар ҳақида”, “Ҳиндистон” va 7 jildlik “Александрнинг юришлари” nomli kitoblar muallifidir[300]. Arrianning ko‘plab asarlari bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Masalan, 10 jilddan iborat diadoxlar tarixi, imperator Trayanning Parfiyadagi urushlari batafsil yoritilgan 17 jilddan iborat “Парфия тарихи” va 8 jilddan ibrat “Вифиния тарихи” asarlari shular jumlasidandir.

O‘rta Osiyo va Eronning qadimiy tarixini o‘rganishda Arrianning “Александрнинг юришлари” nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O‘rta Osiyo hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan. Asar panegrizm-maddohlik ruhida yozilgan – muallif Aleksandr va uning faoliyatini ko‘klarga ko‘tarib ulug‘laydi. Shunga qaramay, u ko‘pgina qo‘lyozmalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilganligi sababli mavzu bo‘yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Spitamenning o‘limi haqida Arrian quyidagi rivoyatni keltiradi: “Skif-massagetlar yengilganlaridan so‘ng o‘zlari bilan birga ittifoq bo‘lib, dushmanga qarshi jang qilgan baqtriyaliklar va sug‘dlarning yuklarini talaydilar hamda qochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga “Aleksandr dashtga hujum boshlar emish”, degan xabar kelgach, Spitamenning boshini tanasidan judo qilib shohga yuboradilar va shu yo‘sinda Aleksandr hujumining oldini olmoqchi bo‘ladilar”.

Arrian asarlarining rus tilidagi nashrlari XIX asrdan tarjima qilinib, avvaliga asosan, harbiy, keyinchalik umumiy tarix fanini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan.

“Александрнинг юришлари” asarining rus tiliga tarjimasi 1837-yilda Harbiy kutubxona tashabbusi bilan[301], 1912-yilda N. Korenkov tarjimasida Toshkentda[302], 1962-yilda M. Ye. Sergeenko tarjimasida[303], 1993-yilda Mif nashriyoti tomonidan qayta nashr etilgan[304].

---

[298] Арриан, Флавий // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[299] Afinadagi yuqori lavozim. Bosh vazir, ijroiya hokimyati boshlig‘i kabi yuqori lavozimlardan biri hisoblangan.

[300] Походы Александра. // Военная библиотека, ч. 1, кн. 6. СПб., 1837. С. 385-548; Арриан. Индика // Вестник древней истории. 1940. № 2. С. 230-263; Flavius Arrianus. Tactical Handbook and The expedition against the Alans. / Translated and edited by J. D. DeVoto. Chicago, 1993.

[301] Походы Александра. // Военная библиотека. Ч. 1, кн. 6. СПб., 1837. С. 385-548.

[302] Арриан. Анабасис Александра. / Пер. Н. Кореинькова. Ташкент, 1912. 366 с.

“Ҳиндистон” (Indika) asarining rus tiliga tarjimasi 1940-yilda Qadimgi tarix xabarnomasida[305], 2002-yilda M.D. Buxarin tarjimasida[306], 2007-yilda G. A. Taronyan[307] tarjimasida nashr etildi.

“Тактика” asarining ingliz tilidagi varianti 1993-yilda J. Devoto tomonidan Chikagoda[308], rus tilidagi tarjimasi 2010-yil A. K. Nefyodkin[309] va shu yili S. M. Perevalovlar[310] tomonidan chop etildi.

Arrian shaxsi va uning biografiyasiga oid tadqiqotlar esa O. Kryuger[311], S. Sobolevskiy[312], D. Sibukidis[313], A. Nefyodkin[314] asarlarida va turli ensiklopediya hamda lug‘atlarda[315] yoritilgan.

**Yustin va uning “Помпей Трог эпитоми” asari.** Yustin[316] milodiy II–III asrlarda yashagan rimlik tarixchi. O‘zining “Филипп тарихи” muallifi Pompey Trog asariga epitom yozgani bilan tarixda qolgan. Yustinning epitomi dunyo, asosan, Makedoniya tarixini qadimiy davrlardan I asrgacha bo‘lgan voqealarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kitobdan V asr tarixchisi Oroziy foydalangan bo‘lib, uning asari o‘rta asrlarda ham qadrlangan.

Yustinning yozuv uslubi soddaligi va ixchamligi bilan ajralib turib, juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va hali ham tarix fani uchun muhim manbalardan hisoblanadi. Yustin o‘z tarixini boshqa qadimiy mualliflarning asarlari bilan taqqoslaganda ko‘ngilochar va ibratli faktlarning tavsifiga e’tibor qaratadi, ammo ko‘pincha ma’lumotlar orasida noaniqliklar uchraydi. Biroq, Yustin, aniqrog‘i, Pompey Trogning manbalari boshqa mualliflardan topib bo‘lmaydigan noyob ma’lumotlarni bizga yetkazadi. Yustin “Pompey Trog”ning misrliklarning qadimiyligi haqidagi versiyasini takrorladi, skiflarning dastlabki qirollari nomlarini keltiradi va ular bilan bog‘liq voqealarni tasvirlab beradi. Yustinning o‘zi haqida hech narsa ma’lum emas va hattoki

---

303 Арриан. Поход Александра. / Пер. М. Е. Сергеенко. Вступ. ст. О. О. Крюгера. М.-Л.: Изд-во АН, 1962. 384 с.

304 Арриан. Поход Александра. / Пер. М. Е. Сергеенко. Вступ. ст. О. О. Крюгера. М.: Миф, 1993. 272 с.

305 Арриан. Индика // Вестник древней истории. 1940. № 2. С. 230-263.

306 Флавий Арриан. Индика. / Пер. М. Д. Бухарина. // Индия и античный мир. М.: Вост. лит. 2002. С. 261-291.

307 Об Индии // Древний Восток в античной и раннехристианской традиции (Индия, Китай, Юго-Восточная Азия). / Пер. и примеч. Г. А. Тароняна. М.: Ладомир, 2007. С. 182-196.

308 Flavius Arrianus. Tactical Handbook and The expedition against the Alans. / Translated and edited by J. D. DeVoto. Chicago, 1993.

309 Арриан. Тактическое искусство = Appianoy texnh taktikh: Flavii Arriani ars tactica / Пер., комм., вступ. ст. А. К. Нефёдкина. СПб.: Факультет филологии и искусств СПбГУ: Нестор-История, 2010. 286 с.

310 Перевалов С. М. Тактические трактаты Флавия Арриана: Тактическое искусство; Диспозиция против аланов. Тексты, перевод, комментарии. М.: Памятники исторической мысли, 2010. 392 с.

311 Крюгер О. О. Арриан и его труд «Поход Александра». М., 1902.

312 Соболевский С. И. Флавий Арриан // История греческой литературы. Т. 3. М., 1960. С. 189-194.

313 Цибукидис Д. И. Древняя Греция и Восток. М., 1981.

314 Нефёдкин А. К. Арриан: жизнь и творчество // Арриан. Тактическое искусство. СПб., 2010.

315 Арриан. // Античные писатели. Словарь. СПб.: Издательство «Лань», 1999.

316 Юстин, историк // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

uning ismi ham turli qo‘lyozmalarda boshqacha yozilgan, masalan: Markus Yunianus Yustinus yoki Yustinus Frontinus.

Yustin “Помпей Трог эпитоми”[317] asarida Aleksandr Baqtriya va Sug‘diyonada 7 ta shahar qurdirganligini yozadi. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan “Aleksandriya Esxata”, ya’ni olisdagi Aleksandriya edi. Ushbu shahar Xo‘jand bilan Bekobod oralig‘ida joylashgan edi. Aleksandr mazkur shaharlarda yunon-makedon qo‘shinlarini joylashtirib, kelgusi joylarni zabt etishda ushbu shaharlardan platsdarm sifatida foydalangan edi. Shu sababdan, Aleksandr “Aleksandriya Esxata”ni tezda barpo etib, bu yerdan saklar ustiga yurish boshlagan edi.

Bundan tashqari, Aleksandrning O‘rta Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, uning vayronagarchilik va buzg‘unchiligi o‘n chandon ortiqroq bo‘lgan, behisob shahar hamda qishloqlarni vayron etgan. Pompey Trogning ushbu asari Yustin (II–III asr) tomonidan qisqartirilib, qayta ishlangan shaklda hozirgi kungacha yetib kelgan.

Yustinning asari XVII asrda rus tiliga ilk marotaba tarjima qilingan, ammo bizgacha saqlanib qolmagan. XVIII asrda, aniqrog‘i 1768-yilda N. Popov[318], 1824-yilda S. Borzetsovskiy[319], 1954–1955-yillarda A. Dekonskiy va M. Rijskiy[320]lar tomonidan tarjima qilinib, nashr qilingan. Asar 2005-yilda[321] qaytadan chop etildi.

Umuman olganda, yunon va rim muarrixlarining asarlarida O‘rta Osiyo ko‘chmanchi chorvador hamda o‘troq ziroatchi xalqlarining xo‘jalik hayoti, turmush tarzi va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy hayoti va diniy qarashlari ham antik davr mualliflarining e’tiboridan chetda qolmagan.

## Qadimiy Xitoy manbalari

O‘zbekistonning uzoq o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda Xitoy manbalari muhim rol o‘ynaydi. Ularni tahlil qilish orqali mintaqa aholisi hamda madaniyati to‘g‘risida turli yangi, yunon va rim manbalarida uchramaydigan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Bu ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali mintaqa to‘g‘risida umumiy, xolisona va tarixiy haqiqatga yaqin

---

317 Марк Юниан Юстин. Эпитома сочинения Помпея Трога «Historiae Philippicae» СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2005.

318 Юстин. Древней универсальной истории Трога Помпея сократитель. / Пер. Н. Попова. СПб., 1768. 598 с.

319 Всеобщая история Юстина, извлеченная из бытописаний Трога Помпея. Перевод С. Борзецовского. Ч. 1-3. СПб., 1824.

320 Марк Юниан Юстин. Эпитома сочинения Помпея Трога «Historiarum Philippicarum». / Пер. А. А. Деконского и М. И. Рижского. Статья К. К. Зельина // Вестник древней истории. 1954. № 2-4; 1955. № 1.

321 Марк Юниан Юстин. Эпитома сочинения Помпея Трога «Historiarum Philippicarum». / Пер. А. А. Деконского и М. И. Рижского. Переизд.: Комм. М. Ф. Высокого, О. Л. Габелко, А. В. Короленкова, Е. Ю. Лебедевой. (Серия «Классики античности и средневековья»). М.: РОССПЭН, 2005. 640 с.

o‘tmish manzarasini qayta tiklash mumkin bo‘ladi. Ushbu manbalar bilan qisqacha tanishib o‘tsak.

**“Ши Цзи”** (“Тарихий эсдаликлар”)[322] – Xitoy tarixchilarining otasi hisoblanadigan Sima Syan (tahminan mil. avv. 145 yoki 135–86-yillar)ning 130 bobdan iborat asaridir. Sima Syanning “Ши Цзи” nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o‘tgan tarixi yoritilgan. Asarda O‘rta Osiyo, xususan, uning 123 bobida Farg‘ona vodiysining qadimiy xalqlari hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlar mavjud.

“Ши Цзи”ning to‘la matni olti jildda 1959-yili Pekinda chop etilgan[323]. Rus tiliga I. Ya. Bichurin[324], L. S. Vasilev[325], L. S. Perelomov[326], Yu. L. Krol[327] va boshqlar tomonidan tarjima qlinib, chop etilgan. E. Shavann[328] (1865–1905) tomonidan fransuz tiliga tarjima qlinib, 1895-1918-yillari 5 jildda chop etilgan[329].

Ingliz tilida bajarilgan so‘nggi tadqqtlar 1999-yilda G. Xardi[330], 2010-yilda M. Ker[331], 2011-yilda V. Naynxauzer[332] va D. Knechtgez tomonidan 2014-yilda tarjima hmda tahil qlingan[333].

**“Цянь Хан шу”** (“Аввалги Ханъ сулоласининг тарихи”)[334] – yirik tarixchi olim Ban Gu (39–92-yy) asaridir. “Цянь Хан шу”ning 95 bobida O‘rta Osiyo (ayniqsa, qang‘li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqlari hamda uning hayoti haqida muhim ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Manbaning so‘nggi tarjima va tahlili R. V. Vyatkin[335] tomonidan rus tilida, E. Uilkinson[336] tomonidan ingliz tilida amalga oshirildi.

---

322 Сыма Цянь. Исторические записки. М.: Восточная литература, 1972.

323 史記 （三家注） [Shiji with Commentary of the Three Experts] (in Chinese). Commentary by Pei Yin (裴駰), Sima Zhen (司馬貞), and Zhang Shoujie (張守節). Zhonghua Publishing House, 1959.

324 Бичурин И.Я. Сань-цзы-цзин, или Троесловие с литографированным китайским текстом. СПб., 1829.

325 Васильев Л. С. Культы, религии, традиции в Китае. М.: Наука, 1970. 480 с.

326 Переломов Л.С. Империя Цинь – первое централизованное государство в Китае (221-202 до н. э.). М.: ИВЛ., 1962. 244 с.

327 Кроль Ю.Л. Сыма Цянь – историк / Отв. ред. Л. П. Делюсин. М.: Наука, ГРВЛ, 1970.

328 Chavannes É. "Le Traite sur les sacrifices Fong et Chan de Se-ma Ts’ien, traduit en français" ("Sima Qian’s Treatise on the Feng and Shan Sacrifices, Translated into French"). Journal of the Peking Oriental Society, 1890.

329 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 49-б.

330 Hardy G. Worlds of Bronze and Bamboo: Sima Qian’s Conquest of History. New York, NY: Columbia University Press, 1999.

331 Kern M. "Early Chinese literature, Beginnings through Western Han". In Owen, Stephen (ed.). The Cambridge History of Chinese Literature, Volume 1: To 1375. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 2010. Pp. 1–115.

332 Nienhauser W. "Sima Qian and the Shiji". In Feldherr, Andrew; Hardy, Grant (eds.). The Oxford History of Historical Writing: Volume 1: Beginnings to AD 600. Oxford University Press, 2011. Pp. 463-484.

333 Knechtges D.R. "Shi ji 史記". In Knechtges, David R.; Chang, Tai-ping (eds.). Ancient and Early Medieval Chinese Literature, A Reference Guide: Part Two. Leider, South Holland: Brill. Pp. 897-904.

334 Цянь ханъ Шу // Советская историческая энциклопедия \: в 16 т. / под ред. Е. М. Жукова. М.: Советская энциклопедия, 1974.

335 Ханъ Шу / Вяткин Р. В. // Советская историческая энциклопедия : в 16 т. / под ред. Е. М. Жукова. М.: Советская энциклопедия, 1974. Т. 15 : Феллахи - Чжалайнор. 1006 с.

336 Wilkinson E. Chinese History: A New Manual. Cambridge, MA: Harvard University Asia Center, 2012.

**"Хоу Хан шу"** ("Кейинги Хан сулоласи тарихи")[337] – tarixchi Fan Xua (398–445-yy.) asari. "Xou Xan shu" Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixni o'z ichiga olgan katta asar bo'lib, 130 ta bobdan iborat. Unda O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25–221-yillar oralig'idagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud[338]. Manbaning so'nggi tarjima va tahlili Fuse[339] tomonidan rus tilida, J. Chiyun[340] tomonidan esa 2015-yilda ingliz tilida amalga oshirilgan.

**"Вэй шу" (Бэй шу)** ("Шимолий сулолалар тарихи")[341] – 100 ta bobdan iborat asar bo'lib, Tan sulolasi (618–907- yy.) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan' Shou (taxminan 595–678- yy.) qalamiga mansub. A. Madraimovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, unda Shimoliy Xitoyda hukmronlik Vey (386–535-yy.), Si (550–577-yy.), Chjou (557–581-yy.) sulolasi hukmronligi, ya'ni 386–581-yillar tarixi bayon qilingan[342]. Asarda O'rta Osiyo, xususan, Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbaning so'nggi tarjima va tahlili 2010-yilda L. R. Konsevich tomonidan rus[343] va 2003-yilda A. Den[344] tomonidan ingliz tillarida amalga oshirilgan.

**"Суй шу"** ("Суй хонадонининг тарихи")[345] – Xitoy tarixchilari jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580–643-yy.) – Tan sulolasi davrida yashagan tarixchi muhim rol o'ynagan. Asarda Xitoyning Suy sulolasi davridagi, ya'ni V–VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 ta bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yilda yozib tamomlangan, qolgan 30 ta bobiga esa 20 yil vaqt ketgan. A. Madrimovning fikricha, asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo'shinning tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning 83 bobida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud[346]. Manbaning so'nggi tahriri ingliz va xitoy tillarida D. Tvitchet va V. Chonglar tomonidan 2009[347] hamda 2015-yillarda[348] amalga oshirilgan.

---

337 Хоу Ханъ Шу // Фусе - Цуруга. М.: Советская энциклопедия, 1957. С. 340-341.

338 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 50-б.

339 Хоу Ханъ Шу // Фусе – Цуруга. М.: Советская энциклопедия, 1957. С. 340-341. (Большая советская энциклопедия: [в 51 т.] / гл. ред. Б. А. Введенский. 1949-1958. Т. 46).

340 Zhang Ciyun. Chinese Idioms and Their Stories (англ.). Shanghai Translation Publishing House, 2015. P. 106-107.

341 Литературный мир средневекового Китая: китайская классическая проза на байхуа: собрание трудов / Д. Н. Воскресенский; Московский гос. ун-т им. М. В. Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки. М.: Восточная лит., 2006.

342 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 50-б.

343 Концевич Л. Р. Хронология стран Восточной и Центральной Азии. М.: Восточная литература РАН, 2010. С. 16.

344 Dien Albert E. 'Wei Tan and the Historiography of the Wei-shu', in: Kroll, Paul W. en David R. Knechtges (eds.), Studies in Early Medieval Chinese Literature and Cultural History. In Honor of Richard B. Mather and Donald Holzman, Provo UT (T'ang Studies Society) 2003. Pp. 399-466.

345 http://vostlit.info/Texts/Dokumenty/China/VII/SuiSu/text6.htm (Фойдаланилган сана: 22.03.2020)

346 Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 50-б.

347 Twitchett D. The Writing of Official History in the T'ang. Berkeley, CA: Institute of East Asian Studies University of California, 2009.

E'tiborli tomoni shundaki, Xitoy manbalarida Qang' Kushon va Dovon davlatlari, ularning qadimiy aholisi, mashg'ulotlari, yuechji, sak, qang' hamda dovonliklar haqida ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Xitoy manbalarida saklar "sak", "se", "sek", "sai" shakllarida tilga olinib, ular Xitoyning g'arbida yashaganligi ko'rsatilgan.

Xitoy manbalarining Toshkent haqidagi ma'lumotlari ham e'tiborlidir. Choch Xitoy manbalarida "Choch", "Shi" yoki "Chjeshe" nomlari bilan qayd etilgan.

Xitoy manbalarining o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, ularda Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi hududidagi eng qadimgi davlatlar hamda xalqlar to'g'risida qimmatli ma'lumot berilgan. Shuningdek, ushbu hududlarda mavjud davlatlar, shaharlar, xalqlar, qabilalar, daryo va tog'lar haqida qimmatli toponimik ma'lumotlar ham bor.

## Sug'd tilida bitilgan yodgorliklar

Sug'd tilidagi manbalar asosan, mil.avv IV – milodning X asrlariga oid bo'lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar: ahdnomalar, nikoh shartnomalari, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar, Sug'd, Shosh, Turk va Farg'ona hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalik hujjatlari hamda farmonlardan iborat. Ushbu hujjatlar Sug'diyona, Mug' qal'asi, Afrosiyob, Qirg'iziston va Sharqiy Turkiston hududlaridan topilgan. Bular orasida Mug' qal'asi xarobalaridan 1932-yilda topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega[349].

Mazkur hujjatlar 1932-yilning bahorida Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zaxmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ilik A. Po'lotiy tomonidan ochilgan. Hujjatlar soni 79 ta bo'lib, bulardan 74 tasi qadimgi sug'd, 1 tasi arab, 3 tasi xitoy va yana biri turk tilidadir[350]. Ular har xil materiallar: charm, taxta va qog'ozga yozilgan. Hujjatlar Sug'd dehqoni, katta yer egasi va mahalliy hukmdor Devashtich (708–722-yy.) va yirik mansabdorlar – framandar, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lib, Sug'dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A. A. Freyman[351], A. V. Vasilev[352], I. Yu. Krachkovskiy[353],

[348] Xiong V.C. "Sui shu 隋書". In Dien, Albert E.; Chennault, Cynthia Louise; Knapp, Keith Nathaniel; Berkowitz, Alan J. (eds.). Early Medieval Chinese Texts: A Bibliographical Guide. Berkeley, CA: Institute of East Asian Studies University of California, 2015. Pp. 330–334.

[349] Согдийские тексты с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. М., 1962.

[350] http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/II/3_sogd_dok_Mug/text.htm (Фойдаланилган сана: 22. 03. 2020)

[351] Фрейман А. А. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг / ИНА АН СССР. М.: Издательство восточной литературы, 1962. 92 с.

[352] Крачковский И. Ю. Над арабскими рукописями: Листки воспоминаний о книгах и людях. М., 1945.

[353] Согдийские документы с горы Муг. Вып. 3. Хозяйственные документы / Чтение, пер. и коммент. М. Н. Боголюбова и О. И. Смирновой. М., 1963.

V. A. Livshits[354], M. N. Bogolyubov[355] va O. I. Smirnova[356], mahalliy tadqiqotchilardan M. Is'hoqov[357] hamda U. N. Mansurov tomonidan batafsil o'rganilgan.

Mug' qal'asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934-yilda Leningradda maxsus to'plam shaklida "Согдийский сборник" da e'lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I. Yu. Krachkovskiy va A. A. Freyman tomonidan 1934-yilda e'lon qilindi[358]. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan V. A. Livshits tomonidan chop etildi[359]. 1961 va 1965-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V–VI asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga sug'd tilida o'n olti satrdan iborat ishonch yorlig'i yozilgan edi. Ushbu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[360].

Samarqandda topilgan yozuvlar IX asrga oid uchta: sug'd, qadimgi turk va xitoy tillarida yozilgan turk xoqonining qabr toshidagi bitiklar hisoblanadi. Bunday hujjatlar sug'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa A. Steyn[361] (1862–1943) tomonidan 1907-yilda Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyati)[362] va Turfon (Sharqiy Turkiston)[363]dan topilgan hujjatlar, Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joylashgan Kulonsoy hamda Teraksoy daralarida qoyatoshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga molik.

Mazkur yozuvlar IV–XI asrlarda Sug'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa, O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda sug'diylarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi. Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A. Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa

---

[354] Лившиц В. А. Согдийские документы с горы Муг. Чтение. Перевод. Комментарий. Юридические документы и письма. М., 1962. С.132-133.

[355] Боголюбов М. Н. Документы с горы Муг. Фотоальбом. Корпус иранских надписей. Ч. 2. Т. 2. М., 1963.

[356] Смирнова О. И. Клад аббасидских драхм с Пенджикентского городища // ЭВ, XV. М.-Л, 1963, с. 58-72.

[357] Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. Тошкент, 1990.

[358] Согдийский сборник: сборник статей о памятниках согдийского языка и культуры, найденных на горе Муг в Таджикской ССР // Л.: 1934. 124 с.

[359] Согдийские тексты с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. М., 1962.

[360] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 51-52-бетлар.

[361] Stein A. "Notes on the Ancient Topography of the Pīr Pantsāl Route." Journal of the Asiatic Society of Bengal, Vol. LXIV, Part I, No. 4, 1895. Calcutta 1896.

[362] Stein A. Ancient Khotan: Detailed report of archaeological explorations in Chinese Turkestan, 2 vols. Clarendon Press. Oxford, 1907. Ancient Khotan: vol.1 Ancient Khotan: vol.2

[363] Stein A. "Routes from the Panjab to Turkestan and China Recorded by William Finch (1611)." The Geographical Journal, Vol. 51, No. 3 (Mar., 1918). Pp. 172–175.

V. A. Kallaur[364], M. Ye. Masson[365], D. F. Vinnik, A. A. Asanaliev, K. Ashiraliyev va U. Jumagulovlar tomonidan o‘rganilgan[366].

**“Хвадай намак” (“Подшоҳнома”).** “Хвадай намак”[367] (“Подшоҳнома”) qadimgi Eronning 627-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan ma’lumot beruvchi tarixiy asar bo‘lib, pahlaviy tilida yozilgan. Sosoniylar podshosi Yazdigard III (632–651 yy.)ga yaqin kishi tomonidan 632–637-yillar oralig‘ida yozib tugallangan. Asar ayniqsa, Ahamoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar tarixi bo‘yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi. “Xvaday namak”ning o‘zi ham, mashhur shoir, olim va tarjimon Abdulloh ibn Mukaffa (721–757-yillar) tomonidan qilingan tarjima (“Сияр ал-мулук” deb atalgan) ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin, uning ayrim parchalari Yaqubiy (897-yoki 905-yilda vafot etgan), ibn Qutayba (828–889-yillar), Tabariy, ibn al-Asir, shuningdek, Abulqosim Firdavsiyning “Шохнома”sida saqlanib qolgan[368].

## O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar tarixshunosligi

Markaziy Osiyo insoniyatning qadimiy madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Bronza davrida boshlangan ijtimoiy tabaqalanish mil. avv. I ming yillikning o‘rtalarida ilk sinfiy jamiyat, ya’ni quldorlikning vujudga kelishiga olib keldi. O‘rta Osiyoda quldorlik jamiyatining xronologik doirasiga haligacha aniqlik kiritilmagan. Tarixiy asarlarda ushbu davr turlicha: mil. avv. VIII–VII asrlardan milodiy V asrgacha yoki mil. avv. VI asrdan milodiy IV asrgacha, hattoki mil. avv. IV asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davr sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu davrning boshlarida O‘rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar – Xorazm va Baqtriya vujudga kelgan. Ushbu davlatlar haqida “Авесто”da ma’lumot berilgan. Mazkur ma’lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida tasdiqlandi. Arxeologlar Afrosiyob (Samarqand), yerqo‘rg‘on va Uzunqir (Qashqadaryo), Ko‘zaliqir (Xorazm) va Qiziltepa (Surxondaryo) kabi qadimiy shaharlarni topib o‘rgandilar.

Mil. avv. I-ming yillikning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududida Xorazm, Qang‘ va Dovon kabi davlatlar vujudga keladi. Sirdaryoning o‘rta oqimlarida yashovchi sak qabilalari makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari va salavkiylar tajovuziga qarshi uzluksiz kurash olib bordilar. Ana shu kurashlar borayotgan bir paytda mil.avv. III asr boshlarida yarim o‘troq Qang‘ davlati vujudga keladi. Ushbu davlat Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi tub yerli aholini, bir qancha yarim ko‘chmanchi qabilalarni va o‘lkalarni birlashtiradi.

---

[364] Каллаур, Василий Андреевич // Казахстан. Национальная энциклопедия. Алматы: Қазақ энциклопедиясы, 2005.
[365] Массон Михаил Евгеньевич // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.
[366] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 51-52-бетлар.
[367] Розен В. В. К вопросу об арабских переводах Худай-наме. СПб., 1895.
[368] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 35-б.

Mazkur davlat mil.avv. II–I asrlarda Markaziy Osiyoda yirik va kuchli davlatga aylanadi. Bu davrga kelib Qang‘ siyosiy birlashmasi Sug‘diyona va Xorazmga o‘z hukmronligini o‘tkazadi.

Ushbu davlatning asosiy markazi Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi xalqlar haqida ma’lumot beruvchi eng qadimgi manba “Авесто” hisoblanadi. Uning ilk qismlari (Yasht va Gotlar)da “tur” yoki “danay turlari” deb ataluvchi etnonimlar eslatiladi[369]. V. V. Bartold[370] turlarni Markaziy Osiyoda yashovchi Eron tilida so‘zlovchi xalqlar, deb izoh beradi. V. I. Abaev[371] “Авесто”da tilga olingan turlarni Markaziy Osiyo saklari bilan, Danay turlarini esa Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi saklar bilan tenglashtiradi. “Авесто”da Qanqa, Qang‘a yoki Qang‘dez toponimlari ham qayd etiladi. Qadimgi Eron tilida yozilgan manbalarda “sak” va “skif” etnik nomlari uchraydi. Sirdaryoning o‘rta oqimi va uning shimolidagi hududlarda yashovchi saklar antik davrning tarixchi va geograflariga ham ma’lum bo‘lgan. Ana shu saklar haqida ba’zi ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchisi Ptolemey (mil. avv. 204–122-yy.), yunon geografi va tarixchi Strabon (mil. avv. 64–24-yy.) Plutarx (milodiy 45–127-yy.), yirik astronom va geograf Ptolemey yozuvchi va tarixchi Arrian (95–175-yy.), Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) asarlarida aks ettirgan.

Toshkent vohasi va janubiy Qozog‘iston cho‘llarida yashagan xalq hamda davlat Xitoy solnomalarida Qang‘uy (Kangyuy) deb atalgan. Solnomalardagi qang‘lar haqidagi dastlabki ma’lumot Xitoy tarixining otasi Sima Syan (mil.avv. 145–86-yillar) ning xotiralarida uchraydi. Sima Syan o‘z asarida qang‘larning joylashuvi, harbiy kuchi, urf-odati, ularga qarashli yashovchi xalqlar haqida qisqacha ma’lumot beradi. Qang‘uylar haqida batafsil ma’lumotlar To‘ng‘ich Xan sulolasining tarixi (mil.avv. 206 – milodiy 25-yillar)ni o‘zida aks ettirgan “Цян Хан шу” (96-bobi) Xitoy tarixchisi Ban-Gu[372] tomonidan yozilgan. Ushbu tarixiy asarda qang‘larning joylashgan hududlari va harbiy kuchlaridan tashqari ularning soni, markaziy shaharlari, chorva mollari, ularga bo‘ysunadigan viloyatlar hamda qo‘shni xalqlar va davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlar haqida ma’lumotlar berilgan. Toshkent vohasida va janubiy Qozog‘istonda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida juda boy materiallar qo‘lga kiritilgan. Ushbu materiallarning ko‘pchiligi qang‘lar davri (er.avv. III – milodiy V asr o‘rtalari)ga oid bo‘lib, bunda B. A. Litvinskiyning[373] ishlari alohida e’tiborga

---

369 Асқаров А. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврлардан эрамизнинг V асригача). Тошкент, 1994. 123-б.

370 Бартольд В. В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Алматы: Жалын, 1993. 192 с.

371 Абаев В. И. Статьи по теории и истории языкознания. М.: Наука, 2006.

372 Синицын Е. П. Бань Гу-историк древнего Китая. М., 1975. 112 с.

373 Литвинский Борис Анатольевич / Мкртычев Т. К. // Большая российская энциклопедия [Электронный ресурс]. 2018.

loyiq. Qang‘ davlati va xalqining etnogenezi muammolari S. P. Tolstovning ilmiy ishlaridan [374] ham keng o‘rin olgan.

G‘arbiy Yevropalik olimlardan V. Tomashek[375], E. Shavann[376] va boshqalarning tadqiqotlarida qadimgi yunon, fors hamda xitoy manbalarida qayd etilgan “Qang‘” va “qang‘uy” so‘zlariga to‘xtalib, ushbu nomlarning “Qang‘ (Qanqa)” toponimi “Qang‘ar” hamda “Qang‘uy” etnonimiga qanchalik aloqador ekanligi haqida gap ketadi. Mazkur tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari qo‘yilgan masalani to‘g‘ri tushunib olishga katta yordam beradi. Rus sharqshunos olimlari V. V. Radlov[377] va N. A. Aristovlarning[378] tadqiqotlarida qang‘lilar haqida ba’zi muhim fikr hamda kerakli ma’lumotlar berilgan.

Qang‘li va Qang‘ davlatiga bag‘ishlangan yirik tadqiqot o‘zbek olimi K. Sh. Shoniyozovga[379] tegishlidir. Ushbu muallifning tadqiqotlarida Qang‘ davlati, uning aholisi, qo‘shni davlatlar bilan aloqasi, iqtisodiy va madaniy hayoti batafsil yoritilgan.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning siyosiy tarixi ma’lumotlar yetarli bo‘lmaganligi uchun yaxshi o‘rganilmagan. Bu esa tarixshunoslikdagi muhim muammolardan biri hisoblanib, kelgusida mazkur sohada chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

### Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlarining qadimgi davr tarixshunosligi

Sharqiy Turkistonning eng qadimgi tarixi haqidagi yozma ma’lumotlar aksariyat xitoylik yilnomachilar va sayohatchilarning qisqa, ko‘p hollarda xolis bo‘lmagan hisobotlariga asoslangan edi. Mahalliy hujjatlar nafaqat xitoy manbalariga qayta tanqidiy baho berish, shu bilan birga Sharqiy Turkiston tarixining yaqinda to‘xtab qolgan jabhalarini aniq tarkib bilan to‘ldirish, mintaqaning asrlar davomidagi tashqi siyosiy aloqalari, ko‘plab davlat tuzilmalari va mulklarining siyosiy tarixini qayta tiklashga imkon beradi.

---

374 Толстов С.П. Древняя культура Узбекистана / АН СССР, Узбекистан. филиал. Ин-т языка, лит-ры и истории. Ташкент: Изд-во УзФАН, 1943. 40 с.; Shu muallif. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. М., 1948. 352 с.; Shu muallif. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. 328 с.; Shu muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта / Институт этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. М.: Изд-во вост. лит., 1962. 324 [20] с.

375 Томашек, Вильгельм // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

376 Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux. Édouard Chavannes. 1900. Paris, Librairie d’Amérique et d`Orient. Reprint: Taipei. Reprint: Cheng Wen Publishing Co., 1969.

377 Radlov V. Ethnographische Übersicht der Türkstämme Sibiriens und der Mongolei (Этнографический обзор тюркских племён Сибири и Монголии). Лейпциг, 1884.

378 Аристов Н. А. Труды по истории и этническому составу тюркских племен. Бишкек: Илим, 2003. 458 с.

379 Шониёзов К. Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент: Фан, 1990; Shu muallif. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент, 1999; Shu muallif. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент, Шарқ, 2001. 464 б.

Albatta, ushbu manbalarni tahlil qilish va ularni o'zaro, shuningdek, xitoy ma'lumotlari bilan taqqoslashda qiyinchiliklar favqulodda darajada katta. Arxeologik, numizmatik, ikonografik, me'moriy va antropologik materiallardan Sharqiy Turkiston xalqlari tarixining keng panoramasini yaratish uchun foydalanishga urinishda yanada katta qiyinchiliklar yuzaga keladi. Asosan, ehtimol shu sababli, Sharqiy Turkistonning dastlabki o'rta asr va qadimgi tarixi bo'yicha zamonaviy ilmiy darajada olib borilgan umumlashtiruvchi ish hali ham mavjud emas.

Shunday qilib, XX asrning 60–70-yillarida XXRda nashr etilgan bir qator asarlarda Sharqiy Turkiston tarixi va madaniyati, aksincha, Xitoy tarixi va madaniyatining "ajralmas qismi" sifatida qaraladi. Xususan, qadimgi va o'rta asrlarda Sharqiy Turkiston doimiy ravishda Xitoy imperiyalarining bir qismi bo'lib kelgan, degan da'volar mutlaqo noto'g'ri. Shu bilan birga, Sharqiy Turkiston aholisining asl etnik qatlami hind-Yevropalik bo'lganligi unutilgan.

Siyosiy ma'noda Sharqiy Turkiston hozirgi zamongacha Xitoy bilan faqat ma'lum davrlarda bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi II asrning oxirlarida birinchi marta Sharqiy Turkiston Xan imperiyasining harbiy-siyosiy ekspansiyasi doirasiga kirdi. Sharqiy Turkistonning qabilalari va xalqlari ulkan tarixiy rivojlanish yo'lidan o'tdilar, ularning etnik madaniy qiyofasi allaqachon shakllanib, mahalliy voha davlatlari paydo bo'ldi. Sharqiy Turkiston davlatlari va Xan imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar tarixi, ikkinchisining Sharqiy Turkiston xalqlarini bo'ysundirish, o'zlarining harbiy zobitlarini Xitoy garnizonlari bilan o'rnatishga urinishlariga asoslanadi. Xitoy bu maqsadlarga diplomatik yo'llar bilan ham, harbiy kengayish orqali ham erishishga harakat qildi va harbiy ekspeditsiyalar ko'pincha muvaffaqiyatsiz tugadi. O'rta Osiyoning qadimgi tarixi bo'yicha taniqli G'arbiy Yevropa mutaxassisi M. Loui Xan imperiyasining Sharqiy Turkistonni bosib olishga urinishlari natijasi "doimiy va qat'iy qaror topgan ishg'ol emas, balki ko'proq vaqtincha kirib borish edi" degan xulosaga keldi. Darhaqiqat, Sharqiy Turkistonning asosiy hududlari qisqacha va odatda, Xan imperiyasining suverenitetini nominal ravishda tan olgan, xolos.

III asrda Xan davlati qulaganidan keyingi besh asr davomida Xitoyning Sharqiy Turkiston bilan siyosiy aloqalari uzilib qolgan yoki minimal darajaga tushgan. Sharqiy Turkiston ko'proq darajada, ayniqsa, 630–751-yillarda Tang imperiyasiga qaram bo'lib chiqadi, ammo o'sha davrda ham mintaqaning markaziy imperiya kuchiga bo'ysunishi haqida emas, balki Tang hokimiyatining kuchaygan harbiy-siyosiy faoliyati haqida gapirish ehtimoli ko'proq.

Bronza davridagi Sharqiy Turkiston arxeologik majmualari, ularning paydo bo'lishi va Sharqiy Turkiston aholisining toxarlar qatlami bilan genetik

aloqalari katta ahamiyatga ega. XIX asrning 90-yillarida S. F. Oldenburg[380] N. F. Petrovskiyning to'plamidan bir qator qo'lyozmalarning fotosuratlarini nashr etdi. Ushbu nashrdan keyin boshqa suratlar ham chop etilib, ular asosan braxmiy yozuvida yozilgan, ammo o'sha paytlarda ma'lum bo'lgan hind yoki eron tillarida o'qish mumkin bo'lmagan qo'lyozmalardan iborat. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ushbu qo'lyozmalar maxsus hind-Yevropa tillarida yaratilgan. Dastlab ular yagona tilning dialektlari deb hisoblanib, dastlab toxar tilida deb aytilgan. Ammo, hozirgi kunda ushbu tilga to'g'ri kelishi ko'plab olimlar tomonidan rad etilgan.

V–VIII asrlarga oid toxar tillaridagi matnlar bilan qo'lyozmalar Sharqiy Turkistonning shimoli, ayniqsa, Kucha, Karashar, Turfan hududlaridan ko'plab topilgan. Qashqar yaqinida, Tumshuk, Maralbashi va Murtukda topilgan ba'zi qo'lyozmalar S. Konov tomonidan nashr etilgan. Ushbu xotan tilidagi matnlar G. Beylining fikricha, saka tilining "ikkita aniq farqlangan shevalari" mavjudligidan dalolat beradi.

Sovet olimlari tomonidan ushbu mintaqa tarixi keng ko'lamda o'rganilgan, mazkur hududda yashagan xalqlar tarixiga oid bir qator asarlar yaratilgan. Ammo, hozirgi kungacha Sharqiy Turkistonning qadimgi va dastlabki o'rta asrlar tarixi hamda madaniyati tarixi bo'yicha hech qanday fundamental umumlashtiruvchi asar yozilmagan, lekin bunday asar, yuqorida ta'kidlanganidek, xorijiy tadqiqotlar orasida ham mavjud emas. Albatta, bunday kitob faqat turli mutaxassis olimlarning jamoaviy sa'y-harakatlari natijasi bo'lishi mumkin edi.

Guvohi bo'linganidek, Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy tarixiga oid yozma manbalar salmoqli. Ulardagi ma'lumotlar ham turlicha va bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimiy davr yozma manbalarining tavsifiylik xususiyati deyarli barcha hudud muarrixlari asarlari uchun xos bo'lib, ularda vorisiylik jihati, ya'ni tarixni yozish an'anasi ustozdan uning shogirdiga yillar davomida o'tib kelgan. "Авесто" singari diniy kitoblar esa, afsonaviy va mistik madhlarga to'la bo'lishiga qaramay, o'sha davr aholisining turmush tarzi, madaniyati, hudud geografiyasi, tili va boshqa ko'plab tomonlarini ochib berishda juda muhim sanaladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha manbalar Markaziy Osiyo mintaqasida qadimdan yashagan va keyinchalik boshqa xalqlarni shakllanishida muhim o'rin egallagan qabila hamda elatlar tarixini har tomonlama o'rganishda bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

---

[380] Ольденбург С. Ф. Сборник изображений 300 бурханов. По альбому Азиатского Музея с примечаниями издал С. Ф. Ольденбург. Часть первая. Рисунки и указатель. СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1903.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Авесто" haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. "Авесто" kitobi haqida birinchi bo'lib ilmiy tadqiqot olib borgan olim kim ekanligini bilasizmi?
3. "Авесто" kitobi tarixshunosligi haqida nimalarni bilasiz?
4. "Авесто"ning xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rnini qanday baholaysiz?
5. Kir II ning massagetlar yeriga hujumi qachon bo'ldi, massagetlar hukmdori va bu haqda ma'lumot bergan tarixchini toping?
6. Aleksandr Makedonskiy bosqini haqidagi asarlarni tavsiflab bering.
7. "Қадимги авторлар Ўрта Осиё ҳақида" nomli to'plamdagi maqolalarning yurtimiz tarixini yoritishdagi o'rniga baho bering.
8. Qadimgi Xorazm va Baqtriya haqida qaysi yozma manbalar ma'lumot beradi?
9. Qang' davlati tarixshunosligi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar haqida gapirib bering.
10. Qang' davlati Xitoy manbalarida qanday nomlanadi?

# 3-MAVZU: VI–XII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Ilk o'rta asrlarga oid manbalar va ularda Markaziy Osiyo xalqlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish. Eftaliylar tarixiga oid manbalar haqida tushuncha hosil qilish, ushbu manbalarda qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqlash. Turk xoqonligi tarixini o'rganishda turkshunoslarning qo'shgan hissasini baholash, arab tarixshunosligi bilan tanishtirish, at-Tabariyning "Таворихи Табарий", Narshaxiyning "Бухоро тарихи" va Abu Rayhon Beruniyning "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" kabi asarlarni sharhlash, ushbu asarlar O'rta Osiyo xalqlari tarixining ilk o'rta asrlar davriga oid muhim manba ekanligini tushuntirish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Eftaliylar tarixi, Turk xoqonligi, moddiy va ma'naviy madaniyat, Jome' as-Sahih, at-Tabariy, al-Beruniy, "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар", "Хронология", Musulmon uyg'onish davri, "renessanizm", Xristianlik, Adam Mets, "Осор ул-боқия".*

## Eftaliylar davlati tarixining o'rganilishi

Ilk o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo mintaqasida kechgan murakkab jarayonlarda turkiy va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlar milliy davlatchilik tarixi hamda o'zbek xalqining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda mintaqada kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarni o'rta fors (pahlaviy), arman, suryoniy, xitoy, hind, arab hamda fors tillarida ijod qilgan muarrixlarning asarlari, boshqa yozma manbalardagi ma'lumotlar, arxeologik, numizmatik va epigrafik topilmalar asosida ochib berilgan. Mazkur davrga oid yozma manbalarni lingvistik va geografik jihatdan bir nechta guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

**Arman tilidagi manbalar (IV–VII asrlar).** Mazkur guruhga oid manbalar sirasiga Favstos Buzand[381] (IV–V asr), Movses Xorenatsi[382] (V–VI asr), yegishe[383] (V–VI asr), Lazar Parpetsi[384] (V–VI asr) va boshqalarning

[381] История Армении Фавстоса Бузанда. Пер. с др.-арм. и коммент. М. А. Геворгяна / Под ред. С. Т. Еремяна. Вступит, ст. Л. С. Хачикяна. Ереван, 1953.

[382] Мовсес Хоренаци. История Армении / Пер. с древнеарм. языка, примечания Г. Саркисяна; Ред. С. Аревшатян. Ереван: Айастан, 1990.

[383] Налбандян В. С. Егише. Ереван, 1962.

[384] Лазар Парпеци. История Армении и Послание к Вагану Мамиконяну. Под ред. Г. Тер-Мкртчяна и Ст. Малхасянца. Тифлис, 1904.

Sosoniylar, Armaniston hamda Vizantiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yoritish bilan bir qatorda eftallar to‘g‘risida bir qancha qimmatli ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan asarlar kiradi. Ushbu muarrixlarning ishlarida bir-biriga o‘xshash ma’lumotlar qayta-qayta yozilishini kuzatish mumkin. Ammo, ularning orasida eftallar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bevosita kuzatgan va shu asosda asar yozganlarini uchratish mumkin. Masalan, yegishe Sosoniylarning Xuroson va uning yaqinidagi hududlarga qilingan bosqinchilik yurishlarida ishtirok etgan va o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarini yozib qoldirgan[385].

**Vizantiya tarixchilarining asarlari (V–VI asrlar).** Ushbu guruhga mansub Ammian Marsellin[386], Pris Paniyskiy[387], Prokopiy Kesariyskiy[388], Feofilakt Simokatta[389] va Feofan[390] asarlarida Sosoniylar bilan eftallar, kidariylar hamda xioniylarning to‘qnashuvlari to‘g‘risidagi qiziqarli ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Bundan tashqari, eftalitlarning nomi haqida ushbu manbalarda turli ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Masalan, Ammian Marsellinning asarida mazkur qabila “xunn-eftalit”[391] degan nom bilan qayd etilgan bo‘lsa, Prokopiy Kesariyskiy ularni “oq xunnlar” deb qayd qiladi[392]. Shuningdek, yana bir vizantiyalik tarixchi Feofan ularning nomi hukmdor Eftalon ismidan kelib chiqqan, deb yozib qoldirgan bo‘lsa[393], Prisk Paniyskiy ularni “xunnlar” deb atagan edi[394]. Ma’lumotlarning turlicha bo‘lishi zamonaviy tadqiqotlarda bahs-munozaralarning hali ham yakuniga yetmasligiga sabab bo‘lmoqda.

**Suryoniy tilidagi manbalarda** ham eftallarga oid bir qancha ma’lumotlar saqlanib qolgan. Suriyalik ruhoniy Moshixazixon VI tomonidan tuzilgan Ardaben va Karka-de-bet Saloh (V–VI asrlar) shahri solnomalarida (muallifi noma’lum), vizantiyalik tarixnavislar Zaxariy Ritor[395] (V–VI asrlar), Ioann Efesskiy[396] (VI asr) hamda Ieshua Stilit[397] (VI asr) tomonidan yozilgan asarlarda

---

385 Егишэ. О Вардане и войне армянской / Пер с др. арм. яз. И. О. Орбели. Ереван, 1971.

386 Аммиан Марцеллин. Римская история. / Пер. Ю. А. Кулаковского и А. И. Сонни под ред. Л. Ю. Лукомского. (Серия «Античная библиотека». Раздел «Античная история»). СПб.: Алетейя. 1994. 558 с.

387 Приск Панийский. Сказания / Пер. Г. С. Дестуниса // В кн.: Феофан Византиец. Летопись от Диоклетиана до царей Михаила и сына его Феофилакта. Приск Панийский. Сказания / Изд. подг. А. И. Цепков. Рязань, Александрия, 2005.

388 Прокопий Кесарийский. Война с персами. Война с вандалами. Тайная история / Пер., ст., комм. А. А. Чекаловой. Отв. ред. Г. Г. Литаврин. (Серия «Памятники исторической мысли»). М.: Наука, 1993. 576 с.

389 Феофилакт Симокатта. История. Вступ. ст. Н. В. Пигулевской / Пер. С. П. Кондратьева. М.: Наука, 1957.

390 The Oxford Dictionary of Byzantium: in 3 vol. / ed. by Dr. Alexander Kazhdan. N. Y.; Oxf. : Oxford University Press, 1991. P. 2062.

391 Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. М.-Л., 1941. С. 62-65.

392 [Электрон манба] Прокопий Кесарийский. Война с персами/ http://www.vostlit.info/Texts/rus/ Prokop / pers 11.phtml

393 Theophanes Byzantius. Fragmenta // HGM. Vol 3. P. 270.

394 Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. М.-Л., 1941. С. 88.

395 Hamilton F. J., Brooks E. W. The Syriac chronicle known as that of Zachariah of Mitylene. London, 1899.

396 John of Ephesus. I // Lives of the Eastern Saints / E. W. Brooks. Paris: Firmin-Didot, 1923. 854 p.

xunn, xioniy, kidariy va eftal qabilalari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Stilit eftallarni "asli xunn bo'lgan xionitlar" deb atagan bo'lsa[398], Ritor ularni nomini aniqlashtirishga urinmagan va ular "xunn" deb qayd qilgan[399].

**Xitoy solnomalaridan** "Бэй ши"[400] (Шимолий сулолар тарихи), "Вэй шу"[401] (Вэй сулоласи тарихи), "Лянь шу"[402] (Лян сулоласи тарихи), "Чжоу шу"[403] (Чжоу сулоласи тарихи), "Суй шу"[404] (Суй сулоласи тарихи), "Тан шу"[405] (Қадимги Тан сулоласи тарихи) asarlarida eftallarning davlat tuzilishi, ularning hayot tarzi va an'analari, "Haytal" etnonimi, eftallarning kelib chiqishi, eftallarning boshqa davlatlar bilan aloqalari haqida turli ma'lumotlar keltiriladi.

Xitoy sayyohlari San Yan Gi va Xoya San Gi (VI asr)lar tomonidan yozib qoldirilgan sayohatnomalar, shuningdek, Sun Yun (VI asr), Syuan Szan (VII asr) va Xueya Chao[406] (VIII asr)larning Markaziy Osiyodagi elchilik hamda sayyohlik hisobotlarida ko'plab ma'lumotlar mavjud[407].

**Hind tilidagi manbalarda** ham eftallar tarixiga doir muhim dalillar uchraydi. Hind eposlari Mahabhorat[408] va Ramayana[409], hind astronomi Varaxamirning "Брахат Самхит"[410], Prakritining "Кувалаямалу" hamda "Пурана" (IV–VI asrlar)[411] va Kalxanning Kashmir tarixiy solnomasi bo'lmish "Раджатарангини"[412] asarlarida eftallar haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

**Arab va fors tilli manbalardan** IX–X asrlarda Ibn al-Faqix ("Китоб ал-булдан (Мамалакатлар китоби)"[413], al-Mas'udi ("Муруж аз-захоб ва маъдин

---

397 Чекалова А. А. Иешу Стилит или Прокопий? (К вопросу о манере изображения греческими и сирийскими авторами войны между Византией и Ираном в 502-506 гг.) // Византийский временник.

398 Wright W. The chronicle of Joshua the Stylite, § 9-11. Cambridge, 1882.

399 Хроника Псевдо-Захарии. IV. 1-2 / Пер. В. М. Кириллова // Классическая и византийская традиция. Белгород, 2016.

400 Эр ши сы ши (24 истории). Т. 11. Шанхай, 1958.

401 Dien A.E. 'Wei Tan and the Historiography of the Wei-shu', in: Kroll, Paul W. en David R. Knechtges (eds.), Studies in Early Medieval Chinese Literature and Cultural History. In Honor of Richard B. Mather and Donald Holzman, Provo UT (T'ang Studies Society), 2003. Pp. 399-466.

402 Яо Сылянь, Книга Лян (56 глав). Пекин (Zhōnghuá Shūjú)), 1973. В 3-х томах. 870 с.

403 Steven F. Sage. Ancient Sichuan and the Unification of China, 1992.

404 Xiong V.C. "Sui shu 隋書". In Dien, Albert E.; Chennault, Cynthia Louise; Knapp, Keith Nathaniel; Berkowitz, Alan J. (eds.). Early Medieval Chinese Texts: A Bibliographical Guide. Berkeley, CA: Institute of East Asian Studies University of California, 2015. Pp. 330–334.

405 Лю Сюй, Книга Тан. Пекин (Zhōnghuá Shūjú), 1975. В 16 томах. 5407 с.

406 Хуэй Цзяо. Жизнеописания достойных монахов. Раздел II. Толкователи // Восток. 1997. № 1.

407 Бувақов Н. Марказий Осиёда эфталийлар даври тарихига оид ёзма манбаларнинг таснифи ва таҳлили // Ўтмишга назар. 2019. №5. 74-75-бетлар.

408 Невелева С. Л. Махабхарата. Изучение древнеиндийского эпоса. М., Наука (ГРВЛ), 1991. 232 с.

409 Гринцер П. А. «Махабхарата» и «Рамаяна». М.: Худож. лит., 1970. 96 с.

410 Varaha Mihira. Brihat Samhita. Tr. by M. C. Iyer. Madura: South Indian Press, 1884.

411 Булич С. Пураны // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

412 Stein M. A. Kalhana's Rajatarangini: A Chronicle of the Kings of Kashmir, vol. 1–3 (Reprint ed.). Srinagar, India: Saujanya Books, 2007.

413 Крачковский И. Ю. Арабская географическая литература // Крачковский И. Ю. Избр. соч. М.- Л., 1957. Т. IV. С. 262.

ал жавоҳир (Олтин конлар ва қимматбаҳо тошлар кони)"[414], Ibn Havqal ("Китоб сурат ул-арз (Ер сурати (харитаси) китоби)"[415], al-Muqaddasiy ("Ахсан ат-такасими маърифат ал-аколим (Иқлимий билимларни энг яхши ажратиш)"[416] va muallifi noma'lum "Ҳудуд ул-олам (Олам ҳудуди)"[417] asarlari ko'proq tarixiy-geografik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yuqoridagi asarlarda ("Haytallar mamlakati (Eftallar mamlakati)" uning tabiati, iqlimi, suv inshootlari, aholisi, iqtisodiy-xo'jalik hayoti, soliq tizimi va savdo munosabatlariga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Ibn Qutaybaning "Уюн ал ахбор (Хабарлар манбаси)"[418], ad-Dinavriyning "Китоб ал-ахбор ат-тивал (Узун хабарлар китоби)"[419], at-Tabariyning "Таърих ар-русул вал мулук (Пайғамбарлар ва подшолар)"[420], al-Balazuriyning "Футух ал-булдон (Мамлакатлар фатҳи китоби)"[421], al-Yaqubning "Таърих (Тарих)"[422], Bal'amining "Таърихи Табарий (Табарий тарихи)" asarining qayta ishlangan shakli[423], as-Saolibiyning "Шоҳнома"[424] va Firdavsiyning "Шоҳнома"[425] asarlari eftallar tarixi sahifalarini yoritishda alohida e'tiborga molik hisoblanadi.

Ma'lumki, butun dunyoda eftallar tarixini o'rganish masalasi bo'yicha ilk tadqiqot ishlari XVII asr oxirida boshlanib, dastlab xitoy, arab va fors narrativ manbalarida saqlanib qolgan tor doiradagi masalalarni o'rganish bilan cheklangan edi. Eftallar tarixshunosligi davriy jihatdan uchta katta davrga bo'lib o'rganiladi:

1) XVII asr oxiri – XX asrning 20-yillari;
2) XX asrning 20–80-yillari;
3) XX asr 90-yillaridan to hozirgi kunga qadar.

---

[414] Абу-л-Хасан `Али ибн ал-Хусайн ибн `Али ал-Мас`уди. Золотые копи и россыпи самоцветов [История Аббасидской династии: 749-947 гг.] / сост., пер. с араб., прим., комм. и указатели Д. В. Микульского. М: Наталис, 2002. 800 с.

[415] Ибн-Хаукаль // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

[416] Сериков И. И. Приложение. Ал-Мукаддаси // Восточное историческое источниковедение и вспомогательные исторические дисциплины. М.: Наука, 1994.

[417] Худуд ал-ъалем: рукопись Туманского / с введением и указателем В. Бартольда; Акад. наук СССР. Л.: Изд-во Акад. наук СССР, 1930. 78 с.

[418] Ибн-Кутейба // Древний мир. Энциклопедический словарь в 2-х томах / В. Д. Гладкий. М.: Центрполиграф, 1998.

[419] Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. М., Л.: Издательство Академии наук СССР, 1957. Т. 4. С. 118.

[420] Ат-Табари. Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII-X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.

[421] Ахмад ал-Балазури. Книга завоевания стран // Хрестоматия по истории Халифата. М.: МГУ, 1968.

[422] Абуль-Аббас Ахмед ибн Якуб. Книга стран. Отрывки. // Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII-X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.

[423] Бартольд В. В. Балъами // Бартольд В. В. Сочинения. М.: Наука, 1964. Т. II, Ч. 2: Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. С. 504-505.

[424] Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. М.- Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1957. Т. 4.

[425] Бертельс Е. Э. Абу-л-Касим Фирдоуси и его творчество. Л.-М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1935. 72 с.

**Birinchi davr** (XVII asr oxiri – XX asr 20-yillari) – mazkur davr asosiy bilimlarida nomad, ya'ni ko'chmanchilik madaniyati va uning boshqa davlatlar bilan aloqasini o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan bo'lib, ushbu jarayonda O'rta Osiyo hududidagi o'troq madaniyat va uning holatiga kam e'tibor qilingan. Eftallarning tili masalasida esa xorijiy tadqiqotchilardan Sen-Martendan tashqari barcha mualliflar ularni turkiy tilli deb hisoblagan[426].

**Ikkinchi davr** (XX asr 20–80-yillari). Eftallar davrida sodir bo'lgan jarayonlar masalasi bilan atroflicha shug'ullanish aynan shu paytda boshlandi. Vaqt o'tishi bilan dunyo taraqqiyoti va siyosiy vaziyatlarning o'zgarishi ushbu mavzu tadqiqotlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Mazkur davrda ushbu masala bilan shug'ullangan olimlar sirasiga sovet davri tadqiqotchilaridan S. P. Tolstov[427], N. Pigulevskaya[428], N. Ya. Bichurin[429], K. V. Trever, A. Yu. Yakubovskiy va M. E. Voronets[430], A. L. Bernshtam[431], S. K. Kabanov[432], K. V. Trever[433], S. A. Vyazigin[434], I. Negmatov[435], L. N. Gumilyov[436], V. A. Livshits[437], A. M. Mandelshtam[438], E. E. Nerazik[439], V. M. Masson[440], B. A. Nilsen[441], B. Ya. Staviskiy va B. I. Vaynberg[442], B. G'. G'afurov[443], B. X. Karmisheva[444], B. A. Litvinskiy[445], L. X. Ter-Mkrtchyan[446], X. Yusupov[447], B. I. Vaynberg va T. A. Rayevskaya[448],

---

[426] Исоматов М. М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии. Автореф. дисс. ... док. ист.н. Душанбе, 2009. С. 14-15.
[427] Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: АН СССР, 1948.
[428] Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. М.-Л., 1941.
[429] Бичурин Н. Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.–Л., 1950. Т. II. 169 с.
[430] Тревер К. В., Якубовский А. Ю., Воронец М. Э. История народов Узбекистана. Ташкент, 1950.
[431] Бернштам А. Л. Очерк истории гуннов. Л.: ЛГУ, 1951. 190 с.
[432] Кабанов С. К. К вопросу о столице кидаритов // Вестник древней истории. 1953. №2.
[433] Тревер К. В. Кушаны, хиониты и эфталиты по армянским источникам IV–VII вв. // Советская археология. 1954. №.21 С. 131-147.
[434] Вязигин С. А. Эфталиты // История Туркменской ССР. Ашхабад, 1957. Т. I. Кн. I. 148 с.
[435] Негматов И. Уструшана в древности и раннем средневековье. Сталинабад. ТаджССР, 1957. 129 с.
[436] Гумилев Л. Н. Эфталиты и их соседи в IV веке // Вестник древней истории. 1959. №1. С. 135.
[437] Лившиц В. А. Иранские языки народов Средней Азии / Народы Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1962. Т. I. 142 с.
[438] Мандельштам А. М. После кушанские погребения в Северной Бактрии / Краткие сообщения Института археологии. М., 1963. Вып. 94. С. 89–93.
[439] Неразик Е. Е. Предки таджикского народа в IV–V вв. н.э. / История таджикского народа. М.: Восточная литература, 1963. Т.1. 416 с.
[440] Массон В. М. Эфталитское объединение и период политической раздробленности / Массон В. М., Ромодин В. А. История Афганистана. М.: Наука 1964. Т.1. С. 68.
[441] Нильсен В. А. Архитектура Средней Азии V–VIII вв. Ташкент, 1966. 325 с.
[442] Ставиский Б. Я., Вайнберг Б. И. Сасаниды в правобережной Бактрии (Тохаристане) в IV V вв. // Вестник древней истории. 1972. №3. С. 188.
[443] Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая и средневековая история. М.: Восточной литература, 1972. 206 с.
[444] Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: Наука, 1976. 135 с.
[445] Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы / История и культура народов Средней Азии (древность и средние века). М., 1976. С. 56.
[446] Тер-Мкртчян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V–VII вв. М.: Наука, 1979.
[447] Юсупов Х. Ещё раз о столице кидаритов / Известия АН ТССР. Серия общественных наук. Ашхабад, 1980. №2.

E. V. Rtveladze[449], A. B. Nikitin[450], A. Gubayev va G. I. Xanmuradov[451], V. G. Lukonin[452], L. A. Borovkova[453]; xorijiy tadqiqotchilardan R. Girshman[454], F. Altxaym[455], R. Fray[456] va boshqa olimlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Suryoniy qo'lyozmalarni o'rganish davomida N. Pigulevskaya eftallar va ularning kelib chiqishi, nomi hamda tili to'g'risida bir qancha ma'lumotlar yozib qoldirgan. Masalan, Prokopiy Kessariyskiy asariga tayangan holda, ularni tashqi ko'rinishi xunnlarda farq qilganini qayd etgan[457]. Bundan tashqari, eftallar xunnlardan farqi ravishda ko'chmanchi hayot emas, balki o'troq hayot tarziga ega ekanligini ta'kidlagan[458].

Eftallar muammosiga e'tibor qaratgan yana bir sovet tadqiqotchisi S. P. Tolstov bo'lib, uning "Древний Хорезм (Қадимги Хоразм)" asarida eftallar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning qarashlari asosan, Xorazm vohasi bilan bog'liq bo'lsa-da[459], muallif keltirgan ma'lumotlar O'zbekistonning g'arbiy qismida V–VIII asrlarda sodir bo'lgan jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishda muhim manba hisoblanadi. "По древным делтам Окса и Яксарта"[460] nomli asarida ham S. P. Tolstov bir qancha muhim fikrlarni ilgari suradi. Mazkur asarda ilgari surilgan nazariyalarga ko'ra, eftalitlar Orolbo'yi cho'llaridan kelgan. U davom etib, IV–V asrlarda Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida sharqiy xunn-turkiy elementlar aralashmasi bilan qadimiy sak-massaget substratida hosil bo'lgan "Xionit-Eftalitlarning davlatining markazi" ekanligini ta'kidlaydi[461].

N. Ya. Bichurinning tarjimalarida ham eftallar davri haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, uning "Vey-shu"dagi ma'lumotlarni tarjima holatida berganlari ahamiyatga ega bo'lib, unda eftallar va Xitoy o'rtasidagi elchilik aloqalariga doir muhim faktlar keltirilgan[462].

---

448 Вайнберг Б. П., Раевская Т. А. Нумизатические заметки / Буддийские памятники Кара-тепе в старом Термезе. М.: Наука, 1982. 67 с.

449 Ртвеладзе Э. В. К истории Южного Узбекистана в эфталитское время / Бактрия и Тохаристан на древнем и средневековом Востоке. М., 1983. 75 с.

450 Никитин А. Б. Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье) / Восточный Туркестан и Средняя Азия. М., 1984. 122 с.

451 Губаев А., Ханмурадов Г. Археологические памятники Сасанидского времени Южного Туркменистана (III–VII вв.). Ашхабад, 1987. 35 с.

452 Луконин В. Г. Сасанидская держава в III–V вв. / История древнего мира. Упадок древних обществ. М., 1989. Кн. III. 258 с.

453 Боровкова Л.А. "Запад Центральной Азии во II в. до н.э. – VII в. н.э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам)". М.:1989. 181 с.

454 Ghirshman R. Les Chionites – Hephtalites. Le Caire, 1948.

455 Altheim F., Striel R. Die Araber in der Alten Welt. Bd. I-V. Berlin, 1969.

456 Фрай Р. Наследие Ирана. М., 1972. 279 с.

457 Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. М.-Л., 1941. С. 34.

458 Shu joyda. С. 34.

459 Толстов С. П. Древний Хорезм. М., АН СССР 1948.

460 Shu muallif. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1960. 244 с.

461 Shu joyda. 35-102-бетлар.

462 Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена // Т. I. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. 382 с.

K. V. Trever, A. Yu. Yakubovskiy va M. E. Voronetslarning hammuallifligida nashr etilgan "История народов Узбекистана" asarida ham eftallar davlatining paydo bo'lishi masalalari, sosoniylar bilan aloqalari, davlatchilik va madaniyat hamda Turk xoqonligining hujumlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan[463].

Eftallarga oid navbatdagi mulohazalar A. N. Bernshtamning tadqiqotlari misolida taqdim qilingan. Uning oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri sifatida xunnlarning Tyan-Shanga bostirib kirishi eftallar madaniyatiga qay darajada ta'sir ko'rsatganligini aniqlashdan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, mazkur tadqiqotchi eftallar va mahalliy aholi orasida sodir bo'lgan etnosiyosiy hamda etnomadaniy jarayonlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar beradi. Masalan, muallif eftal qiroli Xushnavaz (Kushnavaz) nomini sharhlar ekan, uning fikriga ko'ra, "Kushna-var" ikkita qabiladan tashkil topgan, mahalliy – Kushan va yangi kelgan – Avar qabilasi bo'lib, bu keyinchalik podshoh nomining hukmdor nomiga o'tishiga sabab bo'ldi, deb ta'kidlaydi[464].

Eftallarning O'rta Osiyoga kirib kelishidan oldingi jarayonlar haqida K. V. Treverning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. Chunonchi, uning "Кушаны, хиониты и эфталиты по армянским источникам IV–VII вв" maqolasida IV asrning 60-yillari oxiri – 70-yillarining o'rtalarida Shopur II ning Kushonlar bilan olib borgan janglari va ushbu urushlarda kushonlarga yordam bergan xioniy va eftal qabilalari haqida ma'lumotlar mavjud[465].

Eftallar masalasi bilan S. A. Vyazigin ham shug'ullangan, biroq uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor eftallar va sosoniylar munosabatlari hamda ularga doir voqealar bugungi Turkmaniston hududida sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarga qaratish bilan cheklanadi[466]. Ushbu tadqiqotda bir yoqlamalik ko'zga tashlanadi, lekin, shunga qaramay, ushbu asar yuqoridagi masala bo'yicha dastlabki ilmiy izlanishlar mahsuli ekanligini qayd etish kerak. Shuningdek, I. Ne'matovning "Уструшана в древности и раннем средневековье" nomli asari ham eftallar davrida Ustrushonada sodir bo'lgan jarayonlar to'g'risida qimmatli ma'lumot beradi[467]. Uning tadqiqotlari eftallar davri madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim arxeologik manbadir. Mustaqillik yillarida mazkur muallifning tadqiqotlari o'zbek olimlari tomonidan ancha to'ldirildi.

L. N. Gumilyovning tadqiqotlarida ham eftallar masalasiga alohida yondashiladi. Uning "Эфталиты и их соседи в IV веке" nomli tadqiqoti muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda muallif eftallarning V asrdan oldin O'rta Osiyoga kirib kelganligi va kushonlar hamda sosoniylar bilan aloqalardagi ishtirokiga

---

463 Тревер К. В., Якубовский Ю. А., Воронец М. Э. История народов Узбекистана. Ташкент, 1950.

464 Бернштам А. Л. Очерк истории гуннов. Л.: ЛГУ, 1951. 190 с.

465 Тревер К. В. Кушаны, хиониты и эфталиты по армянским источникам IV–VII вв. // Советская археология. 1954. № 21. С. 131-147.

466 Вязигин С. А. Эфталиты / История Туркменской ССР. Ашхабад, 1957. Т. I. Кн. I. 148 с.

467 Негматов И. Уструшана в древности и раннем средневековье. Сталинабад. ТаджССР, 1957. 129 с.

to'xtaladi[468]. Mazkur asar O'zbekistonda eftallarning etnomadaniy jarayonlarga aralashuv jarayoni tadqiq etilayotgan davrdan ancha oldin boshlanganligini ko'rsatadi.

Arxeologik manbalar asosida eftallar tili masalasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar sirasiga V. B. Xenning[469] va V. A. Livshitslarni[470] kiritish mumkin. Ushbu olimlar numizmatik materiallarni tahlil qilish orqali Toxariston eftallari tilini baqtriya tiliga taqqoslaganlar, ammo ushbu tadqiqot jarayonida buni inkor etuvchi manbalarga duch kelindiki, biror-bir manba eftallarning eroniy tilli ekanligini tasdiqlay olmadi.

A. M. Mandelshtamning "После кушанского погребения в Северной Бактрии" nomli maqolasi[471] va V. M. Massonning tadqiqotlarida eftallar tarixi yoritilgan bo'lib, unda asosan, eftallarning siyosiy hayoti aks etgan. Uning qarashlaridan biri eftallar kushonlar o'rnida paydo bo'ladi va barcha jabhada ularning davlatchilik an'analarini qabul qilishga urinadi[472].

Ye. Nerazikning "Предки таджикского народа в IV–V вв."[473] nomli maqolasida eftallarning kelib chiqishi masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ushbu ishni amalga oshirish uchun "История Армении" asaridan foydalaniladi. Garchi, mazkur tadqiqotchi eftallarning sosoniylar va Vizantiya bilan aloqalarini yoritsa-da[474], bitta manbaga tayanib qolganligi sababli, ko'zlagan natijaga erisha olmaydi. Eftallar davrida madaniy hayotni o'rganish yuzasidan V. Nilsenning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Uning "Архитектура Средней Азии V–VIII вв." asarida eftallar davri O'rta Osiyo shaharsozlik usullari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan[475]. Ushbu asar V–VIII asrlar O'rta Osiyodagi madaniy hayotni o'rganish uchun muhim ahamiyatga egadir.

B. Ya. Staviskiy va B. I. Vaynberglarning "Сасаниды в правобережной Бактрии (Тохаристане) в IV–V вв." maqolasida[476] ham eftallarning O'zbekiston hududiga kirib kelishidan oldin sodir bo'lgan jarayonlar va unda eftallarning tutgan o'rni haqida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, B. G'. G'afurovning "Таджики. Древнейшая и средневековая история" asarida ham eftallar masalasiga doir faktlar mavjud[477].

---

[468] Гумилев Л. Н. Эфталиты и их соседи в IV веке // Вестник древней истории. 1959. №1. С. 135.
[469] Henning W.B. Sogdian tales. BSOAS, vol. XI, pt. 3, 1945. Pp. 477-479.
[470] Лившиц В. А. Иранские языки народов Средней Азии // Народы Средней Азии и Казахстана. Том 1. М.: ИВЛ, 1962.
[471] Мандельштам А. М. После кушанские погребения в Северной Бактрии / Краткие сообщения Института археологии. М., 1963. Вып. 94. С. 89–93.
[472] Массон В. М. Эфталитское объединение и период политической раздробленности. ... С. 68.
[473] Неразик Е. Е. Предки таджикского народа в IV-V вв. // История таджикского народа. Т. 1. М.,1963. С. 401-430.
[474] Неразик Е. Е. Предки таджикского народа в IV–V вв. н.э. / История таджикского народа. М.: Восточная литература, 1963. Т.1. 416 с.
[475] Нильсен В. А. Архитектура Средней Азии V–VIII вв. Ташкент, 1966. 325 с.
[476] Ставиский Б. Я., Вайнберг Б. И. Сасаниды в правобережной Бактрии (Тохаристане) в IV–V вв. // Вестник древней истории. 1972. №3. С. 188.
[477] Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая и средневековая история. М.: Восточной литература, 1972. 206 с.

B. X. Karmishevaning tadqiqotlari V–VIII asrlardagi etnomadaniy jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Uning 1976-yilda Moskvada nashr qilingan "Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана" asarida eftallarning V–VI asrlardagi O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston va Tojikiston hududlarida sodir bo'lgan etnomadaniy jarayonlarga ta'siri batafsil yoritilgan. Uning fikricha, eftallarning kirib kelishi va ularning etnomadaniy jarayonlarga ta'siri hududlar kesimida O'zbekistonning eng janubiy hududlarigacha yetib bora olgan. Masalan, Surxondaryo vohasi chegaralari yaqinida joylashgan Hazrat Vaxshivor – Sankt-Vaxshivor deb nomlangan So'fi Olloyor mozori nomining eftallar qiroli nomi bilan o'xshashligini ko'rsatadi[478].

B. A. Litvinskiyning "Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы" nomli maqolasida V–VI asrlarda sodir bo'lgan etnosiyosiy va madaniy jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan. E'tiborlisi, mazkur ish ushbu davrda sodir bo'lgan etnogenetik jarayonlar Farg'onadagi holat bilan bog'liq bo'lib[479], ushbu davrni hududlar kesimida o'rganish uchun muhim ahamiyatga egadir.

L. X. Ter-Mkrtchyanning tadqiqotlarida ham asosiy e'tibor arman va suriya manbalariga qaratiladi. Shu orqali muallif eftallar davri haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Mazkur ishning qimmatli tomoni shundaki, unda arman manbalaridagi O'rta Osiyoga doir ma'lumotlar sinchiklab o'rganilgan. Chunonchi, ushbu holatni mazkur muallifning 1979-yilda nashr qilingan "Армянские источники о Средней Азии V–VII вв."[480] asarida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Eftallar O'zbekiston hududini egallamasliklaridan oldingi holat bo'yicha X. Yusupov, A. Gubaev va S. K. Kabanovlarning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin[481]. Ushbu tadqiqotlar voqealarni ob'yektiv, garchi o'sha davr nuqtai nazaridan, ma'lumotlar kam bo'lsa-da, mufassal yoritishga urinilganligi bilan ahamiyatlidir.

B. P. Vaynberg va T. A. Raevskayalar ham "Нумизматические заметки" nomli maqolasi orqali Termizdan topilgan tangalar yordamida Eftallar davrida sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarni sharhlashga urinadi[482]. Ularning ma'lumotlari ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, ushbu davrni o'rganishda muhim arxeologik manba hisoblanadi.

---

[478] Кармышева Б Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: Наука, 1976. 135 с.

[479] Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы / История и культура народов Средней Азии (древность и средние века). М., 1976. С. 56.

[480] Тер-Мкртчян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V–VII вв. М.: Наука, 1979. 70 с.

[481] Юсупов Х. Ешё раз о столице кидаритов / Известия АН ТССР. Серия общественных наук. Ашхабад, 1980. №2; Губаев А. Раскрываются тайны замка Актепе. Ашхабад, 1981. 31 с.;

[482] Вайнберг Б. П., Раевская Т. А. Нумизматические заметки. ... С. 67.

E. V. Rtveladzening "История Южного Узбекистана в эфталитское время" nomli maqolasida eftalitlar davrida O'zbekistonning janubida sodir bo'lgan jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan[483]. Uning bergan ma'lumotlari eftallar davridagi etnomadaniy jarayonlarning hududlar kesimida ta'siri qanday bo'lganligini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

A. B. Nikitinning "Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье)" nomli maqolasida eftallar davrida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan e'tiqodlar, jumladan, xristianlik dini haqida ma'lumot beriladi[484].

V. G. Lukonin ham o'z tadqiqotlarida Vizantiya va suriyalik tarixchilar asarlaridan keng foydalanib, Eftallar kelmasidan oldingi vaziyat, Xioniylar bilan Sosoniylar mojarosi, Shopur II ning harbiy yurishlari[485] tarixini yoritishga nisbatan chuqurroq yondashadi. Shopur II ning harbiy yurishlari orqali eftallar va sosoniylar siyosiy munosabatlari to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Chunonchi, mazkur muallif "Сасанидская держава в III–V вв." maqolasida asardagi fikrlarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Kushonlarga sosoniylarga qarshi kurashda xioniylar bilan birgalikda eftallarning yordami bo'lganligiga hech shubha yo'qligini qayd etgan bo'lsa[486], L. A. Borovkovaning "Запад Центральной Азии во II в. до н.э. – VII в. н.э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам)" nomli asarida ham eftallar davri to'g'risida ko'plab muhim ma'lumotlar uchraydi[487].

Eftallarning sosoniylar bilan aloqalari masalasi bevosita R. Frayning tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Garchi, mazkur ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor o'sha vaqtda Erondagi siyosiy vaziyatga qaratilsada[488], kushonlar, xioniylar va eftallar haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Shunday qilib, XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarining oxirigacha amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar natijasida eftallar davri haqida ko'plab ma'lumotlar yanada oydinlashdi. Chunonchi, Sosoniylar davlati va Kushon imperiyasining o'zaro munosabatlari, ularda kidariylar hamda xioniylar singari eftallarning tutgan o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratildi hamda tadqiq etildi. E'tibordan chetda qolgan masalalar qatoriga eftallarning kelib chiqishi, etnosiyosiy jarayonlar to'liq ochib berilmaganligi, til masalasida yakdil fikrlar yo'qligi va boshqalarni kiritish mumkin.

---

[483] Ртвеладзе Э. В. К истории Южного Узбекистана в эфталитское время / Бактрия и Тохаристан на древнем и средневековом Востоке. М., 1983. С. 75.
[484] Никитин А. Б. Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье) / Восточный Туркестан и Средняя Азия. М., 1984. 122 с.
[485] Луконин В. Г. Древний и раннесредневековый Иран / Очерки истории культуры. М., 1987. 228 с.
[486] Shu muallif. Сасанидская держава в III–V вв. / История древнего мира. Упадок древних обществ. М., 1989. Кн. III. 258 с.
[487] Боровкова Л.А. "Запад Центральной Азии во II в. до н.э. – VII в. н.э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам)". М., 1989. 181 с.
[488] Фрай Р. Наследие Ирана. М., 1972. 279 с.

**Uchinchi davr** (XX asr 90-yillaridan to hozirgi kunga qadar). Ushbu davrda mahalliy tadqiqotchilardan B. X. Matboboyev[489], U. Turon[490], X. Yusupov[491], E. V. Rtveladze[492], Yu. F. Buryakov[493], S. Mustafoqulov[494], O. P. Kobzeva[495], A. A. Asqarov[496], A. Xo'jayev[497], O'. M. Mavlonov[498], Sh. S. Kamoliddin[499], A. M. Otaxo'jayev[500], A. Aytbayev, Sh. T. Qo'ldoshev va F. Jumaniyozova[501], shuningdek, G. L. Semyonov[502], O. A. Gundogdiev[503], V. S. Solovev[504], S. G. Xmelnitskiy[505], A. Qurbonov[506], R. Kenfild[507], D. Kristian[508], K. Enoki[509] hamda A. Katariya[510] kabi xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlarini misol sifatida keltirish mumkin.

E. V. Rtveladzening[511] asarida "eftal" atamasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, o'tmish manbalarida eftalitlar turlicha nomlar bilan tilga olingan. Masalan, ***armancha*** "xeptal", "xetal", "tetal"; ***yunoncha*** "eftalit", "abdel", "eftal", "Oq ovlar"; ***suriya manbalarida*** "eptalit", ***arabchada*** "baland",

---

[489] Матбабаев Б. Х. Подземные склепы могильника Мунчактепа (к вопросу о погребальном обряде) / Фергана в древности и средневековье. Самарканд, 1994. С. 58–65.

[490] Турон У. Туркий халқлар мафкураси. Тошкент: Чўлпон, 1995. 13-б.

[491] Юсупов Х. Страницы истории Туркменистана (с древнейших времен до арабского завоевания). М., 1997.

[492] Ртвеладзе Э. В. Великий Шелковый путь / Энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. Ташкент, 1999. 271 с.

[493] Буряков Ю. Ф. Христианство в Средней Азии в древности и средневековье / Культура народов Центральной Азии. Религия и демократия. Самарканд: МИЦАИ, 1999. С. 12.

[494] Мустафакулов С. Население Тохаристана в эпоху раннего средневековья // История материальной культуры Узбекистана. Ташкент, 2002.

[495] Кобзева О. П. Великий Шелковый путь: история и современность. Ташкент: Фан, 2005. С. 16.

[496] Асқаров А. А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007. 232-бет.

[497] Ходжаев А. Китайский историк о Средней Азии/ Исследования по истории, истории науки и культуры народов Средней Азии. Ташкент: Фан, 1993. 171 с; Shu muallif. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент, 2007. 171 б.

[498] Мавлонов Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Тошкент: Akademiya, 2008. 131 б.

[499] Камолиддин Ш. С. К вопросу о происхождении Саманидов / Archivum Eurasiae Medii Aevi. Edited by Th. T. Allsen., P. B. Golden., R. K. Kovalev and A. P. Martinez. №15 (2006/2007). Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008.

[500] Отахўжаев А. М. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

[501] Хўжаев А., Айтбаев А., Қўлдошев Ш., Жуманиёзова Ф. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида. Тошкент, 2016. 87 б.

[502] Семёнов Г. Л. Структура согдийского города раннего средневековья // История материальной культуры Узбекистана. Самарканд, 1998. №29. С. 99–104.

[503] Гундогдыев О. А. Прошлое туркмен / Избранные труды по истории и культуре Туркменистана. М., 1998. С. 544–545.

[504] Соловьев В. С. Средняя Азия в IV–V вв. / История таджикского народа. Душанбе, 1998. Т. 1. С. 471.

[505] Хмельницкий С. Г. К вопросу классификации раннесредневековых замков Средней Азии // История материальной культуры Узбекистана. Ташкент, 2001. №32. С. 122.

[506] Курбанов А. Эфталиты (исторический очерк). Санкт-Петербург: Европейский дом, 2007. С. 10.

[507] Robert L.C. Turko-Persia in Historical Perspective. Cambridge University Press, 1991. P. 49-50.

[508] Christian D. A History of Russia, Inner Asia and Mongolia. Oxford: Basil Blackwell, 1998. P. 248-250.

[509] Enoki K. History of Civilizaton of Central Asia. Vol. 2. 1999. 175 p.

[510] Katariya A. Ancient History of Central Asia: Yuezhi origin Royal Peoples: Kushana, Huna, Gurjar and Khazar Kingdoms. Adesh Katariya, 2007.

[511] Ртвеладзе Э. В. Великий Шелковый путь / Энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. Ташкент, 1999. 271 с.

“xetal”; o‘rta forschada “xeptal”, ***zardushtiylikka oid manbalarda*** ular ba’zan “pyoz”, hind manbalarida esa “hula” ko‘rinishida uchraydi. Shuningdek, arab manbalarida eftallar “haytallar” nomi bilan qayd etilgan bo‘lsa-da, ba’zida ular “turklar” deb nomlangan va arman manbalarida ular kushonlar bilan qiyoslanadi.

B. Ahmedovning qayd etishicha, xitoy manbalarida eftalitlar “ye-da”, “yedien”, “idan”, “e-ta-lito” kabi nomlar bilan uchraydi[512]. E. V. Rtveladze esa barcha nomlar ichidan asosiy xalqning nomi “eftallar”dir, degan umumiy xulosani beradi[513].

A. Xo‘jayev va K. Xo‘jayevlarning “Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши” nomli asarida “Vey shu”, “Tan shu”, “Shi ji” hamda “Yuan shu” nomli Xitoy manbalaridagi qadimiy turkiy xalqlar etnogeneziga oid ma’lumotlar keltirilgan[514]. Bundan tashqari, tadqiqotchi O‘rta Osiyo va unga qo‘shni bo‘lgan hududlarda turkiy xalqlarga oid etnonimlarning Xitoy manbalarida aks etishini tadqiq qilgan holda asosli xulosalar bergan[515]. Shuningdek, A. Xo‘jayevning “Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар”[516], “Китайский историк о Средней Азии”[517] va “Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши” nomli asarlari orqali shu soha bo‘yicha tadqiqot ishlarini davom ettiradi.

A. Anorboyevning “Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар”[518] nomli maqolasida ham hududimizda ilk o‘rta asrlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ularning turli adabiyotlarda yoritilishiga doir mulohazalar berilgan. Mazkur sohada yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar ko‘rsatilib, ularni yechimlari asoslab berilgan.

Eftallar davrida O‘zbekistonning janubiy hududlarida sodir bo‘lgan etnomadaniy jarayonlarni o‘rganishda S. Mustafaqulovning ishlarini alohida ta’kidlash joiz. Uning “Население Тохаристана в эпоху раннего средневековья” nomli asarida Toxaristonda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar masalasi aks etgan[519].

O‘. M. Mavlonovning “Марказий Осиёнинг қадимги савдо йўллари” nomli asarida ham bevosita V–VI asrlardagi jarayonlarga to‘xtalgan. Muallif o‘z asarida asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lining ko‘chmanchi turkiy va mahalliy o‘troq dunyo o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarganligini ta’kidlaydi[520]. Bunday qarashlarni O. P. Kobzevaning “Великий шелковый путь: история и

---

[512] Аҳмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 42-б.
[513] Ртвеладзе Э. В. Великий Шелковый путь... С. 271.
[514] Хўжаев А., Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. Тошкент: Маънавият, 2001. 10-б.
[515] Хўжаев А. Қадимий хитой манбаларидаги туркий халқларга оид айрим этнонимлар// O‘zbekiston tarixi. 2003. №1. 3-11-бетлар.
[516] Shu muallif. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. ... 171-б.
[517] Ходжаев А. Китайский историк о Средней Азии... С. 171.
[518] Анорбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар// O‘zbekiston tarixi. 2004. №4. 3-14-бетлар.
[519] Мустафакулов С. Население Тохаристана в эпоху раннего средневековья // История материальной культуры Узбекистана. Ташкент, 2002. Вып. 33. С. 303–304.
[520] Мавлонов Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари... 8-б.

современность" asarida ham kuzatish mumkin[521]. Mazkur asarlar mil. avv. 138 yilda Chjan Szyan Xitoy uchun kashf etgan ushbu yo'lning turkiy va o'troq aholi simbiozi jarayonlarida ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Sh. S. Kamoliddinning tadqiqotlarida eftallarning kelib chiqishi masalasiga alohida to'xtalib, eftallarning turkiylarga mansub ekanligni isbotlashga uriniladi[522].

A. Xo'jayev, A. Aytboyev, Sh. Qo'ldoshev va F. Jumaniyozovalarning "Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида" nomli asari mustaqillik yillarida yaratilgan eftallar davri haqida ma'lumot beruvchi muhim asarlardan biridir. Mazkur asarda Xitoy manbalaridagi eftallarga tegishli ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, ushbu asarda eftalitlarning kelib chiqishiga javob Xitoy bitiklaridan izlangan. "Bey shi"da tilga olingan "yeda (eftalitlar)" "gogyuy"lar (uyg'ur)ning bir tarmog'i bo'lib, urf-odatlari va bir qancha jihatlari bilan turk (tukyu)larga o'xshash, degan fikrlarga asoslanib, eftallarni turkiylardan ekanligini asoslashga uriniladi[523].

A. Qurbonov ham eftallarning kelib chiqishiga doir olib borgan tadqiqotlari natijasida "Эфталиты (исторический очерк)" asarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Muallif ushbu tadqiqotni amalga oshirishda Vizantiya va Suriya tarixchilari, xususan, Zenob Glakning asarlaridan keng foydalangan. Ushbu kitobda eftallarning kelib chiqishi masalasiga oid muhim yangiliklar taqdim qilingan[524].

Eftallar davridagi turkiylar va sug'dlar munosabatlarini tadqiq etish etnosiyosiy hamda madaniy jarayonlarga oydinlik kiritishga xizmat qiladi. Mazkur masala bo'yicha mustaqillik yillarida A. Otaxo'jayevning "Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари" nomli asari chop etildi[525].

Xullas, eftallar davrida O'rta Osiyo, chunonchi, O'zbekiston xalqlari tarixida turkiylar va mahalliy aholining migratsion hamda integratsion jarayonlari jadallashib, assimilitsiyalashuvi yanada kuchayadi. Mazkur jarayonlar eftallar davrida yaratilgan keng siyosiy, iqtisodiy va madaniy imkoniyatlar, turli xalqlarning o'zaro teng manfaatli aloqalari, mintaqadagi turkiy hamda sharqiy eroniy tilli etnoslarning simbiozi natijasida o'ziga xos sivilizatsiyani vujudga keltirib va ushbu holat Turk xoqonligi davrida yanada kuchaygan.

---

[521] Кобзева О. П. Великий Шелковый путь: история и современность. ... С. 16.

[522] Камолиддин Ш. С. К вопросу о происхождении Саманидов / Archivum Eurasiae Medii Aevi. Edited by Th. T. Allsen, P. B. Golden, R. K. Kovalev and A. P. Martinez. (2006/2007). №15. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008.

[523] Хўжаев А., Айтбаев А., Қўлдошев Ш., Джуманиёзова. Ф. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида. ... . 87-б; Отахўжаев А. М. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O'zbekiston tarixi. 2009. №1. 150-б.

[524] Курбанов А. Эфталиты (исторический очерк)... С. 10.

[525] Отахўжаев А. М. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

## Turk xoqonligi davri tarixshunosligi

Ma'lumki, VI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi davlati tashkil topdi. Ushbu davrga oid ma'lumotlar yetarli, biroq ular bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma'lumotlar bermaydi. Turkiy xalqlar tarixini o'rganishda yozma manbalar muhim manba vazifasini o'taydi. Ushbu davrga oida ko'plab ma'lumotlar qadimiy bitiktoshlar, qo'lyozmalar, yilnomalarda saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, *arman* mualliflari, turk xoqonligining g'arbdagi faoliyatini yorituvchi *suryoniy, tur*k xoqonligi va Tibet aloqalarini aks ettirgan *tibet* va xoqonlik tarixining ba'zi jihatlari, xususan, unvonlar tizimini yoritishda yordam beradigan *pahlaviy (*o'rta fors*), hind, sak-xutan, gruzin, arab* va *fors* kabi tillardagi hujjatlarda ushbu davr to'g'risida atroflicha ma'lumot olish mumkin bo'ladi[526].

**O'rxun-Enasoy bitiklari.** Ushbu epigrafik manbalar asosan, ikki hududiy va mazmuniy jihatdan ikki guruhga ajratilib, O'rxun bitiklari – Mo'g'uliston, Tog'li Oltoy va Xakasiya, ba'zi manixey qo'lyozmalar esa Sharqiy Turkiston, Enasoy bitiklari – Enasoyninng yuqori hamda o'rta oqimi, Sayano-Oltoy tog'li mintaqasi va Mo'g'uliston hududlaridan bir qismidan topib o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida 11 ta katta epigrafik bitiklar (Kultegin, Bilge xoqon, Tunyuquq, Boyanchur va b.) aniqlandi. Ushbu bitiklar to'g'risidagi ilk ma'lumotlar Pyotr I davridan beri ma'lum bo'lib, runik yozuv yodgorliklari haqidagi birinchi ma'lumotni S. Remezov, F. Stralenberg va D. Messershmidt 1696–1722 aniqlagan[527]. 1889-yilda N. M. Yadrinsev tomonidan ushbu bitiklar tahlil qilingan va ularning o'ziga xos runik jihatlari ko'rsatib berilgan[528]. Mazkur tadqiqotchining olib borgan ilmiy izlanishlari va ma'lumotlari asosida 1890-yilda fin, 1891-yilda esa rus olimlarining O'rxunnga ekspeditsiyalar tashkil qilingan.

Mazkur bitiktoshning o'rganilish tarixiga nazar tashlansa, 1893-yilda V. Tomson O'rxunn daryosi qirg'oqlaridan topilgan yozuvlarni o'qishga muvaffaq bo'lganligi to'g'risida Daniya qirolligi FA yig'ilishida axborot bergan edi[529]. V. Tomsondan keyin V. Radlov[530] ham 1894-yil 19-yanvarda Rossiya FA yig'ilishida Kulteginga bag'ishlangan bitiktoshni o'qishga muvaffaq bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berdi. Ushbu bitiktoshlarning topilishi va uning O'rta

---

[526] Бувақов Н. Турк хоқонлиги ва суғдлар (симбиоз ва ассимиляция жараёнлари: тарихшунослик таҳлили) // ФарДУ хабарлари. Фарғона, 2020. № 4. 84-88-бетлар.

[527] Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1951. С. 6-15.

[528] Рафиенко Л. С. Мемориальные памятники Н. М. Ядринцева в Сибири //Культурное наследие Азиатской России: материалы I Сибиро-Уральского исторического конгресса. Тобольск, 1997. С. 53-54.

[529] Thomsen Vilh. Déchiffrement des inscriptions de l'Orkhon et de l'ienissei. Notice préliminaire. Copenhague, 1894. ЗВО, VIII. С. 327-337.

[530] Радлов В. В. Предварительный отчёт о результатах экспедиции для археологических исследований бассейна реки Орхона. Сборник трудов Орхонской экспедиции, I, 1892.

Osiyo, Sibir, Mo'g'uliston, Xitoy, Sharqiy Turkiston va boshqa hududlarni o'rganishdagi ahamiyati to'g'risida N. I. Veselovskiy[531], N. F. Katanov[532], V. V. Bartold[533], S. F. Oldenburg[534], A. I. Andreyev[535], A. N. Bernshtam[536] hamda boshqa olimlar ma'lumotlar bergan.

V. Tomson va V. Radlovlardan keyin bitiktoshlarni turli tillarga tarjima qilish, o'rganish va tahlil qilish bilan M. P. Melioranskiy[537], S. Ye. Malov[538], V. M. Nasilov[539], I. V. Stebleva[540], A. N. Kononov[541], S. G. Klyashtorniy[542], D. D. Vasilev[543], I. L. Kizlasov[544], I. V. Kormushin[545] va boshqalar shug'ullandilar. Bu borada o'zbek olimlaridan A. Fitrat, O. Sharofiddinov, A. Qayumov, T. Salimov, G'. Abdurahmonov va A. Rustamovlarning xizmatlari beqiyos.

**Turklarga oid xitoy manbalari.** Turkiston tarixi bilan bog'liq xitoy manbalarini o'rganishda va tarjima qilishda rus olimlari orasida N. Ya. Bichurinning xizmati benihoya katta[546]. Bundan tashqari, Turk xoqonligi haqidagi xitoy manbalarini o'rganishda V. V. Grigorev[547], V. Uspenskiy[548], D. Pokotilov[549], N. A. Aristov[550], V. P. Vasilev[551], V. M. Alekseyev[552],

---

531 Веселовский Н. И. Орхонские открытия. ЖМНП. Т. 292, 1894. Совр. летоп. С. 59-72.

532 Катанов Н. Ф. Швед Филипп-Иоганн Страленберг и труды его по России и Сибири (начала XVIII века). Изв. Общ. археол., ист. и этногр. Т. XIX. Казань, 1903. С. 170-174.

533 Бартольд В. В. Новые исследования об орхонских надписях. ЖМНП, т. 325, 1901. С. 231-250.; Shu muallif. История изучения Востока в Европе и России. Издание второе. Л., 1925. С. 270-271.

534 Ольденбург С. Ф. Василий Васильевич Радлов. 5/1 1837 – 1918 29/IV 12/V. Изв. Росс. Академии наук, 1918. С. 1233-1236.

535 Андреев А. И. Труды Семёна Ремезова по географии и этнографии Сибири XVII-XVIII вв. Проблемы источниковедения. Труды Института истории АН СССР, Сборник третий, 1940. С. 85-126.

536 Бернштам А. Н. Социально-экономический строй орхоно-енисейских тюрок VI-VIII веков. М.-Л., 1946. 207 с.

537 Мелиоранский П. М. Об орхонских и енисейских надгробных памятниках с надписями. ЖМНП, ч. 317, 1898, июнь, отд. 2. С. 263-292.

538 Малов С. Е. Енисейская письменность тюрков. М.-Л., 1952. 451 с.

539 Насилов В. М. Язык орхоноенисейских памятников. М., 1960.

540 Стеблева И. В. Поэзия тюрков VI–VIII вв. М., 1965.

541 Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII–IX вв. Л., 1980.

542 Кляшторный С. Г. Терхинская надпись // Советская тюркология. 1980. № 3.

543 Васильев Д. Д. Корпус тюркских рунических памятников бассейна Енисея. Л., 1983.

544 Кызласов И. Л. Особенности тюркской рунологии // Центральная Азия. Источники, история, культура. М., 2005

545 Кормушин И. В. Тюркские енисейские эпитафии. М., 2008.

546 Бичурин И. История Китая. Рукопись. ЛОИНА. Ф. 7; История Тибета и Хухунора. СПб., 1833. Т. I. 476 с.; Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., 1950-1953. Т. I-III.

547 Григорьев В. В. Восточный или Китайский Туркестан. СПб., 1873.

548 Успенский В. Страна Кукэ- нор и Цин-хай // Записки ИРГО по отделению этнографии. СПб., 1880. Т. IV

549 Покотилов Д. История восточных монголов в период династии Мин. СПб., 1893.

550 Аристов Н. А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // Живая старина. Х. Т. IV, 1896.

551 Васильев В. П. Китайские надписи в орхонских памятниках в Кошоцайдаме и Карабалгасуне // Сборник трудов Орхонской Экспедиции. СПб., 1897. Т. III.

552 Алексеев В. М. Древние китайцы на страже своих границ // Известия АН СССР. Отд. литературы и языка. 1945. Т. IV. Вып. 5.

Yu. Shan[553] va boshqalarni ko'rsatish mumkin. O'zbekistonda Xitoy manbalarini o'rganish bo'yicha A. Xo'jayevning olib borgan tadqiqotlari[554] muhim ahamiyatga ega.

**Masalaga oid yangi va eng yangi davr tadqiqotlari (XX–XXI asr).** Tadqiqotlarni geografik jihatdan yondashgan holda ko'riladigan bo'linsa, masalani o'rgangan xorijiy tadqiqotchilari qatoriga fransuz olimlari – E. Chavannes[555], P. Pelo[556], R. Grusse[557], R. Jiru[558], J. P. Ru[559], L. Bazin[560] va J. Kuzene[561]; nemis tadqiqotchilari – O. Franke[562], A. Fon Gaben[563], B. Shpuler[564], N. Poup[565], X. Gyokenyan[566], V. E. Sharlipp[567] hamda S. Stark[568]; polshalik olimlar V. Kotvich[569] va T. Nagrodzka-Mayxjik[570], italiyalik

---

553 Шан Юэ. Очерки истории Китая. М., 1959.

554 Хўжаев А. Цинская империя и Восточный Туркестан в VIII в. Ташкент: Фан, 1991; Из истории международных отношений Центральной Азии в XVIII веке. Ташкент: Фан, 2003; Китайский фактор в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 2007; Из истории древних тюрков. Ташкент, 2011; Фарғона тарихига оид маълумотлар. Тошкент, 2013; Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар. Тошкент: Наврўз, 2015; Сведения древнекитайских источников по этнической истории Центральной Азии. Ташкент: Наврўз, 2017; Қулдошев Ш., Жуманисзова Ф. Марказий Осиё давлатчилик тарихига оид маълумотлар. Тошкент: Фан, 2018; Сведения китайских источников по истории государственности Центральной Азии. Ташкент: Фан, 2018.

555 Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux / Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. СПб., 1903.

556 Pelliot P. Sur la legende d'Uyuz-khan en ecriture ouigoure // T'oung Pao (Second Series), 1930. Vol. 27. № 4/5. Pp. 247-358.

557 Grousset R. L'empire des steppes. Attila, Gengis-khan, Tamerlan. Quatrieme edition. Paris, 1965 (premiere edition : 1938). Pp. 124-161

558 Giraud R. L'Empire des Turcs Celestes. Les regnes d'Elterich, Qapghan et Bilga (680-734). Contribution à l'histoire des Turcs d'Asie Centrale. Illustre de 4 cartes en hors texte. Paris, 1960. 219 p.

559 Roux J.-P. La religion des Turcs de l'Orkhon, des VIIe et VIIIe siecles [premier article] // Revue de l'histoire des religions, 1962. T. 161. № 1.

560 Bazin L. Les calendriers turcs anciens et medievaux. Lille, 1974 (Universite de Lille III).

561 Cuisenier J. Economie et parente : essai sur les affinités de structure entre système économique et système deparente. Lille, 1971.

562 Franke O. Geschichte des chinesischen Reiches: eine Darstellung seiner Entstehung, seines Wesens und seiner Entwicklung bis zur neuesten Zeit. Berlin; Leipzig, 1936.

563 Gabain A. (von) Köktürklerin Tarihine Kısa Bir Bakış I : Stepte Yaşayan Köktürkler (682—742) // Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi, 1944. Cilt II. Sayı 5. S. 685-695.

564 Spuler B. Geschichte Mittelasiens seit dem Auftreten der Türken // Handbuch der Orientalistik. Leiden; Köln, 1966. 1. Abt. Der Nahe und der Mittlere Osten. Bd. V. Altaistik. Abschnitt 5. Geschichte Mittelasiens. S. 123-310.

565 Poppe N. [Review] Ural-Altaische Jahrbücher, Fortsetzung der „Ungarischen Jahrbücher", herausgegeben von Julius von Farkas, Band XXIV, Heft 1–2 (1952), Otto Harrassowitz, viii + 153 pages // Harvard Journal of Asiatic Studies, 1952. Vol. 15. № 3/4. P. 522.

566 Göckenjan H. Zur Stammesstruktur und Heeresorganisation altaischer Völker. Das Dezimalsystem // Europa slavica – Europa orientalis. Festschrift für Herbert Ludat zum 70. Geburtstag / hg. v. K.-D. Grothusen u. K. Zernack. Berlin, 1980

567 Scharlipp W.E. Die frühen Türken in Zentralasien. Eine Einführung in ihre Geschichte und Kultur. Darmstadt, 1992.

568 Stark S. On Oq Bodun. The Western Türk Qaghanat and the Ashina clan // Archivum Eurasiae Medii Aevi. Wiesbaden, 2008. Vol. 15.

569 Kotwicz W. Contributions à l'histoire de l'Asie Centrale // Rocznik Orientalistyczny, 1949. T. XV (1939-1949). Pp. 160, 161-162.

570 Nagrodzka-Majchrzyk T. Geneza miast u dawnych ludów tureckich, VII-XII w. Wroclaw; Warsaw; Cracow; Gdańsk, 1978.

tadqiqotchilar A. Bombachi[571] hamda P. Kannata[572], amerikalik olimlar O. Lattimor[573], D. Sinor[574], L. Kreder[575], J. Sonders[576], L. Kventin[577], P. B. Golden[578] va boshqalarni kiritish mumkin.

Turkiyalik olimlardan – Yu. Akchura[579], Z. V. Togan[580], Z. Gyokalp[581], A. Kaferoglu[582], M. Kuprulu[583], S. M. Arsal[584], X. N. Orxunn[585], N. Atsiz[586], A. N. Kurat[587], B. O'gel[588], I. Turkoglu[589], S. Go'mech[590], K. J. Skaff[591], F. Sumer[592] va boshqalar ushbu yo'nalishda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan.

Rus tadqiqotchilaridan ushbu masala bilan A. N. Bernshtam[593], N. V. Pigulyovskaya[594], S. V. Kiselev[595], S. G Klyashtorniy[596],

---

571 Bombaci A. Qutluγ bolzun! A Contribution to the concept of 'fortune' among the Turks // Ural-Altaische Jahrbücher, 1965. Vol. 36.

572 Cannata P. Profilo storico del 1° impero turco (metà VI - metà VII secolo). Rome, 1981.

573 Lattimore O. Studies in Frontier History: Collected Papers, 1928-1958. London ; New York ; Toronto, 1962.

574 Sinor D. The Historical Role of the Turk Empire // Journal of World History, 1958. Vol. IV. № 3. Pp. 427-434.

575 Krader L. Social Organization of the Mongol-Turkic Pastoral Nomads. The Hague, 1963. (Indiana University Publications. Uralic and Altaic Series. Vol. 20).

576 Saunders J.J. The History of the Mongol Conquests. London, 1971 (Repr. : Philadelphia, 2001). Pp. 17-30.

577 Kwanten L. Imperial Nomads: A History of Central Asia, 500-1500. Philadelphia, 1979.

578 Golden P.B. Khazar Studies : An Historico-Philological Inquiry into the Origins of the Khazars. Budapest, 1980. Vol. 1.

579 Georgeon F. Türk milliyetçiliğinin kökenleri. Yusuf Akçura (1876—1935) / çev. A. Er. Ankara, 1986 (Yurt yayınları: 13 ; Türkiye Araştırmaları Dizisi : 12). S. 29 dipnot 56.

580 Салихов А.Г. Деятельность А. Валидова в России. Уфа, 2001. С. 62, 70.; Zeki Velidi Togan A. Tarihte Usûl. 3 üncü. bk. Istanbul, 1981.

581 Gökalp Z. Bir Kavmin Tedkikinde Takib Olunacak Usul // Gökalp Z. Makaleler III (Millî Tetebbular Mecmuası'ndaki makaleler) / hazırıoyan : M. Orhan Durusoy. Ankara, 1977.

582 Caferoglu A. Tukyu ve Uygurlarda Han Unvanları // Türk Hukuk ve İktisat Tarihi Mecmuası, 1931. Cilt 1.

583 Köprülü M.F. Zur Kenntnis der alttürkischen Titulatur // Körösi Csoma Archivum. Leiden, 1967. Vol. I. 1935-1939.

584 Arsal S.M. Eski Türklerde soy-oymak teşkilâtının istinat ettiği esaslarla Kadim Yunanlıların genos-fratria teşkilâtında ve Kadim Romanların gens-curia teşkilâtında hakim olan esasların ayniyetine dair // IV. Türk Tarih Kongresi, Ankara 10-14 Kasım 1948.

585Orkun H.N. Türk Tarihi. Ankara, 1946; Orkun H.N. Eski Türk yazıtları. 3. baskı. Ankara, 1994.

586 Atsız N. Türk Halkı Değil, Türk Milletiyiz! // Ötüken. Ocak 1969. Sayı: 61.

587 Kurat A.N. Göktürk Kağanlığı. Birinci Bölüm : siyasî tarihin ana hatları (M.s. 552-745) // Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi. Tarih Araştırmaları Degrisi. 1952. Cilt X.

588 Ögel B. Türk Kültürünün Gelişme Çağları. İstanbul, 1971.

589 Türkoglu I. Central Eurasian Studies in Turkey (1985-2002) // Research Trends in Modern Central Eurasian Studies (18th-20th centuries) : a Selective and Critical Bibliography of Works Published Between 1985 and 2000 / ed. by Stephane A. Dudoignon and Hisao Komatsu. Tokyo, 2003 (Toyo Bunko Research Library 3). Part I.

590 Gomeç S. Kök Türk Tarihi. Ankara: TTK, 1997. 188 s.; Shu muallif.Kök Türkçe yazılı belgelerde yer alan unvanlar // Türk kültürü. Ankara, 2000. № 443. S. 129–142.

591 Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS. Ankara, 2002.

592 Sümer F. Eski türklerde Şehircilik. Ankara, 1994; Özcan K. Orta Asya Türk kent model (ler)i üzerine bir araştirma (VIII. Yüzyıldan XIII. Yüzyıla kadar) // Türk kültürü incelemeleri dergisi. 2005. №12. S. 1-22; Shu muallif. Notes on Turkish Towns in Central Asia (Pre-Islamic period) // CAJ. 2008. №52 (2). P. 186-196.

593 Бернштам А. Н. Социально-экономический строй орхоно-енисейских тюрок VII–VIII вв. Восточно-тюркский каганат и киргизы. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1946

L. N. Gumilyov[597], V. V. Bartold[598], Yu. A. Zuyev[599], O. I. Smirnova[600], G. Ye. Markov[601], Ter-Mkrtchyan[602] va boshqalar mazkur masala bo'yicha asarlar yozgan bo'lsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida esa N. N. Kradin[603], S. Arsal[604], S. A. Yasenko[605], T. J. Barfild[606] va boshqa ko'plab olimlar ushbu yo'nalishni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan o'zbek olimlari qatoriga A. Xo'jayev[607], M. Is'hoqov, Sh. Kamoliddin[608], A. Otaxo'jayev[609], G'. Boboyorov[610], A. Kubatin[611], L. Baratova, F. Jumaniyozova, M. Xatamova[612], E. Asanov[613] va boshqalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham XX asr oxiridan boshlab ushbu yo'nalishda tadqiqotlar ancha jonlanib, K. M. Baypakov,

---

594 Пигулевская Н. В. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков. М. Л.: Изд-во АН СССР, 1946. 289 с.; Shu muallif. Византия на путях в Индию (Из истории торговли Византия с Востоком в IV VI вв.). М.- Л.: Изд-во АН СССР, 1951. 410 с.

595 Киселев С. В. Древние города Монголии // СА. 1957. №2. С. 101; Киселев С.В. и др. Древнемонгольские города. М., 1965. С. 6-7.

596 Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. М.: Наука, 1964. 215 с.

597 Гумилев Л. Н. Древние тюрки. М.: Наука, 1967.

598 Бартольд В. В. Новые исследования об орхонских надписях // Сочинения. Т. V. М.: Вост. лит., 1968.

599 Зуев Ю. А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы: Дайк-пресс, 2002

600 Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970.

601 Марков Г. Е. Кочевник Азии. М.: Изд. Московского университета, 1976. 319 с.

602 Тер-Мкртчян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V–VII вв. М.: Наука, 1979.

603 Крадин Н. Н. Кочевые общества. Проблемы формационной характеристики. Владивосток: Дальнаука, 1992. 240 с; Shu muallif. Кочевники, мир-империи и социальная эволюция // Альтернативные пути к цивилизации. М.: Логос, 2000. С. 314–336; Shu muallif. Кочевники Евразии. Алматы: Дайк-Пресс, 2007. 416 с.

604 Арсал С. М. Тюркская история и право. Казань, Фэн, 2002. 412 с.

605 Яценко С. А. Древние тюрки: костюм на разноцветных изображениях // http://www.formuseum.info

606 Барфилд Т. Дж. Мир кочевников-скотоводов // Раннее государство, его альтернативы и аналоги. Волгоград: Учитель, 2006. С. 415–441; Shu muallif. Опасная граница: кочевые империи и Китай (221 г. до н. э. – 1757 г. н. э.) / Пер. Д. В. Рхлядева, В. Б. Кузнецова; науч. ред. п пред. Д. В. Рхлядева. СПб., 2009. 248 с.

607 Ходжаев А. Тюркские города в китайских источниках. Книга первая. Ташкент, 2016.

608 Камолиддин Ш. С. О градостроительной культуре у древних тюрок // Материалы Международной конференции «Урбанизация и номадизм в Центральной Азии: история и проблемы». Алматы, 2004. С. 354-373; Shu muallif. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. Ташкент, 2006.

609 Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

610 Бобоёров Ғ. Б. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми: Тарих фан. ... док. дисс. Ташкент, 2012.

611 Бабаяров Г., Кубатин А. К монетам Чачских правителей тегинов // O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. №35. Самарканд, 2006. С. 194-198; Бабаяров Г., Кубатин А. Монеты из одного Западно-тюркских правителей Тун ябгу кагана // Материалы научной конференции «Чач - Бинкет - Ташкент (историческое прошлое и современность)». Ташкент, 2007. С. 34-37; Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о новом прочтении и интерпретации некоторых слов и фраз в Енисейских памятниках Е-144, Е-48, Е-37, Ю-10 // Эпиграфика Востока, 2016; Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о ромбовидной тамге на монетах Западно-Тюркского каганата / GLOBAL-Turk, 3-4, 2016.

612 Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари (VI–VIII асрлар): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ...автореф. Тошкент, 2018.

613 Бабаяров Г., Асанов Э. О доисламских монетах Отрара // Согдийский сборник. Выпуск 7, 2020. С. 35-49.

V. D. Goryacheva[614] kabi olimlar shaharlar taraqqiyoti, davlatchilik an'analarining rivoji, mahalliy va xalqaro savdo aloqalari hamda madaniy almashinuv jarayonlarida eski turklar va turk-sug'd simbiozining rolini ko'rsatib bergan[615].

Avvalo, "turk" atamasi to'g'risidagi fikrlar bilan tanishish kerak. Mazkur atama etnik mazmunni anglatmay, bir nechta qabila va xalq birlashuvini bildiruvchi siyosiy istiloh sanalgan. Masalan, S. P. Tolstov "turk" so'zi – "yosh uylanmagan jangchi" ma'nosini anglatadi, deb ta'kidlagan bo'lsa, keyinchalik ushbu so'z qabila an'analari va nihoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan. L. N. Gumilyov esa "turkyutlar" atamasini kiritdi. Ushbu atama "tyurk" so'ziga "yut" ko'plik qo'shimchasini qo'shilishi orqali yasaladi[616]. Xitoyliklar qadimgi turklarni xitoycha "突厥 (tūjué)" deb atagan, shu sababli, ba'zi tadqqtlarda ushbu nomni "turk-tyugyu" yoki "tugyu" tarzida hm uchratish mumkin[617].

Bundan tashqri, tarixiy manbalarda "ko'k turk (*kök türk*)" atamasi hm uchraydi va bu to'g'isida asosan, Kosho-Saydam bitiktoshlarida keltirilgan[618]. Atamaning ma'nosini to'g'idan-to'g'i "ko'k (rangli) turklar" yoki "osmon turk"lari deb tarjima qlgan tadqqtchilar uchrab turadi. Ularni fikrini inkor qlgan hlda ushbu atamani "ozod turklar" yoki "mahalliy turklar" deb tarjima qlishni taklif qlingan[619].

Turk xoqonligining paydo bo'lishi, rivojlanishi va madaniyatining shakllanishida albatta sug'diylar bilan aloqaning mavjudligi muhim ahamiyat kasb qilgan. Ilk o'rta asrlardagi manbalarga murojaat qilinsa, Abu Bakr Narshaxiyning "Бухоро тарихи"[620] asaridagi quyidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin: "sug'diylarning mintaqaga islom dinini targ'ib qilishdagi xizmatlari ham katta bo'ldi. 94 (72/73) yilda Buxoroda ilk masjid ochilgan bo'lsa, keyinchalik mintaqada yuzlab masjidu madrasalar qad rostladi. Mazkur holat esa Movarounnahr shaharlarining islom dini madaniyati markazlariga aylanishiga

---

[614] Байпаков К. М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречья (VI – начало XIII вв.). Алма-Аты, 1986; Shu muallif. Западнотюркский и Тюргешский каганаты: тюрки и согдийцы, степь и город. Алматы, 2010; Горячева В. Д. Городская культура Тюркских каганатов на Тянь-Шане (середина VI – начало XIII в.) Бишкек, 2010; Камолиддин Ш. С. О градостроительной культуре у древних тюрок // Материалы Международной конференции «Урбанизация и номадизм в Центральной Азии: история и проблемы». Алматы, 2004. С. 354-373; Shu muallif. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. Ташкент, 2006; Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010; Ходжаев А. Тюркские города в китайских источниках. Книга первая. Ташкент, 2016; Бобоёров Ғ.Б. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми.: Тарих фан. ... док. дисс. Тошкент, 2012. 245-257-бетлар.

[615] Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари (VI – VIII асрлар)... 7-б.

[616] Гумилёв Л. Н. Древние тюрки. М., 1967. 504 с.

[617] Поздняков Д. В. Формирование древнетюркского населения Горного Алтая по данным антропологии // Археология, этнография и антропология Евразии. 2001. № 3. С. 142.

[618] Тишин В. В. К интерпретации сочетания kök türk // Проблемы востоковедения. 2014. Т. 63. № 1. С. 79-80.

[619] Shu joyda. 79-80-бетлар.

[620] Мухаммад Наршахи. История Бухары (Пер. с перс. Н. Лыкошина). Ташкент, 1897. 128 с.

sabab bo'ldi. O'rta Osiyoning musulmon savdogarlari tijoratdan tashqari yettisuv, Sharqiy Turkiston, Ural va Volga bo'yi hamda Shimoliy Kavkazda islom dinining targ'iboti bilan shug'ullandilar".

S. P. Tolstovning "Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии"[621] asarida ham ushbu davr xususida turli fikrlarni uchratish mumkin. Ushbu olimning fikriga ko'ra, mintaqa xalqlari orasida sug'diy va turkiylar simbiozi jarayoni o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega. Asrlar davomida mintaqada geosiyosiy, tarixiy va ma'naviy birlik shakllandi, natijada, etnoslararo munosabatlar rivojlanib, sivilizatsiya darajasiga ko'tarildi. Marvdan Mo'g'ulistongacha bo'lgan ulkan hududda turk-sug'd etnomadaniy yaxlitligi qaror topdi. Ikki ming yil (mil. avv. I-ming yillikdan milodiy I-ming yillik oxirigacha) davomida yagona tarixiy-madaniy makon vujudga keldi. Shu bosqichning eng cho'qqisi – ilk o'rta asrlar davri – "turk-sug'd davri", – deb bejiz e'tirof etilmagan edi.

Mintaqadagi etnik jarayonlarda turkiylashish ildizi mil. avv. III–II asrlar (250–40-yillar)da qang'-parfiyon davridan boshlangan edi. Ushbu davrda garchi qang' etnosi nomi "turk" deb atalmasa-da, uning tili prototurk tili bo'lgan. S. P. Tolstov "O'zbek xalqining etnogenetik jarayoni Qang' davlati hududida boshlangan. Qang' davlatining tarkibida u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, ularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan", – deb ta'kidlagan edi[622].

Qang' davlatining tashkil topishi turkiy etnik guruhlarning O'rta Osiyoga kelib o'rnashishlarini yanada jadallashtirgan. Umuman etnik simbioz – xalqlar (etnoslar) bir emas, bir nechta guruhlari o'rtasida o'zaro qorishib ketishning natijasi bo'lib, mazkur jarayonning O'rta Osiyoga xos jihati mintaqaning etnomadaniy chorrahada joylashganligi va hududda bir vaqtning o'zida turli tilli, e'tiqodli qardosh xalqlar yashashgani bilan ham izohlanadi. Mazkur jarayon natijasida mil. avv. II – milodiy I asrlar davomida yangi etnos – qang'arlar shakllangan.

Etnik jarayonlar uchun e'tiborli jihati xioniy, kidariy va eftaliylarning kelib chiqishi bir tarmoqdan ekanligida edi. Shu bois, ular o'rtasida mintaqadagi hokimiyat almashishi katta to'qnashuvlarsiz ro'y bergan va ushbu holat mintaqadagi etnik simbioz jarayonlariga ham zamin hozirlagan. Xioniylarning marhumlarni olovda yoqib, so'ngra suyaklarini kumush idishga solib ko'mish odati Xorazmdagi Kang'qal'a va Ko'hna Uvays shahar manzilgohlaridagi topilmalar bilan bir ekanligi, ularning kelib chiqishini Orol bo'ylaridagi sak-massaget substratidagi xunn-turk ta'sirida shakllangan degan farazga asos bo'ladi.

---

[621] Толстов С. П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии // Советская этнография. 1947. VI–VII. С. 303-304.

[622] Shu joyda.

A. Yu. Yakubovskiyning "Ўзбек халқининг юзага келиш масаласи ҳақида"[623] risolasida qayd etilishicha, V–VI asr o'rtalarigacha eftaliylar Markaziy Osiyo siyosiy va etnomadaniy tarixida o'ziga xos o'rin tutgan bo'lsa, 555-yilda xoqonlik turklarining ularga bergan zarbasidan so'ng ushbu davlat mavqyeiga putur yetgan. Shundan so'ng eftaliylar batamom mahalliy aholi orasiga singib, sug'diy etnik komponentda eftaliylar salmoqli o'rin tutgan. Bu esa sug'diylarning turkiylashuv jarayonini tezlashuviga ham xizmat qilgan, – degan xulosaga keladi.

Mazkur olimning fikricha, Turk xoqonligiga qadar davom etgan etnik jarayonlar, Turk xoqonligi davrida mintaqada turkiylar nufuzning ortishi va turkiylashish jarayonining izchil davom etishiga imkon bergan. Ushbu jarayon arab istilosiga qadar jadal kechgan va faqat arab istilosi davridagina sekinlashgan. A. Yu. Yakubovskiy "agar arab istilosi bo'lmaganda, turklarning Sug'd tuprog'iga kirishlari tezlashgan bo'lar edi. Arablar, shubhasiz, mazkur jarayonning o'zini to'xtatmagan bo'lsalar-da, lekin har holda uning sur'atini kamaytirgan. Biroq, ushbu hodisa 737-yildan keyin, ya'ni arablar O'rta Osiyoning Amudaryo bilan Sirdaryo o'rtasidagi yerlarni zabt etib, Xurosondagi turkashlarga qattiq zarba bergan vaqtida ochiq ko'rindi", - degan edi[624].

N. G. Gorbunova va G. A. Brikinalar hammuallifligida yozilgan asarda [625] Farg'ona VII asr boshlarida siyosiy jihatdan Turk xoqonligiga bo'ysungan bo'lsa ham, chamasi, qadimgi turklar bu yerdagi etnogenetik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan, degan xulosa ilgari surilgan. Ularning fikricha, buning boisi, VIII asrlarda ham farg'onaliklar o'zlarining mahalliy tillarida so'zlashgan, faqat keyinroq turkiy aholining ko'chib kelishi, ularning o'troqlashuvi va shaharlarga joylashishi oqibatida bu yerdagi vaziyat birmuncha o'zgargan. Biroq, ushbu mulohazalar to'la asosga ega emas, chunki butun O'zbekiston hududidan topilayotgan qadimgi turk yozuvi tushirilgan ashyo va yodgorliklarning deyarli barchasi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Qolaversa, vodiydan qadimgi turklar bilan bog'liq ko'mish marosimi izlari, aniqrog'i, murdani kuydirib, ko'mish joyi va ot qo'shib ko'mish aniqlangan, qadimgi turklarning tosh haykallari hamda balballari ham topilgan.

Shu o'rinda o'tgan asrning 50-yillaridayoq arxeolog A. N. Bernshtam "Древняя Фергана"[626] asarida Farg'onada arablar ham, xitoyliklar ham emas, balki turklar katta ahamiyatga ega bo'lganini e'tirof etgani holda VI–VIII asrlarni Farg'ona tarixiga turk davri nomi bilan kiritganini ta'kidlagan edi.

Avvalo, ushbu muammo yuzasidan o'zbek olimi A. Otaxo'jayevning qarashlari bilan tanishish foydadan holi bo'lmaydi. Mazkur tadqiqotchining

---

[623] Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941.
[624] Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941.
[625] Брыкина Г. А., Горбунова Н. Г. Железные наконечники стрел из Ферганы // Древности Евразии в скифо-сарматское время. М., 1984. С. 28-36.
[626] Бернштам А. Н. Древняя Фергана. Научно-популярный очерк. Академия наук Узбекской ССР. Институт истории и археологии. Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1951. 47 с.

"Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари" asarida quyidagilarni bayon qilgan edi: "Bu ikki etnos Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishida mintaqada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda muhim rol o'ynagani tarixiy misollar vositasida yoritib berilgan"[627].

Uning yuqorida nomi qayd etilgan kitobida turkiylar va sug'diylar o'rtasidagi munosabatlar, mazkur davrdagi davlatchilik holati hamda evolyusiyasi xolis, ilmiy manbalarga asoslangan holda ochib berilgan. Xususan, ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan Birinchi Turk xoqonligi va Sug'd konfederatsiyasi o'rtasidagi serqirra munosabatlar nafaqat mintaqa, shu bilan birga, o'zbek davlatchiligi evolyusiyasida o'ziga xos bir bosqich ekanligi alohida ko'rsatilgan. Mazkur jarayonlarning mintaqada kuzatilgan keyingi davrlardagi davlatchiligi an'analarining rivojlanishi va o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'ziga xos o'rni manbaviy ma'lumotlar bilan asoslangan.

Tadqiqotchining o'rinli ta'kidiga ko'ra, turk-sug'd munosabatlarining eng yuqori darajasi hisoblangan 552–750-yillarda Markaziy Osiyoda kechgan tarixiy jarayonlarning yetakchi harakatlantiruvchi kuchlari – turkiylar va sug'diylarning o'zaro siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda etnomadaniy aloqalari natijasida Birinchi Turk xoqonligi (552–603) va G'arbiy Turk xoqonligi (603–742) vujudga keldi. Mazkur davlatlar o'z navbatida, Markaziy Osiyo, xususan, Sug'dning siyosiy barqarorligi hamda iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etgan, natijada, etnomadaniy jarayonlar yanada faollashib, turk-sug'd simbiozini vujudga keltirgan.

Mazkur ikki etnos o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uzoq rivojlanish tarixiga ega. Masalan, mil. avv. I ming yillikning uchinchi choragida sug'diylar Buyuk Ipak yo'lida o'z faoliyatini boshlab, savdo koloniyalari tashkil etgan edi. Ushbu voqea o'troq hamda ko'chmanchi madaniyatlarni o'zaro yaqinlashuviga sabab bo'lgan. Mazkur yo'lning xalqaro ahamiyati vaqt o'tgan sari oshib borgan va bu haqdagi ma'lumotlarni V. V. Bartoldning tadqiqotlarida batafsil ko'rish mumkin.

Siyosiy va iqtisodiy munosabatlardan tashqari ushbu madaniy hamda diniy munosabatlar ham rivojlangan. Mazkur ikki etnos o'zaro yaqinlashuvi natijasida madaniyatlarning ham qorishuvi yuz bergan va ushbu holatni diniy munosabatlarda yaqqol sezish mumkin. A. Otaxo'jayevning fikriga ko'ra, "Markaziy Osiyoning shimoli-sharqida makon topgan muhojir sug'diylar asrlar davomida mahalliy turkiylarga zardushtiylikni targ'ib qilib, birgalikda zardushtiylik ibodatini amalga oshirgan. Sharqiy Turkistonda Sug'ddagi kabi ehrom – "vag'n" bunyod etilib, kohinlar – "vag'npatlar" diniy amallarni bajo keltirishgan. Turkiylar samimiy va bag'rikeng bo'lgani bois, biror-bir manbada

[627] Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

A. Yu. Yakubovskiyning "Ўзбек халқининг юзага келиш масаласи ҳақида"[623] risolasida qayd etilishicha, V–VI asr o'rtalarigacha eftaliylar Markaziy Osiyo siyosiy va etnomadaniy tarixida o'ziga xos o'rin tutgan bo'lsa, 555-yilda xoqonlik turklarining ularga bergan zarbasidan so'ng ushbu davlat mavqyeiga putur yetgan. Shundan so'ng eftaliylar batamom mahalliy aholi orasiga singib, sug'diy etnik komponentda eftaliylar salmoqli o'rin tutgan. Bu esa sug'diylarning turkiylashuv jarayonini tezlashuviga ham xizmat qilgan, – degan xulosaga keladi.

Mazkur olimning fikricha, Turk xoqonligiga qadar davom etgan etnik jarayonlar, Turk xoqonligi davrida mintaqada turkiylar nufuzning ortishi va turkiylashish jarayonining izchil davom etishiga imkon bergan. Ushbu jarayon arab istilosiga qadar jadal kechgan va faqat arab istilosi davridagina sekinlashgan. A. Yu. Yakubovskiy "agar arab istilosi bo'lmaganda, turklarning Sug'd tuprog'iga kirishlari tezlashgan bo'lar edi. Arablar, shubhasiz, mazkur jarayonning o'zini to'xtatmagan bo'lsalar-da, lekin har holda uning sur'atini kamaytirgan. Biroq, ushbu hodisa 737-yildan keyin, ya'ni arablar O'rta Osiyoning Amudaryo bilan Sirdaryo o'rtasidagi yerlarni zabt etib, Xurosondagi turkashlarga qattiq zarba bergan vaqtida ochiq ko'rindi", - degan edi[624].

N. G. Gorbunova va G. A. Brikinalar hammuallifligida yozilgan asarda [625] Farg'ona VII asr boshlarida siyosiy jihatdan Turk xoqonligiga bo'ysungan bo'lsa ham, chamasi, qadimgi turklar bu yerdagi etnogenetik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan, degan xulosa ilgari surilgan. Ularning fikricha, buning boisi, VIII asrlarda ham farg'onaliklar o'zlarining mahalliy tillarida so'zlashgan, faqat keyinroq turkiy aholining ko'chib kelishi, ularning o'troqlashuvi va shaharlarga joylashishi oqibatida bu yerdagi vaziyat birmuncha o'zgargan. Biroq, ushbu mulohazalar to'la asosga ega emas, chunki butun O'zbekiston hududidan topilayotgan qadimgi turk yozuvi tushirilgan ashyo va yodgorliklarning deyarli barchasi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Qolaversa, vodiydan qadimgi turklar bilan bog'liq ko'mish marosimi izlari, aniqrog'i, murdani kuydirib, ko'mish joyi va ot qo'shib ko'mish aniqlangan, qadimgi turklarning tosh haykallari hamda balballari ham topilgan.

Shu o'rinda o'tgan asrning 50-yillaridayoq arxeolog A. N. Bernshtam "Древняя Фергана"[626] asarida Farg'onada arablar ham, xitoyliklar ham emas, balki turklar katta ahamiyatga ega bo'lganini e'tirof etgani holda VI–VIII asrlarni Farg'ona tarixiga turk davri nomi bilan kiritganini ta'kidlagan edi.

Avvalo, ushbu muammo yuzasidan o'zbek olimi A. Otaxo'jayevning qarashlari bilan tanishish foydadan holi bo'lmaydi. Mazkur tadqiqotchining

---

[623] Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941.
[624] Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941.
[625] Брыкина Г. А., Горбунова Н. Г. Железные наконечники стрел из Ферганы // Древности Евразии в скифо-сарматское время. М., 1984. С. 28-36.
[626] Бернштам А. Н. Древняя Фергана. Научно-популярный очерк. Академия наук Узбекской ССР. Институт истории и археологии. Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1951. 47 с.

"Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари" asarida quyidagilarni bayon qilgan edi: "Bu ikki etnos Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishida mintaqada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda muhim rol o'ynagani tarixiy misollar vositasida yoritib berilgan"[627].

Uning yuqorida nomi qayd etilgan kitobida turkiylar va sug'diylar o'rtasidagi munosabatlar, mazkur davrdagi davlatchilik holati hamda evolyusiyasi xolis, ilmiy manbalarga asoslangan holda ochib berilgan. Xususan, ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan Birinchi Turk xoqonligi va Sug'd konfederatsiyasi o'rtasidagi serqirra munosabatlar nafaqat mintaqa, shu bilan birga, o'zbek davlatchiligi evolyusiyasida o'ziga xos bir bosqich ekanligi alohida ko'rsatilgan. Mazkur jarayonlarning mintaqada kuzatilgan keyingi davrlardagi davlatchiligi an'analarining rivojlanishi va o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'ziga xos o'rni manbaviy ma'lumotlar bilan asoslangan.

Tadqiqotchining o'rinli ta'kidiga ko'ra, turk-sug'd munosabatlarining eng yuqori darajasi hisoblangan 552–750-yillarda Markaziy Osiyoda kechgan tarixiy jarayonlarning yetakchi harakatlantiruvchi kuchlari – turkiylar va sug'diylarning o'zaro siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda etnomadaniy aloqalari natijasida Birinchi Turk xoqonligi (552–603) va G'arbiy Turk xoqonligi (603–742) vujudga keldi. Mazkur davlatlar o'z navbatida, Markaziy Osiyo, xususan, Sug'dning siyosiy barqarorligi hamda iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etgan, natijada, etnomadaniy jarayonlar yanada faollashib, turk-sug'd simbiozini vujudga keltirgan.

Mazkur ikki etnos o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uzoq rivojlanish tarixiga ega. Masalan, mil. avv. I ming yillikning uchinchi choragida sug'diylar Buyuk Ipak yo'lida o'z faoliyatini boshlab, savdo koloniyalari tashkil etgan edi. Ushbu voqea o'troq hamda ko'chmanchi madaniyatlarni o'zaro yaqinlashuviga sabab bo'lgan. Mazkur yo'lning xalqaro ahamiyati vaqt o'tgan sari oshib borgan va bu haqdagi ma'lumotlarni V. V. Bartoldning tadqiqotlarida batafsil ko'rish mumkin.

Siyosiy va iqtisodiy munosabatlardan tashqari ushbu madaniy hamda diniy munosabatlar ham rivojlangan. Mazkur ikki etnos o'zaro yaqinlashuvi natijasida madaniyatlarning ham qorishuvi yuz bergan va ushbu holatni diniy munosabatlarda yaqqol sezish mumkin. A. Otaxo'jayevning fikriga ko'ra, "Markaziy Osiyoning shimoli-sharqida makon topgan muhojir sug'diylar asrlar davomida mahalliy turkiylarga zardushtiylikni targ'ib qilib, birgalikda zardushtiylik ibodatini amalga oshirgan. Sharqiy Turkistonda Sug'ddagi kabi ehrom – "vag'n" bunyod etilib, kohinlar – "vag'npatlar" diniy amallarni bajo keltirishgan. Turkiylar samimiy va bag'rikeng bo'lgani bois, biror-bir manbada

---

627 Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

Tangrichilik e'tiqodidagi turkiylarning ushbu jarayonga qarshilik qilinganligi haqida ma'lumot uchramaydi"[628].

Darhaqiqat, tadqiqotchi keltirgan yuqoridagi fikr haqiqatga yaqindir. Chunki, shomonlik, ya'ni "qam" dini asosan, o'troqlashmagan va ko'chmanchilik hayot tarzini ko'proq saqlab qolgan turkiy qabilalar orasida keng tarqalgan, ammo o'troqlashgan hamda madaniy simbiozga uchragan aholi o'rtasida ushbu omil haqida dalillar deyarli uchramaydi. Keyinchalik moniylik dinining kirib kelishi ham mahalliy aholining madaniyatiga sezilarli ta'sir o'tkazgan.

M. Pardayevning "Shimoliy Toxariston Turk xoqonligi davrida" nomli tadqiqotida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligidan mag'lub bo'lgan eftaliylar janubga chekinib, o'zlariga Chag'oniyon hukmdori Faganishni podsho etib saylaganlar. Ammo, u Xusrav I Anushervon (531–579) Chag'oniyonga kirib kelgach, Sosoniylar hukmronligini tan olgan"[629]. Mazkur hudud masalasida Xusrav I va Turk yabg'u-xoqoni Istami o'rtasida muzokaralar olib borilgan. VI asr oxirlaridagi turk-eftaliy, VII asr boshlaridagi turk-sosoniy harbiy to'qnashuvlaridan so'ng Tardu xoqon davri (576–603)da butun Toxariston, shu jumladan, Chag'oniyon xoqonlik tasarrufiga o'tgan.

Ta'kidlash joizki, Turk xoqonligi O'rta Osiyoda Eftaliylar davlatidagi tushkunlik davriga barham berib, mazkur mintaqaning mahalliy hukmdorlari bilan mustahkam aloqa bog'lagan. A. Otaxo'jayevning o'rinli xulosasiga asosan, Sosoniylardan tushgan o'ljalarga asoslangan Eftaliylar iqtisodidan farqli ravishda Turk xoqonligi davrida asosiy e'tibor ishlab chiqarish va savdoga qaratilgan. Siyosiy va iqtisodiy manfaatdorlik Turk xoqonligining O'rta Osiyoda hukmronligini ta'minlagan[630].

Bundan tashqari, Turk hoqonligi davrida mamlakatda savdo-sotiq, shaharsozlik va hunarmandchilik yaxshi rivojlangan edi. Xalqaro tijorat va ichki bozorni yanada jonlantirish uchun turk xoqonlari o'z tanga-pullarini zarb qilgan edi. Davlat zarbxonasi qaerda joylashgan bo'lsa, o'sha shahar va uning atrofidagi hududlar jadallik bilan taraqqiy etib borgan. Masalan, Choch vohasi turk xoqonlarining tanga zarb qilinadigan markazlaridan biri bo'lib, buni Toshkent vohasidan topilgan ilk o'rta asrlarga oid tangalardagi turkiy unvonlar va turklarga xos ikonografik tasvirlar tasdiqlaydi. Shuningdek, turk xoqonlari va vassal hukmdorliklar boshqaruviga tayinlangan shahzoda (tegin)lar va noib (tudun, tutuq)lar o'zlariga vohalarda ma'muriy-siyosiy markaz o'laroq, tanlagan joylarda yangi shaharlar qad ko'targani yoki oldin kichik manzilgoh bo'lgan shaharchalar kengayib, yanada rivojlangani kuzatiladi.

---

628 Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари... 48–49-бетлар.

629 Пардаев М. Х. Шимолий Тохаристон Турк хоқонлиги даврида / Термиз шаҳрининг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Тошкент–Термиз: Фан, 2001.

630 Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари. ... 48-б.

Turk xoqonligi konfederatsiya shaklidagi imperiya ko'rinishida bo'lib, Xunn saltanatidagi bo'lgani kabi uning uch asosiy boshqaruv darajasi (xarakteri) mavjud bo'lgan: 1) imperiyaviy hokimiyat va saroy amaldorlari; 2) butun imperiya hududidagi qabilalarni boshqaradigan xoqonlik amaldorlari; 3) mahalliy o'z-o'zini boshqarish masalalariga mas'ul merosiy qabila boshliqlari[631].

G'. Boboyorov va T. Barfildlarning tasnifiga ko'ra, **birinchi guruh**ga markaziy hokimiyatni boshqaruvchi xonadon a'zolari – *xoqon* "bosh oliy hukmdor", *xotun* "bosh malika", *qunchuy* "malika, saroyga mansub xonimlar", *yabg'u / yabg'u-xoqon* "xoqon o'rinbosari / G'arbiy xoqonlikning bosh boshqaruvchisi", *shod* "ulus boshlig'i, shahzoda" va tegin "shahzoda" kabi imperial unvonlar kirgan. **Ikkinchi guruh** esa butun xoqonlik tarkibidagi vassal qabila va hukmdorliklarni boshqaradigan xoqonlik amaldorlarining *eltabar, tudun, cho'r, erkin, tarxon, tutuq* kabi unvonlaridan iborat edi. Masalan, *eltabar* – "noib, yirik qabila boshlig'i", *tudun* – "nazoratchi noib", *cho'r* – "yirik qabila boshlig'i", *erkin* – "kichikroq qabila boshlig'i", *tarxon* – "harbiy boshliq", *tutuq* – "harbiy voliy" singari unvonlar ham markaziy boshqaruv a'zolari (ehtimol, ikkkinchi darajali amaldorlar)ning unvonlari edi. **Uchinchi guruh**, ya'ni mahalliy o'z-o'zini boshqarishga mas'ul vassal qabilalar va hukmdorliklar boshqaruvchilarining merosiy unvonlari bo'lib, ular o'zlarining an'anaviy mahalliy unvonlarini saqlab qolganlar[632].

Turk xoqonligida yangi shaharlarning vujudga kelishi va takomillashuvida xuddi boshqa dasht imperiyalarida bo'lganidek, davlatchilik hamda markazlashgan hokimiyat bosh omillardan biri bo'lgan. Chunki, xoqonlar o'z imperiyalarining birligi, barqaror iqtisodiyot va harbiy yurishlar davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar, tijorat va undan keladigan tushum bilan bog'liqligini anglagan holda joylarda turklar boshqaruvini o'rnatgan hamda xalqaro savdo-sotiqni qo'llab-quvvatlaganlar. Oldin forslar, keyin sug'dlar bilan ikki tomonlama manfaatli bitimlar tuzish, yangi xalqaro tijorat yo'llarini ochish va ularning xavfsizligini ta'minlash, mis tangalarning zarb etilishi hamda yirik imperiyalar bilan keng diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi – bularning barchasi ana shu maqsadli siyosat yo'lida qilingan edi[633]. Ushbu tadbirlar o'z o'rnida mintaqa shaharlarining yanada gullab-yashnashi va yangilarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Hokimiyatning turklar qo'lida ekanligi ham turkiy qabila va xalqlarning ko'chishi, yangi yerlarni o'zlashtirishi hamda chorvadorlarning o'troqlashuviga olib kelgan. Natijada, mintaqa bo'ylab turkiylarning yangi manzilgohlari vujudga kelib, shaharlardagi mavjud turkiy etnik qatlamning yanada qalinlashuviga sabab bo'ladi.

---

[631] Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. Тошкент: Янги нашр, 2018. 160-161-бетлар.
[632] Shu joyda.
[633] Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари (VI – VIII асрлар). ... 18-б.

## Arablar bosqini va Markaziy Osiyo xalqlarining istilochilarga qarshi kurashi tarixshunosligi

Moddiy madaniyat namunalarining paydo bo'lishi insonlar hayotida qanchalik katta o'rin tutgan bo'lsa, qo'lyozma va bosma kitoblarning vujudga kelishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyo xalqlarining arablar bosqini arafasidagi holati va undan keyingi ahvoli haqida yuqorida tilga olingan arab manbalarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Ular orasida Tabariyning "Тарихи ар-расул-вал-мулук" ("Payg'ambarlar va mamlakatlar tarixi")[634] yoki "Тарихи Табари" deb atalgan mashhur asari alohoida o'rin tutadi. 963-yilda ushbu asarni Ba'lami qayta ishlab, fors tiliga tarjima qilgan.

At-Tabariy o'z asarini yozishda o'zidan avval o'tgan Abdul-Hasan Ali ibn Muhammad al-Madoiniy (V. V. Bartoldning yozishicha, hijriy 215–225, milodiy 830–840-yillarda vafot etgan)ning asaridan keng foydalangan. Asar kompilyativ (avvalgi tarixchilarning asarlariga suyanish) xususiyatiga ega, ammo Al-Madoiniy o'z hikoyatlarini boshqa arab tarixchilaridan farqli ravishda, tarixiy asarlardan ko'ra epik xalq dostonlariga o'xshatib yozishga harakat qilgan.

O'rta asr arab prozasi uchun bu odatiy hol edi. At-Tabariy arab tarixchilaridan birinchi bo'lib tarixiy voqealarni aniq tarixiy dalillar asosida yoza boshlagan edi. O'z o'rnida shuni qayd etish joizki, At-Tabariyning "Тарихи ар-расул-вал-мулук" asari arab tarixshunosligini dastlabki bosqichini yakunlaydi. Mazkur asar tarixiy obida, hikoya, folklor va afsonalarni o'z ichiga olgan islom olami tarixiga doir eng muhim manbadir.

Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Ba'lami qalamiga mansub, arab tilidan tarjima qilingan va to'ldirilgan "Тарихи Табари" (birinchi muallif Muhammad ibn Jarir at-Tabari) asari ham O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishiga aloqador ko'plab qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ba'lamiyning asarida asosan, Samarqandning egallanishi va Qutayba ibn Muslim bilan Samarqand hokimi Gurak o'rtasida bo'lib o'tgan kelishuv shartlari, majburiyatlari va xususiyatlari ochib berilgan[635].

Muhammad Narshaxiyning "Бухоро тарихи" asarida VIII–XII asrlardagi tarixiy voqealar joy olgan. Mazkur asar turli masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular orasida "Buxoro fath etilishining boshlanishi", "Qutayba ibn Muslimning hukmronligi va Buxoroning fath qilinishi, Movarounnahrning arab va ajam o'rtasida taqsimlanishi", "Buxoroning fath etilishi va u yerda islom dinining

---

[634] Ат-Табари. Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII–X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.

[635] Абу Али Мухамад ибн Мухаммад Баълами. Тарихи Табари. Электрон манба: http://www.vostlit.info/Texts/rus17/Balami/text1.phtml?id=11829

tarqalishi", "Masjidi jomening bino etilishi", "Iyd namozgohi", "Buxoro shahrining arab va ajam o'rtasida taqsimlanishi", "Muqannaning xuruji va uning tobelari oq kiyimliklar"[636] kabi boblari bevosita arab bosqini va uning oqibatlari hamda islom dinining tarqalishi bilan bog'liq voqealarni tasvirlab beradi.

"Бухоро тарихи" asarida xalqning ahvoli va arab bosqinchilariga qarshi harakat (masalan, Muqanna boshchiligidagi xalq harakati) qoralanadi. Mahalliy zodagonlarning unga qarshi harakati ma'qullanadi, ammo shunga qaramay, VII–X asrlar tarixiy voqealarining xolisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi. Busiz Markaziy Osiyo xalqlarining arablar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoliga, keng xalq ommasining bosqinchilarga qarshi kurashiga baho berish mushkul. Ushbu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939-yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966-yillar) tarjima qilingan. "Buxoro tarixi"ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir.

Markaziy Osiyoning X–XI asrlardagi tarixi sovet davri tadqiqotchilari V. V. Bartold[637], V. I. Belyayev[638], Ye. A. Belyayev[639], A. A. Romaskevich[640], I. Yu. Krachkovskiy[641] va B. G'ofurovlarning[642] asarlari, xorijiy tarixchilardan X. Gib[643], K. Brokkelman[644], Ye. V. Zeymal[645], D. Sinor[646], K. Xug[647] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan.

---

636 Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. Масъул мухаррир А. Уринбоев. Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/311-buxoro-tarixi.html

637 Barthold V.V. Turkestan Down to the Mongol Invasion. 2nd. London: Luzac & Co., 1928.

638 Долинина А. А., Дзевановский В. М. Виктор Иванович Беляев (1902-1976). Жизнь и творчество (по фонда Архива востоковедов Института восточных рукописей РАН) // Россия и Палестина: научные и культурные связи (по материалам архивных, рукописных, книжных и музейных фондов). СПб.: БАН, 2018. С.15-37.

639 Беляев Е. А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. М., 1965.

640 Из "Истории завоевателя мира" Джувайни» // История Казахстана в персидских источниках. (СМИЗО Т.II) Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Извлечения из персидских сочинений, собранные В.Г. Тизенгаузеном и обработанные А.А. Ромаскевичем и СЛ. Волиным / Отв. ред. М.Х. Абусеитова. Пер. и доп. Подг. к нов. изд., введ., пер., комм., состав, указ. М.Х. Абусеитовой и Ж.М. Тулибаевой. Алматы: Дайк-Пресс, 2006. Т. IV. С. 52-62.

641 Крачковский И. Ю. Арабская географическая литература. М., 2004.

642 Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая и средневековая история. М.: Восточной литература, 1972.

643 Gibb, H. A. R. The Arab Conquests in Central Asia. London: The Royal Asiatic Society, 1923.

644 Brockelmann K. Geschichte der arabischen Litteratur. Bd. 1-2. 2. Aufl. Leiden, 1943-1949 (Supplementbände 1-3. Leiden, 1937-1942).

645 Zeimal E. V. "The Political History of Transoxiana". In Yarshater, Ehsan (ed.). The Cambridge History of Iran, Volume 3(1): The Seleucid, Parthian and Sasanian Periods. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. Pp. 232–262.

646 Sinor D. The Cambridge History of Early Inner Asia, Volume 1 (illustrated, reprint ed.). Cambridge University Press, 1990.

647 Hugh K.. The Great Arab Conquests: How the Spread of Islam Changed the World We Live In. Philadelphia, Pennsylvania: Da Capo Press, 2007.

## Uyg'onish davri O'rta Osiyo xalqlari tarixshunosligi

X asrning ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida yagona yoki takrorlanuvchi o'ziga xos asarlar ham vujudga kelgan. Mazkur davrdagi asarlarda boy tarixiy-toponimik ma'lumotlar mavjud. Yuqorida sanab o'tilgan arab manbalaridan tashqari, IX–XI asrlar yana ko'plab sayohatnoma janridagi asarlar paydo bo'ldi. yaratilgan asarlar "Mashhur arab geograflari kutubxonasi"ni tashkil etgan. Mazkur davrda sayohat qilgan va o'z asari bilan tarixda qolgan mashhur arab sayyohlari qatoriga Ibn Xurdodbeh[648], Ibn Rusta[649], Ibn Fadlan[650], al-Balxi[651], al-Fakih[652], Mas'udiy, al-Istaxriy[653], Ibn Havqal[654], al-Muqaddasi[655] asarlari juda muhimdir.

Arab geografik asarlari va uning ahamiyati haqida I. Yu. Krachkovskiy bunday deb yozgan edi: "Ispaniyadan Turkistongacha bo'lgan mamlakatlar va Hind tog'i etaklaridagi aholi maskanlarini aniq sanab, cho'l va madaniy joylarini tavsiflab, madaniy ekinlarning tarqalish ko'lami, foydali qazilmalar o'rnini ko'rsatgan holda, fizik-geografik va ob-havo sharoitini, xalq turmushi, sanoati, madaniyati, tili, diniy ilmlarini ko'rsatgan holda (ma'lumotlar xalifalik viloyatlari hududi bilan chegaralanib qolmasdan, balki greklarga tanish dunyodan ancha chetga chiqdi) u shunday keng, tugal ma'lumot beradiki, unga o'xshashini bu davrda hech qaerda topib bo'lmas edi"[656].

Mashhur sharqshunos Ye. Bertels [657] Uyg'onish davrining rivoji va uning Markaziy Osiyoga ta'sirini eng avvalo, xalq ommasining arab hukmronligiga qarshi olib borgan tinimsiz kurashlari natijasi bilan bog'laydi.

XIX asr ikkinchi yarmida tarixchi L. Ranke[658] tarixiy tahlil va ilmiy tadqiqotning yangi uslublarini taklif qildi. U tarixchining shiori "Orqaga – manbalarga!" bo'lishi kerak, degan xulosaga keldi. Biroq, uning g'oyalari milliy jihatdan chegaralanganligi va yevrotsentrizm ruhi bilan sug'orilganligi o'zining

---

[648] Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Пер. с араб., коммент., исслед., указ. и карты Н. Велихановой; АН АзССР, Институт востоковедения. Баку: Элм, 1986. 428 с.

[649] Ибн Руста // Железное дерево. Излучение. М. : Большая российская энциклопедия, 2008. С. 606.

[650] Ковалевский А. П. Книга Ахмеда ибн-Фадлана о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. / Статьи, переводы и комментарии. Х., 1956.

[651] Из «Книги видов земли» Абу-Зайда Ахмеда Ибн-Сахль аль-Балхи // Сказания мусульманских писателей о славянах и русских (с половины VII в. до конца X века по Р. Х.) / пер. А. Я. Гаркави. СПб., 1870.

[652] Ibn al-Fakih al-Hamadhani, Kitab al-Boldan, edidit M. J. De Goeje, BGA, pars V, Lugduni – Batavorum, 1885.

[653] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII-X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.

[654] Ибн Хавкал, ан-Насиби. Китаб сурат ал-арз. Бейрут: Мактабат ул-хаят, 1992.

[655] Мукаддаси // Советская историческая энциклопедия : в 16 т. / под ред. Е. М. Жукова. М.: Советская энциклопедия, 1966.

[656] Крачковский И. Ю. Арабская географическая литература. М., 2004. С. 12-25.

[657] Бертельс Е. Избранные труды. М.: Издательство "Наука", 1960, 1962, 1965, 1988.

[658] Форстен Г. В. Ранке, Леопольд // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

shogirdi Ya. Bukxard[659] tomonidan tanqid qilingan. Olim insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini yoritishni birinchi o'ringa qo'yishni talab qilgan edi.

Musulmon Uyg'onish davrini o'rganishga umrining katta qismini bag'ishlagan olimlardan biri Adam Mets (1869–1917)dir. A. Mets 1917-yil dekabrda "Мусулмон уйғониш даври"[660] asarini tugatishga ulgurmay, vafot etdi. Uning shogirdi Rekendorf ushbu kitob ustida tinimsiz ishlab, 1922-yilda chop etishga muvaffaq bo'ldi. A. Metsning mazkur asari 1973-yilda V. I. Belyayev tomonidan rus tilida ham nashr etildi[661]. Kitobning sarlavhasi mavjud emas va u Musulmon Uyg'onish davri tarixi sifatida qabul qilib kelindi. Ushbu kitobning arabcha tarjimasi musulmon olamida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Adam Mets musulmon davlati madaniy hayotidagi chuqur o'zgarishlar, uning hayoti va qadim zamon madaniyatiga vorislik belgilarini tahlil qilgan edi[662]. Bu haqda V. Bartoldning fikricha, Yevropa uyg'onishi va Musulmon madaniyati ravnaqi tushunchalari asosan, bir-biriga o'xshash va mos tushunchalardir. Shu bois ham kitobni "Islom dunyosidagi Uyg'onish" deb atash to'g'ri bo'ladi.

X–XIII asrlarda yozilgan bir qancha boshqa asarlar ham Markaziy Osiyo xaqlari tarixini o'rganishda ahamiyatli hisoblanadi. Ular qatoriga Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Abulfazl Bayhaqiy, Ibn al-Asir, Al-Utbiy, Abdulfaraj Qudama, Al-Istaxriy va boshqa allomalarni kiritish mumkin.

**Al-Xorazmiy va uning "Китоб ат-тарих" va "Китоб сурат ул-арз" asari**[663]. Xorazmiyning "Китоб ат-тарих", ya'ni "Тарих китоби"da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII–IX asrlardagi tarixiga oid qisqa hamda aniq ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Xorazmiy yunon olimi Ptolemeydan keyin yashagan buyuk geograflardan birinchisi sanaladi. Uning "Сурат ул-арз" asari fan tarixidagi muhim manbalardan biridir. Kitob Ptolemeyning "География"si asosida yozilgan bo'lsada, shunchaki sharh emas, balki mustaqil asar hisoblanadi. Unda birinchi marta yer sirtini yetti iqlimga bo'lish ilmiy yondashuv bilan, iqlimlarning geografik kattaliklari asosida berilgan hamda 2402 geografik ob'yekt haqida ma'lumotlar, xususan, ularning kengligi va uzunligi keltirilgan. Xususan, Xorazmiy geografiya tarixida birinchi marta Tinch okeanini tilga oladi. U o'zi yashagan joylardan juda uzoqdagi boshqa ob'yektlar – Atlantika va Hind

---

[659] Якоб Буркхардт. Жизнь и творчество // Володарский В. М. Культура Возрождения в Италии. М., 1996.

[660] Мец А. Мусульманский Ренессанс = A. Mez. Die Renaissance des Islams / Пер. с нем., предисл. Д. Е. Бертельса. М.: Наука, 1966. 458 с.

[661] Мец А. Мусульманский Ренессанс = A. Mez. Die Renaissance des Islams / Пер. с нем., предисл., библиогр. и указатель Д. Е. Бертельса. Отв. ред. В. И. Беляев. 2-е изд. М.: Наука. Гл. ред. вост. лит., 1973. 473 с.

[662] Бертельс Д. Предисловие // Мец А. Мусульманский ренессанс. М.: Наука, 1966.

[663] Булгаков П. Г., Розенфельд Б. А., Ахмедов А. А. Мухаммад ал-Хорезми, ок. 783 -ок. 850. М.: Наука, 1983. 240 с.

okeanlaridagi orollar, jumladan, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Sarandib (Shri Lanka) joylashuvini to‘g‘ri tasvirlaydi. Kitobda tasvirlangan xaritalar tarixda muhim o‘rin tutadi. Ushbu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan va geografiya fani rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan edi.

“Китоб сурат ул-арз” (“Ер тасвири китоби”) asarida Kaspiy dengizi yoki Xorazm dengizi haqida qimmatli ma’lumotlar bor. Ushbu tarixiy geografiyaga oid asardagi Markaziy Osiyoga oid ma’lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobning 937- milodiy, hijriy 428-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, unga turli xaritalar chizib, ilova qilingan. Ushbu qo‘lyozmaning matni 1926-yilda sharqshunos X. M. Mjik tomonidan Leypsigda nemis tilida nashr qilingan. Rus tiliga esa 1983-yilda P. G. Bulgakov, B. A. Rozenfeld, A. A. Ahmedov tomonidan tarjima va sharhlangan[664]. Kitobni o‘zbek tiliga Ashraf Ahmedov tarjima qilib, ilmiy sharhlar bilan 1983-yilda chop etgan edi.

**“Ҳудуд ул-олам”[665].** “Ҳудуд ул-олам” fors tilida yozilgan (982-y.) birinchi geografik xarakterdagi asardir. Kitobning to‘la nomi “Hudud al-olam min-Mashriq ilal-Mag‘rib” (“Sharqdan G‘arbga qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari”)dir. Asarning muallifi noma’lum bo‘lib, u Guznono (Afg‘onistonning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan qadimiy viloyat) hokimlari (Faruginiylar)dan biriga atab yozilgan. Kitobning yagona qo‘lyozma nusxasi sharqshunos A. G. Tumanskiy[666] (1861–1920-yillar) tomonidan 1892-yilda Buxoroda topilgan.

“Ҳудуд ул-олам” asari muqaddima va 59 ta bobdan iborat. Uning 1–7 boblarida yerning tuzilishi, dengizlar, orollar, tog‘lar, daryolar, cho‘lu biyobonlar hamda dunyoning inson yashaydigan to‘rtdan bir qismi – rub’i maskun va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub’i maskunning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiy mulohaza yuritiladi. 59-bobida sharqdan g‘arbga qarab joylashgan mamlakatlar, ularning xalqi, o‘sha mamlakatlarda ishlab chiqariladigan asosiy matolar, ayrim o‘rinlarda esa savdo-sotiqning umumiy ahvoli xususida so‘z boradi. “Ҳудуд ул-олам” asarida Markaziy Osiyo, xususan, uning shaharlari, aholisi va ularning mashg‘ulotlari haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. 1983-yilda asarning tojikcha varianti nashr etilgan. Ushbu kitob fors tilidagi ilk tarixiy-geografik manba

---

[664] Булгаков П. Г., Розенфельд Б. А., Ахмедов А. А. Мухаммад ал-Хорезми, ок. 783 - ок. 850. М.: Наука, 1983. 240 с.

[665] Худуд ал-алам. Регионы мира. Персидская география 372 г. х. – 982 н. э./Tr. and expl. by V. Minorsky английский перевод и комментарии (фрагменты книги В. Ф. Минорского).

[666] Туманский А. Г. Новооткрытый персидский географ X столетия и известия его о славянах и руссах. СПб.: тип. Акад. наук, 1896. С. 121-137.

sifatida juda qimmatli asar hisoblanadi. Rus tilidagi tarjima va sharhlari 1973[667] va 1986[668]-yillarda chop etilgan.

**Abu Rayhon Beruniy[669] asarlari.** O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy tarix, falsafa, falakiyot, ma'danshunoslik va boshqa fanlarga doir 150 dan ortiq ilmiy asar muallifi bo'lib, shundan 15 tasi tarixga tegishlidir.

Allomaning to'liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida dunyoga kelgan. U mukammal matematik, astronomik, tabiiy va tarixiy-falsafiy bilimlar egasi bo'lgan. Beruniyning birinchi ustozi astronomiya, matematika va trigonometriya bo'yicha tayanch asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Iroq edi. Beruniy 998-yilda Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir o'z huzuriga taklif qiladi. Beruniy Vushmagir huzuridagi qaytgandan so'ng o'zining tarixiy asarlaridan biri – "Осор ул-боқия" ("Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар")[670] asarini hokimga bag'ishlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning tadqiqotlari orasida "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" nomli tarixiy asari alohda o'rin tutadi. Ma'lumki, alloma 5 yildan vaqt mobaynida Jurjonda yashaydi. Qobus saroyida yashab turgan G'ilon va Tabariston hokimi Marzubon ibn Rustamning taklifi bilan tarix fanida qisqa "Xronologiya" nomi bilan mashhur bo'lgan "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" risolasini yozadi. Asar muqaddimasi kun va tun nima, ularning majmui va boshlanishi, oy, yil va milodlarning mohiyati, bu masalada xalqlarning tafovutlari, xalqlarning podsho va hokimlarga munosabati, Zulqarnayn degan shoh haqida, milodiy va hijriy yil hisoblari, xronologik turkumlar, soxta payg'ambarlar va adashgan xalqlar, fors, so'g'd hamda xorazmliklarning bayramlari, yahudiylar, suryoniylar va nasroniy xalqlari, qadimgi sehrgarlik, sabiylar, arablar, shuningdek, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar, arablarning johiliyat davridagi bayramlari hamda musulmonlarning nishonlaydigan kunlari haqida fikr yuritiladi.

Beruniyning "Хронология" va "Осор ул-боқия" risolasi islom dunyosi odat bo'lgan shohlar va qahramonlar faoliyati, siyosiy voqealar o'rniga xalqlar madaniyati tarixi, ularning urf-odati va fe'l-atvori masalalarini yoritishga e'tibor beradi. Shuning uchun tarixchilar "Yodgorliklar"ga tarixiy-etnografik tadqiqot sifatida ham qaraydilar.

Beruniy ushbu asarini 27 yoshida yozgan bo'lib, unda muallifning hayotiy kuzatuvlari asosida yunon, rim, fors, so'g'd, xorazm, yahudiy, arab va boshqa

---

[667] Введение к Худуд ал-Алам // Материалы по истории киргизов и Киргизии / Отв. ред. В. А. Ромодин; АН СССР. Ин-т востоковедения. АН Кирг. ССР. Ин-т истории. М.: Наука, 1973.

[668] Новосельцев А. П. «Худуд ал-алам» как источник о странах и народах Восточной Европы // История СССР, 1986. № 5. С. 90-103.

[669] Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. I. Ташкент: АН УзбССР, 1957.

[670] Избранные произведения. Т.I. Памятники минувших поколений перев. и прим. М.А.Салье. Ташкент: Фан УзССР, 1957. 516 с.

xalqlarning yilnoma (kalendar) tizimlarini bir-biriga taqqoslangan, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilingan. Mazkur asarda yana Turonzamin xalqlarining tarixi, urf-odatlari va madaniyatiga oid masalalar ham o‘z ifodasini topgan.

Beruniyning "Осор ул-боқия" asari tarixchilar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilgan. Asarni 1957-yilda arabshunos olim M. A. Sale[671] birinchi marta rus tiliga tarjima qilgan edi. Tarjima jarayonida V. Zaxau nashr etgan arabcha va inglizcha nusxasi, Leningrad va qisman Istambul qo‘lyozmalaridan foydalangan.

Shuni ham qayd etish kerakki, rus tiliga qilingan tarjima ayrim nuqson va kamchiliklardan xoli emas. Ayrim o‘rinlarda butun jumlalar tushib qolgan, ba’zan esa chalkashtirib yuborilgan. Tarjimon qo‘lida Istambul qo‘lyozmasining fotonusxasi mavjud bo‘lishiga qaramay, undan to‘la foydalanmagan. Ruscha tarjima S. P. Tolstov va V. P. Sheglovlarning so‘z boshisi bilan boshlanadi. Tarjimaga M. A. Sale tuzgan ilmiy izohlar ham ilova qilingan.

Rossiyada ushbu noyob asar bilan o‘z vaqtida akademik I. Yu. Krachkovskiy ham shug‘ullangan edi. U o‘zining "Араб қўлёзмалари устида" nomli mashhur asarida 1910-yillarda Petrogradning Osiyo muzeyida sotib olingan XIII asrga oid qo‘lyozma bilan qiziqqani, bundan V. Zaxau qalamiga mansub nusxaning to‘ldiriladigan o‘rinlarini ko‘chirib olgani va bularni nashrga tayyorlashni mo‘ljal qilib qo‘yganini qayd etadi. Lekin, I. Yu. Krachkovskiy buni amalga oshirolmaydi. Tadqiqotchi o‘zining "ал-Беруний ва Шарқнинг XI асрдаги географияси" nomli asarida "Yodgorliklar" ga juda yuksak baho beradi va ushbu kitob haqida qimmatli fikrlarni bildiradi.

Beruniyning tarixiy tadqiqot usuli, uning islom madaniyatidagi o‘rni, Qur’oni Karim va Hadisi sharifdagi asoslari, qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixiy tadqiqot usullaridan keskin farq qiladi. Allomaning ilmiy-tarixiy tadqiqot usullaridagi o‘ziga xos tizim va yangiliklar Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘onning kitobida ilk marotaba 1937-yilda o‘rganilgan[672]. G‘arbdagi tarixni talqin etish va metodologik yoritishning tarixi bo‘lganidek, Sharqda ham tarixni talqin etishning o‘z tarixi mavjud.

Beruniy tarix falsafasi muammolarini yoritishda asosiy e’tiborni iqtisodiy omillarga qaratgan bo‘lsa-da, uning tarixiy voqealarga bo‘lgan munosabati, birinchi navbatda, insoniylik ta’sirining kuchayib borishini hal qiluvchi sabab, deb biluvchi yondashuvlardan iborat. Ikkinchidan, Beruniy o‘rta asr diniy, mifologik va tarix falsafasidagi singari emas, balki inson aql-zakovatiga to‘la ishonch nuqtai nazaridan tarixga optimistik ruhda yondashgan edi.

Uchinchidan, F. Nitsshe, A. Shopengauer, O. Shpengler va boshqa G‘arb tarixchi hamda mutafakkirlaridan farqli o‘laroq, Beruniy tarixda insoniyatning kelajagini faqat taqdiri azal bilan bog‘lamay, balki insoniyatning istiqboliga

---

[671] Shu joyda.
[672] Validi A. Z. Biruni’s Picture of the World. Delhi, 1937.

umid bilan qaragan, tarixiy taraqqiyotning ilg'or yo'li, buning qonun va qonuniyatlarini e'tirof etgan.

Beruniy, ayniqsa, ibn Xaldunning "Тарих фалсафаси ва принцплари" asari[673], hozirgi G'arb tarixchi olimlari, shu jumladan, A. Toynbi[674] kabi zabardast tarixchilarning ilmiy izlanishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan edi.

Beruniyning o'z zamonasi ijtimoiy taraqqiyoti va ilm-fani darajasidan ilgarilab ketganligining boisini, tarix ilmini oddiy xronologik qaydlar tarixidagi qiziqarli siyosiy-harbiy, jangu-jadal, suronli voqealar haqidagi maroqli hamda pand-nasihat manbasi emas, balki muttasil yuksalib boradigan jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy jihatlari hamda qonuniyatlari mavjudligini ochib beruvchi jiddiy ilm-fan sohasi sifatida tushunishga erisha olganligida ko'rish mumkin. Bu jihatdan uning tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari XIX–XX asrlardagi "Tarix falsafasi"ning turli maktablari, ayniqsa, O. Kontning pozitivistik falsafasi[675], E. Dyurkegeymning tarixiy-falsafiy sotsiologiyasi[676], "Annallar" maktabi[677] tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari bilan hamohangdir.

**Mahmud Koshg'ariy va uning "Девону луғатит турк"[678] asari.** Mahmud Koshg'ariy buyuk qomusiy olim bo'lib, yoshlik chog'larida xalq tilidagi so'z va iboralar, hikmatli ibora hamda maqollarni astoydil o'rgangan, ularni qunt bilan yozib borgan. Har bir so'z va iborani sharhlash hamda ma'nosini aniqlashga intildi. Ana shu qiziqish tufayli Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati va urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun Markaziy Osiyoni kezib chiqdi. O'zi to'plagan boy dalillar asosida "Жавоҳирун наҳв фи луғати турк (Туркий тилларнинг синтаксиси дурдоналари)" va "Девону луғатит турк (Турк тилининг луғати)" asarini yozgan edi.

Uning birinchi asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. Olimning ikkinchi "Девону луғатит турк" asari esa 1074–1075-yillarda yozilgan. Bu haqda asarning o'zida quyidagi fikrlar bayon etiladi: "Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltmish oltinchi yilning muharram oyida ilon yili kirgan edi". Ushbu asar muqaddima va lug'at qismdan iborat bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida alohida o'rinni egallaydi. Chunki, olim asarga dunyo xaritasini ham ilova qiladi va Kichik Osiyodan to Xitoy hududlarigacha cho'zilib ketgan hududlarda yashagan turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi,

---

673 Ибн Хальдун, Ибн Халдун Абдуррахман Абу Зейд ибн Мухаммед / С. М. Бациева, А. В. Сагадеев // Евклид - Ибсен. М.: Советская энциклопедия, 1972. С. 620.

674 Тойнби А. Дж. Исследование истории: В 3 т. / Пер. с англ., вступ. статья и комментарии К. Я. Кожурина. СПб.: Изд-во С.-Петербургского ун-та: «Издательство Олега Абышко», 2006. 1333 с.

675 Лесевич В. Опыт критического исследования основоначал позитивистской философии. СПб., 1877.

676 Дюркгейм, Эмиль. Элементарные формы религиозной жизни: тотемическая система в Австралии = Les Formes élementaires de la vie religieuse: le systeme totemique en Australie / пер. с франц. А. Апполонова и Т. Котельниковой; под науч. ред. А. Апполонова. М.: Издательский дом «Дело» РАНХиГС, 2018. 736 с.

677 Гуревич А. Я. Исторический синтез и Школа «Анналов». М.: Индрик, 1993. 328 с.

678 Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк / З-А. М. Ауэзова. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 1288 с.

etnogenezi, urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyati to‘g‘risida g‘oyatda qimmatli ma’lumotlarni beradi. Asarda turkiy qavm-urug‘lar: qipchoq, o‘g‘uz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboku, tatar, qirg‘iz, chigil, yag‘mo, tuxsi, igroq, jaru, jamil, uyg‘ur, tangut, tabg‘ochlardan tashqari fors, arab, xitoy va rus xalqlari haqida ham ma’lumotlar bor. Shunisi muhimki, shaharlarda so‘g‘d-turk ikki tilliligi rasmiy holat bo‘lganligi Mahmud Koshg‘ariyning “Девону луғатит турк” asarida ham qayd etilgan.

Ushbu nodir qo‘lyozma asar hozir Istanbulda saqlanmoqda. Asarda turkiy xalqlar og‘zaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ortiq she’riy parchalar, maqollar, hikmatli so‘zlar va lavhalar berilgan. Olim o‘z asarida turkiy tillarga oid juda ko‘plab so‘z birikmalari, iboralar va talaffuz qoidalarini asoslab beradi. Bu jihatdan mazkur asarni oddiy lug‘at deb emas, balki mukammal ishlangan grammatik qo‘llanma sifatida baholash kerak bo‘ladi.

**Abulfazl Bayhaqiy va uning “Тарихи Масъудий”[679] asari.** An’anaviy tarixiy asarlardan yaqqol ajralib turadigan “Тарихи Масъудий” (“Масъуд тарихи”) asarining muallifi Abulfazl Muhammad ibn al-Husayn al-kotib al-Bayhaqiydir (995–1077). Abulfazl Bayhaqiy “Зийнат ул-китоб” (“Китоблар зийнати”), “Тарихи оли Махмуд” (“Махмуд хонадонининг тарихи”) yoki “Жомиъ фи тарихи оли Сабуқтегин” (“Sabuqtegin xonadoni tarixidan hikoyalar majmuasi”) nomli asarlari bilan mashhur[680].

“Тарихи Байҳақ” (“Байҳақ вилояти тарихи”) asarining muallifi Abulhasan Ali Bayhaqiy XII asrning ikkinchi yarmida o‘tgan va ko‘pincha ibn Funduq nomi bilan mashhur bo‘lgan olimning ma’lumotiga qaraganda, Abulfazl Bayhaqiyning “Тарихи оли Махмуд” (“Махмуд хонадонининг тарихи”) asari 30 jilddan iborat bo‘lgan. Lekin, ushbu ulkan asarning faqat oltinchi jildining ikkinchi qismi 7, 8, 9-jildlari hamda 10-jildining bir qismi yetib kelgan, xolos. Mazkur qismlar Sulton Mas’ud (1030–1041) davri tarixini o‘z ichiga oladi va “Тарихи Масъудий” nomi bilan ma’lum va mashhur.

“Тарихи Масъудий” asarida boshqa tarixiy kitoblardan farqli o‘laroq, muallif o‘zi ko‘rgan va ishonchli kishilardan aniqlagan ma’lumotlarni keltirgan, shuningdek, hukumat mahkamalarida saqlangan rasmiy hujjatlar asosida hamda maishiy tafsilotlarga ham alohida e’tibor berilgan. Asarning daliliy ma’lumotlarga boyligi, voqealarning keng va atroflicha bayon etilishi, zo‘r badiiy mahorat bilan yozilganligi uni boshqa tarixiy asarlardan ajratib turadi. Kitobda asosan, Sulton Mas’ud davrida G‘aznaviylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy ahvoliga keng o‘rin berilgan. Bundan tashqari, asarda Safforiylar, Somoniylar va Saljuqiylar tarixiga oid muhim ma’lumotlar ham mavjud.

---

[679] Абу-л-Фазл Бейхаки. История Мас’уда / Перевод А. К. Арендса. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1962.

[680] Истины. Изречения персидского и таджикского народов, их поэтов и мудрецов / Перевод Н. И. Гребнева. Подстроч. пер. и прим. Н. Османова. М.: Наука, 1968. 320 с.

Ayniqsa, g'aznaviylar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati o'rtasida bo'lgan siyosiy munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar ko'p[681].

"Тарихи Масъудий" asarining forsiy matnini ingliz olimi Uilyam Morley 1861-yilda Kalkuttada, Ahmad Peshovariy esa 1886-yilda Tehronda, Said Nafisiy 1941–1954-yillarda, G'ani va Fayoz 1945-yilda chop etgan. Uning arabcha tarjimasi Qohirada Yahyo Qashshob va Sodiq Nishot tomonidan nashr etilgan.

"Тарихи Масъудий" asarining ruscha tarjimasi tadqiqot va zarur izohlar bilan manbashunos olim A. K. Arends tomonidan 1962-yilda Toshkent[682] va 1969-yilda Moskvada[683] chop etildi. Kitobning X–XI asrlar tarixini o'rganuvchilar uchun manba sifatidagi ahamiyati juda katta.

**Ibn al-Asir va uning "Ал комил фи-т-тарих" asari[684].** Ushbu asarning muallifi arab tarixchisi Izzuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad (1160–1234) bo'lib, u ko'pincha Ibn al-Asir nomi bilan mashhur. Ushbu asar 12 jilddan iborat bo'lib, unda dunyoning yaratilishidan to 1231-yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil, xronologik, ya'ni davr tartibida bayon etib beriladi. Asarning VII–XII jildlari mustaqil, alohida ahamiyatga ega bo'lib, 924–1231-yillar orasida Sharq mamlakatlari, shuningdek, Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi. Ushbu kitob asosan, qo'lyozma manbalar, shuningdek, tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari davomida to'plangan boy va faktik material asosida yozilgan. Asar Xivada to'liq holda o'zbek tiliga Muhammad Rahim soniy davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif Oxunnd tomonidan tarjima qilingan bo'lib, Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida uning 13 ta qo'lyozmasi saqlanmoqda. 2006-yilda P. G. Bulgakov va Sh. S. Kamoliddin tomonidan qayta tarjima qilindi, sharh hamda qo'shimchalar kiritilgan holda chop qilindi[685].

**Al-Utbiy va uning "Тарихи Яминий"[686] asari.** Abu Nasr al-Utbiy asarining qo'lyozma nusxalari ko'p bo'lishiga qaramasdan, asar bir necha bor nashr etilgan. Ayniqsa, "Тарихи Яминий"ga bo'lgan qiziqish XIX asr o'rtalarida yana kuchayib, mazkur davrda asarning arabcha nusxasi qayta-qayta nashr etiladi. Jumladan, asarning Mavlaviy Mamluk al-Ali va nemis olimi A. Shprenger tomonidan tayyorlangan dastlabki nashri 1847-yilda Dehlida chop

---

681 Бартольд В. В. Бейхаки, Абу-л-Фазл // Бартольд В. В. Сочинения. М.: Наука, 1973. Т. VIII: Работы по источниковедению. С. 583-585.

682 Абу-л-Фазл Бейхаки. История Мас'уда / Перевод А. К. Арендса. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1962.

683 Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., введение, комментарии и приложения А. К. Арендса. 2-е издание. М.: Наука, 1969.

684 Ибн аль-Асир // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.

685 Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих (Полный свод истории) / Пер. с араб., комм. чл.-корр. АН Республики Узбекистан П. Г. Булгакова; Доп. к пер., прим. и комм., указ. Ш. С. Камолиддина. Ташкент, 2006. 560 с.

686 Материалы по истории Средней и Центральной Азии X - XIX вв. Ташкент, 1988.

etilgan. 1870 (hijriy 1286)-yilda Qohirada al-Utbiy asarining to‘liq matni Shayx Ahmad al-Maniniy tomonidan tayyorlangan tarixiy-filologik sharhi bilan birgalikda (hoshiyasida) nashr qilindi. Shuningdek, “Тарихи Яминий” to‘lig‘icha 1290 (1874)-yilda tarixchi Ibn Al-Asirning “Комил фи-т-тарих” asari X–XI jildlarining hoshiyasida Qohirada, nihoyat, al-Utbiy asarining olim Hamiduddin tomonidan tayyorlangan nashri 1883-yilda Lohurda chop etilgan. Bu asarning forscha tarjimasi Tehronda 3 marta nashr etilgan (1856, 1955, 1966). Inglizcha tarjimasi ham bosilgan (London, 1858). Undan ayrim parchalar fransuz, nemis, rus, o‘zbek tillarida nashr qilingan[687].

“Тарихи Яминий” boshidan oxirigacha nasriy “saj” uslubida yozilgan bo‘lib, shu tarzda yaratilgan dastlabki tarixiy-biografik asarlardan hisoblanadi. Ushbu asar muqaddima va qirq besh bob (zikr)dan iborat. Asarda voqealar jarayoni aksariyat o‘rinlarda X asrning oxiri – XI asrning birinchi choragida Movarounnahr va Xuroson tarixiga ma’lum darajada aloqador bo‘lgan shaxslarga bog‘lab hikoya qilinadi.

**Abdulfaraj Qudama va uning “Китоб ул-хирож ва санъат ал-китоба” asari.** Mazkur asar Arab xalifaligining ma’muriy bo‘linishi, unga tobe bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa xizmati, soliq va moliya tizimining umumiy ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Asarda Movarounnahrning geografik holati va uning turkiyzabon aholisi haqida ham muhim daliliy ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Abulfaraj Qudama 928-yilda “Китоб ул-хирож ва санъат ал-китоба” (“Хирож ундириш ва мактублар ёзиш санъати ҳақида китоб”) nomli ikki jildlik, 8 qismdan iborat asar yozgan edi. Mazkur asarda arab xalifaligining ma’muriy bo‘linishi, xalifalikka tobe bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa xizmati, soliq va moliya tizimining umumiy ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi[688].

**Al-Istaxriy va uning “Китоб масолик вал-мамолик” asari[689].** Mazkur asar 20 ta bobdan iborat geografik manba bo‘lib, unda musulmon mamlakatlari (Arabiston, Mag‘rib, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Movarounnahr), shuningdek, Hindistonning chegaralari, iqlimi, ma’muriy bo‘linishi, mashhur shaharlari, ularga olib boradigan yo‘llar, aholisi, uning mashg‘uloti, mashhur kishilari, savdo-sotiq va boshqa masalalar bayon etilgan.

Asarning rus tilidagi tarjimalari 1939-yilda[690], 1960-yilda[691], 1968-yilda[692], 1973-yilda chop etilgan[693]. Unga birinchilardan bo‘lib izoh va

---

[687] Ахмедов Б. Узбекистон халклари тарихи манбалари. Тошкент, 1991.
[688] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. ... 68-б.
[689] Истахри // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.
[690] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. М.: Институт востоковедения, 1939.
[691] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII-X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.
[692] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Хрестоматия по истории Халифата. М.: МГУ, 1968.
[693] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Материалы по истории киргизов и Киргизии. М., 1973.

mulohazalarni I. Yu. Krachkovskiy[694] bildirgan edi. Ingliz va boshqa xorijiy tillardagi tarjimalari 1845-yilda[695], 1870-yilda[696], 1927-yilda[697], 1989-yillarda[698] chop etilgan.

Xulosa o‘rnida, ushbu davrda yozilgan asarlarning har biri Markaziy Osiyo tarixini yoritishdagi o‘rni beqiyosligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ularning manbaviy qiymati juda yuqori bo‘lib, chuqur va keng ko‘lamdagi tadqiqotlar uchun asos bo‘la oladi. Shu sababli, bugungi kunda ham ushbu qo‘lyozmalarga bo‘lgan qiziqish yuqoriligicha qolmoqda. Ularni chuqur o‘rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixini xolisona tiklashda ahamiyatlidir.

---

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Eftallar tarixi bo‘yicha ma’lumot beruvchi manbalarni sanab bering va eftallar xitoy, yunon va arman manbalarida qanday atalganini aniqlang.
2. Qadimgi turk yozuviga oid yodgorliklarni ko‘rsating.
3. Sharqshunoslikda ushbu davrga oid qanday asarlar mavjud, ular haqida fikr bildiring.
4. Arablar istilosi va unga qarshi kurashlar tarixi haqida ma’lumot beruvchi asarlarni ajratib ko‘rsating.
5. Arab tarixshunosligining o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
6. At-Tabariyning “Таворихи Табарий” va Narshaxiyning “Бухоро тарихи” asarlarining tarixshunoslikda tutgan o‘rniga baho bering.
7. Muqanna boshchiligidagi arablarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon qaysi asarda o‘z ifodasini topgan?
8. Abu Rayhon Beruniyning “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” asariga tavsif bering.
9. Tarixiy asarlardagi ma’lumotlarni zamondosh olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida tahlil qiling.
10. Uyg‘onish davri deganda nimani tushunasiz?
11. Musulmon Uyg‘onish davrining asosiy omil va manbalari nimalarda ko‘rinadi?

---

[694] Крачковский И. Ю. Арабская географическая литература. В кн.: И. Ю. Крачковский, Избранные сочинения, т. IV. М.-Л., 1957. С. 194-198.

[695] Das Buch der Lander von Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri, translated by Mordtmann, Andreas David. Frankfurt/M.: Rauhen Hauses in Horn, 1995 [1845].

[696] Goeje, M. J. De. "Indices, glossarium et addenda et emendanda ad Part I-III", Bibliotheca geographorum Arabicorum (in Arabic and Latin). – Lugdunum Batavorum (Leiden): Brill, 1870.

[697] Al-Istakhri, Abu Ishaq Ibrahim ibn Muhammad . Goeje, M. J. de; Noldeke, Theodore (eds.), "Viae Regnorum descriptio ditionis Moslemicae auctore Abū Ishāk al-Fārisi al-Istakhri", Bibliotheca geographorum Arabicorum (in Arabic and Latin) (2 ed.). – Lugdunum Batavorum (Leiden): Brill publishers, 1927.

[698] Bosworth C. E. "al-Masalik wa'l-Mamālik". The Encyclopedia of Islam, Volume 6. Leiden: E. J. Brill, 1989. Pp. 639-640.

# 4-MAVZU: O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

***O‘quv maqsadi:** O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga bag‘ishlangan adabiyotlar to‘g‘risida ma’lumot berish. Mavzuga oid adabiyotlarning xususiyatini har bir tarixshunoslik davri kontekstida tahlil qilish. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasi bilan shug‘ullangan tarixchi, etnograf, antropolog, lingvist hamda boshqa soha vakillarining qarashlari, fikrlari va konsepsiyalarini aniq misollar yordamida ko‘rsatib berish. Xorij tadqiqotchilarining ushbu masalaga doir ilmiy yondashuvlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish. Talabalarda konkret mavzuga doir tarixshunoslik ishini amalga oshirish yuzasidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** o‘zbek, etnogenez, genezis, etnik tarix, etnos, etnik birlik, etnonim, identiklik, diniy identiklik, urug‘, qavm, qabila, elat, el, xalq, millat, etnografiya, etnologiya, rus sharqshunoslari, o‘zbeklar, o‘zbek xalqi, o‘troq va ko‘chmanchi aholi, nazariya, metod, metodologiya.*

## O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi tarixshunosligi

O‘zbek xalqining etnogenezi, etnik tarixi va madaniyatini o‘rganish, uni turli davrlardagi rivojini kuzatish hamda muammoning zaruriyatini dalillash uchun muhimdir. Hozirgi kunda etnologiya, etnografiya, etnik tarix, etnogenez va ijtimoiy antropologiya sohalarida nashr etilayotgan adabiyotlarning aksariyati juda yuqori darajada, kompleks yondashuv hamda chuqur tanqidiy tahlilga ega, asoslangan faktlar va ilmiy xulosalarga boydir. Lekin, shu bilan bir qatorda, maqsadi tamomila teskari bo‘lgan, fanning yanada rivojlanishini emas, ba’zan siyosiy ruhda, ba’zan bir yoqlamalik, ba’zan esa biror etnosning rolini boshqalardan yuqoriroq ko‘rsatishga urinishlar hali hamon davom etib kelmoqda[699]. Shu jihatdan olib qaraganda, Markaziy Osiyo etnoslari, ayniqsa, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi tarixshunosligini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Markaziy Osiyo va bugungi O‘zbekiston hududida qadimdan istiqomat qilib kelayotgan qabila, elat va xalqlar to‘g‘risidagi turli ma’lumotlar eng qadimgi yozma manbalar, bitiklar hamda epigrafik yodgorliklar, keyinchalik turli davlatlarning muarrix va sayohatchilarining asarlarida saqlanib qolgan.

---

[699] Асқаров М. Этнологиянинг баъзи муаммолари назарий таҳлили // Имом Бухорий сабоқлари. 2018. №1. 82–84-бетлар.

O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasiga doir yaratilgan tadqiqotlarni xronologik jihatdan uch bosqich, ya’ni Rossiya imperiyasi mustamlaka davri (XIX asr – XX asr 20-yy.); sovet davri tarixshunosligi (XX asr 20-yy. – XX asr 90-yy.); mustaqillik davri (XX asr 90-yy. – XXI asr boshlari) bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

**Birinchi davrda** amalga oshirilgan asosiy tadqiqotlar ko‘proq tavsifiy ko‘rinishda va yig‘ilgan ma’lumotlar O‘rta Osiyoga safar qilgan rus elchi, sayyoh hamda harbiy zobitlarning hisobotlari, safarnomalari va kundaliklarida saqlanib qolgan[700]. Mazkur davr tadqiqotchilarning aksariyati Rossiya imperiyasi tomonidan siyosiy-harbiy topshiriqlar bilan O‘rta Osiyoga yuborilgan bo‘lib, ularning oldiga mintaqani har jihatdan, chuqur o‘rganish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu bois, ushbu davrda vujudga kelgan asarlarda o‘lkaning tabiiy-geografik sharoiti, yer osti boyliklari, savdo yo‘llari va transport vositalari, hukumat, hukmdor hamda qurolli kuchlarining ahvoli, xo‘jalik tizimi, aholisining milliy tarkibi va ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari hamda milliy xarakteri to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar mavjud.

Shuningdek ko‘plab statistik va siyosiy hujjatlarda o‘zbek xalqi, uning tarkibiga kiruvchi turli urug‘ va etnoslarning etnogeneziga oid turli ma’lumotlarni ham uchratish mumkin. Mazkur ma’lumotlar siyosiy maqsadlar yo‘lida yig‘ilganligiga qaramay, aynan ular O‘rta Osiyo xalqlari to‘g‘risidagi ilk statistik faktlar edi.

Ye. K. Meyendorfning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asrda Buxoro amirligida yashovchi 2 mln. 478 ming aholining 1,5 mln. o‘zbeklardan iborat bo‘lgan[701]. Yana bir sayohatchi N. V. Xanikovning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbeklar Buxoro amirligida nafaqat son jihatidan ustun turgan, shu bilan birga ular urug‘ va bo‘linmalarga ajratilgan, o‘z urug‘lari orasida hurmat-e’tiborga ega bo‘lgan oqsoqol va biylardan iborat edi[702]. Jumladan, A. Vamberining ta’kidlashicha, Buxoroda o‘zbek qabilalarining soni 32 tani tashkil etib,

[700] Bu haqida batafsilroq qarang: Ханыков Н. В. Описание бухарского ханства. СПб., 1843; Миддендорф А. Ф. Путешествие на Север и Восток Сибири: Север и Восток Сибири в естественно-историческом отношении. СПб.. 1860; Ч. 1, отд. 2: Орография и геогнозия, 1861; Ч. 1, отд. 3: Климат Сибири, 1862; Ч. 1, отд. 4: Растительность Сибири, 1867; Ч. 2, отд. 5: Сибирская фауна, 1869; Ч. 2, отд. 5: Сибирская фауна (окончание). Домашние и упряжные животные, повозки, суда, рыболовство и охота, 1877; Ч. 2. отд. 6: Коренные жители Сибири (Окончание всего сочинения), 1878; Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. Казань, 1886: пер. на франц. яз., Париж, 1899; Остроумов Н. П. Критический разбор мухаммеданского учения о пророках: Монография. Казань, 1874. Исламоведение (Догматы Корана): Монография, 1916. Что такое Коран?: Публицистика. Ташкент, 1883; Мадрасы в Туркестанском крае // Журнал Министерства Народного просвещения. Новая серия. Часть VII, 1907; Январь: публицистика. Санкт-Петербург: Сенатская тип., 1907; Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Журнал Министерства Народного просвещения. Новая серия. Часть I, 1906. Февраль: публицистика. Санкт-Петербург: Сенатская тип., 1906; Сарты. Этнографические материалы: публицистика. Ташкент: Типография газеты “Среднеазиатская Жизнь”, 1908; Сказки сартов в русском изложении: художественная литература, Ташкент: Тип. Окруж. штаба, 1906.

[701] Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару/ Перевод Е. К. Беттера. М.: Наука, 1975. С. 106.

[702] Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. С. 58–64.

o‘zbeklar o‘lkada tojiklar bilan qalin aloqada yashagan[703]. Bunday holat nafaqat Buxoro amirligi, qolaversa o‘lkaning boshqa hududlarida ham mavjud edi. Mazkur olimning ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘qon xonligida ham o‘zbeklar aholining o‘troq qismida ko‘pchilikni tashkil etgan edi[704].

1870-yillarda Zarafshon okrugida mahalliy xalq tarkibining statistikasini o‘tkazishga qaratilgan ishlar amalga oshirilgan. Bu maqsadda maxsus komissiya tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga A. D. Grebenkin[705], A. P. Xoroshxin[706], I. A. Aleksandrov, M. Sh. Sultanov, P. Ye. Shinsberg va boshqalar kiritilgan[707]. Jumladan, A. D. Grebenkin birinchilardan bo‘lib statistik tahlillar asosida o‘zbeklarni 92 urug‘ (ming, turkiy, nayman, yuz, tuyoqli, xitoy, saroy, qipchoq, jaloir, do‘rmon, mang‘it, kerait, qo‘ng‘irot, qoracha, qirq, kenagas, qirq-yuz, qiyot, o‘tarchi va b) vakillari ushbu hududda qayd etgan edi[708]. Yoki yana bir rus tadqiqotchisi A. P. Xoroshxin (1841–1875) 1865-yilda Turkistonga kelgan bo‘lib, 1868-yilda Buxoro ekspeditsiyasida ishtirok etdi va mahalliy xalqlar to‘g‘risida ma’lumotlar qoldirgan[709]. Masalan, ushbu tadqiqotchi o‘zbek va tojiklar[710]ni qadimdan ushbu hududda yashagan o‘troq mahalliy aholi sifatida qayd qilgan.

O‘rta Osiyo hududidagi rus va mahalliy aholi tarkibi, soniga oid ba’zi ma’lumotlar L. Kostenkoning 1870-yilda yozgan risolasida ham keltirilgan. Tahlil va qiyoslash uchun ushbu ma’lumotlar qimmatli hisoblanadi[711].

1868–1871-yillarda O‘rta Osiyoga sayohat qilgan rus biologi va geografi A. P. Fedchenkoning asarlarida ham mahalliy aholi, uning madaniyati, nomi va tarkibi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Bu olim Pomir va uning atrofi hududlarini batafsil o‘rganib, mintaqaning tabiati, geografiyasi va etnografiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan[712].

M. Venyukovning 1873-yilda chop etilgan risolasida o‘zbeklar va ularning kundalik hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Uning qaydlariga ko‘ra, o‘zbeklar o‘troq, ko‘chmanchi va o‘troqlashayotgan (yarim o‘troq) kabi uchta guruhga bo‘lingan, ammo “o‘zbeklar” qanday hayot

---

703 Вамбери А. Путешествие по Средней Азии/ Перевод с немецкого З. Д. Голубевой. Под редакцией В. А. Ромодина. М.: Восточная литература, 2003. С. 266–269.

704 Yuqoridagi asar… 273-б.

705 Басханов М. К. Гребенкин Афанасий Давыдович // Русские военные востоковеды до 1917 года. Биобиблиографический словарь. М.: Восточная литература, 2005. С. 66.

706 Хорошхин А. Г. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876.

707 Соболев Л. Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Записки императорского русского географического общества по отделению статистики. Т.4. СПб., 1874. С. 72, 132, 138.

708 Shu joyda.

709 Хорошхин А. Г. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876. С. 145-146, 153, 161, 505.

710 Shu joyda: 216-b.

711 Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности // Туркестанский сборник. Т.29. СПб., 1870. С. 79.

712 Федченко А. П. Путешествие в Туркестан. М.: Государственное издательство географической литературы, 1950. С. 65–66.

kechirishlaridan qat'iy nazar, barchasi o'zlarini ko'plab urug'larga bo'lingan bitta xalq, deb hisoblagan[713].

A. L. Kunning "Очерки Кокандского ханства" asarida asosan, Qo'qon xonligi shaharlari, ularning boshqaruv tizimi va mahalliy xalq to'g'risida turli ma'lumotlar keltirgan. Tadqiqotchi Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan va vodiyning boshqa shaharlarini aylanib chiqib, mahalliy aholi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan[714].

Rossiya imperiyasining aholini ro'yxatga olish bo'yicha o'tkazgan sanoq ishlari ham ushbu davrdagi muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Mazkur ma'lumotlarga nisbatan munosabatlar turlicha bo'lib, asosan, tanqidiy xarakterga ega. Chunki, ro'yxatga olish ishlari aniq tizim va mahalliy an'analarni hisobga olgan holda emas, balki tarqoq holda, soha mutaxassisi bo'lmagan hamda mintaqa to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan vakillar tomonidan o'tkazilgan. Natijada, haqiqatda mavjud bo'lmagan turli etnik nomlar 1897-yilga ro'yxatlarda qayd etilib, ko'plab bahs-munozarlarni keltirib chiqargan. Bunday bahsli etnik nomlar qatoriga "sart" atamasi ham mansub.

XIX asr oxirida tadqiqot olib borgan N. A. Aristov sartlarni turkiy dunyoga mansub, deb hisoblagan. U "Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida o'troq turkiy aholi o'zlarini "sartlar" deb ataydi yoki o'zlarini boshqa etnik nom bilan atashni bilmaganliklari uchun uni rad etmaydilar. Buxoro va Samarqanddagi xuddi shunday madaniyatga ega aholi esa o'zlarini "o'zbeklar" deb ataydi"[715], deb ta'kidlagan edi. Boshqa bir rus tadqiqotchisi A. Shishov ham sartlarni o'zbek xalqiga yaqinligi, o'zbeklar va sartlar bitta jamoa, faqat ularni vaqtincha ikkita nom ajratib turishini qayd etgan edi[716].

"Sart" atamasi masalasida asosan, ikki xil qarash shakllangan bo'lib, birinchi guruh vakillari "sart"ni alohida etnos, deb hisoblagan. Ushbu ma'lumot N. Ostroumov[717] tomonidan ham ko'p marotaba ta'kidlangan. Vaqtlar o'tishi bilan ushbu masala V. V. Bartold[718], Yu. Bregel[719], S. Abashin va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mazkur masala bo'yicha keyingi yondashuv jadidlarga tegishli bo'lib, Sherali Lapin, Mahmudxo'ja Behbudiy[720] va boshqalar o'z qarashlarini

---

[713] Венюков М. Опыт военного обозрения русских границ в Азии // Туркестанский сборник. Т.55, Спб., 1873. С.356.
[714] Кун А.Л. Очерк Кокандского ханства // ИРГО. 1876. С.6-7.
[715] Аристов Н. А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // Живая старина. Год 6-й. Вып. 3-4. СПб.: Издание Отделения этнографии ИРГО, 1896. С. 431.
[716] Шишов А. Сарты. Этнографическое и антропологическое исследование. Часть 1. Этнография // Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. Издание Сырдарьинского областного статистического комитета. Том 11. 87-97 с.
[717] Остроумов Н. П. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент, 1908.
[718] Бартольд В. В. Сочинения. Том II. Часть 2. М., 1964. С. 527.
[719] Bregel Yu. The sart in the Khanate of Khiva // Journal of Asian History. V.1. Год изд. №2.
[720] Махмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1997.

matbuotda e'lon qilganlar. Masalan, Sherali Lapin[721] "sart" atamasining kelib chiqishi masalasida V. V. Bartold bilan 1894-yilda matbuotda qattiq bahslashadi va o'z pozitsiyasini aniq ifodalaydi. Uning fikricha, "sart" etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'rta Osiyoning tub joyli aholisi; alohida "sart" tili bo'lmaganidek, "sart" degan alohida etnos, maxsus xalq ham yo'q; sartlar mahalliy forsiyzabon va turkiy o'troq aholining aralashuvidan tarixan tarkib topgan turkiy tilli turkistonlilardir; ularning tili turkiy tilning zamonaviy bir ko'rinishi bo'lib, u arab-forsiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyigan yangi o'zbek tilidir. Demak, sart aniq bir etnos, xalq bo'lmay, balki Turkistonning mahalliy turkiy va eroniy etnik qatlamlari qorishuvidan tarixan tarkib topgan turkiy tilli yirik ijtimoiy toifa.

1914-yilda S. Ayniy "sart" atamasining noo'rin ishlatilishini qoralaydi va uning o'rniga "turkistonlik" yoki "o'zbek" atamalarini qo'llash ko'proq o'rinli, deb hisoblaydi[722].

Mahmudxo'ja Behbudiyning "sart" atamasi bilan bog'liq fikrlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z zamondoshlari orasida birinchilardan bo'lib etimologiya fani bilan shug'ullangan, so'zning qo'llanilish doirasi, turli xalqlarda bir so'zning qay ma'noda ishlatilishi, so'zning tarixiy va adabiy manbalarda uchrab-uchramasligi borasida izlanishlar olib borgan, zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, madaniy antropologiya fani bilan ham shug'ullanganligi ko'zga tashlanadi.

Uning "Sart so'zi majhuldir" nomli maqolasida ruslar tarafidan mahalliy o'troq xalqqa nisbatan qo'llay boshlagan "sart" atamasining ishlatilishi, turli lug'atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko'chmanchi xalqlar ushbu istilohning qanday ma'noda qo'llashi va hokazo dalillardan 24 tasini keltiradi hamda fikrining so'nggida mazkur atama Turkistonning mahalliy o'troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo'rin ekanligini isbotlab bergan. Behbudiy ushbu maqolada "sart" so'zi bilan bog'liq keltirgan dalillari tahlil qilinsa, muallif tarixiy kitoblardagi faktlardan tortib turli lug'atlarda, ko'chmanchi xalqlar nutqidagi ma'nosigacha izohlashga harakat qilgan[723].

Sovet davri tadqiqotchilaridan N. Ye. Masanovning fikriga ko'ra, "sart" nomi turli mazmunda ishlatilgan. Masalan, "agar ota-onangiz qozoq, ammo siz isfijobda yashasangiz, siz sartsiz", degan misol keltirgan[724]. Yoki S. M. Abramzon ma'lumotlariga qaraganda, qirg'izlar orasida "qara sart" urug'i, shuningdek, "sart-kalmak" etnografik guruhi qayd etilgan[725].

---

[721] Окраина. № 146. 1893; Туркестанские ведомости. №36,38,39. 1894.

[722] Айни С. Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар // «Ойина» (1914–1915 йй.) / Нашрга тайёрловчилар: Н. Норкулов, К. Раббимов. Тошкент: «Академия» нашриёти, 2001.

[723] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият. 2006. 178–179-бетлар.

[724] Профессор Н. Масанов - Мы с вами - сарты… О маргинализме, деспотии пространства и многом другом (интервью) | ЦентрАзия. Электрон манба: http://www.centrasia.ru

[725] Абрамзон С. М. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии // ТКАЭЭ. Т.IV. М.,1960. С. 12, 39.

Taniqli etnograf B. X. Karmishevaning uzoq yillik olib borilgan tadqiqotlari natijalariga koʻra, amirlikning Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari, shuningdek, Tojikistonning janubiy qismida "sart" atamasi XVIII–XX asr boshlarida aholini koʻrsatishda ishlatilmagan[726]. T. K. Beysembievning fikriga koʻra esa, qabilalarning "sartlar" nomi bilan birlashishiga ba'zi koʻchmanchi qirgʻizlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va kamharakat turmush tarzini olib boruvchi hamda qabilalarga mansub boʻlmagan aholini ajratish zarurati sabab boʻlgan. Ma'lumki, turkmanlar, "tat" atamasidan qabila mansubligi boʻlmagan harakatsiz aholini belgilashda foydalangan. "Sart" atamasini oʻzi etnik ma'noda talqin qilish qiyin. Qoʻqon xonligi tarixiga oid yozma manbalarga koʻra, "sart" yoki "sartiya" atamalari "koʻchmanchi"dan farqli oʻlaroq, "harakatsiz, shahar aholisi" ma'nosida qoʻllanilgan[727].

Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu masala bir necha bor koʻtarilgan boʻlib, I. Baldauf fikriga koʻra, ruslar mazkur atamani qozoqlardan qabul qilgan, ular uchun bu soʻz ochiq-oydin ma'noga ega edi. Uning "Sart tili" aslida mavjud boʻlmagan, degan fikri haqiqatga yaqin. Masalan, uning fikricha, 1897-yildagi roʻyxatga olish davomida "Sart" soxta millati paydo boʻlishi natijasida "sart" psevdo tilini yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Ba'zi shuhratparast mustamlakachilar "Sart tili" ning grammatikalari va lugʻatlarini yozishni boshladilar. N. Ostroumovning "sart tili" gʻoyasi uzoqni koʻzlagan loyiha boʻlib, ammo ushbu tajriba muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi[728].

V. I. Bushkov va L. S. Tolstovalar Oʻrta Osiyo hududida aholini roʻyxatga olish toʻgʻri boʻlmagan va bir qator muhim kamchiliklarni oʻz ichiga olgan, deb hisoblaganlar. Ularning fikriga koʻra, mintaqa tillari orasida oʻzbek tili bilan bir qatorda "sart tili" ham ajralib turadi, bu notoʻgʻri va haqiqatga mos kelmagan[729].

"Sart" atamasini muomalaga kirishi boʻyicha V. I. Bushkov va L. S. Tolstovalar bir necha taxminlarni ilgari surgan. Masalan, 1897-yildagi aholini roʻyxatga olishda quyidagi toifadagi mahalliy aholi sartlar deb nomlangan boʻlishi mumkin: 1) oʻzlarining qabila nomi va qabila tuzilishini unutgan va qadimgi eroniyzabon aholi bilan aralashgan oʻzbeklarning avlodlari; 2) shaharlik tojiklarning ayrim guruhlari[730].

V. Tishkovning fikriga koʻra, "sart" atamasi 1990 va 2010-yillardagi Oʻsh mojarolari paytida haqoratli soʻz sifatida ishlatilgan[731]. Mazkur masala boʻyicha turli tortishuvlar hatto bugungi kungacha davom etib kelmoqda, ammo ushbu

---

726 Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Институт этнографии. М.: Наука, 1976.

727 Бейсембиев Т. К. «Тарихи-и Шахрухи» как исторический источник. Алма-ата, 1987. С. 78-79.

728 Baldauf I. Some Thoughts on the Making of the Uzbek Nation.Cahiers du Monde russe et sovietique, Vol. 32, No. 1, 1991. P. 80.

729 Бушков В. И., Толстова Л. С. Население Средней Азии и Казахстана (Очерк этнической истории) // Расы и народы: Сборник / Г.П. Васильева. М.: Наука, 2001. Вып. 27. С. 141-142.

730 Shu joyda.

731 Tishkov, V. Don't Kill Me, I'm a Kyrgyz!: An Anthropological Analysis of Violence in the Osh Ethnic Conflict. Journal of Peace Research, 1995. 32(2). Pp. 133–149.

masalani ko‘tarishdan maqsad, asosan, yangi bahslarni keltirib chiqarish bo‘lib, uning o‘zbeklarga hech qanday aloqasi yo‘q. Shu sababli, masalani sun’iy ravishda qayta ko‘tarish biror tayinli manbaga asoslanmagan.

N. S. Likoshinning Xo‘jand uyezdi to‘g‘risidagi maqolasida mahalliy xalqning kundalik turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli batafsil yoritishga harakat qilingan. Chunki, mazkur tadqiqotchi Xo‘jand viloyatining ma’lum davrdagi hokimi bo‘lganligi sababli, unda hudud to‘g‘risidagi ko‘plab ma’lumotlarni erkin to‘plash imkoniyati mavjud bo‘lgan. Natijada, uning maqolasi turli statistik ma’lumotlar bilan boyigan. Maqolada o‘zbek, qirg‘iz, tojik va boshqa o‘troq aholining turmush tarziga oid turli xabarlar berilgan[732].

Turkshunos V. Radlov, Rossiya tarixshunosligiga ilk bor ko‘p sonli xitoy manbalarini olib kirgan tarjimon N. Bichurin hamda A. Grebenkinning maqolalarini o‘zbek xalqi tarkibidagi turkiy qabilalar va ularga doir etnotoponimlarga bag‘ishlangan hamda ilmiy asoslangan tadqiqotlar, deb hisoblash mumkin[733].

**Ikkinchi davr** tadqiqotlari o‘zining salmog‘i va geografiyasi bo‘yicha birinchi davrga nisbatan ancha ustunligi seziladi. Mazkur davrda faol ravishda ishlangan va o‘rganilayotgan mavzular jumlasiga nazariy-uslubiy muammolar[734]; etnik tarixning umumiy hamda u yoki bu muayyan muammolari[735]; etnogenezning kulturogenetik masalalari[736]; etnogenezning

---

732 Лыкошин Н. С. Чапкуллукская волость Ходжентского уезда. Опыт исследования экономических и бытовых условий жизни ее населения // Справочная книжка Самаркандской области. VIII. Самарканд, 1906.

733 Qarang: Радлов В. В. Proben der Volkslitteratur der turkischen Stamme Südsibirien (Образцы народной литературы тюркских племен, живущих в Южной Сибири и Джунгарской степи), тексты и немецкий перевод; Т. 7. (1866–1896). Vergliechende Grammatik der nordlichen Turksprachen. Th. I. Phonetik (Сравнительная грамматика северных тюркских языков. Т. I. Фонетика). (1882–1883); Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, Ч. I. Санкт-Петербург: Типография Военно-Учебных Заведений, 1851. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, Ч. 2. Санкт-Петербург: Типография Военно-учебных заведений, 1851; Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Ч. 3. Ленинград: Изд-во Акад. наук СССР, 1953.

734 Бромлей Ю. В. Очерки теории этноса. М., 1953; Гафуров Б. Г., Литвинский Б. А. Узловые проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана (Теоретический аспект): Тезисы. М., 1976; Козинцев А. Г. Концепция общего сходства в антропологии // Современные проблемы и новые методы в антропологии. Л.,1980; Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековье (Теоретический аспект // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана: Туплам.-1-жуз. Общие проблемы. М., 1990.

735 Qarang, masalan: Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент, 1941; Жданко Т. А., Толстов С. П. Основные этапы этнической истории народов Средней Азии и Казахстана // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962; Кармышева Б. А. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (Этнографик маълумотлар буйича). М., 1976; Shu muallif. Shu asar. Тарих фан. докт. дисс... автореферати. М., 1977; Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии. М., 1976; Люшкевич Ф. Д. Особенности этнической истории и этнографических черт культуры таджикского населения Бухарского оазиса (XIX аср охири – XX аср боши). Тарих фан. номз. дисс.... автореферати. Л., 1976; Алексеев В. П., Басилов В. Н. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (Этнографик маълумотлар буйича ). М., 1976 ва б.

736 Qarang: Литвинский Б. А. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (Этномаданий муштараклик муаммолари) // Восточный Туркестан и Средняя Азия: Сборник. М., 1984;

tarixiy[737] va mintaqaviy jihatlari[738]; alohida etnik guruhlar, etnik va etnogenetik jarayonlar va aloqalar[739]; aholining etnik tarkibi[740]; antropologik va paleoantropologik[741], kraniologik[742] va dermatoglifik[743] masalalari; etnik turkografiya[744]; tilshunoslik hamda lingvistika[745] kiradi.

---

Массон В.М. Культурогенез и этногенез в Средней Азии и Казахстане // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана: Сборник. Ч.1. Общие проблемы. М., 1990.

[737] Qarang: Эрматов М. Этногенез и формирование предков узбекского народа. Ташкент, 1968; Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы//История и культура народов Средней Азии. М., 1975; Shu muallif. Этногенетические процессы в раннесредневековой Фергане // Проблемы археологии Евразии и Северной Америки. М., 1977 ва б.

[738] Qarang: Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Узбекистана и Таджикистана...; Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы...; Shu muallif. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии...; Люшкевич Ф.Д. Ko'rsatilgan asar; ва б.

[739] Qarang: Дубова Н. А. К проблеме формирования памиро-ферганской расы // СЭ. 1974. №4; Калоев Б. А. Этнографические данные о связях этногенеза осетин со Средней Азией // Вопросы иранской и общей филологии. Тбилиси, 1977; Литвинский Б. А. Этногенетические процессы в раннесредневековой Фергане // Проблемы археологии Евразии и Северной Америки. М., 1977; Исхаков Г. М., Решетов М. А., Седловская А.Н. Современные этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. М., 1980 ва б.

[740] Qarang: Инагамов Ш. И. Этнический состав населения и этнографическая карта Ферганской области в границах Узбекской ССР. Ташкент, 1955; Жданко Т.А. О типе этнических общностей с пережитками родоплеменной структуры в средней Азии и Казахстане (XIX – XX аср бошлари). М., 1973; Губаева С.С. этнический состав населения Ферганы в конце XIX - начале XX в. (топонимия маълумотлари бўйича). Ташкент,1983 ва б.

[741] Qarang: Шишов А. Ko'rsatilgan asar; Ошанин Л. В., Зезенкова В.Я. Этногенез народов Средней Азии в свете данных антропологии. Ташкент, 1953; Ошанин Л. В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов. Ереван, 1957-1959; Гинзбург В.В., Трофимова Т. А. Палеоантропология Средней Азии. М., 1972; Платонова Н.А . Антропологические исследования в Средней Азии // Новое в антропологических исследованиях (Этнография институтининг 1972 йилдаги дала ишларининг якунлари). М:, 1974; Пестряков А. А. Антропологические исследования групп населения Таджикистана и Узбекистана // СЭ. 1975. №1; Ройзензон Л. И., Бабаходжаев А. Антропонимические серии у узбеков Нураты // Труды Самаркандского госуниверситета. Самарканд, 1976. №. 37; Алексеев В. П., Аскаров А. А., Ходжайов Т. К. Историческая антропология Средней Азии (палеолит-антик давр). Ташкент, 1980; Ходжайов Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. Ташкент, 1980; Shu muallif. Динамика ареалов антропологических типов на территории Средней Азии (неолит-начало XX в.) // СЭ. 1983. №5 ва б.

[742] Qarang: Фирштейн Б. В. Материалы к краниологии узбеков Ташкента // КСИЭ АН СССР. М., 1951; Гинзбург В. В. Краниологическая характеристика узбеков (Тошкентдаги Шайхонтоҳур қабристони материаллари бўйича) // Труды Института этнографии АН СССР, 1963; Залкинд Н. Г. Краниологические материалы из древних кладбищ Самарканда // Труды Московского общества испытателей природы. М., 1964; Ходжайов Т. К. Краниология узбеков Южного Приаралья (Миздахкон) // СЭ. 1970. №4 ва б.

[743] Qarang: Григорьева Н. М. Дерматоглифика некоторых народов Средней Азии // Вопросы антропологии. 1967 ва б.

[744] Qarang: Абул Гази. Родословное древо тюрков: Хива хони Абул Гози асари / Г.С.Саблуков таржимаси ва сўзбошиси // Известия общества археологии, истории и этнографии при Казахском университете, 1908; Бернштам А. Н. Древние тюркские элементы в этногенезе Средней Азии // СЭ. 1948 ва б.

[745] Qarang: Батманов И. А. Вопросы классификации узбекских говоров // Проблемы языка. Ташкент, 1934; Баскаков Н. А. К вопросу о классификации тюркских языков // Известия АН СССР. Отделение литературы и языка. М., 1952; Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских товаров // Известия АН УзССР, 1953. №5; Щербак А. М. К истории образования узбекского национального языка // Вопросы языкознания. 1954. №6; Решетов В. В. Кураминские говоры Ташкентской области: Дисс. ... автореф. докт. фил. Ташкент, 1952; Shu muallif. О диалектической основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. 1955. №1; Абдуллаев Ф. Кипчакский говор узбекского языка (По материалам Янгикурганского района Наманганской области): Дисс. автореф. канд. фил. наук. Ташкент, 1957; Благова Г.Ф., Данияров Х. Д. Говоры «тюрков» Узбекистана в отношении к языку староузбекской литературы // Вопросы языкознания. 1966. №6; Севротян Э. В. Этимологический словарь тюркских

qayd etiladi. Bulardan ikkitasi janubiy Sibir va O‘rta Osiyo mongoloid irqiy tiplar va yana to‘rtta yevropeoid irqiy tip: Ikki daryo oralig‘i yoki Pomir-Farg‘ona irqiy tipi; O‘rta yer dengizi irqining sharqiy turi; Xuroson irqiy tipi va Old Osiyo (yoki armenoid) irqiy tipdan iboratdir. L. V. Oshaninning boshqa bir maqolasida mongoloid irqi belgilarning Ikki daryo oralig‘iga kirib kelishi hozirgi O‘zbekiston hududiga mo‘g‘ullarning kirib kelishi (III asr)dan ham oldin, xunnlar davri (mil. avv. II – mil. III asr)dan boshlangan, degan xulosaga kelingan.

L. V. Oshaninning O‘rta Osiyo aholisining antropologik tarkibiga bag‘ishlangan yirik monografiyasi O‘rta Osiyoning hozirgi zamon aholisining antropologik tadqiqotlari natijasidir. Asar O‘zbekistonda yashovchi qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek va tojiklarining antropologik tarkibi hamda etnogenezi; janubiy Tojikiston tojiklari va o‘zbek qabilalari, Yag‘nob, Yuqori Zarafshon, G‘arbiy Pomir va Qorategin tojiklari hamda Darvoz turkmanlariga bag‘ishlangan.

XX asrning 50-yillarigacha nashr etilgan ilmiy adabiyotlarga avvalo, mashhur sharqshunos olim, akademik V. V. Bartoldning asarlarini kiritish mumkin[758]. Olimning O‘rta Osiyo va qo‘shni Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati hamda aholisi to‘g‘risida to‘plangan ma’lumotlari, uning hozirgacha o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ilmiy merosini o‘zbek xalqi etnogenezi hamda etnik tarixi masalalarini o‘rganish borasidagi ahamiyatli ilk ilmiy manbalar deyish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, shu jumladan, etnogenezi va etnik tarixi bilan shug‘ullangan olimlar V. V. Bartoldning fors, arab, xitoy tillaridagi ko‘p sonli qo‘lyozma manbalardan foydalanib yaratilgan asarlarini hozirgacha chetlab o‘tolmaydilar, aksincha, o‘z tadqiqotlarini uning asarlarini o‘rganishdan boshlab, undagi ma’lumotlar bilan taqqoslaydilar. V. V. Bartoldning o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari yoritilgan 50 dan ortiq asarlarida ilk o‘rta asrlarda yashagan turkiy qabilalar hamda ularning hududiy joylashuvi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, olimning tadqiqotlarida o‘zbek xalqining shakllanish davri, qarluqlar va Qoraxoniylar davlati, o‘zbek, sart, chig‘atoy hamda boshqa urug‘ vakillari to‘g‘risida ilmiy mushohada hamda bahs-munozaralar yuritiladi.

---

[758] Qarang: Бартольд В. В. Образование империи Чингисхана / Записки Восточного отдела. Т. X. 1896; Очерк истории Семиречья / Памятная книжка Семиреченской области. Т. II. Верный, 1898; Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVII века. Ташкент, 1902; Отчет о командировке в Туркестан / Записки Восточного отдела Археологического Общества. Т. XV. 1902–1903; Историко-географический обзор Ирана. СПб., 1903; О некоторых восточных рукописях в библиотеках Константинополя и Каира / Записки Восточного Отдела. Т. XVIII. СПб., 1908 / Обзор деятельности факультета 1855–1905 годов / Материалы для истории факультета восточных языков. Т. IV. 1909; К истории Мерва Записки Восточного Отдела. Т. XIX. 1909; Персидская надпись на стене Анийской мечети Мануче / Анийская серия, 1911. №5; Из прошлого турок, 1917; Тюрки. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Культура мусульманства, 1918; История изучения Востока в Европе и России, 1925; Shu muallif. Иран: Исторический обзор. Ташкент, 1926; История культурной жизни Туркестана. Л., 1927; Киргизы: Исторический очерк. Фрунзе, 1927.

Boshqa bir qator rossiyalik olimlar ham XX asrning 40–50-yillarida O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalarini tadqiq qilgan. Masalan, A. A. Semyonov, A. N. Bernshtam, S. P. Tolstov, A. Yu. Yakubovskiy, L. N. Gumilyov va boshqa olimlarning asarlari yozma manbalardan tashqari, arxeologik qazilmalar hamda antropologik tadqiqotlar asosida yaratilganligi sababli o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi[759].

Ushbu asarlarda o'zbek xalqining ajdodlari qadim zamonlar buyon mintaqadagi mahalliy etnoslar asosida juda ko'p komponentlarning o'zaro aralashuvi natijasida davomli tarixiy jarayonlarda bosqichma-bosqich shakllanganligi qayd etiladi.

O'zbek xalqi etnogenezi to'g'risida o'sha davr uchun muhim asar yaratgan tadqiqotchi A. Yu. Yakubovskiy hisoblanadi. U 1941-yildan boshlab o'zbek xalqining shakllanishi masalasiga yangicha yondashuvni boshlab berdi. Muallifning "Ўзбек халқининг келиб чиқиши масаласи тўғрисида"[760] nomli asari nashrdan chiqqaniga 50 yildan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, hozirgacha o'zbek xalqi etnogenezi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar orasida o'z o'rniga ega. Muallif turli xil adabiyotlar, qo'lyozma manbalar va arxeologik ma'lumotlarni o'rgangan holda o'zining fikrlarini bayon qiladi.

A. Yu. Yakubovskiyning "Олтин Ўрда ва унинг қулаши" va "Ўзбек халқининг келиб чиқиши масаласи тўғрисида"[761] nomli asarlarida mo'g'ullar istilosi davri tarixiga to'xtalib, XIII asrdan boshlab Movarounnahrning Chig'atoy ulusi deb atalishi, mo'g'ullarning turkiy tilli aholining madaniy ta'sirini qabul qilish jarayoni, XV–XVI asrlarda esa ko'chmanchi o'zbeklar o'zbek xalqi tarkibiga so'nggi komponent sifatida qo'shilganlari va mahalliy xalqqa o'z nomlarini bergani to'g'risida fikr yuritiladi.

---

[759] Qarang: Семенов А. А. По границам Бухары и Афганистана (Путевые очерки 1898 г.). I. Куляб // Исторический вестник, 1902. №3; Бернштам А. Н. Жилище Крымского предгорья. Опыт социологического анализа // ИГАИМК, 1931. Т. 9. Вып. 67. Руническая надпись в уйгурской рукописи / Записки Института востоковедения АН СССР. 1939. Т. VII. С. 303–305; Социально-экономический строй орхоно-енисейских тюрок VI–VIII вв. Восточнотюркский каганат и кыргызы. М.–Л., 1946; Древнейшие тюркские элементы в этногенезе Средней Азии // СЭ. 1947. №6–7. С. 148–158; Толстов С. П. Древняя культура Узбекистана / АН СССР, Узбекистан. филиал. Ин-т языка, лит-ры и истории. Ташкент: Изд-во УзФАН, 1943; Shu muallif. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. М., 1948; Shu muallif. По следам древнехорезмийской цивилизации. М., 1948; Shu muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта / Институт этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. М., 1962; Тревер К.В., Якубовский А., Воронец М.Э. История народов Узбекистана. Т. 1. С древнейших времен до начала XVI века. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1960; Гумилев Л.Н. Политическая история первого тюркского каганата (546–659 гг.) / Тезисы на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Л., 1948; Shu muallif. Хунну: Срединная Азия в древние времена / АН СССР. Ин-вост. лит-ры. М., 1960; Shu muallif. Древние тюрки: История Срединной Азии на грани древности и Средневековья: (VI–VIII вв.): Дисс. на соиск. уч. степени доктора ист. наук. Л., 1935–1961.

[760] Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941

[761] Shu muallif. Ю. Золотая Орда (Очерк истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета в XIII–XIV вв.). Л., 1937 (1-е издание); Ташкент-Самарканд, 1940 (2-е издание); Л., 1941 (3-е издание). В соавторстве с Б.Д. Грековым.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi mavzusi bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar yaratgan sharqshunos olim A. A. Semyonov asarlarida o‘z aksini topgan. Olimning "Shayboniyxon o‘zbeklarining kelib chiqishi va ularning tarkibi masalasiga doir" maqolasida o‘zbeklar Oltin O‘rdadan kelib chiqmagan va ular o‘z nomlarini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxondan olganlari ham isbot qilinmagan, degan fikr ham ilgari suriladi. Mazkur muallif "o‘zbek" atamasining O‘zbekxondan ham oldin bo‘lganligini ta’kidlab, ushbu atamaning Oq O‘rdada paydo bo‘lganligi, O‘zbekxon esa ushbu davrda Ko‘k O‘rda (ya’ni, Oltin O‘rda)ning podshosi ekanligi va keyinchalik "o‘zbeklar" deb ataluvchi ko‘chmanchi qabilalar uning hukmronligi ostida bo‘lmaganligini qayd etadi[762].

O‘zbek xalqi etnogenezi va shakllanishi g‘oyat muhim hamda murakkab muammo sanalib, hamma vaqt olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Masalan, 1942-yil 27–29-avgust kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi muammosiga bag‘ishlangan nufuzli ilmiy anjuman o‘tkazilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining shakllanishi masalasi maxsus ko‘rib chiqilgan edi.

Jumladan, ushbu anjumanda S. P. Tolstov O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezining asosiy muammolari to‘g‘risida ma’ruza qilib, bir qator vazifalarni ilgari surgan edi. Olim barchani G‘arb tadqiqotchilarining metafizik nazariyalaridan voz kechishga undab, "har bir xalqning tarkibi uning boshlang‘ich davridanoq murakkab bo‘lganligi tan olingandagina etnogenetik muammolarni ilmiy asosda hal qilish mumkin bo‘ladi", – deb ta’kidlagan edi. Etnogenezning asosiy muammolarini hal qilishni esa dastlab xalq qaror topgan hududni tadqiq qilishdan boshlash kerak.

Mazkur yig‘ilishda "Antropologik dalillar asosida O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi" mavzusida ma’ruza qilgan antropolog L. V. Oshanin ko‘p yillar davomida O‘rta Osiyo xalqlarining antropologiyasini qiyosiy o‘rganish natijasida o‘zbek va tojiklar (qozoq hamda qirg‘izlarga qaraganda)da o‘ziga xos braxikefal yevropeoid irqiy tip mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Ushbu antropologik tipga L. V. Oshanin "O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqiy tipi" deb nom beradi[763]. Shuningdek, ushbu olim Movarounnahrda til jihatidan turkiylashish jarayoni bilan bir davrda tip jihatdan mo‘g‘ullashish jarayoni tojiklarga nisbatan o‘zbeklarda kuchliroq ifodalanganligini qayd etadi.

XX asrning 40–50-yillarida keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlarning olib borilishi, mahalliy xalqlar etnogenezi va etnik tarixiga bir qancha yangi ma’lumolar kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu dala tadqiqotlariga Xorazmda S. P. Tolstov, sug‘d-tojik tadqiqotlariga A. Yu. Yakubovskiy, Farg‘ona vodiysi va yettisuvda olib borgan arxeologik ekspeditsiyalarga A. N. Bernshtam rahbarlik qilgan. Ushbu olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida yig‘ilgan ma’lumotlarni ilmiy jihatdan umumlashtirish asosida O‘rta

---

762 История народов Узбекистана. Т. 2. Ташкент: Акад. наук УзССР, 1947.

763 Ошанин Л. В., Зезенкова В. Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии. Сборник статей. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953.

Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati va etnogeneziga bag'ishlangan jiddiy ilmiy asarlar yaratildi.

A. N. Bernshtam 1938–1941-yillarda yettisuv arxeologik ekspeditsiyasida qatnashdi va ushbu hudud yodgorliklarni tadqiq qildi. Xususan, hududdagi ikkita shahar – Bolosog'un va Sarig' xarobalarida qazishma ishlarni olib bordi. Arxeologik qidiruvlar natijalari "1941-yilda Chu vodiysining tog' etaklarida o'tkazilgan arxeologik qidiruvlar" nomli mavzu ostida to'plamda nashr etildi[764].

Arxeolog A. N. Bernshtam bir qancha qadimiy arxeologik yodgorliklarni o'rganish natijasida mil. avv. II ming yillikdan to milodiy XV asrgacha bo'lgan yodgorliklarni davrlashtirdi. Jumladan, uning "VI–VIII аср Ўрхун туркларининг ижтимоий-иқтисодий тузуми"[765] nomli asarida turklarning kelib chiqishi, qadimgi tarixi, O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining ijtimoiy tuzumi va xo'jaligi atroflicha yoritilgan. Muallif O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati, tarixi, san'ati, etnogenezi va numizmatikasiga oid 250 ga yaqin ilmiy asarlar yaratdi.

S. P. Tolstov Xorazm madaniyati va tarixi to'g'risida asarlar yaratar ekan, o'z fikrini yorqin maqolalar, xususan, xorazmlik olim, matematik va faylasuf Abu Rayhon Beruniyning nasl-nasabi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar keltirish bilan ham isbotlashga harakat qiladi. Mazkur olimning fikricha, Abu Rayhon Beruniy – xorazmlik, xorazmliklar esa o'zbek xalqi etnik tarkibini tashkil qiluvchi muhim komponentdir. Xorazmliklar o'zbeklarning qadimiy avlodlaridirlar, demak, o'zbek xalqining madaniy taraqqiyoti qadimiy xorazmliklarga bevosita bog'liqdir. Beruniy o'zidan keyingi asrlar davomida ham fanlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan olim, bu esa o'z navbatida, insoniyat madaniyati xazinasiga o'zbek xalqi ajdodlarining qo'shgan ulkan hissasidir.

S. P. Tolstovning asarlarida Qang' (Qanqa) podsholigi va qang'lilar muammosi ustida ham to'xtalinadi. Olim avval "Qang'yuy" atamasi "Авесто"dagi "Qang'yuy" nomining aynan o'zidir, unda Xorazm nomi yashirindir, degan bo'lsa, keyinroq Qang'ni to'g'ridan-to'g'ri Xorazm deb ataydi.

Shunday qilib, S. P. Tolstov uzoq yillar davomida olib borgan arxeologik izlanishlarning natijalari hamda ular asosida yaratgan asarlari bilan Xorazm o'lkasida qadim va o'rta asrlarda turg'un yashab kelgan aholining madaniyati yuksak darajaga ko'tarilganligi, xorazmliklar yirik sug'orish inshootlarini barpo etganligi, ushbu davrda Xorazmda dehqonchilik taraqqiy etganligi, xorazmliklarning o'z tili va yozuvi bo'lganligini yoritib berdi. Olimning tadqiqotlaridan xorazmlik o'zbeklar mana shu qadimgi aholining avlodlari

---

[764] Таласская долина ТСАЭ 1936-1938 гг. / Составлены под ред. проф. А. Н. Бернштама. Материалы и исследования по археологии. Казахской ССР. и Алма-Ата, 1949. Т. 1. С. 136–138; Бернштам А. Н. Чуйская долина. ТСАЭ. М.-Л., 1950. С. 68.

[765] Бернштам А.Н. Социально-экономический строй орхоно-енисейских тюрок VI-VIII вв. Восточнотюркский каганат и кыргызы. М.-Л., 1946.

ekanligi va ularning madaniyati o‘zbeklarning madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligi to‘g‘risida xulosa kelib chiqadi[766].

Moskvalik sharqshunos S. Kiselev 1946-yilda S. P. Tolstovning “Древняя культура Узбекистана”[767] (Ўзбекистоннинг қадимги маданияти) monografiyasiga taqrizida, ushbu asar, avvalo, uning birinchi –o‘zbeklarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi bo‘limining shak-shubhasiz, tahsinga loyiq ekanligini ta’kidlab, shunday yozgan edi: muallif “o‘zbek xalqi murakkab tarkibga egaligini ko‘rsatadi. Qadimgi sug‘dlar va xorazmliklar, ko‘chmanchi-massagetlar va saklar, turkiy kelib chiqishga ega bo‘lgan ko‘chmanchi qabilalar (VI–XIII asrlar) va nihoyat, Oltin O‘rda o‘zbeklari, qipchoqlar avlodlari ko‘plab asrlar mobaynida aralishb, o‘zbek xalqini vujudga keltirgan”[768].

1947–1948-yillarda M. M. Dyakonov[769] rahbarligidagi Kofirnihon arxeologik ekspeditsiya guruhi tomonidan Baqtriya tarkibiga kirgan, janubiy Tojikistonning Hisor tumanidagi To‘pxona deb nomlangan joydan 37 ta qabr ochilgan va ulardan olingan bosh suyaklarini o‘rgangan V. V. Ginzburg[770] qadimgi Baqtriya aholisining asosiy qismi O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i yevropeoid irqiy tip – braxikran (kalta bosh) tipidagi kishilar bo‘lganligi va irqiy jihatdan qo‘shni Sug‘diyonaning hozirgi aholisiga o‘xshashligini ta’kidlaydi. Bu esa tojik va o‘zbeklarning antropologik jihatdan o‘xshashliklari qadimgi davrlarda hosil bo‘lgan, degan xulosaga olib keladi. Bunday fikrni L. V. Oshanin va V. Ya. Zezenkovaning birgalikda yozilgan yuqorida qayd qilingan asarida ham uchratish mumkin. O‘zbek va tojiklarning uzoq asrlar davomida o‘zaro, aralashib yashab kelishlari O‘rta Osiyo hududlari (tog‘lik tojiklar bundan mustasno)da O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘idagi antropologik tip vujudga kelgan.

XX asrning 50-yillarida ham arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari asosida turli asarlar chop etilish jarayoni davom etdi. Masalan, 1958-yilda L. V. Oshanin asarining ikkinchi qismi nashrdan chiqdi[771]. Ushbu asarda L. V. Oshanin A. N. Bernshtamning Markaziy va Janubiy Qirg‘izistonda o‘tkazgan ekspeditsiyalarining natijalarini ham keltiradi. Ekspeditsiya natijasida o‘nta erkak va oltita ayol bosh suyaklari topilgan bo‘lib, A. N. Bernshtam ularni saklar va usunlar (mil. avv. VII asrlar)ga tegishli, deb hisoblaydi hamda ularning ham O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ining yevropeoid irqiy tipiga oid ekanligi

---

766 Ҳошимова Д. Ф. Ватан тарихшунослигида ўзбек халқининг этник тарихи ва этногенезининг ўрганилиши (XIX аср ўрталари – XX аср). Тарих фан.ном.дисс. ... Тошкент, 1997. 74-б.

767 Qarang: Толстов С. П. Ko‘rsatilgan asar. Тошкент, 1943.

768 Киселев С., Толстов С. П. Древняя культура узбекского народа // Вестник древней истории. М., 1946. 77. С.

769 *Михаил Михайлович Дьяконов (некролог)* // Вестник древней истории. 1954. № 3.

770 Список основных печатных работ В. В. Гинзбурга // Советская этнография. 1969. № 4. С. 191–194.

771 Ошанин Л. В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов. Часть 2. Ереван: Изд-во Ереванского университета, 1958. 148 с.

tasdiqlaydi. L. V. Oshanin antropolog T. A. Trofimovaning[772] Prjevalskiy qo‘rg‘onlaridan topilgan usunlarga tegishli bosh suyaklarini “O‘rta yer dengizining yevropeoid irqiga tegishli” deb, beshta braxikran bosh suyagini O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ining irqiga tegishli, deb hisoblashini qayd etadi.

O‘zbekistonda antropologiya fanining keyingi rivojida boshqa bir tadqiqotchilar – K. Najimov va T. Xodjayovlar katta hissa qo‘shdilar. 1958-yilda K. Najimovning “Сурхондарё ахолисининг антропологик таркиби” deb nomlangan asari nashrdan chiqdi. Ushbu asar muallifning 1950–1951-yillarda Surxondaryo viloyatida olib borgan tadqiqotlari va amaliy topilmalari asosida yozilgan.

O‘zbek xalqi etnogenezi muammolariga doir ilmiy izlanishlarga Iso Jabborov ham salmoqli hissa qo‘shgan. Olimning “Кўҳна харобалар сири (Қадимги Хоразм маданияти тарихидан лавҳалар)”[773] nomli kitobida XX asrning 50-yillarida Xorazm vohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya to‘g‘risida fikr yuritiladi. Unda afsonaviy o‘lka va jasur tadqiqotchilar, ko‘hna kanal va ariqlar, ibtidoiy kulbalar qoldiqlari va behisob shaharlar hamda qal’alar to‘g‘risida, shuningdek, Beruniy davri obidalari to‘g‘risida hikoya qilinadi.

Bu davrda ijod qilgan yana bir olim B. G‘. G‘afurov bo‘lib, 50-yillar boshlarida nashr etilgan “Тожик халқи тарихи” (История таджикского народа) номли китоби аҳамиятли[774]. Mazkur kitobning birinchi va ikkinchi nashrlarida o‘zbek xalqi etnogenezi masalasi bo‘yicha qisqacha fikrlar bayon qilingan bo‘lsa, olimning 1972-yilda Moskvada nashr etilgan kengaytirilgan kitobida ushbu masalaga alohida band ajratilgan[775].

B. G‘. G‘afurovning “Таджики. Древнейшая, древняя, средневековая история” asarida o‘zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi masalalari dastlabki kitobiga nisbatan to‘laroq yoritilgan. Muallif ushbu masalalarga quyidagicha yondashadi: turkiy tilli qabila va xalqlar O‘rta Osiyo mintaqalarida qadim zamonlardan buyon yashab kelgan, lekin ularning ushbu hududga ko‘chib kelishining kuchayishi VI asr (Turk xoqonligi davri)ga to‘g‘ri keladi. Ko‘chib kelgan chorvador aholi (xususan, uning qashshoqlashgan qismi) vaqtlar o‘tishi bilan o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Turkiy xalqlar so‘g‘diylar, xorazmliklar va sak-massagetlar bilan aralashadilar, mana shu shakllanayotgan elatning tili turkiy til bo‘lib qoladi hamda shu asosda o‘zbek xalqi shakllanadi.

---

[772] Трофимова Т. А. Антропологический тип насселения ананьинской культуры в Приуралье // Краткие сообщ. Ин-та истории материальной культуры. Вып. IX. М.: Изд-во АН СССР, 1941. С. 42–47; Shu muallif. Черепа из Луговского могильника ананьинской культуры // Ученые записки МГУ. М.: МГУ, 1941. Вып. 63. Антропология. С. 175–195; Shu muallif. Черепа из Никольского кладбища (к вопросу об изменчивости типа во времени) // Ученые записки МГУ. М.: МГУ, 1941. Вып. 63. Антропология. С. 197-235.; Shu muallif. Кривичи, вятичи и славянские племена Поднепровья по данным антропологии // Советская этнография. 1946. № 1. С. 91–136.

11. Этногенез татар Среднего Поволжья в свете данных антропологии // Советская этнография. 1946. № 3. С. 51-74.

[773] Жабборов И. М. Кўҳна харобалар сири. Тошкент, 1968.

[774] Гафуров Б. Г. История таджикского народа. М., 1952.

[775] Shu muallif. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. М., 1972. 664 с.

XI asrda o'zbek xalqining shakllanish jarayoni jadallashib, shimoliy viloyatlardan janubiy viloyatlarga tomon yo'nalib, xususan, Qoraxoniylar davlatining vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonning tobora kuchayib borishi natijasida turkiy tilda so'zlashuvchi aholi son jihatdan ko'paya boradi, pirovardida, o'zbek xalqining shakllanishini yanada tezlashtiradi. Muallif Somoniylar davrida turkiy xalqlar O'rta Osiyo vohalarida yashovchi aholining kattagina qismini tashkil qilishini ta'kidlaydi. Lekin, shu bilan bir qatorda, B. G'. G'afurov bu davrda shahar va qishloq aholisining anchagina qismi tojiklardlan iborat edi, deb hisoblaydi.

1950-yillarda O'zbekistonga qo'shni respublikalar mintaqalarida yashovchi o'zbeklar, chunonchi, o'zbek-loqaylar[776] va semiz hamda kesamir[777] o'zbek urug'lari etnografiyasi bo'yicha ko'plab asarlar paydo bo'ldi. Garchi, mazkur ishlar ushbu urug'lar misolida o'zbek xalqi etnogenezi muammolariga maxsus bag'ishlanmagan bo'lsa-da, ularda ana shu muammo bo'yicha ko'plab uzuq-yuluq ma'lumotlar keltirilgan.

XX asrning 60-yillarida S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov va M. E. Masson kabi yirik arxeologlarning davomchilari sifatida O'zbekiston qadimshunoslik faniga bir guruh arxeolog hamda antropologlar kirib keldi, ular o'zbek xalqi etnogenezi hamda etnik tarixini o'rganish ishiga munosib hissalarini qo'shdilar. Ana shunday olimlardan biri A. A. Asqarov[778] bo'lib, uning asarlari o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalarini o'rganishda ahamiyatlidir. Serqirra ilmiy faoliyat egasi bo'lgan ushbu olim, yurtimiz tarixi va madaniyatiga oid qator ilmiy asarlar yaratgan hamda o'z tadqiqotlari bilan O'zbekistonning qadimgi tarixi sohasida yangi yo'nalish yaratdi, deyish mumkin. Ushbu yo'nalish ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi, urbanizatsiya jarayonlarning boshlanishi va rivojlanishi davrlarini arxeologik manbalar asosida o'rganish bilan bog'liqdir.

Olimning Janubiy O'zbekiston hududlarida olib borgan uzoq yillik izlanishlari, arxeologik tadqiqotlari va topilmalari o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

---

[776] Qarang, masalan: Кармишева Б. Х. К вопросу о происхождении локайцев // СЭ. 1952. №4; Shu muallif. Узбски-локайцы Южного Таджикистана. Тожикистон ССР ФА Тарих, археология ва этнография институти асарлари. 1-жуз. (1-бўлим); Историко-этнографический очерк животноводства в дореволюционный период. Сталинабад, 1954.

[777] Qarang: Кармышева Б. Х. Сведения об узбекских родах "семиз" и "кесамир" // Тожикистон ССР ФА Тарих, археология ва этнография институти асарлари: А.А.Семёнов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган Урта Осиё халқлари тарихи ва философиясига оид мақолалар тўплами. Сталинобод, 1953. 99-110-бетлар.

[778] Аскаров А. А. Бронзовый век Южного Узбекистана. (К проблеме развития локальных очагов древновост. цивилизации): Автореф. дисс....д-ра ист. наук. М., 1976. 44 с.; Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. 231 с.; Поселение Кучуктепа. Ташкент: Фан, 1979. 112 с.; Джаркутан: (К пробл. протогор. цивилизации на юге Узбекистана). Ташкент: Фан, 1983; Алексеев В. П., Аскаров А. А., Ходжайов Т. К. Историческая антропология Средней Азии : (Палеолит - эпоха античности). Ташкент: Фан, 1990. 276 с.; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: O'zbekiston, 2015. 672 б.

A. Asqarov turkiy qabilalarning O'rta Osiyoda paydo bo'lishi Turk xoqonligi tashkil topishidan boshlanadi, degan tushunchaga yana bir bor to'xtalib, uni arxeologik va antropologik materiallarning yetishmasligidan kelib chiqqan xato tushunchadir, deb hisoblaydi. Aslida, turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar, olimning fikricha, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimda VI asrgacha ham mavjud edi. Bular qang'li, turgeshlar, Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi uyg'ur va boshqa etnoslar bo'lib, ularning tili turkiy tillar asosini tashkil etadi.

Arxeologlar, shuningdek, tarixchilar ham o'zbeklarning ajdodlari yaratgan qadimgi Qang' davlati va qang'lilar masalasiga qayta-qayta to'xtalib, uni atroflicha o'rgandilar va ushbu davlatning uzoq o'tmishida yuksak rivojlangan madaniyat o'chog'i bo'lganligi, qang'lilar esa hozirgi o'zbek xalqining uzoq ajdodlari ekanini isbotlab berdilar.

1976-yilda B. Karmishevaning Tojikiston va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi etnik tarkibining tarixiga bag'ishlangan monografiyasi nashr etildi[779]. Muallif Sharqiy Buxoroning XIX–XX asr boshlaridagi o'zbek aholisi to'g'risida so'z yuritib, uning quyidagi qatlamlarini ajratadi – urug'-qabila bo'linishlariga ega bo'lmagan (chig'atoy, xo'ja, qarshilik) o'troq aholi; ilk qabilalar, ya'ni Movarounnahrning mo'g'ullar istilosidan oldingi turkiy qabilalar hamda mo'g'ullar hukmronligi davridagi turk-mo'g'ul qabilalarining o'troq aholi o'rtasida qorishib ketmay, yarim ko'chmanchi hayot tarzi va urug'-qabila bo'linishlari (turkiylar, qarluqlar, xalachlar va boshqalar)ni saqlab qolgan qismining avlodlari; kechki qabilalar – Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga XV asr oxirlarida Shayboniyxon bilan birga kelgan va bu yerga, asosan, XVI asr boshlarida uzil-kesil joylashib olgan o'zbek qabilalarining avlodlari (qo'ng'irotlar, yuzlar, laqaylar, semizlar, kesamirlar, qataqonlar, do'rmonlar va boshqalar)[780].

B. Karmisheva ko'plab etnografik ma'lumotlarni jalb etgan holda o'rganilayotgan mintaqalardagi o'zbek aholisining shakllanishida turli tarkibiy qismlarning, mahalliy va boshqa guruhlarning ishtiroki jarayonini tahlil qiladi. Jumladan, muallifning ta'kidlashicha, tadqiq etilayotgan davrda Sharqiy Buxoroda ham tojik, ham o'zbek tilida so'zlashuvchi o'troq aholini chig'atoylar deb atashgan. B. Karmisheva "chig'atoy" atamasining kelib chiqishi va tadrijiy rivojlanishi to'g'risida so'z yuritar ekan, shunday yozadi: dastlab ushbu atama imtiyozli turkiy-mo'g'ul doiralarni, keyin Movarounnahr hamda Sharqiy Xuroson (XV asr)ning barcha turkiy tilli aholisi, yana keyinroq Temuriylarning Shayboniylar bilan kurashi davrida Movarounnahrning barcha aholisi, jumladan, turkiylar va tojiklarni anglatgan[781].

Muallif o'zbeklarning turkiylar, qarluqlar, xalachlar va hokazo singari ilk guruhlarining shakllanish jarayonini yorituvchi keng ko'lamdagi etnografik

---

779 Qarang: Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана...
780 Yuqoridagi asar... 66-б.
781 Shu joyda.125-b.

materialni keltiradi. Ko'rsatilgan qabilalarning tashkil topishida kelib chiqishi turlicha bo'lgan etnik elementlar va mahalliy guruhlar ishtirok etgan. Masalan, B. Karmisheva "turkiylarning o'zlari" deb atagan guruhlarning shakllanishida qirg'iz, jata, olako'z, barlos, qipchoq, sulduz, arg'in kabi guruhlar, shuningdek, o'zini Moscha, Qashqar, Qorako'l, Andijon va boshqa yerlardan kelib chiqqan, deb hisoblovchi aholi guruhlari ishtirok etgan. Muallif tomonidan ilk tarkibiy qismlarga kiritilgan boshqa qabilalarning tarkibi ham nihoyatda xilma-xil. Mazkur ma'lumotlar, umuman, turkiy qabilalar etnik tarkibining murakkab va rang-barangligidan dalolat beradi. Ularning shakllanishida faqat qadimgi va o'rta asr turkiy tilli elementlargina emas, balki o'rganilayotgan hamda uzoq mintaqalarning boshqa hududiy guruhlari ham ishtirok etgan.

B. Karmisheva, umuman, o'rganilayotgan muammoni chuqur tahlil qilganiga qaramay, ayni vaqtda, fikrimizcha, o'zbeklarning xalq sifatida shakllanishida bevosita ishtirok etgan mo'g'ul istilosidan oldingi davrning ilk qatlamlarini (qarluqlar, xalachlar) ajratib, "ilk qabilalar" tushunchasini darajalashtirishi lozim edi, buni muallifning o'zi ham inkor etmaydi[782].

I. Hidoyatov O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisining shakllanish muammosiga bag'ishlangan asarida ushbu hududlarda yashagan o'zbeklar kelib chiqishi jihatidan g'oyat xilma-xil bo'lganligini ta'kidlaydi. Mazkur mintaqalardagi o'zbek aholisi ikki guruhga bo'lingan qadimgi o'troq ziroatchilar avlodlari va urug'-qabilaga bo'linishga ega bo'lgan yarim ko'chmanchi aholi avlodlari. Bunda ikkinchi guruhdagi o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etgan[783].

O. K. Karayev ko'p yillar davomida Qoraxoniylar davlatining tarixini o'rganib kelmoqda. Ushbu muallifning ko'p yillik izlanishlarining natijalari bir qancha maqolalar va yirik monografiyasida batafsil yoritilgan. Olimning "Қорахонийлар хоконлиги тарихи" kitobi e'tiborga molik bo'lib, unda Markaziy Tangritog' (Tyan-Shan)da va yettisuvda ilk o'rta arlarda yashagan aholining joylashuvi hamda Qoraxoniylar davlatining tashkil topish jarayoni ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, Qoraxoniylar davlatining Janubiy Qozog'iston, Farg'ona va Movarounnahr hududlarini egallash tarixi, davlatning ichki hamda tashqi siyosati ham yoritilgan. Monografiyada Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, davlat tuzilishi, aholining xo'jalik faoliyati va moddiy hamda madaniy hayotiga ham katta e'tibor qaratilgan[784].

So'nggi vaqtlarda nashr etilgan asarlar jumlasiga A. Asqarovning asarlari, xususan, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixining nazariy va ilmiy-metodologik masalalariga oid maqolasini kiritish kerak[785]. Muallif ushbu masalani o'rganishda yangi ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari taklif

[782] Shu joyda. 187-b.

[783] Qarang: Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных регионов Узбекистана // Ўзбекистон халқлари маданияти тарихидан: Мақолалар тўплами. Тошкент: 1965. 125-б.

[784] Караев О. К. История Караханидского Каганата. Фрунзе, 1983.

[785] Qarang: Аскаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик асослари // O'zbekiston tarixi. 2002. №4. 54-60-бетлар.

etadi, ularni etnogenez va etnik tarixni tadqiq etish jarayonida qo‘llash muammoni to‘laqonli yoritishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda, A. Asqarovning fikricha, ularni etnograf, antropolog va arxeologlarning tadqiqotchilik faoliyatida qo‘llash o‘zbeklarning xalq sifatida vujudga kelish jarayoni xususiyatlarini har tomonlama hisobga olishni taqozo qiladi.

Shunisi aniqki, antropologik ma’lumotlar va tegishli tadqiqotlar xalqlar etnogenezi masalalarini o‘rganishning muhim tarixiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida tilga olingan asarlarning mualliflari antropologik masalalarni ko‘rib chiqar ekan, o‘zbek xalqi etnogenezi, uning shakllanish va rivojlanish jarayonini yaxlit tarzda ko‘rsatib berishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar.

XX asrning 60-yillardan boshlab O‘zbekistonda o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarix masalalariga bag‘ishlangan kitob, risolalar chop etilib, dissertatsiyalar himoya qilindi. M. Vahobov[786], T. Fayziyev[787], B. Ahmedov[788], K. Sh. Shoniyozov[789], M. Ermatov[790], X. Doniyorov[791], H. Ziyoyev[792] va boshqalarning ishlari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Jumladan, M. G‘. Vaxabovning o‘zbek va rus tillarida bosilib chiqqan kitobi “Ўзбек социалистик миллати” deb ataladi[793]. Unda asosiy masala o‘zbek “sotsialistik” millatining masalasi ustida borsa-da, asarning bitta bobi “O‘zbek elati va uning etnik tarkibi” deb atalib, asosan, o‘zbek xalqining shakllanishiga oid masalalarga bag‘ishlangan.

B. Ahmedovning “Кўчманчи ўзбеклар”[794] asarida o‘zbek xalqi etnik tarixi xususidagi muammolardan biri – ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatining tashkil topishi, XI–XVI asrlardagi o‘zbek davlatchiligining siyosiy-ijtimoiy tarixi fors-arab qo‘lyozma manbalari, rus va Yevropa olimlarining asarlariga tayangan holda yoritilgan. Ushbu asarda ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatining Abulxayrxon davridagi ahvoli, davlat tuzumi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va ularning Temuriylar bilan o‘zaro aloqalariga doir masalalar mufassal yoritilgan.

H. Ziyoyevning “Сибирлик ўзбеклар (XVI–XX аср бошлари)”[795] nomli kitobida Uraldan to Enasoy daryosigacha va bu yerdan Tinch okeangacha cho‘zilgan Sibir yerlarida turli tarixiy davrlarda yashagan xalqlar, ushbu

---

786 Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. Тошкент, 1960.
787 Файзиев Т. Узбеки-курама (в прошлом и настоящем). Дисс. ... на соис. канд. ист. наук. Ташкент, 1963.
788 Аҳмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиши. Тошкент, 1964; Shu muallif. Государство кочевых узбеков. М.: Наука, 1965. 180 с.
789 Шаниёзов К. Узбеки-карлуки. Ташкент, 1964.
790 Эрматов М. Этногенез и формирование узбекского народа. Ташкент, 1968.
791 Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Тошкент, 1968.
792 Зияев Х.З. Узбеки в Сибири (XVII - XIX вв.) Ташкент: Фан, 1968. 73 с.
793 Ваҳобов М. Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент: Госиздат УзбССР, 1961.
794 Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. М.: Наука, 1965. 180 с.
795 Зияев Х.З. Узбеки в Сибири (XVII - XIX вв.) Ташкент: Фан, 1968. С. 12-68.

hududda vujudga kelgan davlatlar, Oltin O'rda to'g'risidagi qiziqarli tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Muallifning yozishicha, dastlab Oltin O'rdada tashkil topgan O'zbek davlati XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O'rta Osiyoda hukmronlik qiladi. XV asrning oxirlarida Sibirda ham mustaqil xonlik vujudga kelib, uni Shayboniylar xonadonidan bo'lgan o'zbek sultonlari boshqaradi. Hududlari g'arbda Yoyiq tog'larigacha, shimolda – Tavda daryosi, janubda – Ishim dashtlari va Bebarin dashtlarigacha cho'zilgan mazkur xonlik Kuchumxon davrida nihoyatda kuchaygan edi.

Tadqiqotchi X. Doniyorovning ilmiy izlanishlarida o'zbek xalqning kelib chiqishi masalasi lingvistik nuqtai-nazardan o'rganilgan[796] va muallif o'zbek shevasini tahlil qilish natijasida uni bir nechta guruhlarni ajratib ko'rsatgan. Masalan, o'g'uz-o'zbek, turk-o'zbek va qipchoq-o'zbek. Olimning ilmiy izlanishlari o'zbek xalqi tarixini o'rganishda tub burilish yasamagan bo'lsa ham, etnogenez masalasi bo'yicha tadqiqotlar rivojiga hissa qo'shgan, deyish mumkin.

M. Ermatovning asarlari o'zbek xalqi etnogenezi masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. 1968-yilda chop etilgan ushbu asarlar masalaning qo'yilishi va yechimi jihatdan ancha munozaralidir[797]. Jumladan, "Ўзбек номининг келиб чиқиши масаласига доир" nomli maqolasida muallif O'rxun tosh bitiklaridagi "o'z" hamda forsiy manbalarda uchraydigan "az" etnonimlarining ikkalasini bitta xalqning nomi deb qarab, "o'zbek" atamasi undan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari suradi. Mazkur olimning fikricha, "o'zbek xalqining dastlabki etnik elementi uzoq qadimda ibtidoiy-quldorlik jamiyati davrida vujudga kelgan. Antik, fors-mixxat (Зенд- Авесто) va undan keyingi manbalarning shohidlik berishicha, Markaziy Osiyoning yarim ko'chmanchi, ko'chmanchi qabilalari ilk shunday etnik elementlardan bo'lgan..."[798]. Keltirilgan iqtibosdan ko'rinib turibdiki, muallif ibtidoiy va quldorlik jamiyatlarini bir butun, deb qaraydi. M. Ermatovning fikriga zid o'laroq, fors-mixxat yozuvlar, haqiqatda, Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron xalqlari to'g'risidagi ilk yozma manba – "Авесто" matnlari emas.

Tadqiqotchi qadimgi olimlarning xabarlaridan aniq dalil keltirmay shunday yozadi: "arxeologik, antik va fors-arab manbalari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston hududida muzlik davridayoq, ya'ni to'rtlamchi davrda odam yashagan..."[799]. Biroq, ko'rsatilgan manbalarda bunday ma'lumotlar mavjud emas.

M. Ermatov "sak xalqi jasur, epchil, dovyurak, halol va matonatli" ekanligi to'g'risida so'z yuritar ekan, asosli bo'lmagan shunday xulosa

796 Дониёров Х. Узбек халқининг шажара ва шевалари. Тошкент, 1968. 94-96-бетлар.
797 Эрматов М. Этногенез и формирование узбекского народа. Ташкент, 1968.
798 Shu joyda. 9-б.
799 Shu joyda.

chiqaradi: “Keltirilgan dalillar saklarning Markaziy Osiyo, xususan, o‘zbek xalqi ajdodlariga etnik mansubligini belgilovchi ishora bo‘lib xizmat qiladi”[800].

Mazkur olim Klavdiy Ellionning agar sak uylanmoqchi bo‘lsa, u qiz bilan kurash tushishi lozim edi, agar g‘olib kelsa, u shu qizning eri bo‘lib qoladi, aks holda, uning quliga aylanadi, degan ma’lumotini keltiradi. Muallif ushbu ma’lumotni saklar o‘zbeklarning ajdodlari bo‘lganligi va o‘zbeklarda ham qadimda shunga o‘xshash odatga amal qilinganini isbotlovchi dalil sifatida keltiradi[801]. Biroq, bunday odatlar boshqa ko‘pgina xalqlarda ham bo‘lgan. Binobarin, M. Ermatovning ushbu “dalili” mohiyat-e’tibori bilan xato va u bunday xulosalar uchun asos bo‘la olmaydi.

Ayni vaqtda, M. Ermatov goh Sug‘diyona aholisining etnik bir xilligi, goh uning har xil ekanligi to‘g‘risida so‘z yuritib, o‘z-o‘ziga zid fikr bildiradi. U Surxondaryoni Baktriyaga emas, balki Sug‘dga kiritadi, Teshiktosh, Omonqo‘ton va Tolibarzni bir davrga mansub, deb hisoblaydi[802]. Aslida, Teshiktosh va Omonqo‘ton paleolit davri, Tolibarz esa milodning dastlabki asrlari, ya’ni rivojlangan quldorlik jamiyatiga mansub.

Sug‘diylar qadimdan turkiy tilda so‘zlashganligini ta’kidlar ekan, bunda muallif V. V. Bartolddan[803] dalil keltirib, uning bildirgan fikrining mazmunini buzib yuboradi. V. V. Bartold, jumladan shunday yozgan edi: “Sug‘diylar fors tilini qabul qilgan va tojikka aylangan; yettisuvda, ehtimol, boshqa yerlarda ham ular turkiylashgan”[804]. M. Ermatov V. Bartold bildirgan fikrning ikkinchi qismini tushirib qoldirib, birinchi qism asosida shunday xulosa chiqaradi: “sug‘diylarning muayyan qismi bir vaqtlar eroniylar bo‘lgan va fors tilida emas, balki qadimiy turkiy tilda so‘zlashgan”[805].

Muallifning bunday pala-partishliligi, ochiqroq qilib ifodalaganda, manbalarni o‘z holicha talqin qilishi jumlasiga M. Ermatovning N. Bichurin fikrlariga bergan sharhlarni ham kiritish mumkin. M. Ermatov mazkur muallifdan dalil keltirib yozadi: “Manbada shunday qayd etilgan: “Kichik Kanguy hukmdori tasarrufidagi Yuegyan shahri yeri qadimiydir, uning hukmdorining qarorgohi faqat “Uztdobeychje” shahridadir. Ehtimol, “Uztdobeychje” atamasi IX–XI asrlardagi o‘rta asr manbalarida, xususan, Mahmud Koshqariy asarlarida tilga olingan “Uzkent”ning buzilgan shaklidir”. Va yana: “Manbada “Uztdobeychje” atamasi mavjudligi “o‘zbak” yoki “o‘zbek” o‘rta asr (XI–XII asrlar) atamalariga bevosita taalluqli”[806]. Haqiqatda esa, N. Bichurin o‘z asarida shunday deydi: “Mazkur Yuegyan shahrining qadimgi

---

[800] Shu joyda. 39-б.
[801] Shu joyda. 39-40-бетлар.
[802] Qarang: Эрматов М. Этногенез и формирование узбекского народа... С.80.
[803] Qarang: Бартольд В.В. К вопросу о языках согдийском и тохарском. Л., 1927.
[804] Shu joyda. 38-б.
[805] Эрматов М. Ko‘rsatilgan asar. 77-б.
[806] Shu joyda. 65-б.

yerlari kichik Kangyuy hukmdoriga qarashli. Hukmdor qarorgohi Szidobeychji shahrida"[807]. Shunday qilib, M. Ermatov N.Bichurin fikrini buzib ko'rsatgan.

Turli mualliflarning asarlaridan keltirilgan iqtiboslarni tekshirib ko'rish juda mushkul yoki umuman tekshirib bo'lmaydi, chunki M. Ermatov keltirgan iqtiboslar u dalil qilib ko'rsatgan sahifalarda umuman yo'q[808]. Xorijiy olimlar asarlarining nomlari, odatda, buzib ko'rsatilgan va ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan[809]. Xullas, M. Ermatovning asarini bugungi kunda puxta tayyorlangan, zamon talablariga javob bera oladigan tadqiqotlar sirasiga kiritib bo'lmaydi.

Ushbu fikr M. Ermatovning boshqa ayrim asarlariga[810] ham taalluqli. Jumladan, tadqiqotchi "o'zbek" nomining kelib chiqishi to'g'risida so'z yuritar ekan, o'rxun yozuvlari va forsiy zabon mualliflarning asarlari (Abu Zayd Saxlux Balxi, X asr "Худуд ул-олам" asarining noma'lum muallifi, Gardiziy va boshqalar)da tilga olingan "az" etnonimi go'yoki "o'z" atamasi bilan bir xil, degan yanglish fikrga kelgan[811]. M. Ermatov "o'zbek" atamasi aynan ana shu etnonimlardan kelib chiqqanligini isbotlashga harakat qilgan.

K. Sh. Shoniyozovning fikricha, "ushbu atamalarning "o'zbek" atamasiga mutlaqo aloqasi yo'q. To'g'ri, azlar turk tosh yozuvli yodgorliklar, jumladan, To'nyuquq va Mogilyan xonlari sharafiga qo'yilgan shunday obidalarda tilga olingan. Biroq, ushbu yodgorliklarda biz "o'z" etnonimini ko'rmaymiz"[812].

M. Ermatov ikki mustaqil qabila yoki qabilalar birlashmalarining nomlari – "az" va "o'z" etnonimlarini chalkashtirib yuborgan. Azlar milodiy VIII asrning 50–60-yillarida turgashlar tarkibiga kirgan, ular bular bilan milodiy VIII asrning birinchi yarmida qo'shilgan. Shunga qadar azlar Shimoli-g'arbiy Mo'g'ulistonda yashashgan, bu haqda L. Gumilev guvohlik bergan[813], shuningdek, hozirgi Tuva hududida[814] ham istiqomat qilib, tele uyushmasi tarkibiga kirgan. Keyinchalik azlar qozoq, qirg'iz va o'zbek xalqlari tarkibiga kirgan[815] (masalan, Samarqand viloyatining g'arbiy tumanlarida joylashgan saroy o'zbek qabilasi tarkibida azlar urug'lari – az va jamiazlar bo'lgan[816]). Uzlar masalasida shuni qayd etish kerakki, K. Sh. Shoniyozov ta'kidlaganidek, ular "o'tmishda mustaqil qabila bo'lgan va ularni tork, pecheneg, qipchoq, o'g'uz va azalar bilan bir xil, deb qarab bo'lmaydi. "Az" va "o'z" etnonimlari o'zbeklar tarkibiga mustaqil etnik birliklar tarzida kirgan. Bundan tashqari,

---

[807] Бичурин Н. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., 1950. 315-бет

[808] Qarang: Эрматов М. Ko'rsatilgan asar. 192, 187-189-бетлар.

[809] Qarang: Shu joyda. Масалан, 189-б., 103-105-бетлар ва ҳ. изоҳлар.

[810] Qarang: Эрматов М. К вопросу о происхождении названия "узбек" // Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтининг илмий асарлари. Ташкент, 1964. С.49.

[811] Qarang: Shu joyda. 154-155-бетлар.

[812] Шониёзов К. Узы. (Ўзбекларнинг уруғ-қабила бўлинишлари тарихидан) // ОНУ. 1970. №4. С.70.

[813] Qarang: Гумилев Л. Н. Древние тюрки. М., 1967. С. 259.

[814] История Тувы. М., 1964. Ч.1. С.81.

[815] Qarang: Бартольд. Асарлар. IV ж. 1-қисм. 484, 485, 504, 505-бетлар.

[816] Qarang: Шониёзов К. Ш. Узы. Из истории родоплеменных делений узбеков) // ОНУ. 1970. №2. С. 71.

ushbu etnonimlar bir qator Sibir xalqlari tarkibida ham qayd etilgan. Binobarin, bundan uzoq o‘tmishda az va o‘zlar alohida qabilalar bo‘lgan”[817], degan xulosaga kelish mumkin.

O‘zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligi taraqqiyotida K. Sh. Shoniyozovning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Uning o‘zbek xalqi etnik tarkibiga kiruvchi qipchoq komponentini ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan monografiyasida[818] mazkur qabila etnik tarixining asosiy bosqichlari, ularning kelib chiqishi va tarqalishi, o‘zbek xalqi bilan birlashish yo‘llarini ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan va yoritib berilgan.

K. Sh. Shoniyozov o‘zbek xalqi etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixini maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator maqola, monografiya hamda ilmiy asarlar muallifi sifatida mashhur[819]. Muallifning Qang‘ davlatiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘zbek xalqi etnik tarixida muhim rol o‘ynagan va uzoq o‘tmishda O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan davlat tarixi har tomonlama tahlil qilinadi. Ushbu asarning ilmiy ahamiyati uning Qang‘ davlati to‘g‘risidagi birinchi chuqur ilmiy tadqiqot ekanligi bilan bog‘liqdir. Antik adabiyot va o‘rta asr Sharq qo‘lyozma tarixiy asarlarida Qang‘ davlati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning uzuq-yuluq bo‘lganligi hisobga olinsa hamda O‘rta Osiyoning qadimgi tarixini yozgan olimlarning aniq bir to‘xtamga ega bo‘lmaganligi nazarda tutilsa, Karim Shoniyozovning monografiyasi va muallifning ilmiy yutug‘i ma’lum bo‘ladi.

K. Sh. Shoniyozov o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini o‘zbek xalqi etnik tarixining o‘rta asr qipchoqlari[820] etnogenezidagi ishtirokiga oid ayrim jihatlarni tadqiq etish bilan cheklaganligiga qaramay, uning ilmiy izlanishlari doirasi ancha keng. Ular, umuman qipchoq etnosi bilan bog‘liq tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda etnik masalalar majmuasining barcha jihatlarini o‘z ichiga qamraydi.

Olimning so‘rov yo‘li bilan olingan dala materiallari hamda 1961–1971-yillardagi ekspeditsiya ishlari jarayonida olib borgan shaxsiy kuzatuv natijalari etnografik ma’lumotlarning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan. Muallif, shuningdek, ko‘plab tarix, arxeologiya, lingvistika, antropologiya, folklor va boshqa sohalarga oid keng ko‘lamdagi manbalar hamda adabiyotlarni jalb etdi.

K. Sh. Shoniyozov X–XIII asrlarda qipchoqlar Sharqiy Yevropa, Qozog‘iston dashtlari hamda Markaziy Osiyoning siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatib bergan. Qipchoq birlashmalari muttasil janglar olib borib, o‘zga yerlarni bosib olgan va o‘zlarining chorva xo‘jaliklarini

---

[817] Shu joyda. 73-b.

[818] Qarang: Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа...

[819] Шаниёзов К. Ш. Узбеки-карлуки. Ташкент, 1964; Shu muallif. Узы (Из истории родоплеменных делений узбеков) // ОНУ. 1970. № 2; Shu muallif. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). Ташкент, 1975; Shu muallif. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. М., 1980 ва б.

[820] Qarang: Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа... С. 13.

eng yaxshi o'tloqlar bilan ta'minlashdi. Muallif ko'chmanchilarning qo'shni qabilalar va xalqlar yurtiga hujumlari feodal aslzodalarning boyish manbai bo'lib xizmat qilganligini ishonchli tarzda isbotlagan. Tadqiqot ma'lumotlari o'sha davrda qipchoq birlashmalarining etnik tarkibi nihoyatda xilma-xil bo'lganligini ko'rsatadi. Ana shu birlashmalarga ilgarigi ayrim etnosiyosiy birlashmalarning qoldiqlari (pecheneglar, qang'lar, kimaklar, o'g'uzlar, uzlar va boshqalar), shu jumladan, noturkiy elementlar (masalan, fin-ugor) ham kirgan. Ularning ko'pchiligi X–XII asrlarda asta-sekin qipchoqlarga qo'shilib ketgan yoki ularga tobe bo'lib yashagan[821].

X–XVI asrlarda o'zbeklar etnogenezida qipchoqlarning ikki guruhi: X–XI asrlardayoq Movarounnahr va Xorazm aholisi bilan aloqada bo'lgan sharqiy (yoki Sirdaryo bo'yi) qipchoqlar va XIV asr oxirida va qisman, XV–XVI asrlarda o'zbeklarning etnik doirasiga kirib, boshqa urug'-qabila birlashmalari bilan bir qatorda o'zbek xalqi etnogenezida eng kechki tarkibiy qismni tashkil etgan g'arbiy (yoki Sharqiy Yevropa) qipchoqlar[822] ishtirok etganligini asosli ravishda isbotlaydi.

K. Sh. Shoniyozov mavjud daliliy materiallarni tahlil qilib, qipchoqlar XIX–XX asr boshlarida turli urug', qabila va qabila birlashmalari qismlarining aralashmalaridan iborat bo'lgan, degan xulosaga keladi. Ularning tarkibida turli etnik birliklarga mansub bo'lgan qadimgi va o'rta asr elementlari ko'zga tashlanadi[823].

Muallif etnografik materiallarni chuqur tahlil etish asnosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistondagi asosiy qipchoqlar ommasini o'troq ziroatchilar tashkil qilganini qayd etadi[824]. Muallifning to'g'ri ta'kidlashicha, etnik birlashuv jarayoni o'zbek xalqi ayrim gruppalarining xo'jalik faoliyati va iqtisodiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan.

K. Sh. Shoniyozovning monografiyasi, albatta, ayrim kamchilik va xatolardan xoli emas. Chunonchi, qipchoqlarning ijtimoiy hamda oila munosabatlarining barcha jihatlarini muallif bir xil tarzda chuqur va mufassal yoritilmagan, islomdan oldingi diniy e'tiqodlarga juda kam o'rin ajratilgan. Erkaklarning odatiy yig'in va uchrashuvlari – to'kma, jo'ra, gap, yig'in va hokazolari to'g'risida deyarli hech qanday ma'lumot berilmagan.

K. Sh. Shoniyozovning boshqa bir monografiyasi o'zbek-qarluqlarni tarixiy-etnografik o'rganishga bag'ishlangan[825]. Muallif qarluqlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan katta miqdordagi manbalardan foydalanib qarluqlar tarixini asosli tadqiq etdi va ushbu etnos Markaziy Osiyo tarixida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib berdi. K. Sh. Shoniyozov qarluq qabilalari Farg'ona vodiysi va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga tarqalganligi,

---

[821] Shu joyda. 60-61-бетлар.
[822] Shu joyda. 336-337-бетлар.
[823] Shu joyda. 156-б..
[824] Shu joyda. 213-215-бетлар.
[825] Шаниязов К. Ш. Узбеки–карлуки (историко-этнографический очерк)...

Toxariston va unga qo'shni viloyatlarga joylashganligini bayon etadi. Tadqiqotchi to'g'ri ta'kidlaganidek, "qarluqlar X asrga kelib faqat Toxaristonnigina emas, balki hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqidagi ulkan hududlarni ham egallaganlar", "ko'chmanchi qarluqlar egallagan hududlar Hindistonning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlari, ya'ni Kashmir va Peshovarga qadar yetib borgan"[826]. Muallifning yangi hududlarga kelib o'rnashgan aholi o'troq yerli aholi bilan qorishib, Shimoliy Hindistonning qadimiy madaniyatini o'zlashtirganligi[827] to'g'risidagi fikrlariga qo'shilmay bo'lmaydi.

K. Sh. Shoniyozov "Ўзбек халқи этногенезида қарлуқ компонентининг роли тўғрисида" maqolasida ta'kidlaydiki, XI asrning birinchi yarmida shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan o'zbek xalqi etnogenezida qarluqlar muhim rol o'ynagan. Shakllangan o'zbek xalqining taraqqiysi rivojlangan va quyi feodal jamiyati davrida kechgan[828].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qarluqlar tarixi, ularning o'zbek xalqining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rnini O'zbekistonning tarixiy o'tmishini yangicha qarash hamda baholashlar nuqtai nazardan o'rganish bilan bog'liq masalalar K. Sh. Shoniyozovning ilgari amalga oshirgan o'z tadqiqotlari asosida tayyorlangan "Қарлуқ давлати ва қарлуқлар" monografiyasida o'z aksini topgan[829].

## Mustaqillik davrida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganilishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat o'zbek xalqi etnogenezi, shu bilan birga, uning etnik tarix masalalari ham arxeologik va antropologik tadqiqotlar asosida chuqur o'rganildi. O'zbek antropologlarning ilmiy izlanishlari o'zbeklar etnogenezi masalasini yanada boyitdi va tarixchi, etnograf hamda arxeologlarning tadqiqotlaridagi xulosalarning haqqoniyligini isbotladi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi mavzusiga oid ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda ayrim jamoaviy tadqiqotlar[830] mavjud.

Bundan tashqari, o'zbek xalqining etnik tarixi muammosi hozirgi zamon chet el tadqiqotchilarining[831] diqqat markazida bo'lib qolmoqdaki, mamlakatimiz tarixshunosligi ham uni nazaridan chetda qoldira olmaydi.

[826] Shu joyda. 28-б.
[827] Shu joyda. 29-б.
[828] Шониёзов К.Ш. Кўрсатилган мақола // ЎИФ. 1981. №6. 35-б.
[829] Шониёзов К. Ш. Ko'rsatilgan asar. Тошкент, 1999. 191-б.
[830] Асқаров А. А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОНУ. 1997. №3-4; Шевяков А. И. О статье доктора Дж. Шоберлайна-Энгела "Перспективы становления национального самосознания узбеков" // Восток. 1998. №6.
[831] Шоберлайн – Энгел Джон. Перспективы становления национального самосознания узбеков // Восток. 1997. №3. С. 52-63.

To‘g‘ri, so‘nggi vaqtlarda xorijda nashr etilayotgan ayrim asarlar ko‘pincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arazli, ba’zi hollarda esa kamsituvchi xarakterga ega[832]. Jumladan, amerikalik tadqiqotchi J. Shoberlaynning maqolasi Markaziy Osiyoda milliy tiklanish jarayonini anglashga bag‘ishlangan. Olimning asosiy fikri shundan iboratki, go‘yoki Markaziy Osiyo jamiyatining anchagina poyma-poy va murakkab etnik tuzilishi XX asrda bolsheviklar tomonidan sun’iy ravishda soddalashtirilgan milliy bo‘linishga almashtirilgan. Uning fikricha, sovet hukumati “o‘zbek o‘z-o‘zini anglashining bir xilligini ta’minlash” hamda “rasmiy madaniyatni zo‘rlab qabul qildirish”ga[833] intilgan.

O‘z navbatida, o‘zbekistonlik tadqiqotchi A. I. Shevyakov Shoberlaynga javob berar ekan, shunday ta’kidlaydi: ayniqsa, O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida biron marta zo‘rlab qabul qildirish ro‘y bermagan. O‘zini anglash ko‘pdan buyon mavjud, bordiyu, ayrim guruhlarning assimilyatsiyalashuv jarayoni ro‘y bergan bo‘lsa, ushbu jarayon ixtiyoriy asosda kechgan[834].

J. Shoberlaynning maqolasi va unga A. Shevyakov bergan javoblarni tahlil qilgan rossiyalik tadqiqotchi S. Abashin shunday ta’kidlaydi: o‘zbek xalqi etnogenezi mavzusi yuzasidan ular o‘rtasidagi munozara Shoberlayn hamda Shevyakov so‘z yuritayotgan aholi guruhlari yoki toifalari bilan tugallanmaydi: “Ular jumlasiga yana: turkiylar, quramalar, chig‘atoylar, qarluqlar, qoraxitoylar, loqaylar, galchlar, qalmiqlar, arablar, uyg‘urlar, “Pomir atrofi xalqlari” va hokazolarni kiritish mumkin. Qayd etilgan guruhlardan har biri, - deb yozadi S. Abashin, - alohida e’tiborga loyiq. Biroq, Markaziy Osiyo aholisining amerikalik va o‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan tilga olingan guruh yoki toifalari Markaziy Osiyo jamiyati o‘z-o‘zini anglashning eng xarakterli tiplarini namoyon etadi[835].

Jumladan, qipchoqlar xususida Shoberlayn shunday yozadi: ular “bugungi kunga qadar alohida etnik guruhdan iborat bo‘lib, mintaqa aholisining anchagina qismini tashkil etadi”[836]. Biroq, amerikalik tadqiqotchining ta’kidlashicha, XX asrda qichpoqlar sun’iy ravishda o‘zbek millati tarkibiga kiritilgan. Go‘yoki, “sovet etnograflari aholi ro‘yxati natijalarini soxtalashtirish buyurilgan yo‘riqnomalar tuzishga yordamlashgan, shuning natijasida olingan raqamlar voqelikni to‘g‘ri aks ettirmaydi”[837].

Bunda J. Shoberlayn Ya. Vinnikovning asariga[838] ilova qiladi. Mazkur asarda jumladan, shunday deyilgan: “Sotsialistik tuzum sharoitida aholi barcha guruhlarining to‘la teng huquqliligi asosida, tabiiy va ixtiyoriy ravishda,

---

832 Шоберлайн–Энгел Ж. Ko‘rsatilgan asar. ...
833 Шоберлайн – Энгел Джон. Перспективы становления национального самосознания узбеков... С.61.
834 Qarang: Шевяков А.И. Ko‘rsatilgan asar. 210-б.
835 Абашин С.Н. О самосознании народов Средней Азии (Как Александр Игоревич поспорил С.Джоном) // Восток. 1999. №4. С. 208.
836 Шоберлайн–Энгел Дж. Ko‘rsatilgan asar. 56-б.
837 Shu joyda. 57-б.
838 Qarang: Винников Я. Р. Изменения в этнической географии Средней Азии. 1913-1959 йиллар. М., 1964.

tashqaridan biron-bir bosim o‘tkazmay ko‘plab kichik xalqlar va etnografik guruhlarning etnik yaqinlashuvi va qo‘shilib ketishiga ko‘plab misol keltirish mumkin” (1920 va 1926-yillardagi aholi ro‘yxatlari ko‘zda tutilgan)[839]. To‘g‘ri, Ya. Vinnikovning fikrlari mohiyatiga ko‘ra, muayyan davrning mafkuraviy ifodasidir. Biroq, J. Shoberlayn sovet etnograflari qandaydir yo‘riqnomalar tuzganliklari to‘g‘risidagi “dalil”ni qaerdan olganligini tushunib bo‘lmaydi.

A. Shevyakov Shoberlaynning qipchoqlar “alohida etnik guruh”, u go‘yoki “sun’iy ravishda o‘zbeklar qatoriga kiritib qo‘yilgan” degan fikrga qarshi chiqadi. U amerikalik muallif keltirgan statistik ma’lumotlarni shubha ostiga olib, “bunday ma’lumot manbaiga ilova yo‘q”[840]ligini ta’kidlaydi. O‘z navbatida, S. Abashin shunday xitob qiladi: “Bu juda g‘alati xulosa. Haqiqatda esa J. Shoberlayn-Engel L. F. Kostenko[841] hamda 1897, 1917, 1926-yillardagi aholi ro‘yxatlari ma’lumotlariga tegishli ilovalarni keltiradi. A. I. Shevyakov esa “ushbu masala bo‘yicha asosiy manba N. V. Turchaninovning “Население Азиатской России”[842] ocherkidir. So‘ngra S. Abashin “har qanday boshqa guruh kabi qipchoqlar soni to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligi, ulardan qaysilari ishonchli ekani masalasi alohida suhbat mavzui ekanini payqab, Shoberlayn[843] foydalangan raqamli ma’lumotlarni nazaridan o‘tkazadi. Bu esa L. Kostenko[844] hamda K. Kaufmanga[845] ilovalardir. Ta’kidlash joizki, J. Shoberlaynda, shubhasiz, jiddiy tahliliy-tanqidiy ishlab chiqishni talab etadigan boshqa juda oz sonli manbalar[846] uchraydi.

Nima bo‘lganda ham, S. Abashinning J. Shoberlaynda “ma’lumot manbalariga ilovalar” yo‘qligi yuzasidan A. Shevyakovning “g‘alati xulosasi” borasidagi nuqtai nazarini e’tirof etib bo‘lmaydi. Zero amerikalik tadqiqotchi, sirasini aytganda, qipchoqlar “alohida etnik guruhdan iborat” degan xulosasi

---

[839] Shu joyda. 7-8-бетлар.

[840] Шевяков А. О статье доктора Дж. Шоберлайна-Энгела... С.213.

[841] С. Абашин Шоберлайн фойдаланган А. Ф. Костенконинг «Туркестанский край: Опыт военно-статистического образования Туркестанского военного округа” (СПб., 1980) асарини назарда тутади.

[842] Bu o‘rinda S. Abashin A. Shevyakovning Ko‘rsatilgan maqolasining 213-betiga ilova qiladi. Qarang: Абашин С. Ko‘rsatilgan asar. 208-б.

[843] Shu joyda.

[844] Qarang: Костенко Л. Ф. Ko‘rsatilgan asar; Первая Всеобщая перепись населения Российской Империи. 89-ж. Ферганская область. СПб., 1904; Материалы Всероссийских переписей населения в Туркестанской Республике. 4-ж. Сельское население Ферганской области по материалам переписи 1917 г. Ташкент, 1924; Всесоюзная перепись населения 1926 года. 15-ж. Узбекская ССР. Народность, родной язык, возраст, грамотность. М., 1928; Зарубин И. И. Список народностей Туркестанского края. Л., 1925 // Шоберлайн-Энгел Дж. Ko‘rsatilgan asar. 62-б.

[845] Qarang: Кауфман К. П. Проект всеподданнейшего отчета Ген.–Адъютанта К.П. фон-Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 1867 йил 7 ноябрь – 25 март 1881 й. СПб., 1881.

[846] Qarang: Костенко Л. Ф. Ko‘rsatilgan asar; Первая Всеобщая перепись населения Российской Империи. 89-ж. Ферганская область. СПб., 1904; Материалы Всероссийских переписей населения в Туркестанской Республике. 4-ж. Сельское население Ферганской области по материалам переписи 1917 г. Ташкент, 1924; Всесоюзная перепись населения 1926 года. 15-ж. Узбекская ССР. Народность, родной язык, возраст, грамотность. М., 1928; Зарубин И. И. Список народностей Туркестанского края. Л., 1925 // Шоберлайн-Энгел Дж. Ko‘rsatilgan asar. 62-б.

uchun unchalik to'liq bo'lmagan manba ma'lumotlaridan foydalangan.

Amerikalik tadqiqotchi J. Shoberlayn-Engel XX asrning oxirlaridan boshlab o'zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir bir qancha mulohazalaridan iborat maqola hamda to'plamlar nashr eta boshladi. Muallif nafaqat O'zbekistonning qadimgi tarixi va etnogenezi, shu bilan birga, mustaqillikdan so'ng amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, o'zbek xalqi etnogeneziga oid bo'lgan qarashlar va turli olimlarning mulohazalarini tahlil etgan holda asarlar nashr ettirdi. Jumladan, uning "The national council for soviet and east european research" to'plamidagi "The prospects for Uzbek national identity" (O'zbek milliy o'zlikni anglash kelajagi) maqolasida o'zbek etnogenezi muammolari, ularga tegishli fikrlar va qarashlar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu asarning "The Problem: The Identity of Uzbekistan" (O'zbekistonning o'zlikni anglash muammosi) deb nomlangan bo'limida o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglashga qaratilgan barcha muammolar va turli fikrlar yoritilgan[847].

Ushbu davrga kelib o'zbek xalqining etnik tarixiga bo'lgan qiziqishga oid bir qator ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar nashrdan chiqdi. Jumladan, "Темур ва темурийлар даврида Мовароуннаҳр аҳолисининг этник таркиби" (K. Sh. Shoniyozov), "Илдиалар ёхуд туркий халқларнинг келиб чиқиши тарихига оид илмий ишлар тўғрисида" (A. Xo'jaev), "Турон турклари, Турк битиклари" (A. Qayumov), "Иссиқ ёзуви: Шарқ илмий хазинаси" (N. Rahmon), "Хунну давлати мақоласи хусусида" (M. Matboboyev), "Асли туркий қабилалар" (O. Jo'raqulov), "Аркони давлатимиз тарихи" (K. Mahmudov), shuningdek, Respublika davriy nashrlarida chop etilgan ko'plab maqolalarda turkiy xalqlarning ildizlari va o'zbek xalqi etnik tarixining ayrim qirralari xolisona yoritib berildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti "Etnologiya va antropologiya" bo'limi qoshidagi "Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни" ilmiy guruhi K. Sh. Shoniyozov rahbarligida o'zbek xalqi etnogenezi hamda etnik tarixini yaxlit yoritishga bag'ishlangan katta monografiyani[848] tayyorladi. Mazkur asar etnografiya, arxeologiya va lingvistika fanlari sohasida erishilgan barcha yutuqlarga asoslanib yozilgan hamda muammolarni har tomonlama qamrab olgan umumlashma asardir. Shunisi muhimki, monografiyada chet ellik mualliflarning ham tadqiqotlari o'rin olgan. Asarda jumladan, hanuz tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib kelayotgan ingliz, nemis, fransuz va turk tillaridagi qator asarlardan foydalanilib, ularga ilmiy munosabat bildirilgan. Karim Shoniyozovning mazkur asari o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar majmuasidagi mustaqillik nuqtai nazaridan yondashilgan yirik monografik asar hisoblanadi.

---

[847] John Schoeberlein-Engel. The prospects for Uzbek national identity / The national council for soviet and east european research. Title VIII programm. Harvard University. 1997. P. 2–3.

[848] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент, 2001. 464 б.

Akademik K. Sh. Shoniyozovning “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” deb nomlangan so‘nggi asarida turli siyosiy birlashmalar tizimida kechgan etnik jarayonlar bosqichma-bosqich kuzatildi, XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlatida nihoyasiga yetgan o‘zbek xalqi shakllanishini asosiy bosqichlari davrlari ochib berilgan.

“Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” asarini K. Sh. Shoniyozov ilmiy faoliyatining cho‘qqisi deyish mumkin. Ushbu asar o‘zbek xalqining kelib chiqishi va rivojlanishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi har bir etnograf hamda tarixchining eng zarur qo‘llanmasi hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash joizki, K. Sh. Shoniyozov asarlaridagi qoida va xulosalarni tasdiqlovchi o‘zbeklarga oid etnografik hamda antropologik ma’lumotlarni bir qator rossiyalik mualliflarning, jumladan N. Bichurin[849], L. Oshanin va V. Zezenkova[850], V. Ginzburg va T. Trofimova[851] hamda boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

Olimning yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarining har birida o‘zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi, unga asos bo‘lgan qabila hamda elatlar, ularning tarkibiy qismlari va joylashgan hududlari, o‘zbek xalqi shakllanishida asosiy rol o‘ynagan qabilalar, Movarounnahr hududidagi dastlabki turkiy davlatlar, ularning ijtimoiy-siyosiy tarixi va hokazolar ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan. K. Sh. Shoniyozovning asarlari etnogenez va etnik tarix nazariyasi talabiga binoan, etnos paydo bo‘lganidan to xalq sifatida shakllangan davrigacha kechirgan etnik hamda tarixiy jarayonlarga aniqlik kiritishga yordam beradi. Ayni shu jihatlari bilan ularni o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish borasidagi asosiy asarlar sifatida qayd etish joiz.

A. Asqarov va B. Ahmedovlarning hammualliflikda chop etilgan maqolasida[852] ham o‘zbek xalqi uzoq hamda murakkab etnik jarayonni boshidan kechirganligi, o‘zbeklar yaxlit xalq sifatida X asrga kelib shakllanganligi, ushbu jarayonda hududiy, iqtisodiy, madaniy, til va tip birligiga ega bo‘lganligi ta’kidlanadi.

A. Asqarovning etnogenez va etnik tarix muammosi doir tadqiqotlarida ko‘plab diqqatga sazovor mulohazalar bildirilgan bo‘lib, ular orasidagi eng muhimi, muallif o‘zbek xalqi etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi so‘nggi bronza davridan boshlanadi, degan konsepsiyani ilgari suradi.

2015-yilda akademik A. Asqarovning “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни”[853] deb nomlangan monografik tadqiqoti nashrdan chiqdi. Ushbu

---

[849] Qarang: Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древнейшие времена. 1-3-ж. М.-Л., 1953.

[850] Qarang: Ошанин Л. В., Зезенкова В. Я. Этногенез народов Средней Азии в свете данных антропологии. Ташкент, 1953.

[851] Qarang: Гинзбург В. В., Трофимова Т. А. Палеоантропология Средней Азии. М., 1972.

[852] Аҳмедов Б., Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи (дастлабки мулоҳазалар) // Ўзбекистон овози, 1994.

[853] Асқаров А. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: O‘zbekiston, 2015. 680 б.

tadqiqotda o‘zbek xalqining kelib chiqishi, etnogenezi va etnik tarixi, urug‘-qabila holatidan asta-sekin elat-xalq bo‘lib shakllanish jarayoni va millat darajasiga yetish bosqichlari, boy moddiy madaniyat va yozma manbalarning ilmiy tahlili bayon etilgan.

So‘nggi yillarda ham o‘zbek etnogenezi va etnik tarixi masalasi va uning turli qirralarini talqin etuvchi ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2011-yilda so‘nggi yigirma yildan oshiqroq vaqt davomida O‘zR FA Tarix instituti hamda Rossiya FA Etnologiya va antropologiya instituti hamkorligida o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, xalqimizning an’anaviy xo‘jalik mashg‘uloti, moddiy hamda ma’naviy madaniyati, oilaviy va jamoaviy turmush tarzini etnografik yo‘nalishda o‘rganishga bag‘ishlangan yirik tadqiqot – “Ўзбеклар”[854] nomli fundamental monografiya nashr qilindi. Ushbu monografiyaning katta qismi o‘zbeklarning etnik tarixini yoritishga bag‘ishlangan va ushbu qism akademik Karim Shoniyozov tomonidan yozilgan.

A. Ashirov istiqlol yillarida o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi mavzusidagi bajarilgan asarlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lgan va so‘nggi yillarda o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o‘rganayotgan mutaxassislar ozchilikni tashkil etgan bo‘lishiga qaramay, salmoqli nashrlar chop etilganligini ta’kidlaydi[855].

Mustaqillik yillarida O‘zR FA Tarix instituti “Etnologiya va antropologiya” bo‘limi faoliyati natijasida yaratilgan ko‘plab jamoaviy[856] va mualliflik monografiyalari[857], risola[858] hamda maqolalar[859] o‘zbek xalqi

---

[854] Узбеки. [Отв. редакторы: Д. А.Алимова, С. Н. Абашин, З. Х. Арифханова]. Москва: Наука, 2011. 688 с.

[855] Аширов А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихига доир нашрлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // O‘zbekiston tarixi. 2013. №2. 63-72-бетлар.

[856] Тошкент маҳаллалари: анъанавийлик ва замонавийлик (Тарихий-этнографик тадқиқот). Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. 217 б.; Современные этнокультурные процессы в махаллях Ташкента. Ташкент: Фан, 2005. 175 с.; Узбеки. [Отв. редакторы С.Абашин, Д. Алимова, З. Арифханова]. Москва: Наука, 2011. 688 с.; Ўзбекистон халқларининг ўзаро этник ва маданий алоқалари. Тошкент: Yangi nashr, 2011. 151 б. Миндон ва миндонликлар. Тошкент: Янги нашр, 2015. 252 б.

[857] Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар Тошкент: Шарқ, 1999. 192 б.; Shu muallif. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарқ, 2001. 464 б.; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. 215 б.; Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. Қашқадарё воҳаси ўзбеклари кийимлари (XIX аср охири – XX аср). Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 177 б.; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 275 б.; Расулова З. Ўзбекларнинг никоҳ тўйигача бўлган маросимлари (қалин бериш одати мисолида). Тошкент, 2009. 140 б.; Убайдуллаева Б. Ўзбекларнинг ёш авлод тарбиясидаги анъаналари ва замонавийлик. Тошкент: Yangi nashr, 2010. 239 б.; Зунунова Г. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций. Ташкент: EXTREMUM PRESS, 2013. 300 с.; Тен М. Современная этнокультурная идентичность корейцев Узбекистана: по данным социологического исследования. Ташкент: Extremum-Press, 2013. 124 с.; Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари (Тошкент шаҳри мисолида). Тошкент: Yangi nashr, 2014. 176 б.; Хан В. Диаспорные среды. Ташкент: Тафаккур, 2014.

[858] Ҳошимова Д. В. В. Бартольд асарларида ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи масалаларининг ёритилиши. Тошкент, 1997. 15 б.; Арифханова З. Современная жизнь традиционной махалли Ташкента. Ташкент: Ўзбекистон, 2000. 29 с.; Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. Тошкент: Абдулла

etnogenezi, etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishda salmoqli hissa bo'ldi.

Mustaqillik yillarida o'zbeklarning uy-joy, kiyim-kechak va milliy taomlariga bag'ishlangan qator dissertatsiyalar hamda ular asosida monografiyalar, o'quv adabiyotlari va albomlar yaratildi. Qolaversa, qator dissertatsion tadqiqotlarda mavzuga muammoviy hududiy yondashib, o'zbek oilasi va oilaviy marosimlar (O. Bo'riyev, N. Azimova, Z. Arifxanova, M. Payziyeva, Q. Nasriddinov, F. Tolipov), milliy liboslarning xududiy xususiyatlari M. Ibragimova (Surxondaryo), S. T. Davlatova (Qashqadaryo) hamda Sh. Nurullayeva (Xorazm)lar maxsus shug'ullangan bo'lsa, uy-joylar

---

Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. 32 б.; Арифханова З., Зунунова Г. Обрядово-ритуальная жизнь узбеков Ташкента в условиях независимости. Ташкент, 2006. 92 с.

[859] Шониёзов К. Аз ва уз этнослари ҳақида // Турон тарихи. 1994. №1. 22-28-бетлар; Shu muallif. Амир Темур ва Темурийлар даврида Мовароуннаҳр аҳолиси этник таркиби // Шарқшунослик. 1996. №7. 24-28-бетлар; Shu muallif. Ўзбек халқи шаклланиш жараёнининг айрим масалалари // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1996. №6. 79-87-бетлар; Shu muallif. Ўзбек халқи этногенезининг айрим назарий масалалари // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998. №6. 31–44-бетлар; Қаюмов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон-Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // O'zbekiston tarixi. 2001. №4. 27-31-бетлар; Аширов А., Абдуллаев У. *К.Шониёзовнинг* «Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни» монографияси ҳақида // O'zbekiston tarixi 2002 № 1. 79-82-бетлар; Зунунова Г. К вопросу о ритуальной обрядности узбеков // O'zbekiston tarixi. 2002. №1. С. 72-78; Арифханова З. Изучение проблем этнографии в Институте истории АН РУз // O'zbekiston tarixi. 2003. №4. С. 61-74; Аширов А. Этнос муаммоси замонавий тадқиқотчилар талқинида // O'zbekiston tarixi. 2005. №3. 42-53-бетлар; Маликов А. Мангыты долины Зерафшана // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2006. № 6. С. 32-36; Shu muallif. Узбеки группы «сарай» долины Зерафшана в XIX - начале XXв. // Бухоро давлат университети илмий тадқиқотлар ахбороти. 2007. №3. С. 5-10; Shu muallif. Узбеки группы минг // Мозийдан садо. №4. 2007. С. 25-27; Shu muallif. Из истории самоназвания узбек // Самарқанд давлат университети илмий-тадқиқотлар ахборотномаси. 2007. №6. С. 54-58; Хатамова М. Тюркский каганат: некоторые аспекты возникновения и характер государственного устройства // Sharqshunoslik (ИВ АН РУз). 2009. №14. С. 99-107; Азимова Н. Междисциплинарная интеграция этнологии и социологии: применение некоторых полевых методов // O'zbekiston tarixi. 2010. №3. С. 61-74; Аширов А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихига доир нашрлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // O'zbekiston tarixi. 2013. №2. 63-72-бетлар; Давлатова С. Ўзбек халқи этномаданий айнанлигининг шаклланишида анъанавий кийимларнинг аҳамияти // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2013. № 2. 127-129-бетлар; Хатамова М. Илк ўрта асрларда Чоч ҳукмдорлигининг тарихий-географик тавсифи (сайёҳ ва элчиларнинг хотиралари асосида) // O'zbekiston tarixi. 2014. №2. 16-30-бетлар; Хўжахонов И. Ўзбеклар этномаданий идентиклигини ўрганишдаги назарий-методологик ёндашувларга оид айрим мулоҳазалар // ЎзМУ хабарлари. 2015. № 1. 67-71-бетлар; Асқаров М. Ўзбекистон этнографиясининг тарихшунослигига доир баъзи қарашлар // Сборник научно-методических статей «Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан». Ташкент, 2015. 52–55-бетлар; Shu muallif. Ўзбекистон этнографияси тарихшунослигини ўрганишда топонимларнинг аҳамияти / «Тарих тилга кирганда» мақолалар тўплами. Даврий тўплам. Тошкент, 2016. №9. 291–293-бетлар; Shu muallif. Ўзбекистон этнографияси тарихшунослигининг долзарблиги тўғрисида / «XXI аср – интеллектуал ёшлар асри» мавзусидаги республика илмий ва илмий-техник анжуман материаллари. Тошкент, 2018. 35–40-бетлар; Хўжахонов И., Асқаров М. Идентиклик тушунчаси таҳлили ва замонавий ўзбек идентиклиги муаммосининг ўрганилиш тарихидан // Тамаддун нури. 2019. №6 (23). 46–49-бетлар; Дониёров А.Х., Асқаров М.М. Некоторые взгляды об исследовании (узбекской) идентичности // «Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» номли Республика XII илмий-амалий конференция материаллари. 12–илмий тўплам. Тошкент, 2020. С. 108–115; Асқаров М.М., Дониёров А.Х. Религиозная (исламская) идентичность узбеков и её зарубежная историография / «Марказий Осиёда ислом маданияти ва санъати: ўтмиш ва ҳозирги замон» мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. Тошкент, 2020. С. 56–65.; Асқаров М. Национальные символы узбекской идентичности: краткий обзор // Revista de Etnologie şi Culturologie / Institutul Patrimoniului Cultural, Centrul de Etnologie; col. red.: Svetlana Procop, ş. a. Chişinau. 2020. Vol. XXVII. Pp. 137–144.

bo‘yicha I. Xo‘jaxonov (Farg‘ona vodiysi), milliy taomlar bo‘yicha M. Qurbonova (Buxoro), M. Fayzullayeva (Surxondaryo), etnoslararo aloqalar (U. S. Abdullayev) va G. Sh. Zununova, N. Tursunov hamda A. Qurbonovlar tomonidan esa moddiy va ma’naviy madaniyat masalalari mavzusida kompleks tadqiqotlar olib borildi[860].

Aholining etnik va milliy tarkibi borasida A. Qayumov (Surxondaryo), O. Bo‘riev, M. Usmonov (Qashqadaryo), U. Abdullayev (Farg‘ona vodiysi) va M. Jumaniyozova (Xorazm) kabi tadqiqotchilar muhim etnografik materiallarni to‘pladilar. Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar to‘y marosimlari, xo‘jalik an’analari, qadimiy diniy e’tiqod izlari (A. A. Ashirov) va dafn marosimlari borasida tadqiqotlar olib borib boy etnografik materiallar to‘pladilar[861].

Bundan tashqari, O‘zR FA Tarix instituti “Etnologiya va antropologiya” bo‘limi tomonidan “Karim Shoniyozov o‘qishlari” turkumida muntazam o‘tkazib kelinayotgan an’anaviy ilmiy anjumanda doimiy ravishda o‘zbek xalqining etnogenezi hamda etnik tarixiga oid turli tadqiqotlar natijalari muhokama qilinadi. O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, mazkur anjuman materiallari muntazam ravishda to‘plam holatida nashr qilinmoqda[862].

---

[860] Давлатова С. Т. Ўзбек миллий ҳунармандчилиги: аньана, урф одат ва маросимлар. //Journal of social, humanities and administrative sciences. 2017. Vol 3/Issue 7 / Pp: 68-81.( Impact factor SJIF 2016: 3.027); Davlatova S.T. The semantics of symbols in traditional Uzbek crafts // International Journal of Development Research.(Индия) Vol. 07. Issue 02. February, 2017. P. 11631-11636. (Impact factor SJIF 2017: 5.667); Хўжахонов И. Ўзбеклар этномаданий идентиклигини ўрганишдаги назарий-методологик ёндашувларга оид айрим мулоҳазалар // ЎзМУ хабарлари. 2015. № 1.; Shu muallif. Мустақиллик йилларида Ўзбекистондаги уйғурлар этномаданий идентиклигининг ривожланиши // Ўзбекистон ҳудудида миллатлараро муносабатлар. Тошкент, 2015. 142-151-бетлар; Shu muallif. Этник феноменни ўрганишдаги айрим методологик ёндашувлар хусусида // ЎзМУ хабарлари. 2015. № 5. 82-85-бетлар; Shu muallif. Ўзбек миллий идентиклигининг хорижий тадқиқотларда ўрганилиши // Имом Бухорий сабоқлари. 2018. № 3. 34-36-бетлар.

[861] Аширов А. Этник феномен масаласидаги айрим илмий хабарлар // ФарДУ илмий хабарлари. 2015. № 1. 64-68-бетлар (И Хўжахонов билан ҳаммуаллифликда); Shu muallif. Мустақиллик йилларида ўзбек халқи этнологияси // O‘zbekiston tarixi. 2016. №2; Shu muallif. Древние и средневековые религии стран Центральной Азии и Азербайджана в памятниках археологии. Самарканд: Мегабасим, 2016. С. 200-258; Shu muallif. Поверья населения Ферганской долины, связанные с водой // GLOBAL-Turk, 2016. №3-4 С. 51-60; Shu muallif. Мотивы мира в узбекских народных эпических сказаниях // Вестник Северо-восточного федерального университета имени М. К. Аммосова: Серия эпосоведение. 2016. № 4 (04) С. 13-18; Shu muallif. Фарғона водийси аҳолисининг сув билан боғлиқ қарашлари / Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. Илмий тўплам. Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. 213-224-бетлар; Shu muallif. Фарғона водийси аҳолисининг сув билан боғлиқ мифологик қарашлари ва урф-одатлари // O‘zbekiston tarixi. 2018. №1. 22-32-бетлар; Shu muallif Вода в традиционной жизни и культуре населения Ферганской долины // Вестник МИЦАИ. 2018. №2. С. 34–46.

[862] Марказий Осиёда аньанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 1-қисм. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари. Тошкент, 2005. 180 б.; Марказий Осиёда аньанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 2-қисм. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари. Тошкент, 2005. 203 б.; Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги IV Республика илмий-амалий конференция материаллари. Наманган, 2007. 260 б.; Этнос ва маданият: аньанавийлик ва замонавийлик. “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида этнологларнинг V республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент: Фан, 2010. 334 б.; Ўзбекистон этнологиясининг назарий-методологик муаммолари. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги VI Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврўз, 2014. 276 б. ва б.

So‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda o‘zbek xalqi etnologiyasi masalalarining turli jihatlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur muammolarga doir xorijda yaratilgan adabiyotlar tahlili yangi avlod tadqiqotchilari diqqatini o‘ziga jalb qilib, bu borada bir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol sifatida M. Asqarov tomonidan XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yaratilgan ingliz tilidagi xorijiy adabiyotlarda o‘zbek xalqining o‘zligini anglash masalalarini o‘rganilishiga doir tahlillarni ko‘rsatish mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, bunday mazmundagi tadqiqotlar O‘zbekiston etnologiyasi va antropologiyasining muhim yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[863].

M. Asqarovning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbek identikligining shakllanish jarayoni xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar (A. Bennigsen, J. Shoberlayn, A. Xalid, P. Finke, Sh. Akiner, S. Abashin, Z. Arifxanova, V. Xan va I. Xo‘jaxonov) tomonidan turli darajalarda tadqiq qilingan. Ularning aksariyat qismi XIX asr oxiri – XX asr boshlari, ya’ni mustamlaka davrida ushbu hududda identiklikning bir necha turlari mavjudligini ta’kidlaganlar. Masalan, diniy, hududiy, urug‘-qabilaviy, til, xo‘jalik va boshqalar. Har bir insonda tug‘ilgan davridan boshlab ma’lum bir identiklik turi shakllanib boradi, ularning ba’zilari ixtiyoriy tanlov asosida qo‘lga kiritilsa, ba’zilari tug‘ilish jarayonida beixtiyor qabul qilib olinadi. Har bir identiklik turining o‘z chegarasi mavjud bo‘lib, ushbu chegaralar o‘zgaruvchan xarakterga ega[864].

Hozirgi vaqtda xorijiy ingliz tilidagi tadqiqotlarda o‘zbek xalqi “o‘zlikni anglash jarayoni (identiklik)” ko‘pincha bir nechta nazariy pozitsiyalardan biri (modellar yoki yondashuvlar)ga muvofiq talqin etiladi: 1) primordializm yoki essensializm (ba’zi tadqiqotchilar ikkalasini ham alohida mustaqil yondashuv sifatida talqin qiladi); 2) konstruktivizm; 3) instrumentalizm va boshq[865].

Tadqiqotchi tomonidan o‘zbek xalqining o‘zligini anglash jarayoni bilan bog‘liq masalalarni yoritish maqsadida “Borromeo halqasi” asosidagi yagona yondashuvdan foydalanishni taklif qilindi. Ushbu yondashuv birinchi marotaba psixoanalitik J. Lakan tomonidan inson shaxsiyatini turlarini aniqlash uchun qo‘llanilgan. O‘zbek xalqining o‘zligini anglash jarayonini shakllanishi va rivojlanishi jarayonini xorijiy ingliz tilidagi adabiyotlarda muhokama qilingan tamoyillarga muvofiq ravishda tahlil qilishga harakat qilindi. Jadvalga ko‘ra, har bir shartli halqa reallikning fundamental komponentini tashkil qiladi va mahalliy madaniyat hamda an’analarni o‘ziga xosligi va o‘xshashi yo‘qligini aks ettiradi.

---

[863] Ушбу қисмни ёритишда М. М. Асқаровнинг тадқиқотларидан фойдаланилди.

[864] Асқаров М. М., Дониёров А. Х. Религиозная (исламская) идентичность узбеков и её зарубежная историография // «Марказий Осиёда ислом маданияти ва санъати: ўтмиш ва ҳозирги замон» мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. Тошкент, 2020. С. 56–65.

[865] Аскаров М. Национальные символы узбекской идентичности: краткий обзор // Revista de Etnologie şi Culturologie / Institutul Patrimoniului Cultural, Centrul de Etnologie; col. red.: Svetlana Procop, ş. a. Chişinău. 2020. Vol. XXVII. Pp. 137–144.

M. Asqarovning xulosalariga asosan, real hayot voqealari shuni ko'rsatmoqdaki, o'zbek xalqining o'zligini anglash masalasida "qolipga solingan" va "avvaldan belgilangan" nazariya yoki ikki tomonlama qiyoslash holatidan uzoqlashish hamda bir vaqtni o'zida bir nechta nazariyalar yutuqlaridan foydalanish hamda fanlararo yondashuvni ishlatish talab qilinadi, bu esa ko'plab uslubiy tortishuvlarni hal qilishga imkon beradi.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasiga doir ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Chop etilayotgan tadqiqotlar o'zining mustahkam ilmiy negiziga ega bo'lsa-da, o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini o'rganish borasida hali talaygina muammolar mavjud va ularning yechimini izlash tarixchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Milliy o'zlikni anglash, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasi, shuningdek, unga oid manba hamda adabiyotlarni qiyosiy va tanqidiy tarzda o'rganib, tahliliy asosdagi ilmiy izlanishlar olib borish mazkur muammoning mohiyatini yoritishda muhim omil bo'ladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslariga doir asosiy fikr-mulohazalarni keltiring.
2. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid asosiy manbalarni sanab bering.
3. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid adabiyotlarni sanang.
4. XIX asr davomida chop etilgan rus mualliflarining qaysi asarlarida Markaziy Osiyo xalqlariga oid ma'lumotlar aks etgan?
5. A. Yu. Yakubovskiyning o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishga bag'ishlangan risolasi mazmunini so'zlab bering.
6. S. P. Tolstovning qaysi asarlarida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga doir ma'lumotlar aks etgan?
7. K. Sh. Shoniyozovning asarlarida o'zbek xalqi shakllanish jarayoniga oid mulohazalariga munosabatingiz.
8. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda akademik V. V. Bartold asarlarining ahamiyati nimadan iborat?
9. 1942-yilda Toshkentda o'tkazilgan O'rta Osiyo xalqlarining etnogeneziga bag'ishlangan ilmiy sessiyasidagi mulohazalarni keltiring.
10. Sharqshunos olim A. A. Semyonovning o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi mavzusi bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlari mohiyati nimadan iborat?
12. XX asrning 60–80-yillarida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid qanday tadqiqotlar yaratilgan?

13. Jon Shoberlayn-Engel, S. Abashin, E. Shavann, M. Markvart, Gelmut Xoffman va O. Prisaklarning o‘zbek etnogenezi masalasi to‘g‘risidagi fikrlarini keltiring.

14. Mustaqillik davrida o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi o‘rganilishida qanday yangicha yondashuvlar vujudga keldi?

# 5-MAVZU: XII–XIV ASRLAR MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Xorazmshohlar davlati tarixi tarixshunosligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish, mo'g'ullar istilosi va ularga qarshi milliy-ozodlik kurashlari to'g'risida ma'lumot beruvchi asarlar bilan tanishtirish, mazkur davrga oid manbalar va ulardagi ba'zi ma'lumotlarni tahlil qilish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Ziyo Buniyotov, Chan-Chun, Juvayniy, V. V. Bartold, Rashididdinning "Жомеъ ат-таворих" asari, "Ёзишмалар", "Тўрт улус тарихи", Chig'atoy ulusi.*

## Xorazmshohlar davlati tarixining adabiyotlarda yoritilishi

Qadim zamonlardan sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazm tarixiga doir nafaqat mahalliy, shu bilan birga dunyo olimlari tomonidan ham qator yirik ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin, o'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Xorazm tarixining o'rta asrlar davri fanda juda kam o'rganilgan. Vaholanki, Xorazm, umuman, Markaziy Osiyo hududida o'rta asrlarda dunyo ahamiyatiga molik bo'lgan voqealar sodir bo'lgan va ular ko'plab manbalarda aks ettirilganiga qaramay, ushbu asarlar hozirgi kunda o'zbek tiliga tarjima qilinmagan va to'liq o'rganilmagan. Ana shunday kam tadqiq etilgan muammolardan biri bu – Xorazmshohlar davlati tarixidir.

X asr oxirlarigacha Xorazm ikki mustaqil qismdan iborat edi. 995-yilda Gurganch (Ko'hna Urganch) hokimi Kat shahrini egallashi bilan mazkur ikki hokimlikka barham berilgan edi. Ma'mun II davrida Gurganch (Urganch) Sharq mamlakatlaridagi yirik markazlaridan biriga aylanib, unda savdo, hunarmandchilik, madaniyat va ilm-fan rivojlangan edi[866].

Dunyoning juda ko'p hududlarini kezib chiqqan taniqli arab sayyohi va geografi Yoqut al-Hamaviy[867] shunday yozadi: "Men umrimda ushbu shaharga o'xshash boy va chiroyli shaharni ko'rmaganman. Bitmas-tuganmas boyliklari va poytaxtining kengligi hamda aholisining juda ko'pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahriga o'xshagan shahar bo'lmasa kerak, deb o'ylayman". Yoki yana bir arab tarixchisi Istaxriyning ta'rificha: "Gurganch Xorazmning eng katta shahri... u o'g'uzlar bilan savdo qiladigan joy bo'lib, u yerdan Jurjoniya,

866 Жабборов И. Буюк Хоразмшохлар давлати. Тошкент: Шарқ, 1999. 112–113-бетлар.

867 Йакут ал-Хамави. Алфавитный перечень стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 1. М.: Ин-т востоковедения, 1939.

Xazarlar va Xurosonga karvonlar jo'naydi"[868]. Istaxriydan keyin Xorazmga kelgan Ibn Battuta: "U (Urganch) aholisining ko'pligidan dengiz singari to'lqinlanib turadi", deb yozgan edi[869]. Al-Qazviniy[870]ning ta'rificha: "Gurganj – farishtalar nazari tushgan juda chiroyli shahardir. Poytaxt aholisi mohir hunarmand bo'lgan"[871].

Muhammad bin Muayyad Bag'dodiyning "Kitob at-tavassul ila tarassul" asarida 1182–1184-yillarga tegishli Xorazmshoh Takash hukmronligi davri hujjatlari jamlangan. Ularning orasida Takeshning 1183-yilda G'iyosiddin G'uriyga yuborgan maktubi ham mavjud.

Xorazm va Chingizxon bosqini davrining asosiy manbalaridan biri, bu – Juvayniyning "Тарихи Жаҳонкушой" asaridir[872]. To'liq ismi Alouddin Otamalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniy (taxminan 1226–1283- yy.) bo'lib, u yoshligidan arab, fors, mo'g'ul va uyg'ur tillarini mukammal o'rgangan. Xurosondagi mo'g'ul hukmdorlari Qirko'z, Argun og'a va Huloku devonida xizmat qilgan va 1247–1253-yillarda Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurum (Mo'g'uliston) shahriga borgan. Mazkur tarixchi Mo'g'uliston, O'rta Osiyo va Eronning ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid "Тарихи Жаҳонкушой" nomli asari bilan mashhurlikka erishgan. Asar 3 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi mo'g'ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon davrigacha, shuningdek, Jo'jixon va Chig'atoy avlodlarining tarixini o'z ichiga oladi; ikkinchi qismi Xorazmshoh va Xurosonning mo'g'ul xukmdorlari davridagi tarixini bayon qiladi, uchinchi qismi esa Hulokuxonning Eronni zabt etishi, shuningdek, ismoiliylar va ularning davlati tarixi yoritilgan. O'rta Osiyo tarixi, xususan. Xorazm davlati tarixi uchun uchun asarning 1–2 qismlari alohida qimmatga ega.

Zamonaviy tadqiqotchilardan Ziyo Buniyotovning "Ануштегин – Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231)"[873] nomli asarida Xorazmshohlar davlatining shakllanishi, taxt uchun kurashlar, mazkur davlatning yuksalishi, harbiy tuzilishi, davlat va saroydagi lavozimlar, tanga-pul muomalasi hamda madaniy hayoti to'g'risidagi keng ko'lamli ma'lumotlar berilgan.

---

[868] Ал-Истахри. Книга путей и стран // Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т. 1. Арабские источники VII-X вв. М.-Л. АН СССР, 1960.
[869] Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии / Нематулла Ибрагимов. М.: Наука (Главная редакция восточной литературы), 1988. 128 с.
[870] Казвини, Закария Мухаммед // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.
[871] Буниятов З. М. Избранные сочинения в трех томах. Т. 3. Баку, 1999. С.65
[872] Ата-Мелик Джувейни. Чингисхан. История Завоевателя Мира = Genghis Khan: the history of the world conqueror / Перевод с текста Мирзы Мухаммеда Казвини на английский язык Дж. Э. Бойла, с предисловием и библиографией Д. О. Моргана. Перевод текста с английского на русский язык Е. Е. Харитоновой. М.: «Издательский Дом МАГИСТР-ПРЕСС», 2004. 690 с.
[873] Буниётов З. М. Ануштегин – Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). Тошкент: Ғафур Ғулом, 1998.

## Mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga hujumi tarixshunosligi

Mo‘g‘ullar bosqini Markaziy Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojialar olib keldi. Movarounnahrning shahar va qishloqlari xarobaga aylantirildi, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq inqirozga uchradi, dala-yu vodiylar huvillab qoldi. Sharqning eng yirik va qadimiy o‘chog‘i bo‘lgan Samarqand mo‘g‘ullar bosqiniga qadar juda katta shahar edi. Samarqand orqali Chingizxon huzuriga borgan Xitoy rohibi Chan-Chunning so‘zlariga qaraganda, mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng shaharda 25 ming oila – oldingi aholining chorak qismi qolgan edi, xolos. Demak, ilgari bu yerda 100 ming oila, ya’ni taxminan 400 mingdan ortiq aholi yashagan. 30 ming hunarmand Mo‘g‘ulistonga olib ketilib, mahalliy shahzodalarga tarqatilgan edi.

Xitoy rohibi Chan-chunning hikoyasiga sharqshunoslardan birinchi bo‘lib, V. V. Bartold e’tibor qaratdi. Uning “Туркистон ўлкаси XIII асрда” (Хитой саёҳатчисининг ҳикояси асосида) maqolasi “Туркестанское востоковедение” jurnalining 1894-yildagi 43–44 sonlarida e’lon qilindi. Ushbu maqoladan sayohat yo‘nalishini aniqlash mumkin edi. U quyidagicha: Chu va Talas daryolari, Sayram, Sirdaryo, Mirzacho‘l, Zarafshon, Samarqand, Kesh va Amudaryo orqali o‘tib, Chingizxon qarorgohiga yetib borgan. Qaytishda Chan-Chun Chingizxon ortidan ketgan. V. V. Bartold “X asrdan to XIII asr (Chan-Chun)gacha bo‘lgan davrga tegishli Turkiston hayotini mufassal yorituvchi bironta ma’lumotga ega emas edik. Chan-Chunning ma’lumotlari shu jihatdan mamlakatni o‘rganish uchun qimmatlidir”, – deb yozgan edi[874].

V. V. Bartoldning muhim tarixiy asarlaridan biri hisoblangan “Туркистон мўғуллар босқини даврида” kitobi[875] haqida ham to‘xtalish zarur. Asarning kirish qismida muallif kitobining nomi mazmuniga to‘liq mos kelmasligini yozadi. V. V. Bartold maxsus tadqiqot uchun Markaziy Osiyo tarixining muhim bosqichi – mo‘g‘ullar bosqini davrini tanlagan. U Markaziy Osiyoning qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixiga esa o‘zining maqsadi uchun zarur bo‘lgani qadar murojaat qilmoqchi edi. Biroq, mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishuv muallifga o‘zigacha bo‘lgan tadqiqotchilarning manbalar bo‘yicha xulosalar qilmaganliklarini ko‘rsatdi. Ularsiz esa mo‘g‘ullar kelganda Markaziy Osiyo qay ahvolda ekanligini aniqlash mushkul edi.

Mazkur muallifning fikricha, “Туркистон мўғуллар босқини даврида” kitobi ilk bor Markaziy Osiyo tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e’tibor berilgan holda yoritadi. Asar kirish, to‘rtta bob va ilovadan iborat bo‘lib, uning kirish qismi tarixshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab

---

874 Бартольд В. В. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М.: Наука, 1963. С. 84–85.
875 Shu joyda. 763-б.

tarixchi va jo‘g‘roflaridan tortib to Temuriylar davriga qadar bo‘lgan Markaziy Osiyo tarixiga bag‘ishlangan manbalar tanqidiy sharhlangan[876].

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida chingiziylar saroyida yashagan yirik tarixchi olim va siyosiy arbob Rashididdinning hayoti hamda ijodi mo‘g‘ullarning Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi davri bilan bog‘liqdir. Fazlulloh Abul-Xayr Rashididdin Hamadoniy 1420–1447-yillar oralig‘ida Hamadonda unchalik mashhur bo‘lmagan tabib oilasida dunyoga kelgan. U Abakaxon hukmronligi (1265–1282) davrida davlat xizmatiga kiradi va G‘ozonxon (1295–1296) hukmronligi yillarida saroy tabibi vazifasini bajaradi[877].

Rashididdin “Жомеъ ат-таворих” asari bugungi kunda haqli ravishda ko‘p mamlakatlarda uzoq hukmronlik qilgan ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning maishiy hayoti va ijtimoiy-siyosiy tarixi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri bo‘lib, fors tilidagi manbalar orasida bunga teng asarlar deyarli uchramaydi. Mazkur asardagi boy ma’lumotlar asosida mo‘g‘ullarning ko‘chmanchi turmush tarzi, marosimlari, urf-odatlari va qonun-qoidalari haqida batafsil hikoya qilinadi. Rashididdinning ushbu shoh asarida o‘troq xalqlar hayoti, xo‘jalik-iqtisodiy ahvoli, ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzi o‘rtasidagi farqlar ham o‘z ifodasini topgan. “Жомеъ ат-таворих”da ko‘chmanchi feodallar hukmronligi ostida qolgan, “asosan, o‘troq aholi ko‘p mamlakatlarning iqtisodiy, xo‘jalik va siyosiy tarixiga oid ancha mufassal ma’lumotlar keltiriladi”[878].

Rus sharqshunos olimi I. N. Berezin[879] o‘z faoliyatining katta qismini Rashididdin merosini o‘rganishga bag‘ishlaydi. Ushbu olim “Жомеъ ат-таворих”ning birinchi jildi (Chingizxon hukmdorlik davri tarixi), shuningdek, “Turkiy va mo‘g‘ul ko‘chmanchi qabilalari” tarixini o‘z ichiga olgan qismlarining tarjimonidir. Biroq, I. N. Berezinning hayotligi davrida asar qo‘lyozmasining eng yaxshi, ya’ni Toshkent va Istambul nusxalari ma’lum emas edi. Shu bois, ushbu nusxalardagi ismlar, turkiy mo‘g‘ul iboralari, geografik va tarixiy-toponomik iboralar aniqlashtirishni talab qilar edi.

I. N. Berezinning forscha matni va ruschaga tarjimasi hozirda ham bibliografik jihatdan nodir hisoblanadi[880]. Uning nashri to‘liq bo‘lmaganligi uchun 1936-yilda SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti “Жомеъ ат-таворих”ning forscha matni va ruscha tarjimasining qayta ko‘rib chiqilgan variantini bosmaga tayyorlay boshladi.

---

[876] Бартольд В. В. Сочинения. Том 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия ... С. 760.

[877] Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского Л. А. Хетагурова, редакция и примечания проф. А. А. Семенова. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1952. Т. 1, кн. 1.

[878] Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Перевод А. К. Арендса. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1946. Т. 3.

[879] Березин, Илья Николаевич // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[880] Рашид-ад-дин. Сборник летописей. История Монголов. Сочинение Рашид-Эддина. Введение: О турецких и монгольских племенах / Пер. с персидского, с введением и примечаниями И. П. Березина // Записки импер. Археол. общества, 1858. Т. 14.

To‘rt jildlik birinchi to‘liq nashrini chop etishni 1936-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti o‘z zimmasiga oldi. Ikkinchi jahon urushining boshlarida fors tilidagi birlashtirilgan tanqidiy matnni tuzish tugallandi. Uchinchi jildning tarjimasi 1939-yilda A. K. Arends tomonidan amalga oshirilgan, ammo faqat 1946-yilda nashr etilgan[881]. L. A. Xetagurov va O. I. Smirnovalar tarjima qilgan birinchi va Yu. P. Verxovskiy tarjima qilgan ikkinchi jildlar mos ravishda 1952[882] va 1960[883]-yillarda nashr etilgan.

Rashididdinning “Жомеъ ат-таворих” asari elxonlarga bo‘ysunuvchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Asarda dehqonchilik, yerdan foydalanish tartibi, soliqlar va ularni undirish usullari hamda mamlakatning iqtisodiy ahvoli xususida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Rashididdinning ushbu asari V. V. Bartoldning iborasi bilan ifodalaganda, o‘rta asrlar fors tarixshunosligining “so‘nggi so‘zi”dir[884]. Mazkur asarni o‘rganish va nashr etish hozir ham davom etib kelmoqda.

“Йилномалар мажмуаси” bilan bir qatorda Rashididdinning “Ёзишмалар”i ham Yaqin, O‘rta Sharq va Markaziy Osiyoning XIII–XIV asr boshlari tarixini o‘rganishda muhim manbadir. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, ushbu asar hozirgacha tarixshunoslik nuqtai nazardan to‘liq o‘rganilgan emas. Gap shundaki, “Ёзишмалар” muallif vafot etgach, 1327–1336-yillar oralig‘ida uning o‘g‘li G‘iyosiddin Muhammad Rashidiyning urinishlari natijasida kitobga aylangan. Vazirning topshirig‘iga ko‘ra, Rashididdinning sobiq shogirdi Muhammad Abarko‘hiy ushbu to‘plamni tuzishga kirishdi. Rashididdin maktublari Sharqda keng tarqaldi. Ingliz tadqiqotchisi E. Braunning[885] shaxsiy kolleksiyasidan shu narsa anglashiladiki, ushbu xat (yozishma)lar XIV–XV asrlar chegaralarida va keyingi asrlarda ham qayta ko‘chirib olingan. I. Petrushevskiyning guvohlik berishicha, “Ёзишмалар”, “Йилномалар мажмуаси”ga o‘xshab ketadi va ularda o‘sha davr rasmiy hujjatlari uchun xos bo‘lgan iboralar bir xil shaklda uchraydi[886]. Xullas, hozir Rashididdin “Ёзишмалар”ining 13 ta nusxasi ma’lum va ulardan 8 tasi ro‘yxatga olingan.

“Жомеъ ат-таворих” 1301–1311-yillar oralig‘ida Qozonxonning topshirig‘iga binoan yozilgan asardir. Mazkur asar Sharq va G‘arb olimlarining e’tiborini ko‘pdan beri jalb etib kelmoqda. XV asrda Eronning yirik

---

881 Рашид ад-Дин. Сборник летописей. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1946. Т. 3.

882 Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского Л. А. Хетагурова и О. И. Смирновой, редакция и примечания проф. А. А. Семенова. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1952. Т. 1-2.

883 Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского Ю. П. Верховского, редакция проф. И. П. Петрушевского. М., Л.: Издательство Академии наук СССР, 1960. Т. 2.

884 Бартольд В.В. Сочинения. Том 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия ... С. 90-100.

885 Browne E. G. A Literary History of Persia (4 volumes). Bethesda, MD: Ibex Publishers, 1997.

886 Петрушевский И. Рашид-ад-дин и его исторический труд // Рашид-ад-дин. Сборник летописей. М.-Л.: Издательство Ан СССР, 1952. Т. 1, кн. 1. С. 7-37.

tarixchilaridan biri Hofizi Abro‘[887] “Жомеъ ат-таворих”ning davomini yozib, Eronning 1371-yilgacha bo‘lgan tarixini yoritib bergan. Hofizi Abro‘ning ushbu asari “Зайли жомеъ ат-таворих” (“Жомеъ ат-таворих”ga qo‘shimcha) nomi bilan mashhur[888]. Asar 1937–1938-yillarda professor Xonbobo Bayoniy tomonidan Tehronda nashr etilgan. Asarning birinchi qismi, ya’ni “Tarixi G‘ozoniy”[889] fransuz sharqshunos olimlari M. Kartmer (1836), E. Bloshe (1911) va chex tadqiqotchisi K. Yan (1941) tomonidan chop etilgan. Rus sharqshunosi I. N. Berezin “Tarixi G‘ozoniy”ni izchil o‘rgandi va uning forscha matni bilan ruscha tarjimasini nashr ettirdi (1858–1869)[890]. Mazkur asar keyinchalik V. V. Bartold tomonidan sharhlangan[891].

“Жомеъ ат-таворих” uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston, Elxoniylar davlati hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo, Yaqin hamda O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan qisqacha tarixi yoritilgan.

Asarning ikkinchi qismida Sharq mamlakatlarining islomdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G‘aznaviylar imperiyasi, Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar davlatlari tarixi, Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi aks etgan bo‘lsa, uchinchi qismda esa yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati yoritilgan. Afsuski, asarning so‘nggi, uchinchi qismi saqlanmagan. Qo‘lyozma 1318-yilda, ya’ni Rashididdinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtda yo‘qolgan bo‘lishi mumkin.

Asarning turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixini o‘z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Kitobning O‘rta Osiyo, Eron va Kavkazorti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoya qimmatlidir.

Birinchi qism ayni paytda islom hukmdori O‘ljaytu sultonning ukasi G‘ozonxon nomiga atab yozdirilgan. Ushbu jildda turk-mo‘g‘ul xalqlarining Chingizxongacha bo‘lgan tarixi, Chingizxon tuzgan yirik feodal davlat, uning yurishlari va mo‘g‘ullarga qaram bo‘lgan mamlakatlar tarixi, XII–XIII asrlarda shimoliy-sharqiy Osiyoda ko‘chib yurgan turk va mo‘g‘ul qabilalarining kelib chiqishi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni keng sharhlanib, G‘ozonxon (1295–1304) o‘tkazgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalardagi islohotlar batafsil yoritilgan.

---

[887] Хафизи Абру // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / под ред. А. М. Прохорова. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969.

[888] Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. 417-б.

[889] Бартольд В. В. Сочинения: Работы по исторической географии и истории Ирана. Статья «Газан Махмуд». С. 494–495.

[890] Березин И. Сборник восточных летописей (1858–1869, 6 томов)

[891] Хафиз-и Абру и его сочинения // Академик В. В. Бартольд. Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука, 1973.

Asarning ikkinchi qismi O‘ljaytu Sulton (1304–1317)ning topshirig‘i bilan Elxoniylar saroyida yashagan xorijlik olimlar (kashmirlik baxshi Kamalashri, xitoylik olim Li Da-chji, fransiyalik bir monax, ikkita fors olimi va boshqalar) ishtirokida yozilgan. Asarda mo‘g‘ul istilosiga qadar musulmon olami, shuningdek, yahudiylar, Yevropa, Vizantiya, Rim, Xitoy va Hindiston tarixi bayon etilgan.

Mazkur asarning uchinchi qismi geografik xarakterga ega bo‘lib, “yetti iqlim”, ya’ni olamning insonlar yashaydigan to‘rtdan bir qismi tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, bizgacha yetib kelmagan. Ushbu qismning birinchi bobi tarix sahnasida turk xalqlarining paydo bo‘lishi va ularning shajaralari, har bir xalq ajdodlarining hayoti haqida batafsil ma’lumot beradi. O‘z navbatida, ushbu bob debocha (kirish) va to‘rt fasldan iborat[892].

Ikkinchi bobda mo‘g‘ul va turk xoqonlari hamda boshqa xalqlar haqida ma’lumotlar bayon qilinib, ushbu bob ham ikki fasldan tashkil topgan. Ikkinchi jild O‘ljaytu sultonning buyrug‘i bilan uning muqaddas noibiga bag‘ishlab yozilgan. Ushbu jild ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobi O‘ljaytu Sultonning tavalludidan to mazkur kitob yozilgan vaqtgacha davrni o‘z ichiga oladi. Bu esa hijriy 700 yilga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchi bob ikki qism va o‘z navbatida, birinchi qism ham ikki fasldan iborat. Ikkinchi qism esa O‘ljatuxonning tarixiga tegishli bo‘lib, xoqonning so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi jild asosan, geografik va topografik chizgilar hamda ma’lumotlarga bag‘ishlangan. Unda turli davlatlarga olib boradigan yo‘llar va mamlakatlar orasidagi masofalar nisbiy darajada bo‘lsa ham muxtasar tarzda bayon qilingan.

Alovuddin Muhammad Juvayniyning “Тарихи жаҳонкушой” asarida ham mo‘g‘ullar bosqini batafsil bayon qilingan[893]. Tarixchi Alovuddin Muhammad Juvayniy Temur Malikning ko‘rsatgan qahramonligiga quyidagicha baho bergan edi: “Temur Malik shunday jasoratli sarkarda ediki, agar pahlavon Rustam tirik bo‘lganida, uning otiga jilovdorlikka yarardi, xolos”[894].

Juvayniyning ma’lumotlariga qaraganda, Xo‘jandni qamal qilishda 20 ming mo‘g‘ul askarlaridan tashqari, 50 ming nafar asirlar ham qatnashgan. Kuchlar nisbatining teng bo‘lmaganligini hisobga olib va tinch aholini qirg‘in bo‘lishdan saqlab qolish maqsadida Temur Malik o‘zining 1000 ta saralangan jangchi suvoriylari bilan jang qilib, mo‘g‘ullar safini yorib o‘tadi va Sayhun daryosi o‘rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Mo‘g‘ullarning kamon o‘qlari va palaxmon toshlari uzoqqa yetib bora olmas edi. Mo‘g‘ullar daryoga toshlarni tashlab vatanparvarlar tomon o‘tishga qaror qiladi va askarlarga

---

[892] Петрушевский И. П. Рашид ад-Дин и его исторический труд ... С. 5–38.

[893] Бартольд В. В. Джувейни, Ала ад-Дин // Бартольд В. В. Сочинения. М.: Наука, 1973. Т. VIII: Работы по источниковедению. С. 591–595.

[894] Мирмуҳсин. Хўжанд қалъаси (Темур Малик). Тарихий роман. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. 340-б.

3 farsax (18–24 km) uzoqlikdan toshlarni olib kelib, daryoga tashlab, to‘g‘on (damba)lar hosil qilmoqchi bo‘ladilar.

Temur Malik esa o‘zining jasur yigitlari bilan tunda qayiqlarda suzib kelib, kuni bilan hosil qilingan to‘g‘on (damba)larni buzib ketar edi. Temur Malikning buyrug‘iga ko‘ra, 12 ta maxsus qayiq qurilgan. Dushman otgan o‘qlar qayiqlarni teshib o‘tmasligi, olovli o‘qlar ularni yondirib yubormasligi chorasi sifatida qayiqlarning usti namat bilan qoplanadi, ustidan esa sirkali loy suvaladi. Bunday kemalarda Temur Malik bemalol, qo‘rqmasdan daryo sohillari tomon suzib borib, mo‘g‘ullarga qiron keltirar edi. Ammo, kuchli dushman bilan bunday usulda uzoq vaqt jang qilishning iloji yo‘q edi. Shuning uchun Temur Malik 70 ta kema, ya’ni qayiq qurdirib, daryoning quyi qismi orqali mash’allar yoqib suzib borib, Xorazm (Orol) dengizi va Jayhun orqali Urganchga yetib olishga qaror qiladi.

Daryoning har ikki qirg‘ogidan esa mo‘g‘ullarning otliq suvoriylari Temur Malik kuchlari ustiga tinimsiz kamon o‘qlarini yog‘dirar edilar. Qattiq jang, olovli mash’allar bilan Temur Malik sarbozlari Jand tomon dadil suzib boradi. Barchig‘likent va Jand yaqinida daryoning har ikkala sohili bo‘ylab sarhang Ulus Idi boshliq dushman kuchlari daryo ustiga zanjir tortib, mustahkam to‘siq quradilar. Ammo, Temur Malik ushbu to‘siqni buzib o‘tib, Jand shahrida qirg‘oqqa chiqishga muvaffaq bo‘ladi. Qirg‘oqda Temur Malik bahodirlari bilan mo‘g‘ullar o‘rtasida mislsiz va shiddatli jang bo‘ladi. Ushbu jangda Temur Malik o‘z qo‘shini va safdoshlaridan deyarli batamom ayriladi.

Faqat kichik bir guruh yigitlar bilan qolgan Xo‘jand hokimi mo‘g‘ullarning butun boshli qo‘shiniga qarshi jang maydonida ot suradi. Juvayniyning yozishicha: “Orqadan ta’qib etib kelayotgan dushmanni yo‘l-yo‘lakay chopib, kamondan o‘qqa tutib parokanda etdi, mo‘g‘ul sardorlaridan birining ko‘zini ko‘r qildi. “Yana ikki o‘q-yoyim bor, ikkovingga ham yetadi. Yaxshisi, orqaga qaytinglar!” deb xitob qiladi Temur Malik. Vahimaga tushgan mo‘g‘ullar otlari jilovini orqaga tortib qaytib ketdilar”.

Ana shu tariqa Temur Malik qattiq mashaqqat va qahramonliklar evaziga Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganchga yetib boradi va Jaloliddin Manguberdi kuchlariga qo‘shiladi. U Xorazm bahodiri bilan mo‘g‘ullarga qarshi olib borilgan juda ko‘p janglarda qatnashadi. Jo‘jiga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshiradi va hatto undan Sirdaryoning quyi oqimidagi Yangikent shahrini qaytarib ham oladi. Ularning hammasi yoritilayotgan voqealarning nafaqat guvohi, balki qatnashchilaridir, shu boisdan ular yaratgan asarlar o‘sha davrning muhim tarixiy hujjatlari bo‘la oladi.

Bu davr haqida ma’lumot beruvchi yana bir muhim manba Xurshoh ibn Qubodning yetti maqoladan iborat “Тарихи элчи Низомшоҳ” asari hisoblanadi. M. Hamdamova keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu manba miloddan avvalgi davrlardan to milodiy XVI asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr tarixiga oiddir. Uning

III–VI maqolalari O‘rta Osiyoda IX–XVI asrlarda hukm surgan davlatlar tarixiga bag‘ishlangan[895].

Asar muallifi to‘liq ismi Xurshoh ibn Qubod al-Husayniy bo‘lgan va u Markaziy Hindistonda Dekkan viloyatidagi Ahmadnagarning Bahmaniy shohi Burhon Nizomshoh I ning (podshohlik yillari 914/1508 – 961/1553) saroy mulozimlaridan bo‘lgan. Lekin, uning tug‘ilgan yili, qachon va qanday sharoitda Hindistonga kelgani noma’lum.

M. Hamdamovaning fikricha, Xurshoh ibn Qubod Anushteginiy-Xorazmshohlar haqida o‘z asari uchinchi maqolasining o‘n ikkinchi bobida bayon qiladi. Anushteginiy-Xorazmshohlar tarixi Z. M. Buniyotov tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Bu borada birinchi o‘rinda uning “Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. 1097–1231” asari turadi. Mazkur asarning o‘zbekcha nashri ham chop etilgan. Z. M. Buniyotov o‘z kitobini asosan, avval o‘zi nashr etgan Shihobiddin an-Nasaviyning “Сийрат ас-султон Жалолиддин Манкбурни” asari asosida yozib, boshqa ko‘plab manbalardan ham foydalangan. Z. M. Buniyotov Anushteginiy-Xorazmshohlarga bag‘ishlangan asarida “Tarixi elchi Nizomshoh”ni eslatmaydi. Shuning uchun ham Xurshoh asarining bu boradagi ahamiyati yanada ortadi. Xurshoh ibn Qubodning talqinida sulolaning asoschisi Nushtegin (Anushtegin) G‘archoiy Sulton Malikshoh Saljuqiyning (1072–1092) mamluki Bilgategin (vafoti 1098-yil)ning g‘ulomi va tashtdori, Z. Buniyotov tayangan manbaga ko‘ra esa Anushtegin Sulton Malikshohning tashtdori bo‘lgan. Xurshoh ibn Qubod talqinida Anushteginning o‘g‘li Qutbiddin Muhammadning Xorazmga shihna (komendant) etib tayinlanishi ham Z. Buniyotov manbalari (Ibn al-Asir va Juvayniy)dan farqlanadi[896]. Asarning to‘liq matni tahlili bilan tadqiqotchi M. Hamdamova shug‘ullangan va mavzu yuzasidan bir nechta maqolalar chop etgan[897].

## Mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi milliy-ozodlik kurashi tarixining o‘rganilishi

O‘zbekiston tarixining eng fojiali sahifalaridan biri bo‘lgan mo‘g‘ullar bosqini va ularning hukmronlik davri Yoqut Hamaviy[898], Shahobiddin

---

895 Хамдамова М. А. «Тарихи элчи Низомшоҳ» Марказий Осиенинг IX- XVI асрлардаги тарихига оид манба сифатида. Тарих фан. номз. дисс. ... автореф. Тошкент, 2007. 10-24-бетлар.

896 Shu joyda.

897 Аҳмедов А., Ҳамдамова М. Элчи Низомшоҳнинг “Тарихи элчи Низомшоҳ” асари ҳақида // O‘zbrekiston tarixi. 2000. № 1–2. 47–50-бетлар; Ҳамдамова М. "Тарихи элчи Низомшоҳ" Ануштегиний–Хоразмшоҳлар давлати ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Тошкент, 2001. №6. 72–75-бетлар; Shu muallif. Зарафшон воҳаси Амир Темур даврида («Тарихи элчи Низомшоҳ» асари асосида) / Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни мавзусидаги Республика конференцияси материаллари: Тез.док. Самарқанд, 2001. 133-134-бетлар; Shu muallif. Тарихи элчи Низомшоҳ" Салжуқийлар давлати ҳақида // СамДУ ахборотномаси. Самарқанд, 2004. №2. 33–34-бетлар.

898 Крымский А. Е.,. Якут ибн Абдаллах // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

Muhammad an-Nasaviy[899], Jamol Qarshiy[900] va boshqa tarixchilar asarlarida keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, tarixiy manbalarni o'rganish uchun keng yo'l ochildi. Jumladan, 1425-yilda yozilgan Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub "Тарих-и арбаъ улус" (Тўрт улус тарихи) asari 1994-yilda Bo'riboy Ahmedov[901], Naim Norqulov va Mahmud Hasaniylar tarjimasida Toshkentda nashr etildi. Afsuski, mazkur asarning to'liq nusxasi hali topilmagan. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to'rtta nusxasi saqlangan bo'lib, uning ikkitasi Angliya, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasi, to'rtinchisi esa AQShning Garvard universitetida saqlanadi. Ushbu asarning tarjimasi, shubhasiz, uni o'zbek tilida o'qiy olish imkonini berib, qiziquvchilar safini kengaytiradi.

Shu o'rinda, asar haqida rus olimi V. V. Bartold tomonidan bildirilgan ayrim fikrlarni[902] qayd etish maqsadga muvofiqdir. Avvalambor, shuni ta'kidlash kerakki, olim o'zining bir qator ilmiy risolalari ("Туркистон мўғуллар босқини даврида", "Улуғбек ва унинг даври" hamda boshqalar)da Ulug'bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan. Lekin, noma'lum sabablarga ko'ra, uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo'shmaydi, to'g'rirog'i, asarning qimmatini bir qadar pasaytirmoqchi bo'ladi. Chunonchi, u bu haqda shunday yozadi: "Shohruhning o'g'li va taxt vorisi Ulug'bek (1449-yilda o'ldirilgan) "Тўрт улус тарихи"ni bitgan. Asar o'z nomiga ko'ra, Mo'g'ullar imperiyasining to'liq tarixini o'z ichiga oladi. Ulug'bekning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba'zi manbalar, xususan, Xondamirning "Ҳабиб ус-сияр"ida undan olingan parchalar uchraydi. Ushbu parchalardan ko'rinib turibdiki, mo'g'ullar davlati tarixi muallif yashagan davrgacha bayon qilingan. Ammo, muallif o'sha podsholiklar haqida to'la ma'lumot bermaydi, aksincha, xonlarning nomini qayd etish bilangina kifoyalangan, xolos. Shu sababdan ham ushbu asarning bizgacha yetib kelmaganidan ortiqcha qayg'urib o'tirishga asos yo'q, desa ham bo'ladi".

"Тўрт улус тарихи" asarining uchinchi bobida Movarounnahr tarixiga oid muhim ma'lumotlar uchraydi. Bular – Xorazmshoh Alouddin Muhammadning mo'g'ullar istilosi arafasida Samarqandni mustahkamlash borasida olib borgan ishlari, Balx shahrining mo'g'ullar tomonidan qamal qilinishi va mo'g'ul armiyasi tarkibida Chingizxonning boshqa mamlakatlarni bosib olishda faol ishtirok etgan turk qo'shinlari hamda ularning sardorlari haqidagi ma'lumotlardir. Birinchi misol, "Тарих-и арбаъ улус"da keltirilgan

---

[899] Сират ас-султан Джалал ад-Дин Манкбурны. М.: Восточная литература, 1996.

[900] Абусеитова М. Х. (сост.) История Казахстана в персидских источниках. Том 1. Джамал ал-Карши. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 410 с.

[901] Аҳмедов Б. Тўрт улус тарихи. Тошкент: Чўлпон, 1994. 352 б. Asarning mazkur o'zbekcha nashri Britaniya muzeyi (Angliya)da saqlanayotgan ADD 26190 raqamlik qo'lyozma asosida 1994-yilda B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniylar tomonidan amalga oshirilgan.

[902] Бартольд В. В. Сочинения. Том 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия ... С. 105–106.

ma'lumotlarga ko'ra, mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohning farmoni bilan 300 ming odam Samarqand devorlari, qal'asi va boshqa mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga safarbar qilingan, o'shanda haqiqatdan ham shaharni mustahkamlash, uni qamalga hozirlash borasida katta ishlar olib borilgan ekan. Asarda keltirilgan ushbu ma'lumot 1960-yilda Afrosiyobda olib borilgan arxeologik kuzatish va qazish ishlarining natijalari bilan ham tasdiqlandi[903].

Ma'lumki, 1221-yilning bahorida mo'g'ullar Xurosonning qadimgi iqtisodiy-siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lmish Balx shahrini ishg'ol qilib, uni vayronaga aylantirdi. Ibn al-Asir (1160–1233)ning guvohlik berishicha, shahar o'z ixtiyori bilan dushmanga taslim bo'lgan. Shuning uchun ham Chingizxon Balx xalqiga mehr-shafqat ko'rsatgan hamda shahar va uning xalqini omon qoldirgan. Boshqa bir tarixchi – Alouddin Juvayniy (1226–1283)ning so'zlariga qaraganda, Chingizxon avval shahar va uning xalqiga omonlik va'da qilgan, lekin so'zida turmay, shaharni vayron qilgan. Mirzo Ulug'bek bu haqda tamoman boshqa ma'lumot keltiradi. Uning so'zlariga qaraganda, Chingizxon balxliklar so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin (1198–1231)ning odamlariga boshpana berganliklari uchun shahar va uning xalqini jazolagan. Chingizxonning amri bilan Balxob daryosiga qurilgan Bandi Amir to'g'onini buzib tashlangan, o'shanda Balx va uning tumanlari olti oy mobaynida suv ostida qolib ketgan.

Asarning eng muhim qismi – uning yettinchi bobidir. Unda Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 250 yillik tarixi o'rganilmagan. Buning asosiy sababi, bu haqda qo'lyozma manbalarda yetarli ma'lumotlar yo'qligidir.

Asar "Улус-а арбаъ-йи Чингизий" ("Чингизийларнинг тўрт улуси") va "Тарих-и арбаъ улус" ("Тўрт улус тарихи") nomlari bilan mashhur. Lekin, Yevropa sharqshunoslari orasida ushbu asarni birinchilar qatorida o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls yetarli asosi bo'lmagani holda bu kitobni "Шажарат ул-атрок" ("Турк (хоқон)ларининг шажараси") deb ataydi. Chuqur va atroflicha o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, asarning faqat Yofas o'g'lon va uning o'g'li Turkxon hamda farzandlari tatar-mo'g'ul bilan turk tabaqalari, shuningdek, ularning podsholarigina "Шажарат ул-атрок" asosida yozilgan, xolos.

Asarning Chingizxonning ulug' ajdodi Buzunjor qondan boshlab Movarounnahrni XIII–XIV asrning birinchi yarmida idora qilgan Chig'atoyxon avlodi tarixini o'z ichiga olgan qismi "Ulus-i arba'-yi Chingiziy" yoki "Tarix-i arba' ulus" deb ataladi. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, V. V. Bartold ushbu asar haqida ko'plab tanqidiy fikrlar bildirgan. Olim bir qator ilmiy

---

[903] Аҳмедов Б. Тўрт улус тарихи. Тошкент: Чўлпон, 1994. 5–14-бетлар.

risolalarida, xususan, “Туркистон мўғуллар босқини даврида” va “Улуғбек ва унинг даври”da Ulug‘bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan, biroq V. V. Bartold uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo‘shmaydi. Olim bu haqda shunday deb yozgan edi: “Shohruhning o‘g‘li va taxt vorisi Ulug‘bek “Тўрт улус тарихи”ni yozgan. Asar o‘z nomiga ko‘ra, mo‘g‘ullar imperiyasining to‘liq tarixini o‘z ichiga oladi. Ulug‘bekning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba’zi manbalar, xususan, Xondamirning “Ҳабиб ус-сияр”ida undan olingan parchalar uchraydi. Ushbu parchalardan ko‘rinib turibdiki, mo‘g‘ullar davlati tarixi Xondamir yashagan davrgacha bayon qilingan[904].

Olimning boshqa bir asarida esa mana shu ma’lumotlarni o‘qish mumkin: “Ulug‘bek qalamiga taalluqli deb hisoblangan tarixiy asar ehtimol, adabiy manba va tarixni tanqidiy o‘rganish uchun material sifatida birmuncha qiziqish uyg‘otishi mumkin, lekin mazkur asar nusxasi topilganda ham mo‘g‘ullar imperiyasi yoki uning inqirozidan so‘ng tashkil topgan davlatlar tarixiga oid bo‘lgan mavjud ma’lumotlarni boyitadi, deb aytish qiyin”. Tarixchi B. Ahmedov Bartoldning “Tarix-i arba’ ulus”ga bunday munosabatda bo‘lishining ikkita sababi borligini qayd etadi. Birinchidan, jahon kutubxonalarida mazkur asar to‘liq nusxasining saqlanmaganligi va ikkinchidan, XV–XVII asrlarga oid tarixiy qo‘lyozma asarlarning hozir ham qoniqarli darajada o‘rganilmayotganligidir. Lekin, haqiqat faqat ma’lum mavzuga bag‘ishlangan asarlarni bir-biriga qiyoslab o‘rganish va ular keltirgan ma’lumotlarni diqqat bilan tekshirish orqaligina aniqlanadi[905].

Asarni yozishda muallif ko‘plab tarixiy va geografik manbalardan foydalangan. Ulug‘bek ko‘p hollarda o‘z manbalarini aniq ko‘rsatmaydi va “aytishlaricha”, “qissa va tarix kitoblarda yozilishicha”, “Chig‘atoy ulusi ulamolarining kitoblarida keltirilishicha”, “bir guruh odil, haqiqatgo‘y tarix arboblarining aytishicha” kabi umumiy iboralar bilan cheklanadi. Lekin, ayrim o‘rinlarda o‘zi foydalangan ba’zi asarlar va ularning mualliflari nomini ham tilga oladi. Bular orasida mashhur astronom Abu Ma’shar Balxiy, yirik olim, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot, mashhur tarixchi-yu, davlat arboblari Alouddin Otamalik Juvayniy, Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy, Hamidulloh Mustovfiy Kazviniy va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Olim hadis kitoblar va rivoyatlardan foydalanganligini ham qayd etadi. Asarda Rashiduddin Votvot, Xo‘jandiy va Nizomiydan olingan she’riy parchalar ham uchraydi. Bu Ulug‘bekning mazkur asarini yozishda mazmun jihatdan xilma-xil va katta hajmdagi manbalardan keng foydalanganini ko‘rsatadi[906].

---

904 Бартольд В. В. Улугбек и его время. Петроград: Типография Российской Академии наук, 1918. С. 8–35.

905 Аҳмедов Б. Тўрт улус тарихи ... 5–14-бетлар.

906 Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Тошкент: Чўлпон, 1994. 9–102-бетлар.

Asar muqaddima va yetti bobdan iborat bo'lib, uning muqaddimasida o'rta asrlarda tarix fanida hukm surgan an'anaga ko'ra, Tangri taolo, uning elchisi, payg'ambarimiz Muhammad (SAV) avlodlari sha'niga aytilgan maqtovlar, Odam Atoning yaratilishi hamda islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar (Shis, Kaynon, Mahloyil va boshqalar), Nuh alayhissalom va uning farzandlari tarixi qisqacha bayon qilinadi.

Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227–1370) tarixi o'rganilmagan. Buning asosiy sababi, muammoga oid yozma manbalarning yetarli emasligidir. To'g'ri, Chig'atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma'lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning "Зафарнома" va Mahmud ibn Valining "Баҳр ул-асрор" asarlarida ham keltirilgan. Lekin, "Tarix-i arba' ulus" ularga nisbatan bir qadar to'laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig'atoy va O'qtoy xoqon naslidan (Ali sulton, Donishmandchaxon, Suyurg'atmishxon va Sulton Mahmudxon) bo'lgan 33 nafar xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan.

Chingizxon vafoti (1227 y.)dan oldin o'z tasarrufidagi mamlakatlarni o'g'illariga taqsimlaganda, ikkinchi o'g'li Chig'atoyga Sharqiy Turkiston, yettisuv va Movarounnahrni Xorazmning bir qismini in'om qilgani, hozirgi Afg'oniston va Shimoliy Hindiston yerlari esa Chig'atoylar tasarrufiga keyinchalik o'tganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan. "To'rt ulus tarixi"da keltirilishicha, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston hududlari ham Chingizxonning hayotligidayoq Chig'atoyga berilgan. Bu haqda asarda quyidagilarni o'qish mumkin: "Chingizxon Turonzamin mamlakati hokimligini Koshg'ar sarhadlaridan uyg'urlar yeri chegarasigacha; Jayhun daryosi adog'igacha yastangan yerlar: Eron bilan Turon oralig'idagi Balx, Badaxshon, Qobul, G'aznin, Sind daryosigacha bo'lgan yerlarning ko'p qismini shu suyukli farzandi Chig'atoyxonga berdi"[907].

Asardagi Chig'atoy qo'shinining tuzilishi, ayniqsa, harbiy bo'linmalar nomi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, qo'shinning qorovul qismi o'sha vaqtlarda bulung'or, irovul (ilg'or qism orqasidan boruvchi bo'linma) – burung'or, maymana (o'ng qanot) – avang'or, soqa (ar'ergard) – o'kchung'or deb atalgan.

Shunday qilib, fan va madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Mirzo Ulug'bek tarix fani sohasida ham samarali faoliyat olib borgan. Buning natijasini "Тўрт улус тарихи"da ko'rish mumkin. Ko'p bora tanqidlarga uchragan ushbu asar o'zining ilmiy ahamiyati va o'quvchisini yo'qotmagan, undagi ma'lumotlar o'z ahamiyatini saqlab qolgan. "Тўрт улус тарихи" Markaziy Osiyoning XIII–XIV asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim o'rin egallashi shubhasizdir.

---

[907] Shu joyda. 297-б.

Mo‘g‘ullar bosqinining Markaziy Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojea keltirganligi Shihobiddin an-Nasaviyning “Султон Жалолиддин Мангуберди”[908] asarida ham to‘liq yoritilgan.

Bizga ma’lumki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixining ko‘pgina jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, o‘zbek xalqi milliy qahramonlarining nomlari tiklandi va chuqur tadqiq qilina boshlandi. Shunday qahramonlardan biri Jaloliddin Manguberdi bo‘lib, uning hayoti va faoliyati haqida ko‘plab asarlar yaratildi. U haqdagi XIII asrdan to hozirgacha yaratilgan asarlar soni salkam 500 jildga yaqin kitobni tashkil etadi[909].

Shularning orasida eng ishonchli va asosiy tarixiy manba Shihobiddin Muhammad an-Nasafiyning “Сират ас-султон Жалолиддин Манкбурни” (“Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti”) asaridir. Ushbu manbani o‘rganish buyuk sarkardaning hayoti haqida aniqroq va chuqurroq tushuncha olishga imkon berib, ozodlik va erk uchun kurash azaldan o‘lka aholisining qon-qoniga singib ketgan tushuncha ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish, bugungi yoshlarning vatanga bo‘lgan muhabbatlarini yanada oshirish, ular buyuk ajdodlarning avlodi ekanligini tarixiy manba asosida bayon qilish imkonini beradi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаётининг тавсилоти” asari arab tilida yozilgan. Asarning ikkita to‘liq bo‘lmagan qo‘lyozmasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ulardan biri 1260 yilda yozilgan qo‘lyozmasi Parij Milliy kutubxonasi, ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanadi. Mazkur asar haqida g‘arb tarixiga ilk ma’lumotni XIX asr o‘rtalarida K. D’Osson olib kiradi[910]. Uning 1852-yilda Amsterdamda nashr etilgan “Мўғулларнинг Чингизхондан Амир Темургача бўлган тарихи” deb nomlangan asarida bu haqda mufassal ma’lumot berilgan. Keyinchalik sharqshunos olim Oktav Udas asarni fransuz tiliga tarjima qiladi va nashr ettiradi. Ushbu asarning jahon tarixidagi o‘rni haqida bir qancha maqolalar yozadi.

Shundan keyin g‘arb tarixida A. Myuller, J. Boyl, V. Fishsl, V. Allen, X. Xorst, Kl. Kaen, G. Gotshalk va B. Shpuler kabi olimlarning Jaloliddin to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlari paydo bo‘ladi. Ular Nasaviyni asari bilan birgalikda Jaloliddin Manguberdining tarixdagi o‘rniga ham munosib baho beradi[911].

O. Udas tarjimasi asosida Nasaviyning ushbu asarini 1914–1916-yillarda Yu. Ziyo va A. Tavhid turk tiliga o‘girib, nashr qiladi. 1934-yilda mazkur asar Najib Asim tarjimasida yana bir bor turk tilida nashr qilinadi. Bunda avvalgi tarjimada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar to‘ldiriladi va asar mukammallashtiriladi.

---

908 Шиҳобиддин ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
909 Ko‘rsatilgan asar. 6-б.
910 Tableau historique de l’Orient, Ignatius Mouradgea d’Ohsson. Didot jeune, 1804.
911 Мирхонднинг “Равзат ус-сафо” асарида Жалолиддин Мангуберди зикри. Тошкент, 1999. 243-б.

Keyinchalik O. Udas tarjimasidagi asar Qohirada nashr etiladi. 1945-yilda ushbu asar Muhammad Ali Nasix tomonidan fors tiliga ham o'giriladi. 1953-yilda Hofiz Ahmad Hamdiy uni O. Udas tarjimasi asosida arab tiliga tarjima qilib, chop etadi. Keyinchalik Nasaviyning ushbu asari boshqa tillarga ham tarjima qilindi.

"Сират" rus tiliga 1850–1900-yillar oralig'ida qisqartirilgan holda bir necha bor tarjima qilingan. Uning Rossiyada o'rganilishida Peterburg universitetining professori, shayx Muhammad Tantaviyning xizmatlari beqiyos. Avvalo, shayx Tantaviy Parij Milliy kutubxonasidagi Nasaviy asari qo'lyozmasini qaytadan ko'chirib oladi. Uning yo'qolgan sahifalari va o'chib ketgan joylaridagi so'zlarni asar ruhidan kelib chiqqan holda to'ldiradi hamda ayrim joylariga aniqlik kiritadi. Shu tariqa, an-Nasaviy asarining shayx Tantaviy tayyorlagan nusxasi O. Udas nashr ettirgan nusxasidan ko'ra to'laroq va mukammalroq chiqadi[912].

Ushbu asar ustidagi ishni keyinchalik ozarbayjonlik tarixchi, sharqshunos olim Ziyo Buniyotov davom ettiradi. U an-Nasaviy asarining arab, fransuz va fors tillaridagi hamda shayx Tantaviyning nusxalari asosida uning tanqidiy matnini tayyorladi. Ammo, ushbu ish 1960-yillardan beri nashr qilinmasdan qolib kelmoqda. Ayni paytda, olim asarning to'liq nusxasini tanqidiy matn asosida rus tiliga tarjima qilib, 1973-yilda Bokuda nashr ettirgan. Afsuski, an-Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi haqidagi eng ishonchli manba bo'lgan ushbu asari ham, uni tadqiq qilish asosida xorijlik qadimshunoslar tomonidan yaratilgan boshqa o'nlab asar va maqolalar ham o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Jaloliddin Manguberdi haqida yozilgan asarlardan yana biri Nuriddin Zaydariyning fors tilidagi "Нафсат ал-масдур фи фугур заман ас-судур ва заман ас-судур ал-футур" yilnomasidir. Nuriddin Zaydariy ham Jaloliddinning munshiysi, ya'ni kotibi bo'lgan. Tarixchilarning ma'lum qismi Zaydariyning ushbu asarini an-Nasaviyning **"Сират"**idan tarjima deb baholasalar, ba'zilari esa alohida mustaqil asar, deb qaraydilar. Ziyo Buniyotov ikkala asar – "Сират" va "Нафсат ал-масдур"ni ham o'rganib, bir shaxs, voqea-hodisalar va bir tarix haqidagi ikki asar, deb yozadi. Qanday bo'lmasin, ushbu asarning mavjudligi va unda Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumotlarning berilganligi tarixni o'rganish uchun muhim katta ahamiyatga ega.

Jaloliddin Xorazmshoh hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar beruvchi manbalardan biri Izziddin ibn al-Asirning o'n ikki jilddan iborat "ал Комил фит-тарих" ("Mukammal tarix")[913] asaridir. Jahon tarixiga oid voqealar xronologik tarzda qayd etilgan ushbu asarda Xorazmshohlar davlati faoliyatiga

---

[912] Бўриев О., Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди (Даври. Саркардалак фаолияти. Манбалар). Тошкент: Фан, 1999. 30–31-бетлар.

[913] Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории). Избранные отрывки Пер. с араб. языка, примеч. и коммент. П. Г. Булгакова. Дополнения к пер., примеч. и коммент., введ. и указ. Ш. С. Камолиддина. Ташкент – Цюрих: АН РУз, 2005. 595 с.

alohida o‘rin berilgan. Asar muallifi kitobida keltirgan voqealarni ko‘rmagan, shohidi bo‘lmagan bo‘lsa ham, eshitganlari asosida yaratgan.

Shihobiddin an-Nasaviy Ibn al-Asirning ushbu kitobiga yuqori baho berib, bunday deb yozadi: “U asarida ba’zi o‘rinlarda haqiqatdan bir oz chekingan bo‘lsa-da, eng muhim va asosiy voqealardan birortasini e’tibordan chetda qoldirmagan”. Shuningdek, Nasaviy uning ushbu kitobidan ta’sirlangani va o‘z asarini yaratishda undan foydalanganini ham eslatadi. Shundan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, Ibn al-Asirning mazkur asari Nasaviy asaridan o‘n yillar ilgari yozib tugallangan. O‘tmish tariximiz to‘g‘risida boy manbalarga ega bo‘lgan va jahonning ko‘plab tillariga o‘girilgan ushbu asar ham o‘zbekchaga tarjima qilinmagan[914].

O. Bo‘riyev va N. Toshevlarning bergan ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur asardan tadqiqotchilar muntazam foydalanib kelmoqdalar. Bu manba XIX asrda Xiva xoni, Firuz taxallusi bilan she’rlar yozgan Muhammad Rahimxon II (1844–1910) buyrug‘i bilan o‘zbek tiliga ham to‘la tarjima qilingan. Mazkur tarjimaning bir qancha qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud. №825 qo‘lyozmaning o‘n ikkinchi daftari (jild)dan mo‘g‘ullar istilosi, Muhammad Xorazmshoh va Sulton Jaloliddin haqida yozilgan ba’zi lavhalar haqida hikoya qiladi[915].

Shuningdek, Juvayniyning “Тарихи жаҳонкушой”[916], Rashididdinning “Жомъе ат-таворих”[917] va Juzjoniyning “Табоқоти Носирий”[918] asarlarida ham Jaloliddin Manguberdi xususida ma’lumotlar berilgan. Mo‘g‘ul xonlari xizmatida bo‘lgan bu tarixchilar sulton hayoti va faoliyatini rahnamolari talabi bilan bir yoqlama yoritishga majbur bo‘lgan. Shunga qaramay, ular ham sultonning mardligi va qahramonliklaridan ko‘z yumolmaydilar – u haqdagi tarixiy haqiqatni e’tirof etadilar. Bunday e’tiroflar mo‘g‘ullar tarixi – “Муқаддас битиклар” (“Yuan-chao bi-shi”)[919] va Chingizxon xizmatida bo‘lgan xitoylik tarixchilar yetyuy Chu-Say va Sun Szi-Chjen asarlarida ham uchraydi. Ularda Xorazmshohlar davlati, qo‘shin tarkibi va aholining kundalik hayoti haqidagi ma’lumotlar keltiriladi, shuningdek, Jaloliddinning qahramonliklari va kurash yo‘llari to‘g‘risida so‘z boradi.

Jaloliddin Manguberdining 800 yillik yubileyi munosabati O‘zbekistonda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Urganchda Jaloliddin Manguberdi haykali o‘rnatildi, Muhammad an-Nasafiyning Sulton Jaloliddin

---

[914] Мирхондиниг “Равзат ус-сафо” асарида Жалолиддин Мангуберди зикри. Тошкент, 1999. 243-б.

[915] Бўриев О., Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди (Даври. Саркардалак фаолияти. Манбалар). Тошкент: Фан, 1999. 29–30-бетлар.

[916] Бартольд В. В. Джувейни, Ала ад-Дин // Бартольд В. В. Сочинения. М.: Наука, 1973. Т. VIII: Работы по источниковедению. С. 591-595.

[917] Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского Ю. П. Верховского, редакция проф. И. П. Петрушевского. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1960. Т. 2.

[918] Tabaqat-i-Nasiri, Bibliotheca Indica, Calcutta, 1864.

[919] Cleaves, F. W., trans. The Secret History of the Mongols. Cambridge and London: Published for the Harvard-Yenching Institute[en] by Harvard University Press, 1982.

Manguberdining hayotiga oid asari nashr etildi, old tomoniga Jaloliddin Manguberdi timsoli tushirilgan 25 so'mlik tangalar zarb etildi.

Xondamirning "Маъосир ул-мулук" ("Hamasr podshohlarining tarixi"), "Дастур ул-вузаро" va "Ҳабиб ус-сияр"[920] asarlarida ham mo'g'ullar bosqini, ushbu davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot keng yoritilgan.

**"Маъосир ул-мулук" ("Hamasr podshohlarining tarixi").** Tarixchi olim Xondamir o'zining 63 yillik umri davomida taxminan o'n uchta asar yozgan bo'lib, ulardan bizgacha sakkiztasi yetib kelgan. Uning "Маъосир ул-мулук" asari Alisher Navoiyning iltimosiga ko'ra va unga minnatdorchilik tariqasida 1498–1499-yillarda yozilgan edi[921]. Ushbu asar podshoh hamda qadimgi donishmandlarning xayrli ishlari to'g'risidagi hikmatlarini o'z ichiga oladi. Asarda muallif ummaviylar, abbosiylar, somoniylar, g'aznaviylar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi hamda shular qatorida Qurd podshohlari hamda turk xoqonlari tarixini yoritgan. Asarning oxirgi qismida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyga zamondosh bo'lgan hukmdor, olim hamda donishmandlar haqida ma'lumotlar aks etgan.

**"Дастур ул-вузаро"[922]** ("Vazirlar uchun qo'llanma") Alisher Navoiyning iltimosiga ko'ra, 1500–1501-yillarda yozilgan, Husayn Boyqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag'ishlangan asar bo'lib, oradan to'qqiz yil o'tgach, qayta ishlangan va kengaytirilgan. Unda Sharq mamlakatlarining VII–XVI asrlardagi tarixi, shu jumladan, Movarounnahr hamda Xurosonda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o'tgan vazirlar, Chingizxonning vaziri, keyinroq mo'g'ullarning Xitoydagi noibi, xorazmlik Mahmud Yalavoch hamda uning o'g'li Chig'atoy xonlarining Movarounnahrdagi vaziri Mas'udbek to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Xondamirning hayoti va ijodi haqida o'zbek olimlaridan B. Ahmedov hamda D. Yusupova ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**"Ҳабиб ус-сияр".** Xondamirning eng yirik asari "Ҳабиб ус-сияр фи ахбор афрод ул-башар" (Inson zoti xabarlari va do'stning tarjimai holi)dir. Ushbu asar 927 (1520–1521) – 930 (1523–1524)-yillarda yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiyga bag'ishlangan. Ushbu asarda qadim zamonlardan to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlari, shu jumladan, Eron, Afg'oniston, Iroq va Markaziy Osiyo davlatlarida sodir bo'lgan voqealar hikoya qilingan[923]. Asar muallif Hindistonda bo'lgan yillari (1528–1535)da yana ikki marta qayta tahrirdan chiqarilgan. Shuning uchun ham ushbu asarni shu yillar orasida tugal tamomlagan, deb hisoblash mumkin.

Xondamir ushbu asarini yuqorida nomi zikr etilgan vazir Xoja Habibullo Sovajiga atagan, chunki bu amaldor Xondamirga o'z vaqtida ko'p marhamat va

---

920 Отрывок из 3 тома «Хабиб ас-сияр» – «Друг биографий» // Миргалеев И. М. Материалы по истории войн Золотой Орды с империей Тимура. Казань: Институт истории АН РТ, 2007. С. 42–55.

921 Электрон манба: http://e-tarix.uz/shaxslar/725-maqola.html.

922 Электрон манба: https://bigenc.ru/world_history/text/4696339.

923 Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Тошкент: Sharq, 2010. 452-б.

iltifotlar ko'rsatgan edi. Asarda qadim zamonlardan to XVI asrning 30-yillariga qadar musulmon sharqi, xususan, Eron, Afg'oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan voqealar talqin etiladi[924].

"Ҳабиб ус сияр" muqaddima, xotima va uchta bobdan iborat bo'lib, har bob o'z navbatida, to'rt qismga ajratiladi. Birinchi bobda islomdan ilgari o'tgan payg'ambarlar, Arab va Ajam mamlakatlarining Arab xalifaligigacha bo'lgan umumiy siyosiy ahvoli, Muhammad payg'ambar (s.a.v), shuningdek, xalifa Abubakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–656) va Ali (656–661) zamonida yuz bergan voqealar bayon qilinadi.

Asarning ikkinchi bobida shia imomlari, Ummaviylar (661–750) va Abbosiylar sulolasi (750–1258) davrida Arab xalifaligi va uning bosqinchilik urushlari, Tohiriylar (820–873), Safforiylar (868–903) va Somoniylar (874–999) sulolalari haqida hikoya qilinadi. Uchinchi bob Chingizxon va uning avlod-ajdodlari, u bilan zamondosh bo'lgan boshqa sulolalar (Qoraxitoylar, Xorazmshohlar, sarbadorlar va boshqalar), Temuriylarga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, ushbu bobda Movarounnahr, so'ngra Xurosonning Muhammad Shayboniyxon yetakchiligida ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan bosib olinishi va Ismoil Safaviy davrida Eron, Afg'oniston va Iroqning siyosiy ahvoli hikoya qilinadi. "Ҳабиб ус сияр"ning muqaddimasida olamning paydo bo'lishi, xotimada esa jahonning ajoyibot va g'aroyibotlari (iqlimlar, mashhur daryo, dengiz, ko'l, sahro hamda tog'lar) xususida so'z boradi.

Xondamirning yana bir asari "Ҳумоюннома" bo'lib, ushbu asar "Qonuni Humoyun" nomi bilan ham mashhur va Hindiston podshohi, Boburning o'g'li Humoyunga bag'ishlangan[925]. " Ҳумоюннома " 941 (1534–1535) yilda yozib tugallangan. Asarda Humoyun davrida Hindistonda joriy etilgan yangiliklar, aholining uch tabaqa, hokimiyatning esa to'rt idora usuliga bo'linishi va Humoyun tomonidan amalga oshirilgan me'morchilik ishlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan.

Xondamirning boshqa beshta asarining faqat nomlarigina ma'lum, xolos. Bular – "Осор ул-мулук вал-анбиё" ("Podshoh va payg'ambarlar haqida hikoyalar"), "Ахбор ул-ахёр" ("Yaxshi insonlar haqida xabarlar"), "Мунтаҳиби тарихи вассоф" ("Vassof tarixidan saylanma"), "Жавоҳир ул-ахбор" ("Xabarlar gavharlari") va "Ғаройиб ул-асрор" ("Qiziqarli sirlar")dir[926].

Shuni alohida qayd etish joizki, Xondamir o'z zamonasining yetuk vakillaridan biri bo'lgan. Uning nafaqat mashhur tarixshunos olim bo'lganligi, ayni zamonda "Noqiy" taxallusi bilan yaxshigina she'rlar ham yozganligini Alisher Navoiy alohida ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, "Тарих-и арбаъ улус", "Шажарайи турк", "Султон Жалолиддин Мангуберди" va Xondamirning tarixiy asarlari

---

[924] Аҳмедов Б. Хондамир. Тошкент: Фан, 1965. 31-б.
[925] Электрон манба: http://e-tarix.uz/shaxslar/725-maqola.html.
[926] Электрон манба: http://e-tarix.uz/shaxslar/725-maqola.html.

Markaziy Osiyoning mo'g'ullar istilosi davridagi tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, mo'g'ullar istibdodi va unga qarshi kurashlar tarixini o'rganishda birinchi darajali manbalar qatoriga Abu Umar Minhojiddin Jurjoniyning "Табоқоти Носирий"[927], Alouddin Otamalik Juvayniyning "Тарихи жаҳонкушой"[928] va Fazlulloh Rashiduddinning "Жомеъ ат-таворих"[929] asarlari kiradi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xorazmshohlar davlati tarixshunosligi muammolari haqida gapirib bering.
2. Xorazmshohlar tarixiga oid qanday asarlarni bilasiz?
3. Ziyo Buniyotovning "Хоразмшоҳлар давлати" asarini tahlil qilib bering.
4. Xorazmshohlar davlati inqirozining asosiy sabablari nimadan iborat?
5. Xorazmshohlar davlati tarixi yana kimlarning asarlarida yoritiladi?
6. Mo'g'ullar istilosiga qadar Samarqand aholisi haqida ma'lumot bergan sayyoh kim?
7. Mo'g'ullar istilosi va ungacha bo'lgan davr tarixi bilan bog'liq manbalarni o'rgangan sharqshunos kim?
8. Rashididdinning "Жомеъ ат-таворих" asarini sharhlab bering.
9. Mo'g'ullar davlati va istilosiga oid qanday tarixiy hamda badiiy asarlarni bilasiz?
10. Mo'g'ullarning qabilachilik qonun-qoidalari qanday nom bilan yuritilgan?
11. Mo'g'ullarning islom diniga munosabati haqida fikrlaringiz?
12. Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olonning ahamiyatini so'zlab bering.
13. Mo'g'ullar istilosi va ularga qarshi kurash tarixshunosligi muammolari haqida fikringiz?

[927] Кози Минходж Сироджи Джурджони. Табакоти носири. Кибул: Пухни, 1342. 523 с.

[928] Бартольд В. В. Джувейни, Ала ад-Дин // Бартольд В. В. Сочинения. М.: Наука, 1973. Т. VIII: Работы по источниковедению. С. 591–595.

[929] Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского Ю. П. Верховского, редакция проф. И. П. Петрушевского. М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. Т. 2.

# 6-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Talabalarga Amir Temur va Temuriylar davri to'g'risida yaratilgan tarixiy adabiyotlar hamda ularning Vatanimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish. Mavjud adabiyotlarning manbaviy asoslarini aniqlash, ularning mazmunini tahlil qilish asosida Temurning davlatchilik faoliyati, shaxsi va Temuriylar davridagi madaniy hayot tarixshunosligi xususiyatlarini ko'rsatib berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Ibn Xaldun, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Ibn Arabshoh, I. Umnyakov, Klavixo, Ulug'bek davri, Samariya, Temuriylar madaniyati.*

## Amir Temur va Temuriylar davrining tarixiy manbalarda yoritilishi

Amir Temur shaxsi va Temuriylar davlati tarixi faol tadqiq qilingan hamda o'rganilayotgan mavzulardan biridir. Mazkur mavzuga oid yaratilgan katta hajmdagi adabiyotlar ma'lum tarixshunoslik bosqichlariga bo'lib tahlil qilinadi.

XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyodagi tarixiy bilimlar yagona va markazlashgan davlatning paydo bo'lishi natijasida ancha rivojlandi. Sharq va g'arb sayohatchilari – Ibn Xaldun, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo, mahalliy muarrixlar – Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abro', Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va boshqalar tomonidan yaratilgan asarlar bunga yaqqol misoldir.

Tarixdan ma'lumki, XIV asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrning siyosiy hayotida Amir Temur (1336–1405) ishtirok eta boshladi. 1360-yildan boshlab 10 yil davomida goh u, goh bu hukmdor tomonida turib hokimlik uchun kurash olib bordi. Va nihoyat, 1370-yilga kelib, ya'ni o'n yillik janglardan so'ng butun Movarounnahrning hukmdoriga aylandi va umrining oxirigacha katta saltanat qurib, uni adolatli tarzda boshqardi. Amir Temurning hayoti va faoliyati to'g'risida u yashagan davrda yaratilgan bir qator asarlar mavjud, ularni o'rganish, tahlil qilish orqali buyuk sarkarda shaxsi to'g'risida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'linadi.

**Ibn Xaldun**[930] **(1332–1406)** Tunis shahrida tug'ilgan, uning ota-onasi ispaniyalik musulmonlardan biri edi. Bo'lajak muarrix ona shahrida Qur'on,

[930] Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zayd Ibn Muhammad – Arab tarixchisi va faylasufi. 1382-yilda Misrga kelib, mudarrislik qilgan, umrining oxirida molikiylar mazhabi qozisi bo'lgan. Damashq shahrining Amir Temurga topshirilishi shartlari haqida muzokara olib borgan delegatsiya tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun Amir

hadis, qonun, grammatika va taktikani o'rgangan, keyinchalik Tunis hamda Fes sultonlarining xizmatchisi vazifasida ishlagan. Muarrix 1382-yildan Qohirada yashab, yetakchi olim lavozimini egallagan, uning halollik, sofdillik kabi sifatlari atrofidagilarga yoqmay, ularning fitnalari tufayli bir necha bor ishdan bo'shatilgan, ammo keyinchalik yana xizmatga chaqirilgan. 1400-yilda Amir Temur qo'shinlari Damashqqa yaqinlashganda, Ibn Xaldun muzokaralarga yuborildi. Ibn Xaldun Amir Temur bilan uchrashuvda o'zining qabila birdamligiga oid nazariyasini tushuntirib bera olgan edi.

XVI asr oxirlariga kelib arab faylasufi Ibn Xaldun ilk bor musulmon dunyosida tarixni hikoya qilishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham pragmatik bayon qilish va umumdunyo tarixining taraqqiyot qonunlarini belgilash borasida urinib ko'rdi.

Ibn Xaldun tabiat va insoniyat tarixi o'rtasida dialektik aloqa mavjudligini isbotlash uchun harakat qilgan edi. Shuning uchun ham u manbalarda quyidagi asosiy qoidalarga suyanadi: kishilik jamiyati tarixi ham tabiat hayotidagi kabi umumiy, muhim qonunlarga bo'ysunadi va xalqlar hayotida ushbu qonunlarning namoyon bo'lishi tarixiy haqiqatning asosiy mezoni sifatida xizmat qiladi.

Ibn Xaldunning ilmiy merosini o'rganishga dastlab XIX asrning birinchi o'n yilliklarida fransuz sharqshunoslari qo'l urdilar, ulardan biri Silvestr de Sasi edi[931]. Uning rus tiliga tarjimalari N. A. Ivanov[932], S. M. Batsiyeva[933], F. M. Asamba[934], B. Arabi[935], I. L. Alekseyev[936] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Xorijiy tadqiqotchilar – A. Kremer[937], M. Mahdi[938], V. Fisher[939], G. Labika[940], J. Bulakiya[941], M. Talbi[942] va boshqalar tomonidan tarjima hamda tahlil qilingan.

---

Temur bilan shaxsan suhbatlashishga muvaffaq bo'lgan. Uning dalolat berishicha, Amir Temur undan Mag'rib mamlakatlari, uning manzillari va shaharlarini batafsil bayon qilib berishni so'ragan. Asosiy asari hisoblangan "Китобул-ибар" 1370-yilda yozilgan.

[931] Бациева С. М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна «Мукаддима». М.: Наука, 1965.

[932] Иванов Н. А. «Китаб аль-Ибар» Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV в. // Арабский сборник. М., 1959.

[933] Ибн Хальдун, Ибн ХалдунАбдуррахман Абу Зейд ибн Мухаммед / С. М. Бациева, А. В. Сагадеев // Евклид Ибсен. М.: Советская энциклопедия, 1972. С. 620.

[934] Ацамба Ф. М. Социально-экономические воззрения Ибн Хальдуна // Всемирная история экономической мысли: В 6 томах / Гл. ред. В. Н. Черковец. М.: Мысль, 1987. Т. I. От зарождения экономической мысли до первых теоретических систем политической жизни. С. 311-315.

[935] Араби Б. Ибн-Хальдун–основоположник арабской социологии // Социологические исследования. 1990. Т. 11. С. 107-109.

[936] Алексеев И. Л. Возвращаясь к Ибн Халдуну // Pax Islamica, 1/2008. С.5-14.

[937] Kremer A, Freiherr V. Ibn Chaldun und seine Kulturgeschichte der islamischen Reiche. Wien, 1879.

[938] Mahdi M. Ibn Khaldun's Philosophy of History: A Study in the Philosophic Foundation in the Science of Culture. London, 1957.

[939] Fischel W. J. Ibn Khaldun in Egypt. His public functions and his historical research: An essay in Islamic historiography. Berkeley, 1967.

[940] Labica G. Politiqueet religion chez Ibn Khaldoun. Essai sur l'idéologie musulmane. Alger, Société nationale d'éditionet de diffusion, 1968.

[941] Boulakia J. D. C. Ibn Khaldun: a fourteenth century economist // Journal of Political Economy, 1971. Pp. 1105–1118.

[942] Talbi M. Ibn Khaldun // The Encyclopedia of Islam, vol. 3. Leiden: Brill, 1986. Pp. 825–831.

**Ibn Arabshoh (1392–1450)**[943]. Amir Temur biografiyasi oid juda ko'plab ma'lumotlar Ibn Arabshohning "Ажойиб ул-мақдур фи тарихи Таймур" asaridan olinadi[944]. Masalan, Ibn Arabshohning ma'lumot berishicha[945], Temurning otasi Amir Tarag'ay xudojo'y odam bo'lgan, u olim va darveshlar, ayniqsa, shayx Shamsiddin Kulolning do'sti edi. U Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga qo'yilgan. Amir Temurning yangi diniy maslahatchisi hamda homiysi Said Baraka umrining oxiriga qadar unga ma'naviy rahnamolik qilib, Amir Temurning Xorazmga qilgan yurishida ham ishtirok etgan edi. Mir Said Baraka va termizlik sayyidlardan so'ng ma'lum bir nufuz hamda obro'-e'tiborga ega bo'lgan zotlar – samarqandlik shayxul-islom Xoja Abdul-Avval va uning jiyani Xoja Isomiddin, keshlik Xoja Afzal hamda keshlik shayxul-islomning o'g'li Abdul Homid va Abdurahmon hamda samarqandlik shayxul-islom al-Maliklar edi.

Ibn Arabshohning so'zlariga ko'ra, Amir Temur Zohid Zoyi al-din Abu Bakr Toyobodiyni o'zi erishgan zafarlarda katta xizmat qilgan Shamsiddin Kulol va Mir Said Baraka qatori homiylaridan biri hisoblagan.

Ibn Arabshoh Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy yondashgan mualliflardan biri bo'lib, mazkur holat uning asarida ham aks etgan. Bo'lajak muarrix bolaligida Amir Temurning asiri bo'lgan va sarkardaning vafotidan 30 yil o'tib, u haqida kitob yozgan. Kitob matnida muallifning o'z hukmdoriga nisbatan noroziligi seziladi va shuning uchun ko'p voqealar xolisona tasvirlanmaydi. Ba'zi tarixiy faktlar buzilib, noto'g'ri ko'rsatilgan. Masalan, Amir Temurning bolaligi, harbiy yurishlarining sabablari va ayniqsa, urush qurbonlari soni juda ham bo'rttirib keltiriladi. Ibn Arabshohning kitobida yozilgan ko'plab salbiy ma'lumotlar boshqa shu davr mualliflari tomonidan tasdiqlanmagan. Shunga qaramay, ushbu asar Amir Temurga zamondosh bo'lgan muarrix tomonidan yozib qoldirilgan qadimiy qo'lyozmalardan biri sifatida qimmatlidir.

Ibn Arabshoh Amir Temurga qanchalik salbiy nazar bilan qaramasin, har holda uning shaxsini munosib baholagan edi. Masalan, "Yetmish yoshli Temurning fikrlari hali ham qat'iy, jismoniy jihatdan kuchli va baquvvatdir... U istehzo va soxtalikni yoqtirmaydi, baxtsiz hodisa ro'y berganda g'amga botmaydi, doim sergak va mardona turadi, uning oldida hamma itoatgo'y bo'lib qoladi va hurmat bajo keltiradi. U mard va jasur odamlarni yoqtiradi. U masalaning mohiyatini darhol payqab oladigan mohir bahschi edi. U farosati

943 Ibn Arabshoh. Arab tarixchisi. Amir Temur Shomni egallagach, Ibn Arabshohni qarindosh-urug'lari bilan Samarqandga keltirgan. Bu yerda u mashhur olimlardan ta'lim olgan va fors, mug'ul va turk tillarini o'rgangan hamda adabiyot va ilohiyot bilan shug'ullangan. U Xorazm, Mo'g'uliston, Xitoy va Oltin O'rda poytaxti Saroyda bo'lgan. (Ibn Arabshax. Чудеса судьбы истории Темура. www.vostlit.info)

944 Ибн Арабшах. История Амира Темура. Ташкент. Институт истории народов Средней Азии имени Махпират, 2007.

945 Ибн Арабшах. Жизнеописание правителя Тимура: (Чудеса судьбы истории Тимура) / Ибн Арабшах; [Вступ. ст. и пер. с араб. У. Уватова]. Ташкент: Мехнат, 1992. 326 с.

bilan haqgo'yni yolg'onchidan va samimiy maslahatchilarni soxta nasihatgo'ylardan farqlar edi"[946].

Ibn Arabshohning asari dastlab arab tilida[947], so'ngra uning lotincha tarjimasi 1636-yilda Leydenda[948], Vate tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasi 1658-yilda Parijda nashr etilgan[949]. Asarning inglizcha tarjimasi 1812 va 1818-yillarda Ahmad ibn Muhammad ibn al-Ansori Yaman tomonidan Kalkuttada chop etilgan bo'lsa, uning Oltin O'rda tarixiga oid qismlari rus tiliga tarjima qilingan va V. G. Tizengauzen tomonidan nashr etilgan[950].

Amir Temur davrini yoritishda "Ажойиб ул-мақдур фи тарихи Таймур" kitobidan foydalanmagan tarixchi topish qiyin bo'lsa kerak. Ushbu qo'lyozmadan V. V. Bartold, Yu. Yakubovskiy, B. G'ofurov, B. Ahmedov, Ya. G'ulomov, I. Mo'minov, A. Muhammadjonov va boshqalar o'z tadqiqotlarida foydalangan. 1992-yilda U. Uvatov ushbu qo'lyozmani o'zbek tiliga tarjima qilib, ikki jildda nashr etdi[951].

**Rui Gonsales de Klavixo (XIV asr – 1412- y.)**[952]. Ushbu elchi va tarixchi Madridda tug'ilgan bo'lib, qadimiy boy oilaning vakili edi. 1403-yilda Ispaniya qirolligi uni Amir Temur huzuriga elchi sifatida yuborgan edi[953]. Qirolning maktubi bilan Gonsales de Klavixo 1403-yil 22-may kuni Kadisdan suzib, Rodos, Konstantinopol va Trapezund orqali 1404-yil sentabrda Samarqandga yetib kelgan edi. Bu yerda u olti oyga yaqin yashab, Amir Temur hukmronligi ostidagi hududlarning holati bilan shaxsan tanishdi, mahalliy urf-odatlarga e'tibor qaratdi va ularni aniq tasvirlab berdi. 1405-yil fevralda Amir Temur vafotidan keyin Gonsales de Klavixoning elchilik missiyasi yakunlanib, 1406-yil martda Kastiliyaga qaytib ketadi.

Ma'lumki, elchilar doimo kundalik yuritar edi. Qaytganlaridan so'ng esa barcha ko'rganlari haqida batafsil hisobot yozardilar. Buning yaqqol misoli – 1403-yilda Amir Temur saroyida bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixoning sayohatnomasi 1582-yilda Sevilyada "Буюк Темурлангнинг ҳаёти ва фаолияти" nomi bilan nashr etildi[954]. Mazkur asar 1782-yilda Madridda qaytadan nashr qilindi. Ingliz sharqshunosi Strondj "Кундалик"ni Sreznevskiy nashriga suyanib, ona tiliga tarjima qildi va 1928-yilda chop etdi. 1943-yilda Klavixo kundaligining yangi nashri F. Lopez tomonidan Madridda amalga

---

[946] Амир Темур тарихи (1–2-китоблар; сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов). Тошкент, 1992. 20–114-бетлар.

[947] Ahmad ibn Arabshah. Aja'ib al-Maqdur fi Nawa'ib al-Taymur. Damascus, 1435.

[948] Ahmedis Arabsiadae Vitae & rerum gestarum Timuri, qui vulgo Tamerlanes dicitur, historia. Lugduni Batavorum, ex typographia Elseviriana, 1636.

[949] Vattier P. L'histoire du grand Tamerlan. Augustin Courbeet Jean Huart, 1658.

[950] Тизенгаузен В. Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том I. Извлечения из сочинений арабских. СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1884. XVI, 564 с.

[951] Амир Темур тарихи / Таржимон У. Уватов. Тошкент, 1992. 1 – китоб. 326 б.; 2 – китоб 191 б.

[952] Клавихо, Руй де Гонсалес // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

[953] Clavijo, Ruy Gonzalez de // Encyclopædia Britannica. Vol. 6. Cambridge University Press, 1911.P. 469.

[954] Vida y hazañasdel Gran Tamorlan, con la descripcion de las tierras de suimperio y señorío»; Севилья, 1582.

oshirildi. Ushbu nashr asosan, XV asr qo'lyozmasini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, lekin asar matnini chuqur adabiy-ilmiy tekshiruvdan o'tkazdi va kundalikni Temur davlatidagi Klavixo elchixonasi haqidagi tarixiy ma'lumotlar bilan to'ldirdi.

Birinchi nashrining ikki nusxasi Moskvadagi Rossiya davlat kutubxonasining Nodir kitoblar bo'limida saqlanadi. Gonsales de Klavixoning kundaligi bir necha bor turli tillarda qayta nashr etilgan. Izoh bilan rus tiliga birinchi tarjima va uni nashr etish ishlari 1881-yilda I. I. Sreznevskiy tomonidan amalga oshirildi[955].

V. V. Bartold, I. P. Petrushevskiy, F. I. Uspenskiy va boshqalarning so'nggi sharhlari bilan ikkinchi tarjimasi I. S. Mirokova tomonidan amalga oshirilgan hamda 1990-yilda nashr etilgan[956]. Boshqa tillardagi nashlari 1928[957], 1999[958] va 2009[959]-yillarda chop etilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida ushbu asar o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan[960].

**Nizomiddin Shomiy (XIV asr – 1431-y.)[961].** Nizomiddin Shomiyning "Зафарнома" kitobi Amir Temur faoliyati haqida to'liq ma'lumot beruvchi ilk asarlardan biridir. Mazkur asar 1404-yil voqealari bilan tugaydi, bundan keyingi qismi, ya'ni Sohibqiron vafotigacha kechgan voqealar keyinroq Hofizi Abro' tomonidan yozib, ilova qilingan. Nizomiddin Shomiy ijodining asosiy manbalari Temurning yurishlarini rasmiy tavsiflari, turli hujjatlar va ishtirokchilarning og'zaki ma'ruzalaridan iborat bo'lgan.

Asar muqaddimasida Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan 1360-yilga qadar O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida qisqa ma'lumot berilgan. So'ngra Amir Temurning XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrning boshlaridagi yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan. "Зафарнома"ning faqat 2ta qo'lyozma nusxasigina saklanib qolgan. Birinchisi, Amir Temurga taqdim etilgan qo'lyozmaning 1425-yilda ko'chirilgan nusxasi bo'lib, u Istanbuldagi "Nuri Usmoniya" masjidining kutubxonasida (№3367) saqlanadi.

---

955 Р. Г. де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд в 1403-1406 гг. СПб., 1881

956 Клавихо, Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со старо испанского, предисл. и коммент. И. С. Мироковой / Отв. редакторы Г. Г. Берадзе, К. К. Куция. Институт востоковедения АН СССР. М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1990. 216 с.

957 Ruy Gonzalez de Clavijo, Embassy to Tamerlane tr. G. Le Strange, 1928.

958 Ruy Gonzâlez de Clavijo, La embajada a Tamorlân. Francisco Lôpez Estrada, ed. Madrid: Castalia, 1999.

959 Ruy Gonzâlez de Clavijo, Embassy to Tamerlane, 1403–1406, translated by Guy Le Strange, with a new Introduction by Caroline Stone. Hardinge Simpole, 2009.

960 Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406) / Испан тилидан Улуғбек Жўраев таржимаси // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Тошкент: Ғ. Ғулом нашриёти, 2007. 11-168-бетлар.

961 Nizomiddin Shomiy. Tabrizning Shanba yoki Shama deb nomlangan hududidan bo'lgan, uning nisbasi shu nomdan kelib chiqqan. 1392/93-yillarda Temur Bag'dodga kirganida, Nizomiddin uni kutib olishga chiqqan va unga xizmat qilishga tayyorligini bildirgan. 1401/02-yilda Temur Nizomiddinga shaxsiy kotiblari tomonidan tuzilgan yozuvlardan foydalanib, o'z hukmronligi tarixini uslubiy go'zalliksiz, oddiy tilda yozishni buyurdi. Nizomiddin Temurning keyingi bir qator xronikalari uchun asosiy manbaga aylangan tarixni yozdi.Uning asaridan keyinchalik Sharafiddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarqandiy foydalangan. Yazdiy birinchi bo'lib Nizomiddinni 1404-yilda Temurning Ardabildagi lageridagi bayram munosabati bilan eslaydi, va uni taniqli yozuvchi sifatida tavsiflaydi.

Ikkinchisi, muallif tomonidan Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar Bahodir ibn Mironshohga taqdim etilgan qo'lyozmadan 1434-yilda ko'chirilgan nusxa bo'lib, u Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanadi (№ 23980).

Asarning to'liq matni fors tilida 1937-yilda Pragada nashr qilingan[962]. O'zbek tiliga fors tilidan Yu. Hakimjonov tomonidan tarjima qilingan va 1996-yilda chop etilgan[963]. Muarrix va asardagi ba'zi ma'lumotlar to'g'risidagi qismlar 1997-yilda chop etilgan "Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida" to'plamda nashr etilgan[964].

**Hofizi Abro'[965] (XIV asr – 1430/1454- yy.).** O'rta Osiyo, Eron va qo'shni mamlakatlar tarixi hamda geografiyasi bo'yicha asarlar muallifi. O'zining "Жомеъ ут-таворих" va "Мажмуа" asarlarida Temuriylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar, qipchoqlar tarixi hamda ularning joylashish joylari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

"Жомеъ ут-таворих" to'rt qismdan iborat bo'lib, unda quyidagilar tasvirlangan: payg'ambarlar qissalari, qadimgi fors afsonalari va Eronning arablar istilosigacha bo'lgan tarixi; xalifalik tarixi 1258-yilgacha; saljuqiylar va mo'g'ullar davridagi Eron tarixi. To'rtinchi qism temuriy hukmdor Boysunqurga bag'ishlangan bo'lib, maxsus nom bilan "Зубдат ут-таворихи Бойсунқур" ("Boysunqur tarixi qaymog'i") deb atalgan. Mazkur asar ikki qismdan iborat bo'lib, avvalo, Amir Temur hukmronligi davridagi hayot tasvirlangan, so'ngra Shohruh hukmronligi davridagi hayot yoritib berilgan. Hofizi Abro'ning yozishicha, Amir Temur islom dinini mustahkamlash uchun g'amxo'rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog'liq ishlariga aralashmagan.

Hofizi Abro'ning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur boshqa oliy imoratlar qatorida shahar atrofida bir nechta katta bog'lar qurdirgan. Ular: Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht, Bog'i Buldo, Bog'i Amirzoda Shohruh, Bog'i Zog'on, Bog'i Baland, Bog'i Amirzoda Ulug'bek, Bog'i Maydon[966] edi.

Ma'lumotlarga ko'ra, "Тарихи Ҳофизи Абрў" nomi bilan mashhur tarixiy-geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasi va boshqa ma'lumotlar berilgan. Ushbu xaritaning muhim tomonlaridan biri – gradus to'ri chizilganidir, uni geograflar Hofizi Abro'ning shoh asari deb hisoblaydi.

---

962 Histoire des conquêtes de Tamerlan intitulé Zafarnama par Nizamuddin Šami avec des addidions empruteens au Zubdatu-t-Tevarih-i Baisunquri de Hafiz-I Abru. Edition critique par Felix Tauer. Tome I, Texte persan du Zafarnama. Praha, 1937.

963 Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов. Тошкент, 1996.

964 Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида / Таҳрир ҳайъати: М. М. Хайруллаев, А. Ўринбоев, О. Бўриев. Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997. 41–43-бетлар.

965 Hofizi Abro' – Hirot shahrida tug'ilgan, ta'limni Hamadonda olgan. U Shohruhning saroy tarixchisi bo'lgan. Harbiy yurishlar paytida Shohruh va Temurga hamrohlik qilgan. U ajoyib shaxmat o'ynagan. Zenjon shahrida vafot etdi. Bir necha asarlar muallifi: "Зайли Зафарномаи Шомий", "Зайли Жомиъ ут-таворих", "Тарихи Ҳофизи Абрў", "Мажмуа ат-таворихи султония", "Зубдат ут-таворихи Бойсунқур" va b.

966 Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... 71–72-бетлар.

1412-yilda Hofizi Abro‘ Amir Temur hayotining so‘nggi yillari haqidagi ma’lumotlarni qo‘shgan holda Shomiyning “Зафарнома”sini yozishni yakunlaydi. 1413-yilda u Shohruh hukmronligi tarixini yozib chiqdi. 1414-yilda Shohruhning iltimosiga binoan, al-Balxiy qalamiga mansub deb taxmin qilingan “Масолик ал-мамолик ва сувар ал-aқолим” deb nomlangan qadimgi arab geografik asarini tarjima qilishni boshlagan. Asarga qo‘shimcha sifatida o‘z bilim va ma’lumotlariga asosan, Fors, Kerman, Xuroson hamda O‘rta Osiyoning boshqa hududlari tarixiga oid muhim ma’lumotlarni kiritgan[967].

Rus tilida muarrix haqidagi ma’lumotlar qisqa tarzda 1969-yilda nashr etilgan ensiklopediyada keltirilgan[968]. Hofizi Abro‘ va uning asarlaridagi ma’lumotlarni tahlil qilgan olim sifatida V. V. Bartold ko‘rsatiladi. V. V. Bartold o‘zining manbashunoslikka bag‘ishlangan to‘plamida Hofizi Abro‘ning asarini Amir Temur davrini yoritishdagi muhim manbalar qatoriga kiritadi[969]. Muarrix va uning ijodi haqidagi ingliz tilidagi ma’lumotlar F. Tauer tomonidan muomalaga kiritilgan[970]. Hofizi Abro‘ asarlarining qo‘lyozmalari Sankt-Peterburg, Oksford va Toshkentda saqlanadi. Amir Temur to‘g‘risidagi qismlar 1997-yilda chop etilgan “Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida” to‘plamda nashr etilgan[971].

**Sharafiddin Ali Yazdiyning (XIV asr – 1454- y.)**[972] “Зафарнома”si[973] Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir nodir asarlardan bo‘lib, u nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq mamlakatlari tarixini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Asar o‘ziga xosligi va unda mujassamlashgan materiallar haqqoniyligi bilan ko‘rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o‘rin egallaydi. Shu bois bu asar hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda.

Ibrohim Sultonning farmoniga ko‘ra, 1419–1425-yillarda Sherozda fors tilida yozilgan. Mazkur hukmdor o‘zining bobosi haqida maxsus kitob yaratishlarini istab, 822 (1419–1420)-yilda Sohibqiron Temur to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash borasida farmon berdi. Asar muqaddimasida tasvirlanishicha, dastlab to‘plangan ma’lumotlar shohidlarning og‘zaki

---

[967] Ḥāfiẓ-i Abrū / Tauer, F // Encyclopaedia of Islam. 2 ed: Leiden: E. J. Brill, 1986. T. 3. P. 57-58.

[968] Хафизи Абру // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / Под ред. А. М. Прохорова. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969.

[969] Хафиз-и Абру и его сочинения / Академик В. В. Бартольд. Сочинения. Том VIII / Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973.

[970] Ḥāfiẓ-i Abrū / Tauer, F. ... P. 57–58.

[971] Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... 61–63-бетлар.

[972] Sharafiddin Ali Yazdiy. Temuriylar davri mashhur tarixnavisi. 1414–1435-yillar mobaynida Fors o‘lkasi hokimi Ibrohim Mirzo xizmatida bo‘ladi va uning topshirig’i asosida mashhur “Зафарнома” asarini yozadi. Navoiy “Мажолисун-нафоис” asarida yozishicha “Mavlononing sohib kamollig’i olam ahli qoshida musallamdur”, deb yozgan. Shundan keyingi, ya’ni 1452-yilda tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy ham Taftda Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashib suhbatlashgan. Mo‘g’uliston xoni Yunusxon yoshligida Shohruh topshirig’iga ko‘ra, uzoq yillar mobaynida Sherozda Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasida bo‘lgan va sulton Abu Said uni olib kelib, Mo‘g’ulistonga xon etib tayinlagan.

[973] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома [фотофаксимил нашр]. Тошкент, 1972.

hikoyalari bilan taqqoslangan, so'ngra Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga ular haqida o'z fikrini bildirgan, shundan so'ng u "Зафарнома" kitobini yozishga kirishgan.

"Зафарнома"ning asosiy qismi esa, muallifning dastlabki rejasiga ko'ra, uchta qismdan iborat bo'lmog'l lozim edi. Birinchi qism Amir Temur, ikkinchisi qismi uning o'g'li Shohruh va uchinchi qismi Shohruhning o'g'li Ibrohim Sultonga bag'ishlanishi ko'zda tutilgan edi. Biroq, hozir fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki qism topilmagan.

Asardagi ma'lumotlar, sanalar va geografik nomlar Ibrohim Sultonning farmoniga ko'ra, har tomonlama tekshiruvdan o'tkazilib, so'ngra Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Kitob tushunarli tilda, aniq va tekshirilgan ma'lumotlarga asoslanib yozilgan. Shu yo'sinda Amir Temurning rasmiy tarixi yaratildi.

Asar Temur "Соҳибқирон" deb nomlangan va voqealar tasviri uning tug'ilishidan boshlanadi. Yazdiy Temurni sodiq, muvaffaqiyatli, topqir, oddiy xalqqa rahmdil va xoinlariga nisbatan qattiqqo'l deb ta'riflaydi. Shu bilan birga, Temur kofirlarga qarshi kurashuvchi, shariat asosida hukm qiluvchi, kambag'allarga sadaqa beradigan, masjidlar quradigan, Qur'oni Karimni sharaflaydigan va muntazam ravishda namoz o'qiydigan g'ayratli musulmon sifatida tasvirlangan. Yazdiy Temurdagi taqvodorlik, jasorat, saxiylik va so'ziga sodiqlikni xislatlarini qadrlaydi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning mazkur asari qo'lyozma holida keng tarqalgan, chunki ushbu asar uning zamondoshlari va keyingi asr tarixchilari uchun ham birlamchi manba bo'lib xizmat qildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixiy voqealarni bayon etish uslubi ohangi ko'p paytgacha o'lkashunoslar va tarixchilar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Masalan, XVI asrning mashhur tarixchilari Mirxond, Xondamir va boshqalar ham Sharafiddin Ali Yazdiyning "Зафарнома"siga suyanib ish ko'rganlar.

Ushbu asar XVI asr boshlarida, aniqrog'i 1519-yilda shayboniy Ko'chkunchixonning topshirig'iga asosan, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Mazkur tarjima 1997-yilda Toshkentda izoh va ko'rsatkichlar ilova qilingan holda qayta chop etilgan[974].

Markaziy Osiyo tarixshunosligining durdona asarlaridan biri bo'lgan "Зафарнома" jahon tarixchilarining tadqiqot manbai bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunonchi, 1887–1888-yillarda hind sharqshunosi Mavlaviy Ilohdomning tashabbusi bilan olti nusxada "Зафарнома"ning ikki jildi Kalkuttada nashr etilgan bo'lsa, uning fransuz tilidagi tarjimasi esa ilk marotaba Fransua Peti de la Krua tomonidan 1722-yilda Parijda chop qilindi[975].

1958-yilda Muhammad Abbosiy tomonidan uch qo'lyozma va yuqorida zikr etilgan Kalkutta nashri asosida Tehronda yangi nashr paydo bo'ldi. Abbosiy

---

[974] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Таржимон: Мухаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий. Тошкент, 1997.

[975] François Petis de la Croix, Grammaire arabe, College Royal, Paris, 1722.

foydalangan qo'lyozmalarning ikkitasi muallif hayotligidagi nusxalardir: biri (sanasiz) Muhammad Abbosiyning shaxsiy mulki sanalgan, ikkinchisi – Majlis kutubxonasida saqlangan (36782-son ko'chirish sanasi hijriy 840, 1436), uchinchisi ham Majlis kutubxonasida bo'lib, (36773-son, 1037), ya'ni 1637–1638-yillarda ko'chirilgan.

Rus tiliga ba'zi qismlari 1941-yilda[976] va Ye. A. Polyakov tomonidan 1988-yilda[977] tarjima qilingan. Rus tilidagi to'liq tarjimasi 2008-yilda Toshkentda chop etilgan[978].

A. O'rinboyevning qayd etishicha, "Зафарнома"ni fransuz va ingliz tillariga o'girgan tarjimonlar, shu kungacha bibliografik jihatdan noyob bo'lsa-da, asarning 1/5 qismini tashkil etgan muqaddima qismi tarjimasini tushirib qoldirgan. Asarning Kalkutta va Tehronda nashr qilingan nusxalarida muqaddima qismi mavjud emas. Shuning uchun A. O'rinboyev tomonidan[979] faksimile nusxa, kirish so'zi, izoh va ko'rsatmalar bilan tayyorlangan "Зафарнома" matni asarning eng yaxshi nusxalarini o'zida jamlagan, deyishga asosimiz bor. Asarning bir qismi 1994-yilda O. Bo'riyev tarjimasi asosida o'zbek tilida chop etilgan[980]. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, "Зафарнома" shubhasiz, O'rta Osiyo xalqlarining XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**Fasih Havofiy[981] (XIV asr – 1442/1443-yy.).** Hayotining katta qismini muarrix turli davlat lavozimlarida o'tkazgan ushbu muarrix asosan, Boysunqur bilan birgalikda faoliyat olib borib, devonxona boshlig'i sifatida xizmat qilgan. Uning asosiy asari "Мужмал-и Фасирий" bo'lib, 1441-yilda yozib tugallagan. Asar tarixiy jihatdan XIV–XV asrlardagi voqealar bayonotidan iborat.

Asarning muqaddimasi, an'analarga muvofiq, Odam Atodan tortib Muhammad (s.a.v.) tavalludlarigacha bo'lgan tarixni o'z ichiga oladi. Birinchi qism "Muqaddima"ning bevosita davomi bo'lib, 622-yilga qadar bo'lgan davr tarixidan iborat. Asarning asosiy va katta qismi ikkinchisi bo'lib, 622-yildan 1442-yilgacha bo'lgan voqealar sharhidan iborat[982]. "Мужмал-и Фасихий"da

---

976 Извлечения из персидских сочинений, собранные В. Г. Тизенгаузеном // Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. М.-Л.: АН СССР, 1941. Т. 2.

977 Шараф-ад-Дина Али Йезди. Зафар-наме / Пер. с перс. Е. А. Поляковой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. Ташкент: Фан, 1988. С. 148–160.

978 Шарафад-дин Али Язди. «Зафар-наме» – Книга побед амира Тимура / Пер. со староузбекского д.и.н. А. Ахмедова. Ташкент: Издательство журнала «SANAT», 2008. 484 с.

979 Шарафад-Дин Али Йазди. Зафар-наме / Подг. к печати, предисловие, примечания, указатели А. Урунбаева. Ташкент, 1972.

980 Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, Мовароуннахр вокеалари, 1360-1370 / Таржимон: О. Бўриев. Тошкент, 1994.

981 Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Havofiy – Tarixchi, davlat arbobi XIV asrda Xurosonda tug'ilgan. Hirotda voyaga yetib, Shu yerda tahsil olgan. Amir Temurning o'g'li Shohruh hamda uning o'g'li Boysunqur Mirzolarning saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qilgan va diplomatik vazifalarni bajargan. 1442-yilda Hirotda (Afg'oniston) vafot etgan. Fasih Havofiyning yagona asari "Мужмал-и Фасихи" ("Тарихий саналар йиғиндиси") ma'lum. Unda voqealar tarixiy ketma-ketlikda bayon etilgan, ayniqsa, 1301–1442-yillardagi voqealar bayonoti – Temur va Temuriylar tarixi bilan bog'liq qismi qadrli ma'lumot hisoblanadi.

982 Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... 98–99-бетлар.

arab xalifalari, safforiylar, somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, g'uriylar va xorazmshohlar to'g'risida ma'lumot bergach, temuriylar tarixiga batafsil to'xtalgan. Asarda, shuningdek, shoirlar, faqihlar, muhaddislar, shayxlar, shuningdek, iqtisodiy va madaniy hayot, o'sha paytda qurilgan me'moriy obidalar haqida mufassal ma'lumot berilgan[983].

Mazkur asar qo'lyozmalarining nusxalari London, Kembrij, Bankipur, Tabriz, Sankt-Peterburg, Bengaliya va Tbilisi shaharlarida saqlanib kelinadi. Asar 2018-yilda o'zbek tilida ham nashr qilingan[984].

**Abdurazzoq Samarqandiy[985] (1413–1482-yy).** U "Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн" nomli yirik tarixiy asar muallifi bo'lib, Hirotda tug'ilgan. Abdurazzoq Samarqandiy madrasa ta'limini Hirotda olgan, Temuriylar saroyida qozilik va imomlik lavozimida bo'lgan otasi, o'z davrining taniqli ziyolilaridan bo'lgan akalari ko'magida Abdurazzoq tafsir, hadis, fiqh ilmlari hamda tarix va til-adabiyot fanlari bo'yicha chuqur ma'lumot egasi bo'lib yetishgan[986].

Abdurazzoq Samarqandiy davlat ishlari bilan ham yaqindan tanish bo'lgan, otasi vafot etganidan so'ng Temuriylar saroyiga xizmatga kirgan. Natijada, 20 yildan ortiq Shohruh, Abulqosim Bobur, Abu Said va boshqa hukmdorlar davrida davlat ishlari bilan band bo'lgan.

"Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн" asari 1467–1471-yillar oralig'ida yozib tugallangan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism XIV–XV asr boshlaridagi voqealari, ya'ni Eron hukmdori Abu Saiddan boshlab Amir Temur vafotigacha bo'lgan O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon, qisman Hindiston va boshqa mamlakatlar tarixiga oid ma'lumotlar keltiriladi; ikkinchi qism – XV asr boshlaridan to XV asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan hodisalar, ya'ni Shohruhning Hirotda taxtga o'tirgan vaqtidan Husayn Boyqaroning Hirotda ikkinchi marta taxtga o'tirishi haqidagi ma'lumotlar bilan tugaydi[987].

Abdurazzoq Samarqandiy asarining ba'zi qismlari o'zbek tiliga A. O'rinboev tomonidan tarjima qilinib, 1960 va 1969-yillarda chop etilgan. Rus tilidagi tadqiqotlar 1939[988], 1941[989] va 1969–1978[990]-yillarda nashr etilgan.

---

[983] Фасих ал-Хавафи. Муджмал-и Фасихи. Фасихов свод / Пер. Д. Ю. Юсуповой. Ташкент: Фан, 1980.

[984] Фасиҳ Аҳмад ибн Жалолиддин Муҳаммад ал-Хавофий. Мужмали Фасиҳий Фасиҳ тўплами. / Форс тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.д., академик Д. Ю. Юсупова. Тошкент: Фан, 2018. 544 б.

[985] Kamoliddin Abdurrazzoq ibn Isxoq Samarandiy. Temuriylar tarixchisi. Hirotda (Afg'oniston) tug'ilgan. Nasabi mahalliy zodagonlarga borib taqaladi. Hayotining asosiy qismi Samarqandda o'tgan. Ikki marotaba diplomatik topshiriqlar bilan Shohruh va Abu Said tomonidan 1441–1442-yillarda Hindiston va 1446-yilda esa G'ilonga yuborilgan. Alisher Navoiy homiyligida faoliyat olib borgan.

[986] Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... 113–114-бетлар.

[987] Shu joyda. 114–115-бетлар.

[988] Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII–XV вв / Арабские и персидские источники. М.-Л.: АН СССР, 1939. С. 59–60.

[989] Места восхода двух счастливых звёзд и места слияния двух морей / Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. М., 1941.

[990] Абд ар-Раззак Самарканди // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / Гл. ред. А. М. Прохоров. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969–1978.

Ingliz tilida esa 1994-yilda Van Donzel tomonidan asar haqida qisqa ma'lumotlar keltirilgan[991].

Tarixdan ma'lumki, Amir Temurning (1405-yil) vafotidan so'ng hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Uzoq davom etgan taxt kurashlari natijasida Movarounnahrdagi hokimiyat Shohruhning yordami bilan 1409-yilda o'g'li Mirzo Ulug'bekka (1394–1449-yy) topshiriladi.

Siyosiy voqealarning tadrijini kuzatadigan bo'lsak, Mo'g'ulistonning kuchayib borayotgan xonlari Ulug'bek hokimiyatiga tahdid solar edi. Avvaliga Ulug'bek ularni itoatda tutdi, lekin tezda ular bo'ysunmasdan qo'ydilar. Chunonchi, 1423-yildagi yurish vaqtida Ulug'bek Chu daryosiga yetib keldi va 1425-yilning bahorida Ketmontepa jangida uning qo'shini Shermuhammadxon ustidan g'alaba qozonadi. Ulug'bek boshqa boyliklar qatorida ikki bo'lak nefrit yashma toshni ham o'lja oldi. Ular shunchalik og'ir ediki, Samarqandga yuborish uchun maxsus yuk ko'targich tayyorlashga to'g'ri kelgan edi. Ulug'bekning hukmiga ko'ra, keyinchalik ulardan Temurga qabrtoshi tayyorlandi.

1425-yildagi zafarli yurish sharafiga Ulug'bek Ilono'tdi darasining Jalol ota dovonidagi tog' qoyasiga bitik bitishni buyurdi. Unda, jumladan, shunday so'zlar yozilgan edi: "Ulug' tangrining qo'llab-quvvatlashi birlan ulug' sulton, jamiy podshohlar hukmdori, tangrining yerdagi soyasi, islom dinining tug'dori, din homiysi Mu'iniddin Ulug'bek Ko'ragon, tangri onining saltanati poydor qilsun. Jete va Mo'g'ulistong'a yurish vaqtida ushbu yerdan o'tg'on. Hijriy, 828-yil". Bartoldning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu bitik hozirgi kungacha saqlanib qolgan[992].

Akademik Qori Niyoziyning yozishiga ko'ra, 1397–1398-yillarda shoir va taniqli olim, bir turkum falsafiy-axloqiy asarlar muallifi shayx Orif Ozariy necha yil davomida Ulug'bekning madrasasida tahsil olgan edi. Orif Ozariy Eron va Old Osiyo viloyatlariga qilgan 1399–1404-yillardagi yurishlarida Ulug'bek Ozarbayjonda Nasriddin Tusiy rasadxonasining xarobalarini ziyorat qilgan edi. Aftidan, uni falakiyotshunos Mavlono Ahmad bilan Temur xizmatida bo'lgan Qozizoda Rumiy kuzatib borgan. Qozizoda Rumiyning shahzodaga bag'ishlangan "Matematika asoslari" kitobida guvohlik berilishicha, shu paytdan boshlab Rumiy shahzodaning doimiy ustoziga aylandi. Shuni qayd etish joizki, ushbu kitob talabalar uchun matematikadan asosiy qo'llanma sifatida XV–XIX asrlarda ham xizmat qilgan[993].

"Aflotuni zamon" deb nom olgan Qozizoda Rumiy[994] madrasada tabiiy fanlar bo'yicha yetakchi mudarris edi.

---

991 Van Donzel E. J. Islamic Desk Reference. BRILL, 1994. P. 10.

992 Бартольд В. В. Улугбек и его время. Петроград, 1918. С.38-40.

993 Қори Ниёзий Т. Н. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Тошкент, 1971.

994 Qozizoda Rumiy (1360–1437-yy) – matematik va astronom. Dastlabki bilimni Xurosonda olgan. 1400-yilda Samarqandga o'qish va ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun kelgan. Amir Temur saroyining bosh astronomii Mavlono Ahmad qo'lida ham o'qigan. Ulug'bek ilmiy maktabining yaratilishida uning ishtiroki katta. Xususan,

Keyinchalik Ulug'bek ma'lumoti jihatidan ustozi Qozizoda Rumiydan o'zib ketgan. Olim o'z atrofiga o'sha davrning eng ilg'or ziyolilari – tarixchilar, adabiyotshunoslar, shoirlar, san'atshunoslar, tabiiy fan namoyondalari, jumladan, falakiyotchilarni to'plagan. Mirzo Ulug'bekning rahbarligi va ishtirokida madrasada ilmiy ishlar rivojlandi.

Mirzo Ulug'bek madrasa mudarrisi bo'libgina qolmasdan, eng yaxshi muallimlarni tanlashda shaxsan o'zi qatnashganligi manbalar va tarixiy asarlarda ham qayd etilgan. Madrasaning birinchi muallimi faylasuf va bilimdon olim Muhammad Havofiy ushbu ta'lim maskanining ochilish marosimida birinchilardan bo'lib tinglovchilar huzurida ma'ruza qilgan edi.

Zayniddin Vosifiyning yozishicha, madrasa qurilishi yakuniga yetganidan so'ng Ulug'bekdan: "Kim madrasaning bosh mudarrisi bo'ladi?", – deb so'raganlar. Ulug'bek kim bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu odam barcha fanlar bo'yicha komil odam bo'lishi kerakligini aytadi. Ulug'bekning so'zini eshitgan eski kiyimdagi, g'ishtlar orasida madrasa quruvchilari bilan o'tirgan mavlono Muhammad ushbu vazifaga o'zining haqqi borligini aytadi. Abu Tohirxoja Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, mavlono Muhammad madrasa qurilishida qora ishchi sifatida qatnashgan. Ulug'bek u bilan suhbatlashib, tezda uning zukkoligiga amin bo'lgan. Shuning uchun ham madrasa ochilishida mudarris sifatida unga birinchi bo'lib ma'ruza qilishi huquqi beriladi. Shuni qayd etish kerakki, mazkur tadbirda 90 dan ortiq olimlar ishtirok etgan.

Alisher Navoiyning "Мажолисун-нафоис"[995], Mirxondning "Равзат ус-сафо"[996], Davlatshoh Samarqandiyning "Тазкирот уш-шуаро"[997] va Zahiriddin Muhammad Boburning "Бобурнома"[998] asarlarida ham Mirzo Ulug'bek to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Mazkur davr manbalarini o'rganish orqali Amir Temur va Temuriy hukmdorlar, davr, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va boshqa ko'plab qiziqarli ma'lumotlarini uchratish mumkin. Birlamchi manbalarni o'rganish o'sha davr to'g'risidagi ko'plab fikrlarni tasdiqlash yoki inkor qilishga imkon beradi.

---

uni tashabbusi bilan G'iyosiddin Jamshid Koshiy va boshqa olimlar Samarqandga taklif etilgan. U Ulug'bek madrasasida matematika va astronomiyadan ma'ruza o'qigan. Uni zamondoshlari "Aflotuni zamon" (o'z davrining Platoni) deb atagan edi.

[995] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами [20жилдли]. 13-ж. Тошкент, 1997.

[996] Мирхонд. Равзат ус-сафа (Сад чистоны). Электрон манба: http://www.vostlit.info/Texts/rus15/ Mirchond / otryv1.phtml?id=1515.

[997] Давлатшохи Самарканди. Тазкират-уш-шуаро. Лондон: Кембриджский университет, 1900.

[998] Бабур-наме: Записки Бабура / Перевод М. А. Салье. Общ.ред. и доработка С. А. Азимджановой. Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. Изд. 2-е, доработанное. Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1993. 464 с.

## XX asr va XXI asr boshlaridagi tarixiy tadqiqotlarda Temuriylar davrining o‘rganilishi

Markaziy Osiyoda ilk bor yangi tipdagi yirik, markazlashgan davlat tuzishga erishgan Amir Temur fenomeni, avlodlarining tarixi tadqiqotchilar faoliyatida muhim o‘rin tutgan mavzu bo‘lib, turli tarixiy shart-sharoitlarda uni o‘rganishdagi yondashuvlar ham turlicha bo‘ldi. Mazkur mavzu tarixshunosligi nihoyatda katta hajmdagi ilmiy asarlarga ega bo‘lib, ularning yaratilish tarixi va tahlili ham alohida e’tiborga sazovor.

Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda o‘zining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan Rossiya imperiyasi o‘z manfaatlari yo‘lida o‘lkani o‘rganish uchun tadqiqotchilarni safarbar qildi. Rossiyalik sharqshunos, tarixchi olimlar buyuk sarkarda, o‘rta asrlarda yirik markazlashgan imperiya tuzib uni mahorat bilan boshqargan Amir Temur shaxsi va davriga doir tadqiqotlar olib bordilar va buning natijasi ular qoldirgan ilmiy merosda mujassamlashdi[999].

Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganishda “Rus arxeologiya jamiyatining Sharqiy bo‘limi” boshchiligida olib borilgan arxeologik izlanishlarning hissasi katta bo‘lganini ta’kidlash joizdir. Bu jamiyat amalga oshirgan izlanishlar mavzu o‘rganilishining keyingi bosqichi uchun zamin tayyorlab berganligi bilan ahamiyatlidir.

Temurshunoslik yo‘nalishi rivojida akademik V. V. Bartoldning faoliyati salmoqli o‘rin tutadi. XX asr boshida V. V. Bartold tomonidan yozilgan Amir Temur[1000] va Temuriylar[1001] haqidagi ma’lumot 1901-yilda ensiklopediyaga kiritilgan bo‘lib, ushbu hodisa ilmiy tadqiqot muhitida Amir Temur shaxsiga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirdi. V. V. Bartoldning tadqiqotlari Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligida muhim o‘rin egallaganligi mavzuning turli jihatlariga doir yaratilgan, masalan “Samarqanddagi 1365-yildagi xalq harakati”[1002] nomli Sarbadorlar qo‘zg‘oloni va bu harakatni bostirishda Amir Temurning ishtiroki yoritilgan maqolada, “Мовароуннахрнинг географик очерки”, “Бибихоним масжиди”, “Урта Осиё туркий халқлари ҳақида ўн икки маърузa”, “Тимур” kabi asarlarida ham ko‘rish mumkin[1003].

---

[999] Грановский Т. Н. Сочинения. М., 1866. Ч. I.; Shu muallif. [Тимур] / Полное собрание сочинений. СПб., 1905. Т. 1. С. 341–359; Қуйида шунингдек В. В. Бартольд, Н. И. Веселовский, В. Л. Вяткин, Д. Н. Логофет ва бошқаларнинг ушбу мавзуга доир ишлари таҳлил қилинади.

[1000] Бартольд В. В. Тимур (Тамерлан) / Энциклопедический словарь Брокгауз-Ефрон. Т.33. СПб., 1901. С. 195–197.

[1001] Shu muallif. Темуриды / Энциклопедический словарь Брокгауз-Ефрон. Т.33. СПб., 1901. С. 193–195.

[1002] Shu muallif. Народное движение в Самарканде в 1365 году / Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.17. СПб., 1907.

[1003] Shu muallif. Географический очерк Мавераннахра // Туркестан в эпоху монгольского нашествия . Соч. Т. I. М., 1963. С. 114–237; Shu muallif. Мечеть Биби-Ханым // Соч. Т.4. М., 1966. С. 116–118; Shu muallif. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Соч. Т.5. М. 1968. С. 17–192.

V. V. Bartold nafaqat Amir Temur, shu bilan birga Temuriyzodalar tarixi va taqdirini ham o'rgandi. Uning Mirzo Ulug'bekning faoliyatiga oid asarlardan biri – 1915-yilda yozilgan hamda 1918-yilda nashr qilingan "Ulug'bek va uning davri" hisoblanadi. Mazkur asarda Mirzo Ulug'bekning ilm-fan yo'lidagi xizmatlari bilan bir qatorda uning siyosiy faoliyatiga ham alohida e'tibor beriladi[1004].

XX asr boshlaridagi tadqiqotlarning asosiy mavzulardan biri Amir Temur vafoti va uning dafn etilishi masalasi bo'ldi. Masalan, A. Ryabin[1005], N. I. Veselovskiy[1006] va V. L. Vyatkinning[1007] maqolalarida Amir Temur vafoti tafsilotlari, qabrtoshi va undagi matn, maqbarasining qurilishi tarixi yoritildi.

L. A. Ziminning "Temurning o'limi tafsilotlari"[1008] maqolasida Amir Temurning o'limi yuzasidan olib borilgan antropologik izlanish natijalari aks etdi.

V. V. Bartoldning 1916-yilda nashr qilgan maqolasida[1009] Amir Temurning dafn etilishi tafsilotlariga doir mulohazalarini bayon qilgan. Uning "Samarqand yodgorliklari haqida yangi ma'lumotlar"[1010] maqolasida esa Amir Temurning qabrtoshi hamda undagi yozuvlar bilan bog'liq yangi ma'lumotlar keltirildi.

XX asr boshlarida Temuriy sulola vakillari hayoti va merosi mavzusi tadqiqotchilar faoliyatida o'rin oldi. Masalan, D. N. Logofetning maqolasida[1011] Amir Temur kutubxonasi, uning ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan. Boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu maqolada Amir Temur shaxsi asosan, ijobiy jihatdan yoritilgan.

V. L. Vyatkin XVII asr o'rtalariga mansub vaqf hujjatlaridan birini o'rganayotganida, hozirgacha Obirahmat arig'i va "Naqshi Jahon" degan joy nomlari bilan ma'lum bo'lgan "Tole rasad"ning aniq chegaralarini topdi. Hujjat rasadxonaning o'rni haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar beradiki, unda aytilgan tepalikni topish hech ham qiyin emas edi. XX asr boshlarida V. L. Vyatkin Markaziy va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik hamda etnografik jihatdan o'rganish bo'yicha tuzilgan ilmiy jamiyatga Ulug'bek

---

[1004] Shu muallif. Улугбек и его время / Бартольд В. В. Соч., Т.2. Ч.2. М., 1964. С. 23–196.
[1005] Рябин А. Об истинных размерах нефрита на могиле Тамерлана // Памяти Мушкетова. Сб. статей. Спб., 1905. С. 65-73.
[1006] Веселовский Н. И. О надгробии Тимура / Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.16. СПб., 1906. С. 11–13; Shu muallif. О первоначальном месте погребения Тамерлана / Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.16. СПб., 1906. С. 20–21.
[1007] Вяткин В. Л. Гури-эмир (Библиографические заметки) // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 8. Самарканд, 1906. С. 291–301.
[1008] Зимин Л. А. Подробности смерти Темура // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии. Год 19. Вып. 1. Ташкент, 1914. С. 37–52, 53–55.
[1009] Бартольд В. В. О погребении Тимура / Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.23. Пгр., 1916. С. 1–32.
[1010] Shu muallif. Новые данные о самаркандских памятниках / Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.25. СПб., 1921. С. 83–88.
[1011] Логофет Д. Н. Тамерлановская библиотека // Туркестанские ведомости. 1911. №24.

rasadxonasidagi 1908–1909-yillardagi qazish ishlari natijalari haqida hisobot bergan edi[1012].

V. L. Vyatkinning ushbu yutug'i, shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. V. V. Bartoldning yozishicha, Ulug'bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzusi sharqshunos sifatida uning e'tiborini tortdi. Ushbu qazish ishlari unga birinchi bo'lib "Улуғбек ва унинг даври" asarini yozish imkonini berdi. "Улуғбек ва унинг даври"ni "Туркистон мўғуллар босқини даврида" asarining davomi, desak yanglishmaymiz[1013].

XX asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar, Rossiya imperiyasining tugatilishi va bolsheviklarning hokimiyatga kelishi tadqiqotlarning susayishi hamda ilmiy izlanishlarga e'tiborni pasayishiga sabab bo'ldi. Faqatgina XX asrning 20-yillariga kelib ilmiy tadqiqotlar ko'lami birmuncha kengayib, mavzuning turli jihatlari o'rganildi. Biroq, ushbu davrda olib borilgan ilmiy izlanishlarda sovet mafkurasining ta'siri sezila boshladi.

Ushbu davrda faoliyat olib borgan olimlardan M. Ye. Massonning tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Uning "Go'ri Amir maqbarasi – Temuriylar xilxonasi", "Amir Temurning "Davlatobod" bog'i joylashgan o'rni", "Turkistonda Xoja Ahmad maqbarasi qo'rilishi", "Registon va uning madrasasi", "Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Temurning juma masjidi" kabi ishlarida[1014] Amir Temur va Temuriylar amalga oshirgan islohotlar, bunyodkorlik faoliyati yoritildi.

Shuningdek, ushbu davrda V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy va A. A. Semenov Temuriylar davri bunyodkorlik hamda arxitekturasiga oid merosni o'rgandilar. V. V. Bartoldning 1921-yilda nashr etilgan "Samarqand yodgorliklari haqida yangi ma'lumotlar" [1015], A. Yu. Yakubovskiyning "Qadimiy Samarqand tashqi ko'rinishi" nomli maqolasida[1016] Amir Temur va Temuriylar davrida shahardagi bunyodkorlik ishlariga ta'rif hamda tavsif berilgan. Ayniqsa, madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa binolarning qurilishiga doir materiallar ushbu yo'nalishdagi ishlar rivojida muhim o'rin egallagan.

---

[1012] Вяткин Василий Лаврентьевич // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / Под ред. А. М. Прохорова 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969.

[1013] Вяткин В. Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирза-Улугбека в 1908–09 гг. (Изв. Рус. Ком. для изуч. Средней и Восточной Азии. 1912. № 11. Сер. 2. С. 76–93.

[1014] Массон М.Е. Мавзолей Гур-Эмир, усыпальница Тимуридов. Самарканд, 1920. 32 с.; Shu muallif. О местонахождении сада Тимура "Давлат Абад" // Известия Среднеазиатского комитета по делам музеев и охране памятников старины, исскуства и природы. Вып. 3. Ташкент, 1928. С. 43–58; Shu muallif. О постройке мавзолея Ходжа Ахмеда в городе Туркестане / Известия Среднеазиатского географического общества. Вып. 19. Ташкент, 1929. С. 39–45; Shu muallif. Регистан и его медресе. Самарканд, 1929. 30 с.; Shu muallif. Соборная мечеть Тимура, известная под именем мечети Биби Ханым. Самарканд, 1929. 16 с; Shu muallif. Мавзолей Ходжа Ахмада Яссави. Ташкент, 1930. 22 с.

[1015] Бартольд В. В. Новые данные о самаркандских памятниках // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т.25. Пгр., 1921. С. 83–88.

[1016] Якубовский А. Ю. Образы старого Самарканда (Время Тимура и Тимуридов) // Восток, Кн. 5. М. – Л., 1925. С. 140–163.

A. A. Semenovning "Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi" nomli maqolasi[1017] ham bunga dalil bo'la oladi. 1926-yilda chop etilgan ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning merosiga bo'lgan ehtirom va uning maqbarasi qurilishi tafsilotlari aks etdi.

M. M. Denisovaning maqolasida[1018] Samarqanddagi Bibixonim jome' masjidi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, M. Ye. Massonning maqolasiga yangi tadqiqot natijalari qo'shildi.

A. Yu. Yakubovskiyning "Temur va Temuriylar davrida Samarqand"[1019] maqolasida ham Samarqanddagi arxitektura va qurilish ishlari o'rganildi va tadqiqotga jalb qilingan ma'lumotlar Temuriylar davrida amalga oshirilgan ishlarni baholashda muhim hisoblanadi. Maqola Samarqandning arxitekturasi davrlar osha o'zgarib borganligini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu muallifning 1939-yili nashr etilgan maqolasida[1020] Amir Temur davrida O'rta Osiyoga kelgan eronlik hunarmandlarning faoliyati va ularning arxitektura rivojiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berildi.

XX asrning 30-yillarida tarixiy tadqiqotlarga mafkuraviy ta'sir orta bordi va partiya nazorati kuchaydi. Buni A. M. Gurevich tomonidan yozilgan maqolada yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, avvalo, maqola sarlavhasiga e'tibor qaratsak, u "1365–1366-yillarda Samarqanddagi sinfiy kurash"[1021] deb nomlangan bo'lib, Sarbadorlar harakati sinfiy kurashning namunasi sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu masalaga doir A. A. Semenov ham maqola chop etgan bo'lib[1022], uning ilmiy izlanishlari asosan, o'rta asr manbalariga asoslanganligi va mafkura ta'siriga nisbatan kam uchraganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrni umumiy siyosiy holati va Amir Temurga bo'lgan munosabatni baholashda har ikkala maqola ham muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, A. A. Semenov Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishi haqidagi maqolasida[1023] uning mohir harbiy sarkarda ekanligi, uzoqni ko'ra olish va buyuk saltanatning adolatli hukmdori bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

---

[1017] Семенов А. А. Мечеть Ходжи Ахмеда Есевийского в г. Туркестане // Известия Среднеазиатского комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. Вып. 1. Ташкент, 1926. С. 121– 130.

[1018] Денисова М. М. Памятник архитектуры эпохи Тимура (Соборная мечеть Биби-Ханым в Самарканде) / Труды Секции истории искусств Российской ассоциации н.-и. институтов, V. Искусство Средней Азии. М., 1930. С. 72–80.

[1019] Якубовский А. Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. Очерк. Л., 1933. 68 с.

[1020] Shu muallif. Мастера Ирана в Средней Азии при Тимуре / Иранское искусство и археология. III Международный конгресс по иранскому искусству и археологии. Доклады. М. –Л., 1939. С. 277–285.

[1021] Гуревич А. М. О классовой борьбе в Самарканде в 1365–1366 гг. / Труды Государственной публичной библиотеки Узбекской ССР. Т. 1. Ташкент, 1935. С. 25–32.

[1022] Семенов А.А. Авторы XV в. о самаркандских событиях 1365 года // Труды Государственной публичной библиотеки Узбекской ССР. Т. 1. Ташкент, 1935. С. 32–35, 39–45.

[1023] Shu muallif. Повествование о походе его величества победоносного эмира Тимура с войском на север и его великой войне с Тохтамыш-ханом / История Татарии в материалах и документах. М., 1937. С. 79–89.

1941-yilda O‘zbekistonda Alisher Navoiy yubileyining nishonlanishi munosabati bilan olimlar u yashagan davr tarixini chuqurroq o‘rganishga murojaat qildilar. Alisher Navoiy yubileyini o‘tkazish qo‘mitasi a’zolari (M. Ye. Masson va boshqalar) Ulug‘bek rasadxonasida qazish ishlarini davom ettirdilar. Biroq, Ikkinchi jahon urushi boshlanganligi sababli ushbu ishlar to‘xtatib qo‘yildi. 1948-yilga kelib qazishma ishlari mashhur tadqiqotchi V. A. Shishkin boshchiligida Tarix va arxeologiya instituti xodimlari tomonidan olib borildi[1024].

1941-yilning iyunida Temuriylarning Go‘ri Amir maqbarasidagi qabrlarini o‘rganish maqsadida Samarqandga T. N. Qori-Niyoziy rahbarligida ekspeditsiya uyushtiriladi. Komissiya a’zolari 1941-yilning 18-iyunida Mirzo Ulug‘bekning qabrini ochadilar[1025]. T. N. Qori-Niyoziyning so‘zlariga ko‘ra, qabr toshidagi bitikni professor A. A. Semyonov o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Unda quyidagi yozuv bitilgan edi: “Bu nur taratuvchi qabr, bu sultoni shahidning sharafli joyi, bu muattar bog‘, jannatiy kishilarning, davlatpanohning so‘nggi osoyishtaligi joyi, ilm-ma’rifat homiysi, tinchlik va din madadkori Sulton Ulug‘bek (Alloh uning qabrini doimo yoritib tursin), 796-yilda Sultoniyada tavallud topgan 810-yilning zulhijja oyida esa Madinatus salom-Samarqandda oliy hukmdor bo‘ldi. Allohning irodasiga bo‘ysunib, har bir kunda o‘ziga belgilangan muddat sari suzib boraveradi. Uning umri nihoyasiga yetganda, taqdir belgilangan muddat chegarasiga kelganda o‘g‘li unga nisbatan shafqatsizlik qildi – qilich tig‘idan o‘tkazdi, oqibatda u azobli o‘lim topib, hamma gunohlarini kechirguvchi egasining shafqatli dargohiga yo‘l oldi. 853 hijriy yilning ramazon oyi, 10-kuni”[1026].

Ushbu komissiya Ulug‘bek o‘limining haqiqiy sababini ham aniqladi. Olimning o‘limi, uning so‘nggi daqiqalari haqida Abdullatif roziligi bilan Ulug‘bekka hamroh bo‘lib, Makkaga yo‘l olgan Xoja Muhammad Xisravning og‘zidan tarixchi Mirxond yozib olgan mufassal hikoya mavjud.

T. N. Qori-Niyoziyning guvohlik berishicha, Ulug‘bekning qabri ochib ko‘rilganda, uning boshi g‘arb tomonga sal surilib, tepaga qaratib qo‘yilgan bo‘lib, uchta bo‘yin umurtqasi bosh suyagidan uzilmagan holda edi. Oxirgi umurtqada o‘tkir kesuvchi qurolning aniq izlari bor edi. Suyaklarning ko‘l qismi bir necha qavat mato qoldiqlari bilan qoplangan edi. T. N. Qori-Niyoziyning fikricha, bular yopilgan mato qoldiqlari bo‘lgan. Xoja Muhammad Xisrav va Ulug‘bekka hamroh bo‘lgan boshqa kishilar uning tanasini olishganmi yoki yo‘qmi, u qachon va kim tomonidan dafn etilgan, kabi savollarga hali to‘la javob olinmagan. Davlatshoh Samarqandiyning so‘zlariga qaraganda, Ulug‘bek

---

[1024] Лунин Б. *Василий Афанасьевич Шишкин: (К 70-летию со дня рождения)* // ОНУ. 1964. № 5. С. 62-63.

[1025] Герасимова М., Герасимова К. Я ищу лица. О восстановлении внешнего облика исторических лиц. М.: Наука, 2007. С. 37–38.

[1026] Бердимурадов А. Гўр-и Амир мақбараси. Тошкент, 1996. 5–7-бетлар.

Siyob ("Qorasuv") bo'yida 853-yil ramazon oyining 8-kuni (25-oktabr)da o'ldirilgan.

T. N. Qori-Niyoziyning asarlari tarixchi olimlarning urushdan keyingi davrdagi ilmiy tadqiqotlarning yakuni sifatida keng jamoatchilikka taqdim etildi. Uning qalamiga mansub "Улуғбек фалакиёт мактаби" kitobi SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi[1027]. Mazkur kitob Temuriylar davri tarixiga oid g'oyat qimmatli asardir.

1940-yillarning oxiri – 1950-yillarda Amir Temur shaxsini antropologik jihatdan o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayon antropolog M. M. Gerasimovning tadqiqotlari bilan uzviy bog'liq. U Amir Temurning qiyofasi[1028], bosh suyagiga asosan inson yuzini tiklash[1029] haqidagi maqolalarida sohibqironning yuz ko'rinishini tiklash ishlari to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tgan. Mazkur masala antropologlar V. L. Oshanin va V. Ya. Zezenkovaning tadqiqotlarida[1030] ham o'z aksini topgan. Ushbu ilmiy izlanishlar buyuk sarkardaning yuz tuzilishini tarixda qolishiga asos yaratib bergan.

Sovet tarix fanida Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, B. Zaxoder[1031], B. D. Grekov va A. Yu. Yakubovskiy[1032], I. I. Leonov[1033], V. L. Stroyeva[1034], A. Yu. Yakubovskiy[1035], B. G. G'ofurov[1036] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida Amir Temur hamda Temuriylar davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot yoritildi. Mazkur mualliflarning asarlarida Amir Temur shaxsi va hukmronligi davri xolis baholandi, deb ayta olmaymiz. Sovet tarix fani mafkuraviy qoliplariga binoan yozilgan ishlarda bir yoqlama yondashuvlarning ustivorligi, ba'zi asossiz xulosalar tarixiy haqiqatning buzilishiga sabab bo'ldi. Ayni paytda, bu asarlar temurshunoslik sohasi rivojlanishida ma'lum o'ringa ekanligini ham qayd qilish joizdir.

XX asrning 60–80-yillari Amir Temur va Temuriylar tarixini o'rganishdagi samarali davr bo'ldi. Ushbu yillarda temurshunoslik

---

[1027] Кары-Ниязов Т. Н. [www.astro-cabinet.ru/library/Ulugbek_schk/Index.htm Астрономическая школа Улугбека]. М.-Л.: Изд. АН СССР, 1950.

[1028] Герасимов М. М. Облик Тамерлана (Опыт скульптурного воспроизведения на краниологической основе) // Краткие сообщения Института истории материальной культуры АН СССР, XVII. М., 1947. С. 14–21.

[1029] Shu muallif. Восстановление лица по черепу (Современный и ископаемый человек) // Труды Института этнографии АН СССР. Нов. сер. Т. 28. М., 1955. С. 151–175.

[1030] Зезенкова В. Я. Материалы к палеоантропологии Узбекистана и Туркмении. Сравнительно-антропологические таблицы / Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии. Сборник статей. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953. С. 107–112.

[1031] Заходер Б. Империя Тимура // Исторический журнал. М., 1941. №6. С. 78–88.

[1032] Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М.-Л., 1950.

[1033] Леонов И. И. Улугбек – великий астроном XV века. Изд. 2-е. М., 1950.

[1034] Строева В. Л. Возникновение государства Тимура // Ученые записки ЛГУ. История и филология стран Востока. Серия востоковедческих наук. № 128. Вып.3. ЛГУ, 1952. С. 70–71.

[1035] Якубовский А. Ю. Государство Тимура / История Узбекской ССР. Ташкент, 1955. Т. I. кн 1. С. 313–334.

[1036] Гафуров Б. Г. История таджикского народа. М.,1955.Т.I. С.32; Shu muallif. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. II. Душанбе: Ирфон, 1989. С. 211–212.

yo‘nalishidagi tadqiqotlar ko‘lami kengayib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning sababini ilm-fanga bo‘lgan umumiy tazyiqning kamayganligida ko‘rish mumkin. Mahalliy tadqiqotchilar bu jarayonda faol ishtirok etib, ko‘plab maqolalar e’lon qildilar. Jumladan, G. A. Pugachenkova[1037], I. M. Mo‘minov[1038], R. G. Mukminova[1039], U. Uvatov[1040], S. A. Azimjonova va B. A. Ahmedov[1041] va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida Amir Temur va temuriylar tarixini haqqoniy hamda xolis yoritgan olim I. M. Mo‘minov bo‘lib, 1968-yilda uning “Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли” nomli risolasi nashr qilindi[1042]. Mazkur risola Temur shaxsiga biryoqlama qarashlarga qarshi yozilgan dastlabki ilmiy urinish edi. Lekin, ushbu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi hamda asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi. Ushbu risolaning 1993-yilda qayta nashr etilishi mamlakat ilmiy hayotida muhim voqealardan biri bo‘ldi[1043].

“Темур тузуклари”ni Alixontura Sog‘uniy o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1967-yilda “Гулистон” jurnalida chop ettirdi. Bu “Темур тузуклари”ning sovet davrida amalga oshirilgan birinchi tarjimasi edi. Mazkur nodir asarning N. Ostroumov nashri (1894) faksimilesi 1968-yilda akademik I. Mo‘minov sa’y harakati bilan chop qilindi. Ushbu qadamlar Amir Temur nomi qatag‘on qilingan davrlardagi chinakam jasorat namunalari sifatida e’tirofga loyiqdir.

E. V. Rtveladzening ilmiy faoliyatida Amir Temur va Temuriylar masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Olimning Temuriylar davriga oid epigrafik va numizmatik tadqiqotlari temurshunoslik sohasida yangi yo‘nalishning rivojlanishiga sabab bo‘ldi[1044]. Chunki, aynan numizmatik manbalar davlatning

---

[1037] Пугаченкова Г. А. Архитектурные памятники Мавераннахра эпохи Улугбека / Из истории эпохи Улугбека. Ташкент, 1965. С. 227–255.

[1038] Муминов И. М. Али Қушчининг бир рисоласи ҳақида // Фан ва турмуш. 1967. №5. 23–28-бетлар; Shu muallif. К изданию факсимиле “Уложение Тимура” // Уложение Тимура. Ташкент, 1968. С. 3–5; Shu muallif. Об исторических условиях развития исскуства Средней Азии эпохи Тимуридов // ОНУ. 1969. №8–9. С. 3–11; Shu muallif. Самарканд – столица Тимуридов (Тимур и его правление) / История Самарканда. Т. 1. Ташкент, 1969. С. 163–173.

[1039] Мукминова Р. Г. Ремесло и торговля (при Тимуре и Тимуридах) / История Самарканда, Т. 1. Ташкент, 1969. С. 195–212.

[1040] Уватов У. Ибн Арабшах о Тимуре / Вопросы истории, экономики и культуры народов Средней Азии и стран зарубежного Востока / Сб. статей молодых ученых и аспирантов Института востоковедения АН УзССР. Вып. 1. Ташкент, 1970. С. 108–111; Shu muallif. Об Ибн Арабшахе и его книге “Аджаиб ал-макдур фи тарихи Тимур” // ОНУ. 1972. №7; Shu muallif. Сведения Арабшаха о Мавераннахре / Вопросы истории, экономики и культуры народов Средней Азии и стран зарубежного Востока / Сб. статей молодых ученых и аспирантов Института востоковедения АН УзССР. Вып. 2. Ташкент, 1975. С. 108–111.

[1041] Азимжонова С. А., Аҳмедов Б. А. Амир Темур давлати // Ўзбекистон ССР тарихи. 1-ж. Қадимий давлатлардан XIX асрнинг биринчи ярмигача. Тошкент, 1970. 448–471 б.; Shu mualliflар. Темурийлар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросон / Ўзбекистон ССР тарихи. 1-ж. Тошкент, 1970. 472-518-бетлар.

[1042] Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Тошкент, 1968.

[1043] Shu muallif. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Тошкент: Фан, 1993.

[1044] Ртвеладзе Э. В. Термезский клад монет Тимура и Халил Султана // ОНУ. 1969. № 8-9. С. 95–98; Shu muallif. О медных именных монетах Тохтамыша и подражаниях им // Эпиграфика Востока (ЭВ). Т. 21. Л.: Наука, 1972. С. 42–47; Shu muallif. О походе Тимура на Северный Кавказ / Археолого-этнографический сборник. Т. IV. Грозный: Чечено-ингушское кн. изд-во, 1976. С. 103–129; Shu muallif.

ravnaqi va rivojini isbotlab beruvchi muhim dalillardan biri hisoblanadi. U Amir Temur, Xalil Sulton, To'xtamishxon va boshqa hukmdorlarga tegishli xazinalarni chuqur tahlil qilgan holda, o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ochib bera olgan. Bunday yondashuv temurshunoslik sohasining avval e'tibordan chetda qolgan jihatlarini ko'rish imkonini berdi.

B. V. Luninning "Инкилобгача ва совет давридаги шаркшунослик тадкикотларида Ўрта Осиё"[1045] kitobi Amir Temur va Temuriylar davrining tarixshunoslik tahliliga bag'ishlangan. Olim Temuriylar davri tarixi, madaniyati va san'atiga doir sovet davri adabiyotlari bibliografik ko'rsatkichini[1046] tuzgan edi. Bu temurshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish hamda to'plangan bilimlarni baholashda muhim qo'llanma bo'ldi.

Amir Temur va Temuriylarning sovet davri tarixshunosligi o'z rivojida asosan siyosiy va mafkuraviy ko'rsatmalarga tayandi. Amir Temur shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabat aynan markazning maqsadidan kelib chiqib, avvaliga salbiy, keyinchalik mo'tadil va sovet davri oxirgi yillarida biroz ijobiy tarafga o'zgardi. Bu ijobiy jihatlar ham aksariyat hollarda mahalliy olimlarning jonbozligi tufayli sodir bo'ldi.

**Mustaqillik yillarida** Amir Temur va Temuriylar davriga munosabat tubdan o'zgardi. Uzoq yillar mobaynida bu mavzuni o'rganishdagi mavjud yondashuvlardan voz kechildi va sovet tarix fanidagi aksariyat xulosalarning asossizligi isbotlandi. Avvalo, bu borada davlat tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ta'kidlab o'tish joiz. Chunki aynan davlat va uning rahbariyati tomonidan chiqarilgan turli qarorlar va amalga oshirilgan tadbirlar temurshunoslik yo'nalishini yangilanishi va rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ma'naviy tiklanish va yangilanish islohotlarini ulug' ajdodlar, xususan, Amir Temurning muborak nomi, boy merosi, xotirasi va tarixiy siymosini tiklash asosiga qurdi. I. A. Karimov "Qizil imperiya davrida Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoqlar bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yuqotish uchun, qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin, o'zbek xalqi o'z ajdodlarini o'z bahodirlarini unutmadi, ularni hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi"[1047],- deya xalq tarixiy xotirasi ahamiyatining muhimligiga e'tibor qaratdi.

---

Монеты Кеша // История и культура южных районов Средней Азии в древности и средневековье. Сборник научных трудов ТашГУ. Ташкент, 1988. С. 38–43.

[1045] Лунин Б. В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент, 1965. С. 98–99, 109–110, 132, 148, 193–194, 200, 220–221.

[1046] Shu muallif. История, культура и искусство времени Тимуридов в советской литературе (Библиографический указатель) // ОНУ. 1969. №8–9. С. 100–145.

[1047] Каримов И. А. Эхтиром // "Халк сузи". 1993 йил 1 сентябрь.

Amir Temur xotirasini abadiylashtirishda Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari va turli dasturlar muhim oʻrin tutib, ayni paytda temurshunoslik sohasi taraqqiyotini ragʻbatlantirdi[1048].

Ma'lumki, eng katta muammo – jahon jamoatchiligining Amir Temur shaxsi haqidagi fikrini oʻzgartirish edi. Sovet tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga berilgan biryoqlama baholar, buning asoratidan qutulish oson kechmadi. Dastavval "Амир Темур – жаҳон тарихида" qomusiy kitobi tayyorlandi. 1996-yilda kitob xorij tillariga tarjima qilingach, xalqaro jamoatchilik va dunyo tarixchilarida katta qiziqish uygʻotdi.

1995-yilda YuNESKO "Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash haqida" qaror qabul qildi. Mazkur qarorga koʻra Sohibqiron tavalludining 660 yilligi butun dunyo boʻylab nishonlandi. 1996-yil Oʻzbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi[1049]. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning muhtasham haykallari oʻrnatildi.

Amir Temur va Temuriylar davlat muzeyining ochilishi bu yoʻldagi navbatdagi qadamlardan biri boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil 18-oktabrda Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida soʻzlagan nutqida: "Kimki oʻzbek nomini, oʻzbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qoʻshgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi boʻlsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!" Shuningdek, Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan hodisa ekanligi va oʻtgan 600 yil mobaynida Amir Temurga bagʻishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, sharq tillarida 900 ga yaqin ekanligini gʻurur bilan ta'kidlagan edi[1050].

Muzeyda Amir Temur va Temuriylar davriga doir besh mingdan ortiq eksponatlar toʻplangan boʻlib, turli mavzularda koʻrgazmalar tashkil etish yaxshi an'anaga aylandi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida "Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining

---

[1048] 1993 йил 29 июндаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Амир Темур ҳайкалини яратиш тўғрисида"ги 322-сонли Қарори; 1995 йил 26 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг "1996 йилни "Амир Темур йили" деб эълон қилиш тўғрисида"ги ПФ-1333-сонли фармони; 1996 йил 26 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг "Амир Темур орденини таъсис этиш тўғрисида"ги 225-I-сонли Қонуни; 1996 йил 28 августдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Амир Темурнинг 660-йиллигига бағишланган тантанали маросимларни ўтказиш тўғрисида"ги 300-сонли қарори; 1997 йил 24 январдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Темурийлар тарихи давлат музейи фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги 50-сонли Қарори; 1997 йил 26 майдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси музей ва илмий муассасалари фондидан Амир Темур ва темурийлар даврига оид экспонатларни Темурийлар тарихи давлат музейига ўтказиш тўғрисида"ги 259-сонли Қарори.

[1049] https://kun.uz/news/2016/10/18/temurijlar-tarihi-davlat-muzeji-ocilganiga-20-jil-buldi / 20.05.2020.

[1050] Амир Темур жаҳон тарихида. 2-нашр. Тошкент: Шарқ, 2001. 27-б.

muntazam ravishda o‘tkazilishi va materiallarining chop etilishi ham Amir Temur va temuriylar davrini o‘rganishda muhim hissa bo‘ldi[1051].

Shuningdek, ushbu muzeyda har ikki yilda bir marotaba Amir Temur va Temuriylar davri tarixining turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan an’anaviy ilmiy-amaliy hamda xalqaro anjumanlar ham tashkil etib kelinadi.

Xususan, muzeyda o‘tgan yillar mobaynida Temuriylar davri madaniy yodgorliklari; Amir Temur va Temuriylar davri: yangi tadqiqotlar; Temuriylar saltanatida davlatchilik va renessans; Temuriylar tarixiga oid manbalar; Temuriylar tarixiga oid manbalar: tavsif, tarjima, tadqiqot; Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat; Temuriylar davri: tadqiqotlar va muammolar; Temuriylar davrini o‘rganishning umumbashariy ahamiyati; Temuriylar davri yozma merosining tarqalishi va o‘rganilishi; Amir Temur va Temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o‘rni; Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish va targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati kabi mavzularda an’anaviy tarzda ilmiy amaliy konferensiyalar o‘tkazib kelinmoqda. Shuningdek, 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi va O‘zbekiston – Afg‘oniston do‘stlik jamiyati hamkorlikda “Temuriy malika Gavharshod begimning hayoti va faoliyati” mavzusida xalqaro simpozium o‘tkazildi.

2019-yilda muzeyda Amir Temur tavalludining 683-yilligi va Fransiyadagi “Temuriylar tarixi va san’atini o‘rganish uyushmasi” tashkil etilganligining 30 yilligi munosabati bilan “Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ajdodlarimizning boy moddiy va ma’naviy merosini o‘zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki Amir Temur

---

[1051] “Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулоҳазалар” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий анжуман материаллари. 1-китоб. Тошкент, 2003. 108 б.; “Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар” мавзуида ўтказилган Республика илмий анжумани материаллари. 2-китоб. Тошкент, 2005. 191 б.; “Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс” мавзуида ўтказилган Республика илмий анжумани материаллари. 3-китоб. Тошкент, 2008. 127 б.; “Темурийлар тарихига оид манбалар” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 4-китоб. Тошкент, 2010. 117 б.; “Темурийлар тарихига оид манбалар: тавсиф, таржима, тадқиқот” мавзусида ўтказилган Республика илмий амалий конференцияси материаллари. 5-китоб. Тошкент, 2011. 188 б.; “Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 6-китоб. Тошкент, 2013. 127 б.; “Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 7-китоб. Тошкент, 2014. 280 б.; “Темурийлар даври ёзма меросининг тарқалиши ва ўрганилиши”. VIII Республика илмий-амалий конференция материаллари. 8-китоб. Тошкент, 2016. 235 б.; “Амир Темур ва Темурийлар давридаги илм-фан ва маданият ривожининг жаҳон тамаддунидаги ўрни”. Республика илмий-амалий конференция материаллари. 9-китоб. Тошкент, 2017. 238 б.; “Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожини ўрганиш ва тарғиб қилишнинг умумбашарий аҳамияти”. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 10-китоб. Тошкент, 2019. 237 б.

va Temuriylar davri davlatchilik tarixiga doir tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy markaz ham hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasi sifatida yubiley albomlari, to'plamlar, monografiyalar nashr etilmoqda.

Mustaqillik davrida temurshunoslik yo'nalishi rivojini ikki bosqichga bo'lish mumkin. *Birinchi bosqich* – 1991–1996-yillarni o'z ichiga olib, asosan, Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalar hamda ma'lumotlarni qayta mushohada qilish va ilmiy qimmatini baholash vaqti bo'ldi.

*Ikkinchi bosqich* – 1996-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davr. Ushbu bosqichda yaratilgan tadqiqotlar yangi sifat darajasiga ko'tarila boshladi. Mavzuni o'rganishda konseptual yondashuvlar tamomila o'zgardi. Tadqiqotchilarning ushbu davrdagi faoliyati Amir Temur va Temuriylar merosini jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilishiga qaratildi. Amir Temur va Temuriylar davriga oid amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar va ilmiy izlanishlarning yangi natijalari asosida umumlashtiruvchi jamoaviy monografiyalar, mualliflik monografiyalari, risolalar, ilmiy to'plamlar, maqolalar vujudga keldi.

Shu o'rinda mualliflar jamoasini bir mavzuni o'rganish atrofida jipslashtirgan monografiyalarni ham ta'kidlab o'tish joiz. Bunday asarlar Amir Temur va Temuriylar tarixining ko'p jihatlarini qamrab olgani, mavzuni yoritishda turli xil ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgani, bir asar doirasida katta hajmdagi axborotni olish imkoni borligi bilan qimmatlidir.

1996-yilda nashr etilgan "Темур ва Улуғбек даври тарихи"[1052] nomli kitobda o'rta asrlarga oid qo'lyozma manbalar asosida yaratilgan, shuningdek, arxivlardan topilgan yangi ma'lumotlarga tayangan holda Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davridagi siyosiy jarayonlar, iqtisodiyot masalalari, mazkur saltanatdagi madaniyat va san'at ravnaqi yoritildi.

"Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида" kitobi ham mashhur sarkarda va uning nabirasi xotiralariga bag'ishlangan bo'lib, unda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan[1053].

YuNESKO tashabbusi bilan mualliflar jamoasi 2001-yilda "Амир Темур жаҳон тарихида" asarini yaratdilar[1054]. Ushbu asarni yozilishida ko'plab mahalliy olimlar, jumladan, S. Saidqosimov (rahbar), A. Ahmedov, B. Ahmedov, G. Asanova, O. Bo'riyev, H. Dadaboyev, P. Zohidov, E. Ismoilova, G'. Karimov, B. Lunin, O. Matyoqubov, J. Mirzaahmedov, R. Mukminova, A. Muhammadjonov, E. Rtveladze, H. Sobirov, U. Uvatov, T. Fayziyev, D. Yusupova va boshqalar; fransiyalik tadqiqotchilar L. Bazen, F. Bressam, L. Keren, V. Furnyo va boshqalar ishtirok etdilar. Mualliflar jamoasining tarkibi ham ushbu asardagi ma'lumotlar qimmati yuqoriligini

---

[1052] Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент: Комуслар бош таҳририяти, 1996. 264 б.

[1053] Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б. Аҳмедовнинг илмий таҳрири остида. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

[1054] Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент: Шарқ, 2001. 304 б.

ko'rsatadi. Asarda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimovning Amir Temur va temuriylar to'g'risidagi fikr-mulohazalari, 1996-yil – "Amir Temur yili" deb e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati, Amir Temur va temuriylar davlati haqida ma'lumotlar, Amir Temur va Temuriylarning jahon madaniyati rivojlanishiga qo'shgan hissasi, Amir Temur davri tarixnavisligi kabi qismlardan iborat. Ayniqsa tarixshunoslik qismi juda muhim bo'lib, mahalliy va xorijiy adabiyotlar sharhi hamda tahlili kompleks tarzda amalga oshirilgan. Aksariyat xorijiy manbalar va ularning ma'lumotlariga nisbatan munosabat bildirilgan.

Ushbu asar to'ldirilib, 2006-yilda ikkinchi marta qayta nashr etildi[1055]. Mazkur kitob o'rganilayotgan mavzuga oid yirik tadqiqot hisoblanadi.

"Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожини ўрганиш ва тарғиб қилишнинг умумбашарий аҳамияти" nomli jamoaviy monografiyada[1056] ham temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish hamda targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar materiallari, ilmiy tadqiqotlar, ma'naviy-targ'ibiy ishlar, manbalar hamda chop qilingan ishlar tahlil qilingan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy hayot "История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темиридов"[1057] deb nomlangan monografiyada yangicha yondashuvlar asosida batafsil yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida bu mavzuga doir amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida ko'plab maqolalar va yirik mualliflik monografiyalari nashr etildi.

O'zbekiston tarix fanida temurshunoslik yo'nalishi rivojiga R. G. Mukminova ham o'z ilmiy tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shdi. Olima Temuriy hukmdorlar, ular boshqaruvi davrida hunarmandchilik, Movarounnahrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot va savdo aloqalarining rivojlanishiga oid bir qator maqolalarni e'lon qildi[1058].

Sovet davrida ham o'zining teran qarashlari va ob'yektiv xulosalari bilan ma'lum bo'lgan akademik E. V. Rtveladze mustaqillik yillarida ham o'z izlanishlari bilan ushbu yo'nalish rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Xususan, olimning geraldika va Amir Temur gerblariga doir, Amir Temurni Uzoq Sharqda o'rganilishi, Amir Temur va Temuriylar saroyiga kelgan elchilar va

---

[1055] Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир Р. Қосимов. Тошкент: Шарқ, 2006. 336 б.

[1056] Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожини ўрганиш ва тарғиб қилишнинг умумбашарий аҳамияти / Масъул муҳаррир Н. Ҳабибуллаев. Тошкент: Akademnashr, 2014. 128 б.

[1057] История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов / Отв. редакторы Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. Ташкент: Фан, 2017. 568 с.

[1058] Мукминова Р. Г. Темурий ҳукмдорлар // Ёш куч. 1991. №6. 22–26-бетлар; Shu muallif. Ремесленное произодство в Самарканде времени Улугбека // ОНУ. 1994. №7. С. 17–21; Shu muallif. Эпоха Улугбека: ремесленное производство / Алломалар сарвари. Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган илмий-назарий кенгаш маърузалари тўплами. Тошкент, 1995. 132–137-бетлар; Shu muallif. Темур ва Улуғбек даврида Мовароуннаҳрда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт / Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент, 1996. 113–154-бетлар.

ularning taassurotlari tafsilotlari[1059] temurshunoslik yo'nalishini yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

A. Muhammadjonov muallifligida 1994-yilda nashr etilgan "Темур ва темурийлар салтанати" asari[1060] tarixiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, turli mahalliy manbalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida yozilgan. Muallif Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat va sarbadorlar harakati tafsilotlari, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelish arafasidagi siyosiy vaziyatni atroflicha yoritib berishga harakat qilgan. Mazkur asar tarixiy ocherk janrida yozilgan bo'lib, unda mamlakatning ichki hayoti, harbiy islohotlar, Yevropa davlatlari bilan elchilik aloqalari tafsilotlari, Mirzo Ulug'bek hukmronligi, temuriylar davlati inqirozi, xo'jaligi, yer egaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va pul munosabatlari, ilm-fan hamda madaniy hayot, me'morchilik, kitob va tasviriy san'at, musiqa, adabiyot rivoji hamda temuriy hukmdorlar shajarasi keltirilgan. Ushbu kitob Amir Temur va temuriylar davri haqidagi boshlang'ich bilimlarni egallashda muhim hisoblanadi.

Temurshunoslik sohasi rivojiga Turg'un Fayziev o'z asarlari[1061] bilan munosib hissa qo'shganini e'tirof etish kerak. Ushbu tadqiqotchi Sohibqiron Temurning hayot yo'li va shajarasi haqida yangi ma'lumotlar asosida katta kitob yozdi.

Amir Temur va Temuriylarning O'zbek davlatchiligi, boshqaruv va xavfsizlik tizimi hamda iqtisodiy-siyosiy hayotiga bag'ishlangan monografiyalar ham nashr etildi.

Azamat Ziyo qalamiga mansub "Ўзбек давлатчилиги тарихи"[1062] nomli kitobda Amir Temur va temuriy hukmdorlarning davlat boshqaruv tizimi hamda ushbu davrdagi tarixiy jarayonlar yoritilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruvida qo'llagan ko'plab islohotlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. I. To'xtiyevning "Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати" asari ham bunga misol bo'la oladi[1063]. Mazkur asarda sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hamda temuriylar sulolasi davrida muomalada bo'lgan tanga pullar, ular bilan bog'liq tarixiy voqealar, Temuriylar davlatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida moliya-pul tizimining ahvoli haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

---

[1059] Ртвеладзе Э. В. Государственная символика. Герб Амира Темура // Амир Темур в мировой истории. Париж, 1996. С. 62–64; Shu muallif. Исследования об Амире Темуре на Дальнем Востоке / Комитет по науке и технике. Ташкент, 1996. С. 20–24; Shu muallif. Китайские посольства ко двору Амира Темура и Темуридов // ОНУ. 1996. № 7–10. С. 54–61; Shu muallif. Монеты на Великом шелковом пути // НЦА. 1998. Вып. III. С. 5–17.

[1060] Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. 156 б.

[1061] Файзиев Т. Темурий маликалар. Тошкент, 1994; Shu muallif. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995.

[1062] Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Тошкент: Шарқ, 2000. 368 б.

[1063] Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. Тошкент, 2006.

H. Ziyoyevning "Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири"[1064] asarida mavzuni yoritishda yangi dalillar va ma'lumotlarni jalb qilgan. Muallif ushbu asarda bir shaxsning bir buyuk davlat qurishdagi o'rni va ahamiyati qanchalik muhimligini ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

H. Sodiqov muallifligida chop etilgan "Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати"[1065] asarida ilgari kam e'tibor qaratilgan masalalardan biri o'rganildi. Ushbu kitob Temur shaxsining yangi bir qirrasini ochadi. Uning davlat xafsizligini ta'minlashdagi muhim omil – ayg'oqchilik sohasida olib borgan o'ziga xos va ayni damda oqilona siyosati, jangovar faoliyati aniq va ravshan yoritib berilgan. Kitob mavzuni o'rganishning yangi jihatini olib chiqqanligi sababli, temuriylar davri tarixshunosligida muhim hisoblanadi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi huquqiy, ijtimoy-iqtisodiy ahvol, jinoyat va jazo, madaniyat va uning rivoji, tadbirkorlik faoliyati, tabobat, urug'-qabilalar va ularning mavqei kabi masalalar Sh. O'ljayevaning bir qator maqolalarida aks etdi[1066]. Tadqiqotchi ko'p yillik izlanishlari natijasini "Амир Темур давлат бошқаруви"[1067] va "Амир Темур дипломатияси" nomli monografiyalarida taqdim etdi[1068].

Bundan tashqari, Amir Temur va Temuriylar davrining manbashunosligi hamda tarixshunosligi yoritilgan monografiyalar ham vujudga keldi. Ushbu tadqiqotlar buyuk sarkarda va uning avlodlari merosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lamini kuzatish, mahalliy, shuningdek xorijiy izlanishlar, ulardagi ma'lumotlarni o'rganish asnosida xulosalar qilishda muhim hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsan o'zi va uning buyrug'i asosida yozilgan "Темур тузуклари" asariga e'tibor yanada kuchaydi. Ushbu yodgorlik Amir Temur shaxsiyati va uning hukmronlik yillari, davlat tuzilishi hamda saltanat yuritish tizimi, o'sha davrning iqlim sharoitlari, umuman, insonlararo munosabatlar to'g'risida keng tasavvur bera oladigan noyob, durdona asardir.

Mustaqillik yillarida "Темур тузуклари"ni o'rganish, nafaqat asliyatda, balki boshqa tillarda ham chop etishda jiddiy ishlar olib borgan olimlardan biri akademik Bo'riboy Ahmedov bo'ldi. U asarning 1991, 1996-yillar nashrlariga batafsil so'zboshilar yozdi, atroflicha izohlar ilova qildi[1069].

---

[1064] Зиёев Ҳ. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. Тошкент: Маънавият, 2008. 136 б.
[1065] Содиқов Ҳ. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. Тошкент: Art Flex, 2010. 436 б.
[1066] Ўлжаева Ш. Амир Темур ва Темурийлар даврида ижтимоий ҳимоя // Qonun himoyasida, 2002; Shu muallif. Темурийлар даврида жиноят ва жазо // Qonun himoyasida, 2003; Shu muallif. Соҳибқироннинг бир фармони // Ҳуқуқ ва бурч. 2009; Shu muallif. Салтанатнинг хос тузуги // Ҳуқуқ ва бурч. 2014; Shu muallif. Амир Темур салтанатида уруғ-қабилаларнинг мавқеи // Имом Бухорий сабоқлари, 2016; Shu muallif. Развитие предпринимательства в империи Амира Темура // Look to the past, 2019; Shu muallif. A History of Historiography and some Sources of the Period of Amir Temur and Temurids // International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT), 2019; Shu muallif. Posts and Ranks Concerning to Central Power Empire of Amir Temur // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020.
[1067] Shu muallif. Амир Темур давлат бошқаруви. Тошкент: Академнашр, 2017. 148 б.
[1068] Shu muallif. Амир Темур дипломатияси. Тошкент, 2018. 156 б.
[1069] Темур тузуклари. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1991. http://www.e-tarix.uz/milliyat-insholari/212-temur-tuzuklari.html (Фойдаланилган сана: 25.02.2020)

A. O‘rinboyev, Habibulla Karomatov va Hamidulla Karomatov, A. Ahmedov, O. Bo‘riyev, H. Bobobekov, H. Boboyev va A. Quronbekov singari olimlar ham Amir Temur hamda uning “Tuzuklari”ga oid ilmiy tadqiqotlar yaratdilar hamda tarjimalarini e’lon qildilar. Ma’lumki, “Темур тузуклари” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Sohibqiron hayotining eng e’tiborli voqealariga bag‘ishlanganligi va ular tarix hujjatlariga aylanganliklari bilan qadrlidir. Qisqa, sodda, tushunarli tilda insho etilgan voqealar o‘quvchilarning turli tabaqalariga birday anglashilarlidir. Muhimi, ushbu voqealar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari singari ishonchli manbalardagi voqealarga mos keladi. Ikkinchi qismi esa davlat qonunlar, ya’ni tuzuklardan iborat bo‘ldi. Ushbu tuzuklar saltanatning barpo bo‘lish yo‘lida, hayotning o‘zi keltirib chiqargan hayotbaxsh qonunlar majmuasi ediki, ular bugungi kunda ham ulkan ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, Amir Temur va Temuriylar davri o‘z aksini topgan tarixiy asarlar ham mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Jumladan, Ibn Arabshoh[1070], Sharafiddin Ali Yazdiy[1071], Nizomiddin Shomiy[1072], Rui Gonsales de Klavixo[1073] va boshqalarning asarlari shular jumlasidandir.

B. V. Luninning 1996-yilda chop etilgan “Amir Temur va uning davriga oid manbalar”, “Ulug‘bek va uning davriga oid manbalar” kabi maqolalari mavzu manbashunosligi rivojida muhim o‘rin tutdi[1074].

O. Bo‘riyevning “Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё: тарихий-географик лавҳалар” asari 1997-yilda chop etilgan. Ushbu kitobda Temuriylar davri yozma manbalari ma’lumotlari asosida Markaziy Osiyoning XIV–XV asrlardagi ma’muriy-hududiy bo‘linishi, tabiati va xo‘jaligi haqida so‘z yuritiladi[1075].

U. Uvatovning “Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида” asarida arab tilidagi ko‘plab manbalar tahlilga tortilgan[1076]. Ushbu muallif tarixiy manbalarga asoslanib, Amir Temur haqiqatda buyuk sarkarda, qobiliyatli davlat arbobi ekanligi yoritadi. Ibn Arabshoh va boshqa arab tarixchilari tomonidan Amir Temur haqida bildirilgan fikrlarni keltirish orqali esa, ushbu shaxs ularning ham e’tiborida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

---

[1070] Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 1-ж. Тошкент: Мехнат, 1992.

[1071] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент: Камалак, 1994.

[1072] Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

[1073] Рун Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406) / Рус тилидан Очил Тоғаев таржимаси. Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

[1074] Лунин Б. В. Амир Темур ва унинг даврига оид манбалар / Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент, 1996. 230–253-бетлар; Shu muallif. Улуғбек ва унинг даврига оид манбалар // Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент, 1996. 254–264-бетлар.

[1075] Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё: тарихий-географик лавҳалар. Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 168 б.

[1076] Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. Тошкент: Шарқ, 1997. 150 б.

“Амир Темур салтанати тарихига оид ёзма манбалар тадқиқи ва тавсифи” deb nomlangan kitobda jahon miqyosida tarqalgan mazkur mavzuga oid yozma manbalarning tadqiqi va tavsifi berilgan. Kitobda dunyoning turli kutubxonalari, muzeylari va fondlaridagi manbalar qamrab olingan[1077]. Ushbu asarda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda amaliy dolzarb ahamiyatga ega.

Bir guruh tadqiqotchilarning izlanishlari natijasida “Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида” kitobi nashr etildi. Ushbu asarda Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda olib borilgan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan va madaniyat borasidagi rivojlanish, turli manbalar sharhi o‘rin olgan[1078].

Bundan tashqari, B. Ahmedov, A. O‘rinboyev, D. Yusupova, A. Ahmedov, U. Uvatov, O. Bo‘riyev, B. Mannonov va boshqa olimlar Sharqshunoslik instituti fondi, chet el arxivlari hamda kutubxonalarida aniqlangan bir nechta tarixiy manbalarni tarjima qildilar.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligiga doir tadqiqotlar amalga oshirildi va bir qancha kitoblar nashr qilindi. Jumladan, 1996-yilda L. Keren va A. Saidov tomonidan “Амир Темур ва Франция” asari chop etildi[1079]. Mazkur kitob Amir Temur va Temuriylar sulolasi tarixining fransuz sharqshunoslik maktabi tomonidan o‘rganilishiga bag‘ishlangan. “Amir Temurga adolatli buyuk ehtiromimiz” deb nomlangan qismida ko‘plab yangi tarixshunoslik ma'lumotlari bilan tanishish mumkin bo‘ladi. E. V. Rtveladze va A. X. Saidovlar tuzgan bibliografik ko‘rsatkich[1080] Amir Temur va temuriylar tarixini o‘rganuvchi mutaxassislarga ushbu serqirra mavzuni chuqur va har tomonlama, Markaziy Osiyo tarixini jahon tarixi kontekstida yoritish imkonini beradi. Mazkur kitobda xorijiy tadqiqotchilarning ingliz, fransuz, portugal, turk va yapon tillaridagi so‘nggi 450 yil davomida yaratilgan 660 ta ishlarining ro‘yxati keltirilgan.

A. Rahmatullaevaning “Амир Темур салтанати тарихнавислиги” kitobida[1081] Sohibqiron hayoti va faoliyatiga oid yozma manbalar hamda ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili amalga oshirilgan. Amir Temur faoliyatiga oid bibliografik ko‘rsatkich tuzilib, adabiyotlar klassifikatsiya qilingan.

---

[1077] Амир Темур салтанати тарихига оид ёзма манбалар тадқиқи ва тавсифи / Тўпловчи: А. Шарипов. Тошкент: Фан, 2020. 256 б.

[1078] Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида / Таҳрир ҳайъати: М. Хайруллаев, А. Ўринбоев. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997. 186 б.

[1079] Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. Тошкент: Адолат, 1996. 88 б.

[1080] Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой истории. Библиография / Отв. за выпуск Д.Нурматова. Париж, 1996. 28 с.; Shu mualliflар. Амир Темур в зеркале мировой науки. Ташкент: Мир экономики и права, 1999. 112 с.

[1081] Раҳматуллаева А. Амир Темур салтанати тарихнавислиги. Тошкент: Fan va texnologiya, 2010. 96 б.

F. Shamukaramovaning “Мирзо Улуғбекнинг ҳаёти ва ижоди XX аср тарихшунослигида” deb nomlangan monografiyasida[1082] XX asr boshlaridan to 2012-yilga qadar bo‘lgan uch tarixshunoslik davrida buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek hayoti hamda faoliyatini o‘rganish dinamikasi ko‘rib chiqiladi. Kitobda Mirzo Ulug‘bekning astronomiyaga sohasidagi kashfiyotlari, tarix ilmiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, u hukmronlik qilgan davr siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan katta hajmdagi ilmiy tarixiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Amir Temur shaxsiga doir tarixiy ma’lumotlarni ommalashtirishda ilmiy-ommabop risolalar o‘ziga xos o‘ringa ega. Risolalar orqali buyuk sarkarda faoliyati bilan bog‘liq eng muhim voqealarni qisqartirilgan shaklda olish va tanishib chiqish imkoni paydo bo‘ladi.

2001-yilda chop etilgan “Амир Темур сабоқлари” risolasi ham umumiy ma’lumotlar olish uchun foydali manbalardan biri hisoblanadi[1083]. Mazkur risolada Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvi, ijtimoiy iqtisodiy va ma’naviy hayotda turli jihatlarini hal qilishdagi maslahatlar berilgan. Xususan, davlatga sodiq xizmat qilganlar Amir Temurning ishonchini qozongani va taqdirlanishga musharraf bo‘lganligi ham qayd etiladi. Risolani ilmiy izlanish sifatida emas, balki tavsifiy ma’lumot beruvchi asar sifatida qabul qilish joiz.

Xalqaro “Amir Temur” jamg‘armasi homiyligida 2008-yilda Muhammad Alining “Амир Темур солномаси” risolasi chop etildi. Ushbu risolada ko‘plab ma’lumotlar, jumladan, Amir. Temur tavalludi, bolaligi, siyosiy faoliyati, diplomatiyasi, ilm-fanga e’tibori, farzandlari, vafot etishi, Sohibqiron haqidagi ilk asarlar va manbalar haqida tavsifiy ma’lumotlar berilgan[1084]. Risola jiddiy ilmiy ahamiyatga molik xulosalar bermagan holda, Amir Temur va uning hayoti to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilish uchun foydali.

2011-yilda O. Bo‘riyevning “Соҳибқирон Амир Темур” risolasi chop etilgan bo‘lib, unda Amir Temurning hayoti, Movarounnahrni mo‘g‘ullar istilosidan ozod qilish uchun olib borilgan kurash, mamlakatning ichki va tashqi saloqalari, Movarounnahrdagi bunyodkorlik ishlari xususida so‘z yuritilgan[1085].

N. Norqulovning “Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар” nomli risolasida Temur va Temuriylar davlati, sohibqironning madaniyat sohasidagi ishlari, Amir Temurning ilm-fanga ko‘rsatgan e’tibori, Kamoliddin Behzod va uning tasviri san’at maktabi hamda ushbu davrga oid turli manbalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur risola nasriy va nazmiy tarzda yozilgan bo‘lib, uning oxirida turli manbaviy asarlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan[1086].

---

[1082] Шамукарамова Ф. Мирзо Улуғбекнинг ҳаёти ва ижоди XX аср тарихшунослигида. Тошкент: Yangi nashr, 2012. 256 б.

[1083] Амир Темур сабоқлари. Тошкент: Шарқ, 2001. 33 б.

[1084] Муҳаммад Али. Амир Темур солномаси. Тошкент: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. 52 б.

[1085] Бўриев О. Соҳибқирон Амир Темур. Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

[1086] Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм, 1996. 125 б.

N. Ahmedovning “Амир Темур. Ривоят ва ҳақиқат” risolasida Amir Temurning bolaligi, yakka hukmronligining o‘rnatilishi, temuriylar davlatining vujudga kelishi, harbiy yurishlari, tashqi va ichki siyosati, ma’naviyati va uning hozirgi kundagi ahamiyati haqida hikoya qilinadi. Risolada ko‘plab manbalardan foydalangan holda turli qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. N. Ahmedov ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar izlanishlarini tahlil qilgan va rivoyat hamda haqiqatni farqlarini ko‘rsatib bergan[1087].

B. Ahmedovning “Амир Темур ҳақида ҳикоялар” asari asosan buyuk sarkarda haqidagi turli hikoyalardan iboratdir. Asarda sarbadorlar, darveshlar, To‘xtamish, Ibn Xaldun, avliyolar va boshqa voqealar haqida turli hikoyalar o‘rin olgan. Ushbu hikoyalar ba’zi tarixiy dalillar asosida yoritilgan bo‘lishiga qaramay, badiiy to‘qimalar ham ko‘plab o‘rinlarda ishlatilgan[1088].

2014-yilda H. Ibrohimov tomonidan chop etilgan “Соҳибқиронни англаш” asari Amir Temur hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatining amir Qozog‘on saroyidagi xizmatidan to ulug‘ saltanatni barpo etishga qadar bosib o‘tgan shonli yo‘lida yuz bergan eng muhim voqealarni qamrab oladi[1089]. Muallif ushbu asarni Sohibqiron haqidagi ishonchli tarixiy manbalar, asarlar va esdaliklarni o‘zaro qiyoslash asosida yaratgan.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va uning faoliyati bilan bog‘liq izlanishlar nafaqat tarixchi olimlar, shu bilan birga turli boshqa fan sohasi vakillari, jumladan, adabiyotshunoslar tomonidan ham o‘rganildi. Ularning ilmiy izlanishlarida urg‘u “madaniy jarayonlar”ga qaratilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarni o‘rganish barobarida, biz o‘sha davrdagi madaniy islohotlar to‘g‘risida yanada kengroq ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lamiz.

1996-yilda “Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат” nomida maqolalar to‘plami chop etilgan bo‘lib, to‘plamda M. Rahmonning “Temur va temuriylar davri san’atiga bir nazar”, A. Umarovning “Musavvirlik san’ati haqida”, T. G‘ofurbekovning “Musiqa” va M. Qodirovning “Bobur nafosati” kabi maqolalarida madaniy hayot masalalari yoritildi[1090].

N. G‘oyibovning “Амир Темур даври маънавияти” risolasida Amir Temur davri ma’naviyati ravnaqi va uning omillari turli manbalar asosida taqdim qilingan. Tadqiqotchining Temuriylar merosining bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqidagi mulohazalari juda muhim hisoblanadi[1091].

Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining turli jihatlarini o‘rgangan dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirildi. Amir Temur

---

[1087] Аҳмедов Н. Амир Темур. Ривоят ва ҳақиқат. Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. 94 б.
[1088] Аҳмедов Б. Амир Темур ҳақида ҳикоялар. Тошкент: Ёзувчи, 1998. 98 б.
[1089] Иброҳимов Ҳ. Соҳибқиронни англаш. Тошкент: Фан, 2014. 128 б.
[1090] Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 88 б.
[1091] Ғойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. 48 б.

davri boshqaruvi, huquqiy masalalari huquqshunoslar tadqiqotlari mavzusi bo‘ldi. Xususan, H. Boboyev Amir Temurning siyosiy va iqtisodiy faoliyatini tadqiq qildi. Ushbu tadqiqotchi davlat rahbarining faoliyati, davlat tizimi, Amir Temurning harbiy sohaga doir qarashlari, maslahatlar muassasalari kabi masalalarni dissertatsiyasida o‘rgandi[1092].

A. A. To‘laganovning dissertatsiyasida Amir Temur siyosiy muammolarni hal qilish usullari va uning huquqiy ta’limotiga katta e’tibor berilgan. Mazkur tadqiqotchi “Темур тузуклари”ning yaratilish tarixi, uning Movarounnahrdagi siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixini o‘rganishdagi ahamiyati, Amir Temurning davlatni idora etishga oid tamoyillari, tadbirlari hamda tashkil etilgan davlat kengashlarining davlatchilik tarixidagi o‘rni masalalari tahlil qilingan[1093].

H. Mamatovning ilmiy tadqiqotida ko‘tarilgan muammolar ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, unda Amir Temur davlatining huquqiy boshqaruv tartibi, davlat boshlig‘ining vazifalari va boshqaruv tizimiga tasavvuf ta’limi ta’sir ko‘rsatganligi haqida ko‘plab ma’lumotlar qayd qilingan. Ushbu tadqiqotchi Amir Temur hukmronligi davri sub’yektlarini huquqshunoslik yo‘nalishi orqali keng ko‘lamda ochib berishga harakat qilgan[1094].

Z. Muqimovning ilmiy ishida[1095] Temuriylar va undan keyingi davrlarga oid tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab tarixiy manbalar sharhi berilgan. Bundan tashqari, ishda O‘zbekiston tarixining VIII–XIX asrlariga oid tarixiy-huquqiy manbalarining yuridik qimmatiga huquqshunoslik nuqtai nazaridan baho berilgan.

O‘zbekiston tarix fanida Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligining turli davrlari va jihatlari tahlil qilingan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilganligini alohida qayd qilish joiz.

Sh. M. O‘ljayevaning nomzodlik dissertatsiyasida sovet tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davrining yoritilishini tahlil qildi[1096].

D. Abidjonova o‘z tadqiqotida ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda Amir Temur hukmdorligi davri yoritilishi va shu bilan bog‘liq muammolarni o‘rgangan[1097]. Bu esa Temuriylar tarixiga xorijlik tadqiqotchilarni munosabatini yanada aniqroq ko‘rish uchun asos bo‘lgan.

---

[1092] Бобоев Ҳ. Б. Ўзбекистонда XIV–XVI асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар: Юрид. фан. докт. дисс. ... автореф. Тошкент, 1993. 48 б.

[1093] Тўлаганов А. А. Амир Темурнинг ўзбек давлатчилигининг ривожланишида тутган ўрни ва мавқеи (“Темур тузуклари” асосида): Юрид. фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 1996. 24 б.

[1094] Маматов Х. Т. “Темур тузуклари”да давлат ва ҳуқуқ масаласи: Юрид. фан. номз.... дисс. Тошкент, 2002. 156 б.

[1095] Мукимов З. Основные исторические источники права Узбекистана (VIII–XIX вв.): Автореф. дисс. ... докт. юрид. наук. Ташкент, 1998. 50 с.

[1096] Улжаева Ш. М. Историография эпохи Амира Темура и темуридов 50 – 60-годов XX века: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1999. 27 с.

[1097] Абиджонова Д. С. Мавераунахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в.: Автореф. дисс....канд. ист. наук. Ташкент, 2001. 26 с.

A. Rahmatullayevaning tadqiqoti Amir Temur hayoti va faoliyatining 1991–2009-yillarda O'zbekistonda o'rganilishiga bag'ishlangan[1098]. Mazkur dissertatsiyada Amir Temur hayotiy faoliyatiga doir manbalar va tarixiy ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, ko'plab xorijiy tadqiqotchilarning asarlari tanqidiy o'rganilib, temurshunoslik yo'nalishining boshlanishiga oid davriy chegaralari aniqlangan. Bundan tashqari, rus va sovet davri tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning mavzuni yoritishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Dissertatsiyada Amir Temurning siyosiy faoliyati haqidagi, ijtimoiy hayotni yorituvchi adabiyotlar tahlil qilingan.

B. Usmonovnig nomzodlik dissertatsiyasida[1099] Rossiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilish bosqichlari, ularga ta'sir etgan ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil etilib, rus tarixshunosligining temurshunoslikda erishgan yutuqlari e'tirof etilgani holda, yo'l qo'yilgan qator xato va kamchiliklar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, sovet tarixshunosligining milliy tarixga nisbatan xolis munosabatining namunasi sifatida targ'ib qilingan A. Yu. Yakubovskiyning Amir Temur faoliyati Rossiya va Sharqiy Yevropa xalqlari taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etganligi haqidagi fikrlari aslida XIX asr boshlaridayoq N. M. Karamzin, T. N. Granovskiy va S. M. Solovyevlar tomonidan ta'kidlanganligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotda ilk bora ko'pgina ilmiy adabiyotlarda XIV asrning 60-yillarida Kesh hokimi bo'lgan Hoji Barlosni Amir Temurning amakisi sifatida talqin etilishi, aslida noto'g'ri ekanligi ko'rsatib berilgan. Ushbu tadqiqot monografiya shaklida chop etildi[1100].

B. Usmonovning "Amir Temur va temuriylar davrida Farg'ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi" nomli doktorlik dissertatsiyasida Amir Temur va temuriylar davrida Farg'ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy tarixi o'rganilgan. Unda numizmatik materiallarni yozma manbalar bilan solishtirish orqali XIV asrning 40-yillarida vodiyning g'arbiy qismidagi Xo'jand va Marg'ilon shaharlari Movarounnahr davlati, Axsi va Andijon shaharlari joylashgan sharqiy qismi esa Mo'g'uliston tarkibiga kirganligi asoslanib, Farg'ona vodiysining Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlat tarkibiga kiritilishi bosqichlari, vodiyning ushbu davrdagi ma'muriy holati, bu yerda kechgan siyosiy jarayonlar, Movarounnahr hukumatining Mo'g'uliston davlati bilan munosabatlarida vodiyning tutgan o'rni bo'yicha bir qator e'tiborga molik fikrlar bildirilgan. Amir Temur tomonidan vodiyda tashkil etilgan dastlabki ma'muriy birliklar va ularning

---

[1098] Рахматуллаева А. Р. Историография жизни и деятельности Амира Темура в Узбекистане (1991–2009). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2010. 31 с.

[1099] Усмонов Б. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVII–XX асрлар ): Тарих фан.ном. дисс.... автореф. Ташкент, 2004. 24 б.

[1100] Shu muallif. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. Тошкент: Фан, 2011. 128 б.

rahbarlari haqidagi ma'lumotlar aniqlangan, shuningdek, ko'plab tarixiy voqealarning sanalariga oydinlik kiritilgan[1101].

X. T. Fayziyevning "Темурийлар салтанатида Шоҳруҳ Мирзонинг ўрни ва унинг ташқи сиёсати"[1102] nomli dissertatsiyasida XV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo, Afg'oniston va Eronning siyosiy tarixi, ayrim shaxslar, xususan, Shohruh Mirzo faoliyati orqali yoritib berilgan. Mazkur dissertatsiyada Amir Temur barpo etgan saltanat parokandaligini oldini olgan va davlat butunligini saqlab qolgan hamda uni uzoq muddat mobaynida barqaror holda boshqargan Shohruh Mirzoning tarixiy roli turli manbalardagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil etish asosida yoritilgan.

Shuningdek, Shohruh Mirzo hukmronligi yillarida Temuriylarning Dashti Qipchoq, Mo'g'uliston, Hindiston, Xitoy, Misr va Usmoniylar bilan harbiy-siyosiy va diplomatik munosabatlariga oid noma'lum faktlar ilmiy istifodaga kiritilgan.

Davlatchilik tarixida tengi yo'q qudratli, markazlashgan davlat va qonunchilikka asos solgan Amir Temur shaxsi hamda uning boshqaruvi davri jahon ilmiy markazlarida o'rganilib, mazkur mavzu hozirgi kunda tarix fanidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

XIX–XX asrlarda yozilgan xorijiy tadqiqotlar esa, avval mustamlaka, keyinchalik sovet davrida yozilgan ishlardan tubdan farq qilgan. Ayniqsa, ularning Amir Temur shaxsi va uning merosiga nisbatan yondashuvi davr, siyosat, tadqiqotchi o'zi uchun oldiga qo'ygan maqsadi ta'sirida o'zgarib turgan. Sovet davrida bajarilgan aksariyat tadqiqotlar geosiyosiy vaziyat ta'sirida "Sovet ittifoqi madaniy sohadagi islohot va yondashuvlari"ga nisbatan salbiy bo'lgan.

XX asrda jahon tarixshunosligida mustaqil ilmiy yo'nalish – "Temurshunoslik" shakllandi. Parijda nashr qilinayotgan, dunyoda yagona maxsus "Temuriylar" jurnali fikrimizning yorqin dalilidir. Amir Temur davri tarixi ko'plab Yevropa va boshqa xorijiy davlatlar tarixchilarini qiziqtirib kelgan.

Amir Temur shaxsi va Temuriylar tarixi xorijiy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan mavzulardan biridir. Ularning aksariyati asarlarida Amir Temur shaxsiga ijobiy munosabat ko'zga tashlanadi. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy jarayonlari aks etgan xorijiy tadqiqotlar orasida turkiyalik olimlar: M. Bozkurt[1103], A. Ismoil[1104], M. Xayder[1105], M. Dizer[1106]; yevropalik olimlar –

---

1101 Shu muallif. Амир Темур ва темурийлар даврида Фарғона водийсининг сиёсий, иқтисодий ва маданий тарихи. Тарих фан.док (DSc). дисс. ... автореф. Ташкент, 2020. 84 б.

1102. Файзиев X.T. Темурийлар салтанатида Шоҳруҳ Мирзонинг ўрни ва унинг ташқи сиёсати. ): Тарих фан.ном. дисс. ... автореф. Ташкент, 2011. 24 б.

1103 Bozkurt M. E. Aksak Temur'un develof politikas. Istanbul, 1943. 47 p.

1104 Aka Ismail. Timur'un ıдьmьnden sonraki hakimiyet mucadelerini kisa bir bakis / DTC. Fakьltesi, cumhuriyetin 50 yildцnь Mьnь Anma kitabi. Ankara, 1974. S. 383–390; Shu muallif. Timur'un цьmьnden sonra Guney Iran'da hakimiyet mucadeleleri atsiz armagani. Istanbul, 1976. S. 3–15; Shu muallif. Mirza Sahruh zamaninda (1405–1447) timurlularda imar faaliyetleri / Belleten 1984. XLVIII. S.189–190, 285–297; Shu

Ye. Bretshneyder[1107], G. Kapus[1108], L. Buvat[1109], A. Chagatai[1110], H. Hukxem[1111], M. Brion[1112], G. Bonivel[1113], B. Manz[1114], P. Endryuvs[1115], L. Keren[1116], B. Barbara[1117], B. Amoretti[1118], R. Ferrier[1119], I. Kennedi[1120], T. Lenz[1121] va boshqalarni alohida ko'rsatish joiz. Kembrij universiteti olimlari tadqiqotlarining Eron tarixi bilan bog'liq qator jildlarida[1122] ham Amir Temur davriga oid bir qancha tahlillar mavjud, ammo ularda davlat boshqaruv masalalariga alohida e'tibor berilmagan.

Fridrix Kristof Shlosser (1776–1861) "Butun dunyo tarixi"[1123] asarida Amir Temur vahshiy va zolim hukmdor sifatida talqin etilgan. Asardagi ko'plab bir-biriga zid fikrlar muallifning qat'iy pozitsiyasi yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, "... yurishlardan tez-tez Buxoro va Samarqandga qaytar, o'zining yangi saltanatida tuzuklar hamda qonunlar e'lon qilar edi. Mazkur qonunlar

---

muallif. Timur'un Ankara savasi (1402). Fetihnamesi / Tыk tarih Kurumu. Belgeler. Turk tarih belgeleri dergisi, 1986. S. 15, 1–22.

1105 Haider M. The sovereign in the timurid state (XIV–XV sentuires) // Turcica, 1976. VIII. 2. Pp. 57–79; Haidar M. Timurlar davlatinde hakimiet anlayisi (XIV– XV yuz yillar) Cev. Ehrem Memis. Turk kulturi, 1984. XII. S. 611–632.

1106 Dizer M. Ulugbeg. Ankara. 1989. 98 s.

1107 Bretschneider E. Notice of the medieval geography and history of Central and Western Asia. Drawn from Chinese end Mongol writings, end compared with observations of western authors in the middle ages. London, 1877. 233 p. 2 maps.

1108 Capus G. A travers le Royaume de Tamerlan. Paris, 1892. 434 p.

1109 Bouvat L. Timurlang / EI. Encyclopaedia Islam, 1934. Vol. 4. Pp. 777–779.

1110 Chaghtai A. Indian links with Central Asia in in architecture / Indian Art and letters. London, 1937. XII. Pp. 85–104.

1111 Hookham H. Timurlaine the concueror. London, 1962.

1112 Brion M. Tamerlan: Presentation de Tamerlan par M. Brion; texts de Tamerlan: Ibn Arabchah, Cherefed-din, Ibn Khaldoun, l' archeveque de Sultanieh, l' ambassadeur Clavijo. Le merechal boucicant. Paris, 1963. 382 p.

1113 Boniville G. de. La terrible vengeance de Tamerlan / Melanges de l' Universite Saint Josseph Beirut, 1975–76. XLIX. Pp. 803–817.

1114 Manz B. Adminstration and the delegation of Authority in Temur's Dominions // Central Asiatic Journal, 1976. № XX. Pp. 191–207; Shu muallif. The Ulus Chagatay before and after Temur's rise to power // Central Asiatic Journal. 1983. № XXVII. – Pp. 79–100; Shu muallif. The rise and rule of Tamerlane / Cambrige University Press, 1989.

1115 Andrews P. A. The tents of Timur: an examiniation of report on the quriltay at Samarkand, 1404 / Art of the European steppe land. ed. P. / Denwood, London, 1978. Pp. 143–181.

1116 Kehren L. Tamerlan, le Seiqneur de fer, Neuchatel, 1978. 260 p.;Shu muallif. Tamerlan. Paris: Payot, 1980.

1117 Barbara B. A carpet and related pictures. A legasy of Timur's Samarqand / Oriental Art, 1984. XXX. № 2. P. 186.

1118 Amoretti B. S. Religion in the timurid and safavid periods / The Cambridge history of Iran. The Cambridge University Press,1986.VI. chapter 12. Pp. 610–656.

1119 Ferrier R. Trade from the – 14 th Century to the end of the safarid period / The Cambridge history of Iran. The Cambridge University Press, 1986. Vol. VI. Pp. 412–491.

1120 Kennedy E. The exact sciences in timurid Iran / The Cambridge history of Iran.The Cambridge University Press, 1986. Vol. VI. Pp. 568–581.

1121 Lentz T. Lowry G. Timur and the princely vision. Persian art and culture in the fifteenth centure. Washington, 1989. 396 p.

1122 The Cambridge history of Iran.Cambridge, 1970. Vol. 2. Pp. 586–587; The Cambridge history of Iran. Cambridge, 1986. V.6. Chapter 7; The Cambridge history of Iran. The timurid and safarid period. The Cambridge University Press, 1986. Vol. 6. Pp. 42–44; Timur's invasion. The Cambridge history of India. The Cambridge University Press, 1987. Vol. VIII. Pp. 195–201.

1123 Шлоссер Ф.К. «Всемирная история» в 18 томах. СПБ, 1861–1863.

to'plami uning amri bilan amalga oshiriladigan dahshatlar, vayronagarchiliklarga mutlaqo qarama-qarshi tarzda edi"[1124], – degan xulosalari, buning yaqqol isbotidir.

Keyinchalik F. K. Shlosserning bu kabi asossiz fikrlari kommunistik mafkura vakillari tomonidan[1125] o'z g'oyalarini ilgari surish, xalqni tarixiy ildizlarini yo'q qilish va madaniy merosidan ayirish maqsadida foydalanilgan.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ham Amir Temur va Temuriylar davri bo'yicha turli xorijiy tadqiqotlar davom etdi. Ularda avvalgi ma'lumotlar qayta tanqidiy mushohada qilindi va yangi xulosalar chiqarildi. Temurshunoslik sohasini rivojiga hissa qo'shgan bunday tadqiqotlar qatoriga L. Keren[1126], N. Tilman[1127], L. Garold[1128], L. P. Stenli[1129], J. Marossi[1130], J. P. Ru[1131], Yu. Oguz[1132] va boshqalarni kiritish mumkin. Jumladan, L. Keren[1133] o'z tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligini manbalardagi malumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan[1134].

Yana bir temurshunos J. P. Runing Amir Temur va uning faoliyatiga oid "Тамерлан"[1135] deb nomlangan ulkan tadqiqoti haqida alohida to'xtalish joiz. Jan-Pol o'z tadqiqotida Chingizxon va uning avlodlari, Sohibqironning hokimiyat tepasiga kelishi, davlat tuzilishi, Eron, Oltin O'rda hamda musulmon davlatlari bilan munosabatlari va boshqa tarixiy jarayonlarni to'liq ochib berishga intiladi[1136]. Unda Amir Temurning o'z davridagi jamiyat hayotida tutgan o'rni, din, madaniy hayot, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalar kabi masalalar umumiy holatda talqin etilgan.

---

[1124] Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. 28–29-бетлар.

[1125] Маркс К. Хронологические выписки / Архив Маркса и Энгельса. М.: Госиздат, 1939. Т.VI. С. 184–185.

[1126] Kehren L. Tamerlan et Byzance // La Timuride. Paris, 1994. № 13. Pp. 3-6; Керен Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. Тошкент: Маънавият, 1999. 224 б.

[1127] Тильман Н. Тимур-завоеватель и исламский мир позднего средневековья / Пер. с нем. Л. И. Ясинской. Ростов-на-Дону: Феникс, 1997. 640 с.

[1128] Гарольд Л. Тамерлан. Правитель и полководец / Пер. с англ. Л. А. Игоревского. М.: Центрполиграф, 2002. 334 с.; Shu muallif. Тамерлан. Потрясатель вселенной / Пер. с англ. Д. В. Вознякевича. М.: Вече, 2008. 340 с.

[1129] Стенли Лэн-Пуль. Мусульманские династии / Пер. с англ. В. В. Бартольда. М.: Восточная литература РАН; Муравей, 2004. 312 с.

[1130] Мароцци Джастин. Тамерлан: Завоеватель Мира / Пер. с англ. А. Г. Больных. М.: АСТ; Хранитель, 2007. 446 с.

[1131] Ру Ж.-П. Тамерлан / Пер. с фр. Е. А. Соколова. М.: Молодая гвардия, 2007. 295 с.: ил. 4-е изд.

[1132] Огуз Юнус. Тамерлан. Кн. 1. Путь к вершине / Пер. с азерб. Али Саидова. М.: Издатель Воробьёв А. В., 2012. 260 с.; Тамерлан. Кн. 2. Властелин мира / Пер. с азерб. Али Саидова. М.: Издатель Воробьёв А. В., 2013. 264 с.

[1133] Kehren L. Tamerlan et Byzance // La Timuride. Paris, 1994. № 13. Pp. 3–6; Керен Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. Тошкент: Маънавият, 1999. 224 б. ва бошқалар.

[1134] Керен Л. Амир Темур салтанати.... 169–170-бетлар.

[1135] Жан–Поль Ру. Тамерлан / Пер с. фр. Е. А. Соколова. Послесл.В. Л. Егорова. М.: Молодая гвардия, 2004.

[1136] Тамерлан ... С. 20–279.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Amir Temur davri tarixshunosligi nechta bosqichga bo'lib o'rganiladi?
2. Amir Temur davri tarixshunosligi bosqichlarining asosiy mohiyatini taqqoslang.
3. Mustaqillik davri temurshunosligiga oid ma'lumotlarni aytib bering.
4. Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan tarixiy-badiiy asarlarni sanab bering.
5. Amir Temur davri haqida yozilgan tarixiy asarlarni sanab bering.
6. Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlariga oid manbalarni aniqlang.
7. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Зафарнома" asari Amir Temur davri haqida asosiy ma'lumot beruvchi manba ekanligini asoslab bering.
8. Amir Temur davri tarixi tarixshunosligiga baho bering.
9. Amir Temur tarixi sovet tarixshunosligida qanday yoritilgan?
10. Ulug'bek rasadxonasini topib o'rgangan olim haqida ma'lumot bering.
11. Ulug'bek rasadxonasi qurilishi haqida ma'lumot beruvchi asarlarni sanab ko'rsating.
12. Mirzo Ulug'bek haqida yozilgan qanday tarixiy-badiiy asarlarni bilasiz?

# 7-MAVZU: XVI–XIX ASRLARDA TURKISTON XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Mazkur davrga oid tarixiy manbalarning o'rganilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ko'lami va yechimini kutayotgan muammolar haqida ma'lumot berish. Tarixiy jarayonlarni yoritishda manbalarning ahamiyatini talabalarga tushuntirish. Ularni XVI–XIX asr oxirlarida qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, afg'on, Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixiga oid asarlarning qisqacha mazmuni bilan tanishtirish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *qo'lyozma asarlar, "Таворихи-гузидайи нусратнома", "Баҳр ул-асрор", "Шарафномайи шоҳий", "Туҳфат ул-Хоний".*

## XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo haqidagi tarixiy manbalar va ularni o'rganishning ba'zi masalalari

Tarixda har qanday masalani aniq tarixiy hujjatlarsiz, manbalarsiz, chuqur va atroflicha o'rganib bo'lmaydi. Bu borada mediavistlar (o'rta asr tarixini o'rganuvchi mutaxassislar) ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar o'tmishda turli tillarda yozilgan qo'lyozma asarlarda mujassamlashgan bo'lib, ularni to'plash, solishtirish, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kerak bo'ladi.

Bugungi kunda mavjud yozma asarlarning hammasi ham ilmiy tasnif etilgan va maxsus kataloglarda chop qilingan, deya olmaymiz. Sharq qo'lyozmalarini tadqiq etish institutining tashkil etilishi (1943-yil 3-noyabr) nafaqat qo'lyozma va toshbosma asarlarni saqlash, balki ularni chuqur ilmiy tadqiq etish ishiga yo'l ochib berdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi nafaqat mamlakat, shu bilan birga butun dunyodagi yirik fondlardan biridir. Ushbu institutda Sharq (arab, fors va turk) tillaridagi 18 ming jildga yaqin qo'lyozma asarlar, 18 ming jilddan ko'proq toshbosma asarlar hamda 3500dan ziyod akt va hujjatlar saqlanmoqda. Ming yillik tarixga ega bo'lgan qo'lyozma asarlar, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining aql-zakovatini o'zida aks ettirgan noyob durdonalardir.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozma kitoblarni ilmiy tavsiflash ishlari 1944-yildan boshlangan edi. 1952-yildan "O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari katalogi" nashr etib kelindi. Dastlab, ushbu ishning boshida sharqshunos olim

A. A. Semyonov[1137] turgan edi. Keyinchalik ushbu sohadagi ishlarni Ye. G. Betger[1138], O. V. Maslova[1139], M. P. Avsharova[1140], A. I. Kormilitsin[1141] va boshqalar davom ettirdi. Mazkur davrda 9000 ga yaqin qo'lyozma asar ilmiy tavsif etilib, 7574 ta asar haqida ma'lumotlar jamlangan 11 ta jild nashr etildi.

Markaziy Osiyo xalqlarining XVI–XIX asrlar tarixi nisbatan kam o'rganilgan bo'lib, ushbu davr manbalarini o'rganish, tadqiq etish va kataloglashtirish ishini A. A. Semyonov boshlagan edi. Taxminan, 10 yil ichida XVII–XVIII asrlarga oid bir qancha qo'lyozma asarlar, chunonchi, "Тарихи Муқимхоний"[1142], "Убайдулланома"[1143], va "Тарихи Абулфайзхон"[1144] asarlari olim tomonidan zarur izohlar bilan rus tilida nashr etildi. A. Semyonov

---

[1137] **Semyonov Aleksandr Aleksandrovich.** 1912-yilda Turkiston Xalq kutubxonasi fondida saqlanayotgan 231 ta Sharq qo'lyozmalari va 569 ta litografik kitoblarning katalogini tuzadi. 1925-yilda nashr etilgan "Урта Осиё гиламдўзлиги бўйича адабиётларнинг библиографик кўрсаткичи"da 199 ta rus va chet el nashrlari hisobga olingan. 1935-yili tuzgan "Урта Осиё давлат университети кутубхонасидаги қўлёзмалар рўйхати". Bu ko'rsatkich qo'lyozmalarga tuzilgan eng yirik bibliografik qo'llanma bo'lib, 1884–1917-yillarda mahalliy litografiyalar nashr etgan 204 ta asar haqida ma'lumot beradi. Ko'rsatkichdagi materiallar tili bo'yicha joylashtirilgan. 1945-yilgacha 500 dan ortiq shaxslar (olimlar, san'atkorlar, yozuvchi va shoirlar) haqida ma'lumot to'plagan edi. U uzoq yillar Sharqshunoslik instituti jamoasi bilan hamkorlikda 11 jilddan iborat "УзФА шарқ қўлёзмалари тўпламини"ni nashrga tayyorladi. Unda 6880 dan ortiq qo'lyozmalar haqida ma'lumotlar bergan. Shulardan 7 ta jildi 1952–1963-yillari bevosita Semyonov ishtirokida amalga oshgan. Uning rahbarligida Tojikiston FA sharq qo'lyozmalari katalogi ham tayyorlangan.

[1138] **Yevgeniy Karlovich Betger.** 1915-yilda Betger kutubxonachilik sohasida ish boshladi, dastlab Rus Geografiya jamiyatining (keyinchalik Geografik jamiyatning O'zbekiston bo'limi) Turkiston bo'limida kutubxonachi bo'lib ishladi va bir vaqtning o'zida U kitoblarni har bir kitobxonga yetkazish, targ'ib qilish sohasida ish olib bordi, bibliografik xizmat ko'rsatish va bibliografiya ishini olib borishga harakat qildi. A. V. Pankov bilan birgalikda "1912-yil 1-oktyabrdan 1914-yil 1-yanvargacha turkistonshunoslikka oid kitoblar va maqolalarning bibliografik ko'rsatkichi"ni, 1917-yilda "1914–1915-yillarda Jamiyatning "Хабарлар"ida nashr qilingan maqolalar ko'rsatkichi"ni tuzishdi. jamiyat a'zosi sifatida xazinachi vazifalarini bajardi.

[1139] **Olga Vasilevna Maslova.** Ilmiy jamoatchilik talabiga ko'ra "Ustyurt. Amudaryo o'zani va Qoraqum, Kaspiyning sharqiy qirg'og'i, Qoraqalpog'istonning geografiyasi, geomorfologiyasi, geologiyasiga oid annotatsiyali ko'rsatkich" tuzadi. Unga XVIII asrdan 1952-yilgacha nashrdan chiqqan Turkmaniston, Qoraqalpog'iston, Xorazm viloyati geografiyasi, geologiyasi, geomorfologiyasiga oid, tadqiqotlar tarixiga oid adabiyotlar – kitoblar va maqolalar kiritilgan. Geografiya va geologiyaga oid bo'limda adabiyotlar tabiiy-geografik hududlar bo'yicha joylashtirilgan, har bir bo'limda ichki xronologik tartib qo'llanilgan. 1950-yil "ТошДУнинг 1922–1950-йиллардаги нашрларининг системали каталоги"ni nashr etdi. Unda katta ilmiy va xronikal yirik ishlar, universitet nashriyoti tomonidan nashr qilingan 100 dan oshiq byulleten, 256 ta sondan iborat "ТошДУнинг илмий ишлари" to'plami, 3 ta ilmiy ma'ruzalarning tezislari, 13 ta ruknda 84 ta chiqish sonidan iborat ilmiy ishlar to'plami aks etgan.

[1140] **Mariya Petrovna Avsharova.** "1918–1935-йилларда Урта Осиёда рус тилида нашр қилинган газеталар рўйхати"ni tayyorlaydi. Unda 126 nomdagi gazetaga aniq faktlar yordamida ta'rif beradi. 1940 – 50-yillarda Avsharova, asosan, tavsiya ko'rsatkichlarini tuzish bilan band bo'ladi. O'lkashunoslik bibliografiyasiga qo'shgan hissasi 1958-yilda "Узбек хотин-қизлари кеча ва бугун" nomli ko'rsatkichi sifatida yuzaga chiqdi. Unga 1919–1956-yillarda nashr etilgan hujjatlar kiritilgan, annotatsiya bilan ta'minlangan

[1141] **Aleksandr Ivanovich Kormilitsin.** 1970-yilda nashr etilgan "ToshDU tarixi va faoliyatiga oid materiallar" nomli ishning tashabbuskori va ishtirokchisi edi. Unda universitet faoliyatiga oid 1918–1966-yillarni o'z ichiga olgan 2000 dan ortiq bosma va qo'lyozma asarlar haqida ma'lumot berilgan. 1974-yilda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan "Абу Райҳон Беруний" bibliografiyasini nashr etadi.

[1142] **Мухаммед Юсуф Мунши.** Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А. А. Семенова. Акад. наук Узбек. ССР. Ин-т востоковедения. Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1956. 303 с.

[1143] **Мир Мухаммед Амин Бухари.** Убайдулла-наме. Перевод с таджикского с примечаниями А.А.Семенова. Ташкент: Изд. АН УзССР, 1957. 334 с.

[1144] **Абдуррахман-и Тали.** История Абулфейз-хана. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А. А. Семёнова. Ташкент, 1959. 176 с.

tomonidan "Тарихи Амир Ҳайдар" asari ham tarjima qilingan edi, ammo ushbu asar nashr etilmay qolgan.

O'rta Osiyoda XVI–XIX asrlarda kechgan murakkab jarayonlar mahalliy muarrixlar va yozuvchilarning asarlarida aks etgan. Mazkur asarlarda asosiy e'tibor siyosiy vaziyat, hukmdorlarning faoliyati, ular o'rtasidagi taxt kurashi, ijtimoiy va madaniy hayotni yoritishga qaratilgan. Ushbu manbalarda xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, jumladan, turli shaharlar va ularda kechgan hayotni tavsiflovchi turli ma'lumotlar mavjud.

XVI asrda Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solihning "Шайбонийнома", Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning "Меҳмонномайи Бухоро", Abdulloh ibn Muhammad Nasrullohiyning "Зубдат ул-асрор", Muhammad Haydarning "Тарихи Рашидий", Hofiz Tanish Buxoriyning "Шарафномайи шоҳий", Muhammadyor ibn Arab Qatag'onning "Мусаххир ул-билод"; XVII asrda Mahmud ibn Valining "Бахр ул-асрор фи маънохиб ал-ахёр", Abulg'ozi Bahodirxonning "Шажараи турк" va "Шажараи тарокима", Xoja Samandar Termiziyning "Дастур ул-мулук", Muhammad Yusuf Munshiyning "Тарихи Мукимхоний"; XVIII asrda Muhammad Amin Buxoriyning "Убайдулланома", Abdurahmon Tolening "Тарихи Абулфайзхон", Xojamquli Balxiyning "Тарихи Қипчокхоний", Mir Muhammad Salimning "Силсилат ус-салотин", Muhammad Vafo Karminagiy va Alimbek ibn Niyozquli eshon tomonidan yozilgan "Туҳфат ул-хоний"; XIX asrda Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yozilgan "Фирдавс ул-иқбол" hamda Muhammad Hakimxon tomonidan yozilgan "Мунтахаб ат-таворих" kabi asarlar yozib qoldirilgan.

Xonliklar bo'yicha alohida yozilgan manbalarga to'xtalishdan avval, ba'zi, hudud uchun umumiy bo'lgan, manbalar tahlil qilinadi.

Ko'rilayotgan davr uchun muhim manbalardan biri, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburning "Бобурнома" asaridir. Mazkur memuar asarda O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, etnografiyasi, madaniyati, urf-odatlari va kundalik hayotiga oid ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Bundan tashqari, ushbu asarda ko'plab yirik shaharlar tarifi, jumladan, Andijon, Axsi, Samarqand, Buxoro, Namangan, Toshkent va boshqa shaharlar, ularning iqtisodiy ahvoli, shaharlarda qurilgan qal'a devorlari, darvozalari, suvlari, boshqaruv shakli va turlari, hunarmandchilik va savdo-sotiq hamda boshqa ko'plab muhim ma'lumotlar aks etgan. Asarning rus tilidagi tarjima matni M. A. Sale, sharh va qo'shimchalar S. L. Azimjonova tomonidan tayyorlanib 1958-yilda birinchi marotaba, 1993-yilda ikkinchi marotaba chop etilgan [1145]. O'zbek tilida 1990-yilda nashr etilgan[1146].

---

[1145] Бабур-наме. Записки Бабура / Персвод М. А. Салье. Отв. ред. и автор предисловия С. Л. Азимджанова. Ташкент, 1958; Бабур-наме / Перевод М. А. Салье. Отв. ред. и автор предисловия С. Л. Азимджанова. Издание второе, дополненное. Ташкент, 1991. 63 с.; Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчилар. П. Шамсиев. С. Мирзаев. Тошкент, 1948–1949. 250 б.

[1146] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1990. 367 б.

**Muhammad Haydar va uning "Тарихи Рашидий"[1147] asari.** Mirzo Haydar (1498/99–1551) Muhammad Husaynning o'g'li, onasi Xub Nigorxonim Yunusxonning kichik qizi, Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning singlisi edi. 1508–1509-yillarda Shayboniyxon buyrug'i bilan otasi qatl qilingach, Muhammad Haydar Buxorodan Badaxshonga olib kelingan. So'ngra 1509-yilda Bobur saroyiga keltiriladi va uning xizmatida 1512-yilgacha qoladi. Mirzo Haydarning yozishicha, Bobur unga ota o'rnida otalik qiladi. 3 yildan so'ng Mirzo Haydar Andijonga, ya'ni Sulton Sa'idxon huzuriga ketadi va xonning oxirgi kunigacha u bilan birga bo'ladi. Sulton Sa'idxon davrida Mirzo Haydar Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Lodak va boshqa ko'pgina harbiy ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan. Umrining so'nggi yillari juda notinch o'tgan. Abdurashidxon qirg'inidan xabar topgan Muhammad Haydar Badaxshonga, so'ngra Qobulga, u yerdan Agra, ya'ni Boburning o'g'li podshoh Humoyun huzuriga qochib keldi va uning xizmatida qoldi. Bir muddat Kashmirda hokimlik lavozimida faoliyat olib borgan va 1551-yilda janglarning birida halok bo'lgan.

Muhammad Haydarning bizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bular "Тарихи Рашидий" nomli asar va "Jahonnoma" nomli geografiyaga oid turkiy she'riy risoladir. "Тарихи Рашидий" ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqlarining tarixi, ya'ni Tug'luq Temur (XIV asr) dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirgani (XVI asr)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

"Тарихи Рашидий"ning birinchi qismi asosan G'iyosiddin Mansur, Yoqut Hamaviy, Juvayniy, Qazviniy, Rashididdin, Mirzo Ulug'bek, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Bobur va boshqalarning qoldirgan ma'lumotlari asosida yozilgan. Asarda Markaziy Osiyoning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma'lumotlar ko'p. Asarning ikkinchi qisim xotiralar tarzida yozilgan bo'lib, asosan, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi. "Тарихи Рашидий" asarining qo'lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, ko'pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

Asardan tarjimalar V. V. Velyaminov-Zernov, Denison Rossom, S. D. Asfandiyorov va P. A. Kuntelar tomonidan nashr etilgan[1148]. Mirzo Haydar va uning ijodi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni V. V. Bartold,

[1147] Мирзо Мухаммад Хайдар, Тарихи Рашиди (Введение, пер. с перс. А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой). Ташкент, 1996. 728 с.

[1148] Вельяминов-Зернов В. В. Исследование о касимовских царях и царевичах. Часть вторая, СПб, 1864.; The Tarikh-i-Rashidi of Mirza Muhammad Haidar, Dughlat. Stosius Inc/Advent Books Division, 1986; Асфендияров С. Д., Кунте П. А. (ред.) Прошлое Казахстана в источниках и материалах. Сборник I (V в. до н.э. XVIII в. н.э.)2-е изд. – Алматы: Казахстан, 1997. 383 с.

A. X. Margulan, R. G. Mukminova, S. A. Azimjonova, H. Hasanov va N. N. Mingulov asarlaridan topish mumkin[1149].

Ushbu manbani o'rganilib, turli tillarda nashr etilishi o'rganilayotgan davrni tadqiq qilishda yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada, mazkur davrga tegishli boshqa manbalar bilan qiyosiy tarzda yangi ma'lumotlar muomalaga kiritildi.

XVI asrda yaratilgan muhim asarlardan biri Hasanxo'ja Nisoriyning "Музаккири ахбоб" nomli tazkirasidir[1150]. "Музаккири ахбоб" Davlatshoh Samarqandiyning "Тазкирот уш-шуаро" va Alisher Navoiyning "Мажолис ун-нафоис" asarlaridan keyingi uchinchi tazkira deb hisoblanadi. Asar to'rt bobdan iborat bo'lib, Movarounnahr, Xuroson, Sharqiy Turkiston, Turkiya, Ozarbayjon va Hindistonda yashagan shoirlar ijodi haqidagi ma'lumotlar aks etgan. Tazkirada umumiy hisobda 288 ta shoir haqida ma'lumot berilgan. Asarda XVI asrda yashagan ko'pgina hukmdorlar, ularning shayboniylar davlatini, xususan, turli shaharlarni obodonlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, ayrim markazlar tarixi va aholining ijtimoiy tarkibi, xunarmandlarning jamiyat madaniy hayotida tutgan o'rnini oydinlashtirishga yordam beruvchi ma'lumotlar mavjudligi, bu davr tarixini yoritishda uning fan uchun ahamiyatini belgilaydi.

Asarning dunyo qo'lyozma xazinalarida 14 nusxasi mavjud. O'zbek tiliga Ismoil Bekjon tarjima qilgan (1993). Qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi (inv. № 4282, 1438, 4374, 7760)[1151].

O'zbekistonning XV–XVI asrlardagi tarixini o'rganishda muhim manbalardan yana biri "Мусаххир ул-билод (Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi)" nomli asar bo'lib, Muhammadyor ibn Arab Qatag'on qalamiga mansubdir. Mazkur muallifning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Muallifning yozishicha, u XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlarida yashab o'tgan, Shayboniy Abdullaxon soniy va Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1601–1605 yy.)ning xizmatida bo'lgan.

K. G. Zaleman (1849–1916) "Мусаххир ул-билод"ni Hofiz Tanish Buxoriyning "Шарафномайи шоҳий" asarini qisqartirilgan nusxasi, deb qayd etgan[1152] bo'lsa, ingliz sharqshunosi Ch. A. Stori hamda "Собрание восточных рукописей АН УзССР katalogini tuzuvchilari asarni "Тарихи Шайбоний" deb

[1149] Бартольд В. В. Рец. на: «The Tarikh-i-Rashidi of Mirza Muhammad Haidar, Dughlat...». ЗВО ИРАО, т. X, СПб., 1897. С. 215-226; Маргулан А. Х. «Әдебиет жэне искусство», № 4. Алматы, 1941. С. 78–87; Мукминова Р.Г. О некоторых источниках по истории Узбекистана начала XVI века. Труды Ин-та востоковедения АН УзССР. Вып. III, 1954. С. 136–137; Азимджанова С.А. Из истории Ферганы второй половины XV в. Ташкент, 1957. С. 7–10.; Х. Хасанов, [А. Уринбоев]. Хофизи Абру, Хайдар мирза, Филипп Ефремов. Ташкент, 1964. С. 41–54.; Мингулов Н. Мухаммед-Хайдар дуглат // Великие ученые Средней Азии и Казахстана (VIII–XIX вв.). Алма-Ата: изд-во «Казахстан», 1965.

[1150] Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. Тошкент: Фан, 1993. 343 б.

[1151] Исмоил Бекжон «Музаккири аҳбоб» тазкираси ва унинг муаллифи ҳақида. Тошкент, 1993.

[1152] Умняков И. И. "Абдулла-наме" Хафиза Таниша и ее исслеователи / Записки коллегии востоковедов. Т. V. Л., 1930. С. 322.

atagan[1153]. Tadqiqotchi M. Salohiddinova “Мусаххир ул-билод”ning mustaqil asar ekanligini aniqladi va asar hamda uning muallifi haqida qisqa ilmiy axborot e’lon qildi[1154].

“Мусаххир ул-билод”[1155] Shayboniylar sulolasining Abulxayrxondan boshlangan shajarasi bayoni bo‘lib, 1610-yillar atrofida yozilgan. Afsuski, mazkur asar kam o‘rganilgan va uning qo'lyozma nusxalari ham kam. Hozirgacha ushbu asarning faqat ikki qo‘lyozma nusxasi ma’lum bo'lib, uning birinchisi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti (Inv. № 1505)da, ikkinchisi esa Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida (Inv. № S.465) saqlanmoqda. Afsuski, ikkala nusxa ham to‘liq emas. Dastlabki nusxada muqaddima va birinchi bobning katta qismi yetishmaydi, ikkinchi nusxaning esa eng kerakli, ya’ni V–VI mavjud emas.

Asarning I–IV boblarida XVI asr tarixiga oid manbalar, xususan, “Шарафномайи шоҳий”dek yirik asarlarni ham ma’lum darajada to‘ldiruvchi va ularda bayon etilgan voqealarga aniqlik kirituvchi qimmatli ma’lumotlar ko‘p. Shayboniyxon tomonidan 1507-yilda o‘tkazilgan pul islohoti, Shayboniylar o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va o‘zaro nizolar, ularning sabablari, Shayboniylar bilan qozoq xonlari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, o‘sha paytda Sirdaryo bo‘ylarida yashagan qoraqalpoqlar, ularning XVI asrning oxiri – XVII asr boshlaridagi ahvoli, Toshkent, Turkiston, Sayram, Andijon va Axsikent shaharlarining XVI asrning so‘nggi choragidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

XVI asr oid yozma manbalari ichida Zayniddin Vosifiyning “**Бадоеъ ул-вақоеъ**” nomli esdaliklari[1156] alohida o‘ringa ega. Uning to‘liq ismi Zayniddin Mahmud ibn Abduljamil bo‘lib, Hirotda munshiy oilasida tug‘ilgan. Vosifiy arab tili, adabiyot, fiqh kabi bilimlarni puxta egallagan. 16 yoshida Alisher Navoiy bilan tanishgan. O‘z ijodini Hirotda, Navoiy adabiy maktabida boshlagan. Shoh Ismoil ta’qibidan qochib, Samarqand, Buxoroda, Toshkent, Shahrisabzda yashagan. Asarda XVI asrning birinchi yarmidagi Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi madaniy hayotni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib, shahar hayoti, xususan, hunarmandlar va shahar ahlining turli ijtimoiy qatlamlari, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni kabi ma’lumotlar. Asarda Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, shuningdek, Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Changiy, Ustod Hasan Udiy, Hofiz Basir, Ustod Shayxi Nayi kabi musiqashunoslar va ayrim davlat arboblari haqida muhim ma’lumotlar

---

[1153] Стори Ч. А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. В трех частях. Часть II (1972); Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под ред. и при участии А. А. Семенова. Т. *I*. Ташкент, 1952. С. 80.

[1154] Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. Тезисы докладов I годичной научной сессии ЛО ИНА, март 1965 года // Л., 1965. 64 с.

[1155] Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/287-musahhir-al-bilod.html.

[1156] Мемуары Зайн-ад-дина, как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV–XVI вв. // Тр. Отд. Востока ГЭ. 1939. Т. 2. С. 203–214.

keltirilgan[1157]. "Бадоеъ ул-вақоеъ"ning 83 baytdan iborat masnaviysida Toshkent shahrining go'zalligi, bog'-rog'lari, havosi va zilol suvlari madh etilgan.

O'rganilayotgan davrga oid keng ko'lamdagi asarlardan tashqari, ma'lum bir hudud, xonlik, sulola yoki hukmdor doirasida yozib qoldirilgan ishlar ham talaygina.

## XVI–XIX asrlarda Buxoro amirligi tarixshunosligi

Buxoro xonligida XVI asr ikkinchi yarmida Abdullaxon II ning taxtga o'tirishi va ko'plab hududlarni birlashtirib yagona markazlashgan davlatga asos solishi natijasida ilm-fan rivoji uchun qulay muhit shakllandi. Natijada, tarixnavislik ilmi rivojlanib, ko'plab tarixiy asarlar yaratila boshlandi.

**Kamoliddin Binoiyning "Шайбонийнома"**[1158] asari XVI asr Buxoro tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Mazkur asar qo'lyozmasining qimmatli nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sharqshunos A. Mirzaevning fikricha, Binoiy (uning to'liq ismi Ali ibn al-Muhammad al-Xisraviy) 857 (1453)-yilda tug'ilgan. Binoiyning zamondoshlari Navoiy, Bobur, Xondamir va boshqalar uning iste'dodi xususida juda yaxshi fikrlar bildirgan edi.

"Шайбонийнома" fors tilida bitilgan she'riy doston bo'lib, uning muallifi atoqli shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiydir[1159] (1453–1512-yy.). Uning asli ismi Ali ibn Muhammad al-Haraviy. Kamoliddin Binoiy Tabrizda 1492-yilga qadar Sulton Ya'qub saroyida xizmat qilgan. 1495-yili turli sabablarga ko'ra Samarqandga keladi. Dastlab Xoja Ubaydulla Ahrorning o'g'li Qutbuddin Yahyo, so'ng Zahiriddin Bobur, undan keyin 1501-yildan to umrining oxirigacha Shayboniyxon huzurida saroy tarixchisi bo'lib xizmat qilgan.

1507-yilda Binoiy Shayboniyxon bilan birga Hirotga qaytgan va 1510-yilgacha shu yerda qolgan. 1511-yilda shaharga Ismoil Safaviy qo'shinlari hujumi tufayli Qarshiga kelgan, 1512-yilda esa Qarshi himoyasi vaqtida jangda halok bo'lgan.

Kamoliddin Binoiyning "Шайбонийнома" asari tarkibiy jihatdan avvalroq yozilgan "Таворихи гузида" "Nusratnoma" va "Фатҳнома" asarlariga o'xshab ketadi. Asarda Muhammad Shayboniy tavalludidan (1451 y.) 1505-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1505–1507-yillar oralig'ida yozib tugallangan.

---

[1157] Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вакоеъ. Форсийдан Н. Норкулов таржимаси. Тошкент, 1979.
[1158] Мирзоев А. М. Камал ад-Дин Бинаи. М.: Наука, 1976. 477 с.
[1159] Бинои / М. Л. Рейснер / «Банкетная кампания» 1904. Большой Иргиз. М.: Большая российская энциклопедия, 2005. С. 482.

Asarda turli geografik nomlar (Arquq, Sabron, O‘tror, Sig‘noq, O‘zgan, Suzoq, Oqqo‘rg‘on, Vazir, Urganch va b.), etnografik ma’lumotlar (Dashti Qipchoq qabilalari, ularning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti) va siyosiy voqealar (Movarounnahrni egallanishi) o‘rin olgan. “Шайбонийнома”ning beshdan ortiq nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondida saqlanadi (№ 844, №3422 va b.).

Kamoliddin Binoiyning “Шайбонийнома” asari ko‘plab olimlar, shu jumladan, K. G. Zaleman, A. N. Samoylovich, M. A. Sale, A. A. Semyonov, A. N. Boldirev, R. G. Mukminova, A. M. Mirzayev, S. K. Ibrohimov, B. A. Ahmedov va boshqalarning tadqiqotlarida keng foydalanilgan[1160].

Muhammad Solihning she’riy solnomasi (taxminan 911 hijriy, 1505-milodiy) yillarda yozilgan bo‘lib, Kamoliddin Binoiyning asariga mos keladi. Muhammad Solih 1501-yildan to umrining oxirigacha Shayboniylarga xizmat qilgan va 941 (1534–1535) yilda Buxoroda vafot etgan. B. A. Ahmedovning[1161] yozishicha, Binoiyning “Шайбонийнома”siga nisbatan Muhammad Solih qalamiga mansub asarda quyidagi farqlar mavjud:

1. XX–XXIII boblar Qorako‘l, Qarshi va G‘uzordagi Shayboniyxonga qarshi qo‘zg‘olonlarga bag‘ishlangan.
2. Shayboniylarning Shohruxiya, O‘ratepa, Farg‘ona, Buxoro, Termiz va boshqa joylarga yurishlari aks etgan.
3. Shayboniylarning 1503–1505-yillardagi Xorazmga yurishlari yoritilgan.
4. Ushbu asardan ko‘chmanchi o‘zbeklar va lashkarlarining Markaziy Osiyoda qilgan beboshliklari, shuningdek, Shayboniylar tomonidan bosib olingan hududlardagi aholining og‘ir ahvoli haqidagi muhim ma’lumotlar o‘rin olgan.

Muhammad Solihning “Шайбонийнома” asari kam nusxada saqlangan. Uning ikki nusxasi Vena kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo‘lyozmalarga asoslangan ikki nashri venger olimi H. Vamberining 1885-yildagi,

---

[1160] Залеман К. Г. и Розен В. Ф. Список персидским, турецко-татарским и арабским рукописям Библиотеки Императорского Санкт-Петербургского университета. ЗВО РАО. Т. II. 1887; Самойлович А. Шейбани-намэ. Персидский unicum библиотеки Хивинского хана. ЗВО РАО. Т: XIX. 1910. С. 0164-0176; Салье М. Кемал-ад-Дин Бинаи и его покровители. «Дар». Альманах Союза Советских писателей Узбекистана. К XX-летию УзбССР. Ташкент, 1944; Болдырев А. Н. Алишер Навои в рассказах современников. «Алишер Навои»// Сборник статей. ИВ АН СССР. М.-Л., 1946. С. 121–152; Мукминова Р. Г. К вопросу о переселении кочевых узбеков в начале XVI в. Изв. АН УзСС. 1954. С. 70–81; Shu muallif. О некоторых источниках по истории Узбекистана начала XVI в. Труды ИВ АН УзССР. Вып. III. Ташкент, 1954; Семенов А. А. Шейбани-хан и завоевание им империи тимуридов. МИТУСА. Вып. 1. Труды ИИАЭ АН ТаджССР. Т. XII. С. 39–83. Сталинабад, 1954; Ибрагимов С. К. «Шейбани-наме» Бинаи как источник по истории Казахстана XV века. Труды сектора востоковедения АН КазССР. Т. I. С. 190-207. Алма-Ата, 1959; Shu muallif. «Фатухат-хани» Бинаи как источник по истории Казахстана второй половины XV в. XXV международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР, ИВЛ. М., 1960; Ахмедов Б. А. Из истории взаимоотношений кочевых узбеков с тимуридами. Ученые записки ЛГУ. № 304. Серия востоковедческих наук. Вып. 14. Л., 1962. С. 79–93; Shu muallif. Государство кочевых узбеков. М., 1965. Shu muallif. Неизвестная версия «Шейбани-наме» Бенаи // ОНУ. 1965. № 2. С. 51–55.

[1161] Ахмедов Б. А. Неизвестная версия «Шейбани-наме» Бенаи // ОНУ. 1965. № 2. С. 51–55.

P. M. Melioranskiyning 1908-yildagi nashrlari ham mavjud[1162]. "Шайбонийнома" shoir va filolog Nasrullo Davron tomonidan 1961-yilda o'zbek tilida nashr etilgan[1163].

O'rta Osiyo, Qozog'iston va qo'shni mamlakatlarning XVI asrdagi tarixi bo'yicha asosiy manbalardan yana biri **"Шарафномайи шоҳий"** yoki **"Абдулланома"**dir[1164]. Asar Shayboniy Abdullaxon II ning topshirig'i bilan 1584–1590-yillarda yozilgan. Muallif zamon taqozosiga ko'ra, asarda ma'lum darajada hukmron tabaqaning maqsad va manfaatlarini ifoda qilishga harakat qilgan – xon va uning atrofidagi amaldorlarni boylar va no'yonlarni ko'klarga ko'tarib maqtagan, mehnatkash xalqning ahvoli esa e'tibordan chetda qolgan. Lekin, ushbu asar faktik materiallarga boy, voqealar ma'lum darajada ob'yektiv yoritilgan, ayrim o'rinlarda xonlar, sultonlar va amirlarning ba'zi xislatlari hamda xarakteri ham ochib berilgan.

"Абдулланома" yoki "Шарафномайи шоҳий" asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriydir. U 1547-yilda Buxoroda tug'ilgan, otasi Mir Muhammad al-Buxoriy Shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo'lgan. Hofiz Tanish Buxoriy 1584-yilda Abdullaxon II xizmatiga qabul qilingan. Saroy tarixchisi bo'lib faoliyat olib borgan va umrining oxirigacha shu lavozimda ishlagan[1165].

Asarda O'rta Osiyo, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, qisman Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi yoritilgan bo'lib, XVI asrning 80-yillari oxirida yozib tamomlangan. Mazkur asar muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat bo'lib, o'rta asr an'analariga xos tartibda yozilgan. Asarda Abdullaxon shajarasi, qadimda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qavmlar tavsifi, Chingizxon va uning avlodlari haqida ma'lumotlar, Movarounnahrda 1533–1583-yillarda sodir bo'lgan voqealar, Abdullaxonning oliyjanob fazilatlari, ushbu davrda faoliyat olib borgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar hamda o'sha paytda qurilgan turli binolar haqida ma'lumotlar mavjud.

Hofiz Tanish Buxoriyning ushbu asarida Movarounnahr va uning hududlari, shuningdek, janubiy Turkistonda XVI asrda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qabilalari: *jaloir, nayman, qarluq, qipchoq, qatag'on, o'tarchi, beshyuz, shaqqoqi, qulon-oyoni, keront olchin, ming, bahrin, uyg'ur, qang'li, qo'ng'irot, do'rmon, qo'shchi, mojor, uyshun, chashmu, abru, bo'lachi, arg'im, yobu, kenagas, mang'it, tubai, nukuz, qiyot, boshqird* kabilar haqida ham muhim

---

[1162] Список трудов П. М. Мелиоранского и литературы о нём // Тюркологический сборник. 1972. М., 1973. С. 396–400.

[1163] "Шайбонийнома"ning 1510–1511-yillarda Qosim ismli xotib tomonidan ko'chirilgan eng eski qo'lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Nasta'liq xati bilan yozilgan nusxa 218 varaqdan iborat bo'lib, unda jang va ziyofat manzaralarini tasvirlovchi 9 ta miniatyura ham keltiriladi. Mana shu qo'lyozma asosida X. Vamberi 1885-yilda Venada dostonning asl matnini va uning nemis tiliga qilingan tarjimasini nashr ettiradi. 1904-yilda rus turkshunosi P. M. Melioranskiy Peterburgda "Шайбонийнома"ning asl matnini nashr ettirib, Vamberi nashridagi kamchiliklarni tuzatdi va Shu nusxadagi ikki miniatyurani ham kitobga kiritdi. 1961-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan to'la bosilib chiqdi.

[1164] Ахмедов Б. А. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланома. 1-жилд. Тошкент, 1966.

[1165] Ko'rsatilgan asar. 11-б.

ma'lumotlar keltiriladi. "Шарафномайи шоҳий" tarixiy asar bo'lishi bilan birga, XV–XVI asrlarga xos badiiy asar hamdir. Asar muallifning o'limi sababli tugallanmay qolgan.

Hofiz Tanish asarining muqaddimasini yozishda Narshaxiy, Istaxriy, Juvayniy, Rashididdin, Mirxond va Muhammad Haydar kabi muarrixlar ishlaridan foydalangan.

Asarning katta qismini 1983-yilda M. Salohiddinova ruscha tarjimasi bilan nashr ettirgan[1166]. Kitob 1942–1952-yillarda Sodiq Mirzaev va oxirgi qismi Yu. Hakimjonov tomonidan 60-yillarda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1–2 jildlari, zarur tuzatishlar, tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969-yillari B. Ahmedov[1167] tomonidan chop qilingan. 3–4 jildlari bosilmay qolgan edi. 1995–1997-yillari ikki kitob holida B. Ahmedov tomonidan nashr etildi.

Xullas, "Шарафномайи шоҳий" yirik asar bo'lib, tarixiy ahamiyati jihatidan Juvayniyning "Тарихи жаҳонкушой" va Rashiddidinning "Жомеъ ат-таворих" asarlari qatorida turadi. Ushbu asarni ilmiy muomalaga kiritilishi avvalo, V. V. Velyaminov-Zernovga tegishli bo'lib, keyinchalik uni o'rganish bilan L. A. Zimin, I. I. Umnyakov, M. Salohiddinova, P. Ivanov, N. Sayfiyev, ingliz olimlari Ch. Ryu hamda Ch. A. Storilar va boshqalar shug'ullangan[1168].

Buxoro xonligining XVII asrga oid tarixini yorituvchi tarixiy asarlardan biri "**Бахр ул-асрор**"[1169] (to'la nomi "Бахр ул-асрор фи маънокиб ул-ахёр" (Oliyjanob kishilarning shon shavkati haqida sirlar dengizi). Mazkur asar qomusiy xarakterga ega bo'lib, o'rta asr fanining ilmi nujum, javohirshunoslik, o'simlikshunoslik, geografiya va tarix sohalarini o'z ichiga oladi hamda Ashtarxoniylar hukmdori Nodir Muhammadxon topshirig'iga binoan yozilgan. Asar muallifi, saroy kitobdori yirik olim va shoir Muhammad ibn Vali bo'lib, uni Amir Xalotiy Kosoniy ham deb ataganlar. Uning hayoti haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan[1170].

---

[1166] Хафиз-и Таныш ибн Мир Муҳаммад Бухари. Шараф-нама-йи шахи (Книга шахской славы). Факсимиле рукописи D88, перевод с персидского, введение, примечания и указатели М. А. Салахетдиновой. Ч. 1. М., 1983. 298 с.

[1167] Аҳмедов Б., Мунпиров Қ. Ҳофиз Таниш Бухорий. Тошкент, 1963; Аҳмедов Б. А. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланома. I-жилд. Тошкент, 1966.

[1168] Вельяминов-Зернов В. В. Исследование о касимовских царях и царевичах. Часть вторая. – СПб., 1864; Умняков И. И. Некоторые сведения из «Абдулла-намэ» Хафизи Таныша (XVI в.). Труды Самаркандского гос. пед. ин-та. Т. 2. Вып. 2. 1941. С. 1–12; Салахетдинова М. А. Сведения о киргизах в «Абдулла-Намэ» Хафиз-и Таныша. Изв. АН КиргССР. Т.II. Вып. 3 (история). Фрунзе, 1960. С. 173–181; Сайфиев Н. «Абдуллонома» - хамчун сарчашмаи адаби. Изв. АН ТаджССР. № 4(35). С. 33-34. Душанбе, 1963. (на тадж. яз.); Rieu Ch. Supplement to the Cataloque of the Persian manuscripts in the British Museum by… London, 1895. Pp. 49-51. №73; Storey C. A. Persian Literature. A. Bio – Bibliographical Survey. London. Vol.I, 374, 1301.

[1169] Пищулина К. А. «Бахр ал-асрар» Махмуда ибн Вали как источник по социально-экономической истории Восточного Туркестана XVI–XVII вв. // Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVII - XVIII вв. / Б.А. Тулепаев. Алма-Ата: Наука, 1983. С. 31.

[1170] Сулейменов Б. С. Предисловие к «Море тайн, относительно доблестей благородных» / Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). Алма-Ата: Наука, 1969. С. 320–328.

Asarning bizgacha faqat birinchi va oltinchi jildlarigina yetib kelgan. Fan uchun katta ahamiyatiga qaramay, “Баҳр ул-асрор” yetarli darajada o‘rganilmagan. Lekin, olimlar XX asr boshidan buyon ushbu asarga murojaat qilib keladilar. V. V. Bartold va G. Ette kabi yirik sharqshunoslar birinchi bo‘lib Mahmud ibn Vali va uning “Бахр ул-асрор” asari haqida ma’lumot berganlar. Masalan, V. V. Bartold 1902-yilning yozida Turkistonga qilgan ilmiy safari chog‘ida Toshkentda bo‘lganida, bir nechta shaxsiy kutubxonalar bilan tanishadi. “Баҳр ул-асрор”ni u general Jo‘rabekning kutubxonasidan topgan. Asar mazmunini batafsil tahlil qilganiga qaraganda, uni ko‘proq Sharqiy Turkiston (Koshg‘ar) tarixi qiziqtirgan[1171].

V. V. Bartolddan keyin Mahmud ibn Valining ushbu asari, aniqrog‘i, 6 jildning to‘rtinchi rukni haqida G. Ette o‘zining mashhur katalogida ma’lumot berdi.

“Бахр ул-асрор” haqida qisqacha ma’lumotni Z. A. Validov ham qoldirgan. U 1913-yilning yozida Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati topshirig‘iga binoan, Farg‘ona viloyatiga qilgan ilmiy safari chog‘ida Qo‘qonda Yoqutxo‘ja Yahyoxon o‘g‘lining kutubxonasida “Бахр ул-асрор”ning yana bir qo‘lyozma nusxasini ko‘rgan. Tarixchi olim B. Ahmedovning yozishicha, asarni to‘liq tadqiq etish va xalqning ma’naviy mulkiga aylantirish uchun bitta umr kamlik qiladi[1172].

Ashtarxoniylar sulolasi davridagi Buxoro xonligi tarixi “Дастур ул-мулук”, “Тарихи Муқимхоний” va “Убайдулланома” asarlarida bayon qilinadi. “Тарихи Муқимхоний”da Markaziy Osiyoning XVII asrdagi tarixi bayon etilgan bo‘lsa, “Убайдулланома”da Subhonqulixonning o‘g‘li va taxt vorisi Ubaydullaxon (1702–1711) hukmronligi davridagi siyosiy hayot tarixi bayon etiladi.

XVII asr mualliflaridan Xoja Samandar Termiziyning “**Дастур ул-мулук**” asari ham hududga doir muhim yodgorliklaridan biridir[1173]. Mazkur asarda Buxoro xonligida kechgan siyosiy vokealar, Xiva xonligi bilan siyosiy munosabatlari, aholining turli ijtimoiy qatlamlari, ruhoniylar vakillari, ularning davlat boshqaruv tizimida egallagan mansab va lavozimlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, asarda o‘zaro kurashlar, oliy martabali mansabdorlar orasida keng tarqalgan poraxo‘rlik, zulm va mehnatkash xalqning og‘ir ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Дастур ул-мулук”da o‘zbeklarning etnik tarkibi haqida ham muhim dalillarni uchratish mumkin. Uning 21 bobdan iborat ikkinchi katta qismida, yuqorida ta’kidlanganidek, muallif davridagi voqealar bayoni o‘z aksini topgan va qolgan boblardan farqli mustaqil

---

[1171] Бартольд В. В. Отчет о командировке в Туркестан. СПб., 1902. 232 с.

[1172] Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. 112–156-бетлар.

[1173] Ходжа Самандар Термези. Дастур ал-мулук (Назидание государям) / Факсимиле старейшей рукописи, перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели М. А. Салахетдиновой. М.: Наука, 1971. 257 с.

hisoblanadi. Xoja Samandar tomonidan tasvirlangan davr o‘z aksini topgan Muhammad Aminning “Мухит ат-таворих” va Muhammad Yusuf Munshiyning “Тарихи Муқимхоний” kabi mashhur tarixiy asarlar “Дастур ул-мулук”dan keyin vujudga kelgan asarlar hisoblanadi.

“**Тарихи Муқимхоний**” asarning birinchi qismi kirish va uchta bobdan iborat. Kirish qismida muallif mavzuning qisqacha mazmunini keltirgan. Birinchi bobda O‘rta Osiyoning XVI asr siyosiy tarixi bayon qilingan. Ikkinchi va uchinchi boblar tarixiy voqealarning asosiy mazmunini qamrab olgan, ularda Balx va Buxoroni XVIII asrgacha bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy – iqtisodiy ma’naviy va madaniy tarixi mufassal bayon etilgan. Uchinchi bobda 1702–1704-yillardagi siyossiy voqealar, Balx va Buxoro xonligining qo‘shni va chegaradosh mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlari, ularning Termiz, Hisor va Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi hududlarda ta’sir kuchayishi o‘z aksini topgan.

“Тарихи Муқимхоний” XIX asr boshlaridayoq Yevropaga ma’lum edi. Undan olingan parchalar O. I. Senkovskiyning asari[1174]da 1824-yilda e’lon qilingan.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar “Тарихи Муқимхоний”ni XVI asr oxiri – XVII asr boshidagi O‘rta Osiyo tarixining muhim manbalariga kiritadilar. Shuning uchun hozirda asarning mamlakatimiz, Fransiya, Angliya qo‘lyozma xazinalarida (ular 60 dan ortiq) saqlanayotgan nusxalari XIX asrda ko‘chirilgan. 1860–1861-yillarda ular o‘zbek tiliga O. I. Senkovskiy tomonidan qisman fransuz, A. Semyonov va G. Malliskiylar tomonidan rus tillariga tarjima qilingan. “Тарихи Муқимхоний” Silvestr da-Sasi, Karl Ritter, German Vamberi kabi Yevropalik tarixshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan. V. V. Bartoldning ta’kidlashicha, – u “uzoq vaqtlar Ovropaliklar uchun Buxoro xonligi tarixi bo‘yicha yagona manba bo‘lib qoldi”. Ushbu asar rus tiliga to‘la tarjima qilingan va A. A. Semyonovning so‘z boshi va izohlari bilan nashr etirgan.

“**Убайдулланома**” asari muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriy bo‘lib, u o‘z zamonasining o‘qimishli va fozil kishilardan bo‘lgan. Muarrix 1645-yilda tug‘ilgan, vafot etgan yili esa ma’lum emas. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon (1680/81–1702) va Ubaydullaxon (1702–1711-yy.) saroyida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan. “Убайдулланома” asarining 10 dan ortiq qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, asar yuzasidan sharqshunos A. A. Semyonov tadqiqot ishlari olib borgan va rus tiliga tarjima qilgan. 1957-yilda Toshkentda nashrdan chiqarilgan “Убайдулланома”da Buxoro xonligining 1702–1716-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qilinadi. Asar 1716-yildan keyin yozilgan, muqaddima, xotima va 80 ta bobdan iborat.

[1174] Osip Ivanovich Senkovskiy – 1800-yil 31- martda Litvada tug‘ilgan rus sharqshunosi, yozuvchi, muharrir va kolleksioneri. 1858-yilda Sankt-Peterburgda vafot etgan.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya'ni Subxonqulixon hukmronligining so'nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og'ir ahvolga tushib qolganligi, Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan. Asarning 1–80-boblarida Buxoro xonligining qariyb 10 yillik (1702–1711-yy.) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan.

Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig'iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar hamda uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o'rin bergan.

Ushbu davrga oid yana bir asar "**Тарихи касира**" yoki "Тарихи саййид Роқим", "Тарихи саййид Роким Самарқандий" nomlari bilan mashhur. Mazkur manbani Mulla Sharafiddin A'lam yozib qoldirgan. U XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrning birinchi choragida yashagan shoir va tarixchi olimdir. V. R. Rozen va A. A. Semyonovlar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda[1175], Mulla Sharafiddin A'lam asli andijonlik bo'lib, yoshlik paytida Samarqandga, otasi huzuriga kelib qolgan. Otasi – mullo Nuriddin xalq orasida "oxund mulla Farhod" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Mulla Sharafiddin yoshligidan mehnatsevar va ilmga chanqoq bo'lgan. Otasining yordami bilan yaxshi o'qidi, turli ilmlarni egalladi va keng ma'lumotli olim hamda shoir bo'lib yetishdi. V. R. Rozen va A. A. Semyonovlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, mulla Sharafiddin Samarqandning eng ma'lumotli olimlaridan mulla Boqijon Buxoriyning xizmatida bo'lgan, uning vafotidan keyin o'rniga a'lamlik vazifasiga o'tirgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u qozilik mansabida ham turgan.

Olimning "Тарихи касира" asari ham mashhur bo'lib, unda tarixiy shaxslar va davlat arboblarining hayoti, mamlakatda bunyod etilgan katta binolar, usti yopiq bozor, tim va hammomlar kabi inshootlar qurilishi hamda ularning sanalarga bag'ishlangan tarix-xronogrammalar majmuidan iboratdir. U Amir Temur tavalludi (1336-y.)dan to XVIII asrning o'rtalarigacha kechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

A. A. Semyonov o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Buxoro xonligi xususida ma'lumot beruvchi yana bir manba "Тарихи Абулфайзхон" ekanligini qayd etadi. "**Тарихи Абулфайзхон**" asarini Ubaydullaxon (1702–1711-yy.) va Abulfayzxon (1711–1747-yy.) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir hamda tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko'proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaqdan iborat bo'lib, "Убайдулланома"ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711–1723-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning

---

[1175] Rozen V. R. Les manuscrits persans de l'Institut des langues orientales. Paris, 1896.

birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashdi, ulus boshliqlari, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar. Farg'ona vodiysi XVIII asrning boshlari, aniqrog'i, 1709-yilda Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi, 1722-yilda Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722–1728-yy.), natijada xonlikda o'zaro urushlar boshlanib ketdi.

"Тарихи Абулфайзхон" asarida yuqoridagi masalalar keng yoritib berilgan. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi va o'zbek xalqining o'sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim diqqatga sazovor dalil hamda ma'lumotlar bor. "Тарихи Абулфайзхон"ning to'la ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan 1959-yilda A. A. Semyonov tomonidan Toshkentda nashr qilingan[1176].

Buxoroning XVI–XVIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan tarixiy asarlar qatoriga "**Силсилат ус-салотин**"ni ham qo'shish mumkin[1177]. "Силсилат ус-салотин" asarining muallifi Hoji Mir Muhammad Salimdir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Oksforddagi Bodli kutubxonasida 269-raqam bilan saqlanmoqda.

"Силсилат ус-салотин" asari 1731-yilda yozilgan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi haqida so'z boradi hamda muallifning 1711-yildan keyingi hayoti haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Силсилат ус-салотин"ning III–IV qismlari ahamiyatga ega bo'lib, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning XVI–XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilinadi.

Asarda Buxoro xonligining Eron, Hindiston va Koshg'ar bilan bo'lgan aloqalari, xonlik hokimiyatining Shayboniylardan Ashtarxoniylar qo'liga o'tishining aniq tafsiloti, XVII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti to'liq aks etib, Shohjahonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvi, Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni bosib olishi, Xorazmning XVI–XVII asrlardagi siyosiy ahvoli xususida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli dalil va ma'lumotlar keltiriladi.

Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilishi bilan markaziy hokimiyatning birlashuv jarayoni aholining iqtisodiy va siyosiy hayoti tiklanishi va rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr oxirlarida ijtimoiy mehnat taqsimoti, ko'chmanchi urug'larning o'troqlashuv jarayoni kuchaydi. Ushbu

---

[1176] Абдуррахман-и Тали. История Абулфейз-хана. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А. А. Семёнова. Ташкент, 1959. 176 с.

[1177] Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том II. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. (пер. под ред. А. Ромаскевича). М–Л. АН СССР, 1938. 700 с.

davrda diniy mutaassiblik ham o‘z mavqeini saqlab, dindorlar aholi ongini qo‘lda tutib turishga harakat qilganlar.

Mazkur davr tarixi o‘z zamonasining tarixchilari asarlarida aksini topdi, yoritildi. XVI–XVIII asrning birinchi yarmi manbalaridan rang-barangligi va ko‘pligidan farqli o‘laroq, o‘rganilayotgan davr uchun tarixiy manbalarning ozligi xos.

O‘zbek va qoraqalpoq qavmlari, urug‘lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot beruvchi asar “**Тухфат ул-хоний**” asaridir[1178]. “Тухфат ул-хоний” (“Xonning tuhfasi”) yoki “Тарихи Рахимхоний”, ((Muhammad) Rahimxon tarixi) asari Buxoro xonligining 1722–1782-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi.

Buxoro xonligining 1722–1768-yillar orasidagi tarixi Muhammad Vafo Karminagiy (1685–1769 yy.), 1768–1782-yillar voqealari va Muhammad Doniyol hukmronligi yillari (1759–1785)dagi voqelar Niyozqulibek eshon tomonidan yozilgan.

“Тухфат ул-хоний” qofiyali nasr va saj usulida yozilgan, unda voqealar to‘la va batafsil yoritilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, geografik hamda etnik dalillarga boyligi bilan birinchi darajali manbalar qatorida turadi. Asar Buxoro xonligida XVIII asrning 20-yillaridagi iqtisodiy va siyosiy tanglik hamda ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi, buning natijasida markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang‘it hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo‘ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari, buning oqibatida ko‘plab shaharlar hamda qishloqlarning vayron qilinishi, xalq turmushining og‘irlashib borishi va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam berishi mumkin bo‘lgan daliliy ma’lumotlarga boy.

Asarda yana Ashtarxoniylar va Mang‘itlar hukmronligi davridagi qo‘shin tarkibi hamda davlat tuzilishi, 1722–1782-yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg‘oniston, Qozoq va Qo‘qon xonliklari hamda Koshg‘ar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqidagi e’tiborga molik ma’lumotlar ham uchraydi.

“Тухфат ул-хоний” asari “Тарихи Абулфайзхон” tarixiy asarining davomidir. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, bu ikki asar mualliflari haqida ma’lumotlar juda kamdir. Ubaydullanomaning muallifi Mirmuhammad Amin Buxoriyning yozishicha, 1196-yillarda Qori Vafo Ubaydullaxonning kitobdori bo‘lgan. Aftidan, u bu vazifada Abulfayzixon davrida ham, hatto dastlabki mang‘it hukmdorlari davrida ham ishlagan. “Тухфат ул-хоний” mualliflarning Buxorodagi birinchi mang‘it hukmdorlarining qo‘shni davlatlar bilan munosabati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham juda qimmatlidir.

Hukmdorlarning taxtga o‘tirish marosimlari va yuqori davlat mansablariga tayinlash azaldan ma’lum bo‘lsada, “Тухфат ул-хоний”dagi

---

[1178] Shu joyda.

Muhammad Rahimxonning taxtga o‘tirish marosimi bayoni oldingilaridan o‘zining mufassalligi bilan ajralib turadi.

“Туҳфат ул-хоний” boy etnografik materiallarga ega, asarda nafaqat urug‘larning nomi balki ular yashagan joy va aholi soni ham keltirilgan. “Туҳфат ул-хоний” jahonda ko‘p nusxada bo‘lishiga qaramay juda kam o‘rganilgandir. Shunday qilib, O‘rta Osiyoning XVIII asrning birinchi yarmidagi tarixini yoritgan tarixiy asarlarning barchasida o‘xshash kamchilik bor.

“Туҳфат ул-хоний” asarining qo‘lyozma nusxalari ko‘p. Masalan, faqat Sankt-Peterburg, O‘zbekiston va Tojikiston kutubxonalarida uning 23 qo‘lyozmasi mavjud. Asar biror-bir xorijiy tilga to‘la tarjima qilinmagan, faqatgina uning kichik bir parchasi, ya’ni Muhammad Rahimxonning 1747-yilda Saraxs atrofida Eron qo‘shinlari bilan to‘qnashuvi voqealari rus tilida 1938-yilda e’lon qilingan, xolos[1179].

Buxoroning XVI–XVIII asrlardagi tarixi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o‘rganishda Ubaydullaxo‘ja ibn Orif Xoja Buxoriyning “Китоб дар таҳқиқ арохий ушрия ва хирожия” asari qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Ushbu asarni A. Juvanmardiyev o‘zbek tiliga tarjima qilgan, biroq haligacha nashr etilmagan.

XX asrning 50-yillarida A. A. Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, qaysidir sabablarga ko‘ra, nashr etilmay qolgan va tarjima qo‘lyozma yozma sifatida O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan manbalardan biri bu – **“Тарихи Амир Хайдар”** asaridir[1180]. Mazkur asar XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida yashagan buxorolik olimlarning ijodi mahsulidir. Kitobning noma’lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan bo‘lib, qo‘lyozma O‘zR FA Sharqshunoslik institutida 1836-raqami ostida saqlanmoqda.

“Тарихи Амир Хайдар” kichik hajmdagi asar, jami 96 varaqdan iborat, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan, Buxoro xonligining Ashtarxoniylar, shuningdek, asosan, Mang‘itlar sulolasidan bo‘lgan Amir Haydar hukmronligi (1800–1826-yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixni o‘z ichiga oladi. Asar 81 ta bobdan iborat. Uning 1–2 boblari Buxoro shahri tarixiga bag‘ishlangan bo‘lsa, 3–6 boblarida Ashtarxoniylar tarixi qisqacha bayon qilingan, 7–81 boblarida esa Buxoro amirligi amirzoda Haydarning tug‘ilishidan to uning vafotigacha bo‘lgan tarixi hikoya qilinadi. Asar O. D. Chexovich tomonidan rus tiliga tarjima qilingan[1181].

Asarning tarjima qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan, Buxoro amirligi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi

---

[1179] Мухаммед Вефа-йи Карминеги. Тухфат-ал-хони. Рукопись Института востоковедения и письменного наследия АН РТ. Инв. № 1426; Семенев А.А. Каталог рукописей исторического отдела Бухарской центральной библиотеки. Ташкент, 1925. № 40. 32 с.

[1180] Мулла Ибадаллах и Мулла Мухаммед Шариф. Тарих-и амир Хайдар (“История эмира Хайдара”). Рукопись ИВ АН РУз. Инв. № 1836.

[1181] Чехович О. Д. Бухарские документы XVI века. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1965. 330 с.

yana bir kitob “**Фатҳномайи султоний**” (“Sulton Фатҳномаsi”)dir[1182]. Asar muallifi Mir Olim Buxoriy Amir Nasrulloh davri (1826–1860 yy.)da G‘uzor hokimi Muhammad Olimbekning xizmatida bo‘lgan va kitobni uning topshirig‘i bilan yozgan.

“Фатҳномайи султоний” Amir Shohmurod (1785–1800-yy.) davridan to Amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Lekin, unda Shohmurod va Amir Haydar davrlari qisqa, Nasrulloxonning hukmronlik yillari esa batafsil yoritilgan. Mazkur qo‘lyozma asarning birinchi jildi bo‘lib, ikkinchisi bizga ma’lum bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, yozilmay qolgan.

Buxoroning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda Amir Doniyolning so‘nggi asari katta ilmiy ahamiyatga ega. “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф аз амир Дониёл то асри амир Абдулаҳад” (“Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli. Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha”) asarining muallifi Ahmad Donish (“Ahmad Kalla” nomi bilan mashhur bo‘lgan)[1183], XIX asrning ko‘zga ko‘ringan mutafakkir shoiri, adib, olim va diplomatdir. U 1827-yilda Buxoroda tug‘ilgan. 1885-yilda amir Muzaffar vafotidan keyin u Buxoroga qaytib keldi va umrining qolgan qismini ilmiy faoliyat bilan kechirdi va 1897-yilda vafot etdi.

Ahmad Donish sermahsul ijodkor bo‘lib, ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adabiyot va tarix fanlariga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. “Манозир ул-кавокиб” (“Sayyoralarning manzaralari”), “Наводир ул-вақое’” va “Таржимаи аҳволи амирони Бухороуи шариф” (1885-yildan keyin yozilgan) asarlari shular jumlasidandir[1184].

Sovet davri tadqiqotchidaridan D. G. Voronovskiy[1185], A. A. Semenov[1186], O. D. Chexovich[1187], A. R. Muhammadjonov va T. N. Ne’matov[1188], O. A. Suxareva[1189], N. V. Pigulevskaya[1190], N. A. Xalfin[1191], D. Yu. Arapov[1192] va boshqalarning tadqiqotlarida amirlik tarixi aks etgan.

---

[1182] Мухаммед Мир Алим Бухари. Фатх-наме-йи султани ("Султановская книга побед"). Рукопись ИВ АН РУз., Инв. № 1838. 22. Мухаммед Хусайн ибн Шах Мурад. Махазин ат-таква фи тарих ал-Бухара ("Сокровище благочестия"). Рукопись ИВ АН РУз., Инв. № 2773.

[1183] Ахмад Дониш. История мангитской династии. / Перевод И. А. Наджафовой. Душанбе, 1967. 142 с.

[1184] Тулибаева Ж. М. Персоязычные источники по истории казахов и Казахстана XIII–XIX вв. Астана: ЕНУ. 2006. 256 с.

[1185] Вороновский Д. Г. «Гульшен-аль-мульк» Мухаммад Якуба Бухари. Дисс. на соиск. к. и. н. Ташкент, 1947.

[1186] Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их средневековой Бухаре // Советское востоковедение. Т. V. М.-Л., 1948; Shu muallif. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейщего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. II. Сталинабад, 1954.

[1187] Чехович О. Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском Ханстве. Ташкент, 1952; Shu muallif. Из источников по истории Самарканда XV века / Из истории эпохи Улугбека. Ташкент, 1965.

[1188] Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкент: УзФАН, 1957.

[1189] Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент: Академия наук Узбекской ССР, 1958. 145 с.

[1190] Пигулевская Н. В. История Ирана с древнейших времён до конца 18 в. Л., 1958. 390 с.

Mustaqillik davrida Buxoro xonligi (amirligi) bo'yicha turli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Buxoroning tashqi aloqalariga doir izlanishlar B. Xo'jaeva[1193], D. Valiyeva[1194], G. N. Sultonova[1195], X. G'ulomov[1196], Yu. Avazov[1197], F. B. Ochildiyev[1198]; boshqaruv tizimi, unvon va mansablar bo'yicha izlanishlar Sh. Vohidov[1199], R. Xoliqova[1200]; xonlikdagi etnik holat, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga oid izlanishlar A. M. Malikov[1201]; soliq tizimi, to'lovlar va boshqa iqtisodiy masalalar I. Sh. Azizov[1202]; hunarmandchilik va boshqa faoliyat turlari D. Sh. Otajonova[1203]; Buxoro shaharlari tarixi G. Taniyeva[1204]; Buxorodagi jadidlar faoliyati D. M. Jamolova[1205]ning ilmiy

---

1191 Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. Первая половина XIX в. М.: Наука, 1974. 406 с.

1192 Арапов Д. Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. М., 1981. 128 с.

1193 Ходжаева Б. О взаимоотношениях Бухарского ханства с Афганистаном в первой четверти XIX века // ОНУ. 1990. №7.

1194 Валиева Д. XIX асрнинг биринчи чорагида Бухоро-Россия дипломатия алокаларига доир // Шарқшунослик. 1999. №9.

1195 Султонова Г. Н. Связи Бухарского ханства с Казахским и Яркендским ханствами во второй половине XVI века. Автореф. дисс....к.и.н. Ташкент, 2005. 28 с.; Shu muallif. "Тарихи Қашғар" асари – Бухоро ва Ёркенд хонлиги ўзаро алоқаларини ёритувчи муҳим манба / Республика ёш манбашунослар конференцияси материаллари тўплами. Тошкент, 2006.

1196 Гулямов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией. Ташкент, 2005. 333 с.

1197 Авазов Ю. Бухоро амирлигининг ташқи иқтисодий алоқалари // Мозийдан садо. 2007. №1.

1198 Очилдиев Ф. Б. Араб ёзма манбаларида Кеш шаҳри / Ўрта Осиё тарихи ва маданияти муаммолари. Тошкент, 2014. 57–61-бетлар; Shu muallif. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Бухоро амирлигида солиқ тизими тарихидан. ЎзМУ хабарлари. 2016. № 1/3. 75–78-бетлар; Shu muallif. XVIII асрнинг иккинчи ярми -XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро-Россия ўртасида олиб борилган савдо алоқалари. ЎзМУ хабарлари. 2018. № 2/2. 49–52-бетлар.

1199 Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Тошкент: Фан, 1996.

1200 Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар // Мулоқот. 2004. №2. 41–44-бетлар; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёда давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент, 2006.

1201 Маликов А. М. Некоторые аспекты истории Бухарского эмирата в представлениях членов миссии К. Бутенева (1841–1842 гг.) // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар фаолияти. Тошкент: Akademnasr, 2019. С. 168–180.

1202 Азизов И. Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги – XX асрнинг бошлари Бухоро амирлигида хирож солиғи ҳақида // Тошкент ислом университети ахборотномаси. 2012. №4. 25–27-бетлар; Shu muallif. Бухоро амирлиги солиқ тизими тарихини ёритиш масалалари (Қўшбеги архиви ҳужжатлари асосида) // Тошкент давлат шарқшунослик институтининг илмий журнали. 2013. №1. 95–99-бетлар; Shu muallif. Бухоро амирлиги закот солиғи масалалари даврий нашрлар саҳифаларида // Илмий-таҳлилий ахборот. Тошкет ислом университети. 2014. №3. 53–57 бетлар; Shu muallif. Караванные пути и таможенный налог в Бухарском эмирате // "Новый Университет". 2015. №12. С. 50–53; Shu muallif. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви ҳужжатлари Бухоро амирлиги тарихини ўрганишда муҳим манба / "Архивлар ва моддий-маданий мерос объектлари: интеграция жараёнлари, муаммолар ва уларнинг ечимлари" Республика илмий-семинари материаллари тўплами. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Ўзархив" Агентлиги Ўзбекистон Республикаси марказий давлат архиви. Тошкент, 2017. 80–86 бетлар.

1203 Атаджанова Д. Ш. Историография ремесленного производства Бухарского ханства XIX в. (на основе изучения литературы и ремесленных уставов «рисола». Автореф. дисс.... канд. истор. наук. Ташкент, 2008. 29 с.

1204 Таниева Г. Место Карши в политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.) Автореф. дисс... канд. истор. наук. Ташкент, 2008. 29 с.

1205 Жамолова Д. М. Жадид матбуотида Бухоро амирлигидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар таҳлили. ("Садои Туркистон" ва "Улуғ Туркистон" газеталари мисолида) // ЎзМУ хабарлари. 2015. №5. 25–27-бетлар; Shu muallif. Бухоро жадидлари: ислоҳот ва таназзул // Тафаккур. 2016. №2. 89–91-бетлар; Shu muallif. Бухородаги ислоҳотчилик ҳаракатининг ривожланишида Шаҳобиддин Маржонийнинг тутган

izlanishlarida yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar Anke fon Kyugelgen[1206], O. A. Yegorenko[1207], B. V. Norik[1208], Yu. Bregel[1209], A. A. Andreyev[1210] va boshqalarning asarlarida Buxoro xonligi (amirligi) tarixi ochib berilgan.

## XVI–XIX asrlarda Xiva xonligi tarixshunosligi

Xiva xonligi uchun xos tarixiy manbalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning aksariyati eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, Buxoro va Qo'qon xonliklarida bu kabi asarlarning aksariyati fors tilida yaratilgan.

Xiva xonligining tarixi bo'yicha ko'plab manbalar yozilgan bo'lib, ularning bir qismi tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Bu manbalar orasida Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan yozilgan tarixiy asar muhim o'rin egallaydi.

Abulg'oziy Bahodirxon 1644–1664-yillar davomida Xiva xoni bo'lgan. U qariyb 20 yil Xorazmni idora qildi, lekin tarixda hukmdor sifatida emas, balki yirik olim sifatida qoldi. Abulg'oziydan ikki tarixiy asar qoldi. Bittasi "Шажарайи тарокима" (1658–1661-yillar orasida yozilgan, deb taxmin qilinadi) atalib, turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O'g'uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek turkman urug'lari (solur, boyandur, taka, yovmut, tevachi, xizreli, sariq, Ali eli, yozir, ersari va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. "Шажарайи тарокима", Abulg'oziyxonning o'z so'zlariga qaraganda, turkman muammolari, shayxlari va beklarining iltimosi bilan yozilgan.

Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi katta ilmiy tadqiqot bilan qo'shib, 1958-yilda akademik A. N. Kononov (1906–1986) tarafidan Leningradda nashr etilgan. Abulg'oziyxonning ikkinchi asari "**Шажарайи**

---

ўрии // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2017. №1. 61–62-бетлар; Shu muallif. "Бухоро амири ҳазратларининг кундалиги" ва "Туркистон саёҳатлари" асарларида Бухоро тарихи масалалари // Имом Бухорий сабоқлари. 2018. №1. 31–34- бетлар; Shu muallif. Россия босқини арафасида Хива-Бухоро муносабатлари // Имом Бухорий сабоқлари. 2019. №1. 27–29-бетлар.

[1206] Анке фон Кюгельген. Легитимизация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). Алматы: Дайк пресс, 2004. 514 с.

[1207] Егоренко О. А. «Зарубежная историография англо-русского противоборства в Бухарском эмирате до и после установления Российского протектората» // Омский научный вестник. 2007. С. 20–24.

[1208] Норик Б. В. Роль шибанидских правителей в литературной жизни Мавераннахра XVI в. // Рахмат-намэ. Спб., 2008. С. 268–277.

[1209] Bregel, Y. The new Uzbek states: Bukhara, Khiva and Khoqand: C. 1750–1886. In N. Di Cosmo, A. Frank, & P. Golden (Eds.), The Cambridge History of Inner Asia: The Chinggisid Age (Pp. 392–411). Cambridge: Cambridge University Press, 2009. P. 392.

[1210] Андреев А. А. К проблеме дарообмена в контексте российско-бухарских отношений в эпоху Петра I. на примере посольства Кули бека топчи-баши в 1716–1719 гг. / Лавровский сборник: Материалы XXXVIII и XXXIX Среднеазиатско-Кавказских чтений 2014–2015 гг. Этнология, история, археология, культурология. СПб.: МАЭ РАН, 2015.

**турк**” nomi bilan mashhur. Asarning asosiy qismi 1663–1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI–XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan.

Abulg‘ozi Bahodirxonning [1211] “**Шажарайи турк ва мўғул**” asarlarini ham o‘sha davrga oid ko‘plab ma’lumotlar beradi. Asar 1664-yilda yozilgan, qisqacha muqaddima va 9 ta bobdan iborat. Muqaddimada asosan, asarning yozilish sabablari haqida so‘z yuritiladi[1212].

Asarning V bobi tarixshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Chig‘atoyxon va uning Movarounnahrda hukmronlik qilgan vorislari, VI bobda elxoniylar, ya’ni Eronda hukmronlik qilgan Chingiz avlodi, VII bobda Jo‘chixon va uning Dashti qipchoqda podshohlik qilgan avlodi, VIII bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Sibir va Qrimda hukmronlik qilgan farzandlari va nihoyat, IX bobda esa Shayboniyxonning 1511-yildan Xorazmda podshohlik qilgan avlodi bilan bog‘liq voqealar bayon etilgan.

Asarning I–VIII boblari umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, Rashididdinning “Жомеъ ат-таворих”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Зафарнома”, shuningdek, yana 18 ta tarixiy asarlar asosida yaratilgandir. Kitobning IX bobida Xorazmning 1512–1663-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon qilinadi. Bundan tashqari, asarda Abulg‘oziy Bahodirxon zamonida obod bo‘lgan Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bag‘dod, Kot, Durun, Qumkent, Mizdahkan, Dorug‘an ota, Boqirg‘on, Xos minora, Ism Mahmud Ota, Chilik kabi shaharlar, Amudaryo va daryo o‘zanining o‘zgarishi, xivalik turkmanlarning og‘ir ahvoli, XVI–XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Abulg‘oziy Bahodirxon va uning “Шажарайи турк ва мўғул” asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq nemis va fransuz (1726 y.), rus (1770 y.), ingliz (1780 y.) tillariga tarjima qilindi. O‘tgan asrda ushbu asar nemis (G. Ya. Ker), rus (Ya. O. Yarstev va G. S. Sablukov), fransuz (P. I. Demezon), turk (Ahmad Vefiq poshsho) tillariga tarjima qilindi. Asar 1897–1913-yillarda yana turk (tarjimon Rizo Nur) va 1935-yilda fors tiliga tarjima qilindi. Asarning G. S. Sablukov[1213] (1906 y.) va P. I. Demezon[1214] tomonidan amalga oshirilgan nashrlari[1215] mukammal bo‘lib,

---

[1211] Абулғози Баҳодирхон ҳам Хива хони (1643–1663 йй.), ҳам тарихчи олим сифатида машҳурдир. У 1603 йил 23 августда Урганчда туғилган ва 1619 йилгача ушбу шаҳарда истиқомат қилган. “Шажарайи турк ва мўғул” 1664 йилда ёзилган, лекин Абулозихоннинг оғир дардга чалиниши ва тез орада вафот этиши сабабли тугалланмай қолган.

[1212] Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази, Хивинского хана // Известия общества археологии, истории и этнографии при императорском Казанском университете. Вып. 5–6. Казань, 1906. 224 с.

[1213] Shu joyda.

[1214] Demezon P. I. (1807–1873) – turkiy tillarning buyuk mutaxassisi; 1834–1835 yillarda mulla niqobi ostida Buxoroga tashrif buyurgan. 1843-yildan 1872-yilgacha Tashqi ishlar vazirligining Osiyo departamenti sharq tillari o‘quv bo‘limining direktori. P. I. Demezon vafotidan keyin “Abu-l-G‘oziy tarixi” asarining nashr etilishi P. I. Lerx (1827–1884) nazorati ostida bosib chiqarish bilan yakunlandi.

muhim ilmiy qimmatga ega. 1969-yilda asar S. N. Ivanov tomonidan qayta sharhlar bilan nashr etildi[1216]. Mustaqillikdan so'ng asar 1992-yilda "Cho'lpon" nashriyotida qayta nashrdan chiqdi. Unga A'zam O'ktam muharrirlik qilib, akademik B. Ahmedov tarixshunos sifatida o'z fikr va mulohazalarini bildirgan edi[1217].

"Фирдавс ул-иқбол"[1218] ("Jannat bog'i") nomli Xorazm tarixi bo'yicha yaratilgan shoh asarning ijodkorlari XVIII asrning so'nggi choragi – XIX asrda o'tgan yirik shoir, tarjimon va tarixnavis Shermuhammad ibn Avazbiy Munis (1778–1829-yy.) va uning jiyani Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809–1847-yy.)dir. Munis Xorazmning qadimda yirik shahar bo'lgan Kat qishlog'ida dunyoga kelgan, Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan, 1800 yildan boshlab xon saroyida sarkotib bo'lib xizmat qilgan. U 1829-yilda 51 yoshida vafot etgan. Munis turli fanlar, xususan, adabiyot va tarixdan keng xabardor bo'lgan yetuk olim hamda iste'dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806-yilda Eltuzarxon (1804–1806-yillar)ning topshirig'i bilan "Фирдавс ул-иқбол" asarini yoza boshlaydi. Lekin, asar ayrim sabablarga ko'ra, tugallanmay qolgan. Munis ajoyib xattot sifatida "Саводи таълим" nomli maxsus risola yozgan. U iste'dodli tarjimon ham bo'lib, Muhammad Mirxondning "Равзат ус-сафо" asarining birinchi jildini o'zbek tiliga o'girgan edi.

Ogahiy asli Kat qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, Munisning jiyani va uning qo'lida tarbiya topgan edi. Yaxshi o'qib, turli fanlar, xususan, tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munisning vafoti (1829-y.)dan keyin saroyni tark etib, ota kasbi – miroblik bilan kun kechirgan. U 1874-yilda vafot etgan.

Ogahiy ham iste'dodli shoir, yirik tarixnavis olim va mohir tarjimon sifatida shuhrat topdi. U tog'asi Munisning qalamiga mansub "Фирдавс ул-иқбол" asarini oxiriga yetkazdi. Bundan tashqari, "Риёз уд-давла" ("Davlatning jannat bog'i"), "Зубдат ут-таворих" ("Tarixlar sarasi"), "Жомеъ ул-вақеоти султоний" ("Culton voqealarining majmuasi") va "Гулшан уд-давлат" ("Davlat gulshani") kabi tarixga oid asarlarni ham yozgan[1219].

Shuningdek, Ogahiy zabardast tarjimon sifatida 19 ta asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lib, ularning ichida Muhammad Mirxondning "Равзат ус-сафо", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Зафарнома", Nizomuddin Ahmad Hiraviyning "Табақоти Акбарий" kabi ulkan tarixiy asarlar ham bor.

Munis va Ogahiyning tarix sohasidagi eng katta ilmiy ishi "Фирдавс ул-иқбол" asarining yaratilishi edi[1220]. Kitobda Xorazmning qadim zamonlardan to

---

[1215] Histoire des Mogols et des Tatares par Aboul-Ghasi Behadour Khan publiee, traduite et annotee par le Baron Desmaisons, t. I, Texte. St.-Petersbourg, 1871; t. II, Traduction. St.-Petersbourg, 1874. 211 p.
[1216] Иванов С. Н. «Родословное древо тюрок» АбулГазихана. Грамматический очерк. Ташкент, 1969.
[1217] Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. Тошкент: Чўлпон, 1992. 188 б.
[1218] АГАХИ «Избранное» Перевод Наума Гребнева, Р. Морана. Ташкент: Изд-во ЦК УзбССР, 1984. 128 с.
[1219] Материалы по истории туркмен и Туркмении, Том II. XVI–XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. М–Л.: АН СССР, 1938. 700 с.
[1220] Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Таржимон Ш. Воҳидов. Тошкент, 2010. 520 б.

Qo‘ng‘irot sulolasi[1221]dan chiqqan Olloqulixon (1825–1842-yy.) zamonigacha bo‘lgan tarixidan bahs yuritiladi. “Фирдавс ул-иқбол” asari muqaddima va beshta bobdan iborat bo‘lib, 1806–1840-yillarda yozib tamomlangan. Asar muqaddimasida Eltuzarxon nomiga hamdu sano o‘qiladi, Munisning xon xizmatiga kirish sabablari bayon qilinadi va asar mundarijasi keltiriladi. Uchinchi bobda Bo‘rtajon va Chingizxon tarixi, mo‘g‘ullar imperiyasining Chingizxon zamonidan to Oltin O‘rda xoni Berdibek (1357–1361-yy.) davrigacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan. To‘rtinchi bobda Xorazmning Shayboniylar davri (1511–1804-yy.)dagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan bo‘lsa, beshinchi bob Xiva xonligining 1804–1825-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi.

Munis va Ogahiyning mazkur asarining asosiy ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511–1825-yy.) tarixi yaxlit, xronologik tartibda bayon etilgan. Asar turli mavzudagi daliliy ma’lumotlarga nihoyatda boy. Kitobda Xorazm (Xiva xonligi)da istiqomat qilgan turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari hamda ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni, yer egaligi, soliq va jarimalar – xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hokazolar bayon qilingan.

Asarda shuningdek, o‘n to‘rt urug‘ning tarqatib yuborilishi, 1714, 1722 – 1723, 1768-yillardagi ocharchilik va qahatchilik, Xorazm shaharlari – Urganch, Kat, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumkon, Hazorasp hamda Shahobodlarning umumiy ahvoli, turkman va o‘zbeklarning etnik tarkibi, Xiva xonligining boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Buxoro xonligi hamda Rossiya bilan bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. “Фирдавс ул-икбол” asari tarixchilar tomonidan kam o‘rganilgan bo‘lib, uning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi. Mustaqillik yillarida Sh. Vohidov muharrirligida ushbu asar o‘zbek tiliga ham tarjima qilindi[1222].

Muhammadrizo Ogahiyning “**Зубдат ут-таворих**” asari Xiva xoni Rahimqulixon (1843–1846) saltanati voqealarini tasvirlaydi. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Rahimqulixonning tug‘ilishidan boshlanib, diniy, dunyoviy va harbiy ilmlarni egallashi, Hazorasp hokimi sifatidagi faoliyati hamda xonlik taxtiga chiqquniga qadar bo‘lgan voqealarga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchi qismda esa xonning taxtga chiqqandan vafotigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asar 2009-yilda Rashid Zohid muharrirligida nashr qilindi. Tadqiqotchi Nurboy Jabborov uni nashrga tayyorlab, asarni so‘zboshi, lug‘at, izoh va ko‘rsatkichlar bilan ta’minlagan, bu esa tabdilning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

---

[1221] Qo‘ng‘irotlar Xorazmni 1804–1920-yillarda idora qilgan sulola bo‘lib, asoschisi Eltuzarxon (1804–1806 yy.) hisoblanadi.

[1222] Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Таржимон Ш. Воҳидов. Тошкент, 2010. 520 б.

Ogahiyning “**Жомеъ ул-воқеоти султоний**” (“Sulton voqaealarining majmuasi”) asarida 1846–1854-yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Aminxon davri voqealari o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, asarning so‘ngida Xiva xonlari Abdullaxon (1854) va Qutlug‘murodxon (1855) davridagi voqealar ham yoritilgan. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon zamoniga doir Ogahiyning “Гулшани давлат” (“Davlat gulshani”) asari esa, xonlikning 1856–1865-yillar voqealarini o‘z ichiga oladi.

Ogahiydan so‘ng Xorazm tarixi Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirildi. Muallif “**Шажарайи Хоразмшоҳий**” va “**Хоразм тарихи**” asarlarini yaratib, tarixshunoslik fani rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Bayoniyning Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig‘iga binoan yozilgan “Шажарайи Хоразмшоҳий” asari qadim zamonlardan to 1913–1914-yillargacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni qamrab olgan. Ushbu asar mantiqan Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi hamda davomi hisoblanadi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov taklifiga binoan yozilgan “Хоразм тарихи” asari esa “Шажарайи Хоразмшоҳий” asariga o‘xshaydi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, “Шажарайи Хоразмшоҳий” asari tarixiy asar bo‘lsa-da, voqealar adabiy uslubda bayon qilingan. “Хоразм тарихи” asari esa yozilish uslubi jihatidan undan farq qilib, voqealar xalqchil tilda bayon qilingan tarixiy asar hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, Bayoniyning asarlari xalqona tilda yozilganligi bilan xarakterlansa, Ogahiyning asarlarini o‘qish esa o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab qilib, eski o‘zbek yozuvini bilgan hamma tadqiqotchi ham bemalol o‘qiy olmaydi. Chunki, Ogahiy arab va fors tillarida kam ishlatiladigan so‘zlarni ham faol so‘zlar qatorida bemalol qo‘llayvergan.

Shuningdek, Sayyid Homid To‘ra Kamyobdan bizga bitta she’riy devon, Xorazm tarixiga oid “**Таворих ул-ҳавоқин**” va “**Мунтахиб ул-воқеот**” kabi tarixiy asarlari hamda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o‘zgarishlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi esdaliklar yetib kelgan. Tadqiqotchilar D. Rahim va Sh. Laffasiylarning guvohlik berishicha, Sayyid Homid To‘ra Kamyob “Ўрахоним” nomli boshqa bir tarixiy asar ham yozgan edi. Ushbu asar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruzga ma’qul tushgan va undan bir necha nusxa ko‘chirilgan, lekin hozirga qadar uning asl qo‘lyozmasi topilmagan. Kamyobning ikkinchi tarixiy asari – “Мунтахиб ул-воқеот” Feruz vafotidan so‘ng yakuniga yetgan. Shunday qilib, XIX–XX asrlar boshlarida yashagan va o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan tarixchilari Ogahiy hamda Bayoniy tomonidan yozilgan tarixiy asarlar O‘rta Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

“Фатҳнома” nomli tarixiy mavzudagi she’riy doston muallifi Mulla Shodiydir[1223]. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma’lumotlar juda

---

[1223] Материалы по истории казахских ханств XV–XVIII веков (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). Акимушкин О. Ф., Юдин В. П. Алма-Ата: Наука, 1969. 655 с.

kam. Mulla Shodiy Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo‘lgani va uning topshirig‘i bilan yozilgan “Фатҳнома” dostonini 1502-yilda, ya’ni 55 yoshida tugatganligi ma’lum, xolos.

“Фатҳнома” tarixiy doston janrida yozilgan bo‘lib, unda Shayboniyxon tug‘ilgan payt (1451-yil)dan to Dashti Qipchoq o‘zbeklari tomonidan Samarqandning istilo etilishi, so‘nggi marta 1501-yilgacha bo‘lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Asarda Xorazm vohasi, uning Urganch, Vazir hamda Adoq singari shaharlari, Dashti Qipchoq aholisi, xususan, mang‘itlarning turmush tarzi, shuningdek, Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg‘ol qilganliklari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud[1224].

Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlarida “Фатҳнома” dostonining beshta qo‘lyozmasi mavjud. Bulardan ikkitasi Sankt-Peterburg davlat universiteti kutubxonasi, ikkitasi Dushanbe va bittasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti (Inv. № 5369)da saqlanadi. Toshkentdagi qo‘lyozma juda ham noyob bo‘lib, XVI asrda ko‘chirilgan va unda turli mavzudagi 9 ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan[1225].

Xiva xonligi davri tarixshunosligi shu kunga qadar maxsus tadqiqot ob’yekti sifatida alohida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ko‘rib o‘tilganidek, mahalliy tarixchilardan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Зубдат ут-таворих”, “Шоҳиди иқбол”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Шажарайи Хоразмшоҳий”, “Хоразм тарихи” va Sayyid Homid To‘ra Kamyobning “Таворих ул-ҳавоқин” kabi asarlari muammoga oid birlamchi manbalar sirasiga kiradi. Ular mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari va guvohliklari asosida yozilganligi bilan qimmatlidir.

Xiva xonligi tarixshunosligiga oid mahalliy mualliflarning tarixiy asarlari ushbu davlat tarixini haqqoniy va ilmiy asosda o‘rganishda muhim manba hisoblanib, o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Sovet davrida arxiv hujjatlari va qo‘lyozma manbalarni o‘rganish, arxeologiya va etnografiya sohalarida tadqiqotlar tor doirada olib borilgan bo‘lsa, mustaqillik davri tadqiqotchilarida esa xonlik tarixi va tarixshunosligi masalasi haqqoniy ochib berildi.

*Xiva xonligi tarixini sovet davrida o‘rganilishi*. Sovet davrida ushbu yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqotlar P. P. Ivanov[1226] va M. Y. Yo‘ldoshev[1227]ga

---

[1224] Пугаченкова Г. А. Миниатюры «Фатх-наме» – хроники побед Шейбани-хана – из собрания Института по изучению восточных рукописей АН УзССР. Труды САГУ. Вып. IX. 1950.

[1225] Залеман К. Г., Розен В. Ф. Список персидским, турецко-татарским и арабским рукописям Библиотеки Императорского Санкт-Петербургского университета. ЗВО ИР АО. Т. II. 1887. С. 251.

[1226] Иванов П. П. Архив хивинских ханов. Новые источники для истории Средней Азии XIX в. // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VII. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939. С. 5–26; Новые данные о каракалпаках. Исторические заметки // Советское востоковедение. III. М.- Л.: Издательство Академии наук СССР, 1945. С. 59–79.

[1227] Йулдошев М. Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши, Тошкент, 1959. 70-бет.; Shu muallif. Землевладение и государственное устройство феодальной Хивы XIX века в свете материалов архива хивинских ханов (докторская диссертация), Л., 1953. С. 95; Shu muallif. Ценный источник по истории Хорезма. Изв. АН УзССР. Сер. общ. наук, 1958 № 6. С. 71.

tegishli bo‘lib, tadqiqotchilar Xiva xonlari arxivi hujjatlaridagi ma’lumotlarni o‘rgangan va nashr etgan. Ushbu tadqiqotlarning so‘zboshisida tarixshunoslik tahlili berilgan bo‘lib, asarga hujjatlar, ularga berilgan izohlar va ko‘rsatkichlar ham kiritilgan. Shuningdek, B. V. Lunin[1228] rus sharqshunosligida O‘rta Osiyo xonliklari tarixining o‘rganilishi va rossiyalik tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar natijalarini tahlil qilgan.

XX asrning 70-yillariga kelib, Xiva xonligining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr 20-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid masalalar umumlashma tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Xususan, “Қадимги Хоразм” deb nomlangan monografiyaning kirish qismida mavzu tarixshunosligining umumiy sharhi, shu jumladan, Xiva xonligining qo‘ng‘irotlar sulolasi davri ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining o‘rganilish darajasi ko‘rsatilgan.

Shunga ko‘ra, sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish masalasi XX asrning 20–30-yillarida “mutlaq jaholat”, 30–40-yillarda “qisman jaholat”, 1950-yillarning boshlarida “Rossiyaga qo‘shib olinishi progressiv fakt bo‘lgan edi”, deb talqin qilingan. Ushbu muammo bilan shug‘ullangan olimlar “bosib olish” atamasini rad etgan holda, “o‘z ixtiyoriga ko‘ra qo‘shib olinishi” atamasini qo‘llay boshlaganlar.

XX asrning 60–80-yillarining birinchi yarmiga kelib, tadqiqotlarning muammoviy doirasi kengaygan va Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotining ko‘pgina masalalarini o‘rganish kabi vazifalar qo‘yilib, ular bir qator tadqiqotlarda hal qilingan. XX asrning 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab “ko‘rsatma bilan ishlash” o‘rniga tarixiylik tamoyilining tiklana borishi bilan Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi, davlatchilik tarixi, mustamlaka va sovet hokimiyati boshqaruv tizimi mohiyatini aniqlash kabi masalalarni o‘rganishga e’tibor kuchaydi.

Umuman olganda, sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining Xiva xonligini bosib olishini bunday tarzda taqdim qilinishi “ma’naviy qolip”dan kelib chiqqan xususiyatlarga xos bo‘lgan. Mazkur davr tarixshunosligida qo‘lyozma manbalarni o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar ozchilikni tashkil qilsa-da, arxiv hujjatlarini o‘rganish, arxeologik va etnografik tadqiqotlar olib borish sohasida keng faoliyat olib borilganligini ko‘rish mumkin.

Xiva tarixi manbalarini o‘rganishda xorijlik sharqshunos Yu. Ye. Bregel tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi[1229]. Tadqiqotchi Ogahiyning “Фирдавс ул-иқбол” asarining tanqidiy matnini nashr etgan. Ushbu asarning so‘zboshi qismida mavzu tarixshunosligi berilgan bo‘lib, muallif asarning qay darajada

[1228] Лунин Б.В.Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. Конец XIX – начало XX в. / Акад. наук УзССР. Ин-т истории и археологии. Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1962. 344 с.; Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. Историографический очерк. Ташкент: Фан, 1979. 184 с.

[1229] Bregel Yu. Shir Muhammad Mirab Muni's and Muhammad Reza Mirab Agahi, Firdaws al-Iqbal: History of Khorezm translated from the Chaghatay and annotated. Leiden: Brill, 1999. 718 p.

o'rganilganligiga asosiy e'tiborini qaratgan. Ushbu asarning ingliz tiliga tarjima qilinishi xorijiy tadqiqotchilarning ham undan foydalanishiga imkon yaratdi. Jumladan, ingliz tarixshunosligida Xiva xonligiga oid ma'lumotlar hajmi kengayib, asarlar soni ko'paydi[1230].

Ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan M. Xoldsvort, J. Uiler, E. Olvort va boshqa tadqiqotchilar Xiva xonligi tarixi masalalariga ham o'zlarining munosabatlarini bildirgan[1231]. Xorij tarixshunosligida Xiva xonligi masalalariga oid adabiyotlar nisbatan ozchilikni tashkil etsa-da, vaqt o'tgan sari, ma'lumotlar yig'ildi va asarlar soni ortishi bilan matbuot sahifalarida chop etilgan lavhalar mazmuni ham boyib bordi.

XIX asrda Yevropalik tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlarning mazmuni asosan, mustamlakachilik kayfiyatida yozilgan bo'lsa-da, ularda xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi va madaniyati kabi masalalar yoritilgan edi. XX–XXI asr boshlariga kelib, Yevropa va AQShda O'rta Osiyo bilan maxsus shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari hamda jamiyatlari ochildi. Natijada, xonlik tarixi, madaniyati, me'moriy yodgorliklari, aholisi, xonlikda yuritilgan davlat hujjatlari, jumladan, xon yorliqlari va qozilik hujjatlari kabi masalalarni yorituvchi ko'plab yangi nashrlar vujudga keldi. Ammo, ularda asosan, O'rta Osiyoning umumiy tarixi berilib, xonliklarga alohida yondashuv kam uchraydi.

Mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan xonlikning ichki va tashqi savdo aloqalari, bozorlar, savdo rastalari hamda soliq tizimi haqidagi ma'lumotlar qayd qilingan. H. Ziyoev ichki savdo haqida yozish jarayonida XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligining shahar va qishloqlarida haftada ikki marta bozor bo'lganligi, bundan tashqari, Xiva shahrining o'zida 400 ta savdo do'koni hamda karvonsaroyda 105 ta savdo rastasi mavjud bo'lganini qayd etgan[1232].

Mustaqillikdan keyin nashr qilingan bir qator to'plamlarda Xiva xonligi tarixshunosligiga oid maqolalar mavjud. Jumladan, "Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари" to'plamida O. G. Pugovkina, U. A. Abdurasulov va M. U. Qayumovlar tomonidan Xiva xonligining qo'ng'irotlar sulolasi tarixining tarixshunoslikdagi talqini, Rossiya tarixshunosligida Xivaga yurishi masalalari yangicha yondashuvlar asosida yoritilgan.

Tadqiqotchi E. E. Karimovning Xivada qozilik hujjatlari va xon yorliqlari tavsifini o'zida mujassamlashtirgan asariga doir muhim ma'lumotlar[1233] mavjud

---

[1230] Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. М., 1961. 442 с.

[1231] Holdsworth M. Turkestan in Nineteenth Century. Central Asian Research, 1959. 80 p.; Wheeler G. The Modern History of Soviet Central Asia. London: Weidenfelf and Nicolson, 1964; Shu muallif. Russian Conquest and Colonization in Central Asia." Russian Imperialism from Ivan the Great to the Revolution Ed. Taras Hunczak. New Brunswick: Rutgers University Press, 1974; Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. USA: Hoover Press, 1990. 410 p.

[1232] Зиёев Ҳ. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. Тошкент, 2003. 91-б.

[1233] Каримов Э. Э. Регесты казийских документов и ханских ярлыков Хивинских ханов XVII – начало XX вв. Ташкент: Фан, 2007. 224 с.

bo‘lsa, Q. Munirovning tadqiqotida esa Xiva xonligining XVIII–XX asrlar boshlaridagi tarixi, Ogahiy, Kamyob va Bayoniyning tarixiy asarlari mazmuni tahlil qilingan hamda ushbu asarlarning O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan[1234]. Shuningdek, G‘. A. Ahmadjonovning tadqiqoti Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixshunosligiga bag‘ishlangan[1235]. Qolaversa, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlarga oid O. Qo‘shjonov va N. Polvonovlarning hammualliflikdagi monografiyaning birinchi bobida Xiva xonligi so‘nggi davri tarixining manbashunosligi hamda tarixshunosligi xususida so‘z yuritilgan[1236].

XIX–XX asrlar boshlaridagi Xiva xonligining tarixiga oid ma’lumotlar dissertatsion tadqiqotlardadan ham keng o‘rin olgan. Jumladan, O. Masaliyeva o‘z e’tiborini Xiva xonligi tarixining XX asr xorijiy tarixshunosligida o‘rganilishiga qaratgan bo‘lsa[1237], U. A. Abdurasulovning tadqiqotida Xiva xonligidagi yer-suv munosabatlari masalalarining o‘rganilish darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan[1238].

Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvolining ayrim masalalariga oid asarlar hamda tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, mazkur xonlikdagi davlatchilik muammosi tarixshunoslik nuqtai nazaridan hozirga qadar yaxlit tahlil qilinmagan va ushbu tarixshunoslik yo‘nalishida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan birini tashkil etadi.

Xiva xonligi bilan bog‘liq eng so‘nggi tadqiqotlar haqida fikr yuritilsa, Q. K. Yakubovning “XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Xiva xonligida vaqf instituti (tarixiy-manbashunoslik tahlili)”[1239] va N. A. Allayevaning “XVI–XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligi tashqi aloqalari tarixi” nomli doktorlik dissertatsiyasini alohida ta’kidlash kerak[1240].

Jumladan, Q. Yakubovning tadqiqotida Xiva xonligida vaqf mulkchiligini ta’sis etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliyoti, vaqf mulklarining turlari, ulardan foydalanish tartiblari, vaqf ma’muriyati faoliyati hamda daromadlari taqsimoti yoritilgan. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr

---

1234 Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик: (XVII–XIX ва XX аср бошлари). Тошкент: Ғ. Ғулом нашриёти, 2002. 165 б.

1235 Ахмеджанов Г. А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1989. 156 с.

1236 Қушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Тошкент, 2007. 10–22-бетлар.

1237 Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қуқон хонликлари тарихи. Тарих фан. номз. дисс. Тошкент, 1999. 165 б.

1238 Абдурасулов У. А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVII – первой четверти XIX вв. Дисс. ...канд. истор. наук. Ташкент, 2008. С. 10–45.

1239 Якубов Қ. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида Хива хонлигида вақф институти (тарихий-манбашунослик таҳлили). Тарих фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. Тошкент, 2018. 52 б.

1240 Аллаева Н. XVI–XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги ташқи алоқалари тарихи. Тарих фан. доктори (DSc) дисс. ... автореф. Тошкент, 2019. 82 б.

boshlariga mansub vaqfnomalarning ichki va tashqi belgilari, xususan, matn tili, hujjat tuzilishi va kodikologik xususiyatlari hamda ulardagi ayrim o‘zgarishlar aniqlangan; Xiva xonligida vaqf ma’muriyatining funksiyalari, faoliyat mexanizmi, vaqf ob’yekti va sub’yekti, vaqf mulklarining turlari hamda vaqf mulklari daromadlarining taqsimoti yoritib berilgan; mutavallining vaqf ma’muriyati vakillari va ijarachilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining huquqiy asoslari hamda amaliyoti ochib berilgan; Xiva xonligi hududida vaqf mulklaridan foydalanishda ijara tartibi ustuvor o‘rin egallaganligi, shuningdek, vaqf yerlarining uzoq muddatli ijara (ijara-yi tavila) amaliyoti ham mavjud bo‘lganligi aniqlangan hamda ularning faoliyat mexanizmi yoritib berilgan; XIX asrning so‘nggi choragiga kelib xonlikda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida pul vaqf etiluvchi asosiy ob’yektga aylandi hamda undan bay’-i joyiz yo‘li bilan daromad olish tartibi amalda bo‘lganligi aniqlangan.

N. Allayevaning tadqiqotida Markaziy Osiyo va Xiva xonligi tarixi, uning tashqi aloqalariga oid ilmiy izlanishlar bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: XVI asr birinchi yarmida Buxoro va Xiva xonliklarining Eron Safaviylari bilan o‘zaro munosabatlaridagi ziddiyatli holatlar, Xuroson hududi uchun olib borilgan kurash va uning asosiy omillari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xonlik tashqi aloqalarining ustuvor jihatlarini jahon tarixi kontekstida yoritgan holda “Xiva xonligi tashqi dunyodan uzilib qolgan, izolyatsiya holatidagi qoloq davlat” degan qarashning asossizligi isbotlangan; xonlikning tashkil topish jarayoni, bevosita Xorazmning Dashti Qipchoq bilan an’anaviy aloqalariga bog‘liq holda kechganligi, unda davlat boshqaruvi va hokimiyat legitimatsiyasining “Chingiziylar omili” asosiy ta’sir etuvchi hamda mahalliy xalq vakillari bosh harakatlantiruvchi kuch bo‘lganligi asoslab berilgan; Xiva xonligi diplomatik aloqalarining o‘ziga xos jihatlari, jumladan, hududida xorijiy davlatlarning elchixonalari mavjud bo‘lmagan holda yoki ziddiyatli vaziyatlarda ham qo‘shni (Buxoro, Qo‘qon va boshqa davlatlar) mamlakatlar bilan keng miqyosda elchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilganligi ko‘rsatib berilgan.

## XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi tarixshunosligi

Ma’lumki, Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylar davlatidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning inqirozi sababli alohida mustaqil xonlik bo‘lib ajralib chiqdi. Yangi tashkil topgan xonlik boshqaruvi ming qabilasi hukmdorlari tomonidan olib borilgan. Olimxon va Umarxon kabi hukmdorlar davrida tarixnavislik ishlariga e’tibor kuchayishi natijasida, xonlik tarixiga doir asarlar XVSh asrdan boshlab yozila boshlangan.

Ma’lumki, Qo‘qon xonligi tarixini ob’yektiv o‘rganishda mahalliy mualliflar, ya’ni Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillari asarlarining ahamiyati kattadir. Ushbu davrda yaratilgan asarlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki,

ularning mualliflari asosan, sodir bo‘layotgan jarayonlarning zamondoshlari, tirik guvohlari va ishtirokchilari bo‘lgan.

Umuman olganda, XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligida ilm-fan va madaniyat Umarxon hamda uning rafiqasi, shoira Nodirabegim homiyligi tufayli rivojlana boshlagan. Ular Qo‘qonda o‘sha davrning mashhur shoirlari Maxmur, Amiriy, Gulxaniy, Zavqiy, Nizomiy, Dilshodi Barno, Uvaysiy va Fazliy Namangoniy kabi ajoyib adabiy muhit vakillarini to‘play olgan. O‘sha vaqtda Qo‘qonda adabiyot bilan bir qatorda o‘ziga xos tarixshunoslik maktabi ham rivojlangan edi.

Ilmiy adabiyotlar va manbalarni o‘rganish davomida Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining 40 dan ortiq asarlari mavjudligini aniqlangan[1241]. Ushbu asarlar janr jihatidan xilma-xil: she’rlar, insholar, badiiy va tarixiy asarlar, xotiralar va biografik asarlardan iborat. Ular o‘zbek, fors va arab tillarida yozilgan bo‘lib, hozirda ularning qo‘lyozmalari Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti filiali, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlari va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda.

Ular orasida Dilshodi Barnoning “Тарихи муҳожирон”[1242], Muhammad Hakimxonning “Мунтахаб ат-таворих”[1243], Mirzo Olim Mushrifning “Ансоб ас-салотин ва таворих ал-ҳавоқин”[1244], Abu Ubaydullohning “Хулосат ул-аҳвол”[1245], Muhammad Solihning “Тарихи жадидайи Тошканд”[1246], Muhammad Yunusning “Тарихи Алимқул амирлашкар”[1247], Muhammad Azizning “Тарихи Азизий”[1248], Is’hoqxon Ibratning “Тарихи Фарғона”[1249], Mulla Olim Maxdumning “Тарихи Туркистон”[1250], Mahmud Hakim Yayfoniyning “Хуллас ат-таворих”[1251], Po‘lat Qayyumiyning “Ҳўқанд тарихи ва унинг адабиёти”[1252] kabilarni qayd etish mumkin.

XIX asrning 40-yillarida yozilgan yirik tarixiy manbalardan biri Muhammad Hakimxon To‘raning “Мунтахаб ат-таворих” asaridir. Mazkur asarda XVII asrning 70-yillaridan to Umarxonning vafoti (1822), undan so‘ng taxtga o‘tirgan Madalixongacha bo‘lgan davrdagi Qo‘qon xonligi tarixiga doir siyosiy voqealar tasvirlangan.

---

[1241] Воҳидов Ш. Қуқон хонлигида XIX–XX асрнинг бошларида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фан. док. ... дисс. Тошкент, 1988. 315 б.
[1242] Дилшоди Барно. Тарихи муҳожирон. Тошкент: Фан, 1994. 77–91-бетлар.
[1243] Муҳаммад Ҳакимхон. Мунтахаб ат-таворих. Ўз ФА ШИ қўлёзма, инв. № 594
[1244] Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ас-салотин ва таворих ал-ҳавоқин. Тошкент, 1995. 128 б.
[1245] Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. Ўз ФА ШИ қўлёзма, инв. № 2084.
[1246] Муҳаммад Солиҳхўжа Тошкандий. Тарихи жадидайи Тошканд. ЎзФА ШИ қўлёзма, инв №7791.
[1247] Муҳаммад Юнус. Тарихи Алимқули амирлашкар. Ўз ФА ШИ қўлёзма, инв. №12136.
[1248] Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Ўз ФА ШИ қўлёзма, инв. №11108.
[1249] Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент: Камалак 1991. 266-327- бетлар.
[1250] Мулла Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши, 1992. 92 б.
[1251] Маҳмуд Ҳаким Яйфоний. Хуллас ат-таворих. Ўз ФА ШИ литографик нашр, инв.№ 304
[1252] Пўлотжон домулла Қайюмий. Ҳўқанд тарихи ва унинг адабиёти. Қўлёзма, 4-дафтар.

Asarning oxirgi bobida Qo‘qon xonligining tashkil topishida minglar urug‘ining muhim o‘rin tutganligini e’tirof etilib, unga “Minglar saltanati” deb sarlavha qo‘yilgan. Ushbu asar Qo‘qon xonligidagi turli o‘zbek urug‘lari vakillari, jumladan, ming, yuz, qipchoq, mang‘it hamda qirg‘iz, qozoq, tojik, qalmoq kabi xalqlar vakillarining xonlik hududida joylashishi va ularning xonlikdagi mavqei to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlarni beruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Muhammad Hakimxon To‘ra xon bilan birga yurib, XIX asrning birinchi choragidagi voqealarga aralashadi. U saroydagi fisq-fujur, viloyatlardagi o‘zaro ziddiyatlar, xonlikning ichki va tashqi siyosati, Buxoro amirligidagi siyosiy voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ularni o‘z asarida aks ettirgan. Ashtarxoniylardan so‘ng taxtga o‘tirgan o‘zbeklarning ming sulolasi haqida, Umarxonning hukmronlik qilgan davr (1810–1822)dagi siyosiy voqealar aniq va izchillik bilan ifodalangan. Asarning qimmati shundaki, Rossiyaning O‘rta Osiyoga nisbatan tutgan siyosati va o‘sha vaqtda mahalliy aholining Rossiyaga bergan bahosini aniqlashda muhim o‘rin tutadi, chunki muallif Rossiyada bo‘lib, u yerdagi hayot bilan bevosita tanishgan, Rossiya bilan bog‘lanish masalasida ilg‘or fikrlarni bayon qilgan. Muallif o‘z asarida 1821–1825-yillarda Buxoroda bo‘lib o‘tgan xitoy-qipchoqlar qo‘zg‘olonida qatnashganlarni “xoin kishilar” deb qoralaydi, bu esa muallif tutgan yo‘lni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalardan biri Mulla Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan “Тарихи жаҳоннамойи” asari bo‘lib, ushbu asar muallifini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarining bayoni hamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va geografik qo‘shimchadan iborat. Asarning birinchi qismida insonning paydo bo‘lishidan boshlab to XVI asrgacha bo‘lgan xukmdorlar tarixiga berilgan. Asarning ikkinchi qismida Qo‘qon xoni Olimxon (1798–1810) va Umarxon (1810–1822) hukmronligi davri siyosati to‘liq berilgan.

Abdulkarim Fazliy Namangoniyning “Мажмуаи шоирон” asarida farg‘onalik shoirlarning shajarasini tuzgan tarixchi, shoir va olimdir. O‘sha paytda unga “malik ush-shuaro” unvoni berilgan[1253]. Ushbu shoir Umarxonning buyrug‘i bilan fors tilida Umarxon hukmronligining she’riy yilnomasi bo‘lgan “Умарнома”ni yozgan. Ushbu asar hanuzgacha bitta nusxada ma’lum va Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Fazliy Namangoniy 1822-yilda o‘z ishini tugallagan. Mazkur asar muqaddima va 42 ta bobdan iborat bo‘lib, yakunlovchi qismsiz to‘xtatilgan. Tarixiy voqealar ming sulolasi, ya’ni Qo‘qon xonlarining nasabnomasidan boshlanadi[1254].

---

[1253] Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Тошкент, 1961. 64–67-бетлар.

[1254] Худойқулов Т. Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номз...дисс. ... автореф. Тошкент, 2009. 117–118-бетлар.

Mirzo Olim Mushrifning “Ансоб ас-салотин ва таворих ал-ҳавоқин” asarida xonliqdagi siyosiy voqealar, o‘zbek urug‘lari va boshqa xalqlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, xonlik hududida o‘zbeklarning ming, qipchoq, yuz va turk, qirg‘izlarning cho‘ngbog‘ish urug‘lari, qoraqalpoqlar hamda tojiklar va arablar ham yashaganligi qayd etiladi. Ushbu asar orqali Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi ko‘proq o‘zbek urug‘laridan iborat ekanligi va ularning Qo‘qon xonligi siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaganlarini bilib olish mumkin.

Toshkentdagi Qoryog‘di mahallalik Muhammad Solih Qoraxo‘ja o‘g‘lining 1880–1885-yillar orasida yozgan “Тарихи жадидайи Тошканд (“Toshkentning yangi tarixi”)” nomli 1200 betdan iborat asari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u O‘rta Osiyoda o‘tgan uch xonlikda yozilgan tarixiy asarlardan birmuncha farq qiladi.

Asar fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, uning dastlabki qismi hukmdorlar o‘rtasidagi urushlar tarixiga, ikkinchi qismi esa Qo‘qon xonligi va Toshkent tarixiga bag‘ishlangan. Bunda muallifning yangicha tarix yozish niyatida ish boshlaganligi va A. Kundan maslahatlar olganligi seziladi. Shuningdek, ushbu asarda xonlikning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan guruhlar va shaxslar, Toshkentda bo‘lib o‘tgan siyosiy harakatlar, xalq qo‘zg‘olonlari, mazkur qo‘zg‘olonlarning yo‘nalishi hamda sabablari haqida mufassal ma’lumotlar berilgan. Ushbu asarda qo‘ng‘irot, qangli, sanjaqli, sergili, qora qayroq, arg‘in va beshtamg‘ali kabi urug‘lar qayd etilgan[1255]. O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, mazkur asar yangi davr tarixshunosligida o‘ziga xos, zamonaviy intilishlardan biri edi. Hozirgi kunda ushbu noyob manba O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida nodir asarlar bo‘limida saqlanmoqda.

Toshkent hamda uning shimoliy hududlarida yashovchi aholining etnik tarkibi, ular o‘rtasidagi aloqalarga oid ma’lumotlar Abu Ubaydulloh Toshkandiyning “Хулосат ул-аҳвол” asarida yoritilgan. Xususan, mazkur asardagi qozoq va qirg‘izlar, ularning Qo‘qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o‘rni hamda ushbu ikki etnoslar o‘rtasidagi integratsiyaga doir bo‘lgan ma’lumotlar ahamiyatlidir.

Qo‘qon xonligi aholisi tarkibida yuz, turk, afg‘on va alqor urug‘lari hamda qirg‘iz, tog‘liq, qoraqalpoq, tojik va arablar ham yashaganligini Mirzo Olim Mushrifning “Ансоб ас-салотин” asarida ham qayd etilgan.

“**Ҳўқанд тарихи ва унинг адабиёти**” asarida Qo‘qon xonlari harbiy qo‘shinlarida ushbu etnik guruh vakillaridai iborat bo‘lgan alohida maxsus qism bo‘lib, ularning chavandozlik va jangovarlik qobiliyati ancha yuqori bo‘lganligi qayd etiladi[1256]. Qo‘qon xonligi tarixiga oid “Мунтахаб ат-таворих”, “Ансоб ас-салотин”, “Тарихи Туркистон” va “Тарихи Шоҳруҳий” kabi asarlarda Olimxon (1798–1810) hukmronligi davrida ko‘shin tarkibida tog‘li tojiklardan

[1255] Муҳаммад Солиҳхўжа Тошкандий. Тарихи жадидайи Тошканд ... 396 б - 397а -варақлар.
[1256] Пўлотжон домулла Қайюмий. Ҳўқанд тарихи ва унинг адабиёти. 1-дафтар, 154-варақ.

iborat maxsus bo'linmaning tuzilganligi va ularning jangovar qobiliyati kuchli bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalar ichida 92 o'zbek qavmining ro'yxati kiritilgan asarlar Avaz Muhammad Attorning "Туҳфат ат-таворихи хоний" hamda Po'lotjon Qayyumiyning "Ҳўқанд тарихи ва унинг адабиёти" asaridir. Mazkur asarda o'zbek xalqi etnik tarkibiga kiruvchi 92 urug'ning ro'yxati keltirilgan bo'lib, ularning 28 tasi Farg'ona vodiysida joylashganligi qayd etilgan[1257].

Muhammad Yunusning "Тарихи Алимқул амирлашкар" asarida asosan, boshqaruv va harbiy tarixga oid ma'lumotlar uchraydi. Masalan, mazkur manbada yozilishicha, xonlikning turli ma'muriy-hududiy birliklarini Qo'qon hukmdorlari o'z yaqinlari yordamida idora etganlar.

Bilamizki, bu O'rta Osiyoning barcha xonliklariga xos edi. Biroq, Qo'qon xonligida mazkur an'anaga bir muncha o'zgacha tarzda yondashilgan va viloyatlar hamda bekliklarning boshqaruvi harbiylarga ishonib topshirilgan. Ushbu holatni o'sha vaqtlarda Qo'qon xonligining Buxoro amirligi bilan, sharqda Xitoy va Sharqiy Turkiston bilan, boshqa tomondan esa Rossiya imperiyasi hamda qozoq juzlari bilan chegara hududlarda doimiy harbiy to'qnashuvlarning kuchayib borishi ta'sirida amalga oshirilgan edi, deb ham baholash mumkin[1258].

Asarni o'rgangan Z. Ilhomovning fikricha, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda, muhim siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan markazlarga hukmron sulola vakillari emas, balki katta siyosiy va harbiy tajribaga ega amaldorlar hamda harbiy sarkardalar tayinlangan[1259]. Bunday holatni Mallaxonning taxtga chiqishi va uni taxtga chiqarishda amaliy jihatdan juda katta yordam bergan hamda uning eng ishonchli sarkardalaridan biri hisoblangan Aliquli Amirlashkar Hasanbiy o'g'liga Chimyon hokimligining topshirilishini qayd etish mumkin. Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilishicha, Mallaxon o'zining ishonchli sarkardalaridan Shodmonhoji mingboshiga Baliqchi birligining hokimligi, Aliquli Amirlashkarga esa Chimyon hokimiyatini topshiradi. Aynan shu ikki sarkarda Mallaxon hukmronligi yillarida ham, undan keyingi taxt uchun kurashlar hamda keyinchalik Mallaxonning o'g'li sulton Sayyidxonning hukmronligi yillarida ham davlat va hokimiyat uchun juda katta ishlarni amalga oshirganlar. Ushbu ikki harbiy yetakchi Rossiya imperiyasining bosqinchiligiga qarshi kurashlarda ham muhim o'rin tutganlar[1260].

---

[1257] Юқоридаги манба. 1-дафтар, 166-варақ.

[1258] Илҳомов З. А. Амирлашкар тарихи (Алиқули амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни). Тошкент, 2013. 132 б.

[1259] Shu joyda.

[1260] Qarang: Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар. Шарқ юлдузи. 1996. №.1 214–223-бетлар; Илҳомов З. А. Амирлашкар тарихи (Алиқули амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни). Тошкент, 2013; Аҳмедова М. XVIII–XIX асрларда Ўрта Осиёдаги ижтимоий

Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining asarlarini o‘rganishga qiziqish Sovet davrida kuzatilgan bo‘lsa-da, bu davrda yaratilgan tadqiqotlardagi ma’lumotlar asosan, qisqa shaklda keltirilgan[1261]. Ushbu xonlik tarixnavisligi bo‘yicha tadqiqotlar rivoji nisbatan XX asrning 60–80-yillarida kuzatilgan. Mazkur davrda V. Romodin, A. Qayumov, R. Nabiyev, H. Bobobekov, T. Beysimbiyev, A. O‘rinboyev, E. Xurshut va Sh. Vohidov kabi tadqiqotchilar Qo‘qon xonligi davri mualliflarining ayrim asarlarini ilmiy muomalaga kiritdilar[1262].

Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining asarlari faqatgina mustaqillik yillarida maxsus ilmiy tadqiqot ob’yektiga aylandi. Jumladan, D. Sangirova, B. Tursunov, O‘. Sultonov, Sh. Mahmudov, T. Xudoyqulov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida Qo‘qon tarixchilar maktabining shakllanish bosqichlari, ushbu maktab vakillari faoliyati hamda asarlarning mazmunini chuqur o‘rgandilar[1263].

## XVI–XIX asr oxirlarida qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, afg‘on, Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixiga oid asarlar

**Qoraqalpoq xalqi tarixi tarixshunosligi.** Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir XIX asr 80-yillaridan buyon qator tadqiqotchilar asarlari vujudga keldi. Qoraqalpoq xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixini bayon etar ekanmiz,

---

сиёсий вазият, Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлатчиликнинг ривожланиши хусусиятлари, давлат тизими ва ҳуқуқ манбалари. Тарих фан. номз. илм. дараж. диссертация. Тошкент, 2012. 61-б.

1261 Семенов А. А. К вопросу кто был автором «Тарихи Сайид Роким» // Бартольд В. В. Туркестанские друзья, ученики и почитатели. Ташкент, 1927. С. 12-16; Shu muallif. Указатели персидской литературы по истории узбеков Средней Азии / Труды библиографической комиссии, бывшей при СНК ЦСР. Ташкент, 1926. Вып. 3. С. 31; Уринбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства // Известия АН РУз. Ташкент, 1957. С. 33–38; Набиев Р. Н. Уникальный источник по истории Кокандского ханства // ОНУ. 1967. №4. С. 33–39.

1262 Ромодин В. А. Некоторые источники по истории Ферганы и Кокандского ханства XVI–XIX вв. в рукописных собраниях Ленинграда. М.: Наука, 1960. 15 с.; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар). Тошкент, 1961; Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. (Феодальное хозяйство Худояр-хана). Ташкент: Фан, 1973. 388 с.; Бабабеков Х. Х. Историческая литература о Кокандском ханстве. (Русская литература 60-70 – х гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1977. 20 с.; Бейсембиев Т. К. «Тарихи Шахрухи» как исторический источник: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1983. 22 с.; Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида. Тошкент: Фан, 1983. 56 б.; Хуршут Э. «Мунтахаб ат-таворих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII-XIX вв. // ОНУ. 1984. №7. С. 41-45; Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида XIX – XX асрнинг бошларида тарихнавислигининг ривожланиши: Тарих фан. док. ... дисс. Тошкент, 1988. 315 б. ва б.

1263 Сангирова Д. Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг "Тарихий Азизий" асари муҳим манба сифатида. Тарих фан. ном.... дисс. Тошкент, 1999. 162 б.; Турсунов Б. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, аньаналари (XIX асрнинг 70-йилларигача) Тарих фан. номз.... дисс. Тошкент, 2006. 162 б.; Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжанинг "Тарихи жадидайи Тошканд" асари – муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан. ном.... дисс. Тошкент, 2007. 173 б.; Shu muallif. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг "Тарихи жадидайи Тошканд" асари – муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 262 б.; Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий – бошқарув тизими (1709–1876 йй.) Тарих фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2007. 160 б.; Худойқулов Т. Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. ном. ... дисс. Тошкент, 2009. 172 б.

XVI asring ikkinchi yarmida No‘g‘ay xonligi uch qism, ya’ni “Olti ul”, Kichik va Katta o‘rdalarga bo‘linib ketganligiga e’tibor qaratish kerak.

Ma’lumki, XVI asrning boshlarida no‘g‘aylar Volga va Yoyiq daryolari bo‘ylariga bostirib kelgan jung‘or (qalmoq)lar tomonidan tor-mor etilgan edi. Yaylovlaridan ajralgan no‘g‘aylar g‘arbga, ya’ni Qrimga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi. No‘g‘aylarning “Olti ul” ulusi tarkibiga kiruvchi qoraqalpoqlar esa Orol va Sirdaryo bo‘ylariga kelib o‘rnashadi. Ushbu davrda qoraqalpoqlar goh Buxoro xonligi, goh Qozoq xonligiga tobe bo‘lgan edi. Xususan, Muhammad Solih (taxminan 1455–1535-yy.)ning “Шайбонийнома”[1264] tarixiy asari ushbu davrni yorituvchi manbalardan biri bo‘lib, unda Muhammad Shayboniyxonning hayoti va olib borgan urushlari haqida she’riy uslubda hikoya qilinadi.

Abulg‘ozi Bahodirxonning [1265] “Шажарайи турк ва мўғул” asari qoraqalpoqlar haqida o‘sha davrga oid ko‘plab ma’lumotlar beradi. Kitobning IX bobida Xorazmning 1512–1663-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon qilinadi. Asarning G. S. Sablukov[1266] va P. I. Demezonlar tomonidan amalga oshirilgan nashrlari mukammal bo‘lib, muhim ilmiy qimmatga ega. Mazkur asar o‘zbek tilida 1992-yilda B. Ahmedov fikr va mulohazalari bilan chop etilgan[1267].

Qoraqalpoqlarning ushbu davrdagi tarixini yoritishda xalq dostonlari ham muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpoq folklorining asosiy janri dostonlar bo‘lib, ular 4 ta tur (qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy va tarixiy)ga bo‘linadi. Ulardan eng keng tarqalgani “Alpamis” bo‘lib, “Yedigey”, “Qublon” va “Qirq qiz” dostonlari ham xalq orasida mashhur.

Qoraqalpoq tarixshunosligida adabiyotning ham muhim o‘rni bo‘lib, mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi, shoir Jeyin Jirov (1730–1784)ning faoliyati alohida ahamiyatga ega. U o‘zining “Ulug‘ tog‘” va “Po‘sgan el” dostonlarida qoraqalpoqlarning Xorazmga ko‘chib kelish tarixini yozgan. Shoirning yana bir asari – “Xush bo‘ling, do‘stlar” she’ri qoraqalpoqlarning Turkistondan ko‘chib kelishiga bag‘ishlangan. Boshqa bir qoraqalpoq shoiri – Kunxo‘janing she’rlarida o‘zi yashagan davrdagi xalq hayoti tasvirlangan.

Qoraqalpoqlar tarixini yoritishda “Фирдавс ул-иқбол”[1268] asari ham muhim manba sanaladi. Asarda Xorazmning qadim zamonlardan to Olloqulixon zamonigacha bo‘lgan tarixidan hikoya qilinadi. Asar 1806–1840-yillarda yozib

---

1264 Ахмедов Б. А. Неизвестная версия «Шейбани-наме» Бенаи // ОНУ. 1965. № 2. С. 51-55.

1265 Abulg‘ozi Bahodirxon ham Xiva xoni (1643–1663-yy.), ham tarixchi olim sifatida mashhurdir. U 1603-yil 23-avgustda Urganchda tug‘ilgan va 1619-yilgacha ushbu shaharda istiqomat qilgan. “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” 1664-yilda yozilgan, lekin Abulg‘ozixonning og‘ir dardga chalinishi va tez orada vafot etishi sababli tugallanmay qolgan.

1266 Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази Хивинского хана // Известия общества археологии, истории и этнографии при императорском Казанском университете. Том XXI. Вып. 5–6. Казань, 1906.

1267 Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. Тошкент: Чўлпон, 1992.

1268 Агахи. «Избранное» Перевод Наума Гребнева, Р. Морана. Ташкент: Изд-во ЦК УзбССР, 1984. 128 с.

tamomlangan. Asarining asosiy qiymati unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511–1825-yy.) tarixi davriy tartibda bayon etilganidadir. Asarda turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni, yer egaligi, soliq va jarimalar – xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hokazolar bayon qilingan.

Mulla Shodiyning qalamiga mansub “Фатҳнома”[1269] asari ham qoraqalpoqlar haqida ma’lumot beruvchi manbalardan[1270]. Qoraqalpoqlarning XV–XVI asrlardagi tarixini o‘rganishda yana bir muhim manbalardan biri “Мусаххир ал-билод” asari bo‘lib, muallifi Muhammadyor ibn Arab Qatag‘ondir. Asarda[1271] Sirdaryo bo‘ylarida yashagan qoraqalpoqlar, ularning XVI asrning oxiri – XVII asr boshlaridagi ahvoli haqidagi ma’lumotlar uchraydi.

Qoraqalpoqlar tarixini o‘rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Дастур ул-мулук” asari muhim bo‘lib, XVII asrning 70–90-yillardagi Buxoro bilan Xiva xonliklari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, xususan, qoraqalpoqlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud[1272].

Qoraqalpoqlarning XVI–XVIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan tarixiy asarlar, shuningdek, “Силсилот ус-салотин”ni ham qo‘shish mumkin[1273]. “Силсилот ус-салотин” asarining muallifi Hoji Mir Muhammad Salimdir. “Силсилот ус-салотин”ning III–IV qismlari ahamiyatga ega bo‘lib, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonning XVI–XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qilinadi.

O‘zbek va qoraqalpoq qavmlari, urug‘lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot beruvchi asar “Туҳфат ул-хоний” asaridir[1274]. Asar XVIII asrning asrga oid daliliy ma’lumotlarga boy.

Qoraqalpoqlarning tarixi haqida qisman ma’lumot berishi mumkin bo‘lgan yana bir muhim manba – “Тарихи Амир Ҳайдар”dir[1275]. Mazkur asar Amir Haydar hukmronligi (1800–1826-yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixni o‘z ichiga oladi[1276].

---

1269 Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). Акимушкин О. Ф., Юдин В. П. Алма-Ата: Наука, 1969. 655 с.

1270 Пугаченкова Г. А. Миниатюры «Фатх-наме» - хроники побед Шейбани-хана – из собрания Института по изучению восточных рукописей АН УзССР. Труды САГУ. Вып. IX. 1950.

1271 Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/287-musahhir-al-bilod.html.

1272 Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. Таржимон Э. Жабборов. Тошкент: Шарқ, 2001. 354 б.

1273 Материалы по истории туркмен и Туркмении, Том II. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. (пер. под ред. А. Ромаскевича) М.-Л. АН СССР, 1938.

1274 Shu joyda.

1275 Мулла Ибадаллах и Мулла Мухаммед Шариф. Тарих-и амир Хайдар (“История эмира Хайдара”) Рукопись ИВ АН РУз.. Инв. № 1836.

1276 Чехович О. Д. Бухарские документы XVI века. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1965. 145 с.

Qoraqalpoqlarning Buxoro amirligida tutgan o‘rni xususida ma’lumot beruvchi yana bir muhim manba “Фатҳномайи султоний”[1277] bo‘lib, muallifi Mir Olim Buxoriydir. Mazkur asarda Amir Shohmurod va Amir Haydar davri qisqacha, Amir Nasrulloxonning hukmronlik yillari esa batafsil yoritilgan.

Qoraqalpoqlarning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda Amir Doniyolning “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф аз амир Дониёл то асри амир Абдулаҳад” asari muhimdir. Qoraqalpoqlarning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф” asari ham muhim manbadir[1278].

Qoraqalpoqlar tarixining turli jihatlarini o‘rganishda badiiy asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Ajiniyazning ijodi XIX asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Uning asarlari alohida to‘plamlar sifatida qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq va rus tillarida chop etilgan. Berdaq shoirning lirik, satirik, didaktik she’rlari, tarixiy dostonlari diqqatga sazovor. Shuningdek, Otesh Alshinbay o‘g‘li (1828–1902), Qulmurot Qurbon o‘g‘li (1845–1926), Omar Sugirimbet o‘g‘li va boshqa shoirlarning she’r hamda dostonlari qoraqalpoq adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Yuqoridagi manbalardan shuni xulosa qilish mumkinki, bijanak qabilalari negizida VIII–XVI asrlarda qoraqalpoq xalqi shakllandi. XVIII asrning birinchi choragida Eshimxon yetakchiligida qoraqalpoq xonligi tashkil topadi. 1811-yildan boshlab qoraqalpoqlar Xiva xonligiga qaram bo‘lgan. 1873-yilda Rossiya imperiyasining Xivaga yurishi, uni istilo qilishi va Gandimiyon shartnomasi tuzilishi natijasida Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan qoraqalpoqlar hududi Rossiyaga qo‘shib olindi. Bu yerda Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo‘limi tashkil etildi. Amudaryo bo‘limi 2 ta uchastkaga bo‘lindi: Petro-Aleksandrovsk qal’asi markazi bo‘lgan Sho‘raxon uyezdi (hozirgi To‘rtko‘l shahri) va markazi Chimboy bo‘lgan Chimboy uyezdi.

**Qozoq xalqining XVI–XIX asrlar tarixshunosligi.** Qozoq xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixini bayon etar ekanmiz, IX–X asrlarda hozirgi Qozog‘iston hududlarida qarluq, o‘g‘uz, pecheneg, qipchoq, kimak va boshqa qabilalar joylashganligi, XI–XII asrlarda ushbu mintaqada yashagan barcha qabilalarning birlashishiga turtki bo‘lganligi, XII asrda Qozog‘iston hududiga qoraxitoylar (kidanlar) bostirib kirganligi, ularning mahalliy turkiy aholi bilan aralashib ketganligi, XI–XV asrlarda Irtishdan Dunaygacha bo‘lgan Buyuk Yevroosiyo tekisligi, Qrimdan to Volga bo‘yidagi Buyuk Bulg‘oriyagacha arab va fors manbalarida “Poloves (qipchoq)lar dalasi” deb ataladigan qipchoq-poloveslar ko‘chib yurganligi, XVI–XVIII asrlarda turklar bir necha mustaqil

[1277] Мухаммед Мир Алим Бухари. Фатх-наме-йи султани (“Султановская книга побед”). Рукопись ИВ АН РУз., Инв. № 1838. 22. Мухаммед Хусайн ибн Шах Мурад. Махазин ат-таква фи тарих ал-Бухара ("Сокровище благочестия"). Рукопись ИВ АН РУз., Инв. № 2773.

[1278] Аҳмад Маҳдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангияти / Бо саъй ва ихтимом ва тасхехи Абдулгани Мирзоев. Сталинобод, 1960.

etnoslarga bo‘linib ketgandan so‘ng qudratli turkiy qipchoq qabilasining katta qismi qozoq xalqi tarkibiga kirganligi to‘g‘risida eslatib o‘tish joiz.

Mazkur davrda yaratilgan manbalar, xususan, Mahmud ibn Valining “Баҳр ул-асрор”, Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriyning “Абдулланома” (Sharafnomayi shohiy), Muhammad Haydar mirzoning “Тарихи Рашидий”, Muhammadhakimxon to‘raning “Мунтахаб ат-таворих: (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar)” Abulg‘oziy Bahodirxonning “Шажарайи турк”, Munis va Ogahiyning “Фирдавс ул-иқбол” va Muhammad Avaz Marg‘iloniyning “Тарихи Азизий” kabi asarlarda Turkiston xalqlarining XVI–XIX asrlardagi tarixiga bag‘ishlangan voqealar bayonini ko‘rish mumkin[1279].

Bizga ma’lumki, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Qozoq xonligi vujudga kelgan va ushbu etnosning shakllanishi nihoyasiga yetgan edi. XVI asr boshlarida g‘arbga qaytib kelgan qozoq qabilalari Qozoq xonligiga birlashgan edi. Shu bilan qozoq elatining shakllanish jarayoni yakunlangan. Bu haqda sovet davrida ko‘plab adabiyotlar yaratildi[1280]. Xususan, M. X. Abuseitovaning “Казахское ханство во второй половине XVI века” asarida keltirilishicha, XV–XVI asrlarda qozoq xalqining tashkil topishi va rus markazlashgan davlatining mustahkamlanishi natijasida bevosita qozoq-rus aloqalari paydo bo‘la boshlaydi[1281].

Ma’lumki, Rossiya imperiyasi hukumati o‘sha davrdayoq qozoq xalqi bilan qiziqar, u haqda turli ma’lumotlar to‘plar edi. Ushbu ma’lumotlar Moskva buyruqlarida aks etgan bo‘lib, podsho devonxonasida saqlanar edi. Masalan, shoh arxivining 1574–1584-yillardagi ro‘yxatida “Qosim podsho davridagi kazak (qozoqlar)lar” kitobi va ro‘yxati 38-qutida saqlanganligi ko‘rsatilgan. Jumladan, O‘. Alievning “Қозоғистон тарихи” kitobida qo‘shni mamlakatning XIV–XVII asrlardagi tarixi batafsil bayon etiladi. Xususan, unda yozilishicha, XIV–XV asrlarda Qozog‘iston hududi Chingizxon imperiyasi tarkibiga kirgandan so‘ng ulug‘ xon barcha yerlarning yagona egasi, deb ataldi. XIV asrda Oltin O‘rda, Oq O‘rda, Abulxayrxon xonligi va Temuriylar davrida yerni shartli

---

[1279] Семенев А. А. Каталог рукописей исторического отдела Бухарской центральной библиотеки. Ташкент, 1925; Коль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской публичной библиотеки. Ташкент, 1889; Бартольд В. В. Известия Российской АН. Серия X. Т. XX. Л., 1921; Вороновский Д. Г. «Гульшан-ул-мулук» Мухаммеда Якуб Бухори. Рукопись. Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1947; Ахмад Дониш. История мангитской династии. Перевод, предисловие и п имечание И. А. Наджафовой. Душанбе, 1967; Лунин Б. В. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX вв. Ташкент, 1988; Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. Ташкент, 1988.

[1280] Абусеитова М. Х. Казахское ханство во второй половине XVI века. Алма-Ата: Наука, 1985. 104 с; Атыгаев Н. А. Казахское ханство в XV – середине XVI века. Алматы, 2003. 35 с; Шалекенов У. Х. Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов каракалпаки в XVIII–XX вв. Ташкент, 1966; Толыбеков С. Хозяйство казахов на рубеже XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1980; Shu muallif. Кочевое общество казахов в XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1971; Турсунова М. С. Казахи Мангышлака во второй половине XIX века. Алма-ата: Наука, 1977. 184 с.

[1281] Абусеитова М. Х. Казахстан и Центральная Азия в XV-XVII вв.: история, политика, дипломатия. Алматы: Дайк-Пресс, 1998. 268 с.

turda mukofot tarzida berish “sayirg‘al” deyilgan. Demak, qozoqlarda ham yer egaligining o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lgan.

M. S. Tursunovaning “Манғишлоқ қозоқлари XIX асрнинг иккинчи ярмида” asari ham ushbu davrni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unda XIX asrda Mang‘ishloqda yashagan qozoq xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ma’lumot beradi. Asarda yozilishicha, Mang‘ishloqdagi qozoqlar 1822-yilda Xiva xonligiga bo‘ysundirilib, 1830–1840-yillarda ularni Maya Anetev va mulla Kalbiy Karimkulov 10 ta biy yordamida boshqargan edi[1282].

Umuman olganda, ushbu xonlik tarixiga bag‘ishlangan asarlarda qozoq hukmdorlari Kereyxondan to Abilayxongacha bo‘lgan davrdagi xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, XV–XVII asrlarda qozoqlar orasida tabiat kuchlariga sig‘inishning kuchli bo‘lganligi, ularning yer va suvga e’tiqod qilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham bilib olish mumkin.

**XVI–XIX asrlar tarixshunosligida qirg‘izlar tarixining yoritilishi.** Qirg‘iz xalqi tarixini yoritishda XVI–XIX asrlarga oid tarixiy manbalarning o‘rni beqiyos. Mazkur davrda fors-tojik va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlarning ma’lumotlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalarning muhim qismi ilmiy muomalaga V. V. Bartold, A. A. Semyonov va P. P. Ivanovlar tomonidan kiritilgan[1283]. Masalan, Muhammad Haydar 1546-yilda Kashmirda “Тарихи Рашидий” asarini yakunlagan edi. Ushbu asar Mo‘g‘uliston va XV–XVI asrlardagi qirg‘iz xalqi tarixidagi yagona manba bo‘lib, unda siyosiy voqealar, aholining etnik tarkibi va qisman mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotining holati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar mavjud. “Тарихи Рашидий”da qirg‘iz qabilalarining ko‘tarilishi, ularning Qozoq xonliklari hukmdorlari, Shayboniylar va Mug‘al xonlari bilan munosabatlari haqida xabar berilgan.

Yana bir muhim manba bu – “Бобурнома” bo‘lib, shoh va shoir Z. M. Bobur (1483–1530) tomonidan turkiy tilda yozilgan. Mazkur asarda

---

[1282] Турсунова М. С. Казахи Мангышлака во второй половине XIX века. Алма-ата: Наука, 1977. 120 с.

[1283] Материалы по истории каракалпаков. Сборник / Редактор издания А.Н. Самойлович. М.-Л.: Издательство Академии наук СССР, 1935. 299 с. Иванов П. П. «Удельные земли» Сейид-Мухаммед-хана хивинского (1856–1865) // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VI. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1937. С. 27–59; Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том II. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники / Под редакцией В. В. Струве, А. К. Боровкова, А. А. Ромаскевича и П. П. Иванова. Ответственный редактор А. К. Боровков. М–Л.: Издательство Академии наук СССР, 1938. 700 с.; Казахи и Кокандское ханство (К истории их взаимоотношений в начале XIX в.) // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VII. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939. С. 92-128; Архив хивинских ханов. Новые источники для истории Средней Азии XIX в. // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VII. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939. С. 5–26; Новые данные о каракалпаках. Исторические заметки // Советское востоковедение. III. М–Л.: Издательство Академии наук СССР, 1945. С. 59–79; Средняя Азия и Казахстан во второй половине XVIII в. / Предисловие и публикация Е. И. Серовой // Труды востоковедов в годы блокады Ленинграда (1941-1944). М.: Восточная литература, 2011. С. 134–150.

Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlari, kiyim-kechaklari, oziq-ovqat mahsulotlari, o‘rta asrlardagi O‘sh haqidagi ma’lumotlar va ayrim qirg‘iz qabilalarining etnografik xususiyatlari tasvirlangan.

Noma’lum muallifning “Тазкираи Хўжа Муҳаммад Шариф” asari XVI asrning ikkinchi yarmida yozilgan bo‘lib, unda XVI asr o‘rtalarida qirg‘iz qabilalarining joylashuvi va ularning Qashqariya hukmdorlari bilan munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan[1284].

**“Тазкираи хўжагон”** (“Xojalar biografiyasi”) 1768–1769-yillarda Muhammadsodiq Qoshg‘ar tomonidan uyg‘ur tilida yozilgan tarixiy asar bo‘lib, unda Qashqar xojalari tarjimai holi bilan bir qatorda, XVII asrning boshlaridan XVIII asrning 60-yillariga qadar qirg‘izlar ishtirok etgan Sharqiy Turkistonda sodir bo‘lgan siyosiy voqealar batafsil bayon etilgan[1285].

1917-yilgacha sovet tadqiqotchilari Qirg‘iziston tarixiga oid hozirgi zamonaviy ko‘plab faktlar: O‘rta Osiyo qo‘lyozmalari, noma’lum hujjatlar, yozma manbalar, dala etnografik materiallar, xalq afsonalari va folklor yozuvlarini ilmiy muomalaga kiritdilar.

Eng muhim va ko‘p sonli yozma manbalar bo‘lib, ular orasida quyidagilar ajralib turadi: 1. Qirg‘iziston hududidan topilgan xatlar. 2. Qo‘qon xoni va o‘rinbosarlarining “qonun chiqaruvchi” hamda akt hujjatlari. 3. Qirg‘iz zodagonlarining xon va uning amaldorlari bilan yozishmalari. 4. Qirg‘iz sudyalari (biylari)ning navbatdan tashqari s’yezdlari va qarorlari, shuningdek, qirg‘izlarning turli vaqtlarda bitilgan yozma hamda og‘zaki nasabnomalari. 5. Qo‘qon, Buxoro va boshqa hudud mualliflarining qo‘lyozma hikoyalari. 6. Rossiya imperiyasi davri hujjatli manbalari (qirg‘izlarning qasamyod qilingan ro‘yxatlari, qirg‘iz hukmdorlari va Qo‘qon hokimiyati bilan yozishmalari).

Bundan tashqari, chegara idoralari, Turkiston general-gubernatorligi mansabdorlarining ma’lumotlari, turli tarixiy. ma’lumotnoma va rasmiy memorandumlarning ekskursiyalari shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarning bir qismi 1917-yilgacha, qolganlari esa sovet davrida chop etilgan.

XVIII–XIX asrlarda qirg‘izlar tarixiga oid manbalar orasida mintaqaga kelgan yoki guvohlarning ma’lumotlaridan foydalangan rus olimlari va sayohatchilarining asarlari muhim ahamiyatga ega.

XVIII asr oxiridagi qirg‘izlar haqida eng to‘liq ma’lumotni sibirlik harbiy muhandis I. G. Andreyev bergan edi[1286]. Uning qozoqlar haqidagi batafsil insholarida qirg‘izlarning tavsifi, ularning tashqi siyosiy tarixi va ichki hayoti

---

[1284] Мухаммед Шариф ибн Мухаммед Наки. Тадж ат-таварих ("Венец летописей"). Рукопись ИВ АН РУз., Инв. № 1999.

[1285] Лунин Б. В. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI - первой половины XIX вв. Ташкент, 1988; Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. Ташкент, 1988. 413 с.

[1286] Описание Средней орды киргиз-кайсаков, с касающимися до сего народа, також и прилегающей к российской границе по части Колыванской и Тобольской губерний крепостей дополнениями // Новые ежемесячные сочинения. Ч. CXV–CXVIII. СПб., 1795–1796.

masalalariga bag'ishlangan maxsus bob ajratilgan. U "Qirg'izistonning yovvoyi yoki tosh odamlari to'g'risida" deb nomlangan. I. G. Andreevning asarida XVIII asr oxiridagi qirg'izlar haqida yangi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular o'zining aniqligi, nisbatan to'liqligi, axborot mazmuni va o'z vaqtlari uchun ishonchliligi bilan ajralib turadi. XVIII–XIX asrlarning boshlaridan Rossiya va xorijiy diplomatik vakolatxonalar vakillari, ilmiy hamda harbiy ekspeditsiyalar, savdogarlar va olimlar Tyan-Shanga yuboriladi. Rossiyadan Toshkentga kon qazish bo'yicha yuborilgan mutaxassislar M. Pospelov va T. S. Burnasheva (1800)[1287], Hindistondan Qo'qon xonligiga – Izzatulla 1812-yilda, Sibirdan Qo'qonga F. Nazarov (1813, 1827)[1288], ayniqsa, Qirg'izistonga A. L. Bubenova (1813, 1827), T. V. Nyuxalova (1821) va F. K. Zibberstayn (1825) biz uchun muhim bo'lgan turli xil tarixiy hamda etnografik ma'lumotlarning to'planishini davom ettirishga hissa qo'shdilar[1289].

Sovet davri tadqiqotchilarilan etnograf B. X. Karmishevaning "Қоратегин қирғизлари" kitobi[1290] qirg'izlarning etnografiyasiga bag'ishlangan asarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu kitobda qirg'izlarning xo'jaligi va ularning xalq sifatida shakllanishiga oid ma'lumotlar keltirilganligi bilan qimmatli hisoblanadi. Asardan qirg'iz xonligining vujudga kelishi va qo'shni hududlar bilan aloqalariga doir ma'lumotlar ham o'rin olgan. Asarda Qirg'iz xonligi XVI asrda vujudga kelganligi, uning asoschisi afsonaviy Ahmadxon va uning shajarasi haqida so'z boradi.

Mustafa Kalkanning "Этнические связи кыргызских и казахских племен во второй половине XIV–XVI вв" asarida qozoq hamda qirg'izlarning ayrim qabilalari va ular o'rtasidagi bog'liqlik masalalari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsa, S. M. Abramzonning "Киргизы и их этногенетические и историко-културные связи" asari[1291]da esa qirg'izlarning kelib chiqishi va moddiy madaniyati tarixi masalalari keng yoritilgan. N. I. Grodekovning "Киргизы и каракиргизы Сыр-Даринской области"[1292] nomli qirg'izlar etnografiyasiga bag'ishlangan asarida ham ushbu etnosning kelib chiqish masalalariga oydinlik kiritilgan.

**Qirg'izlarning qozoq xonliklari tarkibida rivojlanishi.** Cho'qon Valixonov qozoq xalqining aytishuv va afsonalariga asoslangan holda qirg'izlar tarixiga oid ma'lumotlarni ham yoritib bergan. U qozoq juzlarini XV–XVI asrlarda paydo bo'lgan, deb hisoblaydi va qozoqlarni burutlar (qirg'izlar) bilan

---

[1287] Колпакиди А., Север А. Глава 28: Военная разведка в XVIII веке: Секретная миссия в Среднюю Азию / Спецслужбы Российской Империи: уникальная энциклопедия. М.: Эксмо: Яуза, 2010. 765 с.

[1288] Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. СПб., 1821.

[1289] История Киргизской ССР. Фрунзе, 1984. том I. С. 53–76.

[1290] Кармышева Б. Х. Каратегинские киргизы. Российская акад. наук. Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. М.: Наука, 2009. 283 с.

[1291] Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. АН СССР. Ин-т этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. Л.: Наука. Ленингр. отд-ние, 1971. 403 с.

[1292] Гродеков Н. И. Киргизы и каракиргизы Сыр-Дарьинской области: юридический быт. М.: Восточная литература, 2011. 566 с.

aralashtirib yuborgan Ritter hamda Georgi kabi mualliflarni qattiq tanqid qiladi[1293]. Ularning bu boradagi fikrlarini inkor qilib, "Katta, O'rta va Kichik" qirg'iz-qaysoq o'rdalari bitta – "qozoq" xalqi ekanligini qayd etadi.

XV asrning ikkinchi yarmida Ahmadxon boshchiligida Qirg'iz xonligi tashkil topib, uning tarkibiga Tyan-Shanda qolgan mo'g'ul-turk qabilalari ham kirgan edi. Mazkur davlat uzoq faoliyat ko'rsatmasa-da, muhim oqibatlarga olib keldi – qipchoq-qirg'iz qabilalarining birlashuvi va ularga mo'g'ul-turk qabilalarining qo'shilishi, ya'ni tarkibi unchalik o'zgarmagan qirg'iz xalqining birlashishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa, Tyan-Shan bo'ylab qipchoq-qirg'iz qabilalarining tarqalishi jarayonida qirg'iz xalqining shakllanishi sodir bo'ldi. Irtish-Yenisey daryo oralig'ida juda ko'p turli xil: qirg'iz, alachin, kuban, qipchoq hamda turkiy va mo'g'ul tilli qabilalar yashar va ularning birortasi ham xalq sifatida shakllanmagan edi. Ularni "O'rmon xalqlari" ("Лесные народы") deb ataganlar. Diqqatga sazovor jihati, ba'zi bir qabilalar XIII asrda Tyan-Shanda boshqa qirg'iz qabilalari bilan birga o'z nomlarini saqlab qolganlar.

Muallif "qirg'iz" atamasi etimologiyasi qadimgi turk sifat so'zi "qirig" – "qizil"dan kelib chiqqan deb hisoblaydi. "Qirg'iz" ushbu atamaning ko'plikdagi ma'nosi bo'lib, mazkur termin ular (qirg'izlar) yashagan hudud nomi bilan bog'liq, xalqning nomi esa shu so'zdan olingan. Yenisey bo'yidagi Qirgun mamlakati ("Qizil mamlakat") mil. avv. I ming yillikdayoq mavjud edi. O'sha paytda "Qirgut" atamasi paydo bo'lgan, keyinchalik esa "qirg'iz" atamasiga o'zgargan. Yenisey va Ob daryolari oralig'idagi mahalliy aholi hamda kelgindi qabilalarning etnik birlashuvi I ming yillikning o'rtalarida shakllandi. Ushbu davrda qirg'izlarda patriarxal-urug'chilik tuzumining yemirilishi ro'y bergan edi. Qirg'izlarda hududiy-davlat birlashuvining paydo bo'lishi VI–VII asrlarda qabilalararo jamoalar shakllanishining ma'lum bir darajasini aks ettirar edi.

Xitoy manbalariga ko'ra, X asrga kelib qimoq-qirg'iz qabilalarining so'nggi birlashuvi ro'y bergan bo'lsa, XI–XII asrlarda esa ushbu qabilalar naymanlar tomonidan siqib chiqarilgan. Qirg'izlarning asosiy qismini bukara va charba qabilalari tashkil etgan bo'lib (nisbatan ozgina mol-holga ega bo'lgan kishilarni ana shunday deb ataganlar), aholiga biy hamda manaplar boshchilik qilgan.

Shuningdek, A. N. Atigayevaning qozoq xonligi tarixiga bag'ishlangan asarida[1294] ham Qozoq xonligining vujudga kelish masalalari yoritilgan bo'lsa, S. K. Kosanboyev[1295] va A. K. Mirzomurodovalarning "XV–XIX аср охирларида қозоқлар тўғрисидаги тарихий этнографик тадқиқотлар" asarida qozoq xalqi tarixi va etnografiyasi, qozoq hamda qirg'izlarning o'zaro aloqalari yoritilgan.

---

1293 Валиханов Ч. Ч. Этнографическое наследие казахов. Астана: Алтын Китап, 2007. 291 с.
1294 Атыгаева А. Н. Казахское ханство в XV – середине XVI в. Алма-Ата, 2003. С. 32.
1295 Косанбаев С. К. История изучения этнологии казахов (XVIII-1940-х. гг. XX в.). Ташкент, 2002. С. 162.

“Этнография и археология Средней Азии”[1296] kitobida 1937–1938-yillarda olib borilgan arxeologik, etnografik va antropologik tadqiqotlar aks etgan bo‘lib, unda Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlar tarixi haqida so‘z boradi.

O‘. Aliyevning “Қозоғистон тарихи” kitobida qozoqlar tarixiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ushbu asar orqali qozoq va qirg‘izlarning tarixan juda yaqinligi hamda o‘ziga xos jihatlarini ko‘rish mumkin. Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu tarixiy jarayonlarni talqin etishda afsonalarning o‘rni katta bo‘lgan.

**“Manas” dostoni va unda yoritilgan tarixiy voqealar.** Qirg‘iz xalqi o‘z tarixi davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan xalq ijodiyoti va madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan xazinani bugungi kungacha saqlab kelmoqda. Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodida xalqning ko‘p asrlik yorqin tarixiy taqdiri va madaniyati, tabiatan shoirona qarashlari, ozodlikka intiluvchi hamda mardlik kabi xislatlarini ifodalangan.

Jumladan, qirg‘iz xalq og‘zaki ijodining noyob namunasi “Манас” epik asar bo‘lib[1297], u dastlab XIX asrning 50-yillarida Cho‘qon Valixonov tomonidan yozib olingan va 1904-yilda rus tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. “Манас”ning qisqartirilgan varianti V. V. Radlov tomonidan nemis tilida chop etilgan. Mazkur epos qirg‘iz folklorining barcha janrlarini o‘z ichiga qamrab olgan, ya’ni afsona, qo‘shiq, ertak, aytishuv va masallardan iborat. “Манас”ning xalq ichida keng tarqalishida irchi (ырчы)larning roli katta bo‘lib, ular “Манас”ni mashhur bo‘limlarini ijro etib, uni xalq orasida keng tarqatgan. “Манас” aytuvchilar uni hech qanday musiqasiz ijro etgan, tinglovchilar ko‘p bo‘lganda doston har xil ohang va suratda, imo-ishoralar bilan yetkazilgan. “Манас”dagi asosiy voqealar – afsonaviy qahramon Manasning Xitoy, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlariga qilgan harbiy yurishlari bilan bog‘liq[1298].

“Манас”da 9 ta asosiy qo‘shiq uzviy bo‘lib, ular Manasning tug‘ilishi va bolalik yillari, xon sifatida tanilishi, Koshg‘ar xonligi hamda O‘rta Osiyo hududlariga qilgan yurishlaridan iborat. Mazkur doston Xitoy poytaxti (Beypin)ga yurish va Talas vodiysida Manasning o‘limi bilan yakunlanadi. Manasning qimmati shundaki, unda tarixiy, etnografik, geografik va boshqa ma’lumotlarni taqdim etgani bois qirg‘iz xalqi hayotining qomusi, deb ham atash mumkin. Dostonda ijtimoiy-maishiy hayotga doir juda katta ma’lumotlar – to‘ylarning tavsifi, dafn, xalq o‘yinlari va mashg‘ulotlari asosiy o‘rinni egallagan. Shu boisdan ham “Манас” qirg‘iz xalqi tarixi va etnografiyasiga oid bebaho manbadir[1299].

---

[1296] Этнография и археология Средней Азии. Ташкент, 1983.
[1297] Кыдырбаева Р. З. Эпос «Манас». Генезис, поэтика, сказительство. Бишкек, 1996. 408 с.
[1298] Shu muallif. Генезис эпоса «Манас». Фрунзе, 1980. 279 с.
[1299] Боура С. М. Героическая поэзия. / Пер. с англ. М., 2002. С. 143–147, 477–479, 485–487, 650–651.

XX asrda ushbu epos S. O‘rozbekov, S. Qoralayev va boshqa oqinlar ijrosida yozib olingan bo‘lib, hozirda "Манас"ning 70 dan ortiq varianti mavjud. Shuningdek, mazkur doston V. M. Jirmunskiy[1300], M. Avezov[1301], R. Z. Qodirboyeva va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, 1995-yilda barcha turkiy tilli davlatlarda "Манас" eposining 1000 yilligi xalqaro miqyosda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi.

**Tojik xalqi tarixshunosligi.** Ma'lumki, tojiklar ham hududning boshqa etnoslari singari uzoq tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan xalqlardan biridir. Ushbu qo‘shni xalqning etnik tarixi o‘zbeklar bilan doimo chambarchas holda o‘rganib kelingan. Mazkur ikki qardosh xalqlar doimo qadimdan aralash holda yashaganliklari va ikki tilda bemalol so‘zlasha olganlari tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ularning madaniyati va urf-odatlari ham bir-biriga o‘xshash. Shu sababli, o‘zbek xalqini etnik tarixini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab tarixiy manbalarda tojiklar haqida ham turli ma'lumotlar berilgan. Boshqa o‘rinlarda tilga olingan ma'lumotlarni qaytarmagan holda, tojiklar to‘g‘risida ko‘plab ma'lumotlar berilgan bir nechta manbalarga to‘xtalamiz.

Tojiklar tarixiga oid "Ҳафт иқлим" ("Yetti iqlim") asari geografik-biografik mazmunda bo‘lib, uning muallifi Amir Ahmad Roziydir[1302]. U asli Eronning Ray shahrida, badavlat va o‘qimishli xonadonda tavallud topgan. Amir Ahmad Roziy o‘z asarini 1594-yilda yozib tugallagan bo‘lib, unda VII asrdan to XVI asr oxirigacha yetti iqlim mamlakatlarida yashagan 1560 nafar yirik shayx, olim, yozuvchi, shoir va davlat arboblari haqida qisqa, lekin qimmatli ma'lumotlar berilgan. Muallif o‘zi yashagan davrgacha bo‘lgan masalalarni yoritishda "Сувар ал-ақолим" ("Iqlimning ko‘rinishi"), "Масолик ул-мамолик" ("Mamlakatlar orasidagi masofalar") va "Тарихи Банокатий" kabi asarlarga tayangan, lekin ulardan tanqidiy foydalangan, ularni yangi dalillar va ma'lumotlar bilan boyitgan.

Muallif shaharlar va mamlakatlarni tavsiflab, ularning geografik o‘rni, diqqatga sazovor joylari, osori atiqalari, aholisi, uning kundalik hayoti, mashg‘ulotlari hamda urf-odatlari, aholining umumiy soni va xo‘jaligiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Masalan, muallifning bergan ma'lumotlariga ko‘ra, Chingizxon hujumidan avval Balxda 50 mingdan ortiq odam yashagan, XV–XVI asrlarda Toshkent atrofidagi tog‘larda temir, feruza va ohak konlari, Xo‘jandda feruza, Badaxshonda esa la'l konlari ishlab turgan.

Shuningdek, ushbu etnos tarixiga oid "Номайи оламоройи Нодирий" ("Nodirshohning olamga bezak bo‘luvchi tarixi") asarining muallifi XVIII asrda yashagan marvlik mashhur tarixchi olim Muhammad Kozimdir. Mazkur asarda

[1300] Жирмунский В. М. "Введение в изучение "Манаса". Фрунзе, 1948. 111 с.

[1301] Мухтор Авезов 1927 йили Еттисув ўлкасига Бишкек орқали ўтади ва у ерда қирғиз оқин-жировлари ижросида "Манас" асаридан парчалар эшитиб, асарнинг ғоявий-бадиий хусусиятларини ўрганади. 1936 йилда М. Авезов "Манас"ни оқин Соғимбой Ўразбоев оғзидан ёзиб олади.

[1302] Ross E. D. et al. (eds.), Haft eqlim. Calcutta, 1918. 72 в.

jumladan, 1741–1742-yillarda Ko‘lob, Hisori Shodmon, Badaxshon, Balx va boshqa viloyatlar xalqining katta yer egalari hamda chet el bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Sulton Muhammadning “Мажмуъ ал-ғаройиб” asari.** “Мажмуъ ал-ғаройиб” ilm ahli orasida keng tarqalgan asar bo‘lib, uning hozirgacha saqlangan qo‘lyozmalari 80 dan ortiq. Xususan, “Абдулланома” asari muallifi Hofiz Tanish Buxoriy, “Ажойиб ат-табақот” kitobining musannifi mavlono Muhammad Tohir va XVII asrda yashagan Mahmud ibn Valilar shular jumlasidandir. Asarning ayniqsa, 3, 11, 12 va 18 boblari muhimdir. Ularning Buxoro, Balx, Tamg‘ach, Marv, Chag‘oniyon, Termiz, Tibet, Turkiston, Samarqand va Bulg‘or kabi yirik shaharlar, Murg‘ob, Vaxsh, Jayhun (Amudaryo), Ko‘hak (Zarafshon) hamda Chirchiq daryolari, dunyoda yuz bergan muhim voqealar, mashhur shayx, olim va hukmdorlar, Balx hamda Badaxshonning minerallarga boyligi haqidagi ma’lumotlari muhim ahamiyatga ega.

**Mirza Salimbekning “Тарихи Салимий” asari[1303].** Ushbu asarda Amir Muzaffar davrida Hisor, Ko‘lob, Baljuvon, Qorategin va Darvozda bo‘lgan xalq isyonlari, Buxoro-Qo‘qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli hamda ma’muriy tuzilishi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

**Ahmad Donishning “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф” asari[1304].** O‘rta Osiyoning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda Ahmad Donishning “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф” asari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kitobda so‘zboshi, sayyoralarning inson taqdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda Amir Doniyolbiy (1758–1785-yy.), Amir Shohmurod (1785–1800-yy.), Amir Haydar (1800–1826-yy.) va Amir Nasrulloxon (1826–1860-yy.) hukmronligi yillarida sodir bo‘lgan voqealar bayon qilingan.

Asarning katta va so‘nggi qismi Amir Muzaffarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Buxoro xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy axvoli, shuningdek, Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan 1866-yilda Jizzax hamda 1868-yilda Samarqandning ishg‘ol qilinishi voqealari batafsil bayon etilgan. “Таржимаи аҳволи амирони Бухоройи шариф” asarining qo‘lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Dushanbe kutubxonalarida saqlanadi. Asarning matni A. Mirzoev tomonidan chop etilgan bo‘lib, 1960-yilda kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimasi Dushanbeda nashr qilingan.

---

[1303] Салимбек Мирза. Тарихи Салими. Ташкент: Akademiya, 2009.

[1304] Дониш Ахмад Махдум бин Носир / Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. 3-е изд. М.: Советская энциклопедия, 1969–1978.

**Filipp Nazarovning “Эсдаликлар”i**[1305]. Rossiya imperiyasidan O‘rta Osiyoga sayohat qilgan Filipp Nazarov o‘z esdaliklarida mintaqa tarixi haqida qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Filipp Nazarov va uning hamrohlari Xo‘jand shahrini ham borib ko‘rgan. Xo‘jand shahri haqida uning esdaliklarida quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “Xo‘jand hajm jihatdan Qo‘qondan kichik emas. U Buxoro tomondan ba’zi yerlari nurab qolgan devor bilan, boshqa tomondan Sirdaryo bilan himoyalangan. Shahardan ariq va kanallar o‘tkazilgan. Qo‘qondagiga o‘xshash korxonalari va hordiq chiqaradigan yerlari ko‘p...”.

Bundan tashqari, mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan turli esdaliklar va tarixiy asarlarda ham hudud xalqlari to‘g‘risida qiziq ma’lumotlar uchraydi. Ular qatoriga Mulla Abdulg‘afforning “Зафарномаи Худоёрхон”, Mullo Niyoz Muhammadning “Тарихи Шоҳруҳий”, Imomali Qunduziyning “Таворихи манзума”, Muhammad Solihning “Тарихи жадидайи Тошкент”, Ahmad Donishning asarlari va boshqa manbalar kiradi.

**Turkman xalqi tarixshunosligi.** Turkman xalqining shakllanish jarayoni mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davr (XV asrlar)da nihoyasiga yetgan. Ushbu davrda turkman etnosiga ayrim o‘g‘uz bo‘lmagan turkiy qabilalar, jumladan, qipchoqlar ham qisman kelib qo‘shilgan.

XV asr oxiri – XVI asr tarixchilari ushbu davr turkmanlari hayotini Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o‘rtasida 1510-yilda Marv yaqinida bo‘lgan jang sababli tasvirlaydi. Xususan, Muhammad Ja’far Hasan al-Moseviyning “Олам оройи Сафавий”[1306] va “Олам оройи шоҳ Исмоил”[1307] asari XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi turkmanlar tarixini o‘rganishdagi asosiy manba hisoblanadi. Unda XV–XVII asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Safaviylar davlati va uning birinchi hukmdori shoh Ismoilning hayoti, ular bosib olgan hududlar haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Xususan, unda yozilishicha: “1512-yilda Shoh Ismoilning vaziri Najmi soniy Movarounnahrga hujum qiladi. Ushbu hujum natijasida Najmi soniy 15 ming odamni qirib yuboradi, hatto itlar va mushuklarni o‘ldirishni buyuradi. 1514-yilga kelib turkmanlar Muhammad Zaman mirzo rahbarligida Shoh Ismoilga qarshi chiqadilar”[1308].

Bu haqdagi ba’zi bir ma’lumotlar Z. M. Boburning “Бобурнома”[1309] asarida ham uchraydi. Ushbu asarda ham Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o‘rtasidagi urush voqealari, bundan tashqari, ushbu davrda Movarounnahr hamda Xurosonda yashagan xalqlar va ularning hayoti haqidagi batafsil ma’lumotlar berilgan.

---

[1305] Назаров Ф. М. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии / Предисловие и подготовка текста В. А. Ромодина; примечания В.А. Ромодина и В. А. Урвалова; указатели и карта составлены В. А. Урваловым. Институт народов Азии АН СССР. М.: Наука, ГРВЛ, 1968. 80 с.

[1306] Алам ара - и Сефеви / Под редакцией Я. Шокри. Тегеран, 1971. С. 59–69.

[1307] Алам ара - и шах Исмаил / Под редакцией Асгара Монтазера Сахеба. Тегеран, 1971. С. 16–19.

[1308] Акаев О. Туркменистан и туркмены в конце XV – первой половине XVI вв. Ашхабад, 1981. С. 10.

[1309] Бабур-наме. Записки Бабура / Перевод М. Салье. Ташкент, 1958. С. 28.

Ushbu jang tafsilotlari Hofiz Tanish Buxoriyning “Абдулланома”[1310] asarida ham aks etgan bo‘lib, Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi 1510-yilda Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan urush, Xorazm va Xuroson haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Sharqshunos A. A. Semyonov asarni rus tiliga tarjima qildi va 1966 yilda ushbu asar bosmadan chiqdi. Mustaqillikdan keyin esa ushbu manbaning qadr-qimmati nihoyatda yuqori ekanligini anglagan tarixchilar uni bir necha bor o‘zbek tiliga tarjima qildilar, asar bir necha bor nashr etildi.

Keyinchalik Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o‘rtasidagi urush tafsilotlari, turkmanlar hududi hamda uning aholisi haqidagi ba’zi bir ma’lumotlar Xondamirning “Ҳабиб ус-сияр”[1311] asarida ham aks etgan. XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmida turkmanlar tarixini o‘rganishda ushbu manbaning o‘rni beqiyos. Ushbu asarda ham Turkmaniston hududlarida bo‘lib o‘tgan Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi urush voqealari bayon etiladi. Mazkur asar mintaqa xalqlari tarixiga oid muhim manba bo‘lib, unda 1498-yildagi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512-yilda Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida uyushtirilgan qirg‘in-qatliom, 1514–1515-yillarda Xurosonda yuz bergan qahatchilik haqidagi ma’lumotlar aks etgan. Asar 1521–1524-yillarda yozilgan va muqaddima, xotima hamda uchta jilddan iborat bo‘lib, 2013-yilda yangitdan nashr etildi.

Yuqoridagilardan tashqari, ushbu jang bilan bog‘liq Marv hududi aholisi haqidagi ma’lumotlar Sharafxon Bidlisining “Шарафнома”[1312] asarida keltirilgan. Fors tilidagi ushbu asar ham Old va O‘rta Osiyoning XVI asr tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asar muallifi Bidlis shahrining kurdlardan bo‘lgan rahbarining o‘g‘li, uning onasi esa turkmanlarning qizilboshlilarga mansub rahbari Emirxonning qizi edi. Sharafxon ham keyinchalik Bidlisning amiriga aylanadi. Mazkur asarda Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi aloqalar hamda XVI asrdagi turkman qabilalari hayoti haqidagi ma’lumotlar mavjud.

Bu kabi ma’lumotlar Budoq Qazviniyning “Жавоҳир ал-ахбор”[1313] asarida ham uchraydi. Ushbu asar ham XVI asrdagi Safaviylar davlatining hayoti haqida ma’lumotlar beradi. Xususan, unda ham Shayboniyxonning 1510-yilda Marv yaqinidagi Ismoil bilan urushi voqealari tasvirlanadi va shu o‘rinda ushbu hudud aholisining taqdiri haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud.

Qozi Ahmad Kumiyning “Хулосат ат-таворих”[1314] va Qozi Ahmad G‘afforiyning “Тарихи жаҳонаро” [1315] asarlarida ham ushbu davr turkmanlari

---

[1310] Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад. Абдулланома. 1-жилд. Тошкент, 1966. 148 б.

[1311] Ғиёсиддин Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахвори афроди башар. Тошкент: Ўзбекистон, 2013.

[1312] Шарафхан Бидлиси. Шарафнаме / Перевод, предисловие, примечания и приложения Э. И. Василевой. М., 1967. Т.1; 1976. Т.2. 357 с.

[1313] Будоқ Қазвиний. Жавоҳир-ал ахбор / Рукопись Ленинградской государственной публичной библиотеки им. М.Э. Салтикова-Шедрина. Каталог Б. А. Дорна. № 288.

[1314] Қози Аҳмад Куми Хулосот ат-таворих. Қўлёзманинг асл матни Эронда сақланади.

[1315] Кази Ахмед Гаффари. Тарих-и Джахан ара. Тегеран, 1964.

hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Masalan, Qozi Ahmad Kumiyning "Хулосат ат-таворих" kitobida ham Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi Xurosondagi jang voqealari bayon qilingan. Muallif ushbu asarni yozishda Hasanbek Rumluning "Ахсан ат-таворих" asaridan foydalangan. Qozi Ahmad G'afforiy ham o'z asarida asosiy e'tiborni ushbu jang tafsilotlariga qaratgan.

Shuningdek, Faridunbekning "Муншаот ас-салотин"[1316] asarida Usmoniylar va Safaviylar o'rtasidagi yozishmalar hamda Chaldiran jangi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Umuman olganda, ushbu manba turkman xalqining XVI asrdagi hayoti haqida ma'lumotlarni berishi bilan qimmatlidir.

Safaviylar va Shayboniyxon o'rtasidagi jang hamda uning oqibatida vujudga kelgan turkmanlarning nochor ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar Muhammad Solihning "Шайбонийнома"[1317] asarida ham uchraydi. Ushbu asardan Shayboniyxonning Urganch hamda turkmanlarning Adoq nomli qal'asini qamal qilishi haqida batafsil ma'lumotlar ham o'rin olgan. "Adoq qal'asini Chinso'fi boshchiligidagi turkmanlar qahramonlik bilan mudofaa etganlar. Qamal paytida Samarqand, Qarshi va boshqa shaharlarda bo'lganidek it, eshak va hatto odam so'yib yeyishga majbur bo'lganlar", – deb yozgan edi muallif o'z asarida. Ushbu asar 1961-yilda Toshkentda ilk bora nashr etildi.

Keyingi davrda ham turkmanlar hayoti bilan bog'liq voqealar va ularning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yaratildi. Abulg'ozi Bahodirxonning "Шажарайи тарокима" asari ana shular jumlasidandir. Ma'lumki, X asr oxirlarida Sirdaryoning quyi oqimida yashovchi o'g'uzlarning katta gruppasi Somoniylarning ruxsati bilan Zarafshonning o'ng qirg'og'i bo'ylab ko'chib yuradi va ancha muddat Nurota hududida hayot kechiradi. Bu haqda Abulg'ozi shunday yozadi: "O'g'uz elindan podshoh bo'lg'on Qaniq urug'indin (turkmanlarning eng qadimiy va katta urug'laridan biri) Saljuqboy boshliq ko'b el ko'chub Sir yoqasinda Xo'jand sharina keldilar. Anda ko'p yillar o'lturub Nur viloyatiga bordilar. Anda yuz yil o'lturub, ko'chub Urganch bordilar. Urganchda o'lturo bilmay ko'chub Xuroson bordilar, taqi Marvdin Abulxonog'och o'turdilar"[1318]. Rus tadqiqotchisi A. Kononov[1319] ushbu asarning rus tilidagi nashrini tayyorlaydi.

XVI asrda sodir bo'lgan Xiva va Buxoro xonliklari turkmanlarni o'zlariga bo'ysundirish jarayonida doimiy ravishda bir-biri bilan raqobat qilib turgan. Buning natijasida turkmanlar yashagan hududlar doimiy urush o'choqlariga aylanib, goh Buxoro, goh Xiva xoni qo'liga o'tgan. Ushbu xonlarning hujumi, ayniqsa, XVII–XIX asrlarda nihoyatda kuchayib, fojiali tus olgan va natijada turkmanlarni tez-tez ko'chib, joylarini o'zgartirib turishga majbur etgan. Bu

---

[1316] Феридун-бек. Муншаат-ас-салатин. Т. 1. Стамбул, 1274.
[1317] Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Тошкент, 1961. 287–329-бетлар.
[1318] Кононов А. Н. Родословная туркмен. Сочинение Абул-Гази хана Хивинского. (Исследования, тексты, пер.), М.-Л.: Издательство АН СССР, 1958. С. 63–64.
[1319] Ko'rsatilgan asar.

haqda Abulg'ozi Bahodirxonning "Шажарайи турк", Shermuhammad Munisning "Фирдавс ул-иқбол" va Ogahiyning "Шоҳиди иқбол" asarlarida batafsil ma'lumot berilgan. Turkmaniston va turkmanlarning XV asr oxiri – XVI asr birinchi yarmidagi hayoti haqida, shuningdek, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohi[1320] hamda Munis va Ogahiy[1321]ning asarlari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Muhammad Kozimning "Номайи олам оройи Нодири"[1322] asarida ham turkmanlarning XVIII asr hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Muallif 1720-yilda Marvda tug'ilgan. Uning asari asosida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Muhammad Kozim o'z asarini 1749–1750-yillar arafasida yoza boshlagan. Mikluxo Maklayning guvohlik berishicha, ushbu qo'lyozmaning birinchi jildi 1752–1753-yillarda yozib tugallangan. Turkman olimi O. Amantiev[1323] o'z tadqiqotida ushbu asarni ilmiy jihatdan tavsiflab, uning Turkmaniston tarixini o'rganishda qimmatli manba ekanligini isbotlab bergan.

**Afg'on xalqi tarixshunosligi.** Hozirgi Afg'oniston hududida mazkur davrda yashagan xalqlar tarixiga bag'ishlangan adabiyot va ilmiy maqolalarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilar ekanmiz, afg'on xalqi tarixiga rus, ingliz, afg'on, o'zbek va hind olimlari murojaat qilganini ko'rish mumkin.

Afg'oniston tarixini tadqiq qilish XX asrda keng rivojlandi. Bunga sabab sifatida hududning geostrategik jihatdan qulayligi, ikki yirik imperiyalar mustamlaka hududini ajratib turuvchi mintaqa ekanligi va boshqa iqtisodiy manfaatlar ko'rsatiladi.

Ma'lumki, Afg'oniston nisbatan yosh davlat bo'lib, unga 1747-yilda asos solingan. Ammo, bu yerda yashovchi xalqlarning tarixi bir necha ming yillikka borib taqaladi. Zamonaviy Afg'oniston hududi ko'plab davlat tuzilmalarining bir qismi hisoblangan va ba'zida o'zi mintaqadagi eng yirik imperiyalar paydo bo'lishining muhim o'chog'iga aylangan. Afg'oniston Osiyo qit'asining markazida joylashgan bo'lib, o'zining ahamiyati va strategik mavqei tufayli qadimgi hamda o'rta asrlarda turli xil bosqinlar va istilolarning qurboniga aylandi.

Afg'oniston tarixiga doir ma'lumotlar Afg'onistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga bag'ishlangan manba hamda hujjatlarda: "Низамнаме-е-малийя"[1324], "Низамнаме-е Асаси-е Даулат-е Алие-е Афганистан"[1325], "Низамнаме-е ташкилат-е даулат-е али-е Афганистан[1326]",

---

1320 Абдуллох ибн Мухаммад ибн Али Насруллохи. Зубдат ал-асир / Материалы по истории казахских ханств XVI–XVIII вв. Алма-Ата, 1969.

1321 Агахи–Мунис. Фирдавс ал-икбал / Материалы по истории казахских ханств XVI–XVIII вв. Алма-Ата, 1969.

1322 Мухаммед Казим. Наме-йи алам арайи Надири / Т.1. М., 1960.

1323 Амантыев О. Туркманистан и туркмены в первой половине XVIII в. Ашхабад, 1980. 116 с.

1324 "Низамнаме-йе-малийя". ("Положение о земельном налоге"). Кабул, 1920 (дарий тилида).

1325 "Низамнаме-йе Асаси-йе Даулат-е Алийе-йе Афганистан". ("Основное положение Высокого государства Афганистан"). Кабул, 1923 (дарий тилида).

“Низамнаме-е форуш-е амляк-е саркари”[1327], “Руйдад-е риясат-е диван-е али-е хокумат-е шахи-е Афганистан”[1328], “Осул-е асаси-е даулат-е али-е Афганистан”[1329], “Канун-е асаси-е даулат-е падшахи-е Афганистан”[1330], “Маджмуе-е ихсаеви-е Афганистан”[1331], “Канун-е асаси-е джомхурият-е Афганистан”[1332], “Хотут-е асаси-е вазаеф-е инкилаби-е джомхури-е димократик-е Афганистан”[1333] va b. jamlangan.

Mahalliy tadqiqotchilar Kushkaki Burhoniddinning “Nader-ye Afgan”[1334], Gubar Mir G‘ulom Muhammadning “Афганистан дар масир-е тарих”[1335], Kushkaki Sabahuddinning “Дахе-е канун-е асаси”[1336], Belgrami Asgar Hasanning “Афганистан ва Хенд-е Бретаневи”[1337] kabi asarlari Afg‘oniston tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Mahalliy olimlar tomonidan yozilgan asarlarning aksariyat qismi dariy tilida bo‘lib, asosan, sovet va xorijiy tadqiqotchilarning sa’y-harakatlari tufayli ilmiy muomalaga kiritilgan.

Afg‘oniston tarixiga doir sovet tarixshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu mavzu bo‘yicha eng to‘liq tadqiqotlardan biri rossiyalik olim M. G. Aslanovga tegishli bo‘lib, uning “Roshaniylar xalq harakati va uning XVI–XVII asrlar afg‘on madaniyatiga ta’siri”[1338] maqolasida Afg‘onistondagi vaziyat, uning oqibatlari, madaniy hayotga ta’siri va harakatning yetuk siymolari haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Muallifning fikricha, Boyazid Ansoriy va tarafdorlarining maqsadi nafaqat o‘z xalqining mustaqilligi uchun kurash, balki odamlar orasida mulkiy tenglikni o‘rnatish bo‘lgan.

---

1326 “Низамнаме-йе ташкилат-е даулат-е али-йе Афганистан”. (“Положение об административном устройстве Высокого Государства Афганистан”). Кабул, 192 (дарий тилида).

1327 “Низамнаме-йе форуш-е амляк-е саркари”. (“Положение о продаже государственных земель”). Кабул, 1923 (дарий тилида).

1328 Руйдад-е риясат-е диван-е али-йе хокумат-е шахи-йе Афганистан. (Решения Верховного суда Королевского правительства Афганистана.). Кабул, 1930 (дарий тилида).

1329 Осул-е асаси-йе даулат-е али-йе Афганистан. (Конституция Высокого государства Афганистан). Кабул, 1931 (дарий тилида).

1330 Канун-е асаси-йе даулат-е падшахи-йе Афганистан. (Конституция королевства Афганистан). Кабул, 1964 (дарий тилида).

1331 Маджмуэ-йе ихсайеви-йе Афганистан. (Статистический сборник Афганистана). Кабул, 1971 (дарий тилида).

1332 Канун-е асаси-йе джомхурият-е Афганистан (Конституция Республики Афганистан.). Кабул, 1977 (дарий тилида)

1333 Хотут-е асаси-йе вазаеф-е инкилаби-йе джомхури-йе димократик-е Афганистан (Основные направления революционных задач Демократической Республики Афганистан.). Кабул, 1978 (дарий тилида)

1334 Кушкаки Бурхануддин. Надер-е Афган. (Надир Афганский.). Кабул, 1931 (дарий тилида).

1335 Губар Мир Гулам Мухаммад. Афганистан дар масир-е тарих (Афганистан на пути истории). Кабул, 1967 (дарий тилида).

1336 Кушкаки Сабахуддин. Дахе-йе канун-е асаси (Десятилетие конституции.). Исламабад, 1983 (дарий тилида)

1337 Белграми Асгар Хасан. Афганистан ва Хенд-е Бретаневи (Афганистан и Британская Индия.). Кабул, 1982 (дарий тилида)

1338 Асланов М. Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе 16-17 вв. // Советское востоковедение. 1955. № 5.

Bundan tashqari, M. G. Aslanov "Афғонистон адабиёти"[1339] hamda "Афғонлар: тил ва маънавий маданият"[1340] nomli asarlarida ham ushbu mavzuga murojaat qilgan. Yana bir rossiyalik olim I. M. Reysnerning "Афғонларда феодализм ва давлат таълимининг ривожланиши"[1341] nomli asarida roshaniylar harakati hamda ularning XVIII asrdagi izdoshlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Bundan tashqari, rossiyalik olimlar A. S. Gerasimova va G.F. Girslar hammualliflgida yaratilgan "Афғонистон адабиёти"[1342] nomli ilmiy asarda afg'on xalqi tarixi keng hamda batafsil yoritib berilgan. Ushbu asarda XVIII asrda yashab, ijod qilgan roshaniylar adabiyot maktabining yetuk shoiri va harbiy yo'lboshchisi Xushxolxon Xattak haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. V. M. Masson, V. A. Romodin[1343] va Yu. V. Gankovskiy[1344] kabi olimlar ham afg'on xalqi tarixiga oid maxsus asarlar yaratganlar.

Ingliz olimlari J. Leyden[1345] va X. Raverti[1346] ham afg'on xalqi tarixi va adabiyotini o'rganish bo'yicha turli asar hamda ilmiy maqolalar yozgan edi. Jumladan, X. G. Ravertining "Гулшани рох"[1347] ("Tog' guli") nomli majmuasida roshaniylarning yirik namoyondasi Mirzaxon Ansoriyning noyob qo'lyozma devonidan 19 ta she'r nashr qilingan.

Ushbu mavzu o'zbek olimlarining ham e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Jumladan, A. M. Mannonov mazkur mavzuga doir "Боязид Ансорийнинг Хайр ул-баёни"[1348], "Рошанийлар шеъриятининг асосий йўналишлари"[1349], "XVI–XVIII асрларда пушту тилидаги рошанийлар адабиёт мактаби"[1350] va "Рошанийлар адабиёти"[1351] nomli asarlarini yozgan. Ushbu ilmiy asarlarda afg'onlar, xususan, roshaniylarning adabiy faoliyati to'liq va keng yoritilgan.

Roshaniylar harakati Afg'oniston, Pokiston hamda Hindiston olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Bunga misol tariqasida Abdulhay Habibiy[1352], Muhammad Shafi[1353], A. A. S. Rizvi[1354], M. M. Kaleem[1355] va Dharma Bhanu[1356] singari yozuvchi hamda tarixchilarning asarlarini keltirish mumkin.

---

1339 Shu muallif. Афганская литература / БСЭ. 2- е изд. М., 1950. 155 с.
1340 Shu muallif. Афганцы, язык и духовная культура / Народы Передней Азии. М., 1957. 170 с.
1341 Рейснер И. М. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. М., 1954. 328 с.
1342 Герасимова А. Г., Гирс Г. Ф. Литература Афганистана. Краткий очерк. М., 1963. 194 с.
1343 Массон В. М., Ромодин В. А. История Афганистана. Т 2. М., 1965. 290 с.
1344 Ганковский Ю. В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. М., 1982. 368 с.
1345 Leyden J. On the roshanian sect and its founder Bayazid Ansari. Asiatic researches. London, 1812. 218 p.
1346 Raverty H. G. Selections from the poetry of the Afghans from the 16th to the 19th century. London, 1868. 190 p.
1347 Raverty H. G. Gulshani rox. Советское востоковедение. М., 1955. 78 с.
1348 Маннанов А.М. Хайр уль- баян Баязида Ансари / Труды ТашГУ, 1981. 165 с.
1349 Shu muallif. Основние жанры рошанийской поэзии. Ташкент, 1986. 80 с.
1350 Shu muallif. Рошанийская литературная школа на пушту в XVI–XVIII вв. Ташкент, 1996. 53 с.
1351 Shu muallif. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. 230 с.
1352 Habibiy A. History of styles in Pashto language. London, 1940–1941. 215 p.
1353 Muhammad Shafi. Bayazid Ansari. London, 1960. 89 p.
1354 Rizvi S. A. A. Rawshaniyya movement. London, 1967. 198 p.
1355 Kaleem M. M. Pushtu literature. The cultural heritage of Pakistan. Karachi, 1955. 255 p.
1356 Dharma Bhanu. The roushania movement and the Mughals. Islamic culture. Haiderabad, 1952. 90 p.

**Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixshunosligi.** XIX asrdagi Sharqiy Turkiston va Tibetning tarixiy geografiyasiga oid asarlar, shubhasiz, N. Ya. Bichurinning nomi bilan bog'liq. Ular hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, qadimgi va o'rta asrlar Sharqiy Osiyo arxeologiyasi, tarixi hamda etnografiyasi tadqiqotlari uchun eng muhim manbalardan biri bo'lib qolmoqda. 1828-yilda N. Ya. Bichurin XVIII asrdagi Xitoy manbalarining tarjimasi asosida "Тибетнинг ҳозирги ҳолатидаги тавсифи" nomli asarini nashr etdi[1357]. "Тибетнинг иллюстрасияси билан ёзилган китоби тўғрисида" asari Tibet haqidagi birinchi rus tilidagi kitob Rossiya va xorijda yuqori baholandi. Bir qator gazeta va jurnallar ("Московский вестник", "Сын Отечества", "Московский телеграф")da uning ilmiy ahamiyati bo'yicha sharhlar paydo bo'lib, 1829-yilda ushbu sharhlar Genrix Yulius Klaport (1783–1835) tomonidan fransuz tilida nashr etildi[1358].

1828-yilda N. Ya. Bichurin "Мўғулистон ҳақида эсдаликлар" asarini taqdim etdi. Unda xitoy manbalariga asoslangan holda Mo'g'ulistonning to'liq tavsifi berilgan va qiziqishnng yuqoriligi tufayli darhol fransuz tiliga tarjima qilingan. Tibet va Mo'g'ulistonga oid asarlarning nashr etilishi N. Ya. Bichurinni 1828-yil 17 (29)-dekabrda, Imperator Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi sifatida saylanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

"Қадимги ва ҳозирги даврдаги Жунғория ва Шарқий Туркистон тавсифи"[1359] kitobi birinchi marta 1829-yilda nashr etilgan bo'lib, muallifning uchinchi yirik asari hisoblanadi. Mazkur asar eng muhim xitoy manbalaridan tarjimalarni o'z ichiga oladi: "G'arbiy yerning hikoyalari" ("Si Yuy chjuan"); Ilk Xan sulolasi tarixining 96-bobi ("Syan Xan Shu"); "G'arbiy mintaqa to'g'risida ko'rgan va eshitganlarning tavsiflari" ("Si Yuy Ven szyan lu"). Afsuski, Sharqiy Turkiston haqidagi ishlar avvalgi ikki asar kabi jamoatchilik e'tiborini jalb qila olmadi.

1850-yilda Osiyoning umumiy xaritasini tuzishga birinchi urinish qilingan. Xuddi shu yili Ya. V. Xanikov va A. P. Bolotov O'rta Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismi xaritasini nashr etdi va 1851-yilda esa Ya. V. Xanikov Issiqko'l atrofi xaritasini tuzdi. 1856–1857-yillarda Yevropaliklardan birinchi bo'lib taniqli olim-geograf P. P. Semenov-Tyan-Shanskiy (1827–1914) Tyan-Shan cho'qqilarini zabt etdi. Uning tadqiqotlari ichki Osiyoning geologik tuzilishi haqidagi tushunchalarni tubdan o'zgartirib yubordi. 1873–1914-yillarda. P. P. Semenov-Tyan-Shanskiy "Rus Geografiya jamiyati"ning doimiy rahbari, ko'plab qiziqarli va samarali ekspeditsiyalarning ilhomchisi bo'lgan. Mintaqani o'rganishning dastlabki natijalari nafaqat geografik, balki etnografik

---

[1357] Бичурин Н. Я. Описание Тибета в нынешнем его состоянии. С картою дороги от Чэн-ду до Хлассы. Перевёл с китайского монах Иакинф. СПб., 1828.

[1358] Клапрот, Генрих-Юлий // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890-1907.

[1359] Бичурин Н. Я. Описание Чжунгарии и Восточного Туркестана в древнем и нынешнем состоянии. Переведено с китайского монахом Иакинфом. Ч. I-II. СПб., 1829.

va tarixiy maqsadlarda ham ekspeditsiyalar tashkil etish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi.

Markaziy Osiyo Rossiyaning harbiy va siyosiy manfaatlarining eng muhim nuqtalaridan biri edi. XIX asrning o'rtalaridan Osiyo mintaqasi ikki imperiya, ya'ni katta bozor va xomashyo manbalari ustidan nazorat o'rnatishga intilgan ruslar hamda inglizlar o'rtasidagi raqobat maydonga aylandi. Mazkur "katta o'yin"da Rossiya va Buyuk Britaniyadan tashqari, o'sha paytda davlat chegaralari hali aniq belgilanmagan Xitoy hamda Afg'oniston ham ishtirok etgan edi. Shu sababli, ekspeditsiyalarning ahamiyati yanada kuchayib ketdi.

Shu munosabat bilan, XIX asrning o'rtalaridan Rossiya hukumati va Bosh shtabi muntazam ravishda Mo'g'uliston, Xitoy hamda Yaqin Sharqqa razvedka ekspeditsiyalarini uyushtirib turdi. Ushbu ekspeditsiyalar nafaqat Rossiyaning mintaqadagi siyosatining davomi, shu bilan birga ushbu siyosatning bir qismi va harakatlantiruvchi kuchi edi. Ushbu ekspeditsiyalar tarkibiga A. N. Kuropatkin (1848–1925)ning 1877-yildagi missiyasi kiradi[1360]. 1883-yilda Xitoy bilan chegara aniqlanganda, Rossiya imperiyasining tarkibiga kirgan Farg'ona va Yettisuv viloyatlari har uch yilda bir marta Xitoy hamda Rossiya ma'muriyatlari vakillari tomonidan nazorat qilinib, chegara belgilarini yangilab turishlari ko'rsatildi. Leytenant B. L. Grombchevskiy (1855–1905) birinchi marta 1885-yilda bunday sayohatga chiqib, bu haqda batafsil hisobot taqdim etgan. Keyinchalik ko'plab sayohatchilar ushbu razvedka ekspeditsiyalarining yuqori aniqligi bilan ajralib turadigan kartografik va marshrut ma'lumotlaridan foydalanganlar.

1867–1869-yillarda Nikolay Mixaylovich Prjevalskiy (1839–1888) Ussuriya mintaqasiga birinchi marta sayohat qilgan edi. 1870–1880-yillar davomida ushbu sayyoh Markaziy Osiyoga jami 30.0000 ming kilometrdan ortiq masofani bosib o'tgan to'rtta ekspeditsiyani amalga oshirdi. 1870–1873-yillarda N. M. Prjevalskiy Mo'g'uliston, Xitoy va Tibet, 1876–1877-yillarda Jung'oriya hamda Lopnorga ko'li atroflari, 1879–1880-yillarda birinchi, 1883–1885-yillarda esa ikkinchi marta Tibetga ekspeditsiya uyushtirgan edi[1361].

Ushbu ekspeditsiyalarning ilmiy natijalari o'rganilgan hududlarning tabiati, iqlimi, relefi, florasi hamda faunasi haqida batafsil va yorqin tasavvur beradigan bir qator kitoblarda nashr etilgan. N. M. Prjevalskiy o'zining sayohatlarini kamtarona ravishda "ilmiy razvedka" deb atagan. Chunki, u ilgari hech bir tadqiqotchi bo'lmagan Osiyodagi mintaqalarga tashrif buyurgan. Mazkur olim yevropaliklarga Markaziy Osiyoga yo'l ochib, ushbu mintaqaga qiziqish uyg'otgan va shu bilan yirik va muntazam ekspeditsiyalarni amalga oshirishga ko'maklashgan.

[1360] Куропаткин А. Н. Очерки Кашгарии генерального штаба подполковника А. Куропаткина. СПб., 1878.
[1361] Пржевальский Н. М. Четвертое путешествие в Центральную Азию. От Кяхты на истоки Желтой реки. Исследование Северной окраины Тибета и путь через Лоб-Нор по бассейну Тарима. СПб., 1888.

1879-yilda botanik A. E. Regel ekspeditsiya tarkibida G'ulja, Turfon va Turkiston mintaqalariga asosan, tabiatshunoslikni o'rganish maqsadida tashrif buyurgan edi[1362]. Shunga qaramay, mazkur olim o'z hisobotida sayohat natijalari qatorida "Turfan, Sanji va Manas yaqinidagi qadimiy, aftidan, oriy xarobalari topilmalari" haqida ma'lumotlar qoldirgan[1363]. U ba'zi arxeologik joylarning rejalari, shu jumladan, qadimiy Idikut-shariy turar joyini tasvirlagan. S. F. Oldenburg A. Ye. Regelni Sharqiy Turkistonning qadimiy asarlariga e'tibor bergan birinchi rus olimi sifati ta'riflagan edi[1364].

Sharqiy Turkiston mintaqasi Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi qadimiy aloqa zonasi sifatida haqiqiy ahamiyatini birinchi bo'lib I. P. Minaev ko'rsatib bergan edi[1365]. Mazkur olim Sharqiy Turkistonga batafsil arxeologik ekspeditsiyani jihozlash zarurligi to'g'risida gapirib, "Lobnordan Xo'tangacha bo'lgan butun mintaqa tarixiy va arxeologik jihatdan maxsus qidiruvlarni kutayotganini" ta'kidlagan edi.

N. M. Prjevalskiyning ishini uning shogirdlari va izdoshlari davom ettirdi. Ular orasida M. V. Pevsov (1843–1902), V. I. Roborovskiy (1856–1910), G. N. Potanin (1835–1920), P. K. Kozlov (1863–1935), G. Ye. Grumm-Grjimaylo (1860–1936) va boshqalarning nomini alohida ko'rsatish mumkin.

Ular orasida M. V. Pevsovning 1889–1890-yillardagi Tibetga amalga oshirgan ekspeditsiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotchi uch oy davomida Sharqiy Turkiston hamda Tibetga oid ko'plab manba va tadqiqotlar, jumladan, N. Ya. Bichurin, K. Ritter, Ch. Ch. Valixonov, R. B. Shou, T. D. Forsayt, G. V. Bellyu, A. N. Kuropatkin, N. M. Prjevalskiy, B. L. Grombchevskiy, N. L. Zelanda hamda N. F. Petrovskiy asarlarini chuqur o'rganib chiqqan edi[1366].

O'rta Osiyo, xususan, Mo'g'ulistonni o'rganishga katta hissa qo'shgan yana bir tadqiqotchi G. N. Potanindir. U 1876–1877 va 1879–1880-yillarda g'arbiy Mo'g'uliston va Tuva, 1884–1886 va 1892–1893-yillarda Shimoliy Xitoy, Sharqiy Tibet va Markaziy Mo'g'uliston, 1899-yilda esa Buyuk Xinganga sayohat qilgan. Ushbu olimning faoliyatida tabiatni tadqiq etish etnografiyani o'rganish bilan uyg'unlikda amalga oshirilgan. G. N. Potanin bir

1362 Regel A. Reisen in Central-Asien. 1876 - 1879. Mit. Bd. 25. SPb., 1879; Mit. Bd. 26. SPb., 1880; Regel A. Meine Expedition nach Turfan, 1879. Mit. Bd. 27. SPb., 1881.

1363 Регель А. Э. Путешествие в Турфан. Читано в Отделении математической и физической географии ИРГО. 10 марта 1881 г. Отд. оттиск из Известий ИРГО за 1881 г. Т. 17. Вып. 4. С. 16.

1364 Ольденбург С. Ф. Русские археологические исследования в Восточном Туркестане // Казанский музейный вестник. 1921. № 1–2. С. 25.

1365 Минаев И. П. Забытый путь в Китай. [Рец. на:] Четвертое путешествие в Центральной Азии. От Кяхты на истоки Желтой реки, исследование северной окраины Тибета и путь через Лобнор по бассейну Тарима Н. М. Пржевальского. СПб., 1888 // Ж.МНП. Ч. 264. 1889, № 7. Отд. II. С. 177.

1366 Певцов М. В. Путешествие по Восточному Туркестану, Кун-Луню, северной окраине Тибетского нагорья и Чжунгарии в 1889 и 1890 гг. СПб., 1895. С. 10–11.

qator asarlarida mo'g'ul va turkiy xalqlarning madaniyati hamda folklori bo'yicha materiallarni qoldirgan[1367].

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Sharqiy Turkistonni o'rganilishida muhim bir davr hisoblanadi. Aynan ushbu davrda amalga oshirilgan bir nechta arxeologik eskpeditsiyalar natijasida avval fanga noma'lum bo'lgan ko'plab yangi moddiy manbalar aniqlandi. Natijada, Sharqiy Turkiston mintaqasiga doir bilimlar to'plana boshlandi.

Bunday arxeologik ekspeditsiyalarning birinchisi 1898-yilda D. A. Klemens[1368] boshchiligida amalga oshirildi va asosan, Turfon hududini kompleks ravishda o'rganilishga kirishildi. Ekspeditsiya natijalari D. A. Klemens tomonidan maxsus hisobot tarzida 1899-yilda nemis tilida chop etilgan[1369]. Ushbu hisobot natijalari keyingi ekspeditsiyalar uchun muhim dasturul-amal bo'lib xizmat qilgan[1370]. Bundan tashqari, ekspeditsiya natijalari markazi hisoblangan Peterburgda O'rta va Sharqiy Osiyoni tadqiq qilish xalqaro markazi faoliyatini boshlash uchun ham turtki bo'lgan.

1900-yilda "Rus arxeologiya jamiyati" Tarim havzasida uch yilga mo'ljallangan katta ekspeditsiya o'tkazishga qaror qildi. Natijada, tadqiqot hududiga nafaqat Xo'tan, shu bilan birga Kucha, Turfon va Sharqiy Turkistonni boshqa hududlari ham kiritildi[1371]. Mazkur davrda Sharqiy Turkiston, Tibet va Tyan-Shanni o'rganishga nafaqat rus olimlari, shu bilan birga nemis, ingliz, fransuz, shved, yapon va xitoy tadqiqotchilari ham katta mablag'lar ajratgan edi[1372].

Mazkur davrda Sharqiy Turkiston va Tibetni o'rganish bo'yicha asosiy tadqiqotlar Rus jamiyati boshchiligida amalga oshirildi. 1903-yil 1-noyabrda Komitet S. F. Oldenburgning "D. A. Klemens boshchiligida Turfon va Kuchaga arxeologik espeditsiya tashkil etish" to'g'risidagi so'rovini ijobiy qabul qildi. Natijada, A. V. Grigorev, D. A. Klemens va S. F. Oldenburglar rahbarligida maxsus komissiya tuzildi. 1904-yilda esa Turfonga S. M. Dudin, Kuchaga va M. M. Berezovskiylar boshchiligida ekspeditsiya jo'natishga qaror qilindi[1373]. Keyinchalik P. S. Popov tomonidan xitoy manbalaridagi Kucha to'g'risidagi

---

[1367] Потанин Г. Н. Очерки северо-западной Монголии в четырёх томах. СПб., 1881-1883; Shu muallif. Пи-Лин-Сы. (Отрывок из путевых заметок о северо-восточном Тибете) // Исторический вестник. 1892. Т. 48. № 5. С. 390–405; Shu muallif. Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. М., 1899.

[1368] Д. А. Клеменц как археолог // Советская археология. 1963. № 4.

[1369] Klementz D. A. Turfan und seine alterhümer // Nachrichten über die von der Kaizerlichen Akademie der Wissenschaften zu St. Petersburg im Jahre 1898 ausgerüstete Expedition nach Turfan. Hf. 1. SPb., 1899.

[1370] Могилянский Н. Памяти Д. А. Клеменца // Материалы по этнографии России. №2. Пг., 1914.

[1371] Весселовский Н. И., Клеменц Д. А., Ольденбург С. Ф. Записка о снаряжении экспедиции с археологической целью в бассейн Тарима / ЗВОРАО. 1901. Т. 13. С. 9–18.

[1372] Рагоза А. Н. К истории сложения коллекции рукописей на среднеазиатских языках Восточного Туркестана, хранящихся в рукописном отделе ЛО ИВАН СССР. Письменные памятники Востока. Ежегодник. 1972. М., 1973. С. 250; Литвинский Б. А. Проблемы древней истории и культуры Восточного Туркестана в отечественной и зарубежной науке. НАА. 1982. №1. С. 69-78.

[1373] Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии. СПб.-Пг., 1903–1910. №4. С. 3.

ma'lumotlar to'plandi va "Kucha to'g'risidagi qaydlar" nomi bilan nashr etildi[1374].

Sharqiy Turkiston va Tibetni o'rganish Sovet davrida ham davom etdi. 1923–1926-yillarda P. K. Kozlov[1375] tomonidan Mo'g'uliston va Tibet ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirilib, uning asosiy yutug'i Noin-Ula qabrlarini qazib o'rganish bo'lgan. Bir qator ilmiy-ommabop kitoblar va ilmiy-fantastik romanlarda sayohatlarini tasvirlab bergan Vladimir Afanasevich Obruchev (1863–1956)ning asarlari Sibir, Markaziy va O'rta Osiyo geografiyasi hamda geologiyasini o'rganish uchun juda katta ahamiyatga ega edidir[1376].

Sovet davri tadqiqotlarida Sharqiy Turkiston va Tibetning o'rganilish tarixi B. A. Litvinskiyning asarida[1377] yaqqol ifodasini topgan. Ushbu asar Sharqiy Turkiston hamda Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlanib, unda ushbu mintaqalardagi xalqlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy hayoti haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

M. Kutlukovning asarida[1378] ham Qo'qon va Sharqiy Turkistonning o'zaro aloqalari masalasi yoritilgan. Ushbu muallifning mavzuga oid barcha tadqiqotlarida nafaqat Xitoy, shu bilan birga Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo qo'lyozma asarlaridan ham keng foydalanilganligini kuzatish mumkin. Biroq, u ham Qo'qon va Xitoy o'rtasidagi siyosiy aloqalar masalasiga katta e'tibor berib, ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalarini nazardan chetda qoldirgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Sharqiy Turkiston va unga yondosh hududlarning boshqa hududlar bilan aloqasi tarixi o'rganildi. Masalan, tadqiqotchi Sh. Qo'ldoshevning "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII–XIX asrning o'rtalari)"[1379] nomli dissertatsiyasida Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkistonning o'zaro elchilik aloqalari muhim manbalarga asoslangan holda yoritib berilgan.

Ma'lumki, XVIII–XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari alohida fundamental tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Aksariyat ilmiy adabiyot va tarixiy manbalarda Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistonni o'z ta'sir doirasiga olish uchun doimiy ravishda Xitoy bilan urush harakatlarini olib borganligi qayd etilgan va Sharqiy Turkiston hududiga egalik qilish masalasi ushbu ziddiyatli

---

[1374] Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии. СПб.-Пг., 1903-1910. №4. С. 15–20; №5. С. 3–7.

[1375] Житомирский С. В. Исследователь Монголии и Тибета П.К. Козлов. М.: Знание, 1989. 192 с.

[1376] Обручев В. А. Путевые дневники, касающиеся Центральной Монголии, Джунгарии и горных систем Бэйшаня, Наньшаня, Восточного Тянь-шаня и Цзинлишаня // Центральная Азия. Северный Китай и Наньшань: отчет о путешествии, совершенном по поручению Русского географического общества в 1892–1894 гг. СПб., 1901. Т. 2. 689 с.

[1377] Литвинский Б. А. Восточный Туркестан и Средняя Азия. История. Культура. Связи. М., 1984. 76 с.

[1378] Кутлуков М. Взаимоотношения Цинского Китая с Кокандским ханством // Китай и соседи. М.: Наука, 1982. 454 с.

[1379] Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII–XIX асрнинг ўрталари). Тошкент, 2009. 9–10-бетлар.

holatning asosiy sababi qilib ko‘rsatilgan. Mazkur tadqiqotda, bildirilgan umumiy fikrlardan farqli o‘laroq, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyati aniqlashtirilib, o‘zaro aloqalarning taraqqiyoti izchil bo‘lmaganligi ko‘rsatib berilgan.

Qayd etilganidek, hudud va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda etnografik hayotiga oid ma’lumotlar juda ham ko‘p. Ushbu manba va ma’lumotlar tahlil qilinsa hamda yangi takliflar kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu manbalarni tahlil qilishda asosiy e’tiborni o‘sha davrning siyosiy holati, xalqlarning milliy o‘zlikni anglash jarayoni, o‘zaro aloqalari vaziyatga baho berishda xolislik, haqqoniylik hamda tanqidiy tahlilga e’tibor qaratish kerak.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sharq qo‘lyozmalarini tadqiq etish instituti qachon tashkil etilgan?
2. Yurtimizning XV asr tarixiga oid manbalarni sanab bering.
3. Ushbu davr tadqiqotchilari haqida ma’lumot bering.
4. Sharqshunos A. A. Semyonov faoliyatini gapirib bering.
5. Turkman, tojik, qirg‘iz, qozoq va qoraqalpoqlar tarixga oid qanday asarlarni bilasiz?
6. Afg‘on xalqi tarixshunosligi haqida ma’lumot bering.
7. Buxoro xonligi (amirligi) tarixnavislik maktabi qanday shakllangan?
8. Qo‘qon xonligi tarixidan hikoya qiluvchi asosiy manbalar haqida ma’lumot bering.
9. Xiva xonligi tarixnavislik maktabi asoschilari va yorqin vakillari haqida ma’lumot bering.
10. Shayboniylar davri haqida xabar beruvchi manbalar to‘g‘risida ma’lumot bering.

# 8-MAVZU: ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

***O'quv maqsadi:*** *Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati, rus olimlari asarlarida mustamlakachilik g'oyalari va ushbu siyosatning tarixiy bilimlar rivojiga ta'siri bilan tanishtirish. Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik kurashining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, tarixni o'rganishda hukmron mafkura ta'sirining mavjudligi, shovinizm va sovet davri tarixshunosligi mohiyatini tushuntirish. Qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman xalqlarining mustamlakachilik davridagi hayoti; afg'on hamda Sharqiy Turkiston xalqlari tarixiga oid yaratilgan adabiyotlarning mazmuni bilan tanishtirish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Shovinizm, mustamlakachilik, imperiya, mustamlaka, sovet tarixshunosligi, 1916-yil qo'zg'oloni, mafkuraviy yondashuv, N. I. Veselovskiy, milliy tuyg'u, mustaqillik davri adabiyotlari.*

## Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik siyosati masalalarining yoritilishi

Ma'lumki, XIX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik harakatlarini jadal olib bordi. Bosqinchilik harakatlari nafaqat rus harbiy va rasmiy manbalari, shu bilan birga ko'plab mahalliy muarrixlarning asarlarida ham saqlanib qolgan. Ularni o'rganish va tahlil qilish natijasida ushbu davrga oid ko'plab muhim ma'lumotlarga ega bo'lish imkoni yaratiladi.

Mazkur davrda yaratilgan "Афзал ат-таворих", "Тарихи Умархон", "Рисолаи аскария", Hakimxon To'raning "Мунтахаб ут-таворих", Mulla Niyoz Muhammadning "Тарихи Шоҳруҳий", Avaz Muhammad Attorning "Тарихи жаҳоннамойи", Muhammad Solihning "Тарихи жадидайи Тошканд", Mullo Yunus Munshiyning "Амир Лашкар Алимқул тарихи" kabi asarlar Qo'qon xonligi[1380]; "Тухфат ул-хоний", "Тарихи амир Ҳайдар", "Фатҳномайи султонийа", "Манғитлар сулоласи тарихи", "Ўзбек подшоҳликлари зикри", Мирзо Абдулазиз Сомийнинг "Тарихи салотини манғития", "Шажарайи Хусрави Комкор" номли асарлар Бухоро амирлиги;

[1380] Муҳаммад Ҳакимхон Тўра ибн Маъсумхон Тўра. Мунтахаб ут-таворих (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / Форс-тожик тилидан Ш. Воҳидов таржимаси. Тошкент, 2010. 721 б.

Муниснинг “Фирдавс ул-иқбол”, Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг “Риёз уд-давлат”, “Зубдат ут-таворих”, “Жомеъ ал-воқиоти султоний”, “Гулшан уд-давла”, Баёнийнинг “Шажарайи Хоразмшоҳий”, “Хоразм тарихи” ва “Иқболи Ферузий” каби тарихий асарлар Хива хонлиги тарихига оиддир.

Rus qo‘shinlarining Qo‘qon xonligiga dastlabki harbiy yurishlari mahalliy tarixchi Is’hoqxon Ibratning[1381] “Тарихи Фарғона” asarida batafsil tasvirlangan[1382]. Mazkur asarning avvalida “Ammo ba’d, bu bandai Xudo va ummati Mustafo alkan ul-lisoni, notavon, a’no Qozi Is’hoqxon sokini qal’ai Xon, a’no To‘raqo‘rg‘on min muzofoti Farg‘ona va az iqlimi Turkiston, bu tariqa ayon va bu tarzda bayon qilur...” jumlasidan ma’lumki, Ibrat ushbu asarini qozilik davri (u 27 yil davomida To‘raqo‘rg‘on qozisi lavozimida faoliyat olib borgan)da yozgan. Mazkur tarixiy asarda asosan, o‘zbek davlatchiligi rivojining oqsagan bosqichi, ya’ni xonliklarning tanazzulga yuz tutishi va rus bosqinchiligi kulfatlari keng tasvirlanadi. Asar 1916-yilda yozib tugallangan.

Ushbu asarda rus mustamlakachilik davriga oid ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Masalan “1281-hijriyda Turkiston va Avliyo ota Russiya tasarrufiga o‘tdi. Andin Chimkandg‘a qasd etg‘oni amirlashkarg‘a eshitildi. Ho‘qand askari bilan qish vaqtida Chimkandg‘a keldi, unda Rusiya askari Turkistondan chiqqani yo‘q ekan... Amirlashkar Turkistonga borib, urush qilmoqchi bo‘lib Qo‘qonga bordi. Turkistondan Rusiyaga hech pisand bo‘lmay, ahamiyat bir oz soldat ila urushga kirdi”[1383].

Ibrat Toshkent uchun bo‘lgan jang haqida yozar ekan, “Toshkand tashinda muhosarasindagi Rusiya askari ikki ming miqdorinda bo‘lub, qirg‘iz-qazoq qo‘shulub, ko‘b edi. Bu muhorabada islomdan ko‘b odam nobud bo‘lub, Rusiyadan talofot bir yuzga yetmas edi, deydilar”[1384]. Ya’ni, Toshkent uchun bo‘lib o‘tgan jangdan ko‘plab musulmon mahalliy aholi vakillari nobud bo‘lgan.

Ibrat rus bosqini davrida Xudoyorxonning mamlakatni himoya qilish o‘rniga maishatga berilganini tanqidiy tarzda ochib berdi. Asardagi ma’lumotlarga ko‘ra, “Xudoyorxon Rusiyadan xotirjam bo‘lub, vaqtini o‘yin-kulgi ilan o‘tkarub, qush solmak va ko‘kbo‘ri chopmoq yo‘llarinda ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, zulm va jabr tarafiga o‘tub turganda, raiya, xalq yuz o‘gurub turganida Musulmonqulni(ng) o‘g‘li oftobachi mulla

---

[1381] **Is’hoqxon To‘ra Ibrat** (1862–1937). Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg’on qishlog’ida tug’ilgan. O‘z faoliyatini o‘qituvchi sifatida qishloqda ma’rifat tarqatish bilan boshladi. Qishloqda mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi. U 1887-yilda haj safariga otlanadi. Istanbul, Sofiya, Afina va Rim kabi markaziy shaharlarida bo‘lib, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombey va Kalkuttada yashaydi. U arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgangan. U 1896-yilda o‘z vataniga qaytib kelib, 1901-yilda “Луғати ситта-алсина” asarini chop etadi. 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag’ishlangan “Жомеъ ул-хутут” asarini yozadi. Keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy va lingvistik asarlar yozadi hamda “Девони Ибрат” she’rlar to‘plamini tuzgan edi. Tarixga oid “Тарихи Фарғона”, “Тарихи маданият” va “Мезон уз-замон” ilmiy asarlarini yaratgan.

[1382] Бабаджанов Б. Русская колонизация Центральной Азии: взгляд местных интеллектуалов. Париж: Institut Franзais d’Йtudes sur l’Asie Centrale, 1976. С. 11-22.

[1383] Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/166-tarixi-fargona.html

[1384] Shu joyda.

Abdurahmon vaqt g'animat deb, atosini(ng) intiqomini olmoq qalbindan chiqqan yo'q edi"[1385].

Muarrixning fikriga ko'ra, rus imperiyasi zobitlari mahalliy xalqlarni o'z xizmatiga olish uchun ularga manfaatli takliflar berib turgan. Masalan, "Rusiya katta podshohdur, sizlar urusholmaysizlar, yaxshi turub fuqarolik qilsalaringiz, sizlarni boy qiladur, agar janjal chiqarsalaringiz mana shunga o'xshagan otuv qiladur. Fuqarolarga aytinglar, siz(ga) podshohdan in'om beriladur"[1386].

1875-yil oktabrda Namangan shahri va uning atroflari Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingan va rus bosqinchilarning o'ta shafqatsizligi "Тарихи Фарғона" asarida[1387] ro'y-rost ochib berilgan. Ibratning yozishicha, To'raqo'rg'onga kirgan rus soldatlari qochganlarni ham, qocholmay qolganlarni ham otavergan. Yoki Golovachev boshliq askarlar Namangan shahrida bir kun qatli om qilgan, hatto masjid va xonaqohdagilarni ham qirib tashlagan. Is'hoqxon Ibrat o'sha davr voqealarining guvohi bo'lgan.

1864-yil oktabrda rus qo'shinlari Toshkent shahriga dastlabki hujumni uyushtirgan edi. Mana shu voqealar, keyinchalik Toshkentning bosib olinishi Mirzo Olim Toshkandiyning "Тарихи Туркистон"[1388] va Muhammad Solih Toshkandiyning "Тарихи жадидайи Тошканд" asarlarida batafsil bayon qilingan.

"Тарихи Туркистон" asarida ruslarning Oqmasjid qal'asini egallanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ularga asosan, "1853-yilda Oqmasjid graf Perovskiy tomonidan bosib olinadi. Qal'a hokimi To'raqul (Abdu Vali) va qal'a himoyachilari halok bo'lishadi. Qamal davomida 30 nafar qo'qonlik, hujum vaqtida esa 212 kishi halok bo'lgan, shulardan 4 nafar ayol, 2 nafar bola 217 nafar yaralanganlar bilan birga ruslar tomonidan asir olingan. Bu vaqtda Xudoyorxon Yom va Zomin qal'alarini o'z tasarrufiga kirgizib, Qo'qonga qaytadi. U tez orada lashkar yig'ib, bir necha ponsod qo'shinni Karim shayx ponsadboshi ibn Abu Ubayd boshchiligida Toshkentga yubordi va Shodmonxo'ja lashkarboshchiligida Oqmasjidga borishlarini buyuradi. Shodmonxo'ja 1853-yilda yozda Toshkent va Qurama lashkari hamda Qo'qon qo'shini bilan ruslarga qarshi chiqmoqchi bo'lib, Turkistonga keladi. Keyinroq Oqmasjid oldidagi urushda mag'lub bo'lib, qayta Turkistonga, u yerdan Toshkentga qaytadi. Xudoyorxon Qo'qon lashkarboshilarini qo'rqoqlik va jangdan qochishda ayblaydi. Qo'qonga qaytgan Shodmonxo'ja, Sarimsoq dodxoh va Muhammad Karim shayxlarga O'rda maydonida ayollarning kiyimi kiydirib qo'yiladi. Ular tahqir qilinib, so'ng o'z qo'shinlariga yuboriladi"[1389].

---

1385 Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/166-tarixi-fargona.html.

1386 Shu joyda.

1387 Ибрат И. Тарихи Фарғона. ЎзР ФА ШИ. Қ. Инв. № 11616.

1388 Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/232-turkiston-tarixi.html.

1389 Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/232-turkiston-tarixi.html.

Mazkur matndan ham anglash mumkinki, Xudoyorxon ruslarning harbiy kuchini baholashda biroz shoshgan va natijada, tez orada Oqmasjid qal'asini qo'ldan boy bergan.

Olim Maxdum Toshkentning ishg'ol etilishi haqida yozar ekan, mahalliy aholi va sarbozlarning shaharni dushman hujumidan mudofaa qilganliklarini shunday tasvirlaydi: "Qo'shfarmonchi Qipchoq boshchiligidagi askarlar Qo'qon darvozasi, Mirzo Ahmad Qushbegi sarbozlari Qashqar darvozasi, orasidagi devor ustiga o'rnashdilar. Mudofaaga barcha shahar aholisi otlanib, g'ariblar, fuqarolar, qariyalar, hatto ibodati namozdan ko'ra qo'limizdan kelgancha xizmat qilish yaxshi va savob deb, mujohidlar va g'oziylarga suv hamda oziq-ovqat yetkazib turdilar"[1390].

Ruslarning 1864-yil oktabrdagi yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Ularning keyingi harbiy yurishi 1865-yilining may oyida boshlangan. Toshkent mudofaasini tashkillashtirishda sarkarda Alimqulning xizmatlari katta bo'ldi. U 8-may kuni o'zining katta qo'shini bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keldi. 1865-yil 9-may kuni ikki tomon kuchlari to'qnashdi. Jang kutilgandan ham og'ir va shiddatli kechdi. Ushbu voqealarni Mirzo Olim Toshkandiy o'zining "Тарихи Туркистон" asarida quyidagicha tasvirlaydi: "Bir necha kundan keyin Rusiya askarlari Toshkand ustiga kelib, qaytadan Ho'qand darvozasidan hujum qila boshladilar. O'sha vaqtda Toshkand shahrining tamom atrofini aylantirib, bino qilingan qalin va baland qo'rg'on, tashqari atrofida zovur qazilgan va o'n ikki darvozasi bor edi"[1391].

Ushbu jangni o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Solih Toshkandiy "Тарихи жадидайи Тошканд" nomli asarida bo'lib o'tgan voqealarni quyidagicha tasvirlaydi: "Butun osmonni tutun va chang qoplab oldi, nihoyat ruslar yaqindagi tepalik tomon chekinib, mudofaaga o'tishga majbur bo'ldilar. Qamalda yotgan shaharliklar buni ko'rib, juda quvondilar. Yetti yashar boladan tortib, yetmish yashar chollargacha g'alabani qutlab, sarbozlarga ovqat, sharbat, issiq non, mevalar keltirib turdilar. Lekin, o'rus qo'shinlari o'zlarini o'nglab, qayta hujumga o'tib, Toshkand qo'shinlarini orqaga chekintirdi"[1392].

Mualliflarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, dahshatli jang shunday qizib ketgan ediki, yeru ko'k larzaga keldi, butun osmon chang bilan qoplandi, odamlar qaerda-yu qurollar qaerda ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoldi. Nihoyat, toshkentliklar yengilib, qocha boshladilar. Alimqulga o'q tegib, halok bo'ldi. Shahar ruslar tomonidan 15 iyunda deyarli egallab bo'lindi.

Toshkent ruslar tomonidan bosib olingach, Rossiya imeriyasining Turkiston masalasiga daxldor harbiy-siyosiy masalalarini hal qiladigan va rus qarorgohi xizmatini bajaruvchi makonga aylantirila boshlandi. Toshkent O'rta

---

[1390] Shu joyda.
[1391] Shu joyda.
[1392] Султонов У. Муҳаммад Солиҳхўжанинг "Тарихи жадидайи Тошканд" асари – муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тошкент, 2007. 89–112-бетлар.

Osiyoni mustamlakaga aylantirish hujumlarini ijro qiluvchi tayanch, o‘z navbatida harbiy-siyosiy ma’muriy markaz xizmatini bajardi.

Avaz Muhammad Attorning “Тарихи жаҳоннамойи” asarida ham ruslarga qarshi olib borilgan janglarning tafsilotlari yoritib berilgan. Mazkur asardagi ma’lumotlar o‘zining batafsilligi bilan “Тарихи Туркистон” va “Тарихи жадидаи Тошканд”dan ajralib turadi. Shuningdek, muallifning bosqinchilarga bo‘lgan nafrati asarda ham o‘z ifodasini topgan.

Toshkentning ishg‘ol etilishi to‘g‘risida shunday ma’lumotlar beradi: “Piyoda islom askarlari imkon qadar kofirlarga qarshi kurashib, murodsizlikdan tushkunlikka tushgan holda nobakorlar o‘qidan halok bo‘laverdilar. Ular (o‘ruslar) 1281-yil jumod ul-avval oyining uchinchisida, seshanba kuni Chimkent qal’asiga kirib, behisob bedodlik va yovuzlikni musulmon ahliga ravo ko‘rdilarkim, bu ishlarga aql bovar qilmaydi. Ba’zi shohidlarning guvohligiga qaraganda, o‘ruslar urushdan so‘ng shahid bo‘lgan musulmonlarning jasadlarini sanab chiqqan ekanlar. Aytishlaricha, kattayu kichik, erkak va ayollardan 1376 kishi maqtul bo‘lgan. Sipohning hamma asbob-aslahasi, bir qancha g‘alla to‘la ombor kofirlar qo‘liga o‘tdi. Yana ular vaqtni boy bermay, qochoqlarni ta’qib etib, Toshkand viloyatiga yetib kelib, Toshkand qal’asini qamal qilishdi. Bir necha kun dam olishgandan so‘ng shaharga yaqinlashib, shunday yovuz bosqinchilik qildiki, Odamzod aqli kofirlarning bunday jur’atiga hayron qoldi”[1393].

“Тарихи жаҳоннамойи” asarida Amirlashkar Alimqulning o‘limi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, “1281-yil, zul-hijjaning 26-kunida kofirlar safidan bir o‘q otildi va u Mulla Alimqul amir lashkarga tegib, uni yarador qildi va u otdan yiqilib tushdi. Shul sabab, lashkari islom parokandalikka tushib, hamma o‘z joninin o‘ylab, parishonlikka berildi. Sarbozlar janobi amirlashkarni otga mindirib, ḥamma asbobu yarog‘, to‘pu to‘fanglarni olib Toshkand qal’asiga yetib keldilar. Alimqul amirlashkar hushdan ketib yotgan edi. Hoziq tabiblar va komil jarrohlarni topib keldilar. Ular amirlashkarning jarohatini ko‘rub, muolajaga ojiz edilar. Uning ahvoli har dam og‘irlashardi. Insonning tadbirkorligi taqdir oldida zaif edi va har soatda o‘lim alomati uning yuzida zohir bo‘lardi. Buni hamma ko‘rib turardi”[1394].

Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmi davri tarixi Mirzo Salimbekning “Тарихи Салимий” asarida o‘z aksini topgan bo‘lib, muallifning to‘liq ismi-sharifi Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahimdir.

Mirza Salimbek amir Muzaffarning farmoyishi bilan Toshkentga rus ma’murlarining xatti-harakati va ayniqsa, Buxoro xususida tutgan siyosatini kuzatib boruvchi qilib yuborildi. U 12 yil davomida Toshkentda yashagan va shundan so‘ng 1880–1883-yillarda amir huzurida, 1884–1885-yillarda esa

---

[1393] Аваз Муҳаммад Атторнинг “Тарихи жаҳоннамойи”. Электрон манба: http://www.e-tarix.uz/milliyat-insholari/362-tarixi-jahonnamoi.html.
[1394] Shu joyda.

Turkiston general-gubernatori huzurida Buxoro vakili bo‘lib ishlagan edi. Keyinchalik, ya’ni XX asrning 20-yillaridan Buxoroda tashkil etilgan “Анжумани тарих” (“Тарихшунослар жамиятида”)da xizmat qiladi.

Mirzo Salimbek “Кашкули Салимий”, “Жомеъ ул-гулзор”, “Каъб ал-ахбор ҳикоялари”, “Ҳикояти Абдулла ибн Муборак”, “Тарихи Салимий”kabi asarlar muallifidir.

Mirzo Salimbek o‘z asarlarida XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro munosabatlariga to‘xtalgan bo‘lsa-da, bosqin davridagi mahalliy aholi ahvolini kam yoritgan. U Buxoro xonligiga qarashli, ruslar bosib olgan shaharlarni sanash bilan cheklangan. Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko‘lob, Baljuvon, Qorategin va Darvozda bo‘lgan isyonlar, Buxoro-Qo‘qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, amirlikning XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va ma’muriy tuzilishi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

N. Norqulovning[1395] fikriga ko‘ra, mazkur asar XX asrning 20-yillarida yozilgan va uning dastlabki qismi Chingizxondan tortib to amir Muzaffar davrigacha bo‘lgan tarixni umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860–1920-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan kattagina qismi esa butunlay yangi bo‘lib, muallifning o‘zi ushbu voqealarning guvohi bo‘lgan[1396].

Buxoro xonligining ko‘rib chiqilayotgan davrdagi tarixi Mirzo Abdulazim Somiyning “Тарихи салотини Манғития”[1397] (“Mang‘it sultonlarining tarixi”) asarida batafsil tasvirlangan. Mazkur tarixchi amir Muzaffarning shaxsiy kotibi bo‘lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligi (1885–1910 yy.)ning so‘nggi, ya’ni taxminan 1898 yoki 1899-yillarda podshohlikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochor holda o‘tkazadi. Mirzo Abdulazim Somiy “Туҳфайи шоҳий” va “Тарихи салотини Манғития” kabi ikki tarixiy asarning muallifidir. Ushbu asarlar Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag‘ishlangan. “Туҳфайи шоҳий” qisman to‘laroq, lekin oliy hukmdorni maqtash ruhida yozilgan bo‘lsa, “Тарихи салотини Манғития” esa unga nisbatan xolisona yondashilganligi bilan farqlanadi.

Asardan XIX asrning tarixiy voqealari, 1866–1868-yillardagi Rossiya-Buxoro urushi va Samarqandga rus qo‘shinlari hujumi oldidan Oqtepa qishlog‘ida bo‘lgan harbiy kengashga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Mirzo Abdulaziz Somiy boshqa zamondoshlariga qaraganda, ushbu davr voqealarini mufassalroq tasvirlaydi va jamiyatdagi turli siyosiy guruhlarning faoliyati natijalarini bayon qiladi. Jumladan, mazkur asarda 1868-yil aprelda amir Samarqand begi etib tayinlagan Sherali inoqning zulmiga qarshi xalq qo‘zg‘olonini mufassal yoritilgan.

---

[1395] Мирза Салимбек о бухарских событиях 1918 года // ОНУ. 1967. № 4. / Пер. Н. К. Норкулова.

[1396] Салимбек Мирза. Тарих-и Салими. Ташкент: Akademiya, 2009.

[1397] Мирзо Абдулазими Соми. Таърихи салотини Мангитийа (История Мангытских государей) / Изд. текста, предисл. и примеч. М. М. Епифановой. М.: Наука, 1962. 178 с.

Kitobning qo‘lyozma nusxalari ko‘p bo‘lib, uni 1962-yilda M. M. Yepifanova forschadan tarjima qilib, nashr ettirgan edi[1398]. Olima haqli ravishda amirlik mag‘lubiyatining asosiy sababini uning texnikaviy-iqtisodiy qoloqligi bilan bog‘lagan. Muallifning qayd etishicha, Mirzo Abdulazim Somiyning ushbu asari kamchiliklardan ham xoli emas.

XIX asrda yozilgan Bayoniyning “Шажарайи Хоразмшоҳий” hamda “Хоразм тарихи” nomli asarlari Xorazm va O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda nodir manbalardan biridir[1399].

“Шажарайи Хоразмшоҳий”ning ikkita qo‘lyozma nusxasi ma’lum bo‘lib, birinchisi 1913-yilda ko‘chirilgan va 517 varaqdan iborat. Ikkinchisi 1914-yilda Muhammad Ya’qub tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, 508 varaqni tashkil etadi. Asar 1913-yilda yozib tugallangan va XX asrning oxirlarida Q. Munirov tomonidan chuqur tahlil qilingan.

“Шажарайи Хоразмшоҳий” asarida Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati, o‘zaro qabilaviy urushlar, taxt kurashlari, oddiy xalqning hayoti hamda Rossiya imperiyasining xonlikka qilgan harbiy yurishlari yoritilgan. Bayoniy rus zobitlari, xususan, Kaufman, Golovanov va Skobelev kabi bosqinchilarga nafratini ochiq bayon etgan.

Bayoniy Xivaning bosib olinishi haqida ko‘plab ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Mazkur tarixchi bevosita harbiy yurish haqida gapirar ekan, shunday yozadi: “Rusiya davlati mundin burun besh martaba Xorazm ustiga askar yuborib, alarning ba’zilari Xorazm yo‘lida tashnalikdin qirilib, ba’zilari Xorazmga borib urushub, qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg‘onlari yo‘q erdi. Bas, imferatur a’zam bu bobda tamomi arkoni davlati bila maslahat etib, ul tarafga bormoqg‘a qaysi yo‘l yaxshiroq erkanin ham bilmay, Xorazm ustiga to‘rt tarafdin askar yubormakni iltizom etdilar”[1400].

Xiva xoni va Kaufman o‘rtasida tuzilgan sulh haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Eltuzar inoq elchi bo‘lub Kaufmanning tarafiga ketdi, borib Kaufmanni ko‘rib nomani berdi. Kaufman noma mazmunidin ogoh bo‘lub, sulh so‘zin qabul etib dedi: “Ertang, xoningni olib kelgil. Bu yerda oning bila sulh qilib man ushbu yerdin qaytarman». Inoqbek shaharga qaytdi. Kaufman Galavachofga farmon yubordikim, Xevaq xoni qal’ani bizga berdi. Emdi to‘pu miltuq otmoqdin qo‘l saqlasunlar. Galavachof buyurdi: Rusiya askari to‘p va miltiq otmoqdin qo‘l saqladilar”[1401].

Mahalliy tarixchilardan tashqari turli sayohatchilar, harbiy espeditsiya a’zolari esdaliklarida ham hudud to‘g‘risida, mustamlaka arafasi va undan keyingi iqtisodiy-ijtimoiy hamda madaniy ahvoli yoritilgan. Masalan, Qo‘qon

1398 Мирзо Абдулазими Соми. Таърихи салотини Мангитийа.... 178 с.
1399 Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 104 б.
1400 Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий.... 38-б.
1401 Ko‘rsatilgan asar. 50-б.

xonligi va Farg'ona viloyati to'g'risidagi ma'lumotlar G. Potanin[1402], V. Xanikov[1403], A. Maksheyev[1404], V. Velyaminov-Zernov[1405], A. K. Geyns[1406], A. Fedchenko[1407], A. Nurekin[1408], A. F. Middendorf[1409], A. P. Xoroshxin[1410], N. Petrovskiy[1411], A. Kun[1412], M. Mixaylov[1413], N. Veselovskiy[1414], N. Engelgard[1415], V. V. Nalivkin[1416], M. Nalivkina[1417], S. Abdulg'afforov[1418], V. V. Grigorev[1419], L. Sobolev[1420], N. G. Malliskiy[1421], A. Bryanov[1422], A. Z. Validov[1423], L. A. Zimin[1424], S. A. Melik-Sarkisyan[1425], P.O. Kuznesov[1426] va boshqa manbalarda yoritilgan.

---

[1402] Потанин Гр. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина. 1830 г. // Военный журнал. 1831. № 4–5; Shu muallif. Показания сибирского казака Максимова о Кокандском владении // Вестник Императорского Русского географического общества. Т. 28. СПб., 1860.

[1403] Ханыков Б. Обозрение Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // Записки Императорского Русского географического общества. СПб., 1849. Вып. III (кн. III).

[1404] Макшеев А. Показания сибирских казаков Милюшина и Батирышкина бывших в плену у кокандцев с 1849 по 1852 гг. // Вестник Императорского Русского географического общества, 1856; Shu muallif. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890.

[1405] Веляминов-Зернов В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Императорского Русского географического общества, 1856. 4.18; Shu muallif. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммада Али до Худаярхана // Записки Восточного Отделения Русского археологического общества. Ч. IV. 1859.

[1406] Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве / Собрание литературных трудов. Т. II. СПб., 1869.

[1407] Федченко А. Объяснительная заметка к карте Кокандского ханства и прилагающих стран II Известия Русского географического общества. Т. VII. № 6. Пять недель в Кокане, 1870 // Сборник материалов о Русском Туркестане и странах Средней Азии. Ташкент, 1871. С. 244-318; Shu muallif. В Кокандском ханстве. СПб., Т. I. Вып. 7. 1875. Тед. 1-я;

[1408] Нурекин А. Очерк истории Коканда с 1841 по 1886 год // Туркестанские ведомости, 1871. № 35.

[1409] Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины / Перевод с немецкого В.И. Ковальского. СПб., 1872.

[1410] Хорошхин А. П. Очерки Ташкента // Туркестанские ведомости, 1873. №19; Shu muallif. Очерки Коканда // Сб. статей касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876.

[1411] Петровский Н. Очерки Кокандского ханства // Вестник Европы. 1875. Кн. 10.

[1412] Кун А. Очерк Кокандского ханства // Известия Императорского Русского географического общества. Т. VIII. 1876; Shu muallif. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. СПб., 1876; Shu muallif. Очерки Шагрисабского бекства // Записки Русского географического общества по отд. этнографии. Т. VI, 1880.

[1413] Михайлов М. Поход в Коканд в 1875 году // Туркестанские ведомости. 1884. № 3.

[1414] Веселовский Н. Рецензия. Краткая история Кокандского ханства / Составил В. Наливкин. Казань, 1886. 41-215 // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. СПб., 1886. Т. I.

[1415] Энгельгард Н. Очерки Коканда // Туркестанские ведомости. 1886. № 4.

[1416] Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. Ред. А. И. Булдаков, С. А. Шумов, А. Р. Андреев. М., 2003.

[1417] Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886.

[1418] Абдулгаффоров С. Краткий очерк Кокандского ханства // Туркестанские ведомости. 1892. № 26, 29, 36.

[1419] Григорев В. В. Ещё о кокандских монетах и событиях // Туркестанский сборник Т. IV. 1894.

[1420] Соболев Л. Краткий обзор положения в Коканде // Туркестанский сборник. Т. 57.

[1421] Малицкий Н. Г. Несколько слов из истории Ташкента за последнее столетие // Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Год 3-4. 1898.

[1422] Брянов А. На память о Фергане 1878–1901. Новый Маргелан, 1901.

[1423] Валидов А. З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Русского археологического общества, 1915. Т. XII; Вып. 3–4. С. 11–12; Shu muallif. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия / Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Вып. 2. Ташкент, 1916. С. 68–119.

Buxoro amirligi va uning holatiga doir masalalar Ye. K. Meyendorf[1427], N. V. Xanikov[1428], G. Vamberi[1429], V. V. Grigorev[1430], N. A. Mayev[1431], V. V. Krestovskiy[1432], G. A. Arendarenko[1433], Ya. Berg[1434], N. P. Ignatev[1435], A. Gubarevich-Rodobilskiy[1436], N. S. Likoshin[1437], D. N. Logofet[1438], A. O. Jidjixiya[1439], A. A. Nechayev[1440], arxiv ma'lumotlari[1441] va turli boshqa manbalarda[1442] uchratish mumkin.

Xiva xonligi tarixiga doir ma'lumotlar N. I. Veselovskiy[1443], Turkiston o'lkasi va Turkiston general-gubernatorligi to'g'risidagi ma'lumotlar D. N. Romanovskiy[1444], A. P. Xoroshxin[1445], M. I. Venyukov[1446],

---

1424 Зимин Л. А. Первые шаги Алимхана на государственном поприще // Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Год. 18-й. Пг., 1915.

1425 Мелик-Саркисян С. А. Хлопковое дело Ферганской области и меры его упорядочения. М., 1914. 68 с.

1426 Кузнецов П. О таджиках Кокандского уезда // Известия Туркестанского отделения Русского географического общества. Т. 12. Вып.2. Ташкент, 1916.

1427 Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Париж, 1826. 508 с. (француз тилида).

1428 Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Составлено. СПб., 1843. 279 с.

1429 Вамбери Г. История Бохары и Трансоксании с древнейшего времени до настоящего. СПб., 1873.

1430 Григорьев В. В. Россия и Азия: Сборник исследований и статей по истории, этнографии и географии, написанных в разное время. СПб., 1876. 575 с.

1431 Маев Н. А. Очерки Бухарского ханства. // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 5. СПб., 1879. С. 77–129.

1432 Крестовский В. В. В гостях у эмира бухарского. СПб., 1887.

1433 Бухара и Афганистан в начале 80-х г.г. XIX века (Журналы командировок Г.А.Арендаренко). М., 1974

1434 Берг Я. История Бухары // Московские ведомости, 1892. №360.

1435 Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адъютанта полковника Н. Игнатьева. СПб., 1897. 278 с.

1436 Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. СПб., 1905. 261 с.; Shu muallif. Постройка железных дорог в Бухарском ханстве и влияние этих дорог на хлопководство СПб., 1912; Shu muallif. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии / Материалы для изучения хлопководства. Вып. 2. СПб., 1912. 239 с.

1437 Лыкошин Н. С. Чапкулинская волость Ходжентского уезда Самаркандской области (опыт исследования экономических и бытовых условий жизни населения Чапкулинской волости). //Справочная книга Самаркандской области. Вып. 8. Самарканд, 1905. 25 с.

1438 Логофет Д. Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб., 1909. 239 с.; Shu muallif. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том 1- 2. СПб., 1911; Shu muallif. В горах и на равнинах Бухары (очерки о Средней Азии). СПб., 1913. 619 с.

1439 Джиджихия А. О последних событиях в Бухаре (9-12 января 1910 г.) // Военный сборник. СПб., 1910.№5. СПб., 1910.

1440 Нечаев А. В. По горной Бухаре. Путевые очерки. СПб., 1914.

1441 Российское Императорское Политическое агентство в Бухаре, Центральный государственный исторический архив УзССР. Фонд № И-3, Опись №1; Российское Императорское Политическое агентство в Бухаре, - Центральный государственный истрический архив УзССР. Фонд № И-3, Опись №2; Канцелярия кушбеги эмира Бухарского, Центральный государственный исторический архив УзССР. Фонд № И-126, Опись №1 (книга 1); Канцелярия кушбеги эмира Бухарского, Центральный государственный истрический архив УзССР. Фонд № И-126, Опись №2 (книга 1).

1442 Бухарское купечество // Туркестанские ведомости. Ташкент, 1915. №42.

1443 Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений и Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. СПб., 1877. 364 с.

1444 Романовский Д. Н. Заметки по среднеазиатскому вопросу с приложениями и картою Туркестанского генерал-губернаторства. СПб., 1869.

1445 Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876. 532 с.

1446 Венюков М. И. Россия и Восток. Собрание геофизических и политических статей. СПб., 1877. 297 с.

G. A. Arendarenko[1447], I. I. Geyer[1448], V. V. Bartold[1449], A. I. Shaxnazarov[1450], N. G. Pavlov[1451], V. Lastochkin[1452], A. P. Demidov[1453], S. I. Gulishambarov[1454], V. N. Ogloblin[1455], V. I. Yuferev[1456], S. V. Ponyatovskiy[1457], V. V. Zaorskaya va A. Aleksander[1458], A. G. Serebryannikov[1459], Ch. Valixanov[1460], A. Z. Validov[1461], N. Ya. Bichurin[1462] va M. V. Lavrov[1463] kabi tadqiqotchilar ishlari hamda boshqa manbalarda[1464] yoritilgan.

Barcha mualliflar Rossiyaning O'rta Osiyodagi davlat manfaatlarini faol himoya qilar edi, uning tarkibiga Turkistonning qo'shilishi va Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi ustidan protektorat tashkil etilishini mamnuniyat bilan kutib oldilar. Shunga qaramay, ushbu mualliflarning o'sha davr tarixshunosligini rivojlantirishga qo'shgan hissasining katta ahamiyatini anglash kerak. Materiallar taqdimotida ba'zi bir sub'yektivlikka qaramay, ular o'rganilayotgan davrda iqtisodiyotning rivojlanishi va mintaqadagi ijtimoiy munosabatlarning holatini tavsiflovchi boy faktik materiallarni qayd etgan.

Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinish tarixining o'rganilishi masalasini yoritganda, shunga ahamiyat berish kerakki, XX asrning 90-yillarigacha tarixshunoslik, xususan, sovet tarixchilarining

---

1447 Арендаренко Г. А., Досуги в Туркестане, 1874-1889. СПб., 1889.

1448 Гейер И. И. Весь русский Туркестан. Ташкент, 1908.

1449 Бартольд В. В. Отчет о командировке в Туркестан. 1902 г. // Соч. Т. IX. М., 1973.

1450 Шахназаров А. И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. СПб., 1908. 512 с.

1451 Павлов Н. Г. История Туркестана. В связи с кратким историческим очерком сопредельных стран. Ташкент, 1910.

1452 Ласточкин В. Восточный Туркестан и Кашгария / Составил генерального штаба полковник Ласточкин; Под редакцией ген.-майора Федея. Ташкент, 1911.

1453 Демидов А. П. Экономический очерк хлопководства, хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. Ташкент, 1912. 256 с.

1454 Гулишамбаров С. И. Экономический обзор Туркестанского района, обслуживаемого Среднеазиатской железной дорогой (Закаспийская, Самаркандская, Сырдарьинская и Семиреченская области, а также Бухарское и Хивинское ханства). Часть 1–3. Ашхабад, 1913.

1455 Оглоблин В. Н. Промышленность и торговля Туркестана. М., 1914.

1456 Юферев В. И. Труд в хлопковых хозяйствах Туркестана (опыт характеристики рабочего вопроса в хлопковых районах Туркестанского края). СПб., 1914. 60 с.; Shu muallif. Хозяйство сартов Ферганской области. Ташкент, 1911. 76 с.; Shu muallif. Русский хлопок. Петроград, 1916. 28 с.

1457 Понятовский С. В. Опыт изучения хлопководства в Туркестане и Закаспийской области. СПб., 1913. 357 с.; Shu muallif. Сельское хозяйство, промышленность и торговля Туркестана за 50 лет русского владычества. // Туркестанское сельское хозяйство. 1915. №6.

1458 Заорская В. В. и Александер А. Промышленные заведения Туркестанского края. Разработка данных анкеты, произведенной летом 1914 г. экономической организацией изысканий по устройству водохранилищ в верховьях реки Сырдарьи. Петроград, 1915. 559 с.

1459 Серебрянников А. Г. Туркестанский край / Сборник материалов для истории его завоевания в 1841–1896 г.
Т. III. 4.1, 2. Ташкент, 1912–1915.

1460 Валиханов Ч. Собрание сочинений: В 5 т. Т. I–IV. М., 1985.

1461 Валидов А. З. Восточные рукописи Ферганской области // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. Т. XXII. Вып. 3-4. Пг., 1915.

1462 Бичурин Н. Я. Собрание сведений по исторической географии Восточной и Средней Азии. Чебоксары, 1960

1463 Лавров М. В. Туркестан. География и история края. 2-е изд. М., 1916.

1464 Россия. Полное географическое описание. Настольная и дорожная книга под ред. В. П. Семенова-Тяньшанского. Том XIX. Туркестанский край, составил князь В. И. Массальский. СПб., 1913. 861 с.

asarlarida Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasiga "qo'shib olinishi" deb nomlab kelindi va ushbu jarayonga progressiv hodisa sifatida ko'proq urg'u berildi. Aksincha, rus armiyasining bosqinchilik yurishlari va ularga qarshi mahalliy aholining olib borgan milliy ozodlik harakatlari ochiq-oydin bayon qilinmadi.

O'rta Osiyo hududi Rossiya imperiyasi ta'siriga tushgandan so'ng o'lkada ko'plab siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Mustamlaka siyosati ayniqsa ijtimoiy sohada chuqur iz qoldirdi. Mintaqadagi mahalliy xalqlarning ijtimoiy tuzilishini o'rganish uchun mustamlaka davri tarixshunosligi ko'plab materiallarni taqdim etgan. Birinchidan, u yoki bu darajada ushbu muammo to'g'risidagi ma'lumotlar deyarli barcha yuqoridagi asarlarda ham mavjud.

Bunday ma'lumotlarni N. A. Mayev[1465], N. P. Ostroumov[1466], V. P. Nalivkin[1467], N. S. Likoshin[1468], N. L. Mordvinov[1469] va A. I. Dobrosmislov[1470] kabi tarixchi hamda etnograflarning asarlari bilan to'ldirsa bo'ladi. Ushbu tadqiqotlarning barchasida mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jamiyatning yangi ijtimoiy tuzilishi shakllanganligi qayd etilgan. Ushbu asarlarda Turkiston jamiyatining ijtimoiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda mintaqa aholisining ijtimoiy munosabatlari, diniy e'tiqodlari, psixologiyasi, xarakter va xususiyatlari hamda kundalik hayotiga oid qiziqarli materiallar ham mavjud.

O'lkada faoliyat olib borgan rus tadqiqotchilari mahalliy aholining ularga nisbatan iliq munosabatlaridan hayratda qolgan. Rus olimlari mahallalardagi mehmondo'stlik, oqsoqollarga hurmat, bolalar, ota-onalar va qariyalarga alohida

---

[1465] Маев Н. А. Азиатский Ташкент. // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. СПб., 1876. С. 260–313.

[1466] Остроумов Н. П. Исторический очерк народного образования в городах и укреплениях бывшей Сырдарьинской линии в Туркестанской области с 1860 г. по 1867 г. Ташкент, 1881. 198 с.; Shu muallif. Сарты. Этнографические материалы. Вып.1. Изд. 2-е, дополненное. Ташкент, 1896. 272 с.; Shu muallif. Мусульманское законоведение (из курса, читанного в 1908/1909 году офицерам на курсах индустани. Ташкент, 1909. 82 с.; Shu muallif. Введение в курс исламоведения. Ташкент, 1914. 215 с.; Shu muallif. К 50-летию Ташкента (15 июня 1865 г. – 15 июня 1915 г.). Ташкент, 1915. 80 с.

[1467] Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. 244 с.; Наливкин В. П. Очерк благотворительности у оседлых туземцев Туркестанского края. // Сборник материалов по мусульманству. Том II Ташкент, 1900. С. 131–147; Shu muallif. Положение вакуфного дела в Туркестанском крае до и после его завоевания. // Ежегодник Ферганской области. Том III. Новый Маргилан, 1904. С. 1-57; Shu muallif. Туземцы раньше и теперь. Ташкент, 1913, 144 с.; Shu muallif. Сведения о туземных мадраса Сырдарьинской области в 1890/91 учебном году. Ташкент, 1916. 93 с.

[1468] Лыкошин Н. С. Казии // Русский Туркестан. Ташкент, 1899. С. 17–57; Shu muallif. Результаты сближения русских с туземцами // Справочник по Туркестанскому краю на 1903 г. Ташкент, 1903; Shu muallif. Полжизни в Туркестане. Очерк быта туземного населения. Петроград, 1916. 412 с.

[1469] Мордвинов Н. Л. Суд у оседлых инородцев Туркестана; Богоугодные и благотворительные учреждения (вакф) у оседлых инородцев Туркестана; К вопросу о положении оседлых инородцев Туркестана // Туркестанский сборник. Том 454. Ташкент, 1908. С. 801–803.

[1470] Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912. 520 с.

g‘amxo‘rlik, mintaqa tub aholisining milliy madaniyati hamda psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biriga aylanganini qayd etgan.

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mustamlaka davriga oid birlamchi manbalar va tadqiqot ishlari yetarli bo‘lsada, hudud to‘g‘risidagi rasmiy statistik materiallar juda ham kam. Sayohatchi yoki harbiy zobitlarning shaxsiy ma’lumotlarini hisobga olmasa, rasmiy statistika faqatgina 1897-yildagi butun Rossiya aholini ro‘yxatga olish ishlaridan so‘ng paydo bo‘ldi.

Ushbu ro‘yxatga olish natijalari Turkiston o‘lkasining uchta viloyati – Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona bo‘yicha e’lon qilingan[1471]. Aholini ro‘yxatga olish materiallari shahar va qishloq aholisi, uning tarkibi, yoshi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va kasb-kori bo‘yicha ma’lumotlar beradi. Mazkur jarayon faqatgina uchta mintaqa haqida ma’lumot berishiga qaramay, uning axborot ahamiyati juda yuqoridir. Chunki, ro‘yxatga kiritilgan viloyatlar mintaqadagi eng ahamiyatga molik hududlar hisoblangan.

Mustamlaka davrida mintaqada yagona metodologiyadan foydalangan holda boshqa maqsadli statistik kuzatuvlar va ro‘yxatga olish ishlari amalga oshirilmagan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi bo‘yicha esa umuman rasmiy statistik ishlar o‘tkazilmagan. Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar mualliflarning taxminiy hisob-kitoblari asosida berilgan.

Turkiston o‘lkasida tuzilgan Turkiston viloyat statistika qo‘mitasi (1868) va Sirdaryo, Samarqand hamda Farg‘ona viloyat statistika qo‘mitalari (1887) faoliyatiga kelsak, ular alohida faqatgina kichik hududlar kesimidagi mahalliy statistik ma’lumotlarni tayyorlaganlar. Ushbu mahalliy statistik ma’lumotlar mintaqadagi aholining o‘sish dinamikasini ko‘rsatib berish uchun yetarli emas. Bu qo‘mitalar tomonidan nashr etilgan ishlarning aksariyat qismida mahalliy tarixchilar, etnograflar, sayohatchilarning asarlari va faqat bir nechta qismli statistik materiallar nashr etilgan.

Mustamlaka davrini o‘rganishda davriy nashrlarning o‘rni ham muhim hisoblanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda turli yo‘nalishdagi 86 ta gazeta, 82 nomdagi jurnal va yilnomalar nashr etilgan bo‘lib[1472], 86 ta gazetadan faqat ikkitasi 1870-yildan 1917-yilgacha muntazam ravishda chop etilgan. Bular rus tilidagi “Туркестанские ведомости” va o‘zbek tilidagi “Turkiston viloyati gazetasi” edi. Ushbu gazetalar Turkiston o‘lkasining mustamlakachi ma’muriyatining rasmiy nashrlari hisoblangan.

---

[1471] Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Том LXXXIII. Самаркандская область. СПб., 1905; Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Том LXXXVI. Сырдарьинская область. СПб., 1905.; Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Том LXXXIX. Ферганская область. СПб., 1904. 179 с.

[1472] Авшарова М. П. Русская периодическая печать в Туркестане (1870–1917) / Библиографический указатель литературы. Ташкент, 1960. 196 с.

"Туркестанские ведомости"[1473] gazetasi 1870-yildan 1917-yil 15-dekabrigacha, Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Kengashining qarori bilan yopilgunga qadar nashr etilgan. Gazeta viloyatdagi hukumat va ma'muriy buyruqlarni e'lonq ilish, viloyatni keng o'rganish, mustamlaka siyosatini targ'ib qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan edi. Shuning uchun uning sahifalaridan V. V. Bartold, L. S. Berg, I. V. Mushketov, V. F. Oshanin, N. A. Seversov, A. M. Kun, V. P. Nalivkin, N. P. Ostroumov, N .S. Likoshin, N. N. Pantusov, A. P. Fedchenko va A. A. Semenov kabi taniqli olimlarning mahalliy tarixning turli masalalariga bag'ishlangan maqola hamda tadqiqotlari o'rin olgan. Ushbu gazetaning katta qismi va uning ko'rsatkichlariga tegishli ma'lumotlarni A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasida topish mumkin[1474].

"Туркистон маҳаллий газетаси" 1870-yildan 1883-yilgacha "Туркестанские ведомости" gazetasiga ilova sifatida o'zbek tilida nashr etilgan. 1883-yil 30-yanvardan mustaqil nashrga aylangan va 1917-yil fevralgacha chop etib borilgan. 1917-yil fevralda u "Нажот", iyun oyidan "Кенгаш" nomi bilan nashr etilgan. 1917-yil sentabrda gazeta faoliyati to'liq to'xtatilgan. Uning sahifalarida jadid ziyolilarining maqolalari, mahalliy yozuvchi va shoirlarning asarlari nashr etilgan.

Nisbatan uzoq vaqt davomida chiqqan boshqa gazetalar qatorida "Еттисув вилояти хабарлари" (1884–1917), "Фарғона вилойати хабарлари" (1907–1915), "Окраина" (1890–1898), "Каспийорти газетаси" (1895–1913), "Ашхобод" (1899–1918), "Рус Туркистони" (1898–1907), "Туркистон ҳарбий газетаси" (1908–1915), "Туркистон курери" (1908–1917), "Туркистон" (1912–1917) ва бошқаларни киритиш мумкин.

1915-yilda Turkiston o'lkasida rus tilida 17 ta, 1916-yilda – 19 va 1917-yilda – 13 ta nomdagi gazetalar chop etilgan. 1870–1917-yillar davomida Turkiston o'lkasida rus tilida 170 ga yaqin nashr faoliyat yuritgan bo'lib, shulardan 80 dan ortig'i gazetalar edi. Gazetalar va jurnallar asosan quyidagi shaharlarda chop etilgan: Marg'ilonda – 8 ta, Verniy (Olma ota) va Qo'qonda – har birida 10 tadan, Ashxobodda – 23 ta, Samarqandda – 24 ta, Toshkentda – 80 dan ortiq.

Turkistondagi matbuot faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi jadid matbuot organi " Тарққий" gazetasi Toshkent shahrida M. Obidov muharrirligida, 1906-yil 27-iyundan e'tiboran chop etila boshlangan.

---

[1473] Туркестанские ведомости / Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890–1907.

[1474] Роспись статей за 1870 – 1892 гг. по всем вопросам / Сост. Е. К. Беттер. Рукопись; Роспись статей за 1893 – 1917 гг. по всем вопросам в форме картотеки; Роспись статьям и заметкам по археологии и истории Средней Азии, помещенным в газете "Туркестанские ведомости" за время ее существования (1870–1917). Сост. Е. К. Беттер / В. В. Бартольду. Туркестанские друзья, ученики и почитатели. Ташкент, 1927. С. 479–531; Перечень статей и заметок, относящихся к областям, ныне входящим в Таджикистан. Сост. Е. К. Беттер / Библиография Таджикистана. Ташкент, 1926. С. 1–28; Указатель к официальной части газеты за годы 1870 – 1886. Сост. Е. К. Беттер. Рукопись.

“Тараққий” gazetasining shiori: “Najot: maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat” bo‘lgan. Nashr “ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy, tijoriy” gazeta bo‘lganligi uning o‘zida ta’kidlab ko‘rsatiladi. Gazeta faoliyati to‘g‘risida A. Avloniy ham o‘z maqolasida alohida to‘xtalib o‘tgan[1475].

Gazetaning bosh maqsadlaridan biri – mustamlakachilik tuzumidan ozod bo‘lish g‘oyasi va millatni taraqqiy ettirish g‘oyasi edi. Shunday g‘oya gazetaning 1-sonidagi “Toshkentda 14-iyun” maqolasida ham o‘z ifodasini topadi. Unda: ”Biz musulmonlarni hurriyatga haqlari bormi?” – deb, savol qo‘yib, “Yo‘q! Qardoshlar yuz marotaba yo‘q”, - deb javob beradi. Buning sababi, ma’rifatsizlik, ilmsizlik hukmron bo‘lgan jamiyat hech qachon erkinlikka erisha olmasligi va jamiyatdagi mustamlakaning og‘ir oqibatlarini ochib berishga harakat qilingan[1476].

1906-yildan boshlab yana bir jadid vakili Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida “Хуршид” gazetasi nashr etila boshlangan. Ushbu gazetada Turkiston xalqlarining dolzarb muammolari, mustamlakachilikdan ozod bo'lish va taraqqiyot uchun kurashga •davat qiluvchi maqolalar e’lon qilingan. “Хуршид” gazetasi ham “Тарққий” singari ta’qib ostida bo‘lgani uchun atigi ikki oy davomidagina faoliyat olib borgan[1477].

Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixiga oid yana bir muhim manba “Turkistonga oid insho va maqolalar to‘plami” hisoblanadi. Uning aksariyat qismi A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu to‘plam hajmi 600 jilddan oshiqroq bo‘lib, unda Markaziy Osiyo xalqlari hayotining eng muhim masalalariga bag‘ishlangan esdaliklar, maqolalar va turli tillardagi kitoblar mavjud. Mazkur noyob to‘plam Markaziy Osiyo tarixi bilan shug‘ullanuvchi barcha tadqiqotchilar uchun qimmatli ma'lumotlarga boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuni qayd qilish joizki, ushbu to‘plam o‘z vaqtida V. I. Mejov tomonidan tartiblangan[1478] va u yana ko‘plab boshqa ishlarni ham bibliografik ko‘rsatkich shakliga keltirgan[1479].

Rossiyaning O‘rta Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati ularning boshqaruv tizimida yaqqol ko‘rinadi. Turkistonning birinchi general-gubernatori fon Kaufman rus harbiylarining eng faol istilochi jandarmi graf D. Milyutinga 1876-yilda yo‘llagan ma’ruzasida Rossiya va Angliya kabi nasroniylar davlatlarining Osiyodagi maqsadi mushtarak ekanligini alohida ta’kidlab, “bu

---

1475 Авлоний А. Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон” газетаси. 1924 йил 24 июнь. 295-сон.

1476 “Тараққий” газетаси. 1906 йил. 1-сон. 1-б.

1477 Авлоний А. “Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи” // “Туркистон” газетаси. 1924 йил 24-июнь, 295-сон.

1478 Межов В. И. Туркестанский сборник сочинений и статей, относящихся до средней Азіи вообще и Туркестанскаго края в особенности, 1888.

1479 Shu muallif. Русская историческая библиография за 1865-1876 гг. 1882. Т. 1. С. 450; Т. 2: С. 458.; Т. 3. С. 414.

joyda bizning umumiy dushmanlarimiz – musulmonlik va yovvoyilikdir" deb, harbiy vazirdan qattiq siyosat o'tkazishda keng vakolatlar so'ragan[1480].

Xuddi shunday siyosatni podshoning yaqin mulozimi, general-leytenatga teng unvondagi maxfiy maslahatchi F. Girs Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyihasida ham aks ettirgan edi[1481]. 1871-yilda rus mustamlakachiligining mohiyati va uning o'zga xalqlarni ruslashtirish siyosatining bosh yo'nalishiga to'xtalib, venger olimi A. Vamberi shunday deb yozgan edi: "Rusiya shiddat bilan o'smoqda, Buyuk Pyotr zamonida uning aholisi 15 mln. edi. Yekaterina taxtga chiqqan yili 25 mln. bo'ldi. Aleksandr I o'lgan yili 58 mln. ga chiqdi, hozir (1871-y.) esa 77 mln. bo'libdi. Nufusning bunday shiddat bilan ko'payishi ruslarda ko'p tug'ilish qobiliyatidan emas. Aksincha, ishg'ol etgan o'lkalardagi aholini tezkor ruslashtira olishlari bilan izohlanadi"[1482].

Rus mustamlaka hokimiyatining dabdabali ravishda e'lon qilgan "Turkiston aholisini harbiy xizmatdan ozod qilish haqida"gi "ehsoni"ni F. Girs g'oyat nozik ta'birda fosh qilgan edi. Turkiston tadqiqotchilari ana shu masalaga o'z vaqtida oydinlik kiritganliklarini eslash o'rinlidir. "Ilgarigi Turkistonda, – deb yozgan edi Ahmad Zakiy Validiy To'g'on, – eski odatga ko'ra, askarlikka rag'bat va havas bo'lar edi. Hozir turkistonliklar askarlikdan ozod etilganliklari sababli asta-asta shijoatlari so'nib, bo'shashib ketdilar... Rusiya Osiyoda g'oyat uzoqni ko'zlovchi siyosat ketidan quvuvchi va bu keng qamrovli harakatlari hech qanday chek-chegara bilmagan, hirs va ishtahasi esa kun sayin oshib boruvchi imperialistik davlatdir. Rus millati ham buyuk davlatchilikka nihoyatda bog'langan, xususiy mulkka qarab qolmay, hukumat ko'rsatgan har qanday joyga, har qanday o'lkaga borib joylashishga chamadoni tayyor, harakatchan g'ayrati keladi. Rus millati bu harakatchanlik va g'ayratni alohida bir uddaburonlik, deb biladi"[1483].

Mustamlakachi ma'muriyat o'lkani Rossiyaning xom-ashyo bazasiga aylantirishga jadallik bilan kirishdi. Sug'oriladigan joylarda paxtachilik va paxta yakka hokimligining o'sishi, hunarmand-kosibchilikning inqirozga yuz tuta borishi bilan dehqonlarning keng ommasi, mayda hunarmandlar va shahar kambag'allarining boshqa tabaqalari ham qashshoqlashib bordi. Natijada, XIX asrning 80-yillari oxiri – 90-yillarda xalq ommasining turmush tarzi keskin yomonlasha boshladi. Buni mahalliy tarixchi Is'hoqxon Ibrat o'zining "Фарғона

---

[1480] Арапов Д. Ю., Милютин Д. А. О "Мусульманстве" // Актуальные проблемы гуманитарных, социальных, экономических и технических наук: Межвузовский сборник научных и научно-методологических трудов (под ред. Н. Г. Хохлова). М., Вып. 2. Т.2. М.: МГИУ, 2003. С. 225–229.

[1481] Чулков Н. П. Гирс, Федор Карлович // Русский биографический словарь: в 25 томах. СПб. М., 1896–1918.

[1482] Вамбери Арминий (Герман). Исторія Бохары или Трансоксаніи съ древнѣйшихъ временъ до настоящаго. В 2-х томах. СПб, 1873. 569 с.

[1483] Ахмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлар тарихи ("Воспоминания. История борьбы за независимость и свободу в Туркестане"). Тошкент: Истиклол нури, 2014. 609 б.

тарихи" asarida shunday tasvirlagan edi: "Farg'onani suyi serob, havosi toza, mevasi pokiza, yerlari mahsuldor bo'lib, Rusiya davlatida bo'lgandan buyon necha daraja tijorat va ziroat ishlari murovvaj bo'lub, temir yo'llar inshosi vositasi bilan hamma ishlar oson bo'lub, dehqonlari aksariyatida paxta ziroati ilan rivojlanib, paxta tijorati bo'lak ishlardan rivojda bo'lib, muning foydasiga aldanub, ziroati milliylari – bug'doy, juvari, arpa ekmoq yo'q bo'lub, ovqatga sarf bo'ladurg'on donlarni ekishlarini eslaridan chiqarib, 1913 melodiyda paxta ziroati va tijoratiga urungan kishilar qarz daryosiga g'arq bo'lganlarini mushohoda qilib, avqot ekmoqg'a tushdilar, hatto hukumatdan avqot ekmok uchun necha marotabadan targ'ib bo'lsa ham, paxtani aqchasi bularni avqot ekmoqdan qo'ydi. Aks holda, avqotlarni hayvonot avqotini sotib olmoqqa majbur bo'lganlari bularni yana eski ekunlari yaxshi ekanini bildurdi"[1484].

Turkistonda mustamlakachilik tuzumini uzoq vaqt saqlab qolish uchun buyuk rus davlatchilik g'oyasini amalga oshirishga kirishildi va bu ishga rus ziyolilari ham safarbar etildi.

Sovet davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ham ushbu masalaga bir tomonlama yondashish davom etdi. Ularda ko'proq Turkiston qoloq bo'lganligi, Rossiya tarkibiga "qo'shib olingach", bu "progressiv" ahamiyat kasb etganligi haqida ko'proq gapirildi. Sovet davrida ruslashtirish siyosati, iqtisodiy qaramlik, paxta yakkahokimligi yanada kuchaytirildi. Ushbu imperiya mustamlakachilik siyosatining uzviy davomi edi.

## Rossiya imperiyasiga qarshi milliy ozodlik harakatlarining sovet tarixshunosligi

1916-yildagi mardikorlikka qarshi xalq harakati[1485] haqida ma'lumotlar 1920-yillarda paydo bo'ldi. Bu davrda tadqiqotchilar orasida 1916-yildagi qo'zg'olon sabablari, xarakteri va unga baho berishda turlicha fikrlar mavjud edi. Davlat arboblari G. Broydo va T. Risqulovlarning ta'kidlashicha[1486], imperiya ma'muriyati ushbu qo'zg'olonni tayyorlab, shu orqali yangi bosqinchilik va zulmga bahona qidirgan. Ushbu fikrlar Shestakova va Ye. Fedorovalar tomonidan keskin tanqid qilingan. Ularning fikricha, imperiya hukumatiga ushbu qo'zg'olondan hech qanday foyda yo'q edi.

XX asrning 30-yillarda podsho arxividan 1916-yil qo'zg'oloniga oid qimmatli materiallar e'lon qilingan bo'lsa, 1932-yilda esa Markaziy Osiyo

---

[1484] Электрон манба: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/166-tarixi-fargona.html.

[1485] 1916-yil qo'zg'oloni – mardikorlar qo'zg'oloni bo'lib, Birinchi jahon urushi davri (1914–1918)da Rossiya podsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi O'rta Osiyo xalqlarining chiqishlari. O'rta Osiyo qo'zg'oloni aslida o'lkada tobora kuchayib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklar mahsuli bo'lib, uning boshlanishi uchun Nikolay II ning 1916-yil 25-iyundagi mardikorlikka olish haqidagi farmoni bahona bo'lgan. Mazkur farmon ijtimoiy-iqtisodiy tomondan ahvoli tang bo'lib turgan xalqning sabr kosasini to'ldirib yubordi va uning noroziligi ifodasi sifatida ushbu qo'zg'olon yuz berdi.

[1486] "Восстание киргиз в 1916 г.": (Мое показание прокурору Ташкентской судебной палаты, данное 3-го сент. 1916 г.). М.: Науч. ассоц. востоковедения при Ц.И.К. СССР, 1925. 28 с.

xalqlarining qo'zg'olonlari tarixiga oid hujjatlar to'plami dunyo yuzini ko'rdi[1487].

1916-yil qo'zg'oloni bo'yicha tarixchilar tomonidan juda ko'p ishlar qilingan bo'lib, keng ko'lamdagi arxiv materiallari, rasmiy hujjatlar va qo'zg'olon qatnashchilarining xotiralari tahlil qilingan hamda qator monografik asarlar yaratilgan.

1935-yilda Z. Kastelskaya ushbu qo'zg'olonga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi[1488]. 1916-yil qo'zg'olonini tadqiq qilishda P. A. Kovalevning ham hissasi katta bo'ldi. Unda Turkiston aholisining front ortiga safarbar qilinishi muammosi, mardikorlarning hayoti va qismati, shuningdek, rus burjuaziyasining mardikorlik va qo'zg'olonga munosabati masalalari tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyoda XX boshlarida boshlangan ishchilar inqilobiy harakatining tarixini tadqiq etish 60-yillarda kommunistik partiya yo'l-yo'riqlari asosida davom ettirildi. Tadqiqotchilar Markaziy Osiyodagi sinfiy kurash Rossiya imperiyasidagi umumiy inqilobiy harakatning bir qismi ekanligini ta'kidlaydilar. Bunda burjua demokratik talablar bilan milliy-ozodlik harakati vazifalari uyg'unlashib ketgan edi. 1905–1907-yillarda Markaziy Osiyoda ziyoli qatlam vakillari orasida millatparvarlik kayfiyatlari jonlanib, ular mehnatkashlarning milliy zulmdan ozod bo'lish yo'lidagi harakatidan o'z maqsadlari uchun intildilar.

Markaziy Osiyo xalq ommasi rus proletariatining shovinizmga nisbatan chiqisha olmaslik tuyg'usini do'stona qabul qilib, 1905–1907-yillardagi inqilobda bevosita ishtirok etdilar. Tarixchilar o'z asarlarida Markaziy Osiyoda markisistik mafkurani tarqatishda jonbozlik ko'rsatib, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan rus inqilobchilari – V. D. Konyushin, A. R. Baxarev, M. R. Verdyanin va T. L. Ivanov kabi ko'plab o'z hayotini Markaziy Osiyo bilan bog'lagan inqilobchilarning katta xizmatlarini alohida ta'kidlashni unutmagan, chunki o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol shuni taqozo etar edi.

Sovet tarixshunosligida 1916-yil qo'zg'oloni – o'lka xalqlari hayotining 1917-yildagi Oktabr voqealari arafasidagi eng yorqin voqeani tadqiq etish va yoritishga alohida o'rin ajratilgan. Tadqiqotchilar ushbu qo'zg'olon xalqning imperiya hukumati va burjuaziyaga qarshi inqilobiy kurashi bilan o'lkadagi ozodlik harakatining qo'shilishi natijasida vujudga kelganligi haqidagi xulosani yakdillik bilan olg'a surgan edi. Markaziy Osiyo tarixchilari ushbu murakkab ommaviy harakatning xususiyatlari va bosqichlari o'ziga xos jihatlari to'g'risida yagona bir fikrga kelgan edi. Yarim yildan ortiq davom etgan mazkur siyosiy harakat kattagina hududlarni qamrab olgan. Turli mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy

---

[1487] Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане: Сборник документов. Академия наук Казахской ССР. М., 1960.

[1488] Кастельская З. Д. Основные предпосылки узбекского-декканского движения в 1916 году (Тезисы канд.дисс.). Я., 1935.

sharoitlarning har xil ekanligi qo‘zg‘olon hududlarda o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lganligini anglatadi.

XX asrning 60-yillaridagi ilmiy tadqiqotlarda jamiyatdagi mafkura tazyiqi ostida 1916-yildagi milliy-ozodlik harakati haqida “Bu isyon umumrossiya inqilobiy harakatining tarkibiy ajralmas qismi bo‘lib, Rossiya imperiyasining barcha xalqlarini fevral va oktabr inqiloblari sari yetaklab boradi”, degan zo‘rma-zo‘raki xulosalar singdirildi.

1916-yildagi milliy-ozodlik harakatining 70 yilligi munosabati bilan “Ўзбекистон коммунисти” (1986-yil, 7-son) va “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”[1489] (1987-yil, 5-son) jurnallarida X. Tursunov, M. Vahobov, S. Namozov va D. Ziyoevalarning maqolalari e’lon qilindi. Ularda ushbu qo‘zg‘olonning tarixiy ahamiyati va ayrim muhim jihatlari ochib berilgan edi.

Shunga qaramay, sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik harakati bir tomonlama yoritildi va ular “reaksion qo‘zg‘olonlar” deb baholandi. Masalan, Dukchi eshon qo‘zg‘oloni o‘zining haqiqiy bahosini olmadi. Bu haqdagi kitob va maqolalar asosan, rus arxiv manbalariga asoslangan holda yozildi, ular tanqidiy qiyos qilinmadi, mualliflar sharq tillaridagi manbalardan juda kam foydalandilar.

1980-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan sovet davri tarixshunosligida partiya va davlatning mafkuraviy talablari asosida 1916-yildagi milliy-ozodlik harakatining sabablari, mohiyati va oqibatlari o‘zining haqqoniy bahosini olmadi.

## Markaziy Osiyo xalqlarining mustamlakachilik davri tarixini o‘rganilishi

**Qoraqalpoq xalqining Rossiya mustamlakachilik davri tarixshunosligi.** Qoraqalpoqlar to‘g‘risida Rossiya imperiyasi davrida yozilgan asarlar aytarli ko‘p emas. Ana shunday manbalar sirasiga “Краткий очерк Амударинской области”[1490], Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г”[1491], “Труды Амударинской экспедиции”[1492], “Аму и Узбой”[1493], “Сборник материалов для статистики Сырдаринской области”[1494], “Прошлое

[1489] Абдуллаев Р. Х. и др. Хабиб Турсунович Турсунов (1913–1987) // ОНУ. 1987. №5. С. 64–65.
[1490] Риза Кули-Мирза. Краткий очерк Амударьинской области. СПб, 1871.
[1491] Кун А. Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 год / Известия Русской географического общества. Т. Х. СПб, 1874.
[1492] Доранд Ф. Б. Труды Амударьинский экспедиции. Вып. 2 / Материали собранные метеорологическим отделом Аму-дарьинской экспедиции. Изд. Императорского русского географического общества. СПб, 1878. С. 244.
[1493] Аму и Узбой. Самара, 1879. С. 55.
[1494] Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. Ташкент, 1895.

Приаралских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда"[1495] kabi asarlar kiradi.

Ko'plab ma'lumotlar hududga kelgan boshqaruv vakillari tomonidan yozib qoldirilgan. G. A. Arendarenko 1870-yildan Turkiston general-gubernatorligida yuqori lavozimlarda ishlagan. Zarafshon okrugining Perovsk, Jizzax va Turkiston kabi shaharlarida harbiy hamda xalq ma'muriyati xizmati vakili, Samarqand va Marv okruglarining boshlig'i sifatida faoliyat yuritgan davrda Turkiston, Buxoro, Qorategin hamda Darvozga sayohatlar uyushtirgan. Natijada, o'zbek, qozoq, turkman, qoraqalpoq va tojiklarning hayoti, madaniyati va urf-odatlari to'g'risida noyob ma'lumotlar qoldirgan[1496].

Muallifning "Аму и Узбой" asarida dastlab qadimgi zamonlarga oid ma'lumotlar keltiriladi. Ma'lumki, Rossiya Turkiston o'lkasini zabt etar ekan, undan imperiya manfaatlari yo'lida foydalanishni ko'zlagan edi. O'lkaning iqtisodiy, xususan, qishloq xo'jaligi salohiyatidan foydalanishni maqsad qilgan rus hukumati dastavval uni har tomonlama tadqiq etishga harakat qiladi. Xususan, asarda hududning qadimgi davri tarixidan boshlab o'z zamonasigacha bo'lgan voqeliklar mustamlakachi mamlakat nuqtai nazaridan yoritiladi. Mazkur tadqiqot hududning suv havzalari bilan bog'liq holatini tahlil etish maqsadida yaratilgan bo'lsa-da, ammo Vatan tarixi uchun muhim manba bo'lib qolaveradi.

F. B. Dorandtning "Труды Амударинской экспедиции. Материалы собранные метеорологическим отделом Амударинской экспедиции" deb nomlangan asarida[1497] ma'lumotlar rus va nemis tillarida keltirilgan bo'lib, unda hudud iqlimi borasidagi batafsil ma'lumotlar aks etgan. Meterologik

---

[1495] Нестеров А. Л. Прошлое Приаральских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда / Записи восточного отделения русского археологического общества. СПб., 1900. Т. IV.

[1496] Арендаренко Г. А. Чулак-Курган // Туркестанские ведомости. Ташкент, 1871. № 4; Shu muallif. Заметка о видах землевладения в Зеравшанском округе // Туркестанские ведомости. 1873. № 3; Shu muallif. Заметка о поземельных сборах в Зеравшанском округе // Shu joyda. 1874. № 1; Shu muallif. Значение власти аксакалов в отдаленных кишлаках // Shu joyda. № 25; Shu muallif. Ирригация Туркестанского уезда // Shu joyda. № 26; Shu muallif. К вопросу о каризах (подземных арыках) Туркестанского района // Shu joyda. № 29; Shu muallif. Кишлак Карнак // Shu joyda. № 35; Несколько слов о степных переселенцах // Shu joyda. № 49; Туркестанский район (гидрографические заметки) // Shu joyda. 1874, № 50; Shu muallif. Из Самарканда // Shu joyda.1875, № 35, 39; Shu muallif. Заметка о мостах на Зеравшане // № 46; Shu muallif. Двухлетние опыты посева в Пенджикенте американского хлопка // Shu joyda. № 49; Shu muallif. Из Самарканда // Shu joyda. 1876, №8; Shu muallif. Зимняя экспедиция генерал-майора Абрамова в верховья Зеравшана // Shu joyda. № 15; Shu muallif. Заметка по сельскому хозяйству в нагорных тюменях Зеравшанского округа // Shu joyda. № 42; Shu muallif. Заметка об ирригации в нагорных тюменях Зеравшанского округа // Shu joyda. №51; Shu muallif. Из Пенджикента // Shu joyda. 1877. №11; Shu muallif. Саранча в Туркестане // Shu joyda. № 13; Shu muallif. Эксплуатация горного леса в Зеравшанском округе // Shu joyda. 15-16, 19; Shu muallif. О метеорологических познаниях у туземцев Зеравшанского округа // Shu joyda. № 22; Shu muallif. Заметки по Зеравшанскому округу // Shu joyda. №42-45; Shu muallif. Результаты пробных посевов суходольного риса и кукурузы в Зеравшанском округе // Shu joyda. №46; Shu muallif. Из Самарканда // Shu joyda. 1878, № 10, 14; Shu muallif. Малоизвестные города Зеравшанского округа Пенджакент и Ургут // Shu joyda. № 13-14, 16; Shu muallif. Зеравшанские заметки. О народном суде у туземцев. ТВ, 1879. № 14, 17-20, 23, 28-29; Shu muallif. Между туземцами Степного уезда // Shu joyda. 1880, №2, 3, 5 ва 6.

[1497] Дорандт Ф. Б. Материалы, собранные Метеорологическим отделом Ученой экспедиции на Аму-Дарью. 1874-1875. СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1877.

ma'lumotlar jamlangan mazkur tadqiqotda havo harorati, namlik darajasi, shamol yo'nalishi va kuchi, bulutlar hamda tuproqning yuza qismi va harorati kabilar jadvallarda ko'rsatib berilgan.

A. Nesterovning "Прошлое приаралских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда" asari[1498] 1899-yilda yozib tugallangan va 1900-yilda nashr etilgan. Mazkur asar uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida Amudaryo va Sirdaryoning qadimgi oqimlari, ushbu daryolarning quyi qismida joylashgan xalqlar, xon Ayoz va uning amaldori Atimtoy tarixi, Adagiy xoni Fosil va Adagiy davlatining qulashi tarixi, Amudaryo va Sirdaryo oqimining o'zgarishi, Orol ko'lining shakllanishi hamda Urganch davlatining shakllanishi kabilar haqida ma'lumot berilgan.

Asarda, shuningdek, qirg'iz-qozoqlarning kelib chiqishi to'g'risidagi ularning dastlabki yashash joylari, ruslardan chekinishi va Orenburg shahrining tashkil etilishi haqida afsonalar, ularning Sirdaryoning quyi oqimiga yaqinlashuvi, qoraqalpoqlar bilan to'qnashuvi, Nurtoy hamda Jilhaydar botirlar, qirg'iz-qozoqlar tomonidan qoraqalpoq yerlarining egallanishi, o'ziga xos ittifoqning tuzilishi, ushbu ittifoqlarni boshqargan xonlar, ruslarning Sirdaryoga kelishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Qoraqalpoqlar haqidagi ma'lumotlar asarning ikkinchi va uchinchi qismida mavjud. Unga ko'ra, mo'g'ullar egallagan joylarni tez orada xon Aziz-Jonibek boshchiligidagi no'g'ay (tatar)lar egallaydilar va ancha vaqtgacha hukmronlik qiladilar. Keyinchalik ushbu hududlarni Usa-Serin boshchiligidagi qalmoqlar egallaydi va ancha vaqtgacha hukmronlik qiladi. Shundan so'ng qalmoqlarning o'zlari ham Sirdaryoning quyi tomonlaridan qoraqalpoqlar tomonidan siqib chiqariladi. Ularning xoni Risqul bo'lib, u ancha vaqt boshqargandan so'ng shimoldan qirg'iz-qozoqlar bostirib keladi va ularni quyi Sirdaryodan quyi Amudaryo bo'ylariga siqib chiqaradilar.

Asarning uchinchi bobida qirg'iz-qozoqlarning Sirdaryo bo'ylariga ko'chish jarayoni va ularning qoraqalpoqlar bilan to'qnashuvi, qoraqalpoqlar bahodiri Nurtoy hamda uning qirg'iz-qozoqlar bahodiri Jilhaydarni o'ldirishi, qirg'iz-qozoqlarning o'ch olishi va qoraqalpoqlarning Sirdaryo bo'yidan Amudaryo bo'yiga siqib chiqarilishi haqida ma'lumotlar mavjud.

**Qozoq xalqi tarixshunosligi.** Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida qozoq xalqining ham hayot tarzi keskin o'zgarishlarga uchradi. Natijada, Qozoq xonligiga barham berilib, mazkur hududda Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatildi.

Qozoqlarning mustamlaka davridagi tarixi yoritishda I. I. Kraftning asarlari alohida o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotchi Qozog'istonda o'n yilga yaqin yashaganligi va faoliyat olib borganligi uchun mintaqada yuz bergan barcha

[1498] Нестеров А. Прошлое приаральских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда / Записки Восточного Отделения Императорского русского археологического общества. Том двенадцатый. 1899. СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1900. С. 095-0105.

o'zgarishlarni bevosita kuzatib borgan. I. I. Kraft bir muncha vaqt "Тўрғай газета"sining muharriri bo'lib, mahalliy aholi hayotini chuqur o'rgangan. Uning yirik asarlaridan biri Qozog'iston tarixiga bag'ishlangan bo'lib, "Dasht viloyatlari qirg'izlari haqidagi qonun hujjatlar to'plami" deb nomlanadi[1499]. Ushbu asar XVIII asr o'rtalari – XIX asrning oxiridagi Qozog'iston hududiga taalluqli bo'lgan qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishga qaratilgan birinchi urinishlardan hisoblanadi. Ushbu to'plamda "Qirg'izlar tomonidan Rossiya fuqaroligini qabul qilish", "Dasht viloyatlarini boshqarish to'g'risida", "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida"gi qonunlar mavjud.

I. I. Kraftning "Туркистон вилояти ва дашт вилоятлари суд бўлими"[1500] nomli asari Qozog'istonda rus sud tiziminipng joriy qilinishiga doir masalalarni ochib bergan. Mazkur tadqiqotchi ko'plab qonunchilik hujjatlari asosida Qozog'istondagi sud qismini tavsiflaydi va ushbu tizimning uzoq vaqt davomida qanday o'zgarganligini ko'rsatib beradi. Muallif dasht viloyatlari va Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi qoidalarning sud ishlariga taalluqli moddalarini batafsil ko'rib chiqqan edi.

Boshqa bir rus tadqiqotchisi A. Ye. Alektorov Orenburg tarixini yoritishda qozoqlar haqida qo'plab etnografik ma'lumotlar berib o'tgan[1501]. O'zining "Китоблар, журналлар ва газеталардаги қирғизлар тўғрисидаги кўрсаткичлар" asarida qozoq qo'lyozmalarini o'rganish zarurligini ta'kidlagan edi. Ushbu asarda qozoqlar tarixiga oid ko'plab manbalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu asarning Qozog'iston tarixshunosligi va manbashunosligi uchun ahamiyati yuqoridir[1502].

Ushbu davr uchun manbalarining alohida guruhini ilmiy ekspeditsiya (P. Rumyansev, P. Semenov-Tyan-Shanskiy, V. Radlov, I. Mushketov va boshqalar) natijalari, F. A. Sherbinning yerdan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlari, 1897-yildagi aholini ro'yxatga olishga doir hujjatlar va Qozog'iston hududlarida o'tkazilgan statistika qo'mitalarining hisobotlari tashkil qiladi. Ushbu manbalarda qozoqlarning kundalik hayoti, etnografiyasi, ijtimoiy tuzilishi, soni, kasb-hunarlari, ko'chmanchi va o'troq aholi ulushining nisbati, tuproqning holati, ishlab chiqarish kuchlari, aloqa yo'llari, soliqlar va to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni topish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmida "Rus Geografiya jamiyati"ning G'arbiy Sibir, Orenburg va Turkiston bo'limlari ochildi. Mazkur bo'limlarning ilmiy

---

[1499] Сборник узаконений о киргизах степных областях. Составил Старший Советник Тургайского Областного Правления И. И. Крафт. Оренбург, 1898. 214 с.

[1500] Судебная часть в Туркестанском крае и степных областях. Составил Старший Советник Тургайского Областного Правления И. И. Крафт. Оренбург, 1898.

[1501] Алекторов Е. А. История Оренбургской губернии. Оренбург, 1883; Shu muallif. Географический очерк Оренбургской губернии. Оренбург, 1885; Shu muallif. Очерки народного образования в Тургайской области. Вып. 1-3. Оренбург, 1900. С. 14–19.

[1502] Shu muallif. Указатель книг, журнальных и газ. статей и заметок о киргизах. Казань, 1900. 983 с.

xodimlari Qozog'istonning inqilobgacha bo'lgan tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati to'g'risida ko'plab ma'lumotlar va materiallar to'plaganlar

Ushbu davr uchun juda katta miqdordagi tarixiy manbalar Qozog'iston va Rossiya arxivlarida saqlanadi. Qozog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivida quyidagi fondlar mavjud: F.4 – Orenburg qirg'izlarini viloyat boshqaruvi hujjatlari; F.6 – Orenburg general-gubernatorligi idorasi hujjatlari; F.345 – Sibir qirg'izlarining viloyat boshqaruvi hujjatlari; F.388 – Omsk viloyati ma'muriyati hujjatlari; F. 374 – Sibir qirg'izlarining chegara boshqarmasi hujjatlari; F.64 – Dasht general-gubernatorligi devonxona hujjatlari; F.369 – Oqmola viloyati ma'muriyati hujjatlari; F.370 – Ural viloyat ma'muriyati hujjatlari; F.44 – Yettisuv viloyat ma'muriyati hujjatlari; F.85 – Mang'ishloq politsiya bo'limi hujjatlari; F.25 – Turg'ay. mintaqaviy hukumati hujjatlari; F.15 – Semipalatinsk viloyati hukumati hujjatlari va boshqalar. Ushbu fond hujjatlari qozoqlarning mustamlaka davrini o'rganishda muhim manba hisoblanadi[1503].

Davriy matbuot nashrlari ham muhim manba bo'lib, ular Qozog'istonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ko'plab masalalari bo'yicha turli ijtimoiy doiralar vakillari, jamoat va siyosiy arboblarning fikrlari, sharhlari, hukmlarini o'zida aks ettirgan. Jurnallar va gazetalar sahifalarida ("Торғай вилояти ахбороти", "Ҳарбий тўплам", "Россия бьюллетени", "Рус биродари", "Туркистон вилояти газетаси", "Рус архиви", "Сибирь ҳаёти", "Еттисув худудий ахбороти"va boshqalar) qozoq xalqi tarixiga oid ko'plab materiallar nashr etilgan.

Mazkur davrda qozoq xalqi tarixiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy adabiyotlar yaratildi[1504]. Sovet davrida ham mazkur masalaga doir muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib[1505], jumladan, B. S. Suleymanov va V. Ya. Basinlarning "Казахстан в составе России (в начале XVIII–XX века)"[1506] asari ushbu davrni yoritishda muhim adabiyotlardan biri hisoblanadi.

---

[1503] История Казахстана в русских источниках XVI–XX в. Сост. И.В.Ерофеева. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 448 с.

[1504] Путешествие Средней Азии из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, предпринятое в 1863 г. / Изд. 1-е. М., 1867; Изд. 2-ое. М., 1874; Родословная Мангитской Династии / Материалы для статистики Туркестанского края. Ташкент, 1874. Вып. 3. С. 340–376; Памятная книжка семиреченского казачьего войска 1884 года. Омск, 1884; Смирнов Е. Сыр-Дарьинская область. Санкт-Петербург, 1887. С. 8; Ильин В.М. Сартовское хозяйство в Чимкентском уезде Сырдарьинской области / Материалы по изучению хозяйства оседлого туземного населения в Туркестанском крае. Ташкент, 1912. 240 с.

[1505] Шалекенов У. Х. Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов каракалпаки в XVIII–XX вв. Ташкент, 1966; Толыбеков С. Кочевое общество казахов в XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1971. Shu muallif. Хозяйство казахов на рубеже XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1980; О типах этнических общностей с пережитками родоплеменной структуры в Средней Азии и Казахстане (XIX – начало XX вв.) / Доклады советской делегации на IX Международном конгрессе антропологических и этнографических наук. М., 1973. С. 46–52; Кронгардт Г. К. Национальный состав населения Южного Казахстана в конце XIX в. / Исторические науки. Вып. 3. Алма-Ата: КазПИ, 1976. С. 20;

[1506] Сулейманов Б. С., Басин В. Я. Казахстан в составе России (в начале XVIII–XX века). Алма-Ата: Наука, 1981. 247 с.

Mazkur adabiyot XVIII asr boshlaridan to 1917-yil Oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrda qozoq xalqining ahvoli haqida ma’lumot beradi.

A. B. Tursunbayevning “Казахстан в революции 1905–1907 годов” asarida[1507] Qozog‘istonning inqilob davridagi siyosiy ahvoli va undan keyingi vaziyat haqida yoritilgan. Bundan tashqari, qozoqlarning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko‘chmanchi xalq sifatida u hududdan bu hududga ko‘chib yurganligi, Rossiya imperiyasi tarkibida qanday hayot kechirganligi, shuningdek, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritib beruvchi S. Tolibekovning “Хозяйство казахов на рубеже XIX – начале XX вв” asari[1508] ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Казахстан в составе России (в начале XVIII–XX века)” asarida yozilishicha, Katta va O‘rta juzning katta qismi XVIII–XIX asr boshlarida Rossiya imperiyasiga qo‘shib olingan. 1824-yilda Rossiya tarkibiga Yettisuv hududi qo‘shib olingan. XIX asr o‘rtalariga kelib, janubda Chu daryosi vodiysi, shimolda Sirdaryoning o‘rta oqimidan Oqmasjidgacha bo‘lgan yerlar Rossiya imperiyasiga bo‘ysunmas, ushbu hududlar Qo‘qon xonligi hukmronligi ostida edi. 1825-yilda 120 ta kazakdan iborat bo‘lgan qurollangan harbiy otryad Yamishev qo‘rg‘oni komendanti V. Shubin boshchiligida Katta Juzga jo‘natilgan. Bu yerda Olatov, Kopal, Sergiopol va Lepsinsk qarorgohlari qurilgan. 1858-yil martda qo‘qonliklar Avliyootadan quvib chiqarilgan. 1864-yilda M. Chernyaev boshchiligidagi Verniydan chiqqan qo‘shin Avliyootani ishg‘ol qilgan, N. Veryovkin boshchiligidagi qo‘shin 12-iyunda Turkiston, 22-sentabrda esa Chimkentni ishg‘ol qilgan”[1509].

Umuman olganda, Rossiya imperiyasining qozoq juzlarida olib borgan mustamlakachilik siyosati ozodlik kurashlariga sabab bo‘lgan. 1856-yilda shekti urug‘i sardori Janxo‘ja Nurmuhammedov boshchiligidagi, 1868–1869-yillardagi Seil Turkebaev va Berkin Ospanovlar boshchiligidagi qo‘zg‘olonlarni misol qilib keltirish mumkin. Qozoq xalqining milliy-ozodlik kurashlari qozoq cho‘llarini qamrab olgan bo‘lishiga qaramay, Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan, qo‘zg‘olon rahbarlariga esa ayovsiz munosabatda bo‘lingan.

S. M. Tursunovaning “Казахи Мангышлака во второй половине XIX века”[1510] asarida ham 1870-yilda Mang‘ishloq yarimorolida “Vaqtli Nizom”ning qabul qilinishi sababli qo‘zg‘olon boshlanganligi, Emba daryosi vodiysida qozoqlarning yozgi yaylovlari bo‘lib, mazkur “Nizom”da undan foydalanish taqiqlanganligi, aynan shu yerda rus qo‘shinlarining qarorgohi qurilganligi, qo‘zg‘olonga Dosan Tajiev va Isa Tlanbaevlar yo‘lboshchilik

[1507] Турсунбаев А. Б. Казахстан в революции 1905–1907 годов. Алма-Ата, Мектеп, 1987. 88 с.
[1508] Толыбеков С. Е. Кочевое общество казахов в XVII – начале XX в. Алма-Ата, 1971. 632 с.
[1509] Сулейманов Б. С., Басин В. Я. Казахстан в составе России в XVIII – начале XX века. Алма-Ата, 1981. С. 65–66.
[1510] Турсунова М. С. Казахи Мангышлака во второй половине XIX века. Алма-Ата, 1977. 181 с.

qilganligi, ammo mag'lubiyatga uchraganligi[1511] to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

**Qirg'iz xalqi tarixshunosligi**. Qirg'izlarning asosiy qismi Tangritog' va Issiqko'l oralig'ini makon tutib, bu yerdagi bir nechta turkiy qabilalar bilan birgalikda hozirgi qirg'iz xalqini tashkil qilgan. Qirg'iz xalqi tarkibiga Yettisuv va Movarounnahrning turkiy qabilalari, jumladan, qarluqlar hamda uyg'urlar, keyinchalik mo'g'ul qabilalari qo'shilgan. Ushbu davrda qirg'izlarning tipi bo'yicha mo'g'ullashish va tili bo'yicha turkiylashish jarayoni nihoyasiga yetgan. XV–XVII asrlarda esa, kelib chiqishi qozoq no'g'oylar bilan bog'liq qabilalar kirib kelgan. Qozoqlarning bir qismi boshqa turkiy xalqlarning etnogenezi tarkibiga kirgan. XVI–XVII asrlarda qirg'izlarga qozoq-no'g'oy qabilalari qo'shilgach, Tyan-Shan qirg'izlari shakllandi.

Qirg'izistonni har tomonlama o'rganishning ixtirochisi haqli ravishda P. P. Semenov-Tyan-Shanskiy bo'lib[1512], aynan ushbu tadqiqotchi keyingi olim-sayohatchilarga yo'l ochib bergan. P. P. Semenov-Tyan-Shanskiyning Qirg'iziston tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasiga oid turli xil ma'lumotlarining ilmiy qiymati yuqoridir. Uning izlanishlarini asosini Issiqko'l mintaqasidagi qirg'izlar, ularning Rossiya, Qo'qon va Xitoy bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlar tashkil qiladi. Mintaqa tarixidagi ba'zi faktlar va voqealarni talqin qilishda qirg'iz tili va madaniyatini chuqur bilmasligi ta'sir ko'rsatgan. Uning Qirg'iziston tarixiga oid barcha xulosalaridan ham foydalanish mumkin emas. Ammo bu, uning fanga kiritgan materiallarning qiymatini tushirmaydi.

Qozoq olimi va sayohatchi Ch. Valixonov (1835–1865) tomonidan to'plangan Qirg'iziston tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar ham juda ahamiyatlidir. Mazkur tadqiqotchi birinchi marta Issiqko'lga M. M. Xomentovskiyning harbiy ilmiy ekspeditsiyasi tarkibida 1856-yilda tashrif buyurgan bo'lsa, ikkinchi marotaba 1857–1859-yillarda Qashg'arga ketish yo'lida Qirg'iziston hududidan o'tgan, so'nggi marta esa bu yerga 1864-yilda tashrif buyurgan. Uning boy tarixiy-etnografik ma'lumotlari "Issiqko'lga sayohat kundaligi"da hamda tugallanmay qolgan "Qirg'izlar to'g'risida esdaliklar"da saqlanib qolgan[1513].

Rus olimi N. A. Seversovning qirg'izlar bilan shaxsiy tanishuvi Turkiston shahrida qo'qonliklar tomonidan asirlikda bo'lgan paytida sodir bo'lgan[1514]. 1864-yilda u Sirdaryo va Chuy qirg'izlari (solto, sari-bog'ish va saruu)

---

[1511] Ko'rsatilgan asar. 101–103-бетлар.

[1512] Семёнов-Тян-Шанский П. П. Первая поездка на Тянь-Шань, или Небесный хребет, до верховьев р. Яксарта, или Сыр-Дарьи, в 1857 году // Вестник РГО, 1858; Shu muallif. Поездка из укрепления Верного через горный перевал у Суок-Тюбе и ущелье Буам к западной оконечности оз. Исык-Куль в 1856 г. Отрывок из путевых записок // Записки РГО по общей географии. Т. 1. СПб., 1867.

[1513] Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Алма-Ата, 1984–1985 // http: // meeting. nlrk. kz / result / ebook 46/index.html.

[1514] Месяц плена у Коканцев. Сочинение Николая Северцова СПб., 1860. 98 с.

qabilalarining hayoti hamda madaniyati o'rgangan va Rus geografik jamiyati sahifalarida e'lon qilgan[1515].

M. I. Venyukovning qirg'izlarning qo'shni qozoqlar, Qo'qon va Qoshg'ar bilan munosabatlari, Rossiya bilan savdo aloqalari hamda Rossiya imperiyasi tarkibiga o'z ixtiyori bilan kirishi to'g'risidagi materiallari diqqatga sazovor[1516]. Mazkur tadqiqotchi Pishpak va To'qmoq qal'alarining sxematik rejalarini dastlabki tavsifini yozib qoldirgan edi[1517].

Bundan tashqari, A. F. Golubev (1859), P. P. Protsenko (1863), A. V. Kaulbars (1869) va boshqalarning Tyan-Shan bo'ylab sayohatlari to'g'risidagi ma'lumotlari muhim hisoblanadi[1518]. Ularda inqilobgacha bo'lgan Qirg'izistonning manbalarini o'rganish uchun zarur bo'lgan Tyan-Shan, Yettisuv tarixi, iqtisodiy va siyosiy ahvoli, karvon yo'llari to'g'risidagi materiallar, shuningdek, Qo'qon xonligi qo'shinlari, ularning qurol-aslahalari haqidagi ma'lumotlar mavjud.

A. P. Fedchenko birinchi marta Qirg'izistonning janubiy viloyatlarini Turkistonga sayohati paytida (1869–1871) o'rgangan. Undan oldin, Qirg'izistonning janubiy qismi haqida faqatgina qisqacha hisobotlar bo'lgan. A. P. Fedchenkoning Qo'qon xonligiga qilgan sayohat xatlari va yozuvlari alohida xarakterga egadir. Ularda Qo'qon xonligidagi boshqaruv tizimini tavsifi bilan bir vaqtda, qirg'iz va qipchoq feodallarining xonlikdagi siyosiy hukmronlik uchun kurashi aks etgan. Bundan tashqari, tadqiqotchining 1871-yilda bo'lib o'tgan So'x qirg'izlarining Xudoyorxon hokimiyatiga qarshi qo'zg'oloni to'g'risidagi ma'lumotlari alohida ahamiyatga ega[1519].

Ye. Smirnovning "Сыр-Даринская обласг"[1520] kitobi qirg'izlarning tarixi va geografik joylashishi haqidagi muhim manba bo'lib, uning ilmiy qimmati ham anchagina yuqori. Mazkur asarning matnlari harbiylar tilidan yozib olingan. 1887-yilda Moskvada nashrdan chiqqan ushbu kitobda qirg'izlarning etnografik joylashuvi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Keyingi ikki asr davomida Jung'or xalqlari qirg'izlarni talab keldilar. Ular XIX asrning birinchi yarmigacha Qo'qon xonligiga tobe bo'lganlar. XIX asrning 60–70-yillarga kelib qirg'iz yerlarining aksariyat qismini Rossiya bosib oladi, bu haqda N. L. Grodevning "Кыргызы и каракиргизы"[1521] asarida ma'lumotlar

---

[1515] Северцов Н. А. Путешествия по Туркестанскому краю. М. ОГИЗ, 1947. 304 с.

[1516] Венюков М. И. Очерки Заилийского края и Причуйской страны // Записки Императорского Русского географического общества. 1861, кн. 4.

[1517] Shu muallif. Венюков М. И. Опыт военного описания русских границ в Азии. 2 вып. СПб., 1873–1876.

[1518] Голубев А. Ф. Краткий отчет о результатах Иссык-Кульской экспедиции / Записки Императорского Русского географического общества, 1860. Ч. 28; Краткие сведения о двух поездках, совершенных капитаном Генерального штаба бароном Каульбарсом в западную часть Тянь-Шаня и в Мусартский проход. ИИРГО, 1871. Т. VII, вып. 4. С. 173–178.

[1519] Федченко А. П. Путешествие в Туркестан, т. I, ч. II. В Кокандском ханстве (1872–1873 гг.). СПб., 1875; Shu muallif. Вторично в сборнике избранных произведений А. П. Федченко под заголовком «Путешествие в Туркестан». М., 1951.

[1520] Смирнов Е. Сыр-Дарьинская область. Санкт-Петербург, 1887. С. 17.

[1521] Гродев Н. Л. Кыргызы и каракиргизы. М., 1898. 566 с.

keltirilgan. Mazkur kitob qirg'izlar etnografiyasiga bag'ishlangan asar hisoblanadi.

Muallif L. Grodev asli harbiy bo'lib, ko'p yillar davomida yuqori harbiy lavozimlarda ishlagan. Jumladan, muallif Turkiston general-gubernatorining harbiy yordamchisi, Turkiston viloyati harbiy vaziri va keyinchalik Sirdaryo viloyati gubernatori lavozimlarida ishlagan, shuningdek, tarixchi va etnograf ham edi. L. Grodev O'rta Osiyoni istilosida shaxsan qatnashib, Toshkent va Turkiston shaharlarini bosib olishda jonbozlik ko'rsatib, shaxsan podshoni o'zidan tashakkurnoma olishga muvaffaq bo'ladi.

Shuningdek, A. Tumanskiyning “Родословная туркмен”[1522] asarida ham qirg'iz xalqi tarixini yorituvchi ma'lumotlar mavjud. A. G. Tumanskiy (1851–1920) yirik tarixchi, etnograf, antropolog hamda harbiydir. U Abulg'ozi Bahodirxonning “Шажарайи тарокима” asarini rus tiliga tarjima qiladi, ushbu tarjima bugungi kunda O'zR FA Sharqshunoslik institutida mavjud bo'lib, ushbu asar o'rganilayotgan davrda qirg'izlar tarixi uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi va uning ilmiy boyligi hamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganish uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi.

**Tojik xalqi tarixshunosligi**. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida tojiklar tarixiga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar yaratilgan. Xususan, V. Fisherning[1523] asarida tojik xalqining mazkur davrdagi ahvoli to'liq yoritib berilgan bo'lsa, V. V. Grigorevning “Среднеазиатские дела”[1524] asari tojiklarning mazkur davrdagi tarixiga bag'ishlangan. Ushbu asarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi tafsilotlari yoritib berilgan. Uning “Русская политика в отношении к Средней Азии”[1525] asarida ham tojik xalqi tarixiga bag'ishlangan ma'lumotlar keltiriladi. Unda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va u yerdagi siyosati masalasi batafsil yoritilgan. Xususan, Xo'jand istilosiga oid ma'lumotlar ham keng yoritiladi. Muallifning qayd etishicha, general Romanovskiy Buxoro qo'shinini ta'qib qilishni to'xtatib, Qo'qon bilan Buxoro o'rtasida joylashgan va ularning asosiy ittifoqchisi bo'lgan Xo'jand tomon yo'l olgan. Xo'janddan Toshkent, Qo'qon, Balx va Buxoroga to'g'ri yo'l bor edi. 1866-yil 17-mayda Xo'jand qal'asi qamal qilindi va jang boshlanib ketdi. Shahar kun davomida 20 ta to'pdan o'qqa tutildi, tongda podsho qo'shinlari hujumga o'tdilar. Hujum qaytarildi, shundan so'ng shahar qayta o'qqa tutildi va bu hol ikki kun davom etdi. 1866-yil 24-mayda tunga borib, Xo'jand himoyachilarining qarshiligi sindirildi va o'q ovozi tindi. Ko'chalarda 2500 dan ziyod kishining jasadi qoldi. Ikkinchi tomon qancha talofat ko'rgani haqida manbalarda aniq ma'lumotlar mavjud emas.

---

[1522] Туманский А. Г. Родословная туркмен. М., 1901. 243 с.

[1523] Фишер В. Заметки о взятии г. Ходжента нашими войсками 24 мая 1866 г. // Инженерный журнал. 1873. №1. С. 46.

[1524] Григорьев В. В. Среднеазиатские дела. М., 1865. 278 с.

[1525] Shu muallif. Григорьев В. В. Русская политика в отношении к Средней Азии. СПб., 1874. С. 312.

A. P. Xoroshxinning “Сборник статей, касающихся до Туркестанского края”[1526] asarida Turkiston o‘lkasidagi barcha hududlar haqida so‘z boradi. Unda keltirilishicha, o‘lka qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i dehqonchilik bo‘lib, jami mahsulotning 65% ini beradi. Unda paxtachilik, ayniqsa, ingichka tolali paxta yetishtirish yetakchi o‘rinni egallaydi. Bog‘dorchilik, uzumchilik va pillachilik rivojlangan. Moyli ekinlar, zig‘ir, kartoshka, sabzavot, poliz va yem-xashak ekinlari, g‘alla va sholi yetishtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Tog‘ va tog‘oldi mintaqalarining sug‘oriladigan yerlarida tamaki, Hisor hamda Vaxsh vodiylarida yorongul ekiladi, sitrus mevalar yetishtiriladi. Tojikistonning barcha hududlari, ayniqsa, tog‘ yon bag‘irlarida chorvachilik rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlar bor.

F. F. Martenening “Россия и Англия в Средней Азии”[1527] asarida yozishicha, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasidagi hukmronligini abadiylashtirish maqsadida O‘rta Osiyoni boshqa mamlakatlardan ajratib olishga qaror qildi. Shu maqsadda, 1869-yildan boshlab Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi rus yerlari o‘rtasidagi chegara o‘tkazish to‘g‘risida muzokaralar olib bordi. Muzokaralar natijasida chegaralar Amudaryo bo‘ylab Panj tumanidan o‘tkazilishi kelishib olindi. Chegaraning boshqa, Turkmanistonni Erondan ajratib turuvchi qismi 1881-yil 10-dekabrda Eron shohi bilan Tehrondagi Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada aks ettirildi. Ushbu chegaralar hozirgacha saqlanib qolgan, Kopetdog‘ tog‘lari davlatlar o‘rtasidagi tabiiy chegara bo‘lib hisoblanadi. 1885–1887-yillardagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo‘yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiyaning O‘rta Osiyodagi (Buxoro) yerlari bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgiladilar, 1895-yilda esa Buxoroning Pomirga o‘tishi natijasida tortishuvga sabab bo‘lgan Pomir masalasi o‘z yechimini topdi. Mazkur chegaralar O‘rta Osiyoni tashqi olamdan ajratib turuvchi tosh devorga aylandi.

L. F. Kostenkoning asarida[1528] XIV asr oxiri – XV asrlarda monumental bezak san’atida yog‘och va ganchga naqsh o‘yish, sirlangan va sirlanmagan sopol, yog‘och va ganchga tuxumli tempera bilan naqsh solish, zardo‘zlik va boshqalar keng tarqalganligi haqida ma’lumot beradi.

S. N. Yujakovning[1529] asari ham mazkur mavzuga doir muhim manba hisoblanib, unda yozilishicha, Turkiston o‘lkasi tuzilishidan maqsad, Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklarini tashqi dunyodan tamomila yakkalab qo‘yish, Rossiya imperiyasi tashqi davlat chegaralarini barpo etish yo‘li bilan har qanday iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni to‘xtatishdan iborat edi. Ingliz imperialistlari bilan imzolangan shartnomaga ko‘ra, 1869–1872-yillarda Panj

---

[1526] Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876. 583 с.
[1527] Мартене Ф. Ф. Россия и Англия в Средней Азии. СПб., 1880. 91 с.
[1528] Костенко Л. Ф. Туркестанский край. В 3-х тт. СПб., 1880.
[1529] Южаков С. Н. Англо-русская распря. Небольшое предисловие к большим событиям. Политический этюд. СПб., 1885. 106 с.

daryosi bo‘ylab mahalliy xalqni ikkiga ajratib tashlab, sun’iy chegara o‘rnatilgan. 1881-yilda Skobelev Turkmanistonni bosib olishi natijasida Eron bilan hozirgi chegaralar belgilandi. Shu yili Sharqiy Turkistonning Ili o‘lkasidagi qo‘zg‘olon imperiya qo‘shinlari tomonidan bostirilgandan so‘ng, Rossiya va Xitoy imperatori hozirgi (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Xitoy o‘rtasidagi) chegaralarni belgilab, shartnoma imzoladilar.

A. P. Subbotin ham “Россия и Англия на среднеазиатских рынках”[1530] asarida tojiklar haqida ma’lumotlar keltiradi. Xususan, muallif Rossiya bilan Angliya manfaatlarining aynan O‘rta Osiyoda to‘qnashganligini qayd etadi. Muallifning ta’kidlashicha, Rossiya imperiyasi olib borgan tinimsiz urushlar uning cheklangan moliyaviy zaxiralarni kasodga uchratdi. 1874-yilda Rossiya Sharqiy Turkistondagi Yoqubbek qo‘zg‘olonini bostirish uchun katta qo‘shin jo‘natgan edi. Ayniqsa, 1877–1878-yillarda Turkiya bilan olib borgan urushning San-Stefan sulh shartnomasi bilan yakunlanishi imperiya uchun juda qimmatga tushdi. 1878–1880-yillardagi ingliz-afg‘on urushi tufayli Afg‘onistonga yurish qilish uchun rejalashtirilgan rus armiyasi askarlari soni Turkiston o‘lkasida qariyb 40 mingga yetgan edi. Rossiyaning harbiy xarajatlari yangi mustamlaka mamlakatlarni ezish hisobiga qoplangan.

N. Engelgard ham “Очерки Коканда”[1531] asarida tojiklar haqida ma’lumotlar berib, ular XIX asrning boshlarida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida taqsimlandi, deb yozadi.

M. I. Brodovskiyning mustamlaka hududlar to‘g‘risidagi asarida [1532] tojiklar hayotini yorituvchi ma’lumotlar ham qayd etilgan. X. A. Chanishyev ning[1533] asarida esa 1875-yilda Koshg‘arda ochilgan Rossiya imperiyasi elchixonasi haqida to‘liq ma’lumot berilgan bo‘lsa, A. K. Geynening asarida[1534] Rossiya imperiyasi va undan keyingi yillarda Tojikistonda nashr etilgan gazeta va jurnallar haqida faktlar aks etgan.

A. I. Bryanovning “На память о Фергане, 1876–1901”[1535] asari ham muhim adabiyotlardan biri hisoblanadi. Unda yozilishicha, XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xonligiga hozirgi Farg‘ona vodiysi, Yettisuvning katta qismi, Qirg‘izistonning tog‘li hududlari, Toshkent viloyati hamda Qozog‘istonning janubi va Tojikistonning ayrim qismlari kirgan edi. Ushbu davrda Qo‘qon xonligi ko‘p millatli davlat hisoblanar edi. Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Xo‘jand, O‘sh, Chimkent va boshqa shaharlar iqtisodiy hamda siyosiy markazlar bo‘lib, Qo‘qon poytaxt shahar edi. Davlatning oliy

---

[1530] Субботин А. П. Россия и Англия на среднеазиатских рынках. СПб., 1885. 206 с.
[1531] Энгельгард Н. Очерки Коканда // Туркестанские ведомости. 1886. №4. С. 21–43.
[1532] Бродовский М. И. Колониальное значение наших среднеазиатских владений для внутренних губерний. М., 1891. 390 с.
[1533] Чанышев Х. А. Русское посольство в Кашгар в 1875 году (Рассказ очевидца) // Исторический вестник. 1887. Т.30. №12.
[1534] Гейне А. К. Сборник литературных трудов. В 2-х тт. СПб., 1897. С. 3–20.
[1535] Брянов А. И. На память о Фергане 1876–1901. Новый Маргелан, 1901. С. 324.

hukmdori xon bo‘lib, u mamlakatni vazir yordamida boshqarar edi. Sarbozlar qo‘shini ustida amiri lashkar turar edi. Mingboshilar alohida otryadlarga boshchilik qilgan va xon xazinasidan qilinadigan xarajatlar esa mehtar tomonidan nazorat qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida tojik adabiyotida ma’rifatparvarlik oqimi vujudga keldi. Ushbu oqimning asoschisi tojik va o‘zbek xalqlarining mutafakkiri Ahmad Donish bo‘lgan. Shoir va yozuvchilardan Rahmatullo Vozeh, Shamsiddin Shohin (1859–1893) va Muhammad Hayrat (1878–1902) g‘oyaviy jihatdan Ahmad Donishga yaqin edi. Tojik ma’rifatchilik adabiyotida yangi janrlar (realistik hikoya, falsafiy-romantik qissa va boshqalar) paydo bo‘ldi, adabiy til xalq tiliga yaqinlasha boshladi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Hisor bekligida o‘rtacha bir tanob yerga 2–2,5 pud[1536] g‘alla ekilib, 33 pudgacha, ekilgan arpaning 2 pudidan 25 pudgacha hosil olingan. Vohaning daryobo‘yi hududlari dehqonchiligida sholikorlik yetakchi mavqega ega bo‘lgan. Buni Panj daryosi yoqasida joylashgan Xo‘jamulki kabi qishloqlar misolida ko‘rish mumkin. Hisor vodiysining tog‘ va tog‘oldi hududlari hamda tekisliklarida yong‘oq, olma, bodom, anor, shaftoli va o‘rik kabi ko‘plab mevali daraxtlar o‘sgan. Xususan, Ko‘lob bekligiga qarashli Darband qishlog‘ida xonlik hududida mashhur bo‘lgan anorlar yetishtirilgan.

Tog‘li hududlarda uzumchilik keng rivojlangan. Polizchilik sohasi o‘ziga xos tarzda taraqqiy etib, qovun, tarvuz, sabzi, qovoq va piyoz kabi boshqa poliz ekinlari ham yetishtirilgan. Vohaning sug‘oriladigan yerlarida beda, makkajo‘xori va sholi kabi ekinlar bilan birga paxta ham yetishtirilib, davrlar o‘tishi bilan g‘o‘za maydonlari kengayib borgan.

B. I. Iskandarovning “Англо-русское соглашение 1895 года о Памире” asarida[1537] yozilishicha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Pomir va Hisor vodiysining mahalliy aholisi Temuriylar hukmronligi hamda undan oldingi davrlarda Movarounnahr hududlarida yashagan va yerli o‘troq dehqon aholi bilan jadal aralashib ketgan bir qancha etnik guruhlarning avlodlari edi. Ko‘pgina etnografik adabiyotlarda mazkur hududning mahalliy aholisi sifatida asosan, tojiklar qayd etilgan.

**Turkman xalqi tarixshunosligi.** Turkmanlar bo‘yicha birinchi ilmiy rus tadqiqotlari Pyotr I ning talabi bilan XVIII asrda boshlarida olib borildi. Kaspiy degizining sharqiy qirg‘oqlarida bo‘lgan Bekovich-Cherkasskiy[1538] (1715), N. Muravev (1821), Dyadin va Baranov (1825–1826), Basargin (1826), Kerelin va Blaramberg[1539] (1836) o‘z esdaliklarida ushbu hududning geografiyasi,

[1536] Pud – 16 kgga teng og‘irlik o‘lchov birligi.

[1537] Искандаров Б. И. Англо-русское соглашение 1895 г. о Памире // Труды Университета им. В. И. Ленина. Серия, историч. наука. №11. Сталинабад, 1960. Т. 27. С. 125–154.

[1538] Безгин И. Г. Князя Бековича Черкасского экспедиция в Хиву. СПб.: Голике, 1891. 239 с.

[1539] Бламберг Ф. И. Журнал, веденный во время экспедиции для обозрения восточных берегов Каспийского моря в 1836 году / Записки Русского географического обществс. Кн. 4. СПб., 1850; Shu

iqtisodiyoti hamda mahalliy aholisi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

XIX asrda ushbu hudud aholisi va geografiyasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. A. I. Gluxovskiy[1540], A. I. Svinsov[1541], V. A. Obruchev[1542], P. M. Lessar[1543], A. M. Konshin[1544] va N. I. Veselovskiylarning[1545] tadqiqotlari hamda A. N. Kuropatkin[1546] va A. P. Xoroshxinlarning[1547] esdaliklari shular jumlasidandir.

Rossiya imperiyasi davrida turkmanlarning antropologik tipini o'rganish borasida bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Ulardan biri A. I. Taranetskiy tomonidan amalga oshirilgan bo'lib[1548], unda Turkmanistondan olib ketilgan bir nechta bosh suyaklari harbiy-tibbiyot akademiyasi antropologiya muzeyidan joy olgan bo'lib, ular yevropeoid irqining turli variantlariga mansub ekanligini aniqlandi.

Keyinchalik bir nechta bosh suyaklari A. A. Ivanovskiy[1549] tomonidan o'rganildi, 1896-yilda esa I. L. Yavorskiyning tadqiqotlari[1550] e'lon qilindi. I. L. Yavorskiy fizik-geografik va antropologik tadqiqotlar olib borish uchun O'rta Osiyoga ilmiy ekspeditsiya uyushtirgan edi. Mazkur olim dolixoekefal yevropeoid bosh suyagiga ega bo'lgan 59 ta erkakning bosh suyagi ustida o'z tadqiqotini o'tkazdi va shundan 4 tasi broxekefal ekanligini aniqladi.

Chet el mualliflaridan esa G. Sergining tadqiqotlari[1551] turkmanlar antropologiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga molik. U 1904-yilda Anovda yomon saqlangan bir nechta bosh suyaklar ustida o'z tadqiqotlarini olib bordi va ushbu suyaklardan biri O'rta Yer dengizi tipiga mansub ekanligini aniqladi.

---

muallif. Топографическое и статистическое описание восточного берега Каспийского моря от Астрабадского залива до мыса Тюб-Караган / Записки Русского географического обществс. Кн. 4. СПб., 1850; Shu muallif. Воспоминания. М., 1978. 357 с.

[1540] Глуховский А. И. Пропуск вод р. Аму-Дарьи по старому зе руслу в Каспийское море. СПб., 1893; Коншин А. М. Разъяснение вопроса о древнем течении р. Аму-Дарьи по современным геологическим и географическим данным // ЗРГО по общ. Географии. Т. 33. №1. СПб., 1897.

[1541] Свинцов А. И. Река Аму-Дарья и древнее соединение с Каспийским морем (Узбой) / ИСИПС. СПб., 1884.

[1542] Обручев В. А. Закаспийская низменность // ЗРГО по общ.географии. Т. 20. №3. СПб., 1890. С. 20-32.

[1543] Лессар П. М. Пески кара-кум // ЗРГО. Т. 20. СПб., 1884.

[1544] Коншин А. М. Разъяснение вопроса о древнем течении р. Аму-Дарьи по современным геологическим и географическим данным // ЗРГО по общ. географии. Т. 33. №1. СПб., 1897.

[1545] Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего времени. СПб., 1877. 364 с.

[1546] Куропаткин А. Туркмения и туркмены. СПб., 1879. 57 с.

[1547] Хорошхин А. П. Народы Средней Азии (Историко-этнографические этюды) // Туркестанские ведомости. 1871. №9–10.

[1548] Таранецкий. И. А. О черепах ахал-текинстев, папуасов и корейцев // Международная клиника. 1882. №4.

[1549] Ивановский А. А. Туркмены и тюрки по краниологическим исследованиям // Изв. и сообщ. ЛЭАН и ЭТН. Дневник антропологического отдела. Л., 1894.

[1550] Яворский И. Л. Антропологический очерк туркмен / Тр. антропологического общества при Военно-медицинской академии. СПб., 1896.

[1551] Sergi L. G. Description of some skules from the North Kurgan // Explorations in Turkestan. Prehistoric civilizations of Anau. Washington, 1908.

D. N. Logofet – Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, iqtisodiyoti, kundalik hayoti va urf-odatlarini o‘rgangan tadqiqotchi bo‘lib, XIX asrning oxirida Transkaspiy mintaqalariga sayohat qilgan edi. O‘n yil davomida eng chekka hududlargacha yetib borgan birinchi Yevropalik edi. Uning tadqiqotlarida nafaqat boy tarixiy, geografik va etnografik materiallar, shu bilan birga afsona, ertak hamda urf-odatlarni ham to‘plagan bo‘lib, ularda tojik, o‘zbek, turkman va afg‘on xalqlarining hayoti, dunyoqarashi hamda turmush tarzi ochib berilgan[1552].

**Sharqiy Turkiston xalqlari tarixshunosligi.** Sharqiy Turkiston xalqlarining Rossiya imperiyasi hukmronligi davri tarixiga oid manbalar orasida L. A. Chvirning asari[1553] muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga oid ma’lumotlar bilan bir qatorda savdo-sotiq masalalariga ham alohida urg‘u berilgan.

Osim Boqiy o‘g‘lining “Uyg‘urlar” asari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda yozilishicha, 1845-yilda Sankt-Peterburgda tashkil etilgan “Rus podsholigi geografiya jamiyati”da jahon sivilizatsiyasining eng ko‘hna o‘choqlaridan biri Uyg‘uristonni o‘rganishga katta qiziqish uyg‘ondi.

Uyg‘urlar tarixini o‘rganishni birinchi bo‘lib qozoq xalqining donishmand farzandi Cho‘qon Valixonov boshlab bergan edi. 1855-yilda A. A. Semyonov Cho‘qon Valixonovga: “Jahon madaniyatining kaliti Torim vodiysiga ko‘milgandir. Bu kalit qachon topilar ekan, dunyo madaniyatining siri shu vaqtda ochiladi”, – deb ta’kidlagan edi.

M. Abdullayevning “Хитой инқилоби тарихидан парчалар”[1554] asarida kommunistik jamiyatlarning mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotiga ta’siri, Xitoy sovet hukumatining madaniyat, maorif va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlari, Xitoyning sovet rayonlarida yer masalasining hal qilinishi hamda soliq siyosati haqida ma’lumotlar berilgan.

Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Туркистон қайғуси”[1555] asari 1966–1973-yillarda Toshkentda yozilgan. Asardagi XX asr voqealari real faktlarga asoslangan, chunki muallifning o‘zi ushbu voqealarda bevosita ishtirok etgan edi.

Kitobda XX asr boshlarida Sharqiy Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xalq harakatlari, hududning bolsheviklar tomonidan bosib olinish jarayonlari va mahalliy aholining sovet davlati siyosatiga munosabati masalalari yoritib berilgan.

Asarda shuningdek, Alixonto‘ra Sog‘uniy va uning Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi (ShTIR)dagi faoliyati, SSSR bilan olib borgan aloqalari, shu

---

[1552] Логофет Д. Н. Афганский вопрос и наше стратегическое положение // Туркестанский Курьер. 6 июня 1912 г.; Shu muallif. Врачебная помощь в Бухарском и Хивинском ханствах // Туркестанский Курьер. № 152.

[1553] Чвырь Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX–XX вв. Очерки историко-культурных связей. М.: Наука, 1990. 301 с.

[1554] Абдуллаев М. Хитой инқилоби тарихидан парчалар. Тошкент: Уздавнашр, 1935. 167-б.

[1555] Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. Тошкент: Шарқ, 2003. 95-б.

bilan birga, Xitoy tomonidan Sharqiy Turkistonda olib borilgan ichki va tashqi siyosatning mohiyati yoritib berilgan.

Anvar Boytur va Xayriniso Sidiqning "Шинжондаги миллатлар тарихи"[1556] asari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, unda yozilishicha, Sharqiy Turkistondagi Qo'qon savdogarlaridan yig'ib olinadigan tushumlardan quruq qolgan Muhammad Alixon g'azablanishi tabiiy edi. Shuning uchun u 1830-yilda Buxoroda yashayotgan Jahongirxo'janing akasi Muhammad Yusufxo'jaga maktub yuborib, Sharqiy Turkistonda manjurlar hukmronligiga qarshi harakatini olib borishini so'ragan. Ushbu taklifga rozi bo'lgan Muhammad Yusufxo'ja elchi Hasan bilan birga Qo'qonga kelgan. Bundan xursand bo'lgan Muhammad Alixon xo'jani quchoq ochib kutib olgan hamda tezlik bilan qo'shin to'plash uchun xonlikning turli shahar va qishloqlariga o'z xabarchilarini yuborgan.

Qo'shin yurishi oldidan O'sh viloyatida to'rt kun dam olib, Ofoqxo'ja ruhiga atab xudoyi qilingan. Haqquli mingboshi va Muhammad Sharif otaliqlar boshchiligidagi ushbu qo'shin 4 kun yo'l yurib, Nog'arachaldi manziliga yetib kelgan. Ushbu qo'shin manjur qorovulxonasida joylashgan Mingyo'l manziliga hujum qilib, bir nechta Xitoy askari o'ldirilgan. Keyingi kun Qo'qon askarlari 10 ming manjur askarlari bilan kurash olib borishiga to'g'ri kelgan. Yupolart, Qorong'ulik va Mingyo'l qorovulxonalarini bosib olgan Qo'qon askarlariga qarshi Zalbkia ismli Qashqar amboni o'z askarlarini yuborgan, ammo ushbu qo'shinga mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng manjur askarlari Gulbog' qal'asiga kirib berkingan. Ushbu qal'ani Qo'qon askarlari uch oy qamal qilgan.

Shuningdek, D. A. Isiyevning "Уйгурское государство Йеттишар"[1557] asarida yozilishicha, Xitoy (manjurlar) bilan muzokara olib borilib, Xitoyning Qo'qon xonligi va o'z navbatida, Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistonga daxl qilmasligi to'g'risida shartnoma tuzilgan va ancha muddat xonlikda tinchlik o'rnatilgan. Ch. Valixanovning fikricha, ushbu bitim 1756-yilda imzolanib, unga muvofiq, Qo'qon xonligi xo'jalar boshchiligida uyg'urlarning manjurlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Uning fikrini tasdiqlab, D. Isiyev manjurlar hukumati ushbu maqsad uchun Qo'qonga har yili 20 kumush yombi berib turganligini qayd etgan bo'lsa, rus manbalarida esa manjurlar tomoni 20 kumush emas, balki, 1000 kumush yombi to'lab turganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Qo'qon hukmdori Erdona davrida xonlik bilan manjur hukumati o'rtasidagi o'zaro tinchlik va do'stona aloqalardan o'rnatilgan. Garchi, tinchlik bitimi imzolangan bo'lsa-da, xitoylik manjurlar hukumati jung'orlar bosib olgan Toshkent, Sayram, Suzoq va Turkiston hududlarigacha o'z yerlarini kengaytirishni maqsad qilgan edi. Bu haqda Ch. Valixanov, manjurlar elchilari 1762-yilda qozoqlarning O'rta yuz xoni Abdumambet va Sulton Ablayga

---

[1556] Анвар Бойтур, Хайриниса Сидик. Шинжондаги миллатлар тарихи. Пекин, 1991.
[1557] Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877). М., 1981. С. 1–28.

imperator istagini bildirib, bahorda Turkiston hamda Samarqandga harbiy yurish qilmoqchi ekanligini e'lon qilganini qayd etgan. Buning uchun ular odamlar, otlar, ho'kizlar va qo'ylar ajratishini talab qilgan.

Erdona, O'ratepa va Xo'jand hokimi Fozilbiy hamda qirg'iz biylari buni bilib qolib, o'sha davrning kuchli hokimlaridan biri – Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh Durroniyga maktub yuborib, undan musulmonlar olamini qutqarishni so'ragan. Ular o'zaro urush-janjallarni vaqtincha unutib, Ahmadshoh boshchiligida ittifoq tuzadilar. Ushbu ittifoqning harakatlari natijasiz tugagan bo'lsa-da, manjurlar hukumatining niyatlarini amalga oshirishga chek qo'ygan.

**Afg'oniston xalqlari tarixshunosligi.** XIX asrdan boshlangan Britaniyaning Afg'onistondagi mustamlaka siyosati, ingliz-afg'on urushlari va XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'onistondagi ingliz-rus raqobati ushbu mamlakatning erkin taraqqiy etishiga yetarlicha to'siq bo'lib keldi. Faqatgina Amir Abdurahmonxon davri (1880–1901)dan Afg'oniston nisbatan mustaqil tashqi siyosat olib borishi ma'lumotlar bor. Yu. V. Gangovskiyning "История вооруженных сил Афганистана. 1747–1977"[1558] asarida yozilishicha, Abdurahmonxon ingliz-rus raqobatidan ustalik bilan foydalangan.

Bundan tashqari, mazkur asarda Abdurahmonxon davrida Afg'onistonda parlament va konstitutsiya ishlab chiqishga ilk harakatlar bo'lgani, Omonullaxon, Nodirshoh hamda Zohirshoh hukmronliklari davrida Afg'onistonni zamonaviylashtirish borasida olib borilgan islohotlar qaysidir ma'noda o'z natijasini bergan bo'lsa-da, afg'on jamiyati, ayniqsa, Omonullaxonning radikal islohotlariga hali tayyor emasligi, shu sababli ham diniy ruhoniylar yordamiga suyangan Bachai Saqo hokimiyatni o'z qo'liga olishi haqida bayon qilingan.

Afg'oniston tarixi, madaniyati va unda yashagan xalqlarning tillarini o'rganishda 1842–1881-yillarda Osiyo muzeyi direktori bo'lib ishlagan, akademik B. A. Dorn (1805–1881)[1559] ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga. Aynan B. A. Dorn birinchi bo'lib Afg'oniston tarixiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlarida bir qator muhim muammolarni ochib berdi va Rossiya akademik fanining ustuvorligini ta'minladi. Uning ko'p qirrali faoliyatining asosiy yo'nalishlari mahalliy (pashto) tili va sharq manbalariga asoslangan Afg'oniston tarixini o'rganishga bag'ishlangan edi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo hududi turli mahalliy manbalar, rus va xorijlik sayyohlarning esdalik hamda memuarlari, statistik va devonxona hujjatlari, shuningdek, maxsus missiya vakillari axborotlarida saqlanib qolgan. Ularda

---

[1558] История вооруженных сил Афганистана. 1747–1977 / Под ред. Ю. В. Ганковского. М., 1985. 206 с.

[1559] Куликова А. М. Очерки по истории востоковедения. СПб., 2000. С. 84–97; Колесников А. И., Лужецкая Н. Л. Выдающийся востоковед академик Б. А. Дорн / Письменные памятники Востока. Вып. 2(3). 2005. С. 5–15.

keltirilgan ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash orqali hudud va uning xalqlari tarixiga doir turli ma'lumotlarni olish mumkin. Mahalliy muarrixlarning asarlari hukmdorlarni ulug'lash va zamondan kelib chiqib yozilgan bo'lsa, rus tadqiqotchilarining asarlari esa ko'proq tavsifiy xarakterda yoritilgan. Aksariyat asarlarning negizida imperiya siyosatini oqlashga intilish sezilib turadi.

---

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Toshkent mudofaasini tashkil etgan Qo'qon sarkardasi kim edi?
2. "Тарихи Туркистон" va "Тарихи жадидайи Тошканд" asarlarining mualliflarini ko'rsating?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan mahalliy tarixchilardan kimlarni bilasiz?
4. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasida tarixshunoslikda mavjud va hozirgi nuqtai nazarni taqqoslab, o'z xulosangizni bildiring.
5. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalasining o'rganilishi va adabiyotlarda yoritilishiga baho bering.
6. Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligini nechta davrga bo'lib o'rganiladi va ulardan har birining xususiyati nimadan iborat?
7. Rossiya imperiyasi aholisi sonining tez oshib borishi ruslashtirish siyosatining natijasi ekanligi haqida yozgan tarixchi kim?
8. Is'hoqxon Ibratning "Фарғона тарихи" asarida keltirilgan paxta yakkahokimligi va uning oqibatlari haqidagi fikrlarni boshqa misollar orqali tushuntirib, asoslab bering.
9. 1916-yildagi milliy-ozodlik harakati tarixshunosligi masalasiga doir mulohazalaringiz.
10. Milliy-ozodlik harakati tarixshunosligiga baho bering.
11. Milliy-ozodlik harakatining sovet davri tarixshunosligiga baho bering.
12. 1916-yil qo'zg'oloniga bag'ishlangan tarixiy asarlarga tavsif bering.
13. Is'hoqxon Ibratning "Фарғона тарихи" asarida mustamlakachilik davri qanday aks etgan?
14. Milliy-ozodlik harakatining xarakterini tushuntirib bering.

# 9-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARINING XX ASR TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI

*

***O'quv maqsadi:*** *Sovet davrida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi, oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarning tashkil etilishi, tarixchi mutaxassislarning tayyorlanishi, 1920–1930-yillarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi soxtaliklar, voqealarga noxolis munosabat hamda zo'rlik mafkurasining tarixni buzib ko'rsatishga ta'siri masalalarini tushuntirish. Talabalarni O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillari va XX asrning 50–80-yillaridagi tarixi tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Sovet tuzumi, kommunistik mafkura, istiqlolchilik harakati, sovetlarga qarshi qurolli kurash tarixini davrlashtirish, "Xomupa" kitobi, sotsialistik madaniyat.*

*

## Sovet davrida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi. XX asrning 20–30-yillaridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixshunosligi

XX asrning 20-yillari markscha-lenincha tarix fanining shakllanish davri bo'ldi. Bu davrda tarix fanining asosiy maqsadi, sotsialistik jamiyatning shakllanishi va rivojlanishining ilk bosqichidagi eng muhim masalalarni yangi konseptual-metodologik sinfiy yondashuv asosida mushohada qilishga yo'naltirildi hamda kommunistik partiya tarixini yoritishga alohida urg'u berildi. Mazkur bosqichda omma orasiga sovet tuzumining muvaffaqiyatlarini targ'ib qiluvchi markscha-lenincha nazariya va metodologiya bilan qurollangan tarixchi kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Turkistonda yangi shakllanayotgan oliy ta'lim tizimida jamiyatshunos kadrlarni tayyorlash maqsadi muhim yo'nalishlardan biri bo'ldi.

1918-yil 21-aprelda Toshkentda mahalliy ziyolilarning sa'y-harakatlari va ma'rifatparvar Munavvar Qori Abdurashidxonov rahbarligida ilk universitet ochildi[1560]. Mazkur universitetda Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Ahmad Fayziy, Ibrohim Tohiriy, Usmon Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, A. A. Divayev va boshqa mutaxassislar faoliyat olib bordilar[1561]. Ushbu universitetda mahalliy aholi vakillaridan mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi.

1920-yilda sovet hukumati Turkiston xalq universitetiga muqobil sifatida Turkiston davlat universiteti (keyinchalik O'rta Osiyo davlat universiteti va

---

[1560] Народный университет / Очерки Туркестанского народного университета. Ташкент, 1918. С. 1–88.
[1561] Ўзбекистон тарихи. Биринчи китоб. Тошкент: O'zbekiston, 2019. 351 б.

Toshkent davlat universiteti deb nomlangan)ni tashkil etgan edi[1562]. 1919–1920 yillarda Moskvada ishlab chiqilgan Turkiston davlat universitetini tashkil etish rejasida tarix-filologiya fakultetini ochish nazarda tutilgan edi[1563].

1920-yil 31-avgustda Turkiston davlat universitetida petrogradlik va turkistonlik professor-o'qituvchilarning birlashishi natijasida yagona ijodiy jamoa tashkil topdi. Tarix-filologiya fakulteti dekani etib professor A. E. Shmidt saylandi, akademik V. V. Bartold va arxeolog V. L. Vyatkinlar faxriy a'zolari bo'ldilar.

Tarix-filologiya fakultetida "Islomshunoslik" fanidan – prof. A. E. Shmidt, "Eron filologiyasi"dan – prof. A. A. Semyonov, o'qituvchi M. S. Andreev, "Rus tarixi"dan – prof. V. G. Kun va o'qituvchi S. S. Bogoslovskiy, "Qadimgi Sharq tarixi"dan N. V. Vundsettel, "Umumiy tarix"dan – o'qituvchilar L. V. Bezobrazova, N. V. Vundsettel, D. S. Grameniskiy, N. F. Chernyavskiy hamda akademik V. V. Bartoldlar[1564] dars bergan edi. Keyinchalik, ya'ni 1920–1921 o'quv yili davomida "Turkiston tarixi" kursi tashkil etilib, ushbu fandan akademik V. V. Bartold ma'ruza o'qigan edi. Buning natijasida uning "История Туркестана" asari vujudga keldi.

1923-yilda ushbu ta'lim dargohi "O'rta Osiyo davlat universiteti" maqomini oldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, talabalarni qabul qilishda asosiy e'tibor ularning ijtimoiy kelib chiqishi va ishchi-dehqon sinfi tarkibiga mansubligiga qaratilgan.

Mazkur universitet o'z faoliyati davomida tarixiy tadqiqotlarni tashkil etish va mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan mamlakat tarixiy tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shgan ilmiy markazga aylandi[1565].

1918-yilda o'z davrining mashhur sharqshunos olimlari tashabbusi bilan Toshkent sharq instituti tashkil qilindi. Keyinchalik mazkur institut O'rta Osiyo davlat universiteti Sharqshunoslik fakultetiga aylantirilgan. 1918–1920-yillarda sharqshunos M. S. Andreyev uning birinchi direktori bo'ldi[1566]. Bu ta'lim maskani ayni paytda, ilmiy-tadqiqot muassasasi ham edi. Institut nizomida Turkistonni ilmiy tadqiq qilish, uning tarixi, madaniyati va tili, aholisining turmush tarzi, shuningdek, unga qo'shni mamlakatlarning tarixini ham o'rganish asosiy vazifalar sifatida belgilangan[1567].

---

[1562] Shu joyda. 353-б.

[1563] Двадцать пять лет Среднеазиатского государственного университета //Бюллетень Среднеазиатского государственного университета. Вып.24. Ташкент: Изд.САГУ, 1945. С. 140, 169.

[1564] УзМА. Р-368-фонд. 1-рўйхат. 147-иш. 22-варақ.

[1565] Холиқова Р. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимини ривожлантириш, мутахассислар тайёрлаш. (ТошДУ тарих факультети мисолида. 1935–1994 йй.): Тарих фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 1995.

[1566] Писарчик А. К. Михаил Степанович Андреев (1873–1948) // Тр. Института истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР. Т. С XX. Памяти Михаила Степановича Андреева. Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1960. С. 10.

[1567] Лунин Б. В. Восточный факультет (Краткий очерк истории Востфака ТашГУ). Ташкент: Укитувчи, 1981. С. 5.

Institut qoshida kutubxona mavjud bo'lib, unda 1920-yilning o'zida 5600 dan ortiq jild to'plangan, ularning mingdan ortig'ini arab va fors qo'lyozmalari tashkil etgan. Bu raqam mahalliy millatga mansub ayrim shaxslar tomonidan o'zlashtirilgan va kutubxona fondiga sovg'a qilingan ko'plab qimmatbaho qo'lyozma asarlar hamda kitoblar evaziga boyib borgan[1568].

Mazkur institutda 1922–1923- o'quv yilida 210 nafar talaba ta'lim oldi. Ularga 5 professor va 20 dan ortiq o'qituvchilar dars bergan edi. Professor o'qituvchilar tarkibi asosan, V. Bartold maktabi vakillaridan tashkil topgan edi. M. S. Andreev fors tili, tojiklar etnografiyasi va Afg'onistonning tarixiy geografiyasi, xitoyshunos N. E. Vundsettel – Qadimgi Sharq tarixi, A. A. Divayev – qirg'iz tili va etnografisi, P. Ye. Kuznesov – o'zbek tili, N. G. Malliskiy – o'zbeklar etnografiyasi, G'arbiy va Sharqiy Turkiston tarixi, B. A. Pestovskiy – xitoy tili, A. V. Pankov – qirg'iz xalqi tarixi, A. A. Semyonov – eron filologiyasi, adabiyoti va tili fanlaridan ta'lim berdi. Keyinchalik I. I. Umnyakov o'z faoliyatini ushbu institut bilan bog'lab, musulmon Sharqi tarixidan ma'ruzalar o'qigan edi. Shuningdek, A. E. Shmidt islomshunoslik, musulmon huquqi, musulmon ekzegetikasi va dogmatikasi, arab adabiyoti tarixi hamda arab tilidan, P. A. Faleyev turk adabiyoti va filologiyasi hamda qirg'iz tilidan dars berdi. Turli vaqtlarda maxsus kurslarni V. V. Bartold, I. I. Zarubin va S. Ye. Malovlar o'qigan edilar[1569].

Ilmiy tadqiqot jarayonlarining tashkil etilishida O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimining vujudga kelishi, tarixchi kadrlarning tayyorlanishi muhim omil bo'ldi.

O'rta Osiyodagi yodgorliklar va osori atiqalarni asrash va ro'yxatga olish ehtiyoji maxsus davlat tashkilotini tuzishni taqozo qildi. 1919-yil 15-noyabrda TurkSIKning qarori asosida Turkiston Respublikasi arxivlari Markaziy boshqarmasi tuzildi (Центральное управление архивным делом Туркестанской республики (Суардел)). Ushbu tashkilot tarix fanining manbaviy asoslarini yaratishda muhim rol o'ynadi. Mazkur tashkilotda faoliyat yuritgan tarixchilar mahalliy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar va materiallarni hisobga olish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar[1570].

Biroq, bu tashkilot zimmasidagi vazifalarning ko'pligi O'rta Osiyo tarixini o'rganish bo'yicha arxeologik va etnografik tadqiqotlar hamda ko'plab tarixiy yodgorliklarni asrash ishini tashkil etish imkonini bermadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangi bir tashkilot tuzish zarurati vujudga keldi va 1921-yil 23-martda Turkrespublikasi XKS dekretiga binoan, Turkomstaris (Туркестанский комитет по делам музеев и охраны

[1568] Shu muallif. Узбекистан как один из центров Советского Востоковедения // Востоковедные центры в СССР. М.: Наука, 1989. Вып.2. С. 7.
[1569] Shu joyda. 6–8-бетлар.
[1570] Германов В. А. Историческая наука Узбекистана в эпоху СССР в период укрепления, командно-административной системы. (1917- начало 1930-х годов) // Очерки историографии Узбекистана в XX столетии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. С.59-87.

памятников старины, искусства и природы) tuzildi. Mazkur tashkilot 1921–1924-yillar davomida faoliyat olib bordi. O‘tgan davr mobaynida ushbu qo‘mita juda ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Qo‘mita Turkiston, Moskva va Petrograddagi ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda 19 marotaba ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirdi, viloyatlarda qadimiy yodgorliklarni ro‘yxatga olish hamda o‘rganish bo‘yicha “asosan mahalliy aholi vakillaridan tarkib topgan” komissiyalar tuzish ishini amalga oshirdi. Bunday komissiyalar Samarqand va Farg‘onada faoliyat yuritdi, shuningdek Buxoro, Xorazm hamda Poltorask (Ashxobod)da ham tuzish ko‘zda tutilgan edi[1571].

1920-yil sentabrda RSFSR XKSning oktabr revolyusiyasi va kommunistik partiya tarixiga doir hujjat hamda materiallarni to‘plovchi Komissiya – Istpartni tuzish haqidagi farmoni e’lon qilindi[1572]. TASSRda Istpart 1922-yil oktabrda tashkil etildi. Mazkur tashkilot Turkistonda inqilob ishtirokchilarining xotiralari va arxiv materiallarini to‘plash bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirdi, noshirchilik faoliyati va ko‘rgazmalar tashkil qilish bilan shug‘ullandi. Istpartning birinchi rahbari taniqli davlat arbobi N. T. To‘raqulov bo‘lgan edi. 1923-yilda Istpart sa’y-harakati bilan revolyusiya muzeyi tashkil etildi, hujjatli va memuar materiallar chop etiladigan “Turkistonning qizil solnomasi” chiqa boshladi[1573].

20-yillarda Turkistondagi yana bir tarixiy markaz O‘rta Osiyo kommunistik universiteti bo‘ldi (O‘OKU). Mazkur universitetda O‘rta Osiyo tarixi va geografiyasi, kommunistik partiya va oktabr inqilobi tarixi alohida o‘qitilgan.

Mazkur o‘quv yurtida tarixchi mutaxassislarning partiyaviy qatlami shakllantirildi. XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekiston jamiyati hayotida kechgan o‘zgarishlar mazkur davr tarixiy adabiyotlarida o‘z ifodasini topdi. Aynan bu o‘zgarishlar tarixiy tadqiqotlar mavzusi va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yaratilgan ko‘p sonli maqola va asarlarning mualliflari jamiyat hayotida kechayotgan tarixiy o‘zgarishlarning bevosita ishtirokchilari bo‘lgan davlat rahbarlari, siyosatchilar hamda voqealar guvohlari edilar. Bunday asarlar sirasiga F. Xo‘jaevning “Десят лет борбы и строителства (К десятой годовщине Октября)”, T. Risqulovning “Революция и коренное население Туркестана (Сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов)”, G. Safarovning “Колониалная революция (Опыт Туркестана)”, L. Rezsovning “Октябрь в Туркестане”, A. P. Demidovning “Экономические очерки хлопководства, хлопкотcрговли и хлопковой промышленности в Туркестане”, V. I. Yuferevning “Хлопководство в Туркестане”, ushbu muallifning “Очерки по экономике хлопкового

---

[1571] Нечкин Д. И. Задачи и ближайшие цели Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы в Средней Азии //Изв. Средазкомстариса. Вып. I. Ташкент, 1926. С. 18–42.
[1572] Желтова Г. И. Социалистическое строительство в Узбекистане (историографический очерк). Ташкент: Фан, 1975. С. 7.
[1573] Shu joyda. 8-б.

хозяйства", N. K. Yaroshevichning "Организатсия крестянского хозяйства Средней Азии (популярный очерк)" ko'rsatish mumkin.

Tarixchi olima N. Mahkamovaning[1574] ta'kidlashicha, 20-yillarda vujudga kelgan tarixiy asarlar 30-yillar ishlaridan mualliflarining qanday ilmiy pozitsiyani egallashlaridan qat'iy nazar, bu davrda bo'layotgan jarayonlarni xolis va batafsil yoritganligi bilan tavsiflanadi. Tarix fanida mafkuraviy ko'rsatmalarning hali qaror topmaganligi esa fikrlar xilma-xilligining mavjudligiga imkon berar edi.

XX asrning 20-yillarida faoliyat yuritgan O'zbekiston tarixchilari yangi sotsialistik davlat qurilishidagi dolzarb muammolarni o'rganishga katta e'tibor qaratdilar. Ular faoliyatida bahs munozaralar muhim o'rin o'rin tutdi. Tarixchi G. I. Jeltova ta'kidlaganidek, bu olimlarning eng katta xizmatlari "ular tarix faniga bahslar ehtirosini olib kirganliklarida ... ilmiy yonish, o'sha davr haqiqatining o'tli savollariga javob topishga intilish"larida bo'ldi[1575].

20-yillarning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda milliy ozodlik harakati va inqilob tarixiga doir qiziqarli ishlar chop etildi. Ular T. Risqulovning "Революция и коренное население Туркестана (1925 г.)", Ye. Fedorovning "Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии (1925 г.)", "Очерки революционного движения в Средней Азии (1926 г.)". Bu to'plamdan F.Xo'jaevning jadidchilik, Ye. Fedorovning mahalliy aholining 1905-yil voqealaridagi ishtiroki, T. Riskulovning 1916-yil qo'zg'oloni haqidagi maqolalari joy olgan. Ushbu to'plam jamoatchilik e'tiboriga sazovor bo'ldi. "Marksistlar" tomonidan ushbu maqolalardan ko'plab xatolar topilganiga qaramay, ashaddiy marksist P. Galuzo "Коммуницическая мысл" jurnalida "G. Turkestanskiy" taxallusi bilan chop etgan taqrizida mazkur to'plam o'lkadagi milliy ozodlik harakati va inqilob tarixiga doir yaratilgan adabiyotlarga qo'shilgan qimmatli hissa ekanini e'tirof etishga majbur bo'ldi.

O'zbekistonda tarix fani shakllanayotgan ilk davrlaridanoq shiddatli mafkuraviy kurashlar maydoniga aylandi. O'rta Osiyo kommunistik universitetida 1926-yildan chop etila boshlangan "Коммунистическая мысл" ilmiy-tadqiqot jurnali sahifalarida bu davrning munozarali masalalari haqidagi materiallar muntazam ravishda chop etildi. Bu davrda Turkiston xalq ommasining 1917-yil "inqilobi"dagi ishtiroki darajasi muhim va eng munozarali masalalardan biri bo'ldi.

Turkiston partiya rahbarlarining 1917-yil voqealari va sovet hokimiyatining keyingi tadbirlarida mahalliy aholining faol ishtirok etganligi hamda uni qo'llab-quvvatganligi haqidagi fikrlariga qarshi o'laroq, bir guruh siyosiy yetakchilar tamomila boshqa munosabatni namoyon qildilar[1576].

---

[1574] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане в 20-е гг. XX в.: полемика и дискуссии // O'zbekiston tarixi. 2012. №1. С. 39–51.

[1575] Желтова Г. Ko'rsatilgan asar. 13–14-бетлар.

[1576] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане ...

Jumladan, 20-yillarda G. I. Safarov[1577], S. Muraveyskiy[1578], T. Risqulov[1579], F. Xo'jayev[1580] va L. Rezsovlarning asarlarida[1581] ushbu masalaga qarshi bo'lgan nuqtai nazarlari mujassamlashdi. Masalan, Turkkomissiya va Turkbyuro RKP(b)MK a'zosi bo'lgan G. I. Safarov, 1921-yilda Turkistonda "keng inqilobiy harakat" bo'lmaganligi, fevral inqilobi esa telegraf orqali kelganligini yozadi. U buni Turkistonning o'ziga xos xususiyati, mahalliy aholi va rus kelgindilari o'rtasidagi "milliy tengsizlik asosidagi o'zaro bir-birini tushunmaslikning o'tib bo'lmaydigan devori mavjudligi" bilan izohladi. Shuning uchun ham "sinfiy proletar harakati uchun bu yerda zamin juda oz edi", inqilob esa bu joyda boshidanoq "halokatli mustamlakachilik mazmunini kasb etdi va birinchi kunlardanoq "rus ishchilarining ingichka qatlami sifatida qaror topdi" [1582]. 1924-yilda "Пролетарская революция" jurnalida S. Muraveyskiy ham bu fikrni qo'llab-quvvatladi[1583]. Mazkur fikrni rivojlantirib, F. Xo'jayev 1927-yilda aholining asosiy qismini tashkil etgan dehqonlar Oktabr revolyusiyasi, "bu harakat boshida turganlar va yangi revolyusiya ularga nima berishi haqida aniq bir tasavvurga ega emas edilar" deb yozgan edi[1584].

1916-yil qo'zg'oloni xarakteri to'g'risida yirik davlat arbobi T. Risqulov[1585] va opponentlari O'OKU o'qituvchilari I. Meniskiy[1586] va P. Galuzo[1587], shuningdek, F. Xo'jayevning 1926-yilda "Бухоро инқилоби тарихига доир" asarining chiqishi munosabati bilan jadidchilikning ilmiy bahosi uning opponenti G. Turkestanskiy (P. Galuzo)[1588] o'rtasidagi bahslarga sabab bo'lib, ushbu munozaralar 1926-yilda "Коммунистическая мысл" jurnali sahifalarida aks etdi.

20-yillarda O'rta Osiyoda milliy-ozodlik harakati tarixini tadqiq qilish haqida gap ketar ekan, 1929-yilda chop etilgan "Революция в Средней Азии" to'plamidan joy olgan P. Alekseyenkovning "Кокандская автономия" maqolasini[1589] alohida qayd etish kerak. Muallif katta hajmdagi manbaviy materiallarga tayangan holda muxtoriyat uchun harakatning rivojlanish

---

1577 Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). М.: Госиздат, 1921. 147 с.

1578 Муравейский С. (Лопухов). Сентябрьские события в Ташкенте в 1917 г. (по архивным материалам и опросам участников) // Пролетарская революция. 1924. № 10. С. 139–161.

1579 Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана (Сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов). С предисловием автора. Ч.1. 1917–1919. Ташкент, 1925. 218 с.

1580 Ходжаев Ф. Десять лет борьбы и строительства (К десятой годовщине Октября). Самарканд-Ташкент: Госиздат УзССР, 1927.42 с. // Избр. труды. Т.II. Ташкент: Фан, 1972. С. 110–157.

1581 Резцов Л. Октябрь в Туркестане. Ташкент: Средазкнига,1927. 119 с.

1582 Сафаров Г. Ko'rsatilgan asar. 83, 85- бетлар.

1583 Муравейский С. Ko'rsatilgan asar. 138-б.

1584 Ходжаев Ф. Десять лет борьбы и строительства // Избр. труды. Т.II. С. 112–113.

1585 По поводу выступления тов. Меницкого // Коммунистическая мысль. Кн. 2. Ташкент, 1926. С. 177.

1586 Меницкий И. О характеристике событий 1916 г. в Туркестане. По поводу ст. Тов. Рыскулова «Восстание туземцев в Туркестане» // Коммунистическая мысль. Кн. 2. Ташкент, 1926. С. 151.

1587 Галузо П. 16 год в Туркестане и как не следует о нем думать // Коммунистическая мысль. Кн. 2. Ташкент, 1926. С. 168.

1588 Туркестанский Г. Об одном историческом документе. // Коммунистическая мысль. Кн. 2. Ташкент, 1926 С. 137.

1589 Алексеенков П. Кокандская автономия// Революция в Средней Азии. Ташкент: Узгиз, 1931.

bosqichlarini ko'rsatadi, sinfiy kuchlar nisbati, harakat yetakchilari orasidagi ziddiyatlar va fojiali tor-mor etilish jarayonlarini yoritib beradi. P. Alekseenkovning ushbu maqolasi nafaqat 20–30-yillar adabiyotida balkim butun sovet tarixshunosligida ham yagona asar bo'ldi.

Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar 20-yillarning ikkinchi yarmiga kelib tarix fanida markscha-lenincha mafkuraning va yagona dunyoqarashning qaror topayotganligini yorqin namoyon etdi. Tarix fanida asosiy e'tibor bolsheviklar partiyasi tarixini o'rganishga qaratildi. Markscha-lenincha yondashuv ilmiy tadqiqotlarda yagona va asosiy mezonga aylandi. Buni Ye. Zelkinaning "Как не нужно писат историю коммунистической партии Туркестана"[1590] nomli maqolasida ham ko'rish mumkin. Ushbu maqola Ye. Fedorovning "К истории КПТ"[1591] maqolasiga e'tiroz sifatida yozilgan bo'lib, uzoq davom etgan bahs-munozalarga yakun yasadi. Bu bilan fikrlar xilma-xilligi tugatilib, O'zbekistonda partiya tarixi fani va umuman, tarix fanining yagona yo'li, ya'ni sovet mafkurasiga asoslangan rivojlanish yo'nalishi belgilab berildi.

Ye. Zelkina tarixni "siyosiylashtirish"ga chaqirish, uni soxtalashtirish bilan bir paytda o'z davrining ruhiga sodiq qolgan holda mustamlaka revolyusiyasining o'ziga xos shart sharoitlari, burjua-demokratik inqilobining juda sekin sur'atlar bilan sotsialistik inqilobga o'sib o'tishi haqida, mazkur jarayonda milliy burjuaziya va ziyolilar salmog'ining nisbatan ko'pligi, mahalliy aholi proletar va yarim proletar elementlarining passivligi haqida yozadi. Uning fikricha, milliy ziyolilar partiyaga kommunizm g'alabasi uchun emas, balki partiyaga o'zlarining millatchilik g'oyalarini yoyishning qulay shakli deb hisoblaganliklari tufayli kirganlar[1592].

Buni jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri Munavvar Qori Abdurashidxonov, 1919-yilda Toshkent shahar partiya majlisidagi nutqida: "Men kommunistik partiyaga mening o'zbek xalqim uchun foydali deb hisoblaganim uchun kirdim, agar xalqimning farovonligi uchun yana biror boshqa partiyaga kirish kerak bo'lsa, unga ham kiraman", degan so'zlari bilan tasdiqlash mumkin[1593].

Respublikada 20-yillarda tarixiy tafakkur rivojining muhim jihatlaridan biri islom dini muammolari va unga sovet hukumatining munosabati masalasi bo'ldi. Mazkur munosabatlarning asosi XKS 1917-yil 24-noyabrdagi "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga ("Ко всем трудящимся мусулманам России и Востока")" murojaatida shakllantirilgan edi. Ushbu Murojaatda sovet hokimiyatining munosabati "musulmonlarning e'tiqodlari va urf-odatlari, ularning milliy va madaniy tashkilotlari daxlsiz va erkin deb e'lon

---

[1590] Зелькина Е. Как не нужно писать историю коммунистической партии Туркестана // Коммунистическая мысль. Кн. 3. Ташкент, 1927. С. 162–167.

[1591] Федоров Е. К истории КПТ // Коммунистическая мысль. Кн. 2. Ташкент, 1926. С. 48–91.

[1592] Зелькина Е. Ko'rsatilgan asar. 165–166-бетлар.

[1593] Ҳавола Е. Зелькинанинг Ko'rsatilgan asaridan олинган. 166-б.

qiladi", bandida o'z ifodasini topdi[1594]. Yangi hukumat davr haqiqati va musulmon aholi kayfiyati bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Chunki, har qanday e'tiroz qarshilik harakatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham 20-yillarda yangi hukumat din masalasida ehtiyotkorona yo'l tutdi. Bu davrda diniy yo'nalishdagi "Диний журнал", "Ал-ислох", "Ал-изоҳ", "Ҳақиқат" kabi jurnallarni chop etilishiga ruxsat berildi. Xususan, "Ҳақиқат" ("Ҳақиқат") oktabr to'ntarishidan keyin jadidlarning diniy dunyoqarashlarini aks ettirayotgan jurnal edi.

20-yillarda tarixiy adabiyotlarda din masalasi ikki, ya'ni teologik va ateistik yo'nalishlarda tadqiq qilindi. Bu paytda teologlar bo'layotgan voqelar haqida o'z fikrlarini hali rasmiy matbuotda erkin ifodalash imkoniga ega edilar[1595].

Din masalalari haqida mulohaza yuritganda, 20-yillarda yirik sovet xizmatchisi I. Xansuvarovning qat'iy marksistik pozitsiyada yozilgan "Мусдуховенство" maqolasini[1596] qayd etish joiz. Bu muallif islomdagi turli xil oqimlar haqida fikr yuritar ekan, u faqat O'rta Osiyo hududlari bilan cheklanib qolmaydi. Biroq, uning progressiv va konservativ dindorlar haqidagi fikrlari hamda umuman, dinning ahamiyati haqidagi mushohadalari shakllanayotgan va keng yoyilayotgan ateizm tashviqoti g'oyalari bilan sug'orilgan edi.

Islom diniga oid tarixiy tafakkur rivoji bir qator o'z xususiyatlariga ega edi. Bunga bevosita sovet hukumatining dinga nisbatan bo'lgan siyosatining ikkiyoqlama xarakteri o'z ta'sirini o'tkazdi. U bir tomondan, kommunistik mafkuraga asoslangan ateistik dunyoqarashning shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, bu o'rinda, hokimiyat ommaning dinga chuqur e'tiqodi va qandaydir qisqa fursatlarda keskin choralar bilan buni yo'qotish mumkin emasligini yaxshi tushunardi. Boshqa tomondan esa ushbu siyosat ehtiyotkorona va bag'rikenglik bilan olib borildi[1597].

20-yillarning oxiriga kelib xususiy mulkchilik iqtisodiy ukladi tugatilib, kuchli ma'muriy apparatning shakllanishi bilan davlat dinga qarshi ta'qiqlar va tashviqotini faollashtirdi. Shu maqsadda 1928-yilda O'zbekistonda "Kurashchan xudosizlar jamiyati" tuzildi. Mazkur jamiyat o'zining "Худосизлар" jurnalini chop eta boshladi. 30-yillarda dindorlarga qarshi ochiqdan-ochiq qatag'onlar o'tkazildi. Ushbu davrda A. Ikromov, S. Dimanshteyn va M. Kobeskiylar maqolalarida dinga qarshi kurashning metodlarini kuchaytirish hamda progressiv dindorlarga qarshi ochiq kurash zarurligi masalasi ilgari surildi.

Respublikada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tahlili aks etgan adabiyotlar 20-yillardagi tarixiy tafakkur ifodasi bo'ldi. Davlat arboblari T. Risqulov va F. Xo'jayevlarning nutq hamda maqolalari respublikadagi

---

[1594] Уразаев Ш. З. В. И. Ленин и строительство советской государственности в Туркестане. Ташкент, 1967. С. 60.
[1595] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане ...
[1596] Хансуваров И. Мусдуховенство // Коммунистическая мысль. Кн. 5. Ташкент, 1927.
[1597] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане ...

jarayonlarni aks ettirgan va bugungi kunda qimmatli tarixiy manbaga aylangan asarlar hisoblanadi. T. Risqulov o‘z nutq va chiqishlarida markaz tomondan belgilangan xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi haqidagi ko‘rsatmalari formal xarakterga egaligi, sovet milliy va iqtisodiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati, ocharchilik bilan kurash, musulmon qizil armiyasini tuzish zarurati, Farg‘onadagi qarshilik harakati kabi masalalarni ko‘tarib chiqdi[1598].

F. Xo‘jayevning katta hajmdagi merosida respublikada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni, ularning salbiy oqibatlari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning tanqidiy tahlili, sovet hokimiyatining sotsializm qurilishida muvaffaqiyatlarga erishishda qo‘llagan vositalari yoritildi[1599].

20-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligidagi og‘ir ahvol, uning sabablari, inqiroziy holatdan chiqish yo‘llari va dehqon xo‘jaligining rivojlanish istiqboli tahlil qilindi. Bu albatta, mintaqa aholisining katta qismini dehqonlar tashkil etganligi bilan izohlanadi. Aynan o‘zbek qishlog‘ida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tahliliga o‘sha davr yirik iqtisodchilarning asarlari bag‘ishlandi[1600]. Ushbu asarlarning ilmiy qimmati ularning masalalarni yoritishdagi markscha-lenicha yondashuvlardan yiroqligi, paxtachilikka ixtisoslashgan rayonlarning ijtimoiy holati, dehqonlarning tabaqalashuvi jarayoni va o‘zbek qishlog‘ida yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi tavsiflangani bilan belgilanadi[1601].

20-yillarda yaratilgan P. G. Galuzo[1602] va V. Lavrentevlarning asarlari[1603] mustamlaka Turkistonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ilk umumlashtiruvchi asarlar sirasiga mansub edi. Ularda Turkistonni mustamlakaga aylantirilishi, sanoat kapitalizmining vujudga kelishi va oqibatlari kabi masalalar yoritildi.

Mazkur davrda katta hajmdagi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan statistik materiallarning chop etilishi tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishda

---

1598 Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана ...

1599 Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 томлик. Тошкент: Фан, 1976, 1977, 1978.

1600 Демидов А. П. Экономический очерк хлопководства, хлопковой торговли и хлопковой промышленности в Туркестане. М.: Госиздат. 1922. 256 с.; Юферев В. И. Хлопководство в Туркестане. Ленинград: Изд. АН СССР. 1925. 158 с.; Shu muallif. Очерки по экономике хлопкового хозяйства. М.: Госиздат. 1927. 175 с.; Среднеазиатский экономический район. Очерки по экономике Средней Азии (Бухара, Хорезм, Туркестан). Под ред. Ю. И. Пославского и Г. Н. Черданцева. Ташкент: Изд. ТЭС. 1922. 128 с.; Послaвский Ю. Некоторые особенности перспективы аграрной эволюции в Узбекистане // Народное хозяйство Средней Азии. 1925. № 8–9. С. 11–23; Ярошевич Н. К. Состояние сельского хозяйства Средней Азии за 1923–1924 годы // Народное хозяйство Средней Азии. 1924. №5. С. 1–16; Shu muallif. Организация крестьянского хозяйства Средней Азии. Самарканд-Ташкент: Госиздательство Уз ССР, 1926. 85 с.

1601 Махкамова Н. Тематика социально-экономических исследований в советский период (1917–1956 гг.) / Очерки историографии Узбекистана в XX столетии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. С.104-120.

1602 Галузо П. Г. Туркестан - колония. (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г.). М.: Изд. Коммунистического университета трудящихся Востока. 1929. 235 с.

1603 Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане (Буржуазная колонизация Средней Азии). Ленинград: Госиздат. 1930. 160 с.

muhim o'rin tutdi. Ular orasida respublikada 20-yillarda o'tkazilgan turli xil ro'yxatga olishga doir materiallarini chop etilganligini ko'rish mumkin: qishloq xo'jaligi (1917-y. va 1920-y.)[1604], sanoat (1920-y.)[1605], Toshkentda aholi (1921-y.)[1606], shahar aholisi (1923-y.)[1607] va Samarqand shahri aholisining ro'yxatlashtirilishi (yanvar 1925-y.)[1608], 1926-yilda Butunittifoq aholisi ro'yxatining tuzilishi[1609] . Ushbu jarayonlarni aks ettirgan to'plamlar 20-yillardagi aholi soni, ijtimoiy va professional tarkibi haqidagi qimmatli va haqqoniy axborotni o'zida mujassamlashtirganligi bilan e'tiborga sazovor. Uning qimmati, ayniqsa, 1959-yilda o'tkazilgan[1610] Butunittifoq aholini ro'yxatga olish materiallari bilan qiyoslaganda, yaqqol ko'zga tashlanadi (bor yo'g'i 1 tom va 168 betdan iborat).

Ushbu materiallarning o'ziga xos xususiyati, ulardagi axborotning yuqori sifati va haqqoniyligi, uni tuzishda yuqori malakali iqtisodchi hamda statistlarning ishtirok etganligi bilan tavsiflanadi. Biroq, 30-yillardan boshlab mazkur axborotlar haqqoniy vaziyatni buzib va bo'yab ko'rsatishga o'zgardi.

20-yillarda ko'plab turli maslalar bo'yicha ko'plab statistik to'plamlar chop etildi. Ular: "Среднеазиатский экономический раён" (1922 y.), "Материалы по статистике труда Туркреспублики". 1–4-qismlar (1922 y.). "Питание городского и селского населения Туркреспублики" (1923 y.), "Материалы по промышленной статистике Турк ССР" (1924 y.), "Список сензовых промышленных заведений УзССР (1923 й. 1 октябр – 1925 й. 1 апрель ҳолатига)" (1925 y.), "Труд и социальное страхование в Узбекистане" (1926 y.) va "Материалы по раёнированию Средней Азии. Территория Бухары и Хорезма" (1926 y.). Mazkur materiallarning qimmati Buxoro va Xorazm hududlari haqida milliy-davlat chegaralanishiga qadar bo'lgan to'liq ma'lumotlarni berganligi bilan izohlanadi[1611].

Ushbu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar haqida gap ketganda, 1926–1927-yillarda chop etilgan "Современный кишлак Средней Азии"

---

[1604] Материалы Всероссийских сельскохозяйственных переписей 1917 и 1920 гг. в трех выпусках. Вып.1. Ташкент, 1924; Вып.2. Самарканд, 1925; Вып.3. Самарканд. 1925: Статистический ежегодник. 1917–1923 гг. Т. I, II. Ташкент 1924.

[1605] Материалы Всероссийских переписей 1920 года. Промышленная перепись в Туркестанской республике. Вып.1. Список промышленных заведений г.Ташкента. Ташкент, 1922.

[1606] Итоги жилищной переписи европейской части г.Ташкента. 1921 г. Ташкент, 1922.

[1607] Классовый и профессиональный состав городского населения ТССР в 1923 г. (по результатам городской переписи населения в 1923 г.). Приложение к статистическому ежегоднику ЭКОСО. Ташкент, 1924.

[1608] Перепись населения нового города Самарканда 16-17 января 1925 г. Самарканд, .1925.

[1609] Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Отдел I. Народности, родной язык, возраст, грамотность. М., 1928; Том XXXII. Узбекская ССР. Отдел II. Занятия. М., 1929; Том XLIX. Отдел III. Семейное состояние, место рождения, продолжительность проживания, увечность. М., 1930; Материалы Всесоюзной переписи населения в Узбекской ССР. Самарканд, 1926; Материалы всесоюзной переписи населения 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. III. Характеристика городской недвижимости и жилищных условий населения Уз ССР и ТАССР. Самарканд, 1929.

[1610] Итоги всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. М.: Госстатиздат, 1962. 168 с.

[1611] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане ...

ocherklarini alohida ta'kidlash joiz. Ocherklar 1925-yil martda, VKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi qaroriga binoan, yer-suv islohotini o'tkazishdan oldin o'tkazilgan O'rta Osiyo qishloqlari va ovullarini tadqiq qilish natijalari asosida chop etilgan edi[1612].

O'zbekiston tarixining sovet davri madaniyati tarixshunosligi muammolari haqida so'z borganda, ushbu sohaning rivojlanishi, eng avvalo, maorif va fan masalalari bilan bog'liqlikda o'rganilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Zero, madaniyat, uning ustuvor yo'nalishi bo'lgan fan taraqqiyotining poydevori aynan maorif tizimi rivoji bilan belgilanadi. Tabiiyki, sovet yillarida madaniyat mavzusiga qo'l urgan barcha mualliflar, birinchi navbatda, maorif masalasiga e'tibor qaratganlar[1613].

Turkistonda "maorif", "maktab" va "o'qituvchilar" muammosi XX asrning boshlaridayoq madaniyat sohasidagi yechilishi zarur bo'lgan eng dolzarb masalalardan hisoblangan edi. Biroq, Turkistonda Oktabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga birday salbiy ta'sirlarini o'tkazdi. Ayniqsa, maorif sohasida ushbu holat yaqqol sezildi. Ular tomonidan tuzilgan Maorif Xalq Komissarligi tashkiloti dastlabki yillarda Rossiya imperiyasi mustamlakasi davridagidek musulmonlar maorifiga e'tibor bermadi, hatto mazkur tashkilot tarkibiga biron-bir mahalliy millat vakili kiritilmadi. Chunonchi, "Наша газета"da yozilishicha, 1918-yil 15-iyunda o'tkazilgan Turkiston o'lkasi Xalq Maorifi xodimlarining s'yezdiga mahalliy millat vakillaridan juda ozchilik taklif etiladi. Asosan, rus millati vakillari ishtirok etgan va o'lkadagi maorif va maktab sohasida yig'ilgan bir qator muammolarni "hal etish" maqsadida yig'ilgan ushbu anjuman keskin munozaralar ostida o'tgan bo'lsa-da, biron-bir natijasiz tugaydi[1614].

Shunga qaramay, mazkur s'yezdda mahalliy millat vakillaridan bo'lgan keyinroq, ya'ni 1919-yildan Maorif Xalq Komissari etib tayinlangan Sodiq Abdusattorov o'zining "Musulmon milliy maktablari haqida" deb nomlangan katta ma'ruzasi bilan qatnashdi. Juda keng qamrovli bo'lgan ushbu ma'ruzada notiq Turkiston o'lkasidagi usuli jadid maktablarining ochilishi va ular faoliyatiga mutaassiblarning qarshiliklari xususida atroflicha to'xtalib o'tadi. S. Abdusattorov s'yezdga Turkiston o'lkasida o'qitishni majburiy qilish, Maorif Xalq Komissarligi lavozimiga musulmon millatiga mansub kishini qo'yish, rus-tuzem maktablarini bitirgan barcha o'qituvchilarni milliy maktablarga safarbar etish hamda ularga ona tilini o'rganishlari uchun kurslar ochish, o'qituvchilar tayyorlaydigan maktab (seminar)larni yo'lga qo'yish kabi bir qancha takliflarni

[1612] Современный кишлак Средней Азии. (Социально-экономический очерк). Вып V. Балыкчинская волость Ферганской области. Ташкент: Изд. Средазбюро ЦК ВКП (б), 1927. С. 1.
[1613] Bu haqida qarang: Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Тошкент: Navro'z, 2014. 334 б.
[1614] Наша газета. 1918. 18 июнь.

o'rtaga tashlaydi va albatta, sovet hukumati bu ishlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi, deb ishonadi[1615].

Amalda bolsheviklar tomonidan o'ylab topilgan "madaniy inqilob" dasturiga ko'ra, maorif sohasini "tubdan yangilash", ya'ni ilgaridan mavjud bo'lib kelgan barcha turdagi o'quv muassasalarini yo'q qilish, o'quv-tarbiya jarayonini siyosiylashtirish, proletar g'oyasini targ'ib qilish va uning hukmronligini o'rnatish bosh maqsad edi. O'sha vaqtda mahalliy xalq orasida katta obro' topgan jadid maktablari, undagi o'qitish tizimi va tajribasi esa umuman e'tibordan chetda qoldi. Bu haqda F. Yegorovning[1616] qalamiga mansub bo'lgan "Turkiston musulmonlarining maorifi haqida" deb nomlangan maqola to'laqonli tasavvur hosil qiladi. Turkiston shart-sharoitidan kelib chiqib yozilgan ushbu maqolada: "Respublika maktablari ruslar va boshqa mayda millatlar uchun ommabop bo'lsa-da, musulmonlar son jihatdan ustunligiga qaramay (aholining 95% musulmonlar), ular uchun deyarli hech narsa qilinmadi, ... va bunga sabab, birinchidan ommaning eski hayot tarziga o'rganganligi, ikkinchidan, ularning yetarli darajada uyushmaganligi va buning natijasida ular orasidan maorif komissarining yo'qligi va uchinchidan, O'lka Maorif Xalq Komissariatining noto'g'ri tuzilganligi bo'lib, u ham xuddi chorizm davridagidek mahalliy musulmonlar maorifiga e'tibor bermay, qo'l orasidan qarash yo'liga o'tib olganligida"[1617], deb qayd etilgan edi.

F. Yegorovning ushbu maqolasi hamda S. Abdusattorovning yuqorida ko'rsatilgan ma'ruzasi Turkiston o'lkasining sovet davri maorifi va madaniyati tarixshunosligida muhim ahamiyat kasb etuvchi manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Turkiston o'lkasidagi xalq maorifini tahlil qilish, uning yechilish yo'llari va usullarini izlash, maktablarda dinning o'qitilishi zaruriyati bormi yoki yo'qligi kabi masalalar doimo milliy ziyolilarning diqqat markazida bo'lib keldi. Albatta, o'z davri uchun ushbu masalalarning hal etilishi turli xil fikrlar, tortishuv va bahslarga sabab bo'lgan.

Xususan, 1918–1920-yillarda nashr etilgan "Иштирокиюн" gazetasi sahifalarida Turkiston o'lkasidagi maorifning ahvoli, yangi maktablar tuzish, o'qituvchilar tayyorlash muammolari to'g'risida turli-tuman takliflar o'rtaga tashlandi. "Maorif masalasi", "Turkiston xotin-qizlari nega o'qimaydilar?", "Maorif ishlari", "Inqilob ham maorif ishlarimiz", "O'quvchilar uchun yana qanday kurslar kerak?" va boshqa bir qator maqola mualliflari bevosita maorif hamda maktablarning rivojida sodir etilayotgan kamchiliklarni ro'yi-rost ko'rsatishga harakat qilganlar. Mualliflar, "maktab ili turmushni birlashtiruv, hunar o'rganmoq, o'quvchilarga hurriyat tahsil bermoq, hamma maktablarni,

---

[1615] Shu joyda.
[1616] F. Yegorov 1908–1909-yillarda Farg'ona viloyati xalq bilim yurtlari inspektori lavozimida ishlagan.
[1617] Егоров Ф. К вопросу о просвещение мусульман Туркестана // Коммунист. 1918. 1 декабрь.

maorif komissariati nazoratiga olmoq zarur"[1618] degan g'oyalarni ilgari surganlar va bu bilan birga, ular barcha ta'lim tizimini birlashtirib, yagona markaz nazoratida bo'lish tarafdori edi.

Ayollarning jamiyatda tutgan o'rni, rivojlangan jamiyatni ayollarsiz tasavvur etib bo'lmasligi, uni yaratish uchun ayollarni albatta maktab va maorif sohasiga jalb etish kerakligini ta'kidlab, "jamiyat, bashariyatning haqiqiy saodati yaxshi tarbiya ko'rmish, fazilatli ayollar ila qoyimdir"[1619], deb yozadi Ismoil Haqqiy.

Rus tilida chop etilgan gazeta sahifalarida ishtirok etgan mualliflar esa yuqorida qayd etilganidek, asosan, o'qitish usulini yangilash, o'quvchilarning estetik tarbiyasida proletarlashtirishga e'tibor berish, ularni mehnatga jalb etish, fanlarni isloh qilish va albatta, "sotsialistik g'oya" ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritdilar[1620].

Ammo, maorif sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning natijasi qanday bo'lganligi keyingi yillar matbuotidagi maqolalardan ko'rish mumkin.

Yangi iqtisodiy siyosatni maorif ishlarining barcha jabhalariga salbiy ta'sirini ushbu davr mualliflari bir ovozdan, alohida ta'kidlagan edi. Maktablarning moddiy jihatdan ta'minlanishi tang ahvolga tushganligi, moliyaviy qiyinchiliklar va 3–4 oylik bilimga ega bo'lgan o'qituvchilarning maktablardan uzoqlashuvi kabi illatlar maktablarning keskin ravishda qisqarishiga olib keldi. F. Olikov ushbu holatni shunday baholaydi: "Biz muassasalarimizga dabdabali nomlar yopishtirib, yaltirash kasali bilan og'ridik. Hozirgi qashshoqligimizda ularni zarur narsalar bilan ta'minlay olmasligimizni yoddan chiqardik. Natijada, sirtdan qudratli, mazmunan qashshoq holga tushdik"[1621].

Shu bilan birga, tadqiq etilayotgan davr matbuotida o'qituvchilar muammosiga ham alohida e'tibor berilgan. 1918–1920-yillar davomida nashr etilgan maqolalarning aksariyatida yangi maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash xususida turli fikrlar bildirildi. Masalan, muallif Podolyanin yangi maktablarda eski pedagog kuchlardan samarali foydalanish, faqatgina ularni g'oyaviy jihatdan qayta tayyorlash, o'qituvchi kadrlarni yetkazish uchun ikki yillik kurslar ochish va u yerda ijtimoiy fanlarga ko'proq e'tibor berish to'g'risidagi g'oyasi bilan chiqadi[1622].

---

[1618] Маориф комиссариатининг доклади // Иштирокиюн. 1919 йил. 28 март.

[1619] Qarang. Мустафаева Н. ХХ асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур.... Исмоил Ҳаққий. Маориф масаласи // Иштирокиюн. 1919 йил. 5 июнь.

[1620] Лусьев И. Школа и жизнь // Наша газета. 1918. 19 май; Оликов Н. Д. О школе будущего // Наша газета. 1919. 6 февраль; Флорентьев Б. К вопросу о новой школе // Народный университет. 1918. 15 август; А.Д. Школа и характер (к реформе школьной дисциплины) // Народный университет. 1918. 4 август ва б.

[1621] Оликов Ф. Наши задачи // Наука и просвещение. 1922. №1. С. 3.

[1622] Подолянин. Подбор педагогического персонала как главная задача новой школы // Наша газета. 1919. 10 апрель.

Sovet maktablarining nufuzini oshirish maqsadida 1927-yildan boshlab faoliyatda bo‘lgan barcha eski usul – diniy maktablarga qarshi kurash boshlandi. O‘zSSR MIKning III-sessiyasida eski usul maktablarga barham berish va ularni tugatish to‘g‘risida O‘zSSR Maorif Xalq komissari M. Ramzi[1623] katta ma'ruza qildi[1624]. Albatta, o‘sha davrga xos bo‘lganidek, ma'ruzachi bu maktablarga "burjua jadid maktablari", ziyoli va dindorlarga "sinfiy dushman" kabi yorliqlar yopishtiradi. Garchi, 20-yillarning so‘nggida mahalliy budjetning 40% va davlat budjetining 33% xalq maorifiga ajratilgan bo‘lsa-da, Fayzulla Xo‘jaev "hatto mana shu katta mablag‘lar ham yetarli emas", deb hisoblaydi. Uning fikricha, "O‘zbekistonda xalq maorifi sohasi eng qoloq soha: xo‘jalikning rivojlanishi bilan madaniyat ishlarining rivojlanishi o‘rtasida tafovut yildan-yilga ko‘proq sezilmoqda. O‘zbekiston aholisining katta qismi haligacha savodsiz va bu savodsizlikni batamom tugatish uchun yaqin kelgusida imkoniyat yo‘q: maktab yoshidagi bolalarni maktabga tortish O‘zbekistonda faqat 19%ni tashkil etadi. Madaniy qoloqlik mana shunday oxirgi darajaga yetib turgan sharoitda bu yil xalq maorifiga berilgan 28 million so‘m u yoqda tursin, hatto bundan ko‘proq mablag‘ berilgan taqdirda ham ushbu mablag‘ yetarli bo‘lmas edi"[1625].

Ammo, 20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlariga kelib, mazkur davr uchun xarakterli bo‘lgan sinfiy kurash, millatchilik va kadrlarni tozalash kabi g‘oyalar maorif hamda maktab sohalarini ham o‘z e'tiboridan chetda qoldirmadi.

Sovet davlati XX asrning 20-yillar oxiriga kelib, o‘z siyosiy mavqeini mustahkamlab, madaniy yo‘nalishdagi siyosatini asta-sekin mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi. O‘tmishning har bir hodisasiga sinfiy nuqtai nazardan yondashish, fan, adabiyot va madaniyatda soxtakorlik, tarixni tuzum manfaatlariga moslab yozish, inqilobga qadar bo‘lgan o‘tmishni esa qora bo‘yoqlar bilan ko‘rsatish kuchaydi. Ayniqsa, turli xil o‘ylab topilgan, maqsadi ming yillar davomida shakllanib kelgan an'anaviy madaniyatni inkor etuvchi, yangicha "proletar madaniyati" negizini tashkil qilgan g‘oyaviy oqimlar Turkiston, keyinroq O‘zbekiston xalqlariga jiddiy ma'naviy zarar yetkazdi[1626].

20-yillarning ikkinchi yarmi – 30-yillarning boshlari tarix fani markazlari faoliyatining faollashgani bilan tavsiflanadi. 1926–1929 yillarda Butunittifoq tarixchi-marksistlar jamiyati o‘zbek bo‘limi, sharqshunos-marksistlar jamiyati, ilmiy-tadqiqot muassasalarining O‘rta Osiyo assotsiatsiyasi (SAANIU) tashkil topdi. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishdan o‘tkazilgandan so‘ng Istpartning Turkiston byurosi VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi qoshidagi – partiya va oktabr revolyusiyasi tarixi bo‘limiga aylantirildi (Sredazistpart).

---

[1623] 1931-yilda Mannon Ramzi hibsga olinib, o‘z vazifasidan chetlatilgan edi.

[1624] Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. ... ЎзМА. 94-фонд. 5-рўйхат. 62-иш. 3–18 вараклар.

[1625] Ўзбекистон ва халк хўжалиги (СССР МИК 1928 йил 3 декабрь IV чакирик нутки) // Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 2-том. Тошкент, 1978. 288–289 бетлар.

[1626] Bu haqida qarang: Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур...

Keyinchalik u revolyusiya tarixi O'rta Osiyo ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etildi (SANIIR). Ushbu tashkilot O'rta Osiyoda tarix fanini muvofiqlashtiruvchi markaz bo'lib shakllana bordi. 1933-yilda SANIIR VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi qoshidagi O'rta Osiyo marksizm-leninizm ilmiy-tadqiqot institutiga o'zgartirildi (SANIIML)[1627].

SANIIR vaqtinchalik nizomida uning vazifalari sifatida ilmiy-tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish, O'rta Osiyo hududida revolyusiya, kompartiya, milliy masala tarixiga doir materiallar to'plash belgilandi[1628]. Mazkur ilmiy-tadqiqot markazlari tarixchi kadrlarning shakllanishi va fanda markscha-lenincha metodologiyaning tamomila qaror topishida muhim rol o'ynadi. Tarixchi kadrlar tayyorlashda 1933-yilda tashkil etilgan Samarqand davlat universiteti, 1935-yilda asos solingan Toshkent, shuningdek, Andijon, Buxoro va Termiz shaharlaridagi pedagogika institutlari katta hissa qo'shdi.

1932-yil 4-oktabrda ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati va ilmiy ishlanmalarni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston soveti MIK qoshida Fan qo'mitasi tuzildi[1629]. Uning tarkibiga turli ilmiy muassasalar (Uzkomstaris) bir qatorda, Davlat kutubxonasi va Kitob palatasi ham kirdi. Mazkur qo'mitaning vazifalari etib, "sotsializm qurilishi g'alabalariga javob beruvchi ilmiy-nazariy ishlarni tashkillashtirish, respublikadagi ishlab chiqarish kuchlari rivojini o'rganish, madaniy qurilishni kuchaytirish, ilmiy sohalarni takomillashtirish, ilmiy tadqiqot muassasalarining ishini nazorat qilish va ilmiy boshqaruv" kabi ishlar belgilandi. Dastlab bu qo'mitaga Otajon Hoshimov rahbarlik qilgan va uning tarkibidagi ilmiy markazda A. Fitrat, I. Inog'omov, M. Saidjonov, B. Sergeyev, M. Masson, V. Yaroskiy, S. Tolstov, V. Shishkin va boshqa ko'plab taniqli olimlar faoliyat yuritgan hamda ular tomonidan ko'plab yo'nalishlar, ayniqsa, ilmiy-tarixiy tadqiqotlar olib borildi[1630].

30-yillarning boshiga kelib tarix fanining hujjatlar bazasi mustahkamlana bordi. Natijada, Markaziy arxiv boshqarmasida juda katta hajmdagi hujjatli materiallar to'plandi.

O'zbekistonda sotsialistik qurilish avj ola borishi bilan nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohada balkim mafkuraviy vaziyatda ham o'zgarishlar ro'y berdi. Tarix fani tobora siyosiylashib, jarayonlarni o'rganishda sinfiy yondashuvning markscha-lenincha konsepsiyasi qaror topdi va fikrlar xilma-xilligiga chek qo'yildi. Tarix soxtalashtirilib, faqat ijobiy holatlar bo'rttirib ko'rsatildi. Qolaversa, tarixchi kadrlarning tajribali qismi "xalq dushmani"

---

[1627] Германов В. А. Историческая наука Узбекистана в эпоху СССР ...

[1628] Чеботарева В., Раджапова Р. Историко-партийная наука в Узбекистане. Ташкент: Узбекистон, 1982. С. 33.

[1629] УзМА. Р-95-фонд. 2-руйхат. 464-иш. 50-варақ.

[1630] Фитрат А., Сергеев Б. С. Казийские документы XVI века. Ташкент, 1937; Первышев И. И. Деловая переписка Сейид Мирека с эмиром Музаффаром // Социалистическая наука и техника. 1935. № 7. С. 80–85; Яроцкий В. Социально экономические отношения в Средней Азии в эпоху Сасанидов // Социалистическая наука и техника. 1934. № 1–2. С. 13–33; Инагамов И. И. Основные задачи Узкомстариса // Социалистическая наука и техника. 1933. № 1. С. 90–94 ва б.

tamg'asi ostida qatag'on qilinib, ilmiy faoliyatdan chetlatilganligi fanga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi[1631].

Shuning uchun ham 30-yillarga oid tarixiy adabiyotlar oldingi bosqichdan keskin farq qiladi. Mazkur jarayonlar A. Gurevichning 1934-yilda chop etilgan "О положении на историческом фронте Средней Азии" maqolasida o'z ifodasini topdi[1632]. Muallif hech qanday bahs munozaraga kirmagan holda markscha-lenincha mafkura dunyoqarashi tizimida turmagan tadqiqotchilarni keskin tanqid qildi.

Ushbu davrda tarix fanining holati haqida gap ketar ekan, uning rivojiga munosib hissa qo'shgan mahalliy ziyolilar vakillari Po'lat Soliyev va Abdurauf Fitrat faoliyatini tilga olmay bo'lmaydi.

Po'lat Soliyev mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan yangi avlod tarixchisi hisoblangan. U 20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida Samarqanddagi oliy pedagogika institutida "O'rta Osiyo tarixi" kafedrasiga rahbarlik qildi. Mazkur institutda (1930-yilda ushbu muassasa O'zbek davlat pedagogika akademiyasi sifatida qayta tashkil etilgan) 1929-yilda P. Soliyevning "O'zbekiston tarixi. XV–XIX asrning birinchi yarmi" asari chop etildi. Bu o'z davri uchun katta yutuq bo'lib, muallif tadqiqotga nihoyatda katta hajmdagi manbalarni jalb qilgan edi. Ushbu manbalar va saroy tarixnavislarining voqea hodisalarga sub'yektiv qarashlari tanqidiy nuqtai nazardan o'rganilib, asosli ilmiy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, P. Soliyev yana bir qator asarlar va maqolalar muallifi ham edi. U O'rta Osiyo tarixi, xorijiy Sharq mamlakatlari va imperialistik davlatlarning mustamlakachilik siyosati to'g'risidagi maqolalarida o'z mushohadalarini taqdim qildi. 1936-yilda esa P. Soliyev Fan komitetida O'zbekiston tarixi seksiyasini boshqardi[1633].

Mazkur davrda O'zbekiston tarix fani rivojiga munosib hissa qo'shgan yana bir olim professor Abdurauf Fitrat edi. Abdurauf Fitrat o'z davrining bilimdon va ziyoli vakillaridan biri bo'lib, ko'plab tarixiy-falsafiy va adabiy asarlar muallifidir. U Moskva va Leningraddagi ilmiy markazlarda faoliyat olib borgan, Leningrad universiteti professorligiga saylangan edi. Uning qalamiga mansub "Образцы древнетюркской литературы (1927 йилда ўзбек ва рус тилларида чоп этилган)", "Мятеж дявола против создателя", "Узбекская классическая музыка и ее история", "Оила ёки оила бошқариш

---

[1631] Шпедт А. Ф. Чистка советского аппарата в Средней Азии. Москва-Ташкент: Госиздательство УзССР, 1931. 47 с.; Катанян Р. Против Касымова – против касымовщины (Речь государственного обвинителя по делу судебных работников Узбекистана). Ташкент: Госиздательство УзССР, 1931. 25 с.; Shu muallif. Бадретдиновщина (Речь государственного обвинителя по делу прокурорско-следственных работников Узбекистана). Ташкент-Самарканд: Госиздательство УзССР, 1932. 120 с.; Байбулатов Д. Чагатаизм-пантюркизм в узбекской литературе. Москва-Ташкент: Объединенное госиздательство. Среднеазиатское отделение, 1932. 39 с. и др.

[1632] Гуревич А. О положении на историческом фронте Средней Азии // Революция и культура в Средней Азии. Сб. первый. Ташкент, 1934. С. 11.

[1633] Германов В. Профессор Пулат Солиев и его время. (Жизнь и трагедия основателя узбекской исторической школы). Ташкент: Фан, 2002. 64 с.

тартиблари", "Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она ест)"[1634] kabi kitoblar dunyo yuzini ko'rdi.

Abdurauf Fitrat bir qancha vaqf hujjatlari, shuningdek, Abdulqodir Bedil va Ahmad Yassaviy to'g'risidagi ishlarni chop etdi. U Samarqand o'qituvchilar malakasini oshirish, Toshkentdagi Til va adabiyot institutlarida faoliyat yuritdi.

30-yillarning o'rtalariga kelib ushbu mualliflarning qarashlari tanqid ostiga olindi. Ularga sinfiy kurash ahamiyatini to'g'ri baholamaslik, tarixda shaxslarning rolini yuksaltirish va markscha-lenincha ta'limotga mos kelmaydigan qarashlari aybi qo'yildi. Ma'lum vaqt o'tib, o'z millati va tarixining jonkuyarlari bo'lgan bu ikki olim ham ko'p ziyolilar qatorida sovet qatag'on siyosatining qurboniga aylandi. Ular misolida O'zbekiston tarix fani juda katta yo'qotishga uchradi.

XX asrning 30-yillari o'rtalarida O'zbekiston tarix fanida markscha-lenincha nazariya to'la qaror topdi. Ilmiy tadqiqotlar esa sotsializm qurilishi muvaffaqiyatlarini bo'rttirib ko'rsatishga yo'naltirildi. Ularning manbaviy asoslari tobora torayib, taqiqlangan mavzular soni ko'paya bordi[1635]. Asosiy vazifalar sifatida esa maktab va oliy o'quv yurtlari uchun O'rta Osiyo tarixi haqida markscha ta'limotga asoslangan o'quv qo'llanma hamda darsliklar yaratish qo'yildi. Mustamlaka davri, partiya va revolyusion harakatlar tarixi, sotsialistik o'zgarishlar jarayonini yoritishga katta e'tibor berildi. Mazkur yo'nalishda SANIIML bir qator ishlarni amalga oshirdi.

Ushbu institutda O'zbekiston tarixi bo'yicha darslik yaratishga tayyorgarlik ishlariga kirishildi. Mazkur jarayonda F. Xo'jayev, P. Soliyev, Z. Gimadiyev va V. Yershovlar faol ishtirok etdi, F. Xo'jayev esa bunga rahbarlik qildi.

30-yillarda tarix fani tashkiliy tizim yangi o'zgarishlarga tortildi. 1934-yilda SANIIML UzNIIML sifatida qayta tashkil qilindi. 1938-yilda O'zKP(b) MK uni O'zbekiston kompartiyasi tarixi institutiga aylantirish haqida qaror qabul qildi. Institut asosiy vazifalari etib mahalliy partiya tashkilotlari tarixini o'rganish, V. I. Lenin faoliyatini yorituvchi materiallarni yig'ish, marksizm-leninizm klassiklari asarlarini mahalliy tillarga tarjima qilish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va monografiyalar yaratish qo'yildi[1636].

XX asrning 20–30-yillarida tarix fani rivojini tavsiflash asnosida shunday xulosaga kelish mumkinki, keng ko'lamdagi ilmiy tashkiliy ishlar, tadqiqotlarning asosiy maqsadi mazkur fan orqali jamiyat markscha-lenincha dunyoqarashini shakllantirish bo'ldi. Bu esa tarixni soxtalashtirish va uni buzib ko'rsatish evaziga amalga oshirildi.

---

[1634] Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. [Масъул муҳаррир Д. Алимова]. Тошкент: Маънавият, 1998. 112 б.; Фитрат А. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть) / Перевод с персидского А.Н. Кондратьева Ташкент, 2007. 100 с.

[1635] Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане в 30-е гг. XX в. Установление идеологического единомыслия // O'zbekiston tarixi. 2013. № 2. С. 33–41.

[1636] Чеботарева В., Раджапова Р. Ko'rsatilgan asar. 51-б.

## XX asrning 40-yillarida O‘zbekistonda tarix fani

Ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yasadi. O‘zbekiston va o‘zbekistonliklar tez orada hayotlarini urush sharoitiga moslashtirdilar. Ular fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga munosib hissalarini qo‘shdilar.

Urush harakatlari davom etayotgan hududlardan tarixiy yo‘nalishdagi muassasalarning O‘zbekistonga ko‘chirilishi uning ilmiy hayotida ma’lum rol o‘ynadi. Toshkentda SSSR FA Tarix, Sharqshunoslik va Huquq kabi institutlari joylashtirildi. Rossiyadan kelgan olimlar orasida akademiklar, fan doktorlari va professorlar bor edi. Bular jumlasiga B. D. Grekov, V. V. Struve, Yu. V. Gote, M. V. Nechkina, S. P. Tolstov, S. V. Baxrushin, V. I. Picheta va A. Yu. Yakubovskiylar kiradi[1637].

Ilmiy sohada faoliyat olib borayotgan barcha olimlarning oldidagi asosiy vazifa g‘alabaga xizmat qilish edi. Ushbu vazifalarni bajarishda Toshkentga evakuatsiya qilingan SSSR FA akademigi B. D. Grekov va muxbir a’zosi A. Yu. Yakubovskiylar katta rol o‘ynadi. Jumladan, A. Yu. Yakubovskiy SSSR FA Sharqshunoslik instituti O‘rta Osiyo kabinetini boshqardi va ayni paytda O‘ODU O‘rta Osiyo tarixi kafedrasiga rahbarlik qildi. Olim 1942-yilda “O‘rta Osiyoning qadimgi davrlaridan VII asrga qadar va keyinchalik – XI asrdan XV asrigacha bo‘lgan tarixi”dan ma’ruza o‘qidi. O‘rta maktablar o‘qituvchilari uchun “Улуғ Ватан уруши шароитида тарихни ўқитиш”ga doir o‘quv qo‘llanmasini yaratdi. 1941-yilda professor A. Yu. Yakubovskiyning “Ўзбек халқи этногенези масаласига доир”[1638] risolasi va “Тимур”[1639] nomli maqolasi nashr etildi.

Ijtimoiy fan vakillari oldiga O‘zbekiston xalqlari tarixini keng hamda chuqur yoritish, fan, madaniyat va jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasining ahamiyatini ochib berish kabi vazifalar qo‘yildi.

XX asr 30-40-yillarida O‘zbekistonda keng ko‘lamda arxeologik va etnografik tadqiqotlar olib borilib, Ulug‘bek observatoriyasi hamda Afrosiyobda qazilma ishlari amalga oshirildi. 1938-yilda A. P. Okladnikov va M. V. Voevodskiylar tomonidan Boysundagi Teshiktosh g‘oridan neandertal kishining qoldiqlari topilishi fandagi ulkan yangilik bo‘ldi. Ushbu ilmiy kashfiyot fashistlarning ibtidoiy odam faqat oriy irqi yashagan hududlarda rivojlanganligi to‘g‘risidagi nazariyalarini fosh etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[1640].O‘zbekistonlik va rossiyalik olimlar hamkorligida “Ўзбекистон халқлари тарихи” umumlashtiruvchi asarni yaratish ustida qizg‘in ishlar

---

1637 Садыков А. Рожденная в войну//Звезда Востока. 1975. № 12. С. 118.

1638 Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Юбилейный комитет Навои При СНК УзССР. Ташкент: Издательство УзФАН, 1941. 20 с.

1639 Shu muallif. Тимур//Вопросы истории. 1946. №8–9. С. 42–74.

1640 История социалистического Ташкента в 2-х томах. Т.2. (1941-1965). Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1966. С. 84.

boshlandi. Akademik V. V. Struve va boshqa ko'zga ko'ringan tarixchilardan iborat mualliflar jamoasi tuzildi. Ular 1942-yilda o'zbek va O'rta Osiyoning boshqa xalqlari etnognezi muammolarini o'rganish bo'yicha chaqirilgan ilmiy yig'ilishning tashabbuskorlari bo'ldilar[1641]. "Ўзбекистон халқлари тарихи" asarini yaratishda Ya. G'. G'ulomov, V. Yu. Zohidov, M. E. Vorones, I. K. Dodonov, X. Sh. Inoyatov, 3. Sh. Rajabov, A. A. Semenov, O. A. Suxareva, R. Uyg'un, V. A. Shishkin va boshqa olimlar ishtirok etdi. Shuningdek, K. V. Trever, S. V. Baxrushin, A. K. Borovkov, Yu. V. Gote, P. P. Ivanov, M. V. Nechkina, V. I. Picheta, S. P. Tolstov va A. Yu. Yakubovskiy singari rus olimlari ham ushbu jarayonda faol qatnashdi[1642]. 1943-yilda ushbu asarning uch tomi yozib bo'lindi va va qolgan ikki tomi nashrga topshirildi, biroq, kitobning keyingi qismlari 1947-yilda nashr etildi. Bir paytning o'zida "Узбекистан в Великой Отечественной войне" va "Советы Узбекистана в период Великой Отечественной войны"[1643] asarlari yaratildi. Urushga qadar rejalashtirilgan "Народы мира" to'plami va "Народы Средней Азии и Казахстана" kitobi ustida S. P. Tolstov ilmiy muharrirligida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirildi.

1943-yilning boshlarida Til, adabiyot va tarix instituti qoshida Ulug' Vatan urushi tarixi bo'limi tashkil etildi. Urushga doir hujjatlar va materiallarni yig'ish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Urush davridagi qiyinchiliklarga qaramay, 1943-yil 27-sentabrda SSSR XKSning O'zbekiston Fanlar akademiyasini tashkil etish to'g'risidagi Qarori qabul qilindi. Ushbu voqea respublikaning ilmiy va madaniy hayotida beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi[1644]. O'zbekiston Fanlar akademiyasining tarixchilardan birinchi haqiqiy a'zolari SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi M. S. Andreev va professor A. A. Semenov bo'ldilar.

1943-yil noyabrda Til, adabiyot hamda tarix instituti negizida Tarix va arxeologiya instituti tashkil etildi. Bu O'zbekistonda tarixiy tadqiqotlarni tashkil qilish va ilmiy tafakkurning rivojida muhim voqea bo'ldi.

Institutda moddiy madaniyat tarixi o'rganish borasida bir qator ishlar qilindi. Bunda professor M. Ye. Massonning Termiz va Katta Farg'ona kanali bo'yicha ishlari diqqatga sazovor.

Urush davom etayotgan sharoitda, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, arxeologik tadqiqotlar olib borildi. 1944–1945-yillarda Buxoro viloyatining Varaxsha hududida qazilma ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 1945-yilda S. P. Tolstov va Ya. G'ulomovlar rahbarligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi qaytadan ish boshladi (ekspeditsiya 1937-yilda tuzilgan edi).

[1641] Ахунова М. А., Лунин Б. В. История исторической науки в Узбекистане. Ташкент: Фан УзССР, 1970. С. 84.
[1642] Садыков А. Рожденная в войну ... С. 124.
[1643] Qarang: Гракина Э.И. Учёные – фронту. 1941–1945. М.: Наука, 1989. С. 193.
[1644] Правда Востока. 1943 год. 4 ноября.

Xorazm sug'orilish tarixiga doir qimmatli materiallar topildi va ilmiy muomalaga kiritildi.

Ushbu davrda sharqshunoslik fani ham ma'lum darajada rivojlandi. Bunga 1944-yil yanvarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalarini tadqiq qilish institutining tashkil etilishi sabab bo'ldi. Institut faoliyatining boshida uning fondlarida 6102 tom qo'lyozmalar, 6000ga yaqin litografik kitoblar jamlandi[1645]. Mazkur qo'lyozmalarni o'rganish bilan institut xodimlari D. G. Voronovskiy, A.Rasulev, B. Zohidxonov, E. Muhamedxo'jayev va O'zbekiston FA muxbir a'zosi, professor A. A. Semenovlar shug'ullandi.

Sharq qo'lyozmalarini o'rganishda o'sha paytda Toshkentda yashagan, SSSR FA muxbir a'zosi Ye. E. Bertels va tarix fanlari doktori I. P. Petrushevskiylar faol ishtirok etdi[1646].

Urush yillarida leningradlik olimlar tarkibida Toshkentga evakuatsiya qilingan akademik V. V. Struve sharqshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu taniqli olim Toshkent davlat universiteti filologiya va tarix fakultetlarida ma'ruzalar o'qidi, O'rta Osiyo universitetida "Arxeologiya" kafedrasining tiklanishiga yordam berdi. L. A. Masulevich, I. P. Petrushevskiy va A. Yu. Yakubovskiylar bilan birgalikda mahalliy ilmiy xodimlarga maslahatlar berdi. Olim 1943-yilda O'ODU arxeologiya kafedrasining faxriy a'zosi etib saylandi.

1945-yilda Moskvada arxeologlarning I Butunittifoq s'yezdida Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasini tashkil qilish haqidagi qaror qabul qilingandan so'ng V. V. Struve ekspeditsiya Ilmiy kengashining raisi etib tayinlandi. Bu esa, V. V. Struvening O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi qiziqishlarini yanada kuchaytirdi. U zoroastrizmaning vujudga kelishi[1647], mazkur dinning vatani – O'rta Osiyo, deb hisoblaydi. Zoroastrizmaga doir masalalarni o'rganar ekan, Marg'iyonadagi xalq ommasining chiqishlarini Doro I tomonidan bostirilishi tarixiga ham e'tibor qaratdi[1648].

Urush tugagach, tinch sharoitga o'tilishi bilan Fanlar akademiyasi va olimlar oldiga yangi vazifalar qo'yildi. Ushbu vazifalar bevosita O'zbekiston va Qoraqalpog'istoda xo'jalik hamda madaniy qurilish muammolarini o'rganish bilan bog'liq edi.

Rossiyalik olimlar O'zbekistonda yuqori malakali tarixchi kadrlarni tayyorlashda katta rol o'ynadi. S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida faoliyat olib borgan yosh tarixchilar keyinchalik fanda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular orasidan akademiklar

---

[1645] Ахунова М. А., Лунин Б. В. История исторической науки в Узбекистане. Ташкент: Фан, 1970. С. 104.
[1646] Shu joyda. 105-б.
[1647] Струве В. В. Родина зороастризма//Материалы по истории таджиков и Таджикистана. Сб.I. Сталинабад. 1945. С. 3–55; Shu joyda. 5–34 бетлар.
[1648] Shu muallif. Восстание в Маргиане при Дарии I // Вестник древней истории. 1949. №2. С.10-29; Материалы Южно-Туркменистанской археологической комплексной экспедиции. Вып.I. Ашхабад: Издательство Туркменского филиала Академии наук СССР, 1949. С. 9–34.

– Ya. G‘. G‘ulomov va S. K. Kamolov, muxbir a’zo – R. N. Nabiyev, professorlar – R. K. Kosbergenov, I. M. Jabborov, A. Jikiyev va boshqalar yetishib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin SSSRda yangi mafkuraviy oqim – “kosmopolitizm” g‘oyasi o‘ylab topildi. Glavlit[1649] deb nomlangan senzura ishlari bo‘yicha tashkilot ijtimoiy fan vakillari, ijod ahli va jamiyatshunoslarning doimiy nazoratchisiga aylanib qolgan edi[1650].

Kosmopolitizmning g‘oyaviy tazyiqi tarix faniga ham kirib keldi. 1949-yil aprelda O‘zSSR Fanlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo‘limining kengashida “O‘zbekiston xalqlari tarixini va o‘tmish madaniyatini soxtalashtirishga qarshi” bir qator ma’ruzalar tinglandi[1651]. Eng asosiy ma’ruzachi falsafa fanlari doktori V. Zohidov ma’ruzasi “xalqlar madaniyatini o‘ziga xos xususiyatlarini inkor qiluvchi yot “nazariyalarga”zarba berishdan iborat”[1652] bo‘ldi. Majlisda komissiyalar byurosining raisi o‘rinbosari L. I. Klimovich ishtirok etib, o‘z nutqida akademik Krachkovskiy, professorlar – Dmitriyev, Bertels, Zaxoder va boshqalarning asarlaridagi “qo‘pol kosmopolitik xatolar”ni ko‘rsatib berdi. L. I. Klimovich yaratilgan tarixiy asarlarda “ilg‘or rus madaniyatining O‘rta Osiyo, jumladan, o‘zbek xalqining madaniyatiga samarali ta’siri yoritilmayotganligi, ayniqsa, sovet davri masalalariga kam o‘rin berilganligini”[1653] tanqid qiladi. M. Vahobov “bevatan kosmopolitlar va ularning g‘oyalaridan tozalanish zarur”ligiga urg‘u berib, “bir qator sharqshunoslarning O‘rta Osiyo xalqlari tarixini tekshirishda marksizm-leninizm prinsiplariga amal qilmasliklari”ni[1654] ko‘rsatdi.

Tarix faniga g‘oyaviy tazyiqlar 1952-yilda O‘zK(b)P MKning X plenumida qilingan ma’ruzadan so‘ng yanada kuchaydi[1655]. Unda O‘zbekiston tarixini ishlab chiqishda go‘yoki, “yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, xatolar, buzilishlar”ni aniqlashga qaratildi. Bu, eng avvalo, O‘zbekistonning Rossiyaga qo‘shilganligining “progressiv ahamiyati”ga e’tibor sustligi bilan bog‘liq edi. “Bizning tarixchilarimiz shu narsani yetarli ta’kidlab ko‘rsatmadilarki, agar O‘zbekiston Rossiyaga qo‘shilmasa, O‘zbekistonga marksizm-leninizm ideyalari kirib kelmasa, o‘zbek xalqi rus xalqining Lenin-Stalin partiyasi boshchilik qilgan revolyusion ozodlik harakatiga qo‘shilmasa, u vaqtda O‘zbekistonning mehnatkash ommasi umumdemokratik va sotsialistik harakatdan chetda qolgan bo‘lar edi, feodal qulligida qolib ketgan bo‘lar edi, angliya-amerikalik imperialistlarning asoratiga albatta tushib qolgan bo‘lar

---

[1649] *Glavlit* – adabiyot va nashr ishlari bo‘yicha bosh boshqarma.

[1650] Bu haqida quyida qarang: Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур...

[1651] Азимов С., Қосимов С. Ўзбекистон халқлари тарихини ва ўтмиш маданиятини сохталаштиришга қарши // Шарқ юлдузи. 1949. №5. 100–114-бетлар.

[1652] Shu joyda. 102-б.

[1653] Shu joyda. 113-б.

[1654] Shu joyda. 113–114-бетлар.

[1655] Ниезов А. Э. Республикада идеология ишининг аҳволи ва уни яхшилаш тадбирлари тўғрисида // Шарқ юлдузи. 1952. №3. 11–32-бетлар.

edi"[1656] tezisi kelgusida barcha ilmiy-badiiy adabiyotlar hamda darsliklarga majburiy kiritildi va sovet kishilari tafakkuriga singdirildi, shuningdek, sovet davlati inqirozigacha ushbu konsepsiyaga qat'iy amal qilib kelindi.

Mazkur ma'ruzada "Ўзбекистон халқлари тарихи" (V. Ya. Nepomnin va A. A. Shishkin tahriri ostida) kitobining ikkinchi tomi "prinsipial xatoliklar hamda o'tmishni ideallashtirishga yo'l qo'yilgan"likda ayblandi. Jumladan, "mualliflar "Temur davlatining madaniyati va ahamiyatini oshirib ko'rsatganlar, ko'p xon, amir, bek hamda saroy shoirlarining ishlarini bezaklarga o'rab, ko'kka ko'tarib maqtaganlar. Ikkinchi tomda xon, bek, xurofot ahli va chor chinovniklarining zulmi ostida azob chekkan mehnatkash ommaning og'ir hayoti hamda sinfiy kurashi tussiz ko'rsatilgan"[1657], - deb ta'kidlanadi.

Tarixchilardan K. Jitov, V. Nepomnin, A. Boboxo'jayev, I. Dodonov, N. A. Xalfin, G. Bondarevskiy, S. Rajabov va R. Abdushukurovlarning asarlarida feodal o'tmishni ideallashtirish, panislomizm hamda panturkizm kabi xatoliklarga yo'l qo'yilganligi qayd etildi[1658].

## 1950–1980-yillarda tarix fani holati

1950–1980-yillar Sovet davlati tarixida murakkab va ziddiyatli yillar – Stalin shaxsini fosh etgan, unga sig'inishni tugatish va qatag'onlariga barham berib, Xrushevcha islohotlar, "iliqlik", 1970-yillar sovet davlati ijtimoiy-siyosiy hayotida rivojlangan sotsialistik jamiyat qurilishining yakunlanishi va konstitutsion mustahkamlanishi davri bo'ldi. Sovet davlatining rivojlangan sotsializm pallasiga kirishi, turg'unlik, uni qayta qurishga urinish, tanazzul va parchalanishi kabi voqealarni o'z ichiga oladi.

Mazkur davrda sovet tarix fani ham bevosita o'z zimmasiga yuklangan muhim vazifa – unga xos bo'lgan yondashuvlar davlatning muvaffaqiyatlarini bo'rttirib ko'rsatish, turli raqam hamda ko'rsatkichlar ortida haqiqiy manzarani oshkor etmaslikka harakat qildi. Sovet davlati tarkibida bo'lgan O'zbekistonning ushbu davr tarixini yorituvchi katta hajmdagi ilmiy adabiyotlar - maqolalar va risolalardan tortib, jamoaviy hamda mualliflik monografiyalari, ilmiy to'plamlar, hujjatlar va materiallar to'plamlari vujudga keldi. Davlat va jamiyat qurilishida partiyaning yetakchilik roli, asriy qoloqlikdan kommunizm cho'qqisi sari hamda internatsional birdamlik kabi mavzular ilmiy tadqiqotlar doirasida ustuvor o'rin oldi. Bu, bevosita sovet tuzumining asl mohiyati va sotsializm uzil-kesil g'alabasi tasdig'ini ko'rsatishga urinish edi. Sovet tarixchilari mazkur vazifani bajarishga muvaffaq bo'ldi.

---

[1656] Shu joyda. 15–16-бетлар.

[1657] Ниёзов А. Э. Республикада идеология ишининг аҳволи ва уни яхшилаш тадбирлари тўғрисида // Шарқ юлдузи. 1952. №3. 16-б.

[1658] Shu joyda. 16–19-бетлар.

1954-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy sessiyada “O‘rta Osiyoning Rossiyaga “ixtiyoriy qo‘shilishi”ning progressiv ahamiyati” konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjat kelgusi tadqiqotlarning yo‘nalishini belgilab berdi. Rus mustamlakachiligining Turkiston iqtisodiy hayotiga ta’siri masalalari A. M. Aminov, A. P. Saviskiy, Z. K. Ahmadjonova va A. S. Sodiqovlarning[1659] tadqiqotlarida yoritilgan bo‘lsa, K. Ye. Bendrikov, M. Baratov hamda L. A. Perepelitsinaning[1660] ilmiy izlanishlarida madaniyat va maorif masalalari “rus madaniyatining o‘lka hayotiga yoyilishi” nuqtai-nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, Turkiston general-gubernatorligi markazi hisoblangan Toshkent shahri tarixi haqidagi ilmiy izlanishlar F. Ozodayev, E. Hojiyev, Yu. A. Sokolov va H. Ziyoyevlar[1661] tomonidan amalga oshirildi.

Umuman olganda, ushbu mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarning barchasida mustamlakachilik siyosati tanqid qilinganiga qaramay, asosiy maqsad, “buyuk rus xalqining o‘zbek va boshqa O‘rta Osiyo xalqlari hayotida tutgan o‘rni va marksizm-leninizm g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi ishchilar sinfi”ni “ulug‘lash”dan iborat edi. Chunki, aynan sotsialistik sinfiy tuzilma asosini tashkil etgan ishchilar tarixini keng o‘rganish, 1917-yil oktabr to‘ntarishi voqealariga qadar davrda siyosiy jarayonlarni ushbu ijtimoiy qatlam nomi bilan bog‘langan holda tahlil etish sovet tarix fanining eng muhim xususiyatlardan biri bo‘ldi[1662].

XX asrning 50-yillarning oxiri – 70-yillarning boshlarida O‘zbekiston tarix fanida ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biri – Rossiyada sodir bo‘lgan inqilobiy harakatlar (1905–1907, 1917 fevral) tarixi va mazkur jarayonlarning O‘rta Osiyo mintaqasidagi ta’sirini yoritish muammolari edi. Aytish joiz, aynan shu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlar vujudga kelsa-da, biroq ulardagi asosiy e’tibor milliy tarixni emas, balki ishchi-soldatlar faoliyatini ochib berishni maqsad qilgan edi[1663]. Turkistondagi 1916-yil, voqealari ham shu nuqtai-

---

[1659] Аминов А. М. Экономическое развитие Средней Азии со второй половины XIX столетия до первой мировой войны. Ташкент, 1959; Савицкий А. П. Поземельный вопрос в Туркестане. Ташкент, 1963; Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии. 1880–1917. Ташкент, 1965; Садыков А. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX – начале XX века. Ташкент, 1965.

[1660] Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. 1865-1924 гг. Ташкент, 1960; Баратов М. Из истории борьбы за просвещение в Узбекистане. Ташкент, 1961; Перепелицина Л. А. Роль русской культуры в развитии культур народов Средней Азии. Ташкент, 1966.

[1661] Азадаев Ф. Очерки из истории Ташкента. Социально-экономическая и политическая история города во второй половине XIX века. Ташкент, 1960, Хаджиев Э. Из истории взаимоотношений Ташкента с городами России. Конец XVIII начала XIX вв.; Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. Ташкент, 1965; Зияев Х. Присоединение Ташкента к России. Ташкент, 1967.

[1662] Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур...

[1663] Акбаров А., Ерзин Х. А. Февральская революция и подъем революционного движения в Туркестанском крае весной и летом 1917 г. Ташкент, 1957; Аренберг Р. Г. Из истории рабочего движения в Туркестане в годы революционного подъема. Ташкент, 1957; Вахабов М. Г. Ташкент в период трех революций. Ташкент, 1957; Сойфер Д. И. Солдатские массы в борьбе за власть Советов в Туркестане. Март-ноябрь 1917г. Ташкент, 1957; Свирский С. Я. Революционное движение в царской армии в Туркестане в годы нового революционного подъема. Ташкент, 1960; Хамдамов П. «Правда» и

nazardan yoritildi[1664] va bu mavzuga bag'ishlangan ilmiy to'plamlar yaratildi[1665].

Mazkur davr tarix fanining yana bir eng dolzarb mavzusi 1917-yildagi Oktabr to'ntarishi va u tufayli barcha sobiq sovet xalqlari qatori o'zbek xalqi kundalik hayotida yuz bergan "buyuk o'zgarishlar"ni barcha salbiyliklardan ko'z yumgan holda maqtovli ravishda yoritish bo'ldi. Ushbu mavzu doirasida yozilgan tarixiy tadqiqotlarning barchasida sovet konsepsiyasi nuqtai-nazaridan 1917-yil oktabr voqealariga "buyuk sotsialistik revolyusiya" atamasi qo'llanilib, ular o'z davri uchun eng dolzarb ishlar sanaldi[1666]. 1967-yilda Oktabr inqilobining 50 yilligi munosabati bilan SSSR Fanlar akademiyasi ilmiy kengashining bevosita rahbarligida barcha sobiq sovet respublikalari olimlari ishtirokida mazkur mavzuga oid yirik fundamental tadqiqotlar yaratildi. Akademik I. M. Mins muharrirligida nashr etilgan "Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстане" jamoaviy monografiyada Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikasi olimlari bilan bir qatorda o'zbekistonlik tarixchilardan K. Ye. Jitov, X. Sh. Inoyatov, L. M. Landa, A. M. Matveyev, I. M. Mo'minov, R. A. Nurullin, G'. R. Rashidov, O. M. Toshmuhamedov, Sh. A. Shamagdiyev va T. S. Yaskovichlar ishtirok etdi.

Shuningdek, mazkur mavzu o'zbekistonlik tarixchilar uchun sovet konsepsiyasida belgilab berilgan Sharq mamlakatlari, shu jumladan, O'rta Osiyo respublikalarining "kapitalizmni chetlab, feodalizmdan sotsializmga o'tish" jarayoni sifatida ham tahlil etildi. Ushbu yo'nalishda chop etilgan ishlar Sh. Sh. Abdullaev, M. A. Ahmedova va R. X. Abdushukurovlarning[1667] qalamiga mansub. Tabiiyki, ularda o'zbek va boshqa qo'shni xalqlar "qoloq", "rivojlanmagan", "savodsiz", "ishlab chiqarish taraqqiy etmagan" xalqlar sifatida baholanib, "faqatgina sotsialistik inqilob va yangi tuzum orqali ular taraqqiyotga erishayotgani" sifat emas, balki son ko'rsatkichi aks etgan turli tuman raqamlar misoli ustuvorlik qilar edi[1668]. Shu bilan birga, ushbu mavzu

революционное движение в Туркестане 1912–1914 годы. Ташкент, 1962; Абдурахимова Н. А. Революционное движение и карательная политика царизма в Туркестане Ташкент, 1969.

[1664] Ковалев П. А. Восстание 1916 года в Узбекистане. Ташкент, 1955; Shu muallif. Мобилизация на тыловые работы населения Туркестана в период от сентября 1916 г. по март 1917 г. Ташкент, 1957; Турсунов Х. Т. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Ташкент, 1962; Shu muallif. Народное восстание 1916 года в Узбекистане. Ташкент, 1966. ва б.

[1665] Вопросы марксистко-ленинской теории и истории революционного движения. Ташкент, 1965.

[1666] Иноятов Х. Ш. Борьба большевиков за победу советской власти в Туркестане. Ташкент, 1957; Додонов И. К. Победа Октябрской революции в Туркестане. Ташкент, 1958; Харин В. П. Великая октябрская социалистическая революция в Узбексистане Ташкент, 1958; Житов К. Е. Победа Великой октябрской революции в Узбекистане. Ташкент, 1967; Тураев Г. Большевики Туркестана в октябре. Ташкент, 1967. ва бошқалар.

[1667] Абдуллаев Ш. Ш. Из истории борьбы за ликвидацию фактического неравенства народов Узбекистана. Ташкент, 1959; Ахмедова М. А. Опыт перехода республик Советского Востока на путь социализма и его особенности. Ташкент, 1967; Абдушукуров Р. Х. Торжество ленинской теории перехода отсталых стран к социализму, минуя капитализм. Ташкент, 1972. ва б.

[1668] Мустафаева Н. ХХ асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур....

akademik V. M. Xvostovning "o'rtaosiyolik tarixchilarning sovet O'rta Osiyosi va Qozog'istonining ulkan yutuqlari taraqqiyotning nokapitalistik yo'li, milliy masalaning hal etilishi, qoloqlikdan madaniyatning yuksak cho'qqisiga chiqishi, kommunizm qurilishi sari va boshqa ko'plab muammolarni ishlash imkoniyatlari keng"[1669], - degan o'sha davrning "dolzarb" fikrlariga hamohang bo'ldi.

XX asrning 60-yillarida O'zbekiston tarix fani rivoji haqida so'z ketganda, bevosita uning ilmiy salohiyati asosini tashkil etgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu davrda institutning 13 sektoridan 8tasi faqat sovet davri tarixini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, O'zbekistonning qadimiy va o'rta asrlar tarixi sinfiy nuqtai-nazardan, "ekspluatator sinf" va "ezilgan xalq" munosabatlari konsepsiyasi asosida o'rganildi[1670].

1950-1960-yillarda barcha sohadagi kabi tarix fanida ham mutaxassis ilmiy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Bu borada Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyati samarali bo'ldi. Jumladan, 40-yillar oxiri–50-yillarning dastlabki yillarida fan doktorlari – Ya. G'ulomov, I. Mo'minov, fan nomzodlari – R. Nabiyev, R. Aminova, R. Mukminova va H. Ziyoyev kabi milliy kadrlar ilmiy darajalarga ega bo'lgan holda O'zbekiston tarixi fani rivojida salmoqli salohiyatni tashkil etdilar.

Umuman olganda, XX asrning 50–60-yillarida O'zbekiston tarix fani malakali kadrlarga ega bo'ldi. Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining (hozirda Tarix instituti) dastlabki davridagi (1943-y.) ilmiy jamoasi soni 44 kishidan iborat bo'lib, ularning 2 tasi akademik, 2 ta fan doktori, 5 ta fan nomzodi bo'lsa, 1969-yilda ushbu muassasada 120 ilmiy xodim faoliyat yuritib, ularning tarkibida 1 ta akademik, 6 ta fan doktori va 54 ta fan nomzodi bor edi[1671].

Sovet davlati va davlatchiligi, uning funksiyalari, vazifalari, mohiyati, SSSRda jamiyat siyosiy tizimini, milliy respublikalarda sovet davlatchiligini rivojlantirish va mustahkamlash 1961-yilda qabul qilingan Partiya programmasi hamda KPSS XXI–XXVI-s'yezdlari qarorlarida muhim o'rin oldi[1672].

Mazkur hujjatlarda partiya hamma vaqt o'zining asosiy maqsadiga erishishda davlatni asosiy vosita va qurol deb bilib, bundan kelib chiqqan holda kundalik hamda istiqboldagi vazifalarni bajarishda sotsialistik davlatchilikni va jamiyat siyosiy tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratganligi o'z

---

[1669] Хвостов В. М. XXIV съезд КПСС и задачи советской исторической науки. Доклад акад.-секретаря отделения истории АН СССР на координационном совещании Отделения 10 ноября 1971 г. / История СССР. 1972. № 2. С. 180.

[1670] Bu haqida qarang: Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур...

[1671] Ахунова М. А., Лунин Б. В. История исторической науки в Узбекистане ... С.179.

[1672] Программа Коммунистической партии Советского Союза. М.: Политиздат, 1975. 144 с.; Материалы XXШ съезда КПСС. Политиздат,1966. 304 с.; Материалы XXIV съезда КПСС. М.: Политиздат, 1971. 320 с.; Материалы XXУ съезда КПСС. М.: Политиздат, 1977. 256 с.; Материалы XXVI съезда КПСС. М.: Политиздат,1981. 223 с.

ifodasini topdi. KPSS XXI s'yezdi hujjatlarida SSSRda yetti yillik xalq xo'jaligi rejalarini bajarishda davlatni mustahkamlash, uning xo'jalik-tashkiliy va madaniy-tarbiyaviy faoliyati, iqtisodiyotni mahorat bilan boshqarish esa sotsialistik tuzum moddiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi ko'rsatildi. Bir so'z bilan ifodalaganda, KPSS programmasida sotsialistik davlatning asosiy vazifalari belgilab berildi. 1977-yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasida KPSSning davlatni boshqarishdagi ahamiyati qonuniy jihatdan mustahkamlandi[1673]. Bu bilan "demokratik jamiyat" qurishni maqsad qilgan sovet davlatida partiyaning monopol holati tasdiqlandi.

Partiya programmasi va KPSS s'yezdlari materiallari bevosita sovet davlati va davlatchiligi haqidagi nazariy qarashlar, aniq maqsad hamda vazifalarning ifodasi bo'ldi. Ular material va hujjatlar to'plami qo'rinishida shakllantirilib, muntazam ravishda chop etildi. Bugungi kunda ular sovet davlati va davlatchiligiga doir katta hajmdagi axborotni o'zida mujassamlashtirgani bilan ushbu masala tarixini o'rganishda bevosita muhim manbaga aylandi[1674].

O'zbekistonda sovet davlati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari boshqaruvning eng yuqori lavozimlarida faoliyat yuritgan rahbarlarning asar va nutqlarida aks etdi[1675].

Ta'kidlash kerakki, tarix fanida sotsializmning uzil-kesil g'alabasini namoyon qilish maqsadidan kelib chiqib sovet davri tarixini o'rganishga katta e'tibor berildi. Mafkuraviy bosim tarix fanini O'zbekistonning sovet davlati tarkibidagi muvaffaqiyatli rivojini ko'rsatishga yo'naltirdi. Tarix fanida sovet mafkurasi ko'rsatmalari asosida yaratilgan adabiyotlar, va tadqiqotlar mazmuni bir xillik tusini oldi. Tarixshunoslik sovet davrining bu bosqichi haqidagi mazmunan bir-birini to'ldiruvchi va va ma'lum qolip asosida yaratilgan adabiyotlar hisobiga kengaya bordi. O'zbekistonning 1950–1980-yillar tarixini yorituvchi katta hajmdagi adabiyotlar obzor xarakteridagi tahlilining o'ziyoq tarix fanining ushbu davrdagi holati va tadqiqot yo'nalishlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Tarixiy bilimlarning rivojida ilmiy muloqot vositasi bo'lgan ilmiy anjuman, simpozium va sessiyalar muhim o'rin tutadi. Sovet davri tarixini o'rganish natijalari va tadqiq qilinishi kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash, bu borada tarixchilar oldidagi vazifalarni belgilashda 1960–1980-yillarda bo'lib

---

[1673] Конституция (Основной Закон) Союза Советских Социалистических Республик 1977 г.; Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики 1978 г.

[1674] Забота партии и правительства о благе народа. Сборник документов (октябрь 1964-1973). М.: Политиздат, 1974. 847 с.; Статистические ежегодники "Народное хозяйство Узбекской ССР". Ташкент: Узбекистан за 1959-1981 гг.; Заседания Верховного Совета Узбекской ССР. Стенографические отчеты всех сессий Верховного Совета Уз ССР У-IX созывов. Ташкент: Издание Верховного Совета Уз ССР, 1959-1978 гг.; КПСС и Советское правительство об Узбекистане. Сборник документов (1925-1970). Ташкент: Узбекистан, 1972. 656 с.;

[1675] Рашидов Ш. Р. Торжество ленинской национальной политики. Ташкент: Узбекистан, 1974. 149 с.; Худайбердыев Н. Дж. О совершенствовании стиля и методов работы советского государственного аппарата. М.: Экономика и жизнь. 1973. № 9–10; Shu muallif. Узбекистан в единой семье советских республик. Ташкент: Узбекистан, 1978. 246 с.

o'tgan ilmiy anjumanlar mavzularining o'ziyoq ushbu muammo qanchalik ustuvorlik kasb etganini ko'rsatadi.

1967-yil 19–21-mayda Samarqandda qoloq mamlakatlarning kapitalizmni chetlab sotsializmga o'tishi, 1972-yil 16–19-oktabrda Toshkentda "Sotsialistik o'zgarishlar tajribasi va uning xalqaro ahamiyati", 1974-yil 16–17-mayda O'zSSR va kompartiyasining tashkil topganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan; 1976-yil 17-sentabrda respublika tarixchilarining partiya XXIV–XXV s'yezdlari orasidagi faoliyati muhokamasi, 1977-yil 13–15-aprelda Toshkentda Oktabrning 60 yilligiga bag'ishlangan umumittifoq, 1982-yil 27–28-aprelda sotsializm rivoji pallasida ijtimoiy-sinfiy struktura va milliy munosabatlar muhokamasiga bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy hamda Toshkentda 1986-yil 3–5-aprelda milliy munosabatlarning takomillashuviga doir butunittifoq ilmiy konferensiyalari bo'lib o'tdi[1676]. Mazkur ilmiy tadbirlar kun tartibidan joy olgan ma'ruzalarda O'zbekistonning sovet davlati tarkibidagi holati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga doir materiallar tahlili orqali taqdim qilindi.

O'rganilayotgan davr O'zbekiston tarix fanida tarixiy jarayonlarning turli jihatlarini qamrab olgan jamoaviy fundamental asarlar vujudga kelishi bilan xarakterlanadi[1677]. Ushbu asarlarda O'zbekistonning sovet davlati tarkibida o'rganilayotgan davr tarixini aks ettiruvchi juda katta hajmdagi axborot jamlangan bo'lib, ilmiy xulosalarda esa davlat qurilishi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni tashkil etishda davlatning vazifalari bevosita partiya yetakchiligida amalga oshirilgani asoslanganligi kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat hayoti va davlat boshqaruvida kommunistik partiyaning yetakchilik rolini yoritish tadqiqotlar uchun ustuvor ko'rsatma bo'lib, ularning mohiyat, mazmuniga singib ketgan edi[1678]. Ijtimoiy buyurtma asosida yaratilgan bu adabiyotlar bevosita mafkuraviy tazyiq va maqsadini o'zida yaqqol ifoda etdi.

---

[1676] Кнопов Б. Всесоюзная научная конференция в Самарканде//ОНУ. 1967. №7. С. 64-65; Джамалов О. Опыт социалистических преобразований в СССР и его международное значение // ОНУ. 1973. №1. С. 66–68; Торжество ленинской национальной политики политики КПСС. Научно-практическая конференция, посвященная 50-летию УзССР и компартии Узбекистана. Ташкент, 1974. 356 с.; Лунин Б. Совещание историков Узбекистана // ОНУ. 1976. №12. С. 64–70; 60-летие Великого Октября и торжество пролетарского интернационализма в СССР. М., 1977. 280 с.; Гинзбург А. Всесоюзная научно-практическая конференция "Совершенствование национальных отношений в свете решений XXVII съезда КПСС// ОНУ. 1986. №10. С. 65–67.

[1677] История Узбекской ССР. В 4-х томах. Т.IV. Период завершения строительства социализма и переход к коммунизму (1938–1965 гг.). Ташкент: Фан, 1968; Очерки истории Узбекской ССР (1956-1965 гг.). Ташкент: Фан, 1966. 235 с.; История рабочего класса Узбекистана. Том III. Ташкент: Фан, 1966. 238 с.; История рабочего класса Советского Узбекистана. Ташкент: Фан, 1974.

[1678] Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1964; Мусаев М. Коммунистическая партия Узбекистана в период упрочения и развития социалистического общества в СССР. Ташкент: Узбекистан, 1968; На пути к развитому социализму. КПСС в борьбе за укрепление и развитие социализма в Средней Азии и Казахстане. Ташкент: Узбекистан, 1976; Таксанов А.К. О комплексном характере партийного руководства социально-экономическими процессами //ОНУ. 1980. №10. С. 26-35; Эрназарова Н. Д. Партия и творческая интеллигенция (на примере деятельности Коммунистической партии Узбекистана по руководству творческой интеллигенцией республики)// Идейно-политическое воспитание масс. Ташкент, 1988. С. 76–89.

Barcha sovet respublikalari qatori O'zbekistonda ham respublika kompartiyasi markaziy komiteti huzurida Partiya tarixi instituti faoliyat olib borgan. U KPSS MK qoshidagi marksizm-leninizm instituti filiali sanalgan. Maxsus yo'naltirilgan ushbu muassasa ilmiy-tadqiqotlari ham aynan shu mavzu doirasida yaratilgan. Ushbu muassasa tomonidan K. Marks va F. Engels asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinib, tom, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan risolalar shaklida katta tirajda chop etildi. V. Lenin "Sharq xalqlari do'sti va dohiysi"sifatida keng talqin etilgan ishlar soni ko'paydi, shuningdek, 55 tomga jamlangan "sovet dohiysi"ning asarlari o'zbek tilida nashr etildi. Mazkur institutning asosiy vazifalaridan yana biri Turkiston va O'zbekiston kommunistik partiyasining s'yezd qarorlari hamda rezolyusiyalari matnini ham nashr etish edi[1679].

Rivojlangan sotsializm shakllanishi yo'liga o'tilishida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy roli kengayib, chuqurlashdi. Davlatning asosiy maqsadi – sotsialistik jamiyatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash va rivojlangan sotsializmning moddiy-texnika bazasini yaratishga qaratildi. Bu maqsadlarga erishish yo'lidagi vazifalar KPSS XXI–XXV s'yezdlari ko'rsatmalarida belgilab berildi[1680]. Unga ko'ra, O'zbekiston 1960–1970-yillarda SSSRning asosiy paxta bazasi bo'lib qolaverdi. Ushbu holat 1950-yillar uchun ham xos edi. Hatto O'zbekistonning metallurgiya bazasini kengaytirish, po'lat ishlab chiqarishni ko'paytirish ham mamlakat paxtachilik kompleksini mustahkamlash, ya'ni qishloq xo'jaligi texnikasiga bo'lgan ehtiyojni qanoatlantirishga qaratildi. Mazkur masala O'zbekiston Fanlar akademiyasi 10 yilligiga bag'ishlangan majlisda ham muhokamaga sabab bo'ldi[1681]. Paxtachilik bilan bog'liq holda bevosita ximiya sanoatini ham rivojlantirish ko'zda tutildi[1682]. Respublika davlat tashkilotlari o'z e'tiborini paxtachilikni rivojlantirish masalasiga qaratdi. "Sotsialistik qurilish tarixi"ga bag'ishlangan tadqiqotlarda aynan paxtachilik rivoji, davlat tashkilotlarining ushbu sohadagi faoliyatini yoritish ustuvor mavzulardan biriga aylandi[1683]. Davlat tomonidan sanoatning ham paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan sohalari rivojiga alohida e'tibor berildi[1684].

---

1679 Коммунистическая партия Узбекистана в цифрах. 1924–1964 гг. Ташкент, 1964; Образование и деятельность Коммунистической партии Туркестана. Летопись событий. Ташкент, 1968; ва б.

1680 КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.7. М., 1971. С. 378, 389, 478, 490.

1681 УзР ФА архиви. 1-фонд. 1-руйхат. 348-иш. 9-варақ.

1682 История Узбекской ССР. Т. IV Ташкент, 1968. С. 203–211.

1683 Яцышина А.Ф. Трудовые успехи узбекского народа в области хлопководства в 1956 г. // Юбилейная научная сессия, посвященная 40-летию Великой Октябрьской социалистической революции. Тезисы докладов и сообщений. Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1957; Саидов Х. С. Борьба за осуществление ленинских идей в развитии Советского хлопководства. Ташкент: Фан, 1966; Таджибаев А. Колхозное крестьянство Узбекистана в борьбе за подъем хлопководства (1956-1965 гг.) Ташкент: Фан, 1973; Ходжиев Э. Х. Торжество ленинских идей о развитии хлопководства в Узбекистане // ОНУ. 1980. №11. С. 3–8; История развития хлопководства в Узбекистане (Под ред. Р. Х. Аминовой). Ташкент: Фан, 1973.

1684 Мирталипов Ш. А. Экономические проблемы индустриализации сельсхохозяйственного производства Узбекской ССР. Ташкент: Узбекистан, 1982.

Respublikada paxtachilikni rivojlantirish maqsadida yangi yerlarni o‘zlashtirishga masala yechimi sifatida qaraldi. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston sovet davlatining tashkiliy rivojida respublikada yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga oblast, shahar, qishloqlar va poselkalar sonining ortishi katta rol o‘ynadi. Yangi yerlarning o‘zlashtirilishi o‘z navbatida paxtachilikni rivojlantirishning ekstensiv usullarini joriy qilinishi bo‘lib, irrigatsiya va melioratsiya sohasida ham katta ishlarning amalga oshirilishiga olib keldi[1685]. Tarixchilar qishloq mehnatkashlarining qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishdagi mehnat jasoratlari, mazkur jarayonda siyosiy faolligining oshishi hamda yangi qishloq xo‘jaligi texnikasini qo‘llash malakasining takomillashishi kabi masalalarni o‘rgandilar va bunga doir bir qator ishlar vujudga keldi[1686].

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, 1960-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlarning hammasi ham ijobiy natija bermaganiga qaramay, O‘zbekistonda paxtachilikning o‘sish sur’atlari yuqori bo‘ldi[1687]. 1965-yilda paxta hosili 1913-yil bilan qiyoslaganda 8-marta oshganiga qaramay, bu 2–3 marta hosildorlik va 2–3-martaga ekin maydonlarining kengaygani hisobiga erishildi[1688]. Paxtachilik rivojining ekstensiv xarakteri salbiy oqibatlarni – ekologik muhitning yomonlashuvi, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda muammolarni yuzaga keltirdi.

Tarixiy adabiyotlarda mazkur jarayonning qishloq xo‘jaligi xodimlarining mardonavor mehnati va ekologik muhitning tobora yomonlashuvi evaziga erishilgani aks etdi. Bu o‘rinda, tadqiqotchilarning yetarli axborot va ma’lumotlarga ega emasligi iqtisodning qishloq xo‘jaligi sohasidagi haqiqiy manzarasini yortish imkonini bermadi.

Iqtisodiyotning asosiy va muhim bo‘g‘ini bo‘lgan sanoatning O‘zbekistondagi rivoji hamda vazifalari bevosita Markaz tomonidan belgilanib, partiya besh yillik planlari asosida tashkil etildi va shu asosda amalga oshirildi. Qolaversa, sanoatni rivojlantirishda O‘zbekiston metropoliyaning sanoat

---

[1685] Игамбердыев Р. Осуществленных идей об орошении и освоении голодной степени. Ташкент: Фан, 1969; Ходжиев Э. Х. История орошения и освоения голодной степени (1917-1970 гг.) Ташкент: Фан, 1975; Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. Ташкент: Фан, 1977; Азимов Р. Развитие орошаемого земледелия в Узбекистане в годы восьмой и девятой пятилеток // ОНУ. 1983. №11. С. 31–33.

[1686] Зиядуллаев С. К. Важнейшие вопросы строительства и освоения голодной степи. Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1957; Shu muallif. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1958 году Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1958; Нарынский К. М. Трудовые подвиги целинников. Ташкент: Узбекистан, 1976;

[1687] Джамалов О. Б. Развитие материально-производственной базы колхозов Узбекистана. Ташкент: Госиздат УзССР, 1959; Гормухамедов А. Некоторые итоги интенсификации сельского хозяйства Узбекистана (на примере Андижанской области) / Из истории Советского Узбекистана (сб. статей). Ташкент: Наука, 1965; Труженики села Узбекистана в борьбе за развитие сельского хозяйства (1950–1965 гг.) Ташкент: Фан, 1968; Аминова Р. Х. Колхозное крестьянство Узбекистана на пути к развитому социализму. Ташкент: Узбекистан, 1983; Shu muallif. По пути социалистического прогресса. Ташкент: Узбекистан, 1986; Курбанов К. Территориальная организация и развитие сельскохозяйственного производства на освоенных землях голодной и Джизакской степей // ОНУ. 1983. №4. С. 15-21.

[1688] ЎзР ФА архиви. Ф.1. Р. 1. Д.1322. В. 82.

jihatidan rivojlangan mintaqalarining paxtaga bo'lgan ortib boruvchi ehtiyojini ta'minlashdek yaramas konsepsiyaga qat'iy amal qilishi[1689] shart edi.

XX asr 50–80-yillarida O'zbekistonda sanoat tarixining turli jihatlarini yorituvchi katta hajmdagi adabiyotlar vujudga keldi. Ushbu asarlar uchun ham sovet davlatining mazkur sohadagi siyosati uning muvaffaqiyatlarini yuksalib borayotgan sur'atlarda va raqamlarda ko'rsatish xos holat bo'ldi[1690].

Sanoatni harakatga keltiruvchi, davlatning ishonchi bo'lgan ishchilar sinfi roli tarixchilarning muhim tadqiqot ob'yekti bo'ldi[1691]. Davlatning ushbu jarayonda ishchilar sinfiga ishonchli ijtimoiy zamin sifatida qarashi ular ijtimoiy-tarixiy holatining turli jihatlarini yorituvchi tadqiqotlar sonida aks etdi[1692].

Ijtimoiy fan vakillari bu yillarda islom dini, uning tarixi, muqaddas kitob Qur'on ta'rifiga doir bir qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar[1693]. Yaratilgan ko'plab risolalar ilmiy-ommabop mazmunda bo'lib bu risolalar mualliflari sovet davridagi hukmron mafkura nuqtai nazaridan kelib chiqib, islom dini ta'limotiga salbiy baho berganlar.

---

1689 Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб . Тошкент: Шарқ, 2000. 521-б.

1690 Зиядуллаев С. К. Индустриальный маяк на Востоке. Ташкент: Узбекистан, 1964; Осуществление ленинских идей индустриализации в Узбекистане. Ташкент: Узбекистан, 1970; Shu muallif. Планирование и развитие экономики Узбекской ССР. Ташкент: Узбекистан, 1972; Матниязов М. Развитие электрификации в Узбекистане. Ташкент; Фан, 1974; Shu muallif. Индустрия Советского Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1984; Shu muallif. Электрификация и ее социальные последствия (На материалах республик Средней Азии). Ташкент: Узбекистан, 1984.

1691 Ахунова М. А., Тетенева Л. Г. Воплощение ленинских идей о роли рабочего класса в управлении производством // ОНУ. 1969. №3. С. 9–13; Ахунова М. А. Рабочий класс Узбекистана в период развитого социализма (1959–1973 гг.) Ташкент: Фан, 1974.

1692 Шистер Г. А. Компартия Узбекистана в борьбе за подъем культурно-технического уровня рабочего класса. От XX к XXII съезду КПСС. Ташкент: Узбекистан, 1965; Шистер Г. А. Промышленные рабочие Узбекистана (Изменения в численности и составе). 1959–1970 года. Ташкент: Узбекистан, 1975; Абдушукуров Т. Р. Закономерности и особенности культурно-технического роста рабочего класса Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1971; Акилов К. А., Тетенева Л. Г. Рабочий класс Узбекистана в условиях научно-технической революции. Ташкент: Фан, 1984.

1693 Платонов Г. В. Дарвинизм ва дин. Тошкент, 1956; Долгих Ф. И. Нима учун динга қарши курашамиз. Тошкент, 1961; Петрушев Д. А. Ислом дини ва унинг реакцион моҳияти. Тошкент, 1961; Юсупов Э. Ислом динининг келиб чиқиши ва унинг зарарлари. Тошкент,1962; Ерисиев А. Дин халқлар тенг ҳуқуқлиги ва дўстлигининг душманлари. Тошкент, 1962; Ортиқов А. Қуръон ҳақида танқидий мулоҳазалар. Тошкент, 1963; Шермухамедов С. Ш. Дин ва шахс. Тошкент, 1963; Агаронян А. Дин йўлидан дил йўлига. Тошкент, 1970; Абдусамедов А. И. Фан ва дин. Тошкент, 1971; Шермухамедов Я. Яхшилик ва ёмонлик. Тошкент, 1972; Дин – маънавий оғунинг бир тури / Мақолалар тўплами. Тошкент: Ўзбекистон, 1972; Умаров М. Сароб ва ҳақиқат. Тошкент, 1972; Усмонов М.А. Ислом ақидалари ва уларнинг моҳияти. Тошкент: Ўзбекистон, 1972; Саидбаев Т. Совет турмуш тарзи ва ислом дини. Тошкент, 1979; Ортиқов А. Ижтимоий тараққиёт ва динининг кризиси. Тошкенг, 1979; Ортиқов А. Ўзбекистонда ислом ва мусулмонлар аҳволини сохталаштиришларни танқиди. Тошкент, 1981; Алимов Қ. З. Ислом дини ва ҳозирги идеологик кураш вазифалари. Тошкент, 1983; Саидбаев Т. Ислам и общества. М.: Наука, 1984; Жабборов С. Қуръон афсоналари ва ривоятлари. Тошкент: Фан, 1986; Аҳмедов О. Ислом ва ҳозирги ғоявий-сиёсий кураш. Тошкент: Ўзбекистон, 1986; Ежов А. Ф. Ислом реакция ва антикоммунизм хизматида. Тошкент: Ўзбекистон, 1986; Ҳикматов Ш. М. Ислом ақидалари ва антикоммунизм. Тошкент: Ёш гвардия, 1986; Усмонов М. Ислом динининг реакцион моҳияти ва атеистик тарбия. Тошкент, 1986; Жуманазаров У. Дин ва унинг социал пуч моҳияти. Жиззах, 1987; Дин ҳақида ўйлар / Тўплам тузувчилар: Х. А. Алиқулов ва б. Тошкент, 1988.

A. Abdusamedovning "Социал тараққиёт ва ислом" nomli kitobida[1694] respublika hududida islom dinining oktabr to'ntarishidan oldingi va sotsializm sharoitidagi holati markscha-lenincha nuqtai nazardan tahlil qilingan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin rus madaniyatining ta'siri, mahalliy taraqqiyparvar va ma'rifatchi shoirlar Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Hamza, Ayniy va boshqalarning ijodida ruhoniylarning tanqid qilinganligi bir tomonlama ko'rsatilgan. "Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi mahalliy xalq ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar islom dini mafkurasining pasayishiga va materialistik-ateistik dunyoqarashning shakllanishiga ko'maklashgan" deya ta'kidlangan. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyingi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi o'zgarishlar, diniy huquqlarning cheklanishi, dinga qarshi kurashning avj olishi tufayli islom dini mavqeining tushib ketishi, materialistik-ateistik dunyoqarashning qaror topishi bo'rttirib yoritilgan.

I. Jabborovning "Зулматдан маърифатга" nomli asarida[1695] o'zbek xalqining oktabr to'ntarishidan oldingi va sotsializm sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar natijasida xurofotdan ommaviy dahriylikka o'tish jarayonini ko'rsatishga harakat qilingan. "Rivojlangan sotsializm sharoitida" aholining barcha tabaqalarida diniy sarqitlardan to'la va uzil-kesil qutilishning yo'llari aniq ko'zga tashlanadi, o'tmishda ruhoniylarga to'la qaram bo'lgan Sovet Sharqi mehnatkashlari katta qismining ongida sotsialistik mafkura, borliqqa materialistik qarash qaror topdi, deb xulosalar chiqarilgan.

Bundan tashqari, islom diniy marosimlariga bag'ishlangan bir necha asarlar yaratilgan[1696]. M. A. Usmonovning "Ислом ақидалари ва маросимлари" monografiyasida[1697] islomning ilk davrlariga xos bo'lgan aqidalari va marosimlari, ularning shakllanishi va xususiyatlari ilk islom manbalari asosida tadqiq qilingan.

A. Alimuhammedov "Ислом динидаги маросимчилик ва урф-одатлар" nomli kitobida[1698] ruhoniylarning diniy marosimlar, jumladan, namoz, ro'za, qurbonlik, ro'za va qurbonlik hayiti bayramlari, mavlud, xatna va xatna to'yi hamda boshqalar haqidagi islom talablarini qayta ko'rib chiqib, ularni zamona ruhi bilan sug'orilgan holda sotsializm sharoitiga moslashtirishning o'ziga xos yo'llarini ko'rsatishga uringan va bu bilan go'yoki mualliflar diniy marosimlarni saqlab qolishga harakat qilgan.

Umuman, islom marosimlariga bag'ishlangan kitoblarda kommunistik mafkura va sovet hukumatining diniy siyosatidan kelib chiqib, "barcha diniy

---

[1694] Абдусамедов А. И. Социал тараққиёт ва ислом. Тошкент: Ўзбекистон, 1984.
[1695] Жабборов И. Зулматдан маърифатга. Тошкент: Ёш гвардия, 1984.
[1696] Сиддиқов Т. Рўза ва Қурбон ҳайити ҳақида. Тошкент, 1961; Фозилов И. Зарарли одатлар. Тошкент, 1961; Ширинбоев Ш. Диний маросимлар тўғрисида ҳақиқат. Тошкент, 1966; Абдусамедов А. Э. Рўза. Тошкент, 1985; Ташпланов Т. Миллий ва диний урф-одатлар. Тошкент, 1986.
[1697] Усмонов М. А. Ислом ақидалари ва маросимлари. Тошкент: Ўзбекистон, 1975;
[1698] Алимуҳаммедов А. Ислом динидаги маросимчилик ва урф-одатлар. Тошкент: Ўзбекистон, 1969.

marosimlar zararli", deb talqin qilingan va "reaksion xarakterga ega" deb baholangan. Islom dini aqidalari ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan diniy ta'limot, deb ta'kidlangan.

Tarixiy tadqiqotlarda Sovet davlati rivojidagi salbiy holatlarni aniqlash va baholash jarayonidagi sifat o'zgarishlari 1986–1987-yillarga kelib ro'y berdi. Bu bevosita jamiyat hayotida kechayotgan "Qayta qurish", va "Oshkoralik" jarayoni bilan bog'liq bo'ldi[1699]. 1980-yillarni o'rtalariga kelib M. Gorbachevning islohotlari SSSRdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'zgartirgani tarixiy tadqiqotlar yo'nalishi va yondashuvlarga ham ta'sirini o'tkazdi. Bu tadqiqotlarda tanqidiy munosabat va kechayotgan jarayonlarga xolis baho berishga urinishlarda aks etdi[1700].

### Markaziy Osiyo xalqlari tarixining XX asrda o'rganilishi

**Qoraqalpoq xalqi tarixshunosligi**. Sovet davrida Qoraqalpog'iston tarixiga doir tadqiqotlar dastlab hududga doir tarixiy hujjatlar, etnografik materiallar yig'ish va o'lkashunoslik izlanishlaridan boshlandi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati hududi, aholisi va qishloq xo'jaligi haqidagi materiallar A. N. Maksimovning ma'lumotnomasida jamlandi[1701].

Mintaqa aholisining etnik tarkibi to'g'risidagi statistik materiallar Amudaryo viloyatining 1920–1921-yillarda aholini ro'yxatga olish natijalarini e'lon qilinishi bilan boshlangan[1702].

1924-yilda O'rta Osiyo tarixida milliy-davlat chegaralanishi o'tkazilishi natijasida qoraqalpoq xalqi o'z davlatiga ega bo'ldi. Ushbu voqea Qoraqalpog'iston tarixini o'rganish uchun turtki bo'lib xizmat qilgan.

1924-yilda O'rta Osiyoda milliy chegaralanish bilan bog'liq holda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Kengashi Buxoro va Xorazm, shuningdek Qoraqalpog'istonning chap qirg'oq qismida muntazam ravishda tadqiqotlar o'tkazildi va uning natijalari, bu hudud aholisi to'g'risidagi ma'lumotlar

---

[1699] Асадова Ш. И. К особенностям историографии Узбекистана второй половины 1980-х годов: «Перестройка и новое мышление» для советского общества и его истории / Очерки историографии Узбекистана в XX столетии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. С. 155–178.

[1700] Ишанов А. И. Перестройка и дальнейшая демократизиция Советского государства // ОНУ. 1987. №12. С. 9–11; Камилов К. Повышение роли советов в условиях перестройки // ОНУ. 1989. №4; Камилов К. Проблемы совершенствования социалистического самоуправления в свете решений XXVII съезда КПСС // ОНУ. 1987. №6; Ким Ф. Культура партийной работы в условиях перестройки // Коммунист Узбекистана. 1988. №2. С. 44–51; Касымов А. М., Дмитриев В. Н. Перестройка в партии: выборные органы и аппарат. Ташкент: Узбекистан, 1991; Утамуродов А. Человек – главный фактор перестройки. Ташкент: Узбекистан, 1989.

[1701] Максимов А. Н. Какие народы живут в России. Справочник. М., 1919.

[1702] Материалы Всероссийской переписи 1920 г. Перепись населения в Туркестанской республике. Ташкент, 1923. Ч. I, вып. 2

"Markaziy Osiyoni rayonlashtirish bo'yicha materiallar"da e'lon qilindi[1703]. Qoraqalpog'iston tarixining alohida masalalari va inqilobgacha bo'lgan davr haqidagi ma'lumotlar P. P. Ivanovning maqolasidan o'rin olgan[1704].

XX asrning 20-yillari boshlarida avtonom viloyat hududida SSSR Fanlar akademiyasining turli ekspeditsiyalari ish olib borgan bo'lib, bu mintaqa haqidagi bilimlarni muntazam ravishda rivojlantirishga, qoraqalpoq xalqining madaniyati va tarixini o'rganishga asos yaratdi. 20-yillarning ikkinchi yarmidan SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya instituti xodimi G. Shuls Qoraqalpog'istonda dala materiallari yig'ish ishlari bilan shug'ullangan. Uning izlanishlarida Qoraqalpog'iston aholisi soni, ularning turmush tarzi, Qoraqalpog'iston avtonom viloyatidagi sug'orish va qishloq xo'jaligi to'g'risida ma'lumotlar chop qilingan[1705].

1926–1930-yillarda qoraqalpoqlarni o'rganish maqsadida bir nechta etnografik ekspeditsiyalar olib borildi. Akademik M. K. Nurmuhamedov ma'lumotlariga ko'ra: "1926-yilda N. A. Baskakov ovuldan ovulga piyoda borib folklor namunalarini to'plagan"[1706]. Mazkur ekspeditsiyaga S. Ye. Malov rahbarlik qilgan va uning tarkibiga N. A. Baskakov, A. S. Morozova, N. V. Torchinskaya, A. Davlet, K. Ayimbetov, E. Ergaliyev, K. Ubaydullayev, T. Bekimbetov va boshqalar kirgan edi.

Ekspeditsiya natijasida zargarlik buyumlari, qoraqalpoq ayollari liboslari namunalari, musiqa asboblari va boshqalar boy etnografik materiallardan iborat to'plam jamlangan. Ekspeditsiya materiallari 1930-yilda yaratilgan Qoraqalpog'iston viloyat muzeyi fondining asosini tashkil etgan. Hozirgi kunda og'zaki folklor san'ati va qoraqalpoqlar tarixiga oid qimmatli materiallar O'zR FAning Qoraqalpog'iston filiali kutubxonasida saqlanmoqda.

1930-yilda Qoraqalpog'iston RSFSR tarkibiga kiritildi va 1931-yilda SSSR Fanlar akademiyasining ko'magi bilan Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institut qoraqalpoq xalqi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi.

30-yillarning o'rtalaridan boshlab qoraqalpoqlar tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari ancha kengaydi. Qoraqalpoq tarixining birinchi tadqiqotchilari sifatida A. Dosnazarov, K. Avezov, P. Varlamov va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ushbu olimlarning tadqiqotlari natijasi fanni yangi materiallar bilan boyitdi[1707].

---

[1703] Материалы по районированию Средней Азии // Территория и население Бухары и Хорезма. Кн. 2. Ч. 2. Ташкент, 1926.

[1704] Иванов П. П. Население Средней Азии. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 г. Ташкент, 1926. С. 87–106.

[1705] Шульц Г. Каракалпаки дельты Амударьи. Этнограф-исследователь, 1928. №2–3. С. 35–41.

[1706] Нурмухамедов М. К. Из истории русско-каракалпакских культурных связей. Ташкент: Фан, 1974. С. 52.

[1707] Авезов К., Варламов П. Кара-Калпакстан к десятилетию Казахстана. Издание юбилейной комиссии к 10-летию Великой Октябрьской революции. Алма-Ата, 1930; Досназаров А. К. Десятилетию Каракалпакской АССР. Революционный Восток. 1934. №6. С. 173–180; Московкин Н. Каракалпакская АССР. М: Власть Советов, 1932; Shu muallif. Хозяйственное и культурное строительство Каракалпакской АССР. Турткуль, 1936.

Sovet davrida qoraqalpoqlar haqida yaratilgan kitoblarning deyarli barchasi hukmron partiyaning talabi va mafkurasiga moslashtirilgan edi.

D. Loginova muharrirligida nashr qilingan "Қорақалпоғистон АССРнинг 1933-йилдаги халқ хўжалиги режасига оид материаллар" nomli kitobda[1708] avtonom Respublikaning hududi, aholisi, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, o'rmonchilik, baliqchilik xo'jaligi, sanoati, transporti, aloqa yo'llari, kommunal xo'jalik, Nukusdagi bunyodkorlik ishlari, sog'liqni saqlash, mehnat va kadrlar, kapital qurilish, budjeti haqidagi ma'lumotlar mujassamlashdi. Qoraqalpog'istonning hududi va aholisi haqidagi ma'lumotlarda haydaladigan, o'rmon, to'qay, pichanzor va yaylov maydonlari gektar va foiz jihatdan ko'rsatilgan. Qoraqalpog'istondagi tumanlar aholisining soni, milliy tarkibi va mehnatga yaroqli aholi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, hudud transporti va uning turlari, pochta aloqalari hamda radio tarixi masalalari yoritilgan.

"Каракалпакия"[1709] deb nomlangan asarda Qoraqalpog'iston hududi va Qizilqumdagi geobotanik qumliklari hamda ulardan foydalanish yo'llari, Amudaryo deltasidagi o'simlik dunyosi, Qizilqumdagi yem-xashak resurslari, Qoraqalpog'istonning tuproqlari va ularning xo'jalik xususiyatlari, hududdagi suv-xo'jalik masalalarini kompleks hal qilish, chorvachilikning istiqbollari, o'rmonlar, Qoraqalpog'istonda "Madaniy inqilob", qoraqalpoqlar tarixini o'rganish bo'yicha materiallar, qoraqalpoq tilining o'rganilishi, uning yangi orfografik qoidalari kabi masalalar yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, savodsizlikka qarshi kurash, Qoraqalpog'istonda "Madaniy inqilob" kadrlari, nashrchilik va adabiyotning rivoji, milliy san'at, lotin alifbosiga o'tilishi va qoraqalpoq ayollarining ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumotlar ham ushbu asardan o'rin olgan.

A. N. Samoylovich, P. P. Ivanov, N. N. Palmov va A. I. Ponomarevlardan iborat ilmiy tadqiqot guruhi sharqiy tillarda yozilgan bir qator qo'lyozma yodgorliklarni arxeografik qayta ishlash, tarjima qilish va sharhlash bo'yicha muhim tadqiqotlar olib bordilar. Bu tadqiqotlar natijasida, 1935-yilda A. N. Samoylovich tahriri ostida Qoraqalpog'iston tarixi bo'yicha materiallar to'plami nashr etildi. To'plamda qoraqalpoq tarixiga doir ko'plab yangi va o'z navbatida qimmatli manbalar ilmiy muomalaga kiritildi[1710].

1940-yilda Qoraqalpoq o'qituvchilar tayyorlash institutida tarix fakulteti ochildi. Tarix fakulteti nafaqat tarixchi va tarixiy fanlar o'qituvchilari, shu bilan birga o'sha yillarda ilmiy tadqiqot olib boradigan kadrlar tayyorlash uchun ham asos bo'lib xizmat qildi.

---

[1708] Материалы по народно-хозяйственному плану ККАССР на 1933 г / Под ред. Д. М. Логинова. Турткуль: Газжурнпо, 1933. С. 43.

[1709] Каракалпакия. Т. 2. Л., 1934. 272 с.

[1710] Материалы по истории каракалпаков. Сборник / Редактор издания А. Н. Самойлович. М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1935. 299 с.

Mazkur davrda Xiva xonligi va qoraqalpoqlar tarixini o‘rganishga doir ko‘plab arxeologik ashyolar hamda qo‘lyozmalar o‘rganildi. Bu izlanishlarni tashkil etishda ayniqsa, S. P. Tolstov boshchiligida 1938–1941-yillarda faoliyat yuritgan Xorazm ekspeditsiyasi muhim o‘rin tutadi[1711]. Xiva xonlarining arxivini tadqiq qilish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar P. P. Ivanov tomonidan amalga oshirilgan. Uning ma’lumotlari qoraqalpoqlarning XVIII–XIX asrlardagi siyosiy-ijtimoiy tarixi o‘rganish uchun juda muhim hisoblanadi[1712].

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi natijasida mintaqa bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan ko‘plab olimlar, shu jumladan, P. P. Ivanov (1942-yilda haloq bo‘lgan), Ya. M. Dosumov, J. Urumbaev, T. Bekimbetov va boshqalar frontga ketdilar.

Urush davrida Qoraqalpog‘istonga evakuatsiya qilingan G. D. Petrov, S. A. Fisher, B. V. Levin, S. Takibayev, Z. M. Bikkulova va boshqa olimlar faoliyati tufayli ilmiy izlanishlar to‘xtab qolmadi. 1943-yilda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining tashkil topishi hududdagi ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Qoraqalpoq davlat pedagogika instituti nafaqat ta’lim maskani, balki ilmiy tadqiqot markazlaridan biriga ham aylandi.

1945-yil oktabrda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Nukusda Qoraqalpog‘iston tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi sayyor sessiyasini o‘tkazdi. Ushbu sessiya qoraqalpoq xalqi siyosiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga ega edi.

Sessiyada S. P. Tolstov “Қорақалпоғистон ва қорақалпоқлар тарихи ва археологиясини ўрганишнинг асосий натижалари ва долзарб вазифалари”, Ya. G‘. G‘ulomov “Ирригация масалаларі” mavzusida, A. S. Morozova “Этнография – халқ тарихини ўрганиш манбаси”, V. G. Moshkova “Этнографик тадқиқотлар”, V. V. Reshetova esa “Тил масаласи”, Ye. Kojurov “Қорақалпоқ фолклори ва халқ оғзаки ижоди”, X. T. Zarifovlar “Фарғона қорақалпоқлари фолклори” mavzularida ma’ruza qildilar[1713]. Sessiya so‘nggida T. N. Qori-Niyozov ma’ruza qilib, “qoraqalpoqlar tarixini chuqur o‘rganish faqatgina qadimiy yozma va ashyoviy manbalarni o‘rganish orqali amalga oshirish mumkin”ligini ta’kidladi[1714].

Urushdan keyin S. P. Tolstov boshchiligida SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasining ishi qayta tiklandi. Qoraqalpog‘istonning ilgari o‘rganilmagan janubiy qismi, avtonom

---

1711 Толстов С. П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // Вестник древней истории. 1938. № 1. С. 198–203; Shu muallif. Памятники древнего Хорезма в Каракалпакской АССР // Советская Каракалпакия. 1938. 14 окт.

1712 Иванов П. П. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Л.: АН СССР, 1940.

1713 Бюллетень Академии наук УзССР. 1945. № 9–10.

1714 Кары-Ниязов Т.Н. Выездная сессия Академии наук УзССР в Каракалпакской АССР. Вступительное слово на сессии // Shu joyda. 5-б.

respublikaning shimoliy hududlari, shuningdek Qozog'istonning Orolbo'yi viloyatlarida (Janadaryo va Quvandaryo bo'ylarida) yirik arxeologik qazish va qidiruv ishlari olib borildi. Ya. G'. G'ulomov XVII–XX asrlarda Xorazmning sug'orish tizimini o'rganishni boshlagan bo'lsa, A. S. Morozova esa qoraqalpoqlarning etnografiyasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarini davom ettirdi[1715].

Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi o'z faoliyati davomida (1937–1960) Xorazm tarixining turli davrlariga va Orolbo'yining qo'shni dasht mintaqalariga tegishli 650 dan ortiq arxeologik ob'yektlarni topib o'rgangan[1716].

1945-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm ekspeditsiyasi tarkibida chuqur statsionar etnografik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida T. A. Jdanko boshchiligida "Qoraqalpoq etnografik guruhi" tashkil etildi. Ushbu guruh dasturiga qoraqalpoqlarning etnogenezi, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzilishi, hayoti va madaniyati bo'yicha tarixiy-etnografik tadqiqotlarni amalga oshirish rejalari kiritilgan edi.

1945–1955-yillarda Qoraqalpoq etnografik guruhi avtonom respublikaning barcha mintaqalarida, quyi Sirdaryo, Janadaryo va Quvandaryoning havzasidagi qoraqalpoqlar yashab o'tgan hududlarda tarixiy-etnografik tadqiqotlar olib borgan.

Qoraqalpoq etnografik guruhi a'zolari T. A. Jdanko, B. V. Andrianov, M. V. Sazonova, K. L. Zadixina, N. P. Lobacheva, S. K. Kamolov, R. K. Kosbergenov va U. X. Shalekenov tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar natijalari bo'yicha ko'plab asarlar nashr qilindi[1717].

1952-yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi "Ўзбекистон халқлари тарихи" ni qayta nashr etish to'g'risida qaror qabul qildi. Yangi nashrni tayyorlagan mualliflar guruhiga qoraqalpoq olimlaridan Ya. M. Dosumov, S. K. Kamolov, U. X. Shalekenov, R. Kosbergenov, A. Bekimbetov va boshqalar kiritilgan. Bu Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi tarixchilarining kasbiy mahoratini oshirishga yordam bergan.

---

1715 Морозова А. С. Очерки по одежде и пище каракалпаков. Нукус, 1945.

1716 Толстов С. П. Итоги двадцати лет работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции (1937–1956 гг.). // Советская этнография. 1957. №4. С. 31–60; Толстов С. П., Жданко Т. А., Итина М. А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958–1961 гг. / Материалы Хорезмской экспедиции АН СССР. М., 1963. Вып. 6. С. 32–90.

1717 Жданко Т. А. Этнографическая разведка в Чимбайском районе Каракалпакской АССР / Краткие сообщения Института этнографии. 1947. Вып. 2. С. 5–16; Shu muallif. Родоплеменная структура и расселение каракалпаков в низовьях Амударьи в XIX – начале XX в.// Краткие сообщения Института этнографии. 1949. Вып. 6. С. 58–63; Shu muallif. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.-Л.: АН СССР, 1950; Shu muallif. Каракалпаки Хорезмского оазиса // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. М., 1952. Т. 1. С. 461–566; Shu muallif. Каракалпакская эпическая поэма «Кырк кыз» как историко-этнографический источник / Краткие сообщения Института этнографии. 1958. Вып. 30. С. 112–120; Андрианов Б.В. Этническая территория каракалпаков в Северном Хорезме в XVIII–XIX вв. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. М., 1951; Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма / Труды Хорезмской экспедиции. М., 1952. Т. 1. С. 247–318; Задыхина К. Л. Узбеки дельты Амударьи//Shu joyda. С. 319–426.

XX asrning 50-yillarida Qoraqalpog'istonning Rossiyaga qo'shilishi oqibatlari A. P. Saviskiy, R. Kosbergenov va Ya. M. Dosumovlarning maqolalarida yoritildi[1718].

1960–1980-yillarda esa O'rta Osiyoning barcha respublikalarida, shu jumladan, Qoraqalpog'istonda tarix fanining jadal rivojlanish davri bo'ldi. Barcha respublikalarda bo'lgani kabi, bu yerda ham partiya qarorlarida belgilangan amaliy chora-tadbirlar kompleksi, ilmiy tadqiqot muassasalarini tashkil etish va mustahkamlashdan tortib, tarixchilarni tayyorlashgacha bo'lgan jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi "Axborotnomasi" sahifalarida Qoraqalpog'iston tarixining asosiy muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy natijalari muntazam ravishda yoritib borildi.

Qoraqalpog'istonda tarix fanining muhim yutuqlari to'rt jildli "Ўзбекистон ССР тарихи", ikki jildli "Қорақалпоғистон АССР тарихининг очерклари", ikki jildli "Қорақалпоғистон АССР тарихи" kabi asarlarda o'z aksini topdi.

A. I. Zevelevning[1719] monografiyasida 1917–1920-yillardagi O'rta Osiyodagi tarixiy jarayonlarni yoritgan asarlar va olimlarning konsepsiyalari tahlil qilingan. Muallifning "Bosmachilik harakati" va "sovet hokimiyatining tantanali yurishi" to'g'risidagi qarashlari albatta hozirgi zamon talabiga javob bermaydi.

1970-yilda O'zbekistonda tarix fanining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida qisqacha ocherklarida[1720] qoraqalpoq, qozoq, o'zbek va turkman tarixshunoslarining Orolbo'yi xalqlarining tarixiga doir ishlari ham qayd qilindi.

Qoraqalpoqlarga bag'ishlangan yana bir asarda[1721] asosan, Qoraqalpog'istonning Rossiya imperiyasi davri tarixi bayon etilgan bo'lsa, sovet davri tarixi qisman aks etdi. Asarda 1916–1917-yillarga kelib, Qoraqalpog'istonda vaziyat juda og'irlashib ketgani sabablari, iqtisodiy inqiroz va ocharchilik tufayli xalq noroziligi kuchayishi, Rossiyadagi Fevral burjua-demokratik inqilobi Qoraqalpog'istondagi xalq ozodligi harakatiga turtki bo'lganligi yoritilgan. Shuningdek, asarda Qoraqalpog'istonda sovetlarning hokimiyat tepasiga kelishi tafsilotlari bayon qilingan.

---

1718 Савицкий А. П. К истории правобережного района Амударьи после присоединения к России / Труды САГУ. Новая серия, вып. X. Исторические науки. Кн. 14. Ташкент, 1957. С. 117–140; Косбергенов Р. К вопросу прогрессивного значения присоединения Каракалпакии к России / Труды Каракалпакского комплексного института. Нукус, 1959. Вып. I. С. 7–22; Досумов Я. М. Прогрессивное значение присоединения Каракалпакии к России// Известия АН УзССР. Серия общ. Наук. 1959. № 2. С. 16–24.

1719 Зевелев А. И. Историография Советского Туркестана. Историография и источники по истории гражданской войны в Туркестане. Ташкент, 1968.

1720 Ахунова М. А., Лунин Б. В. История исторической науки в Узбекистане. ...

1721 Борьба трудящихся Каракалпакии: Против социального и колониального гнета / Отв. ред. С. К. Камалов. Ташкент: Фан, 1971, 152 с.

"Аграрная политика советской власти в Каракалпакии"[1722] asarida Xiva xonligining qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarida XIX asrning ikkinchi yarmidan 1920-yilgacha bo'lgan agrar munosabatlar, Amudaryo bo'limida sovet hokimiyati o'rnatilishi va mustahkamlanishi davridagi birinchi agrar tadbirlar, fuqarolar urushi va chet davlatlarning harbiy intervensiyasi davrida sovet hokimiyatining Amudaryo bo'limi qishloq xo'jaligida amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, kitobning "Amudaryo oblastida agrar islohotlar" bobida Amudaryo bo'limida dehqon xo'jaliklarining yer tuzish tadbirlari, "Qo'shchi" ittifoqi va boshqa yirik dehqon tashkilotlarining viloyatdagi agrar islohotlarni amalga oshirishdagi o'rni, sovet davlatining Amudaryo viloyatida dehqon xo'jaligini tiklash uchun kurashi haqida ma'lumotlar mavjuddir.

A. Rajabovning "Қорақалпоғистон ССРнинг давлат тузилиши"[1723] deb nomlangan asarida Qoraqalpog'iston ASSRning tashkil qilinishi, uning Konstitutsiyasi, davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlari, sud va prokuratura tizimi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Asarda Oktabr inqilobi ulug'lanib, sovet tuzumining qoraqalpoq xalqi uchun "ahamiyati" ko'rsatib berilgan.

1974-yilda Til va adabiyot, tarix instituti tomonidan Muxtor respublika tarixiga bag'ishlangan fundamental asarning bosmadan chiqarilishi Qoraqalpog'istonda tarix fanini rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi[1724]. Unda ilgari nashr etilgan "Қорақалпоғистон АССР тарихи" asarida yo'l qo'yilgan ko'plab kamchiliklar inobatga olinib, bartaraf qilindi.

Tarix fani sohalari orasida eng dolzarb mavzulardan biri shaharlar tarixini o'rganishdir. Avtonom respublika shaharlari tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar S. K. Kamolov, A. Koshanov, V. X. Tatibayeva, X. Yesbergenov, M. Mambetullayev, J. Ubbiniyazov va boshqalarning asarlarida keltirilgan[1725].

Qoraqalpog'iston solnomasini ilk marta K. B. Muhamedberdiyev yaratgan edi[1726]. O'sha davrda urf bo'lgan ushbu solnomada K. B. Muhamedberdiyev

---

[1722] Аметов К. А. Аграрная политика советской власти в Каракалпакии. Нукус, 1972. 219 с.

[1723] Ражабов А. Қорақалпоғистон АССРнинг давлат тузилиши. Тошкент: Ўзбекистон, 1974.

[1724] История Каракалпакской АССР в 2-х томах. Ташкент: Фан, 1974.

[1725] Камалов С. К., Кощанов А. Из истории Турткуля // Амударья. 1976. № 8. С. 11–19; Татыбаева В. Х. Строительство Нукуса как политико-административного, культурного и экономического центра Каракалпакии // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. 1973. № 4; Shu muallif. Братская помощь Советской России в строительстве г. Нукуса – новой столицы Каракалпакской АССР // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. 1982. №4; Shu muallif. Нукус – столица Каракалпакской АССР. Нукус, Каракалпакстан, 1979; Shu muallif. История социалистического города Нукуса – столицы Каракалпакской АССР (1932–1980 гг.): Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1983; Камалов С., Есбергенов Х., Мамбетуллаев М. Основание и развитие города Чимбая // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. 1986. № 1. С. 46–50; Уббиниязов Ж. Петро-Александровск почта-телеграф // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. 1986. №2. С. 41–44. ва б.

[1726] Мухамедбердыев К. М. Ленин и народы Хорезмского оазиса. Вопросы истории, историографии и источниковедения перехода к социализму. Нукус: Каракалпакстан, 1982.

Orol bo‘yi xalqlari muammolarini yoritishga harakat qildi, lekin ushbu asar shunchaki yuzaki yozilgan asar hisoblanadi.

M. P. Payzullayeva, M. M. Niyozova va G. Q. Matyoqubovalar tomonidan “Qoraqalpog‘iston ASSR matbuoti” bibliografik ko‘rsatkichi tuzildi[1727]. Unda 1917–1975-yillarda Qoraqalpog‘istonda nashr qilingan kitob, broshyura hamda davriy matbuot nashrlari tavsiflandi.

Umuman olganda, avtonom Respublikada o‘sha davrda nashr etilgan adabiyotlarda marksizm-leninizm g‘oyalari keng targ‘ib etilgan. Shuningdek, ateizmni targ‘ib etuvchi bir qancha kitoblar yaratildi. Ularda, jumladan, dinga qarshi kurash, “diniy qoldiqlar va ularning ziyoni”, “diniy qoldiqlarni yengish”, “qurbon hayitining kelib chiqishi va uning ziyonlari” kabi masalalar talqin etildi.

S. K. Kamolov, U. K. Kalniyazov, A. Bekimbetov, K. Ametov, J. Ubbiniyazov, B. Shamambetov va K. Kalimbetov asarlarida Qoraqalpog‘iston tarixining umumiy masalalari bilan bir qatorda partiya tarixi masalalariga ham muhim o‘rin berilgan bo‘lib, ushbu asarlarda Qoraqalpog‘iston partiya tashkilotining yetakchilik rolini ochib berishga e’tibor qaratilgan.

Qoraqalpog‘iston tarixiga bag‘ishlangan yana bir asarda[1728] uning qadimgi davridan to 1986-yilgacha bo‘lgan tarixi bayon etiladi. Asarda, jumladan, Qoraqalpog‘istonda sotsialistik inqilobning g‘alabasi, xalq xo‘jaligining tiklanishi davri tarixi, ta’lim tizimi, industrlashtirish va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish davri, sotsialistik jamiyatning keyingi rivoji, shuningdek, Qoraqalpog‘iston ASSRda madaniyat taraqqiyoti masalalari o‘z aksini topgan.

“Qayta qurish” davrining yutug‘i sifatida biz Qurbanbay O‘tepovning 1988-yilda chop etilgan asarini ko‘rsatishimiz mumkin. Muallif Qoraqalpog‘istonda tarix fanining shakllanish bosqichlari, rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan[1729].

Yuqoridagi asarlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Qoraqalpog‘iston tarixi bo‘yicha yozilgan ishlar salmog‘i ko‘p, ammo ularning aksariyat qismi tavsifiy yondashuv asosida, ko‘p holatlarda sovet mafkuraviy ta’sirini o‘zida aks ettirgan tarzda yozilgan. Qayd etish kerakki, ushbu asarlar Qoraqalpog‘iston tarix fani rivojida ma’lum ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Qozoq xalqi tarixshunosligi.** Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ba’zi olimlar XX asrning 20-yillari voqealariga qadar qozoqlar haqidagi adabiyotlarni munosib baholashga uringan bo‘lsalar-da, ushbu vazifani uddalay olmadilar. Shular jumlasiga aytarli darajada muvaffaqiyatli bo‘lmasa-da, bunga

---

[1727] Қорақалпоғистон АССР матбуоти (1917–1975 йй). Библиографик кўрсаткич / Тузувчилар: М. П. Пайзуллаева М. М., Ниёзова Г. Х. Матёқубова. Тошкент, 1986. 428 б.

[1728] История Каракалпакской АССР (С древнейших времен до наших дней) / Под ред. ак. М.К. Нурмухамедова. Ташкент: Фан, 1986. 364 с.

[1729] Утепов К. Т. Великий Октябрь, становление и развитие исторической науки в Каракалпакстане. 1917-1987 гг. Нукус: Каракалпакстан, 1988.

birinchilardan bo'lib urinib ko'rgan A. P. Chuloshnikov asarini[1730] keltirish mumkin. Mazkur asar qozoq xalqining tarixiga bag'ishlangan dastlabki sovet ilmiy adabiyotlari qatoriga kiradi.

M. Vyatkinning 1941-yilda Olmaotada nashr qilingan "Очерклар"ida[1731] Qozog'istonning geografik, siyosiy va iqtisodiy o'ziga xosligini ko'rsatilgan bo'lsa, I. M. Zabelinning Qozog'iston SSRga bag'ishlangan kitobida[1732] esa O'rta Osiyoda o'tkazilgan "Milliy-hududiy chegaralanish" natijasida tashkil etilgan Qozog'iston SSRning tabiiiy sharoiti, aholisi, xo'jaligi, madaniyati va sog'liqni saqlash ishlari, yirik shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Yana bir muallif, V. V. Vostrov[1733] mo'g'ul bosqini Qozog'istonning janubida ko'pgina shahar va o'troq aholini vayron qilib, o'lkaning ishlab chiqarish kuchlariga putur yetkazganligi, ko'p sonli mahalliy qabilalarning aralashuvi hamda bir-biridan ajratilishi, ular o'rtasidagi etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'qolishiga olib kelganligini ta'kidlaydi.

Sovet davrida qozoq xalqining eng qadimgi[1734], XVI–XIX asrlardagi davri[1735] va XX asrdagi tarixini[1736] yoritishga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar

---

[1730] Чулошников А. П. Очерки по истории казахо-киргызского народа в связи с общими историческими судбами других тюркских народов. М.: Наука, 1924. 298 с.

[1731] Вяткин М. Очерки из истории Казахстана. Алма-Ата, 1941. 84 с.

[1732] Забелин И. М. Қозоғисон ССР. Тошкент: Ўздавнашр, 1962. 88 б.

[1733] Востров В. В. Родоплеменной состав и расселение казахов (конец XIX – начало XX вв.). Алма-Ата, 1968. С. 49–53.

[1734] Исмагулов О. Этническая антропология Казахстана. Алма-Ата, 1982. 156 с.; Байпаков К. М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречя (VI – начало XIII вв.). Алма-Ата: Наука, 1986. 256 с.; Shu muallif. По следам древных городов Казахстана: (Отрарский оазис). Алма-Ата: Наука, 1990. 208 с; Shu muallif. История Казахстана (с древнейших времен до начала XX века) / Библиографический указатель. Алматы: Мектеп, 1988. 232 с.; Байпаков К. М., Подушкин А. Н. Памятники земледельческо-скотоводеческой культуры южного Казахстана. Алма-Ата: Наука, 1989. 160 с.; Байпаков К., Ерзакович Л. Древные города Казахстана. Алма-Ата: Наука, 1971. 212 с.

[1735] Шахматов В. Ф. Казахская пастбищно-кочевая община. Алма-Ата, 1964. 82 с.; Шалекенов У. Х. Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов каракалпаки в XVIII–XX вв. Ташкент, 1966. 144 с.; Толыбеков С. Кочевое общество казахов в XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1971. 138 с.; Shu muallif. Хозяйство казахов на рубеже XIX – начале XX вв. Алма-Ата, 1980. 178 с.; Турсунова М. С. Казахи Мангышлака во второй половине XIX века. Алма-Ата: 1977. 184 с.; Сулейманов Б. С., Басин В. Я. Казахстан в составе России (в начале XVIII–XX века). Алма-Ата, 1981. 247 с.; Абусеитова М. Х. Казахское ханство во второй половине XVI века. Алма-Ата: Наука, 1985. 104 с.; Шаханова Н. Ж. Традиционная пища казахов как историко-этнографический источник. Автореф. дисс...канд. истор. наук. Алма-Ата, 1987. 30 с.

[1736] Донич А. Н. Народонаселение Казахстана / Народное хозяйство Казахстана. Кзыл-Орда, 1928. №11–12. С. 28–29; Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962. Кн. 1; Кн. 2; Шахматов В. Ф. Казахская пастбищно-кочевая община. Алма-Ата, 1964. 86 с.; Масанов Э. А. Очерки истории этнографического изучения казахского народа в СССР. Алма-Ата, 1966. 92 с.; Гладышева Е. Особенности формирования населения и основные проблемы использования трудовых ресурсов Казахстана. Алма-Ата, 1967. 132 с.; Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Л., 1969. 298 с.; Вотров В. В., Каунов Х. А. Материальная культура казахского народа на современном этапе Алма-Ата, 1972. 120 с.; Аргынбаев Х. Семья и брак у казахов. Алма-Ата, 1978. 184 с.; Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. Л., 1978. 269 с.; Shu muallif. Семья и брак у казахов. Алма-Ата, 1978. 138 с.; Костюм народов Средней Азии и Казахстана. М., 1979. 186 с.; Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. М., 1980. 238 с.; Поляков С. П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. М., 1980. 157 с.; Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М., 1982. 322 с.; Бекмаханова Н. Е. Многонациональное население Казахстана и Киргизии в эпоху

yaratildi. Xususan, tadqiqotchi A. Ismagulovning qozoq xalqining eng qadimgi tarixiga oid “Этническая антропология Казахстана” asarida[1737] qozoq xalqi antropologiyasi va etnik qiyofasining shakllanishi haqida batafsil ma’lumot beriladi. Muallif qozoqlarning antropologik jihatdan mo‘g‘ullarga o‘xshab ketishi, yuz tuzilishi dumaloq, oq-sariqdan kelganligi, gavdalari ham kichikroq bo‘lganligi, ular ko‘chmanchi xalq bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullanishini ta’kidlaydi[1738].

“Хозяйство казахов на рубеже XIX–XX веков” asari[1739] qozoq xalqining xo‘jalik hayotini yoritib beruvchi eng muhim manbalardan biri bo‘lib, unda chorvachilik qozoqlarning asosiy mashg‘uloti ekanligi qayd etilgan.

B. Suleymanov va V. Basinlarning “Казахстан в составе России. (в начале XVIII – XX века)” asarida [1740] yozilishicha, XVIII asr boshlarida Qozoq xonligida og‘ir siyosiy vaziyat hukmron edi. Chunki, jung‘orlar bu yurtga harbiy yurishlarni amalga oshira boshlagan edi. Ularning shiddatli yurishlari asosan, 1710-yildan boshlangan edi. 1723-yilda jung‘or-qozoq urushlaridagi vaziyat qozoq xalqi uchun yomon tomonga o‘zgargan.

Qozoq xalqini qirib tashlashga qaratilgan “og‘ir kulfat yillari” ularning xotirasida “Aq taban shubirindi” degan nom ostida saqlangan. 1728-yil bahorda Ulutov tizmalaridagi Bulanti va Beleut daryolari oralig‘idagi Qorasiyar degan joyda jung‘orlar bilan qozoqlar o‘rtasidagi jang qozoqlarning g‘alabasi bilan yakunlangan. Jung‘or-qozoq urushlari oqibatida vujudga kelgan qashshoqlashish qozoq xonlarini Rossiyaga murojaat qilishga undagan[1741].

K. M. Baypakov va A. N. Podushkinlar hammuallifligida nashr etilgan “Памятники земледелческо-скотоводеческой културы Южного Казахстана” asari[1742] ham qozoq xalqining qadimgi tarixiga oid asardir. Unda Qozog‘istonning qadimgi shaharlaridan Ko‘k Mardon, Pshuk Mardon, Kostobe, Mardan Kuyik, Aktobe, Altintobe, Karatobe va boshqalar haqida to‘liq ma’lumot beriladi.

Umuman olganda, sovet davrida qozoq xalqi tarixi, etnografiyasi, xo‘jalik hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy holati va boshqa Respublikalar bilan aloqalariga oid ilmiy adabiyotlar vujudga keldi. Ular orqali qozoq xalqining eng qadimgi davrlaridan to mustaqillikka qadar bo‘lgan tarixini bilib olish mumkin. Ammo,

---

капитализма. М., 1984. 186 с.; Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. М., 1984. 174 с.; Турсунбаев А. Б. Казахстан в революции 1905–1907 годов. Алма-Ата: Мектеп, 1987. 88 с.; Шаханова Н. Ж. Традиционная пища казахов как историко-этнографический источник. Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. Алма-Ата, 1987. 29 с.

[1737] Исмагулов О. Этническая антропология Казахстана: (Сомaтол. исслед.). Алма-Ата: Наука, 1982. 231 с.

[1738] Shu joyda. 49–53-бетлар.

[1739] Хозяйство казахов на рубеже XIX–XX веков. Алма-Ата: Наука, 1980. 256 с.

[1740] Сулейменов Б. С., Басин В. Я. Казахстан в составе России в XVIII - начале XX века. Алма-Ата: Наука, 1981. 243 с.

[1741] Shu joyda. 78–80-бетлар.

[1742] Байпаков К. М., Подушкин А. Н. Памятники земледельческо-скотоводческой культуры Южного Казахстана. Алма-Ата: Наука, 1989. 190 с.

sovet davrida yaratilgan adabiyotlarga xos xususiyat shundaki, ular kommunistik mafkuraga yondashgan holda yozilgan, ya'ni sovet davri ko'klarga ko'tarilgan, kommunizm g'oyasi ilgari surilgan va hokazo. Shuning uchun ham ushbu adabiyotlardagi aniq va haqiqatga yaqin ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, boshqa ilmiy adabiyotlar bilan qiyoslab, tanqidiy jihatdan yondashish kerak bo'ladi.

**Tojik xalqi tarixshunosligi.** XX asrda tojik xalqi tarixiga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar yaratildi. Xususan, "Жанубий Тожикистондаги ўзбек шевалари"[1743] asarida yozilishicha, tojik tilidagi ilk yozma yodgorliklar IX asrlarga mansub. Tojikiston Respublikasida 1929-yilgacha arab, 1940-yilgacha lotin, 1940-yildan esa rus grafikasi asosidagi yozuvdan foydalaniladi. Tojiklar asosan, islom dinining sunniy, Badaxshon vohasi aholisining aksariyati esa shia mazhabining ismoiliya oqimiga e'tiqod qiladi. Yirik shaharlari Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontepa va Ko'lob (Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan viloyat; qadimda Xuttalon (Xatlon), XVI asrdan Ko'lob nomi bilan ma'lum; XVI–XVIII asrlarda Balx xonligi tarkibiga kirgan. G'arbda Vaxsh va Qubodiyon, sharqda qirg'iz yerlari bilan tutash), Ustrushona, Xorug' va boshqalar.

1925-yilda Tojikistonni hamda undan tashqarida yashayotgan eroniy xalqlarni o'rganish jamiyati tuzildi. Unga rus olimlari A. A. Semyonov, M. S. Andreev va boshqalar kiritildi. Jamiyat tomonidan qator ilmiy ekspeditsiya tashkil etilib, tojik xalqi tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi va antropologiyasiga doir qator asarlar nashr qilindi.

G. F. Debesning "Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей"[1744] asarida yozilishicha, tojiklarning kelib chiqishi Eramizdan avvalgi II-ming yillikning oxiri – I-ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda Markaziy Osiyoga Yevroosiyodan eroniy tillarda so'zlashuvchi qabilalar kelib, tub mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Tojiklar shakllangan hudud (Baqtriya, Sug'diyona va Farg'ona)da dehqonchilik bilan shug'ullangan elatlar bilan birgalikda ko'chmanchi saklar ham yashagan. Eramizdan avvalgi II asrda Baqtriyaga yuechji va shak qabilalari bostirib kirib, qudratli Kushon davlatiga asos soladilar.

Tadqiqotchilarning fikricha, tojiklarning ajdodlari sak-massaget qabilalariga borib taqaladi. Davrlar o'tishi bilan ushbu qabilalarga yangi urug'-qabilalar aralashib ketgan. Sug'diylar, parkanaliklar, qisman toxarlar tojik xalqining shakllanishida ishtirok etganlar. Yunon-makedonlar, yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar, "oq xunnlar", so'ngra turkiy qabilalarning bir qismi mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Arablar hukmronligi davri va

[1743] Жанубий Тожикистондаги ўзбек шевалари. Тошкент, 1968. 20-б.
[1744] Дебес Г. Ф. Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей / ПОАИА. Вып. 6. М., 1968.

Somoniylar davlati tashkil topgan vaqtga kelib (ya'ni, IX–X asrlar) tojik xalqi shakllangan. Hozirgi tojik tili Somoniylar hukmronligi davrida qadimgi sug'd va baqtriya tili asosida vujudga kelgan. Tojiklarning adabiy tili (doriy) shu davrda paydo bo'ldi.

Shuningdek, I. M. Oranskiyning[1745] yozishicha, tog'oldi va tog' mintaqalarining sug'oriladigan yerlarida tamaki, Hisor hamda Vaxsh vodiylarida yorongul ekilgan, shuningdek, bu yerda sitrus mevalar yetishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Tojiklar chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Tojikiston Respublikasining barcha hududlari, ayniqsa, tog' yon bag'irlarida chorvachilik rivojlangan va asosan, qoramol, qo'y, echki, parranda va yilqi boqiladi. Etnograf B. X. Karmishevaning[1746] qayd etishicha, 1924-yilda O'rta Osiyo "Milliy hududiy chegaralanish" komissiyasi hududdagi o'zbek va tojik tilli etnosni alohida ajratib ko'rsatgan. Komissiya materiallarida o'rganilayotgan tojik tilli chig'atoylar haqida ham ma'lumot berilib, ular chig'atoy mo'g'ullari bilan aralashgan tojiklarning avlodlaridir, degan xulosaga kelingan. O'z vaqtida bir qator tadqiqotlarda ham tojiklar xususida aynan mana shunday fikrlar bildirilgan edi.

Ma'lumki, Chingizxon zabt etgan hududlarni o'z o'g'illariga ulus sifatida bo'lib bergan. Jumladan, Movarounnahr uning katta o'g'li Chig'atoyning mulki hisoblangan. Mo'g'ullar bosqiniga qadar bu yerda yashagan va madaniyati ancha yuksak bo'lgan mahalliy o'troq aholi ikki til: turkiy va forsiy tillarida gaplashgan. Shuningdek, Chig'atoy ulusi hududlarida yashagan tojik tilli aholi ham o'zbeklargacha bo'lgan turkiy aholi bilan bir qatorda chig'atoy nomi bilan atalganligini tadqiqotchilarning ishlarida ko'rish mumkin.

Masalan, B. X. Karmishevaning tadqiqotlarida mahalliy xalq "vohan" va "sho'g'non" nomlari bilan o'rganilgan. Olima ta'kidlaganidek, Movarounnahrning Ko'lob, O'ratepa va Xo'jand hududlarida yashovchi o'troq aholisi Temuriylar davlati tarix sahnasidan ketganidan so'ng o'zlarini shu nom bilan, ya'ni "tojiklar" deb atay boshlagan. B. Karmishevaning fikricha, tojiklarning ajdodlari sak-massaget qabilalariga borib taqaladi. Davrlar o'tishi bilan ushbu qabilalarga yangi urug'-qabilalar aralashib ketgan. Sug'diy aholi o'z tili o'rniga tojik tilida gaplashadigan bo'lib qoladi. Tojiklar yashayotgan hududlarda tojik tili boshqa sharqiy eroniy tillarni siqib chiqara boshlaydi. IX asr oxiri – X asr boshlarida tojik xalqi etnik tarkibiga kirgan barcha guruhlarning umumiy va yagona tili bo'lib qoladi.

Shuningdek, A. Muhitdinovning tadqiqotida[1747] yozilishicha, 1917-yil 7-aprelda Buxoro Arkining katta binosida amaldorlar, ruhoniylar, Rossiya

---

[1745] Оранский И. М. Таджикоязычные этнографические группы Гиссарской долины (Средняя Азия). Этнолингвистические исследования. М., 1983.

[1746] Кармышева Б. Х. Узбеки-Локайцы Южного Таджикистана // Тииаз Ан Тадж.Сср. Сталинабад, 1954. Т.XXVIII. Вып.I. С. 111–120.

[1747] Мухитдинов А. По Восточной Бухаре // Народное хозяйство Средней Азии. Ташкент, 1924. №2–3.

vakillari, Buxoro va Turkiston jamoatchiligi vakillari yig'inida, shuningdek, Olimxon ishtirokida amir farmoni (manifesti) e'lon qilingan. Poytaxtda obro'li arboblardan iborat mahkamani tuzish, amaldorlar, ularning daromadlari ustidan nazorat o'rnatish, soliqlar tizimini tartibga solish, davlat budjetini joriy qilish, sanoat, tijorat, ma'rifat rivojlanishi uchun qayg'urish va'da qilingan. Amir manifestining e'lon qilinishi, 8-aprelda demokratik va konservativ lagerlarning ko'chaga chiqishiga sabab bo'ldi. Demokratik doiralar amir manifestiga mamlakatda tinch yo'l bilan progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish uchun dastlabki qadam, deb qaraganlar.

**Turkman xalqi tarixshunosligi.** XIX asrning 80-yillaridan Rossiya imperiyasining turkman xalqlarini bo'ysundirishga qaratilgan harakatlari boshlandi. Turkmaniston SSR FA arxeologiya, etnografiya va tarix instituti 1960-yilda barcha ilmiy-arxiv materiallari to'plami Rossiya tasarrufiga kiritildi[1748]. Bunda turkman qabilalarining kelib chiqishi podsho Rossiyasi davriga taqaladi, deb hisoblandi[1749]. To'plangan arxiv materiallarida XVIII–XIX asrlarda Turkmaniston va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi aks etgan[1750].

Rossiyaning O'rta Osiyo bilan qiziqishi ortib borgan. XVI asrdan o'rta osiyolik savdogarlar karvonlarining Sharqiy Yevropa bilan savdo-sotiq ishlarida Buxoro va Xiva elchilarining ahamiyati ortib borgan. Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan eng muhim savdo yo'llari turkmanlar yashaydigan Ustyurt platosi va Mang'ishloq yarimoroli hududlaridan o'tadigan bo'ldi[1751].

L. V. Oshaninning asarida[1752] turkman qabilalarining kelib chiqishi tarixi va antropologiyasi, turmush tarzi, xo'jaligi, aks etgan. Unda turkman xalqining kelib chiqishi va antropologiyasi, ushbu etnosning shakllanishida muhim rol o'ynagan qabilalar (saklar, skiflar, massagetlar, sarmatlar) haqidagi ma'lumotlar uchraydi. L. V. Oshanin turkman qabilalari antropologiyasi haqida fikr yuritib, ushbu qabilalarning etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixining muammoli masalalariga to'xtalgan. Asarda turkmanlarning qadim tarixiga doir bir qancha etnografik ma'lumotlar ham uchraydi.

Turkmaniston va Rossiya o'rtasidagi XVIII–XIX asrlardagi diplomatik aloqalar haqida sovet tarixchi olimlari V. V. Bartold[1753] va L. S. Berglar[1754] o'z asarlarida to'xtaldilar.

---

1748 Присоединение Туркмении к России (сборник архивных документов). Ашхабад, 1960. 823 с.

1749 Брежнева С. Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края к России: Вторая половина XIX – начало XXI вв. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. М., 2005. С. 17.

1750 Юқоридаги манба... С. 1.

1751 Каррыев А., Мошкова В. Г., Насонов А. Н., Якубовский А. Ю. Очерки из истории туркменского народа и Туркменистана в VIII–XIX вв / Под редакцией А. Ю. Якубовского. Алма-Ата, 1954. С. 51–56.

1752 Ошанин Л. В. Некоторие дополнительные тайны к гипотезе скифо-сарматского происхождение туркмен / Изв.Среднеазкомстариса. Ташкент, 1928. Вып.3.

1753 Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа // В сб. Туркмения. Т.1. Л., 1929.

1754 Берг Л. С. История исследования Туркмении // В сб. Туркмения. Т 1. Л., 1929.

Turkman-rus aloqalari tarixiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar sovet hokimiyati yillarida e'lon qilindi. Jumladan, 1939-yilda "Красный архив" jurnalida XVIII asrdagi turkman-rus aloqalariga oid hujjatlar nashr qilindi[1755]. Ularda Rossiyaning turkmanlar bilan savdo va diplomatik aloqalari haqida uzuq-yuluq ma'lumotlar berilgan[1756].

A. A. Romaskevichning tadqiqotida[1757] turkmanlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Unda, jumladan, turkmanlarning Eron hududidagi yerlari, xo'jaliklari, bu yerga kelib o'rnashish sabablari bayon etilgan. A. A. Romaskevich turkman qabilalarining antik, o'rta asrlardagi nomlarini ham qayd etadi. Mazkur asarda Eron manbalari asosida turkman xalqlarining etnonimi, etnik tarixi va siyosiy tarixi xususidagi ma'lumotlar yoritilgan.

G. I. Karpovning monografiyasida[1758] esenxanlar – o'tov turkmanlari haqida ma'lumot berilar ekan, ularning o'ziga xosligini yoritiladi. Asarda turkmanlarning moddiy madaniyatiga oid ma'lumotlar bilan birga, esenxan turkmanlarining kelib chiqish tarixi masalasi ham talqin etilgan.

1863–1865-yillarda Qodir-Mamedxon Ashur otadagi dengiz portida komandir tomonidan qatag'onga uchragan va shu sababdan Chelekken oroli uchun Kavkaz va astraxanlar hukmronligiga bir necha marta qarshi chiqqan[1759]. Ushbu hujjatlarda rus-turkmanlar o'rtasida qadimdan madaniy aloqalar borligi ta'kidlangan. S. Brejnevaning fikricha, XIX asrning rus ziyolilari "turkman bolalari uchun rus va turli sharq tillarida maktab" tashkil etishga harakat qilgan edi[1760].

Shuni ta'kidlash kerakki, sovet davrigacha yozilgan manbalar mualliflarning shaxsiy tajribalarini aks ettirgan va ilmiy xarakterga ega emas. Ushbu davrga oid xotiralar ham qimmatli manbalar hisoblanadi.

Sovet davri va hozirgi paytda yaratilgan asarlarda deyarli barcha asosiy harbiy janglar voqealari Rossiyaning "Россия ахборотномаси", "Россия уйлари", "Европа Хералд", "Тарихи Расулуллоҳ", "Россия архиви" va "Харбий тарих ахборотномаси" jurnallarida chop etilgan. Ushbu davrga oid xotiralarda ruslarning barcha yirik harbiy harakatlari (Oqmasjid, Toshkent va Samarqandga yurishlar), 1873-yildagi Xivaga yurishi, birinchi va ikkinchi Axaltekin ekspeditsiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

---

1755 Из истории сношения России с туркменами в XVIII в. (документы 1744–1778 гг.) // Красный архив. Т. 2. 1939.

1756 Брежнева С. Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края к России... С. 3.

1757 Ромаскевич А. А. Персидские источники по истории туркмен и Туркмении X--XV вв / МИТТ. Т.1. М.–Л., 1939.

1758 Карпов Г. И. О туркменах эсенхановкого юрта // Изв. ТФАН СССР. Ашхабад, 1946. №3–4.

1759 Литвинский Б. А. К истории добычи полезных ископаемых на Челекене (до русского завоевания)// Материалы ЮТАКЭ. Вып. 1. Ашхабад, 1949.

1760 Брежнева С. Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края к России: вторая половина XIX – начало XXI вв. ...

A. L. Popovning O‘rta Osiyo muammolariga bag‘ishlangan monografiyasida[1761] Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati yoritilgan. Muallif Rossiyaning Turkiston o‘lkasini mustamlakaga aylantirish maqsadini siyosiy va iqtisodiy sabablar bilan bog‘laydi. A. L. Popovning maqolasi O‘rta Osiyo muammolariga to‘g‘ri yondashuvni o‘zida aks ettiradi[1762]. Shuningdek, N. Xalfin va G. Hidoyatovning asarlarida “Markaziy Osiyo” atamasi va uning hududlari haqida ma’lumotlar berilgan[1763].

M. Abidovaning dissertatsiyasida[1764] XV asrda hozirgi Ozarbayjon va Qora dengiz qirg‘oqlari hududlarida paydo bo‘lgan ikki turkman davlatlaridan biri – Oqquyunlilar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Mazkur dissertatsiyasida turkman qabilalarining o‘rta asr davri tarixi, davlatchilik asoslari, siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti to‘g‘risidagi izlanishlar natijalari keltirilgan. Ushbu tadqiqot mazmunida ham sovet mafkurasi ruhi ustunligini ko‘rish mumkin.

A. Karriev, V. G. Moshkova, A. N. Nasonov va A. Yu. Yakubovskiylarning monografiyalarida [1765] VI–XIX asrlar davomida hozirgi Turmaniston hududida yashagan turkiy qabilalar, shuningdek, turkman qabilalarining kelib chiqishi, etnografiyasi masalalarini yoritib, bu xalqning shakllanishida o‘g‘uz qabilalarining kuchli ta’sir etganligini ta’kidlangan. A. A. Roslyakovning asarida[1766] esa turkman qabilalarining yashash tarzi, xo‘jaligi, kelib chiqishi tarixi aks ettirilgan.

V. V. Bartold[1767] turkman xalqi tarixiga doir maxsus asar yozdi. Ushbu kitobning yuqoridagi boshqa asarlardan farqli jihati shuki, u mafkuraviy ta’sirlardan xoli bo‘lib, bir tomonlama yondashuv uchramaydi. V. Bartold o‘zidan oldingi barcha muarrixlarning asarlarini o‘rganib, ilmiy-tarixiy xulosalar chiqaradi.

G. P. Vasilevaning asarida[1768] ham turkman xalqining etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixiga oid ma’lumotlar hamda faktik materiallar keltirilgan. Asarda turkmanlarning qadim tarixiga doir etnografik ma’lumotlar tahlil etilgan. Tadqiqotchi V. Bartold va boshqalarning asarlaridan foydalangan holda o‘z xulosalarini bergan.

---

[1761] Попов А. Л. Из истории завоевания Средней Азии / Исторические записки, 1940. Т.9; Shu muallif. Борьба за среднеазиатский плацдарм // Исторические записки. 1940. Т.7; Shu muallif. От Босфора к Тихому океану // Историк-марксист. 1934. №3.

[1762] Брежнева С. Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края... С. 26.

[1763] Халфин Н. А. Политика России в Средней Азии и англо-русское соперничество. 1857–1876. Дисс. ... д-ра ист. наук. М., 1961. С. 5; Хидоятов Г. А. Моя родная история. Ташкент, 1990. С. 8.

[1764] Абидова М. Государство Ак-Куюнлу в Иране во второй половине XV века. Автореферат канд.дисс. Ленинград, 1953.

[1765] Каррыев А., Мошкова В.Г., Насонов А.Н., Якубовский А.Ю. Очерки из истории туркменского народа и Туркменистана в VII – XIX вв. Ашхабад, 1954.

[1766] Росляков А.А. Происхождение туркменского народа. Ашхабад, 1962.

[1767] Бартольд В. В. Очерки истории туркменского народа // Сочинение. Т.1. М., 1963.

[1768] Василева Г. П. Этнографические данные о происхождениии туркменского народа // Советская этнография, 1963. №2.

X. Agaevning asarida[1769] O‘rta Osiyo hududlarining bosib olinishi davrida Kaspiybo‘yi turkmanlarning ruslar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalari bayoni berilgan. Sovet davrida yozilgan ushbu kitobda mafkuraviy yondashuvlar ta’siri ko‘zga tashlanadi.

A. Jikiyev[1770] XVI–XX asr boshlarida turkman salor qabilalarining yashash tarzi, xo‘jaligi, kelib chiqishi tarixiga oid masalalarni o‘rgangan bo‘lsa, Ya. R. Vinnikov esa o‘z asarida[1771] Chorjuy turkman qabilalarining yashash tarzi, xo‘jaligi va kelib chiqishi tarixini aks ettirgan.

O. Amantiyevning asari[1772] Turkmaniston va turkman xalqi tarixi haqida bo‘lib, unda XVIII asrda Muhammed Kozim tomonidan yozilgan “Наме-йи алам ара-йи Надири” manbasi haqida so‘z boradi.

S. G. Agadjanovning “Туркмен дилинин емрели диалекти барада кабир тарыхы – этнографики ва лингвистик маълуматлар” asarida[1773] esa o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo o‘g‘uz va turkman qabilalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar beriladi. Asarda o‘g‘uzlar dunyo xalqlarining ajdodlaridan biri sifatida baholangan. Markaziy Osiyo xalqlaridan bo‘lgan turkmanlarning etnogenezida muhim rol o‘ynagan. S. G. Agadjanov ham IX–XIII asrlarda turkmanlarning (bu davrda o‘g‘uzlar deb yuritilgan) tarixi, turmush tarzi, xo‘jaligi, an’analarini yozib qoldirgan bo‘lsa, D. Xudoybergenovning asarida[1774] esa turkman qabilalarining yashash tarzi, xo‘jaligi, kelib chiqishi va hozirgi adabiy tilining kelib chiqish tarixi aks etgan. Muallif turkman qabilarining shevalari haqida ham fikr bildirgan.

M. Annanepesovning monografiyasida[1775] XVIII–XIX asrlarda hozirgi Turmaniston hududida yashagan turkiy qabilalar, shuningdek, turkmanlarning kelib chiqish tarixi, etnografiyasi, qaysi mehnat tarmog‘i bilan shug‘ullangani, ushbu etnos xo‘jaligining shakllanishida o‘g‘uz qabilalarining qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatganligi qayd etilgan. Shundan ko‘rinadiki, ushbu asar ham turkmanlarning kelib chiqishi, ularning etnogenezida ishtirok etgan qabilalar hamda davlatchilikka oid ma’lumotlarni tahlil qilib berishga qaratilgan. U. Yusupovning asarida[1776] ham XIV–XV asrlarda turkman qabilalarining yashash tarzi, xo‘jaligi va kelib chiqish tarixi aks etgan.

---

1769 Агаев Х. XIX асрда Каспийбуйи туркманларининг Россия билан алоқалари (Чор Россияси томонидан қўшиб олинишига қадар). Ашхобод, 1965.

1770 Джикиев А. К истории расселения туркмен-салыров в XVI – начале XX веке / В книге: Исследования по этнографии туркмен. Ашхабад, 1965.

1771 Винников Я. Р. К этнической истории туркменского населения Чарджоуской области / Проблемы этногенеза туркменского народа. Ашхабад, 1977.

1772 Амантыев О. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII веков. Ашхабад, 1969.

1773 Агаджанов С. Г. Восстание огузов 1156 г. и падение Восточно-Сельджукского государства. Ашхабад, 1956; Shu muallif. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. Ашхабад, 1969; Shu muallif. Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв. Ашхабад, 1973.

1774 Худайбергенов Дж. Туркмен дилинин, емрели диалекта барада кэбир тарыхы-этнографики ве лингвистик маълуматлар // Изв. АН ТССР. Сер. Обществ. наук. 1972. № 2.

1775 Аннанепесев М. Хозяйство туркмен в XVIII–XIX вв. Ашхабад, 1972.

1776 Юсупов Х. Приузбойкие туркменского племена XIV–XV вв. Ашхабад, 1975.

## Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari, afg'on xalqi tarixshunosligi

Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlarining XIX–XX asrlardagi hayotini yoritishda L. A. Chvirning[1777] asari muhim ahamiyatga ega. Xususan, ushbu asarda ko'rsatilishicha, uyg'urlar savdo-sotiq, xususan, tashqi savdo aloqalarida faol bo'lgan. Qashqarda to'qilgan matoning 81%i O'rta Osiyoga yuborilgan. Garchi, ipak va yarim ipak matolar Sharqiy Turkistonda ham ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, biroq ularning sifati uncha yuqori emas edi.

Alixonto'ra Sog'uniyning "Туркистон қайғуси"[1778] asarida XX asr boshlarida Sharqiy Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yoritilgan bo'lsa, M. Abdullayevning "Хитой инқилоби тарихидан парчалар" asarida[1779] esa kommunistik jamiyatning mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotiga ta'siri, Xitoyda sovet hukumatining madaniyat, maorif va sog'liqni saqlash sohasidagi amalga oshirgan islohotlari, yer masalasi hamda soliq siyosati haqida ma'lumotlar berilgan.

Anvar Boytur va Xayriniso Sidiqlarning "Шинжондаги миллатлар тарихи" nomli kitobi[1780] ham Sharqiy Turkiston xalqlari tarixiga oid ma'lumotlarni aks etgan bo'lsa, D. A. Isiyevning "Йеттишар уйғур давлати[1781] asarini yangi tashkil topgan Йettishar uyg'ur davlatini o'zaro aloqalariga bag'ishlagan.

Nabijon Tursunning asari[1782] uyg'urlar tarixi masalalarining xitoy tarixshunosligida aks etishi muammosiga bag'ishlangan. Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo hududlarida qadimgi va ilk o'rta asrlardagi uyg'urlar davlatchiligini o'rganish xitoylik olimlar tomonidan XX asrning birinchi va ikkinchi yarimda keng miqyosda olib borilgan.

N. Tursunning qayd etishicha, uyg'urlarning Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoda eramizdan oldingi III asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy tarixi Sima szyanning "Тарихий йилномалар" ("Shi Szi"), Ban Guning "Хан сулоласи тарихи" ("Xan Shu"), "Вей Шу" (Vey sulolasi tarixi) va "Бей Шу" (Shimoliy sulolalar tarixi) asarlarida yoritilgan. Xitoyliklar o'sha zamonlarda G'arbiy hududlardagi qo'shnilariga nisbatan "G'arbiy o'lkadagi 36 davlat" deb ta'rif berganliklarini inobatga olsak, demak ushbu hududlarda shu vaqtlarda 36 ta katta-kichik davlat birlashmalari mavjud

---

[1777] Чвырь Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX–XX в / Очерки историко-культурных связей. М.: Наука, 1990. 301 с.
[1778] Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. Тошкент: Шарқ, 2003. 95 б.
[1779] Абдуллаев М. Хитой инқилоби тарихидан парчалар. Тошкент: Уздавнашр, 1935. 167 б.
[1780] Анвар Бойтур, Хайринисо Сидиқ. Шинжондаги миллатлар тарихи. Пекин, 1991.
[1781] Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877). М., 1981. 78 с.
[1782] Набиджан Турсун. Вопросы политической истории уйгуров в китайской историографии. Москва, 1998. С. 47.

bo'lgan. Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo davlatlarining eramizdan oldingi III asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tarixi xitoylik tadqiqotchilarning muhim vazifalardan biri bo'lgan. Szyan Boszyanning "Қадимий Гаочаннинг тарихидан қисқача лавха" (1940-yil) maqolasida keltirilishicha, Gaochan, Cheshi nomlari XV asrdan Turfon nomini olgan.

辞海(Sihay)[1783] – ushbu ensiklopediyada Sharqiy Turkistonning qadimdan to hozirgi kungacha bo'lgan davri tarixi bayon qilingan. Ushbu ensiklopediyada o'rganilayotgan mavzuga oid qisqa va aniq ma'lumotlar berilgan. Sharqiy Turkiston aholisi, uyg'urlarning ijtimoiy hayoti va ularning boshqa xalqlar bilan o'zaro munosabatlari, uyg'ur yozuvi, turmushi, shu bilan birga, Tibet xalqining an'anaviy turmush hayot tarzi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Afg'on xalqi tarixshunosligi.** Afg'oniston va unga qo'shni mintaqalar tarixiga oid manbalarni o'rganishda rossiyalik olim A. N. Boldirev (1909–1993) katta hissa qo'shdi. Mazkur tadqiqotchi Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plamida "Badaxshon tarixi"ning noyob ro'yxati – Afg'onistonning tarixiy viloyatlaridan birining hukmdorlari sulolasi xronikasini nashr qildi. Keyinchalik ushbu manba "Sharqning yozma yodgorliklari" turkumida A. N. Boldirevning ruscha tarjimasi bilan nashr etilgan (S. Ye. Grigorev ishtirokida)[1784]. Shuningdek, u o'rta asrlar Hirot va Xuroson madaniy tarixiga oid bir qator asarlar ham yozgan edi[1785].

Tarixchi, manbashunos, forsiy qo'lyozmalar bo'yicha mutaxassis N. D. Mikluxo-Maklay (1915–1975) afg'onlar va Afg'oniston tarixiga taalluqli manbalarga katta e'tibor bergan (Muhammad Kazining asarlarini nashr etish borasidagi ishlarini eslash kifoya)[1786] va 1943-yilda Toshkentda "Eronning Afg'oniston istilosi (1722–1730)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi. Ushbu muallif o'rganilgan manbalar asosida XVIII asrda Afg'onistonning Eronni bosib olishi bilan bog'liq voqealar, shuningdek, Hirot tarixini ham yoritgan edi[1787].

---

[1783] 辞海. 上海辞书出版社. 上海. 1999年 9第2013页. Сиҳай. Шанхай матбаа нашриети. Шанхай, 1999.

[1784] «Тарих-и Бадахшан. История Бадахшана». Фотографическая репродукция рукописного текста, введение, указатели / Подготовил к изд. А. Н. Болдырев. Л., 1959; Shu muallif. Таърих-и Бадахшан («История Бадахшана»). Факсимиле рукописи / Издание текста, перевод с персидского А. Н. Болдырева при участии С. Е. Григорьева. М., 1997.

[1785] Болдырев А.Н. Очерки из жизни гератского общества на рубеже XV–XVI вв. / Труды Отдела истории культуры и искусства Востока Гос.Эрмитажа. Т. 4. Л., 1947. С. 313–422; Васифи Зайн ад-Дин. Бадаи ал-вакаи / Критический текст, введение и указатели А.Н. Болдырева. Т. 1–2. М., 1961–1962; Болдырев А.Н. Мемуары Зайн ад-Дина Восифи как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV–XVI веков / Труды Отдела Востока Гос. Эрмитажа. Т. 2. Л., 1940. С. 203–274; Shu muallif. Зайнаддин Васифи – таджикский писатель XVI в. (Опыт творческой биографии). Сталинабад, 1957.

[1786] Мухаммад Кази М. Наме-йи ʻаламара-йи Надири («Мироукрашающая Надирова книга») / Издание текста и предисловие Н. Д. Миклухо-Маклая. Т. 1–3. М., 1960–1966.

[1787] Миклухо-Маклай Н. Д. Из истории афганского владычества в Иране (20-е годы XVIII в.) // УЗЛГУ. № 179. Вып. 4. 1954. С. 138–158; Shu muallif. Гератское восстание 1535–1536 гг. // УЗ ЛГУ. №195. Вып. 6. 1956. С. 58–68; Shu muallif. Балхский поход шаха Аббаса I / Страны и народы Востока. Вып. 22. М., 1980. С. 147–163.

I. P. Petrushevskiyning katta bir maqolasi Sayfi al-Xiravi qalamiga mansub “Ta’rih-noma-yi Hirot” kabi muhim manbani o‘rganishga bag‘ishlangan[1788]. Ilk o‘rta asrlar tarixi, Xurosonning tarixiy geografiyasi va madaniy hayoti muammolari A. I. Kolesnikovning asarlarida ko‘rib chiqilgan[1789]. XVIII asrning birinchi yarmida Qandahor siyosiy tarixining “Хуласат ал-сияр”da yoritilishi tadqiqotchi I. K. Pavlova tomonidan o‘rganilgan[1790].

Afg‘onistonning agrar masalalari tarixini o‘rganishda V. Alekseenkov[1791], V. Romodin[1792] va A. Davidovlarning[1793] tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, V. A. Romodin ilmiy faoliyatining yo‘nalishlaridan biri afg‘on qabilalarining tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tadqiqotchining nomzodlik dissertatsiyasi (“ХИХ асрда Юсуфзай қабилаларининг ижтимоий-иқтисодий тизими (бошқа афғон қабилаларига нисбатан)”) va bir qator maqolalari Afg‘oniston tarixiga bag‘ishlagan[1794].

V. M. Masson va V. A. Romodinlarning Afg‘onistonning qadimgi davrlardan XX asrgacha bo‘lgan tarixiga bag‘ishlangan, ikki jildli asari markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligida muhim o‘rin tutadi[1795]. Yaqin Sharq tarixshunosligidagi bo‘shliqni to‘ldirgan ushbu tadqiqotda mualliflar nashr etilgan asarlar tahlili va boy materiallar asosida Afg‘oniston tarixiga doir qarashlarini taqdim qildilar. Yana bir qator adabiyotlarda Afg‘onistonning

---

1788 Петрушевский И.П. Труд Сейфи как источник по истории Восточного Хорасана // Труды Южно-Туркменской археологической комплексной экспедиции. Т. V. Ашхабад, 1955. С. 130–162.

1789 Колесников А.И. Собрание сасанидских монет Кабульского музея (информация о коллекциях и результаты предварительного исследования) // ППиПИКНВ, 1975. №11. С. 38–42; Kolesnikov A. Social and Political Consequences of the Arab Conquests // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. Paris, 1996. P. 465–472; Shu muallif. Материалы к характеристике политической и этноконфессиональной ситуации в восточном Иране и Хорасане (По сведениям мусульманских географов IX–XII вв. / Письменные памятники Востока. Вып. 1. М., 2004. С. 69–97; Shu muallif. Административное управление Хорасаном (по сведениям мусульманских географов IX–XII вв.) / Письменные памятники Востока. Вып. 3. М., 2005. С. 153–171.

1790 Павлова И. К. Хроника времен Сефевидов / Сочинение Мухаммад-Масума Исфахани «Хуласат ас-сийар». М., 1993.

1791 Алексеенков В. Аграрный вопрос в Афганском Туркестане. М., 1933.

1792 Ромодин В. А. Очерки по истории и истории культуры Афганистана. М., 1983.

1793 Давыдов А. Д. Аграрное законодательство Демократической Республики Афганистан. М., 1984.

1794 Ромодин В. А. Социально-экономический строй юсуфзайских племен в XIX веке / Очерки по новой истории стран Среднего Востока. М., 1951. С. 99–124; Shu muallif. Сведения об афганцах и Афганистане в сочинении Сайфи ал-Хирави «Тарих-наме-йи Хирот» / Ближний и Средний Восток (История, культура, источниковедение) // Сб. статей в честь 70-летия проф. И. П. Петрушевского. М., 1968. С. 119–122; Shu muallif. Генеалогическая структура основных групп афганских (пуштунских) племен и их расселение в XVI–XVII вв. // Страны и народы Востока. Вып. 22. Средняя и Центральная Азия. География, этнография, история. Кн. 2. М., 1980. С. 239–251; Shu muallif. Некоторые историко-демографические данные об афганском (пуштунском) населении Афганистана // Страны и народы Востока. Вып. 15. Африка и Азия. М., 1973. С. 169–172; Shu muallif. Дир и Сват // Страны и народы Востока. Вып. 1. М., 1959. С. 110–129.

1795 Массон В. М., Ромодин В. А. История Афганистана. Т. I. 1964; Т. II. М., 1965.

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixining ko‘plab masalalari va tarixshunosligini yoritishga bag‘ishlandi[1796].

Afg‘onistonning iqtisodiy hayotiga doir tadqiqotlar N. Gurevich[1797], M. Pikulin[1798], A. Polyak[1799], M. Boboxo‘jaev[1800] va A. Davidovlar[1801] tomonidan amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Afg‘onistonning tarixi, siyosiy va ijtimoiy voqealarini 1950–1970-yillarda R. T. Axramovich tadqiq qildi. Bu tadqiqotchining “Афганистан после второй мировой войны”[1802] va “Афганистан в 1961–1966 годах”[1803] asarlarida Afg‘onistonning Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi tarixining turli jihatlari yoritilgan.

Afg‘oniston va unda istiqomat qiladigan qabilalar siyosiy hayotiga bag‘ishlangan asarlar ham talaygina. Masalan, Hassos Abdul Matinning ushbu mavzuga oid asarida[1804] yozilishicha, mahalliy jirg‘a (kengash) Afg‘onistonda tarixan shakllangan. “Ancha oldin va hozirgi kunda Afg‘onistonda bu jirg‘a mavjuddir. Mahalliy jirg‘a qishloq va shahar, tumanlarda an’anaviy hokimiyatni tashkil etadi”. Mazkur asar mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalar sirasiga kiradi.

Shuningdek, ushbu davr tarixini yoritib beruvchi asarlardan yana biri Muhammad Amin[1805] qalamiga mansub bo‘lib, unda yozilishicha, Afg‘oniston 1937-yilda Saadabad paktiga a’zo bo‘ldi. Ushbu paktga Afg‘onistondan tashqari Eron, Turkiya va Iroq a’zo edi. Bu Afg‘oniston ishtirokidagi birinchi hududiy tashkilot bo‘lib, Yaqin Sharq mintaqasidagi tinchlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan. Bu, bir tomondan, ishtirokchi davlatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirdi va ular o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishiga xizmat qildi.

A. Muhitdinovning “Бухрон ва Нежот” asarida Afg‘onistonda 50 dan ortiq pushtun qabilalari yashashi qayd etilgan. Ular Afg‘onistonning Nangarhor, Qandahor, Kunar, Uruzgon, G‘azna, Paktiyo, Lag‘mon, Farah, Paktika, Xost va boshqa viloyatlarida yashab keladi. Har bir qabilaning o‘ziga xos nomlari

---

[1796] История Афганистана с древнейших времен до наших дней / Отв. ред. Ю. В. Ганковский. М., 1982. С. 139–223; Ромодин В. А. Из истории изучения афганцев и Афганистана в России / Очерки по истории русского востоковедения. Вып. 1. М., 1953. С. 148–184; Shu muallif. Изучение Афганистана в Советском Союзе / Ближний и Средний Восток. Экономика и история. М., 1983.

[1797] Гуревич Н. М. Внешняя торговля Афганистана до Второй мировой войны. М., 1959; Shu muallif. Экономическое развитие Афганистана. М., 1966; Очерк истории торгового капитала в Афганистане. М., 1967.

[1798] Пикулин М. Г. Развитие национальной экономики и культуры Афганистана. 1955–1960. Ташкент, 1961.

[1799] Поляк А. А. Экономический строй Афганистана. М., 1964.

[1800] Бабаходжаев М. А. Финансово-налоговая политика эмира Абдуррахмана и положение народных масс. Очерки по новой истории Афганистана. Ташкент, 1966.

[1801] Давыдов А. Д. Социально-экономическая структура деревни Афганистана. М., 1976.

[1802] Ахрамович Р. Т. Афганистан после второй мировой войны. М., 1961. 175 с.

[1803] Shu muallif. Афганистан в 1961–1966 гг. М., 1967.

[1804] Хассас Абдул Матин. Лоя джирга как исторически сложившаяся форма народного представительства Афганистана: Автореф. дисс. …канд. наук. СПб., 1993.

[1805] Мохаммад Амин. Афгано-Иранские отношения в 20–80-е годы XX века. Автореф. дисс. … на соис. учен. степ. канд. ист. наук. М., 1995.

mavjud bo'lib, bular – abdal, gilzoy, yusufzoy, vazir, shinvori, karani, populzoy, afridi, hattoki, chamkoni, sofi, sadozoy, zirak, ahmadzoy, mo'mand, barakzoy, nurzoy, alizoy va boshqalardir.

Yana dolzarb muammolardan biri, Afg'onistonning boshqa davlatlar bilan tashqi siyosati masalasi E. S. Nuxovichning "Внешная политика Афганистана"[1806], L. Teplinskiyning "50 лет советско-афганских отношений"[1807] hamda A. Davidov va N. Chernyaxovskayalarning "Афганистан"[1808] asarlarida batafsil o'rganildi.

A. Yu. Umnovning "Основные тенденсии внутренней политики афганской монархии в 1973–1980 гг."[1809] mavzuidagi dissertatsiyasida Afg'onistonda monarxiya davri, xususan, Muhammad Zohirshoh davridagi mamlakatning ichki siyosatini tahlil qilingan.

V. G. Korgunning 1979-yilda nashr etilgan "Афганистан в 20–30-е годы XX в."[1810] kitobi I. M. Reysnerdan keyingi ikki harbiy davr oralig'idagi birinchi umumiy tahliliy ishdir. Bundan tashqari, muallifning "Интеллигенция в политической жизни Афганистана"[1811] va "Афганистан: Политика и политики"[1812] deb nomlangan asarlari Afg'onistonning siyosiy tarixini yoritishda muhim tadqiqotlar hisoblanadi.

XX asrda afg'on xalqi siyosiy tarixini o'rganishda V. G. Korgunning "Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана. 1919–1999 гг." asari[1813] muhim ahamiyatga эga. Ushbu asarda mamlakatning 1919-yildan boshlab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti muammolari tahlil qilingan. Shu muallifning "История Афганистана. XX век"[1814] asarida ham afg'on xalqining siyosiy tarixi har tomonlama yoritilgan.

Afg'onistonning AQSh bilan aloqalari to'g'risida M. R. Arunovaning "Афганская политика США в 1945–1999 гг."[1815] asarini alohida qayd эtish joiz. Mazkur asarda AQShning Afg'onistondan Ikkinchi jahon urushi yakunidan boshlab, XX asr oxirigacha bo'lgan siyosati turli manbalar asosida ko'rsatilgan. Yu. N. Tixonov "Афганская война Третего рейха. НКВД против Абвера"[1816] asarida Afg'onistonning siyosiy o'yinlar markaziga aylanish sabablarini ochib berishga harakat qildi. Uning "Политика великих держав в Афганистане и

---

1806 Нухович Э. С. Внешная политика Афганистана. М., 1962.

1807 Теплинский Л. 50 лет советско-афганских отношений. Институт востоковедения (Академия наук СССР). Наука, Глав. ред. вост. лит., 1971. 236 с.

1808 Давыдов А., Черняховская Н. Афганистан. М., 1973.

1809 Умнов А. Ю. Основные тенденции внутренней политики афганской монархии 1880–1973 гг. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М., 1976.

1810 Коргун В. Г. Афганистан в 20-30-е гг. XX в. М., 1979.

1811 Shu muallif. Интеллигенция в политической жизни Афганистана. М., 1983.

1812 Shu muallif. Афганистан: Политика и политики. М., 1999.

1813 Shu muallif. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана. 1919–1999 гг. М., 2000.

1814 Shu muallif. История Афганистана. XX век. М., 2004. 526 с.

1815 Арунова М. Р. Афганская политика США в 1945–1999 гг. М., 2000.

1816 Тихонов Ю. Н. Афганская война Третьего рейха. НКВД против Абвера. М., 2003.

.пуштунские племена (1919–1945)"[1817] va "Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию"[1818] mavzuidagi ilmiy ishlarida buyuk davlatlarning Afg'onistonda yuritgan siyosati va unda afg'on qabilalarining roli yoritilgan.

XX asr oxiri – XXI asrning boshlarida Rossiya afg'onshunosligida M. F. Slinkin[1819], A. B. Orishev[1820], M. R. Arunova[1821], Y. P. Laletin[1822], V. V. Naumkin[1823], Yu. N. Tixonov[1824], V. S. Boyko[1825] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari, maqola va monografiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

G'arb sharqshunoslaridan J. K. Granvil[1826], P. Allan va D. Kley[1827], A. Fridman[1828], J. Krayl[1829] va h.k.larning asarlari mavzu tarixshunosligida muhim o'rin tutadi.

Xorijiy afg'onshunoslikda eng yangi davr muammolarini ham o'z ichiga olgan Afg'oniston bo'yicha ilk umumiy tadqiqotlardan biri, 1940-yilda nashr etilgan taniqli ingliz diplomati P. Sayksning asari diqqatga sazovor[1830]. Keyinroq, Buyuk Britaniyaning Sovet ittifoqidagi sobiq elchisi U. K. Frezer-Taytler Afg'oniston bo'yicha shaxsiy umumlashma talqinidagi asarini tayyorladi[1831]. Shuningdek, Britaniya sharqshunoslaridan ba'zilari Afg'onistonning 1919–1950-yillardagi tarixini o'rganishga qiziqish bildirgan edi[1832].

L. Adamek, G. Vartan, Sh. Galster, G. Bradsher, L. Pullada va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida tashqi siyosat masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Muhammad Aminning "Афгано-Иранские отношения в 20–80-годы XX века" nomli tadqiqotida[1833] XX asrdagi Afg'oniston-Eron munosabatlarining asosiy yo'nalishlari va davlatlar o'rtasidagi chegara muammolari keng miqyosda o'rganilgan.

---

[1817] Shu muallif. Политика великих держав в Афганистане и пуштунские племена (1919–1945). Автореф. дисс. ... на соискание ученой степени докт. ист. наук. Москва-Липецк, 2007.
[1818] Shu muallif. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. М., 2008.
[1819] Слинкин М. Ф. Афганистан: страна, люди, общество. Симферополь, 1995.
[1820] Оришев А. Б. Политика фашистской Германии в Афганистане. Елец, 2000.
[1821] Арунова М. Р. Ko'rsatilgan asar.
[1822] Лалетин Ю. П. Этнополитические процессы в истории Афганистана XVII–XX веков: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. М., 2000.
[1823] Наумкин В. В. Центральная Азия в мировой политике. М., 2005.
[1824] Тихонов Ю. Н. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. М., 2008.
[1825] Бойко В. С. Власть и оппозиция в Афганистане: особенности политической борьбы в 1919–1953 гг. М.: Барнаул, 2010.
[1826] Гранвил Ж. К. Советские военные интервенции в Венгрии, Чехословакии и Афганистане: Сравнительный анализ процесса принятия решения. М., 1993.
[1827] Аллан П., Клей Д. Афганский капкан: Правда о советском вторжении. М., 1999.
[1828] Фридман А. Реформы в Афганистане (1919–1939 гг.): этапы, достижения, противоречия. М., 2001.
[1829] Крайл Ж. Война Чарли Уилсона: Захватывающие неизвестные подробности и интриги тайной войны ЦРУ в Афганистане. М., 2008.
[1830] Sykes P. M. A history of Afghanistan. V. 2. L.: Macmillan, 1940. 414 p.
[1831] Fraser-Tytler W. K. Afghanistan. A Study of Political Developments in Central and Southern Asia. Third ed. L.: 1967.
[1832] Jackman L.M. Afghanistan in British imperial strategy and diplomacy. 1919–1941. PhD dissertation. Sidney: Success College, 1979. 256 p.
[1833] Мухаммад Амин. Афгано-Иранские отношения в 20–80- годы XX века. ...

Shuni ta'kidlash kerakki, sovet davrida Afg'oniston tashqi siyosatining barcha jihatlarini o'rganish va yoritish borasida umumlashma ishlar amalga oshirilmagan. G'arb, Rossiya va O'rta Osiyo afg'onshunoslari hamda tarixchilari ushbu davrdagi tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarning faqat ma'lum bir davri yoki sohalarinigina tadqiq etganlar. Xorijiy tarixnavislikda o'rganilayotgan muammo bo'yicha germaniyalik sharqshunos Y. G. Grevemeerning asari alohida ahamiyatga ega[1834]. Turli usullar va ma'lumotlar bazasining muvaffaqiyatli qorishuvidan hosil bo'lgan ishlardan biri T. Ruttig ilmiy ishlanmasining hajmi bo'yicha o'rtacha bo'lsa-da, zamonaviy Afg'onistondagi siyosiy partiyalar tarixiga doir muhim tadqiqotlardan biridir[1835].

XX asrda amalga oshirilgan tadqiqotlar salmog'i oshdi va mualliflar geografiyasi, XIX asrga nisbatan ancha kengaydi, hamda mavzuni o'rganishda yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Mazkur hodisa avvalo, geosiyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda rivojlangan bo'lsa, keyinchalik Markaziy Osiyo davlatlarida yetishib chiqqan qator tadqiqotchilar sababli taraqqiy etdi. Masalan, Afg'oniston va unga chegaradosh hududlarni o'rganish turli siyosiy hamda harbiy sabablarga ko'ra, sekin rivojlandi.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida nisbatan tinch hayot kuzatilganligi, Ikkinchi jahon urushi natijasida "milliy ruh" va "milliy tarix"ni qayta tiklash hamda xalqlarni bir maqsad yo'lida birlashtirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilgani sababli hudud tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaydi, mazkur holat tadqiqotlar sonida ham o'z aksini topdi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Turkistonda birinchi oliy o'quv yurti qachon tashkil etilgan edi?
2. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qachon tashkil etilgan hamda uning birinchi prezidenti kim edi?
4. Urush yillari tarixshunosligining sovet davrining boshqa bosqichlaridan farqli xususiyatlarini aytib bering.
5. O'zbekistonning sovet davri tarixshunosligiga baho bering.
7. XX asr adabiyotlaridagi umumiylik nimada namoyon bo'ladi?
8. Xalqlar tarixini yozishga sovet mafkurasi qanchalik ta'sir qilgan edi?
9. Sovetlar tassarrufida bo'lmagan xalqlar tarixiga oid adabiyotlarda farqlar bormi?

---

[1834] Grevemeyer J. H. Afghanistan: sozialer Wandel und Staat im 20. Jahrhundert. Nachdr.d. Ausl. Berlin: Verl. fur Wiss. und Bildung, 1990. 430 p.

[1835] Ruttig T. Islamists, Leftists – and a Void in the Center. Afghanistan's Political Parties and where they come from (1902–2006). Konrad Adenauer Foundation, 2007. 47 p.

# 10-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA MARKAZIY OSIYODA TARIX FANI

***O'quv maqsadi:*** *Talabalarda mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida tarix fanining taraqqiyoti, tarixiy bilimlarning yangicha mazmun kasb etishi sabablari, tarixshunoslik fanida qo'llanilayotgan zamonaviy tadqiqot usullari haqida tushunchalar hosil qilish.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Markaziy Osiyo mamlakatlari, mustaqillik yillari tarixshunosligi, zamonaviy tadqiqot usullari, O'zR FA Tarix instituti, tarixshunoslik o'qishlari.*

## Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani

Insoniyat tarixida XX asrning so'nggi choragi – XXI asrning dastlabki yillari ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning yangi pallasini boshlab berdi. O'zbekiston aynan shu davrda milliy mustaqilligiga erishdi. Dunyoda va mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar o'tmishni chuqurroq mushohada qilishga olib keldi. Mazkur o'zgarishlar jarayonida tarix va o'tmish tajribasining murabbiylik roli yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. Tarixni bilish nafaqat o'tmish hodisalarini xolis baholash, shu bilan birga bugungi kunni to'g'ri anglash va kelajakni ko'ra olish uchun ham zarurligi yana bir karra o'z tasdig'ini topdi. Ushbu holat tarix fanida ham tub o'zgarishlar, nazariy va metodologik yangilanishlar, bir so'z bilan ifodalaganda, uning mustaqil O'zbekiston nufuziga munosib bo'lishni taqozo qildi.

Mustaqillik yillarida tarix fani arsenali yangilanib, o'zgardi. Tarix fanida sodir bo'lgan chuqur ichki transformatsiya jarayoni fanning nazariy-metodologik, konseptual, mazmuniy va strukturaviy o'zgarishlarida aks etdi. Shuningdek, Sovet davrida o'rganish ta'qiqlangan hamda noto'g'ri talqin etilgan mavzular ilmiy xolislik asosida – milliy mustaqillik nuqtai nazaridan qayta mushohada qilindi va o'rganildi. Tarixiy tadqiqotlar diapazoni kengayib, yangi ilmiy yo'nalishlar vujudga keldi. Haqqoniy talqin va tahlilga muhtoj bo'lgan mavzular tarixchilar diqqat markazidan joy oldi va bugungi kunga qadar ba'zi konseptual jihatlari haqida qatiy bir xulosaga kelishda muammolar ham yo'q emas.

Mustaqillik yillarida tarix fanini yangi jamiyat nufuziga mos kelishida uning mazmun-mohiyatini belgilovchi va tashkiliy sohasini takomillashtirishga qaratilgan hukumat qarorlarining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Ushbu fikrning isboti sifatida 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida "O'zbekistonning

yangi tarixi markazi"ning tashkil etilganligini ko'rsatish mumkin[1836].

Tarix fanining istiqboldagi rivojini belgilashda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil iyun oyida bir guruh yetakchi tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu uchrashuvda mamlakat Prezidenti tarix fani ahvolini tahlil qilib, tarixchilar oldiga O'zbekiston tarixini o'rganishning konsepsiyasi qanday bo'lishi kerak? O'zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchiligi tarixini qanday o'rganish kerak? Zamonaviy tarixchining qiyofasi qanday bo'lishi kerak?[1837] kabi muammolarni hal qilish vazifalarini qo'ydi.

Yuqoridagi vazifalarni hal etishdagi eng katta mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti zimmasiga yuklandi. Tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvdan keyin e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (1998-yil 27-iyul) tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o'zgartirish uchun asos bo'ldi[1838]. Vazifalarni hal qilish jarayonida mazkur institut mamlakat tarixchilarini o'z atrofiga birlashtirib, tom ma'noda, ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi o'ziga xos markazga aylandi. Tarixchi olimlarning sa'y-harakatlari bilan "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" konsepsiyasi ishlab chiqildi va tarix fani sohasidagi tadqiqotlar ushbu konsepsiya asosida muvofiqlashgan holda amalga oshirila boshlandi[1839].

Mustaqillikning asosini mustahkamlashda jamiyat tarixiy ongini shakllantirish zarurligi e'tiborga olinib, tarixiy bilimlarni targ'ib qilish yo'lga qo'yildi. 1998-yilda O'zbekiston tarixchilarining maxsus "Ўзбекистон тарихи" jurnaliga asos solindi.

Tarix fanining eng dolzarb muammolarini muhokama qiluvchi Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminari tashkil etildi. Mazkur seminar yig'ilishlari O'zR FA Tarix instituti, Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklari bilan muntazam birgalikda o'tkazilib, akademik fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash, fanning eng dolzarb muammolarini muhokama etish, respublika tarixchilarining ilmiy muloqoti hamda bahs, fikr-mulohaza almashish jarayonini amalga oshirish yo'lidagi muhim tadbirga aylandi.

---

[1836] Холис ва мукаммал тарихимизни яратиш йўлида: (ЎзР Президенти ҳузуридаги ДЖҚА қошида "Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази" иш бошлади) // Ўзбекистон овози. 1996 йил 30 ноябрь.

[1837] Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ / Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. Тошкент: Ўзбекистон, 1999. 132-б.

[1838] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги Қарори // O'zbekiston tarixi. 1999. №1. 15–17-бетлар.

[1839] Алимова Д. А. Тарих фанининг илмий ва ғоявий маркази // O'zbekiston tarixi. 2003. №4. 3-8-бетлар.

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning nihoyatda dolzarblashuvi munosabati bilan 2012-yil yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori[1840] qabul qilindi. Hozirgi yangilanish jarayonida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini o'rganish mas'uliyati yanada ortib, mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[1841] Qarorga muvofiq, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi.

Mustaqillik yillarida tarix fani dolzarb muammolarini aniqlash, ilmiy jamoatchilikning mazkur muammolar yechimini izlashdagi yondashuvlari va faoliyatini aks ettirishda ilmiy anjumanlar muhim o'rin tutdi. Tarix fanining nazariy-metodologik asoslari va tarixiy tadqiqotlarga yondashuvlarni yangi davr talablari hamda mezonlari asosida ishlab chiqish, uning oldida turgan vazifalarni aniqlashga doir muammolar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan "Ўзбекистоннинг янги тарихи: концептуал методологик муаммолар" (1999 y.); O'zR FA Tarix instituti 60 yilligiga bag'ishlangan anjuman (2003 y.); "Новая история Центральной Азии. Переотсенка истории, современные проблемы и подходы" (2004 y.) mavzusidagi respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarning ahamiyati katta bo'ldi[1842].

O'tgan yillar davomida Tarix institutida fanning ma'lum sohalari bo'yicha ilmiy anjumanlar o'tkazish an'anaga aylandi. "Тарихшунослик ўқишлари", "Карим Шониёзов ўқишлари" tarixshunoslik, etnologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlardan xabardor qilish birga, uning rivoji, muammolar kompleksini aniqlash, tarix fanining holatini tahlil qilish hamda istiqboldagi muammolar doirasini belgilashda prognostik vazifani bajarmoqda, hududlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ilmiy kadrlarni markaz bilan bog'lashda amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Anjuman materiallarining muntazam chop etilishi ilmiy jarayonning axborot tahlil

---

1840 Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2012 й. 5-сон. 42-модда.

1841 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 й // https://lex.uz/docs/3117025.

1842 "Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал-методологик муаммолар" мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. Тошкент: Академия, 1998. 359 б.; Новая история Центральной Азии. Переоценка истории, современные проблемы и подходы / Халқаро илмий анжуман материаллари. Тошкент, 2004 й.

holatidan jamoatchilikni xabardor qilishga xizmat qilmoqda[1843].

O‘zR FA Tarix institutida yosh tarixchilar tashabbusi bilan tashkil etilgan “Розия Галиевна Мукминова” nomidagi yosh olimlarning ilmiy anjumanini o‘tkazish an’ana tusini olib, tarix fanida yangi avlod ilmiy tadqiqotlari natijalarini ilk bor taqdim qilish minbariga aylandi. Ushbu anjuman materiallarining chop etilishi ham yosh tadqiqotchilarning ishlarini keng jamoatchilikka havola etish imkonini berdi[1844].

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida an’anaviy ravishda o‘tkazib kelinayotgan “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor o‘qituvchilar, talabalar va magistrlar, shuningdek ilmiy markazlar xodimlarining ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlari natijalarini ilmiy jamoatchilikka yetkazishda o‘ziga xos kommunikativ maydonga aylandi. Konferensiya materiallarining muntazam chop etilishi mazkur sohaga doir bilimlarni targ‘ib qilishda ayni muddao bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda tarix fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlarning yubileylari munosabati bilan ular faoliyatiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy anjumanlar ular xizmatining e’tirofi bo‘lib, tarix fanida turli ilmiy yo‘nalishlar va maktablarning vujudga kelishi hamda rivojlanishini tadqiqotlar sarhisobida ko‘rsatib, keng jamoatchilikka mamlakatdagi intellektual tarixning ma’lum manzarasi haqida ma’lumot berdi[1845].

O‘zbekiston qadimiy shaharlarining yubileylarini YuNESKO shafeligida nishonlash so‘nggi yillar davomida O‘zbekistonda arxeologiya va tarix sohasida keng ko‘lamli va samarali tadqiqotlar olib borilganligini namoyish qildi. Termiz

---

[1843] Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари. 1-қисм. Тошкент, 2005. 180 б.; Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари. 2-қисм. Тошкент, 2005. 203 б.; Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. “Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги IV Республика илмий–амалий конференция материаллари. Наманган, 2007. 260 б.

[1844] Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари: асосий йўналишлари ва ёндашувлар / Республика ёш олимларининг биринчи илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2009. 351 б.

[1845] Ўрта Осиё археологияси, тарихи ва маданияти / ЎзР ФА академиги, профессор Эдвард Васильевич Ртвеладзе таваллудининг 60 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция маърузаларининг тезислари. Тошкент, 2002.135 б.; Ўзбекистон тарихи ва археология фанларининг долзарб муаммолари / Академик Яҳё Ғуломов таваллудининг 95 йиллиги ва Тарих институтининг 60 йиллигига бағишланган республика илмий конференцияси материаллари. Самарқанд, 2003. 195 б.; Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият / Тарих фанлари доктори, профессор Р. Г. Мукминованинг 80 йиллик юбилейига бағишланган халқаро анжуман материаллари.Тошкент, 2003. 189 б.; Шарофиддинов А., Файзиева З., Кравец Л. Ҳамид Зиёевнинг илмий-педагогик фаолияти. Тошкент, 2003. 192 б.; Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва назарий-методологик ёндашувлар / ЎзР ФА академиги Карим Шониёзов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган халқаро анжуман материаллари. Тошкент, 2004. 254 б.; Археология и история Центральной Азии / К 70-летию со дня рождения академика Академии наук Республики Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова. Самарканд, 2004. 184 с.; Центральная Азия в эпоху средневековья и нового времени: общество, культура, источники. Ташкент-Вена: Академнашр, 2019. 496 с. (Профессор Д. Алимова юбилейи муносабати билан тайёрланган монография.)

shahrining 2500 yilligi[1846], Qarshining 2700 yilligi[1847], Samarqandning 2750 yilligi[1848] Marg'ilonning 2000 yilligi[1849] va Toshkentning 2200 yillik yubileyi[1850] munosabati bilan "Ўзбекистон тарихи" jurnalida maxsus rukn ostida maqolalar chop etildi. Shuningdek, mazkur shaharlar yubileylari munosabati bilan maxsus albomlarning yaratilishi ular misolida O'zbekistonning boy tarixini ko'rgazmali tarzda targ'ib etish va keng jamoatchilika yetkazishda muhim o'rin tutdi[1851].

Mustaqillik yillarida xalq tarixiy xotirasini shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va tarixiy bilimlarni targ'ib etishda muzeylar roliga alohida

---

[1846] Мирзо Ж. Термиз салжукийлар даврида // O'zbekiston tarixi. 2001. №1. 20–25-бетлар; Shu muallif. Термиз ўзбек давлатчилиги ва маданияти тимсоли сифатида// Shu joyda. 2001. №4. 13–20-бетлар; Пидаев Ш. Қадимий Термиз 2500 ёшда / Shu joyda. 3–13-бетлар; Қаюмов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон-Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // Shu joyda. 27-31-бетлар.

[1847] Буряков Ю. Сырьевые ресурсы древнего Несефа (из истории горного дела и металлургии) // O'zbekiston tarixi. 2006. №2–3. С. 9–14; Отахўжаев А. Жанубий Суғдда Нахшаб шаҳри ва вилоятининг тутган ўрни ва аҳамияти// Shu joyda. 15–24-бетлар; Ражабов Қ. Қарши шаҳри XX асрнинг биринчи ярмида: ижтимоий ривожланиш ва муаммолар // Shu joyda. 33–42-бетлар; Сулейманов Р. Карши-Насаф-Нахшаб – в системе цивилизации Центральной Азии // Shu joyda. С. 3–9; Шоназаров Ш. Декоративное оформление намогильных памятников Каршинского оазиса 15-19 вв. (по материалам Каршинского оазиса) // Shu joyda. С. 24–32.

[1848] Исомиддинов М. Самарқанднинг антик даврдаги шаҳарсозлик маданияти: анъаналар ва инновациялар// O'zbekiston tarixi. 2007. №2. 3–11-бетлар; Хўжаев А. Хитой манбаларида Самарқандга оид маълумотлар (V–VIII асрлар) // Shu joyda. 11–25-бетлар; Бўриев О. Темурийлар даври манбаларида Самарқанд шаҳри ҳамда вилоятининг табиати ва хўжалиги // Shu joyda. 25–34-бетлар; Ахмедов А. Улуғбек давридаги Самарқанд – дунё фанининг маркази // Shu joyda. 35–39-бетлар; Раҳматуллаев Ш., Хўшбоқов П. Самарқанд Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида // Shu joyda. 39–46-бетлар; Абдуллаев Б. Илк ўрта асрлар (VII–VIII) Суғд жамиятининг юқори тоифалари масаласига доир маълумотлар таҳлили // Shu joyda. 2007. №3. 3–11-бетлар; Азизов С. Алишер Навоий космогоник дунёқараши шаклланишида Самарқанд ва Ҳирот астрономик муҳитининг ўрни // Shu joyda. 12–18-бетлар; Абдуллаев Р. Общественно-политические процессы в Самарканде накануне октябрских событий 1917 года // Shu joyda. 2007. С. №4. С. 48–55.

[1849] Агзамова Г. Место города Маргилана в урбанизационных процессах, происходивших в Ферганской долине в XVIII – первой половине XIX в. // O'zbekiston tarixi. 2007. №2. С. 95–106; Анорбоев А., Мақсудов Ф. Жанубий Фарғонада қадимги деҳқончилик ва Марғилон шаҳрининг ташкил топиши // Shu joyda. 77–90-бетлар; Мухаммеджанов А. О значении топонима «Маргилан-Маргинан» // Shu joyda. 91–95-бетлар.

[1850] Арифханова З. Возрождение религиозности как важнейшего компонента духовности населения Ташкента (1991–2006 гг.) // O'zbekiston tarixi. 2007. №2. С. 68–76; Султонов У. Тошкент Қўқон хонлиги таркибида («Тарихи жадида-и Тошканд» ва «Хулосат ул-аҳвол» асарларидаги маълумотлар таҳлили) // Shu joyda. 57–67-бетлар; Богомолов Г. Городская культура Ташкентского оазиса (античность и раннее-средневековье // Shu joyda. 2008. №2. С. 28–37; Давлатова С. Тошкент ҳунармандчилиги тарихидан (XIX-XX асрлар) // Shu joyda. 37–47; Агзамова Г. Тошкентнинг Марказий Осиё иқтисодий ҳаётидаги тарихий роли (XVI–XIX асрнинг биринчи ярми) // Shu joyda. №3. 38–46-бетлар; Назаров Р. Исторические традиции межэтнической и межконфессиональной толерантности Ташкента // Shu joyda. С. 46–53; Алимова Д. Тошкент эволюцияси замонавий маданият контекстида // Shu joyda. 2009. №1. 80–89-бетлар.

[1851] Бухоро Шарқ дурдонаси. [Илмий муҳаррирлар А. Муҳаммаджонов, А. Ҳакимов]. Тошкент: Шарқ, 1997. 264 б.; Хива минг гумбаз шаҳри. [Илмий муҳаррирлар Э. Ртвеладзе, Н. Ҳабибуллаев]. Тошкент: Шарқ 1997. 176 б.; Термиз – буюк йўллар чорраҳасидаги кўҳна ва янги шаҳар. Альбом. [Илмий муҳарррир Э. Ртвеладзе]. Тошкент: Шарқ, 2001. 112 б.; Шаҳрисабз минг йиллар мероси. Альбом. [Масъул муҳаррир Ҳ. Кароматов]. Тошкент: Шарқ, 2002; Қарши – 2700. Фотоальбом. Ўзбек, рус, инглиз тилларида. [Масъул муҳаррир Э. Ртвеладзе]. Тошкент: Маънавият, 2006. 368 б.; Марғилон – 2000. Фотоальбом. Ўзбек, рус, инглиз тилларида. Тошкент: Шарқ, 2007. 224 б.; Самарқанд – 2750. Фотоальбом. Ўзбек, рус, инглиз тилларида. Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 272 б.; Тошкент – 2200. Китоб-альбом (ўзбек ва рус т.). [Таҳрир ҳайъати раиси Б. Алимов]. Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 312 б.

e'tibor qaratildi. O'zR Prezidentining 1998-yilda qabul qilingan "Музейлар фаолиятини яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида"gi Farmoni Fanlar akademiyasi tarkibidagi muzeylar ishini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Respublikamizning yirik tadqiqot va madaniy-ma'rifiy muassasalaridan biri bo'lgan O'zR FA O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi 1992-yil 21-apreldagi Vazirlar Mahkamasining 203-sonli qaroriga ko'ra, qayta tashkil etildi. Lenin markaziy muzeyining binosi Akademiya ixtiyoriga berildi va O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi ushbu binoga joylashdi[1852]. Muzeyda O'zbekiston tarixi va davlatchiligiga oid yangi metodologiya nuqtai nazaridan talqin etgan doimiy ekspozitsiya yaratildi.

O'zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridanoq haqsiz unutilgan nomlarni tiklash va jahon taraqqiyotida muhim rol o'ynagan tarixiy shaxslar xizmatini munosib baholashga e'tibor qaratildi. 1996-yil mamlakatda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi va uning 660 yilligi keng nishonlandi. 1996-yilning 14-martida Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini barpo etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining Qarori e'lon qilindi va shu yilning 18-oktabrida mazkur muzey foydalanishga topshirildi. Vatanimizning boy moddiy va ma'naviy merosini Amir Temur va temuriylar davriga oid ashyolarni to'plash, asrab-avaylash, ta'mirlash, ularni ilmiy tahlil qilish, ekspozitsiyalar va ko'rgazmalar orqali xalqqa namoyish etish muzeyning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi Farmoni[1853] asosida Qatag'on qurbonlari muzeyi tashkil etildi va ushbu muzey 2002-yil 31-avgustda rasmiy ravishda ochildi. Mazkur muzeyda amalga oshirilayotgan tadbirlar adolatsizlik va qatag'on qurbonlari bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish hamda yosh avlodda mustaqillik qadriyatlariga hurmat tuyg'usini uyg'otishga xizmat qilmoqda.

Tarix fanini rivojlantirish sohasida o'tkazilgan ilmiy-tashkiliy tadbirlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim omil bo'ldi. Natijada, jamiyat ma'naviy madaniy taraqqiyotining hozirgi bosqichida tarixiy bilimlar rolining oshib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

So'nggi yillarda tarix fani yangi manbalar, arxeologik ma'lumotlar, arxiv-hujjatli materiallar bilan boyidi, ularning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan fanga doir yangi xulosalar qilindi. Mazkur o'zgarishlar O'zbekiston tarixining barcha, shu jumladan, eng qadimgi davrlariga ham tegishli[1854].

O'zbekiston hududidagi tosh davriga oid manzilgohlarning o'rganilishi ushbu zaminda insonning ancha oldin paydo bo'lganligi haqida xulosaga kelish

---

[1852] Искандаров И. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг ижтимоий-гуманитар фанлари бўлими муассасаларининг 1992 йилги илмий тадқиқот фаолияти якунлари ва 1993 йил галдаги вазифалари тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1993. №1. 3–15-бетлар.

[1853] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисидаги" 2001 йил 1 май ПФ-2837 рақамли Фармони.

[1854] Алимова Д., Максудов Ф. Рефлексия исторического познания // O'zbekiston tarixi. 2018. №4. С. 3–33.

imkonini berdi. Masalan, Toshkent viloyatidagi Obirahmat g'orida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yerda 70 ming yil oldin yashagan odamning suyak qoldiqlari topildi. Arxeologik materiallar tahlili Markaziy Osiyo zamonaviy odami tipining eng qadimgi vakiliga tegishli ekanini ko'rsatdi. Dunyo miqyosidagi ushbu noyob topilma inson evolyusiyasi xususiyatlariga oydinlik kiritdi. O'zbekiston–Rossiya arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida topilgan "Obirahmat odami" Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan "Yil topilmasi" deb baholandi[1855].

2010-yilda Buxoro viloyati Qizilqum sahrosida joylashgan neolit davriga tegishli bo'lgan Ayakagitm yodgorligida 10 ga yaqin ushbu davrga oid yangi yodgorliklar topildi. Mazkur yodgorlik joyida amalga oshirilgan keng masshtabli arxeologik tadqiqotlar Kaltaminor madaniyatini 3000 yilga qadimiylashtirish imkonini berdi[1856]. Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida olimlar qadimgi petrogliflarni hozirgi yozuvlardan tozalash texnologiyasini ishlab chiqdilar. Ushbu texnologiya asosida nafaqat O'zbekiston, shu bilan birga Markaziy Osiyoda ham noyob hisoblangan Sarmishsoy yodgorligidagi yuzlab qadimgi tasvirlar tozalandi. Ayni paytda Sarmishsoy vodiysi "Ochiq osmon ostidagi muzey-qo'riqxona"ga aylantirildi[1857].

O'zbek arxeologiyasining mustaqillik yillaridagi eng yirik kashfiyotlaridan biri Samarqand viloyati Chelak shahri yaqinidagi Markaziy Osiyoda eng qadimgi shahar qoldiqlari bo'lgan Ko'ktepa yodgorligining ochilishi bo'ldi. Ushbu tepalik (Ko'ktepa)da bir gektarga yaqin bo'lgan maydonda qadimiy monumental ibodatxona va hashamatli saroy ochildi. Mazkur tepalikning mashhur bo'lishi antik davrda uning vayronalari ustida "Saks malikasi" dafn etilganligi bilan bog'liq edi. Ushbu yodgorlikning arxeologik jihatdan o'rganilishi qadimgi xalqlarning diniy va dunyoviy qarashlari, o'sha davrdagi shahar madaniyati hamda arxitekturasiga oydinlik kiritdi. Moddiy ashyolar asosida, Ko'ktepa grek tarixchilari tomonidan tilga olingan, So'g'dning ikkinchi poytaxti hisoblangan qadimiy afsonaviy shahar – Basileyaning vayronalari qoldiqlari ekanligi isbotlandi[1858].

---

1855 Деревянко А. П., Исламов У. И., Петрин В.Т ., Сулейманов Р. Х., Алимов К., Кривошапкин А. И., Анойкин А. А., Милютин К. И., Сайфуллаев Б. К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. / Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Новосибирск, 1999.

1856 Muhiddin KHudzhanazarov, Karol Szymczak. The neolithic stove and the artefacts inside it from ayakagytma "the site" kyzyl-kyms, Central Asia / Multas per gentes et multa per saecula. amici magistro et collagae sssuuuo ioanni christopho kozlowski deducant. pawel valde – nowak, krzysztof sobezyk marek nowak, jaroslaw zralka (editors). Krakow 2018. P. 277–287.

1857 Хужаназаров М. Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар. Тошкент, 2018. 176 б.; Kudzhanazarov M., Alicja Lasota. Petroglyphs of mammals in the Sarmissaj Gorge, Uzbek Republic. Warsaw, 2000.

1858 Исамиддинов М. Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. Ташкент, 2002; Рапен К., Исомиддинов М., Хасанов М. "Аристократическая" гробница кочевников на городище Коктепе близ Самарканда / Археология и история Центральной Азии в трудах французских ученых. Т. 1. Самарканд: МИЦАИ, 2014. С. 70–116; Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в период раннежелезного века и античности). Ташкент, 2002.

Xorazm viloyatidagi Xumbuztepa yodgorligida olib borilgan qazishmalar jarayonida zardushtiylarning monumental ibodatxonasi topildi. Hozirgi paytda eramizdan avvalgi VI asrga tegishli deb topilgan ushbu ibodatxona zardushtiylar oykumenasida eng qadimiy ibodatxona hisoblanadi. Shuningdek, bu yerda er.av. VIII–IV asrlarda zardushtiylarning dafn marosimi bilan bog'liq bo'lgan dahma ham o'rganilmoqda[1859].

Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Akchaxon qal'asidagi qazishmalarda diniy marosimlar o'tkaziladigan bino – ibodatxona, shuningdek, unga olib boradigan yo'laklarda er. avv. II – er. I asrida Xorazmni boshqargan noma'lum sulolaga tegishli bo'lgan devoriy suratlar ham topildi[1860].

Eski Termiz hududidagi Qoratepa yodgorligidan shimolroqdagi tepalikda to'g'ri to'rtburchak shaklidagi muhtasham budda stupasi topildi va tadqiq etildi. Bu yerdan, shuningdek, braxma va kxaroshti yozuvlari bo'lgan keramika parchalari ham topildi[1861].

Samarqand viloyati Nurobod tumani Sazog'on qishlog'ida joylashgan Boysaritepa yodgorligidan yirik masshtabli arxeologik qazishmalar paytida birinchi marotaba So'g'd hududida ilk antik turar-joy qoldiqlari va Ekbatanda ishlangan Salavkaga tegishli kumush tetradraxma topilgan. Keyinchalik, ya'ni ilk o'rta asrlarda ushbu turar-joylar buzilib, uning o'rnida qabriston vujudga kelgan. Bu yerda er.av. V–III asrlarga tegishli 20 tacha qabr ochilib o'rganilishi asnosida, antropologiya, o'sha davr dafn va ko'mish marosimi haqida ko'proq axborot to'plash imkoni bo'ldi[1862].

Samarqandning janubiy qismidagi Darg'om suv arteriyasi joylashgan Kofirqal'ada 10 yil davom etgan keng arxeologik qazishmalar davomida ilk o'rta asrlarning 600 bulli (loydagi ottisk va muhr) topildi. Bu topilmalar So'g'dning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlari haqida qimmatli axborotni yetkazadi. Olib borilgan tadqiqotlar bu yerda ilk o'rta asrlarda Samarqand hukmdorlarining shahardan tashqaridagi qarorgohi bo'lgan qadimiy shahar – Rivdadni lokallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu yerdan 46 ta shaklning o'yib ishlangan tasviri bo'lgan yog'och panno ham

---

1859 Баратов С. Р. О проблеме истоков урбанизированной культуры Древнего Хорезма // Археология Узбекистана. 2017. № 2(15). С. 3–24.

1860 Ягодин В. Н., Бетте А. Г., Искандерова А. Д., Амиров Ш. Ш. Результаты работ на памятнике Казаклы-Яткан (Акшахан-кала) в 2013 году // Археологические исследования в Узбекистане 2013–2014 годы. Самарканд, 2016. Вып.10. С. 340–345.

1861 Пидаев Ш. Р., К. Като, Т. К. Мкртычев. Каменный скульптурный декор на Каратепа (раскопки 1988-2000 гг.) // SCRIPTA ANTIQUA. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Т. 3. К юбилею Эдварда Васильевича Ртвеладзе. М., 2014. С. 574–613.

1862 Бердимурадов А. Э., Раимкулов А. А., Холматов Н. У., Франческини Ф., Мантеллини С. Результаты исследования Узбекско-итальянской археологической экспедиции на Бойсаритепа в 2004–2005 годы // Археологические исследования в Узбекистане – 2003 год. Ташкент, 2004. Вып. 4. С. 65–73; Бердимурадов А. Э., Раимкулов А. А., Холматов Н. У., Франческини Ф. Раскопки Узбекско-итальянской экспедиции на Бойсаритепа в 2004–2005 гг. // Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 годы. Ташкент, 2006. Вып. 5. С. 65–73; Бердимурадов А. Э., Хасанов М., Франческини Ф. О работах на Бойсаритепа в 2007 году // Археологические исследования в Узбекистане 2006–2007 годы. Ташкент, 2009. Вып. 6. С. 57–65.

topilgan[1863]. Mazkur noyob kompozitsiyasi Sug'd arxeologiyasining xalqaro ahamiyatga molik kashfiyoti hisoblanadi.

Afrosiyob tepaligida Samarqandda Qoraxoniylar hukmronligi davri (XII asr)ga tegishli devoriy suratlar galereyasi bilan bezalgan saroy topilgan. Bu orqali Markaziy Osiyoning islomgacha bo'lgan inson, qush va hayvonlar tasviri tushirilgan noyob devoriy suratlar kolleksiyasi to'ldirildi. Mutaxassislar taxtda tasvirlangan podsho Qoraxoniylar sulolasidan bo'lgan xon Usmon, deb taxmin qiladilar[1864].

O'rta asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti – Axsikent tepaligida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, po'lat va po'latdan ishlangan qilich namunasi topildi. Ushbu topilma X–XII asrlarda eng yuqori sifatli misdan ishlangan va "Damashq shamshiri" nomi bilan mashhur bo'lgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari topilmalari asosida mamlakat hududida mato ishlab chiqarish va ipakchilik tarixiga doir yangi kashfiyotlar amalga oshirildi. Xususan, bronza davriga oid Jarqo'ton yodgorligidan topilgan mato qoldiqlari 3200 yildan ortiqroq tarixga ega va u Markaziy Osiyodagi eng qadimiy mato topilmasi hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi hududida qadimdan turli xil qabilalar yashagan bo'lib, antik davrga kelib qabilalarning soni ortishiga va bu jarayonga esa o'z navbatida ular o'rtasida turli yo'nalishdagi aloqalar yo'lga qo'yilganligi sezilarli ta'sir ko'rsatdi[1865].

Namangan viloyatida joylashgan Munchoqtepa yodgorligidan topilgan ipak qoldiqlarini o'rganishda zamonaviy usullarning qo'llanilganligi, ipak ishlab chiqarish Farg'ona vodiysida eramizning boshida vujudga kelganligi va ushbu hudud III–IV asrlarda mamlakatdagi yirik ipakchilik markazlaridan biri sifatida shakllanganini ko'rsatdi[1866].

Namangan viloyatidagi Chilhujra yodgorligida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar davomida qadimda bu yerda 10 gektar maydonga ega bo'lgan shahar mavjud bo'lganligi va ushbu manzilgoh eramizdan avvalgi V asr – eramizning V asrlariga oid ekanligi aniqlandi. Bu hozirgi paytda Farg'ona vodiysida saqlanib qolgan yagona qadimiy yodgorlik hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi shahar azaldan an'anaviy tarkibiy qismlardan iborat edi: mustahkamlangan ark va shahriston. Bu esa Chilhujra yodgorligi Farg'ona

---

[1863] Бердимуродов А. Э., Богомолов Г. И., Уно Такао, Бегматов А. Буллы с буддийским сюжетом с городища // O'zbekiston arxeologiyasi. 2016. № 2 (13). С. 51–60; Бердимуродов А. Э., Богомолов Г. И., Уно Такао, Бегматов А. Кафиркала. Уникальные находки с городища Кафиркала // Фан ва турмуш. 2018. № 1–2.

[1864] Reutova M. La peinture des Ambassadeurs (VII s.) a Samarkand: une nouvelle presentation museographigue. L utilisation du cyclododecane pour la depose de peintures murals // Paris, 2017. P. 237–245.

[1865] Маматалиев А. Р. Фарғона водийси этнослараро хўжалик-савдо муносабатларини ўрганилиши тарихидан / "Фарғона водийси тарихи муаммолари" мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. Наманган, 2012. 48-б.

[1866] Matbabaev Bokijon, Feng ZHAO, Yang Zhou, Meng Li. Early medival textiles and garments of Ferghana valley. Shanhay, 2010. (30 п.л.).

vodiysining eng qadimiy shaharlaridan birining qoldig'i ekanligi ko'rsatadi[1867]. Bu yerda dengiz sathidan 2000 metr balandlikda Qoraxoniylar davridagi ikkita qadimiy metallurgiya shaharchalari qoldiqlari topildi va zamonaviy texnologiyalar asosida ularning shakllanishi, rivojlanishi hamda inqirozi haqidagi yangi ma'lumotlar olindi[1868].

Yuqorida qayd etilganidek, qadimgi davrga oid axborotlar bazasi arxeologlar izlanishlari tufayli shakllanmoqda. Hozirgi paytda O'zbekiston arxeologiyasi qadimgi davrlardan so'nggi o'rta asrga qadar mamlakat tarixiga muhim tuzatishlar kirita oladigan ma'lumotlarni taqdim qilgan ko'plab kashfiyotlarga ega. Ushbu kashfiyotlar xalqaro konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan va jahon tarix fani tomonidan e'tirof etilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududidagi **davlatchilik tarixini** tadqiq qiluvchi yangi ilmiy yo'nalish shakllandi va u tarixchi olimlar izlanishlarining eng asosiy muammolarini tashkil etdi. Ushbu izlanishlar natijasida O'zbekiston davlatchiligi tarixining eng qadimdan to hozirgacha bo'lgan manzarasini aks ettirgan asarlar vujudga keldi. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar, ularda boshqaruv tizimining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari[1869] hamda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi muammolarining o'rganilish tarixi to'g'risidagi maqolalar chop etildi[1870]. Ilk davlatlar shakllanishini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar ma'lum ahamiyatga ega bo'ldiki, buning natijalari asosida O'zbekiston hududida davlatchilik an'analari ko'pmingyillik tarixga ega ekanligi isbotlandi[1871].

O'tgan yillar davomida O'zbek davlatchiligi tarixida Sug'diyonaning tutgan o'rni va masalalari[1872], turli tarixiy davrlarda O'zbekiston hududida

---

[1867] Анарбаев А., Максудов Ф., Кубаев С. Чильхуджра – руины древнего города северо-западной Ферганы // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 39. Самарканд, 2015.

[1868] Максудов Ф., М. Фрачетти, М. Пардаев, и др. Археологические исследования Узбекско-Американской экспедиции на памятнике Ташбулак в Джизакской области в 2015 году // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2015–2017 йиллар. 11 сон. Самарқанд, 2018; Robert N. Spengler, Farhod Maksudov, Elissa Bullion, Ann Merkle, Taylor Hermes, Michael Frachetti. Arboreal crops on the medieval Silk Road: Archaeobotanical studies at Tashbulak. PLOS ONE https://doi.org/10.1371/journal.pone.0201409 August 14, 2018.

[1869] Қудратов С. Ўзбекистон ҳудудида илк давлатлар пайдо бўлишининг баъзи масалалари // O'zbekiston tarixi. 1999. №2. 9–14-бетлар; Shu muallif. Марказий Осиё ҳудудидаги илк давлатларда бошқарув тизими ва ижтимоий муносабатлар // O'zbekiston tarixi. 1999. №4. 3–8-бетлар. Матбобоев Б. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // O'zbekiston tarixi. 2002. №1. 3–11-бетлар.

[1870] Аскаров А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №3-4. 3–15-бетлар; Анарбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар// O'zbekiston tarixi. 2004. 4-сон. 3–14-бетлар.

[1871] Сулейманов Р. Появление города Еркургана в процессе урбанизации и сложения государственности на территории Узбекистана // O'zbekiston tarixi. 1999. №2. 14–23-бетлар; Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари // O'zbekiston tarixi. 2002. №3. 10–20-бетлар.

[1872] Адылов Ш. Истоки и возникновение цивилизаций и государственности в Западном Согде // ОНУ. 1998. С. 23–30; Shu muallif. Административно-территориальное устройство Западного Согда в раннем средневековье // ОНУ. 1998. №6. С. 18–30; Эшов Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи Суғдиёна мисолида // ЎзМУ хабарлари. 2000. №4. 40–44-бетлар.

vujudga kelgan davlat birlashmalarining davlatchilik tarixidagi ahamiyati[1873], tarixiy manbalarda davlatchilik masalalari va mavzu manbashunosligi[1874] o‘rganildi. Davlatchilik tarixiga oid ocherklarda mazkur muammoning turli jihatlarini o‘rganishdagi yangiliklar aks etdi[1875]. Shuningdek, maxsus monografik tadqiqotlar mavzuni o‘rganishda[1876] muhim o‘rin tutdi.

Tarixchilar davlatchilikning vujudga kelishi eramizdan avvalgi II ming yillikka to‘g‘ri kelishi va uning ildizlari qadimgi dehqonchilik madaniyatiga borib taqalishini aniqladilar[1877].

O‘zbekiston davlatchiligi o‘zining butun evolyusiyasi davomida Qadimgi Xorazm, Kushon podsholigi, Qang‘, Eftalitlar davlati, Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar davlati, ayniqsa, O‘rta Sharq va Hindistonda rivojlanish yo‘li hamda tamoyillarini belgilab bergan Amir Temur davri misolida yuksalish va gullab-yashnash bosqichini boshdan kechirdi.

Olimlar hatto o‘zga davlatlar hukmronligi davrida ham davlatchilikning substrat asosi – o‘q ildizi o‘zgarmaganini aniqladilar. O‘zbekiston davlatchiligining er.avv. II-mingyillikdan eramizning III asrigacha bo‘lgan davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan monografiya ushbu mavzuga doir birinchi maxsus tadqiqot va tarix fanida katta voqea bo‘ldi[1878]. Mazkur muammo va umuman, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda sivilizatsion yondashuv nazariyasi keng qo‘llanildi. Uning natijalari Markaziy Osiyo turli hududlari (Kushon imperiyasi, Qang‘, Davan, davlatlari, Xorazm podsholigi, Sug‘d, Choch, Eftalit davlati, Turk hoqonligi, Farg‘ona v.h.)da antik davr tamadduni va ilk o‘rta asrlar bosqichining rivojlanish xususiyatlarini o‘rgangan qator tadqiqotlarda namoyon bo‘ldi[1879]. Ularning tarixini hududlarning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi nuqtai nazaridan o‘rganish qonuniydir, chunki yangi tipdagi davlatlar dunyoning

---

[1873] Ж. Мирзо. Термиз ўзбек давлатчилиги ва маданияти тимсоли сифатида // O‘zbekiston tarixi. 2001. №4. 13–20-бетлар; Бобоёров Ғ. Турк хоқонлигининг Мовароуннаҳрдаги бошқарув тизими ҳақида// O‘zbekiston tarixi. 2000. №4. 71–79-бетлар; Муҳаммаджонов А., Маҳмудов Б. Қорахонийлар давлатининг ташкил топиши ҳақида айрим мулоҳазалар// O‘zbekiston tarixi. 2008. № 1. 81–90-бетлар; Дутураева Д. Қорахитойлар давлатининг ташкил топиши тарихига доир// O‘zbekiston tarixi. 2009. №2. 66–80-бетлар.

[1874] Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихини ўрганиш манбашунослиги // O‘zbekiston tarixi. 1999. №1. 35–44-бетлар; Жўраев З. Ал-Маавардийнинг "Ал-аҳком ус-султония ва-л-вилоят-ид-диния" асарида давлатчилик таълимоти ва унинг илмий-тарихий аҳамияти // O‘zbekiston tarixi. 2000. №3. 64–67-бетлар; Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент)// O‘zbekiston tarixi. 2005. №1. 3–18-бетлар.

[1875] Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент, 2001. 207 с.; Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Тошкент, 2001. 224 бет; Ртвеладзе Э., Саидов А., Абдуллаев Е. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Тошкент, 2001. 416 бет.

[1876] Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент, 1990; Shu muallif. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Ўзбек давлатчилиги тарихидан. Тошкент, 1999. 192 б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 368 б.

[1877] Ртвеладзе Э. В., Саидов А. Х., Абдуллаев Е. В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и право. Ташкент, 2000. Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 2001; История государственности Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 2009. Т. I. 560 с.

[1878] История государственности Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 2009. Т. I. 560 с.

[1879] Алимова Д., Максудов Ф. Рефлексия исторического познания ...

Xitoy, Eron va Vizantiya imperiyasi kabi hududlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq edi[1880]. Ta’kidlash joizki, tadqiqotlarning ushbu kontekstiga O‘zbekistonning yetakchi mutaxassislari tomonidan yangi arxeologik va numizmatik ma’lumotlarning taqdim qilinganligi ham ta’sir ko‘rsatdi[1881].

Markaziy Osiyo hududida rivojlangan tamaddunlarni tadqiq qilishda eng muhim o‘rinlardan birini faoliyati er.av. II asr oxiridan boshlangan Buyuk Ipak yo‘lining roli egallaydi[1882].

Yirik antik davlatlar himoyasi ostida bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li transkontinental va mahalliy savdo aloqalari tizimi sifatida Markaziy Osiyo shaharlari hamda xalqlari hayoti va shahar tuzilishi transformatsiyasida ijobiy o‘zgarishlar yasadi. Bu Xorazm, Sug‘d, shuningdek, Ustrushona, Choch, Farg‘ona va Qang‘ davlatlari tarkibida bo‘lgan Toxariston hududlarining shakllanishi, Eftalitlar davlati hamda Turk hoqonligining dehqon va chorvadorlarida Sharq sivilizatsiyasining yangi qadriyatlarini vujudga kelishiga ta’sir qildi. Olimlarniing ushbu sohadagi tadqiqotlari Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi aholining o‘zaro ta’siri hamda madaniyati sinkretizmi, xalqlarning Markaziy Osiyo va jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi haqida gapirish imkonini berdi[1883].

Qadimgi yozma manbalar talqinini amalga oshirish O‘zbekistonning eng

---

[1880] Ртвеладзе Э. В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Изд-е 2-е, доп. Ташкент, 2008. 300 с.; Shu muallif. Великий индийский путь: из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012; Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. Проблема цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. Самарканд – Ташкент, 2000; Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент, 2000; Атаходжаев А. Тюрко-согдийские отношения в политических, социально-экономических и этнокультурных процессах в раннем средневековье. Автореф. дисс.... докт. ист. наук. Ташкент, 2011. 59 с.; Бабаяров Г. Чач в эпоху Тюркского каганата (по нумизматическим данным) // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Ташкент, 2005. С. 197-208.

[1881] Бабаяр Г., Кубатин А. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI – VIII вв.). Ташкент, 2007; Babayar G. Koktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate. Ankara, 2007; Кубатин А.В. Система титулов Тюркского каганата: генезис и преемственность. Ташкент, 2016; Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. СПб.: Фил. фак. СПбГУ, 2008; Маликов А. М. Тюрки в среднеазиатском Междуречье в VI–VIII вв. Самарканд, 2000; Массон В. М. Культурогенез древней Центральной Азии. СПб., 2006; Мусакаева А.А. Туранские монеты VI – VIII вв. Ташкент, 2013; Ртвеладзе Э. В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. Т. I. Ташкент, 2002; Shu muallif. История и нумизматика Чача (вторая половина III – середина VIII в. н.э.). Ташкент, 2006; Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата // Автореф. дисс.... док. ист. наук. Ташкент, 2012. 55 с.; Бабаяр Г., Кубатин А. К вопросу монетного чекана Западно-Тюркского каганата (на основе нумизматических материалов Ташкентского оазиса) // Тюркология. Туркестан. 2005. № 6. С. 97–105.

[1882] Буряков Ю. Ф. Бухара на караванных путях Хорасана и Мавереннахра // ОНУ. 1997. № 9–10. С. 45–52; Buryakov Y. F., Baipakov K. M., Taschboeva K., YakubovY. The Citesand Routes of the Great Silk Road. Tashkent: Scharq, 1999. 128 p.; Буряков Ю., Грицина А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд – Бишкек, 2006. 206 с.; Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 2004. 172 с.; Ходжаев А. Великий Шелковый путь. Ташкент, 2018 и др.

[1883] Кобзева О. П. История изучения Великого Шелкового пути во второй половине XIX – начале XX вв. Ташкент: «Zar Qalam», 2006. 161 с.; Кобзева О. П., Джалилов О. З. Страницы истории Великого Шелкового пути: шелк, специй и чай. Ташкент, 2013. 140 с.; Кобзева О. П., Джалилов О. З. Узбекистан и Китай на возрождающемся Шелковом пути. Ташкент, 2015. 103 с.; Хансен В. Великий Шелковый путь. Портовые маршруты через Среднюю Азию. Китай-Согдиана-Персия-Левант. М.: Центрполиграф, 2014. 477 с.

qadimgi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mazkur sohada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi[1884]. O'zbekistonning qadimgi davri moddiy madaniyati haqidagi asarlar yangi fakt, faraz va xulosalarni taqdim qildi[1885].

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va yoyilishi eng keng o'rganilgan mavzulardan biridir[1886]. Mazkur tadqiqotlarda boy madaniy an'analarga ega bo'lgan ushbu hududda islom dinining yoyilishi, g'arb tarixshunosligida "Musulmon renessansi" deb atalgan tamaddunning yangi shakli va yangi falsafaning vujudga kelishiga turtki bo'lganiga alohida urg'u beriladi.

IX–XI asrlarning barcha intellektual jihatlari chuqur o'rganildi. Ayniqsa, tadqiqotchilar diqqat markazidan fan va ta'limning rivojlanishi, "Ma'mun akademiyasi"ning vujudga kelishi, jamiyatni ma'naviy yuksalishida uning rolini aniqlash kabi masalalar o'rin oldi. O'zbekistonlik olimlar va ma'rifatparvarlar (Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy va boshq.) jahon faniga qo'shgan hissasi, noyob asarlari, mamlakat intellektual salohiyatini shakllanishidagi roli hamda madrasalarning ta'lim muassasining oliy bosqichi sifatidagi ahamiyati O'zR FA Sharqshunoslik instituti va boshqa tashkilotlar fondlarida saqlanayotgan manbalardagi ma'lumotlar asosida o'rganildi[1887].

Temur va temuriylar davri tarixi faol hamda kompleks tadqiq qilingan

---

[1884] Қадимги ёзма ёдгорликлар. [А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А. Отахўжаев ва бошқ.] Тошкент: Ёзувчи, 2000. 229 б.; "Авесто" Яшт китоби (Худо Ахура Мазда ва у яратган маъбудалар шаънига айтилган алқовлар.). [М.Исҳоқов таржимаси] Тошкент: Шарқ, 2001. 128 б.

[1885] Сулаймонов Р. Древний Нахшаб. Ташкент: Фан, 2000. 342 с.; Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. Тошкент, 2001. 65 б.; Мукминова Р., Филанович М. Ташкент на перекрестке истории. (Очерки древней и средневековой истории города). Ташкент: Фан, 2001. 113 с.;

[1886] Исламизация и сакральные родословные в Центральной Азии. Наследие Исхак Баба в нарративной и генеалогической традициях. Том I. / Исследование, составление текстов, переводы на русский и английский языки, комментарии и указатели: Зиядов Ш. Ю. и др. Алматы-Блумингтон: Дайк-Пресс, 2013. 638 с.; Қориев О. Ал-мажмуъ ал-Усмоний. Илмий-танқидий матн ва таржима. Тошкент: Мовароуннахр, 2014. 170. (ҳаммуаллифликда).

[1887] Хоразм Маъмун академияси. Фотоальбом. Тошкент: Шарқ, 2006. 168 б.; Ахмедов А. Муҳаммад ал-Хоразмий. Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 55 б.; Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. I-жилд. / Нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, С.У.Каримова. Тошкент: Муҳаррир, 2013. 688 б.; Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. II-жилд / Нашрга тайёрловчилар: М. Ҳасаний, С. У. Каримова. Тошкент: Navro'z, 2014. 773 б.; Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. III (1) китоб. / Учинчи нашрни тайёрловчилар: М.Ҳасаний, С. Каримова. Тошкент: Turonzamin ziyo, 2015. 750 б.; Баҳодиров Р. М. Сочинение ал-Хорезми "Мафатих ал-улум" как источник по классификации наук / Известия национального центра археографии и источниковедения. Астана, 2011. № 1. С. 62–74; Shu muallif. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг фалсафий қарашлари ва унинг илмлар таснифи масаласига ёндашуви / Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикри тарихида илмий-маърифий ғоялар. Тошкент, 2011. 98–129-бетлар; Ўрта аср Шарқининг буюк олим ва мутафаккирлари. Китоб-альбом. Тошкент: Ўзбекистон, 2014. 156 б.; Ғулом Каримий. Лангар фожиаси. Тошкент: Шарқ, 2014. 440 б.; Ходжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Тошкент, 2013. 186 б.; Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений (Хронология). / Перевод М. Салье. Дополнения, исправления, подготовка к печати, а также вводная статья и комментарии Ашрафа Ахмедова. Ташкент: Фан, 2014. 800 с.; Муҳаммадризо Мироб Огаҳий "Зубдат ат-таворих" / Нашрга тайёрловчи Ҳилола Назирова. Тошкент-Самарқанд, 2015. 306 б.; Бўриев О. Марказий Осиё тарихий географиясидан лавҳалар (ёзма манбалар тадқиқи ва таржималар). Ўқув қўлланма. Тошкент, 2015. 196 б.

muammolardan biri bo‘ldi. 1996-yilda Amir Temur yubileyining 660 yilligini nishonlanishi ushbu mavzuga doir tadqiqotlarning yanada kengayishi va Sohibqiron shaxsi haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashda muhim voqea bo‘ldi. Respublika tarixchilari tomonidan mazkur mavzuga oid monografik, kollektiv tadqiqotlar va alohida jihatlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan maqolalar e’lon qilindi[1888].

Manbashunoslik ishi yangi bosqichga chiqdi va ushbu davr tarixiga oid yangi ma’lumotlar aniqlandi. O‘ndan ortiq asosiy manbalar, jumladan, Nizomiddin Shomiyning “Зафарнома”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Зафарнома”, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro‘, Natanziy va Xondamirning asarlari, “Темур тузуклари” hamda boshqa manbalar yangidan tabdil qilindi va o‘zbek hamda rus tillariga tarjimasi amalga

[1888] Амир Темур в мировой истории. Ташкент: Шарк, 1996. Ташкент, 2001. 302 с.; Темур ва Улугбек даври тарихи. Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. 263 б.; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 186 б.; Собрание восточных рукописей ИВ Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д. Юсупова, Р. Джалилова. Ташкент: Фан, 1998; Ахмедов Б. А, Мукминова Р. Г., Пугаченкова Г. А. Амир Темур. Ташкент: Фан, 1999. 263 с.; Ахмедов А., Ртвеладзе Э. В. Государство Амира Темура и механизм его управления / Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент: Шарк, 2001. С. 84–95; Хабибуллаев А. Амир Темур ва Ибн Халдун. Тошкент, 2004; Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира. Ташкент: Фан, 2006. 323 с.; Абиджанова Д. С. Мавераурнахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60-90 годов XX в.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001; Шамукарамова Ф. Ш. Жизнь и творчество Мирзо Улугбека в историографии XX века. Ташкент: Yangi nashr, 2012. 256 с. (на рус., узб. яз.); Асадова Ш. К историографии эпохи Амира Темура и темуридов // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. 2004. №1–2. С. 74–78; Рахматуллаева А. Историография жизни и деятельности Амира Темура в Узбекистане (1991 – 2009): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2010. 31 с.

shirildi[1889]. Shu yillar davomida Mirzo Ulug'bekning "Зижи жадиди Кўрагоний" va "Тарихи арбаин улус" asarlari tarjima qilinib, nashr etildi[1890].

Bularning barchasi O'zbekiston tarix fanida ilgari qaror topgan Amir Temur shaxsi va vorislari, uning boshqaruv davri tarixini bir yoqlama talqin qiluvchi yondashuvlardan voz kechishga ta'sir qildi. Mazkur masalani chuqur va har tomonlama mushohada qiluvchi maxsus asarlar hamda bir qator dissertatsion tadqiqotlar vujudga keldi. Amalda aynan ushbu davrda tarix fanining "Temurshunoslik" deb nomlangan alohida sohasi paydo bo'ldi. Mazkur soha Fransiya, Angliya, Germaniya, AQSh, Eron, Turkiya, Yaponiya va MDH mamlakatlarida amalga oshirilayotgan xorijiy tadqiqotlarni ham qamrab oldi[1891].

---

1889 Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 528 б.; Абдураззок Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. II жилд. Биринчи қисм. Тошкент, 2008. 632 б.; II жилд. Иккинчи ва учинси қисмлар. Тошкент, 2008. 832 б.; Абу-Тохирходжа Самарқандий. Самария / Форсчадан А.Сатторий таржимаси. Тошкент: Мерос, 1991; Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. 1-китоб. Тошкент: Меҳнат, 1992. 328 б.; 2-китоб. 192 б.; Клавихонинг Самаркндга саёхати / Рус тилидан таржима, кириш суз ва изохлар О. Буриев. Тошкент: Адолат, 2004; Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди / Введение, перевод с персид. А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой. Примечания и указатели Р. П. Джалиловой и Л. М. Епифановой. Ташкент: Фан, 1996. 728 с.; Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи муиний / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изохлар муаллифи: Ғ. Каримий. Тошкент: Ўзбекистон, 2011; Темур тузуклари. / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Караматов таржимаси. Тошкент, 1991. 110 б.; Уложение Темура / Перевод Х. Кароматова. Предисловие, примечания и комментарии Б.Ахмедова. Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1999. 352 с.; Хофизи Абру. «Зубдат ат-таворих»дан: «Хазрат Сохибкироннинг мутабар насл-насаби хакида». (перевод О. Буриев.) / Сборник: Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. Тошкент, 1996. Б. 289-310; Шарафуддин Али Йазди. Зафар-нама. Ташкент, 1992; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари. 1360–1370 / Махсус мухаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А. Уринбоев, Б. Бўриев. Тошкент: Камалак, 1994. 290 с.; Шарофиддин Али Йаздий. Зафарнома. Тошкент: Шарк, 1997. 254 б.; Шараф ад-Дин Али Йазди. Зафар-наме / Предисловие, перевод со староузбекского, комментарии, указатели и карта А.Ахмедова. Ташкент, 2008. 485 с.

1890 Улугбек Мухаммад Тарагай. Зиджи джадиди Гурагони. Новые Гурагановы астрономические таблицы / Вступительная статья, перевод, комментарии и указатели А. А. Ахмедова. Ташкент, 1994. 457 с.; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов ва М. Ҳасанийлар таржимаси. Масъул муҳаррир, Кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. Тошкент, 1994. 352 б.

1891 Paul Jurgen Forming a Faction. Paper Presented to the Timurid-Turkman Symposium. Toronto/Canada, November 1989; Bodin J. Les six livres de la Republigue, un abrege du texte de Г edition de Paris de 1583. Paris, 1993; The Cambridge History of Islam. Calligraphers and Copyist of the Timurid Early Safavid Periods"- ed. –P. Jackson, Cambridge 1968 Rhandamir, tras., Wheeler M. Thackston. Habibu's siyar, Tome three. Sourses of.. Oriental Languages and literatures. No.24 Camridge, Mass. –Usa, 1994; Hamid Ilghar. Jo-Ann Gross External Relations of the Central Asian Naqshbandiya in the Late Timurid Period. Devin De Weese. Yassavi Sufi Communities in the Temurid Era / Materials of the International Scientific conference "Amir Temur and hie place in the World History". Devin De Weese. Islamization and Native religion in the Golden Horde. 1994; Babur, Zahiraddin (Vagai) Critical edition based o four chaghatay texts with introduction and notes by tiji Mano Kyoto. Syolado I Zahir Al-din Muhammad Babur. Babur-nama (Vaqayi) Concordance and Classified Indexes by Eiji Mano/- Kyoto, 1996. Printed by Nako wish Printig Co., ITD. Kyoto, Japan, Tokio 1995; Wheeler Thackston The Baburnoma. Memories of Babur, Prince and Emperor. Translated, edited and annotated y Wheeler M. Thanckston. New York. Oxford 1996; Spuler Bertold. Temur // The mongol period. History of the Muslim World.- Leide/ E. J. Brill 1960, copyright, 1969, 1994; Central Asia: the last three centuries of the indepedenc // Last Great Muslim Empires History of the Muslim World/ -Leiden 1960, copyright, 1969, 1996 Aubin Jean. Tamerlan a Bagdad // Arabica, 1962. i/3, -P. 303- 309; Power, Politics and religion in Timurid Iran. B. Manz., Cambridge University Press, USA, 2007.

Tarixchilar tomonidan Markaziy Osiyo hududi geografik sarhadlaridan ham chetga chiqqan Amir Temur davlati – markazlashgan davlat birlashmasi yangi tipi sifatida asosli tavsiflandi, huquq va harbiy tizimi tuzilishiga aniqlik kiritildi. Mazkur davr madaniy renessansi, shaharsozlik, fan va ta'lim tarixini o'rganish borasida talaygina ishlar qilindi[1892]. O'zbekiston tarixining Amir Temur davrini yoritishda olimlar jamoasi tomonidan yaratilgan kapital asarning akademik nashri muhim hissa bo'lib qo'shildi[1893].

XVI–XIX asrlar O'zbekiston tarixining eng ko'p o'rganilgan davri hisoblanadi[1894]. Bir qator yangi manbalarning nashr qilinishi qator monografiyalar va dissertatsiyalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu tadqiqotlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi va harbiy ish, xalqaro aloqalar, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyoti aholining etnik tarkibi, o'troq va ko'chmanchi aholining o'zaro munosabatlari, hokimiyat legitimatsiyasi, sulolalarning hokimiyat tepasiga kelishi, madaniyatlar simbiozi kabi masalalar[1895] yoritildi. Xonliklar tarixiga doir asarlar tahliliga bag'ishlangan tarixshunoslik tadqiqotlari vujudga keldi[1896].

---

[1892] Ҳабибуллаев Н. Н. Урта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи. Тошкент: Фан, 1992; Бобоев Ҳ. Ўзбекистонда XIV–XVI асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар: Юрид. фан. докт. ... дисс. Тошкент, 1993. 48 б.; Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996; Мукминова Р. Ремесленное производство и торговля в эпоху Амира Темура. Ташкент, 1996; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм, 1996; Юсупова Д. Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира / Материалы международной научной конференции "Расцвет науки, культуры эпохи Темуридов". Ташкент-Париж, 1996. С. 28–36; Уролов А., Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд: Суғдиёна, 1996; Зоҳидов П. Темур даврининг меъморий каҳкашони. Тошкент: Шарқ, 1996; Пугаченкова Г. А. Архитектурное наследие Темура. (На рус и франц. языках). Тошкент: Қомус, 1996. 128 с.; Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. Ташкент: Университет, 1999. 263 с.

[1893] История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. 2017. 535 с.

[1894] Мукминова Р., Агзамова Г. Ўзбекистон тарихининг ўрта асрлар даврини ўрганиш йўллари ва унинг ривожи// O'zbekiston tarixi. 2003. №4. 21–31-бетлар.

[1895] Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. Наманган: Ибрат, 1994. 132 б.; Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. Тошкент: Фан, 1996. 240 б.; Аъзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. Тошкент, 2000. 53 б.; Каримов Э. Йасавийа и ходжаган-накшбандийа: история действительная и вымышленная. Тошкент, 2000. 71 с.; Султонова Г. Н. XVI аср иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Қозоқ ва Ёркент хонликлари билан алоқалари: Тарих фан. номзоди. дисс. Тошкент, 2005. 152 б.; Турсунов Б. Военное дело и войско в Кокандском ханстве: положение, управление, традиции (до 70-х годов XIX в.): Автореф. дисс....канд. ист. наук. Ташкент, 2006. 26 с.; Махмудов Ш. Система административного управления в Кокандском ханстве (1709-1876 гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2007. 29 с.; Тошлдиев Н. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихидан (XIX аср-1876 йилгача). Тошкент: Фан, 2007. 135 б.; Shu muallif. Қўқон хонлиги ва Россия империяси тарих чорраҳасида. Тошкент: Akademnashr, 2012. 216 б.; Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тошкент: Адолат, 2007. 164 б.; Акифуми Сиоя. История и источники легитимации власти хивинских правителей из династии Кунграт (в контексте взаимоотношений с Османской империей)//O'zbekiston tarixi. 2011. №3. С. 73-79; Абдурасулов У. К истории судебно-административной практики Хивинского ханства в конце XIX – начале XX столетия: коллекция йасаулбаши// O'zbekiston tarixi. 2012. №1. С. 64–79; Замонов А. XVIII–XIX аср ўрталарида Бухоро амирлигида ҳарбий бошқарув ва қўшин тузилиши // O'zbekiston tarixi. 2013. №1. 15–27-бетлар; Аллаева Н. XVI–XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги ташқи алоқалари тарихи.Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) дисс ... автореф. Тошкент, 2018.

[1896] Вахидов Ш. Х. Развитие историографии в Кокандском ханстве в XIX – начале XX в.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. Ташкент, 1998; Масалиева О. История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханства в англо-американской историографии XX века. Автореф. дис.... канд. истор. наук. Ташкент,

B. Bobojonovning Qo‘qon xonligi tarixiga doir yaratilgan monografiyasida islom dini masalalari ilk bor davlatchilik kontekstida, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot yangicha yondashuvlar asosida talqin qilindi[1897].

2000-yillar tarix fanining xususiyatlaridan biri Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yaxlitlikda o‘rganish bo‘ldi va tarixiy jarayonlardagi umumiylik hamda o‘zaro madaniy aloqalar masalalari tahlil qilindi[1898].

O‘zbekistonning XVI asr – XIX asr birinchi yarmi tarixiga doir umumlashma monografik tadqiqotning chop etilishi ushbu davr tarixini o‘rganishda yangicha yondashuvlarni ko‘rsatdi. Mazkur kitobda bu davrda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatning ob’yektiv va sub’yektiv sabablari umumjahon jarayonlariga bog‘liq bo‘lganligi ko‘rsatildi[1899]. Bu bilan fanda qaror topgan mintaqadagi o‘zbek xonliklarining mazkur davrdagi tamomila regressiv holati va tashqi dunyodan uzilganligi haqidagi tasavvurlar rad etildi. O‘rta asrlar tarixini o‘rganishga doir ishlar o‘tgan tarixshunoslik bosqichlaridagi kemtiklarni to‘ldirdi.

O‘zbekistonning **mustamlaka davri** tarixi haqli ravishda tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama, keng o‘rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Mustaqillik yillari tarix fanida Rossiyaning O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bo‘ldi. Yaratilgan tadqiqotlarda ushbu davr tarixi “sovet” tavsiflaridan keskin farq qiluvchi xolis bahosini oldi.

Rossiyaning O‘rta Osiyodagi mustamlakachiligi va uning salbiy oqibatlari haqida maxfiy arxivlar, yangi tarixiy dalillar hamda tamomila yangicha yondashuvlar asosida yozilgan tadqiqotlar vujudga keldi.

Tarixchilar tomonidan yaratilgan dissertatsiyalardan tortib monografik tadqiqotlarning diqqat markazida O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, uning sabablari va oqibatlari[1900], jumladan, geosiyosiy,

---

1999. 31 с.; Ишкуватов В. Кокандско-российские дипломатические отношения в историографии второй половины XX века: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2003. 22 с.; Маткаримова С. Историография Хивинского ханства в период Куиградской династии (XIX – начало XXI века): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 2010. 31 с.; Абиджанова Д. Формирование и развитие историографической традиции в Средней Азии в XV веке// O‘zbekiston tarixi. 2010 №3. С. 41-50.

[1897] Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент, 2010. 744 с.

[1898] Алимова Д., Абдурасулов У. Центральная Азия в XVI – первой половине XIX века: к характеристике исторических процессов // O‘zbekiston tarixi. 2011 №4. С. 15–24; Алимова Д. Вопросы культурного симбиоза и трансформации в истории народов Центральной Азии: эволюция исследовательского дискурса// O‘zbekiston tarixi. 2014. №3. С. 60–71.

[1899] История Узбекистана. XVI – первая половина XIX века. Ташкент: Фан, 2012. 776 с.

[1900] Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар (XVIII-XIX асрлар). Тошкент: Шарқ, 1998. 478 б.; Shu muallif. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент: Шарқ, 2006. 352 б.; Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. I китоб. Тошкент: Шарқ, 2000. 464 б.; Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент: Фан, 2006: 224 б.; Тухтабеков К. А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти.: Тарих фан. ном. ... дисс. Тошкент, 2011. 156 б.

yangi boshqaruv tizimining[1901] shakllanishi, sud-huquq tizimi[1902], imperiya hukumatining oʻlkadagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda milliy siyosati, madaniyat masalasi[1903], diniy siyosat[1904], vaqf mulklariga munosabat[1905], Buxoro amirligi va Xiva xonligining vassalga aylantirilishi kabi masalalar boʻldi[1906].

Oʻlka tarixi metropoliya xom-ashyo bazasiga aylantirilishi, bank kapitalining kirib kelishi va soliq siyosati, savdo munosabatlari, tadbirkorlik[1907],

---

1901 Абдурахимова Н. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX-начало XX вв.): Автореф. дисс.... докт. ист. наук. Ташкент, 1994. 68 с.; Турсунова Р. Городское самоуправление в Туркестане (1877–1918 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2000; Тиллабаев С. Система административно-территориального управления в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX века и участие в ней представителей местного населения (на примере Ферганской области): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2006. 30 с.; Shu muallif. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки Тошкент: Фан, 2008. 104 б.

1902 Бобоматов Т. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики царской России в Туркестане (1865–1917 гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2006. Зайнобиддинов Н. История развития судебной системы в Средней Азии в конце XIX – начале XX в.: Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2006. 31 с.

1903 Алимова Н. Политика Царской России в Туркестане в области национальной культуры (1867–1917 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2004. 22 с.

1904 Исмаилова Д. Мустабид тузумнинг Туркистондаги диний сиёсати// Oʻzbekiston tarixi. 2003. №1. 65–71-бетлар; Shu muallif. Роль и место ислама в общественно политической жизни народов Туркестана (конец XIX - начало XX в.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2006. 22 с.; Юнусова Х. Чор Россиясида ислом динига муносабатнинг баъзи масалалари // ЎИФ. 1994. №6. 9–40-бетлар; Зиёева Д. Туркистонда мустамлака шароитида диний сиёсат ва вазият // Ислом университети ахборотномаси. 2006. №4. 40-45-бетлар; Shu muallif. XIX аср охири – XX аср бошида Туркистонда диний конфессияларнинг ҳуқукий аҳволи // Фалсафа ва ҳуқуқ. 2009. №3. 79–82-бетлар; Махкамова Н. Роль ислама в жизни среднеазиатского общества (вторая половина XIX – начало XX века.) Ташкент: Aloqachi, 2007. 48 с.

1905 Болтабоев С. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасида вакф мулклари. Тарих фанлари номзоди илмий дар. олиш учун тақдим этилган дисс.... автореф. Тошкент, 1995. 24 бет; Маллабоев Б. Вакуфно-имущественная политика царизма в Туркестане (на примере вакуфного имущества потомков Ходжи Ахрара). Автореф. дисс. ..канд. ист. наук. Ташкент, 2005.

1906 Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1990. №8. С. 30–39-бетлар; Тихменев В. Хива хонлигининг забт этилиши: ўлкамиз тарихидан // Фан ва турмуш. 1992. №2. 14–15-бетлар; Никитенко Г. Хива под протекторатом Российской империи // ОНУ. 1997. №7–8. С. 30–41; Перевезенцева Г. Бухара под Российским протекторатом // ОНУ 1997. №9–11. С. 63–73.

1907 Ташматов Ш. Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи.: Иқтисод фан. докт.... дисс. Тошкент, 2006. 314 б.; Сафаров Т. Т. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари.: Тарих фан. ном....дисс. Тошкент, 2009. 181 б.; Фурсов К. А. Имперская экономическая политика в Русском Туркестане и Британской Индии: сходства и различия // Восток (Oriens). 2010. №6. С. 28–44; Тайронов Ё. Р. Общественно-политическая деятельность туркестанских предпринимателей в начале XX века: Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2011. 27 с.; Потапова Н. Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.). Ташкент, 2011; Очерки истории формирования и развития предпринимательства в Узбекистане. Ташкент, 2011. 145 с.; Жумаев У. Х. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ва тараққиёти.: Тарих фан. ном.... дисс. Тошкент, 2012. 165 б.; Абдурасулов Х. Базары городов Туркестана: попытки реформирования и регулирования деятельности базаров колониальной властью (вторая половина XIX - начало XX века) // Oʻzbekiston tarixi. 2015. № 4. С. 21–28.

sanoatning shakllanishi, sohalarining vujudga kelishi[1908] hamda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi kontekstida keng yoritildi[1909].

Mustamlakachilik yillarida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ahvol, aholining ijtimoiy tarkibi va kundalik mashg'ulotlari ma'lum hududlar hamda shaharlar hayoti misolida tadqiq qilindi[1910]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu masalalar Rossiya tarixshunosligida ham yangicha nuqtai nazardan talqin qilindi[1911].

Rossiyaga Turkiston o'lkasidan yerosti va yerusti boyliklarning olib ketilishi misolida mustamlakachilik maqsadlarining asl mohiyati ochib berildi. Mavzuni yoritishda yangi arxiv materiallarining jalb qilinganligi keng o'quvchilar ommasiga tarixning ochilmagan sahifalarini ilk bor yetkazdi[1912]. Rossiya o'z mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishda Toshkent-Orenburg temir yo'lining ahamiyati yangicha nuqtai nazardan o'rganildi[1913].

Mustamlakachilikka qarshi olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari masalasi mavzuning o'rganilish jarayonida yangi yo'nalishlardan biri bo'ldi. O'lkada milliy ozodlik harakatlari va mustaqillik uchun kurash tarixini yorituvchi maqolalar, jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi[1914]. Mualliflar boy arxiv

---

1908 Мусаев Н. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс.... докт. ист. наук. Ташкент, 1999. 58 с.; Жамолхожи И. История формирования и развития нефтяной промышленности в Ферганской долине (1860–1917 гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2004. 34 с.

1909 Тухтабеков К. А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти.: Тарих фан. ном. ... дисс. Тошкент, 2011. 156 б.;

1910 Акбаров Р. Хозяйственные взаимоотношения и социально-экономическая жизнь населения Ферганской долины во второй половине XIX – начале XX века. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2002.; Даминова З. История города Термеза конца XIX-XX века. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2004.; Пардаев К. Социально-политическая, экономическая и культурная жизнь среднезеравшанской (Мианкальской) долины в XIX начале XX вв. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент: НУУ. 2004; Шарипова М. Общественно-политическое положение города Ташкента во второй половине XIX начале XX вв. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2005.; Очилдиев Ф. XIX-XX аср бошларида жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт (Сурхон воҳаси мисолида). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2006; Топилдиев Н. Социально-экономическое и политическое положение Кокандского ханства накануне и в период его завоевания российской империей. Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2009. 27 с.

1911 Брусина О. И. Славяне в Средней Азии. М.: Восточная литература РАН, 2001; Арапов Д.Ю. Система государственного регулирования ислама в Российской империи (последняя треть XVIII – начало XX в.). М., 2004. 287 с.; Центральная Азия в составе Российской империи. Окраины Российской империи. М.: Новое литературное обозрение, 2008. 464 с.; Глущенко Е. А. Россия в Средней Азии: завоевания и преобразования. М.: Центрполиграф, 2010. 573 с.; Васильев Д. В. Бремя империи. Административная политика России в Центральной Азии. Вторая половина XIX в. М., 2018. 638 с.

1912 Зиёева Д. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошларида чоризмнинг Туркистон моддий бойликларини ўзлаштириш сиёсати // O'zbekiston tarixi. 2000. №1–2. 22–34-бетлар; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. (1865-1990 йиллар). Тошкент: Шарқ, 2000. 432 бет.

1913 Тоғаева А. Тошкент-Оренбург темир йўли ва Россия мустамлакачилик сиёсати // O'zbekiston tarixi. 1999. №4. 49–55-бетлар; Shu muallif. Тошкент-Оренбург темир йўли қандай мақсадларда қурилган // Жамият ва бошқарув. 2006. Махсус сон. 83–86-бетлар; Shu muallif. Темир йўл тарихидан // Мозийдан садо. 2009. № 2. 40–43-бетлар.

1914 Мусаев Н., Каримов Б. Озодлик йўлида жонини тикканлар. 1860–1890 йилларда Туркистон халқларининг мустамлакачиларга қарши қўзғолонлари ҳақида // Гулистон. 1993. №4–5. 8–9-бетлар.; Ўроқов Д. Туркистон милллий-озодлик ҳаракатларига оид архив ҳужжатлари // ЎзМУ хабарлари. 2003.

manbalariga tayanib, o'lkadagi milliy-ozodlik harakatining paydo bo'lishi, rivojlanishi va mag'lubiyatga uchrashi sabablarini ilmiy tahlil qildilar. Masalan, Andijon qo'zg'oloni to'g'risida mavjud arxiv materiallari asosida yangicha talqindagi qarashlar taqdim qilindi[1915]. Xalq harakati rahnamolari haqidagi publitsistik asarlar[1916] va ilmiy tadqiqotlarda turlicha nuqtai nazarlar hamda baholar o'z ifodasini topdi[1917].

1916-yildagi xalq qo'zg'oloni va uning o'lka bo'ylab yoyilishi haqida bir qator maqolalar e'lon qilindi[1918], mardikorlikka safarbarlik ushbu qo'zg'olon sabablaridan biri sifatida ko'rsatildi[1919].

Rossiya mustamlakachiligi haqqoniy tarixini yoritishda **manbalar** muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuni o'rganishda turli arxiv manbalarini tizimlash, eng

---

№1. 63–66-бетлар; Содиқов Ҳ. XX аср бошида чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати ва истиқлол учун кураш. Тарих фанлари докт. илмий дар. олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 1994. 48 б.; Юнусова Х. Народное восстание 1892 г. в г. Ташкенте: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 1995; Суюнова А. Национально-освободительная борьба 1916 года в Туркестане (на примере Сырдарьинской области): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1997. 33 с.; Одилов А. История национально-освободительного движения в Бухарском эмирате (на примере народно-освободительного движения под руководством Абдумалика туры): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2004.; Муродова Ш. История освободительного движения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX вв. (на примере Самаркандской области): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2004.

[1915] Зиёев Ҳ. Халқ ҳаракати. 1898 йилги Андижон қўзғолони ҳақида // Гулистон. 1998. №9. 7–8-бетлар; Бабаджанов Б. Андижанское восстание 1898 года: «дервишский газават" или антиколониальное выступление? // O'zbekiston tarixi. 2001. №2. 25–30-бетлар; Shu muallif. Андижанское восстание 1898 года: «Дервишский газават» или антиколониальное выступление? (продолжение) // O'zbekiston tarixi. 2001. №4. 61–68-бетлар; Эркинов А. Дукчи эшон ва 1898 йил Андижон қўзғолони – давр шоирлари баҳосида // O'zbekiston tarixi. 2004. №2. 3–17-бетлар; Бабаджанов Б. Яна Дукчи эшон ҳақида. М. Тоировнинг мақоласи муносабати билан // O'zbekiston tarixi. 2013 №1. 92–103-бетлар; Эркинов А. Илмий ҳақиқат ҳамма нарсадан устун// O'zbekiston tarixi. 2013. № 1. 103–106-бетлар.

[1916] Фозилбек. Дукчи Эшон воқеаси: (Тарихимиздан лавҳалар.) // Шарқ юлдузи. 1991. №1. 146–179-бетлар; Тоҳир Қаҳҳор. Дукчи Эшон Туркистоннинг миллий қаҳрамонидир: (чор мустамлакасига қарши кўтарилган қўзғолон ҳақида) // Шарқ юлдузи. 1991. №1. 179–180-бетлар.

[1917] Маҳмуд М. Бобои Тўқсабо: Туркистон тимсоллари (1869–1870 йилларда Зарафшон водийсида бўлиб ўтган деҳқонлар қўзғолони ва унинг раҳбари Бобои Тўқсабо ҳақида.) // Жамият ва бошқарув. 1998. №3. 40–41-бетлар; Илҳомов З. Алиқули Амирлашкар // O'zbekiston tarixi. 1999. №3. 25–29-бетлар; Shu muallif. Хотираларда жонланган сиймо: (Қўқон лашкарбошиси, халқ озодлиги курашчиси Амир лашкар Алимқули Ҳусайнбий ўғли (1831–1865) ҳаёти ва фаолияти ҳақида.)// Жамият ва бошқарув. 2000. 1-сон. 55-57-бетлар; Shu muallif. Аликули Амирлашкар и его место в политической истории Кокандского ханства: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2004. 23 с.; Тиллабоев С. Мустамлакачиларга қарши Дарвишхон бошчилигидаги қўзғолон // O'zbekiston tarixi. 2002. №1. 19–27-бетлар.

[1918] Зияев Х. Национально-освободительное восстание 1916 г. в Туркестане // ОНУ. 1991. №7. С. 27–36; 1916 йилнинг ҳур шамоли (давра суҳбати.) // Ўзбекистон овози. 1996. 12 сентябрь; Исмоилова Ж. Қонга ботирилган халқ ҳаракати: (1916 йилги қўзғолон тарихи ҳақида.) // Шарқ юлдузи. 1998. №2. 141–146-бетлар; Shu muallif. Наманганда 1916 йил халқ қўзғолони// ЎИФ. 1997. №5. 29-34-бетлар; Суюнова О. 1916 йил Туркистондаги халқ қўзғолони тарихидан (Сирдарё вилояти манбалари асосида) // ЎИФ. 1997. №3–4. 59–64-бетлар.

[1919] Чориев З. Туркистон ўлкасида мардикорлар ҳаракати ва мардикорларнинг Россиядаги ҳаёти тарихини ўрганиш манбалари / Ўзбекистон халқлари тарихининг долзарб масалалари. Тошкент, 1995; Чариев З. Усиление колониальной политики и национального гнёта и их последствия в Туркестане в начале XX века. (на примере мобилизации на тыловые работы): Автореф. дисс.... докт. ист. наук. Ташкент, 1999. 60 с.; Исмоилова Ж. Туркистонда 1916 йил мардикорликка сафарбарлик// O'zbekiston tarixi. 2002. №1. 31–38-бетлар; Shu muallif. Национально освободительное движение в Туркестане в начале XX века (на примере восстания 1916 года в Ферганской долине): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2002. 53 с.

muhim sanalgan materiallarni o'rganish va o'quvchiga yetkazish borasida kompleks tadqiqotlar amalga oshirildi[1920]. Rossiya mustamlakachiligi tarixining turli masalalariga doir yaratilgan katta hajmdagi ilmiy mahsulotlari tarixshunoslik tahliliga tortildi va muammoning o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlari aniqlandi[1921].

XX asrdagi ma'rifatparvarlik harakati – jadidchilik mohiyatini o'rganish tarix tadqiqotlarida yana bir yangi yo'nalish bo'ldi. Jadidchilik harakatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning vujudga kelish sabablari, jadidlarning ma'rifatparvarlik va islohotchilik g'oyalari, mustaqillik hamda taraqqiyot uchun kurashlari tarixi, jadidlar tafakkuri va milliy davlatchilik g'oyalari yangi ilmiy dalillar asosida nazariy mushohada qilindi[1922]. Turkiston, Buxoro va Xiva milliy taraqqiyparvarlik harakatining mohiyati, uning jamiyat hayotining yangilanishidagi g'oyalari tahliliga doir maxsus to'plam chop etildi[1923] hamda ushbu mavzuga doir tadqiqotlar amalga oshirildi[1924].

---

1920 Жабборов М. Фарғона вилояти тарихининг "Туркестанский сборник"да ёритилиши (XIX асрнинг охири –XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди илмий дар. олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 2000; Курахмедов А. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начала XX в. (по материалам "Туркестанского сборника"): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001. 27 с.; Ураков Д. Официальные отчеты Российской администрации в Туркестане как исторический источник (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2005. 26 с.; Шадманова С. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870–1917 гг.). Автореф. дисс...докт. ист. наук. Ташкент, 2011. 61 с.; Эргашев Б. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.

1921 Мамазаитова Ю. Х. Сельское хозяйство Узбекистана в отечественной исторической литературе (от завоевания до независимости).: Автореф. дисс.…канд. истор. наук. Ташкент, 1995; Зияева Д. Национально-освободительное движение в Туркестане в историографии XX века (проблемы изучения восстания 1916 года и движения "истиклолчилик" 1918–1924 гг.): Автореф. дис... доктр. истор. наук. Ташкент, 1999. 61 с.; Shu muallif. Туркистон миллий озодлик ҳаракати (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. 174 б.; Ахмеджанов Г. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Ташкент, 1995. 217 с.; Алымбаев Ж. Б. Историография завоевания Туркестана Россией XIX – начало XX вв.: Автореф. дис… канд. истор. наук. Ташкент, 2001. 31 с.; Пуговкина О. Г. История Туркестана в наследии российской историографии. Автореф. дис…. канд. истор. наук. Ташкент, 2006. 30 с.;

1922 Мирза-Ахмадова П., Рашидова Д. К изучению джадидского движения: [Конец XIX - нач. XX вв.]//ОНУ. 1990. №7. С. 30–40; Эргашев Б. Джадиды: либералы или демократы? // Звезда Востока. 1991. №12. С. 126–131; Болтабоев Ҳ. Жадидчиликнинг маънавий илдизлари / "Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал-методологик муаммолар" мавзуидаги конференция материаллари. Тошкент, 1998. 151-154-бетлар; Агзамходжаев С. История Туркестанской Автономии (Туркистон Мухторияти). Ташкент: Тошкент ислом университети, 2006. 268 с.; История общественно-культурного реформаторства на Кавказе и в Центральной Азии (XIX – начало XX века). Самарканд: МИЦАИ, 2012. 335 с.

1923 Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. № 1. Тошкент, 1999. 218 б.

1924 Мухаммаджонова Л. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908 – 1920 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1999. 32 с.; Қосимов Ф. Бухорода миллий демократик ҳаракатнинг ўзига хос хусусиятлари / Марказий Осиё XX аср бошида ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик). Халқаро конференция материаллари. Тошкент, 2001. 115–117-бетлар; Астанова Г. Историография политических процессов в Бухаре в (1920–1924 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 2008. 30 с; Алимова Д., Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий

Milliy taraqqiyparvarlarning mustaqillik haqidagi, millat ravnaqi haqidagi g'oyalari o'zining dolzarbligini yo'qotmaganligi, mustaqillikka erishgan O'zbekistonda ular tajribasiga murojaat qilinganligi buning yaqqol dalilidir. Ushbu mavzuni o'rganishning o'ziga xos xususiyati, unga faylasuf, adabiyotshunos, san'atshunos va tarixchilarning murojaat qilganligidir. Ijtimoiy fan vakillarining ushbu yondashuvlari asr boshidagi jadidchilik harakatining fenomenal xarakterini ochib berdi. Shuningdek, jadidchilik harakati o'zining fenomenal ahamiyati bilan xalqaro ilmiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi. 1999-yil sentabrda "Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash" mazuida xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi[1925].

Mustaqillik yillarida ushbu mavzuni o'rganishda D. Alimovaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi[1926]. Olimaning mazkur mavzuga oid olib borgan tadqiqotlari uning monografiyasida[1927] o'z ifodasini topdi. D.Alimova ilmiy maktabining vakillari ushbu mavzuning turli jihatlarini keng qamrovli, yangi ma'lumotlar asosida o'rgandilar[1928].

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning sovet davri tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar ro'y berdi. Tadqiqotchilar sovet davri tarixini O'zbekiston zamonaviy tarix fanida yangicha mushohada qilish bilan bir qatorda, ushbu davr tarixini to'laqonli yoritishga xizmat qiluvchi ilgari taqiqlangan va o'rganilmagan

---

ҳаракатлар ва курашлар. Бухоро, 2009. 116 б.; Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф.; Тошкент, 2019; Полвонов Н. Т. Ёш хиваликлар партияси тарихини ўрганишда Полвонниёз Ҳожи Юсупов "Хотира"ларининг аҳамияти // ЎзМУ хабарлари, 2000. №4. 49–53-бетлар; Shu muallif. Ёш хиваликлар партияси ташкил топиши санаси хусусида // ЎзМУ хабарлари, 2002. №2. 50–54- бетлар; Shu muallif. Хоразм жадидчилигининг ўзига хос хусусиятлари // ЎзМУ хабарлари, 2006. №4, 70-76-бетлар; Shu muallif. Хоразмдаги тарихий-демографик жараёнлар тарихшунослиги // ЎзМУ хабарлари, 2008. №2. 65–69-бетлар; Shu muallif. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). Тошкент: Akademnashr, 2011. 119 бет.

[1925] Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. (Жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик.) Халқаро конференция материаллари. (1999 йил 16–18 сентябрь, Тошкент.) Тошкент, 2001. 142 б.

[1926] Мустафаева Н. Жадидчилик тарихида янгича қарашлар ва ёндашувлар (профессор Д. А. Алимова тадқиқотлари мисолида) // Марказий Осиё давлатлари олима аёлларининг илм-фан соҳасига қўшган ҳиссаси. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2-қисм. Тошкент, 2020. 197-201-бетлар.

[1927] Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури / Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам №1. Тошкент, 1999. 35–52-бетлар; Shu muallif. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. Ташкент, 2000. 23 с.; Shu muallif. Религиозная толерантность и гуманистические идеи прогрессивной национальной интеллигенции Туркестана / Ўзбекистоннинг ислом цивилизацияси ривожига қўшган хиссаси. Тошкент-Самарқанд, 2007. С. 361–363; Shu muallif. История как история, история как наука: Феномен джадидизма. Ташкент: Узбекистан, 2009. Т.2. 170 с.

[1928] Вохидова К. Исхакхан Жунайдуллоходжа Ибрат и его научно-историческое наследие: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2002. 25 с.; Ражабова Д. Проблемы молодежи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2003. 27 с.; Кенжаев Д. М. Исламские ценности в воззрениях джадидов и их концепция духовного реформирования общества: Автореф. дисс...канд. ист. наук. Ташкент, 2007. 30 с.; Турсунов Р. Н. Воззрения национальных прогрессистов на социально-экономические процессы в Туркестане в начале XX века: Автореф. дисс...канд. ист. наук. Ташкент, 2008. 29 с.

mavzular paydo bo‘ldi. Mazkur mavzular sirasiga Sovet tuzumining totalitar mohiyati va uning O‘zbekistondagi amaliyoti[1929], milliy siyosiy partiyalar va ularning faoliyati[1930], Turkiston Muxtoriyati tarixi[1931], “Bosmachilik” deb nom olgan sovet tuzumiga qarshilik harakati[1932], Turkiston mustaqilligi uchun kurash masalalari[1933], Stalincha qatag‘onlar[1934] va xalqlarning surgun qilinishi

---

[1929] Голованов А. Тоталитарно-репрессивная природа коммунистической идеологии// Ўзбекистон тарихи: Янги нигох. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Давра суҳбати материаллари. Тошкент, 1998. 49–61-бетлар; Пасилов Б. Идеология и практика становления тоталитарной государственности в Туркестане // O‘zbekiston tarixi. 1999. №3. 46–50-бетлар; Shu muallif. Большевизм назарияси ва амалиётининг Ўзбекистонга таъсири // O‘zbekiston tarixi. 2003. №1. 26–34-бетлар; Эргашев Ф., Алимбоев М. Туркистонда совет тоталитаризмининг пайдо бўлиши// Жамият ва бошқарув. 2000. № 1. 33–35-бетлар; Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917 – 1941 й.). Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2012. 272 б.

[1930] Абдуллаев Р. М. Из истории национального движения в Туркестане после февраля 1917 года. //ОНУ. 1993. №4. С. 49–53; Shu muallif. Туркестан в 1917 году: национальное движение и военный вопрос// O‘zbekiston tarixi. 2001. №1. 38–42-бетлар: Shu muallif. Национальные политические организации Туркестана в 1917–1918 годы. Ташкент, 2014. 219 б.

[1931] Хасанов М. “Кокандская автономия” и некоторые ее уроки // ОНУ. 1990. №2. С. 41–52; Shu muallif. Альтернатива. Из истории Кокандской Автономии// Звезда Востока. 1990. №7. 105–120-бетлар; Агзамходжаев С. Из истории движения за автономию Туркестана //ОНУ. 1996. №1–3. С. 40–48; Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. Тошкент: Маънавият, 2000. 166 б.; Shu muallif. История Туркестанской автономии (Туркистон мухторияти). Ташкент, 2006. 263 б.

[1932] Ақромов А. Босмачилик ҳаракати ва унинг моҳияти // Ҳаёт ва иқтисод.1991. №7. 58–63-бетлар; Shu muallif. Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма: халқ тарихи халққа қандай етказилмоқда? (Давра суҳбати) // Шарқ юлдузи. 1991. № 3. 165–189-бетлар; Рашидов У. Бухоро босмачилари аслида ким эди? Тарих ва ҳақиқат // Мулоқот. 1994. № 11–12. 33–36-бетлар; Ражабов Қ., Холбоев С. «Босмачи»ни қандай баҳолаш керак? // Фан ва турмуш. 1995. №3. 28–29-бетлар; Истиқлолимизнинг тарихий илдизлари: (Ўзбекистоннинг 1917 йил октябридаги давлат тўнтариши. “Босмачилик” миллий-озодлик ҳаракати, тарих фанининг “очилмаган қўриқ”лари ҳақида давра суҳбати.) // Шарқ юлдузи. 1995. № 11–12. 3–29-бетлар; Зиёева Д. Босмачилик қандай пайдо бўлди? // Тафаккур. 1997. №3. 32–37-бетлар; Сё Енг Чель. О терминах “басмачи” и “басмачество” // Халқ таълими. 2002. №1. 125-128-бетлар; Shu muallif. Босмачилик ҳаракати қандай ўрганилган? // Мулоқот. 2002. №2. 44–45-бетлар; Раджабов К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918–1924 гг.): Автореф. дисс... докт. ист. наук. Ташкент, 2005. 64 с.; Shu muallif. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918–1924 йиллар). Тошкент: Yangi nashr, 2015. 240 б.; Бобоев Ф. Ўзбекистон ССРда Совет тузумига қарши қуролли ҳаракат (1925–1935 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. Тошкент, 2018.

[1933] Зиёева Д. Туркистон мустақиллиги учун кураш масалалари 20-30-йиллар талқинида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1998. №1. 67–73-бетлар; Shu muallif. Туркистон мустақиллиги учун кураш масалалари ҳақидаги ижтимоий-сиёсий қарашлар // Ижтимоий фикр. 1998. № 3. 61–65-бетлар; Shu muallif. Туркистон миллий озодлик ҳаракати (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). Тошкент, 2000. 174 б.; Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). Тошкент: Шарқ, 2001. 448 б.; Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 32 б.; Shu muallif. Туркистон минтақасидаги истиқлолчилик ҳаракати тарихини даврлаштириш масаласи // Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик) Халқаро конференция материаллари. Тошкент, 2001. 126–134-бетлар; Shu muallif. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). Тошкент: Маънавият, 2002. 144 б.

[1934] Нестеренко Ф. Культ личности и политические репрессии//Ўзбекистон тарихи: Янги нигох. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Давра суҳбати материаллари. Тошкент, 1998. 62–71-бетлар; Германов В. Историки Туркестана в условиях политического террора 20-30-х годов. Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 39 б.; Раҳмонқулова А. Совет тузумининг 30–50-йиллардаги қатағонлик сиёсати ва усуллари // O‘zbekiston tarixi. 2000. №1-2. 96–101-бетлар; Хасанов Б. Репрессии против интеллигенции Узбекистана в 20-30-годы и их последствия // O‘zbekiston tarixi. 2000. №1–2. С. 101–109; Shu muallif.

masalasi[1935], qishloq xo'jaligini majburiy jamoalashtirish va uning oqibatlari[1936], Sovet totalitar tuzumi mohiyati va oqibatlari[1937] kabi mavzular ushbu davr tarixini o'rganishdagi yangi yo'nalishlar bo'ldi. Zamonaviy tarix fanida tamomila yangi mavzu, ya'ni o'zbek muhojirligi tarixini o'rganishga qo'l urildi. Ushbu mavzuni yoritishda muhojirlik sabablari va uning bosqichlari, muhojirlarining xorijdagi hayotlari, o'zbek muhojirligining huquqiy maqomi, ularning o'z vatanlari O'zbekiston bilan munosabatlari kabi muammolar tadqiqot doirasiga tortildi[1938].

Ilgari ta'qiq ostida bo'lgan arxiv materiallarini jalb qilish, yangicha yondashuvlar asosida o'z talqinini topgan, ushbu masalalarga oid ko'plab maqola va kollektiv monografiyalar[1939], hujjatlar to'plamlari hamda xrestomatiyalar yaratildi[1940]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning XX asr 20–30-yillari tarixi ancha faol tadqiq qilindi.

---

Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 – начала 50-х годов. Ташкент, 2000. 202 с.; Ишанходжаева З. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания. 1925–1953. Ташкент: Тафаккур, 2011. 288 с.

1935 Гентшке В. Депортация народов в период советского тоталитаризма-гуманитарная катастрофа для общества // ЎзМУ хабарлари. 2000. №4. С. 20–24; Ҳошимова М. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Марказий Осиё республикаларига сургун қилинган халқлар тарихидан // СамДУ Илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2002. №4. 79–83-бетлар; Шамсутдинов Р. Ўзбекистон деҳқонларининг Шимолий Кавказга сургун қилиниши// O'zbekiston tarixi. 2003. №1. 54–61-бетлар.

1936 Аминова Р. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. Ташкент: Фан, 1995. 83 б.; Ниёзова Ф. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини коллективлаштиришнинг салбий оқибатлари //O'zbekiston tarixi. 1999. №4. 39–44-бетлар; Абдуллаева Я. Қорақалпоғистонда Совет ҳокимиятининг мажбурий колхозлаштириш сиёсати ва қишлоқ аҳолисининг қатағон қилиниши//O'zbekiston tarixi. 2002. №2. 40–45-бетлар; Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. Тошкент, 2001; Shu muallif. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). Тошкент, 2003; Shu muallif. Ўзбекистон деҳқонларининг Шимолий Кавказга сургун қилиниши //O'zbekiston tarixi. 2003. №1. 54–60-бетлар; Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи. Тошкент: Sharq, 2012. 367 б.

1937 Алимова Д., Голованов А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 70 б.; Махкамова Н. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. - 30-е годы XX в.). Ташкент: Aloqachi, 2009. 236 б.

1938 Бойко В. Среднеазиатская эмиграция в Афганистане в 20-е – начале 30-х годов XX века // O'zbekiston tarixi. 2004. №3. С. 24–33; Ҳайитов Ш. Иккинчи жаҳон уруши оқибатида муҳожирликка ўтган ўзбеклар // O'zbekiston tarixi. 2005. №2. 15–23-бетлар; Shu muallif. Қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш жараёнида ўзбек муҳожирлигининг вужудга келиши// O'zbekiston tarixi. 2008. №1. 43–55-бетлар; Shu muallif. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917–1991 йиллар). Тошкент, 2008. 208 б.

1939 Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865–1990-йиллар). Тошкент: Шарқ, 2000. 432 б.; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент, 2000. 672 б.; Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. Тошкент, 2001. 464 б.

1940 Репрессия. 1937–1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. Ташкент: Шарқ, 2005. 288 б.; Трагедия Среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929–1955 гг. В трех томах Т.1. 656 б.; Т.2. 496 б.; Т.3. 352 б. Ташкент: Шарқ, 2006.; Ўн саккизлар иши. Дело восемнадцати (Архив ҳужжатларининг изохли тўплами). Тошкент: Akademiya, 2012. 320 б.; Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. (1917–1991 йиллар). 5-жилд (ўзбек ва рус тилларида). Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. 356 б.; Ўзбекистонда XX асрнинг 20–30-йилларидаги сиёсий ва ижтимоий жараёнлар (Архив ҳужжатлари ва бошқа материаллар асосида). Тошкент: Navro'z, 2014. 292 б.; История образования в архивных источниках. Том II. 1917–1991. Ташкент: Yangi nashr, 2015. 490 б.

Tarixchilar o'z izlanishlarini zamonaviy tadqiqot usullarini[1941] (tarixiy informatika, og'zaki tarix) qo'llagan holda amalga oshirishlari tarixiy voqea-hodisalarni yoritishga aniqlik kiritdi.

1950–1980-yillar Sovet davlati tarixida Stalin shaxsini fosh etish, XX s'yezddan keyingi o'zgarishlar, totalitar tuzum zamirida tanazzulga uchragan va turg'unlik holati qaror topgan tarixiy jarayonlarni o'z ichiga olgan davr bo'ldi. Mustaqillik davri tarix fanida mazkur jarayonlarning turli jihatlarini yorituvchi tadqiqotlar amalga oshirildi va uning natijasida bir qator maqolalar, dissertatsiyalar va kitoblar vujudga keldi[1942]. Mavzularning xronologik doirasi, manbaviy asoslari turlicha bo'lishiga qaramay, tadqiqotlarda yangi metodologik yondashuvlar qo'llanilib, bu asosda yangi ilmiy natijalarga erishildi hamda xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotchilarning sovet davri tarixini yangicha mezonlar asosida o'rganishga bo'lgan ilk urinishlari natijasi "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida"[1943] kitobida o'z ifodasini topdi. Mamlakatning yetakchi tarixchi olimlari jamoasi tomonidan yaratilgan ushbu kitobda O'zbekistonning sovet davlati tarkibida, ya'ni 1917-yildan 1991-yilga qadar bo'lgan davri tarixi barcha ziddiyatlari va yutuqlari, ijtimoiy iqtisodiy muammolari hamda mavjud tuzumning inqirozi sabablari yoritildi. Ilgari o'rganilmagan yoki taqiqlangan mavzularning tadqiq qilinishi tom ma'noda Sovet davlatining O'zbekistonda yuritgan siyosati asl mohiyatini ko'rsatib, mazkur davr tarixining yangicha taqdimoti bo'ldi. Respublika sanoati taraqqiyotining bir tomonlama xususiyati, agrar tanglikning keskinlashuvi, paxta yakkahokimligi va uning salbiy oqibatlari, Orol fojiasi, "rivojlangan sotsializm" g'oyasining jamiyat ma'naviy-madaniy hayotiga majburan singdirilishi, "qayta qurish" siyosati sotsializmni isloh qilishga so'nggi urinish bo'lgani va uning samarasizligi, O'zbekiston bilan Markaz o'rtasida ziddiyatlarning keskinlashuvi, mustabid tuzum inqirozi sabablari kabi mavzular yangi manbaviy asosda yoritildi hamda zamonaviy tarix fani yondashuvlari namoyon qilindi.

Bir qator mualliflar tomonidan Sovet davlatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati O'zbekiston hayotida aksi va oqibatlari yangicha mushohada qilindi[1944]. Paxta yakkahokimligining qaror topishi va uning ijtimoiy hamda ma'naviy

---

[1941] Устная история в Узбекистане: теория и практика. Вып.1. Ташкент, 2011. 322 с.

[1942] Зиёева Д. Тарих институтн тадқиқотлари тизимида мустамлака ва совет даври тарихи муаммолари// O'zbekiston tarixi. 2003. №4. 32–44-бетлар; Сабиров А. Т. Узбекистан в 1950–1980-х годах XX века. К актуальности исследования // O'zbekiston tarixi. 2011. №1. С. 41–49.

[1943] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 2000. 688 б.

[1944] Хазраткулов А. Социальные проблемы Узбекистана и пути их решения. Специфика, опыт, перспективы. 1971–1990. Ташкент: Фан, 1992; Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. (70–80-йиллар мисолида). Тошкент: Шарқ, 1999. 158 б.; Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2009. 46 с.; Муминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 й.). Тошкент: Yangi nashr, 2015. 336 б.

jarayonlarga ta'siri[1945], shuningdek, ekologik vaziyat[1946] masalalari tadqiq qilindi.

O'zbekistonda sanoat rivojini o'rganishda yengil va oziq-ovqat sanoati tarixiga alohida e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Mazkur mavzuga doir bir qator dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilib, aholini oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlash tarixi, oziq ovqat sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish, respublikaning janubiy viloyatlari misolida ma'lum xronologik doirada mazkur sohaning, holati va rivoji kabi masalalar yoritildi[1947].

O'zbekiston sanoatining 1945–1991-yillar davomida rivojlanish tarixi I. Haydarov tomonidan o'rganildi[1948]. Katta hajmdagi yangi arxiv ma'lumotlarini ilmiy muomalaga kiritish va tahliliy yondoshuv asosida tadqiqotchi SSSR yagona xalq xo'jaligi kompleksida O'zbekiston sanoatining tutgan o'rnini yoritdi. Kitobda Markazning milliy respublikalarga nisbatan amalga oshirgan iqtisodiy siyosatining bir yoqlama xarakteri O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siri aniq misollarda ko'rsatilgan. Muallif sovet hukumati O'zbekistonni ittifoq ixtisoslashuvida asosiy xom ashyo bazasiga aylantirishga alohida ahamiyat bergani, bu tufayli sanoat korxonalari asosan xom ashyoni qayta ishlashning dastlabki bosqichlariga moslashishi sohaning oldinga qarab rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganligi, iqtisodiyotga ma'muriy buyruqbozlik asosida rahbarlik qilish, barcha sohalar taqdirini Markazda yagona partiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'lab qo'yish ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tanazzulning kuchayishiga, butun iqtisodiy tizimning va siyosiy tuzumning yemirilishiga sabab bo'lganligi haqidagi xulosaga kelgan.

---

[1945] Сарыбаев М. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917–1990 гг.). Ташкент: Изд-во национальной библиотеки Узбекистана имени А. Навои, 2008. 250 с.; Абдуллаев А. Хлопковая монокультура в Узбекистане и ее последствия (1917–1991 г.г.) Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2011. 54 с.; Комилов О. Ўзбекистонда XX асрнинг 50–80-йилларида янги ерларнинг ўзлаштирилиши ва пахта яккаҳокимлигининг янада кучайиши //O'zbekiston tarixi. 2012. №2. 14–24-бетлар.

[1946] Зиёмухаммедов Б. Экология: тарих, назария ва ҳозирги замон. Тошкент: Меҳнат, 1990. 79 б.; Мамашакиров С. Урбанизированная экология или экологизированная урбанизация. Ташкент: Фан, 1991. 157 с.; Давлетов С. Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий маумолари (XX асрнинг иккинчи ярми – XXI аср боши). Тошкент: Фан, 2012. 288 б.

[1947] Раупов Х. Ўзбекистон енгил ва озиқ-овқат саноатининг аҳолини истеъмол моллари билан таъминлаш тарихидан (1945–1965 йиллар): Тарих фанлари номзоди дисс. ... автореферати. Андижон, 1997; Нурматова Н. Подготовка, повышение квалификации и изменения в составе специалистов и рабочих пищевой промышленности Узбекистана в 80-е годы. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Самарканд, 1995; Кабулов Э. История развития легкой и пищевой промышленности в южных областях Узбекистана 1946–1960 гг.: опыт и проблемы.: Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Самарканд, 1994; Худойкулов У. Ўзбекистонда енгил ва озиқ-овқат саноати: ривожланиши, муаммолар ва натижалари (1970–1980 йилларда жанубий вилоятлар мисолида). Тарих фанлари номзоди дисс.... автореферати. Тошкент, 2010. 25 б.

[1948] Ҳайдаров И. Ўзбекистон саноатининг Совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни (1945–1991 йиллар). Тошкент, 2019. 296 б.

Sovet davri madaniyati muammolari[1949], intellektual tarix, xususan mamlakat fani taraqqiyotida Fanlar akademiyasining roli[1950], O'zbekiston ziyolilari, ta'lim tarixi kabi masalalar batafsil va har tomonlama o'rganildi, yangicha bahosini oldi[1951]. Sovet davlatining diniy siyosati[1952], O'zbekistonning xalqaro aloqalar tizimidagi o'rni tadqiq qilindi[1953].

Mamlakat yetakchi olimlarining ko'p yillar davomidagi izlanishlari natijasida yaratilgan ikki kitobdan iborat "Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар)"[1954] fundamental tadqiqot Sovet davri tarixini yangicha talqin qilishda va yoritishda jiddiy qadam bo'ldi. Mazkur fundamental monografiyada katta hajmdagi tarixiy materiallar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Sovet davrining ziddiyatli jarayonlari, bu davrning O'zbekiston va o'zbek xalqi hayotida qanday kechganligi xolis bahosini oldi. Ma'lumki, O'zbekistonning sovet davri tarixini anglashning yangi paradigmalarini o'zlashtirish juda murakkab kechdi. Mazkur tadqiqotning sovet davrida nashr etilgan shunday asarlardan asosiy farqli jihati shundaki, mualliflar jamoasi O'zbekistonning kommunistik tuzum davri

---

[1949] Маврулов А. Ҳозирги босқичда Ўзбекистон маданияти: ҳолати, муаммолар. Тараққиёт йўналишлари (70-йил ўрталари – 90-йиллар): Тарих фан. докт.... дисс. Тошкент, 1993. 40 б.; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития. Ташкент, 1997; Ражапов В. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Тошкент, 2006.; Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. Ташкент: Издательство имени Гафура Гуляма, 2007. 224 с.; Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Тошкент: Наврўз, 2014. 334 б.

[1950] XX асрда Ўзбекистонда маданий ҳаёт тарихидан очерклар: анъаналар, инновациялар ва муаммолар. Тошкент, 2010. 110 б.; Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. Ташкент: Янги нашр, 2012. 224 с.; История и историки Узбекистана в XX столетии. Ташкент: NAVRO'Z, 2014; Историческая наука в контексте интеллектуального развития Центральной Азии. Ташкент, 2014. 367 с.

[1951] Шоимов А. Подготовка и рост научно-педагогических кадров в Узбекистане (1966-1975 гг.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1992.; Толибов Р. Развитие и совершенствование системы среднего специального образования и подготовка кадров специалистов в Узбекистане: опыт и проблемы. (1980-1990 гг.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1993.; Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар. I-китоб. Тошкент: Tafakkur qanoti, 2016; Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар. II-китоб.Тошкент, 2017.

[1952] Мустафаева Н. Ўзбекистонда совет ҳукуматининг диний сиёсати // O'zbekiston tarixi. 2005. №2. 35–43-бетлар; Ганиев Ж. Проблемы историографии религиозных конфессий в Узбекистане (1917–2000 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2008. 30 с.; Абдурасулова Х. Ислам и религиозная политика в Узбекистане в 1940–1980 годы: анализ англо-американской историографии: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 2011. 25 с.; Халилова З. 1945–1991 йилларда Ўзбекистонда ислом диний таълими: ҳолати ва замонавий тарихшунослиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.... автореф. Тошкент, 2019.

[1953] Бабаходжаева Р. Участие Узбекистана в международном культурном сотрудничестве СССР (конец 70-х – начало 90-х годов): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1991. 25 с.; Зунунова Г. Экономическое и культурное сотрудничество Узбекистана и Таджикистана (1976 – 1985 гг.): Автореф. дисс ... канд. ист. наук. Ташкент, 1991. 20 с.; Хайитов Ш. Общественные организации Узбекистана в международных связях страны (70–80-е гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1991. 25 с.; Мирзакулов А. Ўзбекистоннинг халқаро илмий алоқалари (1960-1980 йй.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук Андижан, 1993; Кучаров Ч. Экономические связи Республики Узбекистан со странами Азии (1985 – 1995 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1997. 26 с.

[1954] Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: O'zbekiston, 2019. 560 б.; Ўзбекистон тарихи. (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Тошкент: O'zbekiston, 2019. 576 б.

voqealariga baho berishda har qanday mafkuraviy g'oyalardan xoli ravishda sof ilmiy asosda yondashishga harakat qilganlar. Qolaversa, davrning murakkab voqeligini chetlab o'tmaslikka, ularni faqat tarixiy faktlarga asoslangan holda bayon qilishga alohida ahamiyat berildi. Voqealarni baholashda fikrlar xilma-xilligi e'tiborga olinib, tarix fanining zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Birinchi kitob 1917–1939-yillar tarixiga bag'ishlangan. Ushbu davrning asosiy xususiyati shundaki, hokimiyatga kelgan bolsheviklar insoniyat tarixida miqyosi bo'yicha eng keng, natijalari bo'yicha eng bahsli eksperimentni amalga oshirdi. O'zbekistonda ham ular tomonidan o'tkazilgan islohotlar natijasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan jamiyat shakllandi. Inson resurslarini shafqatsiz ekspluatatsiya qilgan bu totalitar rejim respublikamizda yangi iqtisodni, madaniy taraqqiyotning nisbatan ilg'or shaklini barpo qildi. Ayni paytda, bu davr o'zbek xalqi uchun katta yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Millatning ilg'or ziyoli qatlami ko'plab vakillari, tadbirkor va dehqonlarning bir qismi qatag'on qilindi. Kitobda ushbu murakkab jarayonlarning barchasi tarixiy faktlar misolida o'z aksini topgan.

Ikkinchi kitob 1939–1991-yillar voqealarini o'z ichiga oladi. Bu davrning eng yirik va fojiali voqealari avvalo, Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lib, ularni yoritishda mamlakat va Rossiya arxivlarida saqlanayotgan noyob materiallardan foydalanildi hamda ularning ko'pchiligi ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Kitobdan qatag'onning yangi to'lqini, sovet siyosiy rejimining nisbatan liberallashuvi davri, O'zbekiston tarixining murakkab davri bo'lgan 1964–1983-yillardagi (bir tomondan, o'sha yillari respublikada juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, aholining turmush farovonligi yuksaldi. Boshqa tomondan, paxta yakkahokimligi kuchayib, 1980-yillarda boshlangan «paxta ishi» sovet rejali iqtisodiyoti va umuman sovet tuzumining inqirozini yaqqol aks ettirdi) jarayonlar yoritilgan. 1985-yilda boshlangan qayta qurish siyosati kutilgan natijalarni bermadi. Shu davrda O'zbekiston mustaqillik sari dadil qadamlar tashladi va o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shuningdek, mazkur kitobda Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston tarkibidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari va madaniy hayoti alohida bobda yoritilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Sovet davri tarixini yorituvchi 1990-yillarning o'rtalariga qadar yaratilgan izlanishlarda sovet tarix fani yondoshuvlari kuzatiladi. Bu mavzuning tadqiqotchilar tomonidan vaqt nuqtai-nazaridan sovet davrida o'rganila boshlagani va amalga oshirilgani, ushbu davrni o'rganishda yangicha yondoshuv va konsepsiyalarning shakllanayotgani, bir so'z bilan aytganda fanning qadriyatlar tizimi belgilanayotgani bilan izohlanadi.

Yana shuni qayd etish mumkinki, 1990-yillarning boshlarida, tarixchilarda vujudga kelgan yangi tarixiy sharoitda eyforiyaga tushish, hissiyotlar ortidan tarixning oq dog'larini tamomila qora bo'yoqlarga bo'yash

holatlari ham bo'ldi. Bu asosan sovet davriga doir yaratilgan publitsistik maqolalarda aks etdi.

Sovet davri tarixini o'rganish 1990-yillar metodologik va ilmiy plyuralizm hamda vatan tarixini yangicha mushohada qilishning muhim sharti manbaviy asosning yangilanishi bilan tavsiflanadi. 2000-yillarga kelib, tarixchilar muammoni o'rganishda yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqishdan Sovet davri tarixini konseptual mushohada qilishga o'tdilar.

Yana shuni qayd etish mumkinki, yaqin vaqtlarga qadar sovet davri tarixi masalalarini yoritishda faqat salbiy jihatlarni ko'rsatish tendensiyasi mavjud edi. Katta hajmdagi materiallarning borligiga qaramay, tadqiqotlar bir yoqlama yondashuvlarni namoyon qildi. So'nggi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda bunday yondashuvlardan voz kechilayotgani ko'zga tashlanadi. Tarix fanida O'zbekistonning sovet davri tarixidagi ijobiy va salbiy jarayonlarni xolis baholash tendensiyasi qaror topmoqda.

O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq qilish tarix fanida yangi ilmiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. Bu bevosita milliy mustaqil davlatning tashkil topishi bilan vujudga kelib, zamonaviy tarixiy jarayonlarning rivojini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy tajribani umumlashtirish va bu orqali milliy o'zlikni anglashga yo'naltirilgandir[1955]. "O'zbekistonning eng yangi tarixi hozircha institutsional xarakter kasb etgan emas, yoinki o'z metodologiyasi, tadqiqotchilik ishlari va o'quv-uslubiy ta'minotiga ega bo'lgan mustaqil fan sohasiga ajratilmagan. So'nggi yillar davomida mamlakatimiz hayotida ro'y bergan voqealar ko'lami va rivoji fan va ta'lim oldiga ularni tizimli mushohada qilish masalasini ilgari surmoqda"[1956].

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, Birinchi Prezident I. A. Karimovning nazariy-konseptual asarlari va nutqlari muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlar umumiy yaxlit bir tarzda O'zbekistonning o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining o'ziga xos "doktrinasi"ni taqdim qilishi bilan O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratishda asosiy va muhim manbadir. I. A. Karimovning asarlarida O'zbekiston jamiyatining kelajak sari bosqichma-bosqich evolyusion ilgarilashining ustivor yo'nalishlari va vazifalari bilan bir qatorda, xalqning haqqoniy, bugungi tarixi, armonu-umidlari, yorqin istiqbol haqidagi orzulari hamda pragmatik intilishlari o'z aksini topgan. Prezident I. Karimovning asarlari *bir tomondan,* mustaqillik yillarida amalga oshgan o'zgarishlarning mohiyati va miqyosini har tomonlama, to'laqonli baholash imkonini bersa, *boshqa tomondan,* Vatan ilmiy-tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojining mohiyati, xarakteri darajasini

[1955] Асадова Ш. И. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи ижтимоий фанлар ривожи контекстида // Ўзбекистоннинг энг янги тарихидан очерклар: методология, тарихшунослик ва манбашунослик масалалари. Тошкент, 2014. 6–14-бетлар.

[1956] Рахимов М., Турсунова Р. Новейшая история Узбекистана: Учебное пособие. Ташкент: УМЭД, 2014. С. 10.

belgilovchi doktrinal-konseptual va mafkuraviy ko‘rsatmalarning evolyusiyasi va sifat xarakteristikasini kuzatish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutq va chiqishlari, asarlarida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi muammolari va vazifalari, istiqbolining taraqqiyotiga doir aytgan fikrlari O‘zbekistonning zamonaviy tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi[1957].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev doimiy ravishda rasmiy marosimlarda milliy tariximiz va uning ahamiyati yuzasidan ko‘plab fikrlar bildirib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Mustaqillik kuni Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo‘lib qoladi. Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimiing e’tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas” deb, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlar ahamiyatini ta’kidladi[1958].

O‘zbekistonning yangilanish va mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ilgarilab borishdagi tarixiy tajribasini tizimli o‘rganish, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, yangicha tafakkur va mushohadaga ega bo‘lgan tarixchi kadrlarni yetishtirish zaruratidan kelib chiqib O‘zR FA Prezidiumining qaroriga asosan 1996-yil martda Tarix instituti tarkibida yangi “O‘zbekistonning mustaqillik davri tarixi” bo‘limi tashkil etildi. (Hozirda mazkur bo‘lim “O‘zbekistonning xalqaro munosabatlari va zamonaviy tarixi” deb nomlanadi). Ushbu bo‘limning vazifalari “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish haqida”gi[1959] Qaroridan keyin yanada ravshanlashdi. Mazkur Qarorda ta’kidlangan “suveren O‘zbekistonni tizimli modernizatsiyalashning yaxlit tarixiy manzarasini yaratish zarurati” bo‘lim tadqiqotlari ilmiy yo‘nalishini belgilab berdi[1960].

---

[1957] Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Тошкент: O‘zbekiston, 2016; O‘sha muallif. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Тошкент: O‘zbekiston, 2017; O‘sha muallif. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Тошкент: O‘zbekiston, 2017; O‘sha muallif. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Тошкент: O‘zbekiston, 2017.

[1958] https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qoyilmoqda (Фойдаланилган сана: 12.06.2020)

[1959] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори ...

[1960] Нуриддинов Э., Голованов А. Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихини ўрганиш// O‘zbekiston tarixi. 2003. № 4. 45–49-бетлар.

Mamlakatimiz tarixchilarining O‘zbekistonning mustaqillik davri tarixiga doir izlanishlari natijalari ko‘plab maqolalar[1961], risolalar[1962] va monografik tadqiqotlarda[1963] o‘z ifodasini topdi.

Ilmiy jarayonni tashkil etishda dissertatsion tadqiqotlar ilmiy bilimlar rivojining ko‘rsatkichi ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, mustaqillik yillarida O‘zbekistonning eng tarixiga oid ilmiy bilimlarning to‘planishi va rivoji himoya qilingan dissertatsiyalarda o‘z ifodasini topdi[1964].

Mustaqillik tarixining turli jihatlari doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining mavzulari bo‘ldi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘rsatilgan yillarda O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari nisbatida O‘zbekistonning mustaqillik davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar unchalik ko‘p emas[1965].

O‘zbekiston jamiyati hayotida kechayotgan demokratik o‘zgarishlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish vositalari, ko‘ppartiyaviylik tizimining

---

[1961] Даврий матбуот ва илмий тўпламлардан жой олган илмий мақолалар назарда тутилмоқда.

[1962] Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. Даврий тўплам № 3. Тошкент: Шарқ, 2000. 222 б.; Мустақил Ўзбекистон тараққиётининг ғоявий асослари. Тошкент: Шарқ, 2001.192 б.; Азизхўжаев А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. Тошкент: Академия, 2001. 112 б.; Особенности социально-демографических процессов в конце XX – начале XXI века в Узбекистане / Россия-Узбекистан: история и современность. Спецвыпуск. М., 2008.

[1963] Мустақил Ўзбекистон тарихи. Учинчи китоб. Тошкент: Шарқ, 2000. 560 б.; Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Ташкент: Чўлпон, 2002. 216 с.; Бабаходжаев М. Суверенный Узбекистан вопросы внутренней и внешнеэкономической политики. Ташкент: ТГИВ, 2004. 336 с.; Эргашева М. Время расцвета. Деловая активность женщин как одна из составных частей дальнейшего развития Узбекистана. Ташкент, 2004. 168 с.; Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар. Тошкент, 2009. 176 б.; История становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. Ташкент, 2011. 173 с.; Этнокультурные процессы в современном полиэтническом городе. (на материалах Ташкента). Ташкент, 2011. 168 с.; Рахимов. М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. Ташкент, 2011. 230 с.; Назаров Р.Р. Полиэтнический социум Узбекистана (историко-социологический аспект). Ташкент: Ижтимоий фикр, 2014. 144 с.; Стратификационные процессы общества Узбекистана в контексте исторических процессов. Ташкент: Навруз, 2014. 275 с.; Рахимов М., Турсунова Р. Новейшая история Узбекистана. Учебное пособие. Ташкент: УМЭД, 2014. 295 с.; Новейшая история Узбекистана. Учебник для ВУЗов. Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2018. 512 с.; Новейшая история Центральной Азии. Проблемы теории и методологии. М.: ИВ РАН, 2018.

[1964] Асадова Ш. И. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи ижтимоий фанлар ривожи контекстида ... 6-14-бетлар.

[1965] Маврулов А. Культура Узбекистана на современном этапе: общее состояние, проблемы, тенденции развития (середина 70-х – 90 гг.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 1993; Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е-90-е гг.: проблемы и тенденции: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 1996; Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Узбекистана со странами Европы в условиях независимости: становление, развитие, проблемы: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2000; Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2004; Бабаходжаева Л. Основные тенденции и направления международного культурно-гуманитарного сотрудничества Республики Узбекистан (период независимости): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2011; Рахимов М. Сотрудничество Узбекистана с зарубежными странами и международными организациями в обеспечении стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии (1991–2012 годы): Автореф. дисс... докт. ист. наук. Ташкент, 2012; Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991–2000 гг.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2012.

vujudga kelishi va rivojlanishi kabi mavzular tarixchilar tomonidan o'rganila boshlandi[1966].

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar Respublika viloyatlari va shaharlari misolida tadqiq etildi[1967].

Zamonaviy tarix fanida O'zbekiston aholisining milliy xususiyatlari va demografik rivojlanishi jarayonlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etdi[1968]. Tarixiy o'zgarishlarning demografik jarayonlarga ta'siri hamda ularning turli jihatlarini tahlil etish mamlakatda amalga oshirilayotgan kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, islohotlarning ijtimoiy samarasini oshirishga qaratildi.

Tarixchilar tadqiqot ob'yekti bo'lgan ma'lum hududni mustaqillik yillaridagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatini o'rganish orqali iqtisodiy, agrar, madaniy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini

---

[1966] Умарова Г. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг шаклланиши ва такомиллаштириш тарихи (1991–2002 ): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2002; Расулова Н. С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991–2008 йиллар): Тарих фан. номз. дисс.… автореф. Тошкент, 2010; Дехканов Н. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари фаолиятини такомиллаштиришнинг тарихий тажрибаси (1995–2010 йй.): Тарих фан. номз. дисс.… автореф. Тошкент, 2012.

[1967] Каршиев Р. М. Экономическое и социально-культурное развитие г. Навои: опыты и проблемы (1958–1990 годы): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1996; Рахматуллаев Ш. Социально-экономические преобразования в городах Ферганской долины в условиях независимости (1991–1996 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2000; Ваисов О. Мустақиллик йиларида Хоразм вилояти ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар (1991–2001 йиллар): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Урганч, 2002; Муродов Х. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида Наманган вилояти ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар: Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Урганч, 2002; Неъматова М. Мустақиллик шароитида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (Тошкент ш. ва Тошкент, Сирдарё ва Жиззах вилоятлари мисолида 1991-2001 йиллар): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2002; Хўшбоқов П. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2007; Ҳайдаров З. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2007; Раҳимов Б. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991–2005 йй.): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2008; Тилаев Э. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2010; Шихов О. О. Мустақиллик шароитида қуйи Амударё ҳудудидаги ижтимоий-иқтисодий аҳвол (1991–2001 йй.): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2010; Аминова А. Исторический анализ экономических преобразований в Навоийской области (1991–2007 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2012; Ўроқова Н. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидагиислоҳотлар ва ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент: ЎМУ, 2004; Темирова Ч. Ўзбекистон қишлоқлари ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аспектлари: ҳолати ва муаммолар (Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари мисолида 1991-2008 йй.): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2011; Абриев Р. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий- меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.... автореф. Тошкент, 2018; Нарзуллаев У. Республикаси Навоий вилояти замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2019.

[1968] Давлатов С. XX асрнинг сўнгги чорагида қуйи Амударё ҳудудида ижтимоий-экологик вазият ва демографик жараёнлар: Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2003; Исаков Б. Ўзбекистонда 80-йилларнинг иккинчи ярми - 2000 йиллардаги тарихий ўзгаришларнинг демографик жараёнларга таъсири. Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2011; Хаджамуратова М. Фарғона водийсининг демографик тарихи (1991-2006 йй.): Тарих фан. номз. дисс.… автореф. Тошкент, 2011.

yoritdilar. Mazkur tadqiqotlarning davriy chegarasi, manbaviy asoslari turlicha bo‘lishiga qaramay, ushbu izlanishlarning umumlashmasi mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiy ijtimoiy va madaniy jarayonlarini yaxlit bir manzarasini shakllantirishda muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari qaror topib, tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotgan mustaqillik sharoitida an’anaviy hunarmandchilik sohasini qayta tiklash, uni milliy asosda yangidan rivojlantirish jarayonlarini o‘rganish tarixchilarning tadqiqot ob’yektiga aylandi[1969].

Mustaqillik davri ijtimoiy jarayonlari turli jihatlarini ma’lum xronologik doirada o‘rgangan tadqiqotlar vujudga keldi[1970].

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li ta’lim tizimini isloh qilishni taqozo qildi. Bu sohada O‘zbekiston o‘z milliy strategiyasini ishlab chiqib, ta’lim tizimini isloh qilishning o‘ziga xos yo‘lidan bordi. Ta’lim tizimidagi islohotlar jarayoni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ishlab chiqilishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi natijasida ta’limning uzluksizligi, umumta’lim va professional ta’limning chuqurlashib borishini yorituvchi, shuningdek O‘zbekistonda ilm-fan rivojlanishi holati va taraqqiyot yo‘nalishlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirildi[1971].

O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida millliy ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi,[1972] shuningdek madaniyat rivojining turli jihatlarini yorituvchi tadqiqotlar vujudga keldi[1973].

---

[1969] Қличов У. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчиликнинг ривожланиши (1991-2006 йй.): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент: ЎМУ, 2010; Ҳайдаров Ғ. М. Ўзбекистонда миллий анъанавий санъатнинг совет ва мустақиллик даврида ривожланиш тарихи (Фарғона водийси ҳунармандчилиги мисолида.): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2011.

[1970] Иноятова Д. Мустақил Ўзбекистоннинг касаба уюшмалари (1991-1996): Тарих фан. ном. дисс. … автореф. Тошкент, 1999; Мусаев О. Ўзбекистон Республикасида миллатлараро муносабатлар (1991–1997): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2000; Ўринова Б. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнларни ёритишда вақтли матбуотнинг роли (1991-2000 йй.): Тарих фан. ном. дисс. … автореф. Тошкент, 2002; Розимова Ё. Ўзбекистонда урбанизация жарёнлари (Хоразм вилояти ва Қорақалпоғистон Республикаси мисолида. 1991–2007 йй.): Тарих фан. номз. дисс.… автореф. Тошкент, 2010; Ёрматов Ф. Ж. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истиқболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2010.

[1971] Кувватов Н. Подготовка и воспитание педагогических кадров в Узбекистане: опыт и проблемы (1980–1990 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 1994; Ҳатамов Т. А. Ўзбекистон умумтаълим мактаблари таълим тизимида: муаммолар, ечими ва истиқболи (1991-2009 йиллар): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2010; Бахронов Д. Развитие профессионально-технического образования в Узбекистане (1980–1995 гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1995; Сиддиқов Р. Совет тоталитаризми даврида ва мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ўрта махсус касб-ҳунар таълими (1940-2000 йй.): Тарих фан. ном. дисс. … автореф. Тошкент, 2002; Ғозиев А. Ўзбекистон республикасида кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг амалга оширилиши (Фарғона водийси вилоятлари академик лицейлари ва касб-ҳунар коллежлари мисолида): Тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2007; Васиева Д. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда университет таълимининг шаклланиши ва ривожланиши: тажриба ва муаммолар (1991–2001 йй.) Тарих фан. номз. дисс.… автореф. Тошкент, 2008; Жаҳонгиров Б. Ўзбекистонда илм-фан ривожланиши ҳолати ва тараққиёт йўналишлари (1985–2012 йиллар): Тарих фан. номз. дисс. … автореф. Тошкент, 2012.

[1972] Хабибуллаева Д. Возрождение национальных и общечеловеческих ценностей в Узбекистане (1985-1994 гг.): Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Ташкент, 1995; Тожибоев М. Ўзбекистон мустақиллиги

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyati jamiyatning katta qismini tashkil etgan ayollar faolligiga bog'liq ekanligi O'zbekistonda xotin-qizlar masalasida yangicha yondoshuvlar, muammolar yechimini izlash zaruriyatini taqozo qilganligi G. G'aniyevaning tadqiqotida o'rganildi[1974].

Mustaqil O'zbekistonda yoshlarga oid siyosatning ahamiyati va ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, milliy mustaqillik sharoitida talaba yoshlarda axloqiy qadriyatlarining shakllanishi tadqiq qilindi[1975] .

O'zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni nomzodlik dissertatsiyalari mavzulari orasida eng faol o'rganilgan muammolardan bo'ldi[1976]. O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi

---

шароитида миллий маънавий қадриятларнинг тикланиши ва ривожланиши: Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2001.

[1973] Сайфуллаев Н. Современное состояние культуры Узбекистана и перспективы ее развития (1991-1998 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2002; Акбаров Қ. Ўзбекистоннинг XX аср сўнгги чорагидаги маданияти (Фарғона водийси мисолида): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2008; Алихонов М. Деятельность творческой интеллигенции Узбекистана в период обретения независимости и ее укрепления (1985–2000 годы.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2007; Абдуллаева З. История формирования и развития физической культуры и спорта в Узбекистане (1991–2006 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2009; Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналмилаллик (1970-2000 йиллар): Тарих фан. номз. дисс. ... автореф. Тошкент, 2011; Джалилов О. Историко-культурный туризм в Узбекистане: проблемы и перспективы развития (1991–2010 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук.Ташкент, 2011; Юсупалиева Д. История книгоздательского дела в Узбекистане: 1972–2011-е годы: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2012.

[1974] Ганиева Г. Женский вопрос в Узбекистане: новые подходы. Проблемы и решения (1991–2005 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2006.

[1975] Гуламова Д. История формирования нравственных ценностей студенческой молодежи Узбекистана в период независимости: автореф. Дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2008; Топилдиев О. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991–2008 йй.): тарих фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 2011.

[1976] Пулатова С. Развитие международных культурных связей независимого узбекистана и их значение как фактора укрепления его стабильности: автореф. дисс. ... канд. ист. наук.Ташкент, 1994; Азизов С. Из истории научно-культурных и экономических связей узбекистана с японией (конец 1920-х – начало 1990 годов.): автореф. дисс. ... канд. кст. наук.Ташкент, 1994; Кучаров Ч. Экономические связи республики Узбекистана со странами Азии (1985–1995 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1997; Холлиев А. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана с Великобританией и США: автореф. дисс.... канд. ист. наук.Ташкент, 1998; Сун Дон Ги. Становление и перспективы культурных связей Республики Узбекистан и Южной Кореи. (1991–1998 гг.) автореф. дисс.... канд. ист. наук.Ташкент, 2000; Бекмуратов Х. Ўзбекистоннинг Туркия билан иқтисодий ва маданий ҳамкорлиги (1991–2000 йй.): тарих фан. ном. дисс.... автореф. Тошкент, 2001; Зиямов Н. Роль Узбекистана в развитии межгосударственного, экономического сотрудничества стран Центральной Азии (1991–2001 гг.) автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2002; Махкамова Д. Узбекистан в системе международных культурных связей (особенности и закономерности исторического развития): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2006; Султанов А. История сотрудничества Узбекистана со странами Европы в гуманитарной сфере. (1991-2001 гг.) (на примере Австрии, Германии, Швейцарии): автореф. дисс. .. канд. ист. наук. Ташкент, 2006; Асадова Р. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры: исторические основы и современное состояние (1991–2001 гг.): автореф. дисс....канд. ист. наук. Ташкент, 2007; Матхолиқов Қ. Ўзбекистон Республикаси ва Европанинг франкофон давлатлари ўртасидаги маданий алоқалар тарихи (Франция, Швейцария ва Бельгия мисолида (1991–2005 йй.): Тарих фан. ном....дисс. автореф. Тошкент, 2008; Атажанова С. Научно-техническое и культурное сотрудничество Республики Узбекистан с Казахстаном и Кыргызстаном: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2009; Ташматова К. Экономическое и культурное сотрудничество Узбекистана и других государств Центральной Азии с Китайской Народной Республикой (1991–2011 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук.

o‘rganish[1977] O‘zbekistonning sovet davri hamda mustaqillik yillaridagi tashqi aloqalari tarixini qiyosiy taxlil etish orqali ushbu soha rivojida muhim o‘rin tutgan omillarni aniqlash va tarixiy jarayonlarni umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekistonning o‘rni muammosi bir qator nomzodlik dissertatsiyalarida tadqiq qilindi[1978]. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish yo‘lida yosh mustaqil respublikaning mintaqadagi barqarorlikni ta’minlashda jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini har tomonlama qamrab olinishiga va ilmiy jihatdan yoritilishiga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan dissertatsion tadqiqotlar tahlili O‘zbekistonning eng tarixini o‘rganishda tizimli yondashuvning shakllantirilishi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohadagi tub o‘zgarishlarni tadqiq qilishda har bir jarayon xususiyatidan kelib chiqib, ma’lum xronologik ramkalarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘lishini ko‘rsatdi. Mazkur tadqiqotlar, ularda mujassamlashgan manbaviy ma’lumotlarni tanqidiy va tahliliy o‘rganish O‘zbekistonning engi tarixini yaxlit manzarasini yaratishga xizmat qiladi.

### O‘zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlarining amalga oshirilishi

Tarixshunoslik fani o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab «tarixiy-ilmiy organizmning” barometri hisoblanadi. Tarix fani holatini tahlil qilish, muammolar doirasini aniqlash va istiqboldagi vazifalarni belgilashda tarixshunoslik tadqiqotlarining ahamiyati nihoyatda muhimligini yuqorida ta’kidlagan edik. Tarixshunoslik ramziy ma’noda professional tarixiy bilimlar, tarix fani sohasida bilish jarayonini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan, qolaversa, ilmiy mushohadaning haqqoniyligini ko‘rsatuvchi “lakmus qog‘ozi”,

---

Ташкент, 2011; Гафуров Н. О. Ўзбекистон Республикасининг Хитой Халк Республикаси билан иқтисодий, илмий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлиги (1991–2001 йиллар): тарих фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 2011; Мирзаев Ғ. Ўзбекистон республикаси ва Туркманистон ҳамкорлик алоқаларининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореферати. Тошкент, 2018.

[1977] Жўраев Р. Ўзбекистон халқ дипломатиясининг халқаро муносабатлардаги роли: Тарих фан. ном. дисс. ...автореф. Тошкент, 1999; Раҳимбаева Д. Ўзбекистонда дипломатия хизматининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи (1944–2001 йиллар) (Ташқи ишлар вазирлиги мисолида): Тарих фан. ном. дисс... автореф. Тошкент, 2007.

[1978] Рахимов М. Сотрудничество Республики Узбекистан со специализированными учреждениями ООН (1991-1999 гг.) (на примере ЮНЕСКО): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 2000; Худойкулова Л. Интеграция Узбекистана в мировое сообщество на примере сотрудничества с Европейским союзом (1991-1999 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2002; Исматуллаев Ф. Ўзбекистон Республикасининг Европа иттифоқи билан ҳамкорлигининг ўрнатилиши ва ривожланиши (1991–2005 йиллар): Тарих фан. номз. дисс... автореф. Тошкент, 2011; Ҳайдаралиев Ш. Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991–2010 йиллар): Тарих фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 2012; Абдимўминов О. Ўзбекистон Республикасининг Бирлашган Миллатлар ташкилоти билан муносабатлар тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2018.

tarixchilarning g‘oyalari va nuqtai nazarlari o‘rtasidagi arbitrdir. Zamonaviy tarix fanida O‘zbekiston tarixini qayta mushohada qilish, fan rivojini o‘rganishning konseptual yangilanishi va tadqiqotchilik muammolarini dolzarblashuvida tarixshunoslik muhim o‘rin tutadi[1979].

O‘zbekistonda tarixshunoslik sohasi rivojiga qisqacha nazar tashlaydigan bo‘lsak *birinchidan*, u yoki bu mavzuviy yoki xronologik ilmiy axborot hajmi umumlashtirilgan materiallar, tarixshunoslik planidagi ilk nashrlar 1920–1930-yillarda vujudga kelgan edi[1980]. Shundan so‘ng 1940–1950-yillarda respublikada ilmiy tarixiy bilimlar rivojini ko‘rsatuvchi umumlashtiruvchi mazmundagi ishlar chop etildi[1981].

*Ikkinchidan*, tarixshunoslik haqida ilmiy tarixiy tadqiqotlar va tarix fani rivoji haqidagi ilmiy bilimlar tizimi sifatida fikr yuritadigan bo‘lsak, vatan tarixshunosligi rivoji kontekstida 1950-yillarning oxiri – 1960-yillarni “tizimli epizodik” rivojlanish davri, deb shartli ravishda xarakterlash mumkin. Gap shundaki ushbu davrda tarixshunoslik yordamchi funksiyalarni bajaruvchi “mavqega” ega bo‘lib, uning uning predmeti atrofida SSSR ilmiy tarixiy doiralarida qizg‘in bahslar olib borilayotgan edi[1982]. Mazkur anjumanlar tarixshunoslikning tarixiy bilimlar tizimida o‘z ob’yekti va predmetiga, funksiyalari va vazifalariga ega bo‘lgan maxsus sohaga aylanishida muhim omil bo‘lib, tarixshunoslik tadqiqotlarining sifatida ham aks etdi[1983].

*Uchinchidan*, 1968-yilda FA Tarix institutida “Tarixshunoslik” bo‘limining tashkil topishi O‘zbekistonda tarixshunoslikning mustaqil soha sifatida rivojlanishida muhim rol o‘ynaganligini alohida ta’kidlash kerakdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tarixshunoslik sohasidagi tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda rahbarlik qilayotgan – O‘zR Fanlar akademiyasi Tarix

---

[1979] Bu haqida qarang: Асадова Ш. И. Ўзбекистонда тарихшунослик тадқиқотлари ҳолати масаласига доир (1991–2000 йй.) / Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари материаллари. I – қисм. Тошкент. 2006. 76–84-бетлар;

[1980] Гуревич А. О положении на историческом фронте Средней Азии / Революция и культура в Средней Азии: Сб. ст. Ташкент, 1934. С. 4–13; Наука в Узбекистане за XV лет (1924–1939 гг.): Сб. ст. Ташкент, 1939. 200 с.; Алексеева Г., Желтова Г. Становление и развитие советской системы научно-исторических учреждений (20–30-е годы). Ташкент: Фан, 1977. 136 с.

[1981] Толстов С., Шишкин В. Историческая наука в Узбекистане //25 лет советской науки в Узбекистане (1917–1942 гг.). Ташкент: УзФан, 1942. С. 60–80; Набиев Р. О некоторых итогах развития исторической науки Узбекистана // Известия АН УзССР. Серия общественных наук. 1949. № 1. С. 3–15; Турсунов Х. Некоторые задачи исторической науки в Узбекистане // Shu joyda. 1954. № 1. С. 12–17.; Желтова Г., Макатаев А. Развитие исторической науки в Узбекистане // Проблемы истории республик Средней Азии и Казахстана в 40-50-е годы: Сб. научн. тр. Ташкент: Фан, 1989. С. 73-79.

[1982] Историография истории СССР с древнейших времен до Великой Октябрьской социалистической революции / Под ред. В. Иллерицкого, И. Кудрявцева. М.: Мысль, 1971. 340 с.; Поликарпов В. «Новое направление» 50-70-х гг.: Последняя дискуссия советских историков // Советская историография. М.: Интекс-РО, 1996. С. 20-35.

[1983] Аминова Р., Ахунова М., Бабаходжаев А., Гулямов Я. Развитие исторической науки в Узбекистане в свете решений XXIII съезда КПСС // ОНУ.1966. № 6. С. 3–10; Ахунова М. Состояние и перспективы развития исторических исследований в Узбекиста / История СССР. 1972. № 11–12. С. 12–20.

instituti "Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari" markazi (2020-yildan) rolini alohida e'tirof kerak[1984].

Shuni ta'kidlash joizki, "O'zbekiston tarixshunosligining zamonaviy modeli" ma'lum ma'noda jahon metodologik tafakkuriga tayanadi va hech bir shubhasiz tarixchi va tarixshunoslar o'z ilmiy-tadqiqotchilik amaliyotlarida bu ijobiy tajribadan foydalanadilar. Bu ma'noda O'zbekistonda tarixshunoslik sohasida ma'lum tadqiqotchilik tajribasi to'plangan. O'zbekistonda hech mubolag'asiz tarixshunoslik sohasi tamal toshini qo'ygan yirik olim, tarix ilmining bilimdon mutaxassislari B. V. Lunin, G. I. Jeltova va F. H. Qosimovlarning xizmatlarini e'tirof etish o'rinli bo'ladi.

Haqiqatda ham Vatan tarix fani tarixiga tarixchi, sharqshunos, arxeolog va etnograflar, O'rta Osiyo, shu jumladan, o'zbek xalqi madaniyati va tarixi bilimdoni nuqtai nazaridan birinchi marta o'z mutaxassislik nigohini B. V. Lunin[1985] qaratganligini tan olmay bo'lmaydi. Shuningdek, O'zbekistonda 1970-yillarda, birinchi marta muammo tarixshunosligini F. Qosimov[1986] va G. Jeltovalar[1987] "ochganliklarini" ta'kidlash kerak. Aynan shu olimlarning xizmati tufayli O'zbekiston tarixshunoslarining keyingi avlodi tarbiya topdi, Vatan tarixshunosligi maktabi shakllandi. Bu yo'nalishdagi tizimli ish to'g'risida shuni ta'kidlash o'rinliki, aynan mazkur davrdan boshlab nafaqat umumlashtiruvchi, tahliliy-tanqidiy mazmundagi kapital asarlar, tarix fani holati yoritilgan ishlar chop etila boshladi[1988]. 1970–1980-yillarda muammo

---

[1984] Алимова Д., Лунин Б. Историография в системе Академии наук Республики Узбекистан (1943– 1993) // ОНУ. 1993. № 8. С. 70–78.; Алимова Д., Лунин Б. Работы историографов Республики Узбекистан // Отечественная история. Москва, 1997. № 2. С. 136–138; Германов В., Махкамова Н. Историографические исследования в Институте истории Академии наук Республики Узбекистан// O'zbekiston tarixi. 2002. №4. С. 49–61; Алимова Д., Зияева Д. Развитие исторической науки в системе АН РУз // ОНУ. 2004. №1. С. 15–21.

[1985] Лунин Б. В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане: Туркестанский кружок любителей археологии (1895–1917 гг.) Ташкент, 1958; Shu muallif. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность: Конец XIX – начало XX вв. Ташкент: АН УзССР, 1962; Shu muallif. Из истории первого высшего востоковедного учебного заведения в Средней Азии / Очерки по истории русского востоковедения. М., 1963. Сб. VI. С. 302–346; Shu muallif. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент: Наука, 1965; Shu muallif. Историография общественных наук в Узбекистане: Биобиблиографический очерк. Ташкент: Фан, 1974; Shu muallif. Биобиблиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана: В 2-х тт. Ташкент: Фан, 1976–1977. Тт. 1–2; Shu muallif. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения: Историографический очерк. Ташкент: Фан, 1979 ва бошқалар.

[1986] Касымов Ф. Х. Переход народов Средней Азии к социализму, минуя капитализм. Ташкент: Фан, 1979; Shu muallif. Минуя капитализм: Советская историография перехода народов Средней Азии к социализму. М.: Наука, 1980.

[1987] Желтова Г. И. Социалистическое строительство в Узбекистане (20–30-е годы): Историографический очерк. Ташкент: Фан, 1975; Shu muallif. Историография социалистического и коммунистического строительства Советского Узбекистана (1930–1970-е годы). Ташкент: Фан, 1981.

[1988] Ахунова М., Лунин Б. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. Ташкент, 1970; Аминова Р., Ахунова М., Лунин Б. Историческая наука в Узбекистане от XXIV к XXVII съезду КПСС. Историографический очерк. Ташкент, 1987.

tarixshunosligi rivojlana borib, ushbu sohada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi, dissertatsiyalar himoya qilindi[1989] va ko‘plab maqolalar e’lon qilindi.

Ma’lumki, O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi tarix fani vazifalari va mohiyatini tubdan o‘zgartirdi. Shunga ko‘ra, tarixshunoslik va tarixshunoslar ham yangi jamiyat talablari va mezonlari asosida o‘z oldida turgan vazifalarni qayta ko‘rib chiqib, bu jamiyat tafakkuriga mos keladigan tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga kirishdilar va o‘tgan yillar davomida ma’lum natijalarga erishdilar[1990].

Mustaqillik yillarida tarixshunoslik sohasi dinamik ravishda, ma’lum darajada maqsadli rivojlanib bordi. Ushbu kontekstda muammo tarixshunosligi holati va xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, uning rivojidagi asosiy tendensiyalardan biri mazkur yo‘nalishdagi tarixshunoslar va ilmiy maktabning shakllanishi bo‘ldi[1991]. Bu ilmiy maktabning yangiligi shunda bo‘ldiki, tadqiqotchi o‘zini qiziqtirayotgan mavzuga oid tarixshunoslik manbalarini o‘rganish bilan cheklanmay, tadqiq qilinayotgan mavzu doirasida “tarixshunoslik jarayoni” tushunchasini tashkil qiladigan masalalarni ham ko‘rib chiqishni qamrab oldi.

Tarixshunoslar ushbu tushunchaga “ilmiy tadqiqotlarni tashkil etilishini”, konkret tarixiy muammoga oid nazariy tasavvurlar tahlilini mujassamlashtirib, manbaviy asosidagi, tarixiy tadqiqot usullaridagi o‘zgarishlarni, tarixiy profildagi ilmiy muassasalar faoliyati xususiyatlarini, tarix fani rivojining har bir bosqichida kadrlar salohiyatining shakllanishini ko‘rsatishga urindilar[1992]. Bu o‘rinda professor D. A. Alimovaning “Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы” mualliflik monografiyasini alohida ta’kidlash kerakdir[1993]. Ushbu asar olimaning O‘zbekiston tarix fani holati tahlili, muammolari, ularning yechimiga oid qarashlari ifodasi va tarix fani rivojining nazariy-metodologik jihatlariga doir mulohazalarini taqdim qilgan teran tadqiqot bo‘lib, tarixchi mutaxassislar ilmiy faoliyatini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

---

1989 Алимова Д. Историография решения женского вопроса в Узбекистане. (1917 – 1941 гг.): Автореф. дисс. ... на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1980. 30 с.

1990 Алимова Д. История как история, история как наука: История и историческое сознание. Ташкент: Узбекистон, 2008. Т. 1. 280 с.

1991 Bu haqida qarang: Асадова Ш. И. Муаммовий тарихшунослик масалалари: тажриба ва ривожланиш истиқболлари // Тарихшунослик ўқишлари. Материаллар тўплами. Тошкент, 2011. 113–123-бетлар.

1992 Макатаев А. Организация исторической науки Узбекистана (1970-1980 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1990; Сагатова М. Историческая наука в Узбекистане в 20-30-е годы. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1993; Иноятов К. Х. Историографические исследования в Узбекистане: Итоги, проблемы, перспективы (1961-1980 гг.): Автореф. дисс.... докт. ист. наук. Ташкент, 1994; Халикова Р. Развитие высшего исторического образования и науки в Узбекистане (На примере исторического факультета ТашГУ. 1935–1994): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1995; Курбанова З. Становление и развитие этнографической науки в Каракалпакстане (1920–2000 гг.): Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Нукус, 2002; Дониёров А. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2003.

1993 Алимова Д. А. Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы. Т.III. Ташкент, 2018. 640 с.

O'zbekiston tarixshunoslik fanida "Muammo tarixshunosligi" yo'nalishi ustuvorlik kasb etadi. "Muammo tarixshunosligi" haqida so'z yuritilar ekan, avvalambor, u nima va "oddiy tarixshunoslik"dan[1994] qanday farq qiladi, degan savolga javob berishga urinib ko'rish mumkin. Muammo tarixshunosligi ma'lum bir muammoni yorituvchi ilmiy ishlar, u yoki bu muammo mavzuviy "bloklarga"[1995] kiruvchi alohida olingan tadqiqotlarning birlashmasidir. Muammo tarixshunosligida "o'rganilayotgan masala bo'yicha turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar konsepsiyalari tahlili markaziy o'rinni egallasa, konsepsiyalar tahlilida esa ularning kelib chiqishi metodologiyasi, konsepsiyalar genezisini o'rganish hal qiluvchi ahamiyatga ega"[1996].

Muammo tarixshunosligi tadqiqotlari rivojidagi ikkinchi tendensiya tarixshunoslik manbalari janrining yiriklashuvi bo'ldi: ilmiy anjumanlar materiallari, jurnal maqolalari bilan bir qatorda individual monografiyalar chop etildi[1997] va alohida muammolar bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi[1998]. O'tkazilgan yirik ilmiy anjumanlar tarix fani rivoji kontekstida

---

[1994] Bu o'rinda shakllangan ilmiy amaliyotga mos ravishda nazariy (refleksiv) tarixshunoslikni anglatish uchun qo'llaniladigan "tarixshunoslikning tarixi" mavjudligini eslatish o'rinlidir. Muammo tarixshunosligidan farqli o'laroq u o'z diqqatini ma'lum davr tarixiy bilimlar va institutlar umumiy rivojida fan tarixi yo'nalishiga qaratadi. Ma'lumki, tarixshunoslik termini bir paytning o'zida ikki ma'noda qo'llaniladi - tarix fani bilish jarayoni sifatida va shu jarayonning amalga oshishi, natijalarini o'rganuvchi "maxsus fan". Ba'zi rossiyalik tadqiqotchilarning fikricha: "Tarixshunoslikning tarixshunosligi" murakkab muammolardan biri bo'lib, u bir paytning o'zida tadqiqotchidan ma'lum bir davrning tarixshunoslik keşimini yoki tarixshunoslik mavzularini bilishni va tarixshunoslik jarayonlarining umumiy qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Shunday ishlarning variantlaridan biri bu - muammo tarixshunosligi tajribasini umumlashtirishdir" (Корноухова И. Обзор отечественной литературы [РФ] по историографии за 1998 год // Электронный журнал «Исследовано в России». С. 481-495 / http://zhurnal.gpi.ru/articles/2000/036.pdf).

[1995] Ushbu "bloklarni" oydinlashtirish uchun shunday misollar keltiramiz. Mas., xo'jalik hayoti tarixshunosligi; madaniyat, fan, ta'lim masalalari haqidagi adabiyotlar tahlili; milliy- ozodlik harakati haqidagi ilmiy bilimlar rivoji tarixi; v.h.

[1996] Сахаров А. О некоторых вопросах историографических исследований / Сахаров А. М. Методология истории и историография. М.: Наука, 1981. С. 151.

[1997] Алимова Д. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы. Ташкент: Фан, 1991. 133 с.; Иноятов К. Историографические аспекты историографии Узбекистана. Опыт историографической работы в Узбекистане: Аналитико-критический очерк. Ташкент, 1993. 180 с.; Ахмеджанов Г. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Тошкент: Фан, 1995. 217 с.; Зиеева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). Тошкент, 2000. 174 б.; Қосимов Ф. Истиқлол ва тарихий хотира. Бухоро, 2006. 155 б.; Шодмонова С. Немис ва турк тарихшунослигида совет мустамлакачилигига қарши кураш масалалари. Тошкент, 2008. 128 б.; Алимова Д. История как история, история как наука: История и историческое сознание. Ташкент: Узбекистон, 2008. Т. 1. 280 с.; Мустафаева Н. ХХ асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Тошкент: Наврўз, 2014. 334 б.; Пуговкина О. Российская историография Туркестана: исторические воззрения современников. Ташкент: Академнашр, 2018. 256 с

[1998] Алимова Д. Женский вопрос в советской историографии Средней Азии (20–80-ые годы): Автореф. дисс.... докт. ист. наук.Ташкент, 1991. 45 с.; Зияева Д. Национально-освободительное движение в Туркестане в историографии ХХ века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения "истиқлолчилик" 1918-1924 гг.): Автореф. дис.... докт. ист. наук. Ташкент, 1999. 61 с.; Шадманова С. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870 – 1917 гг.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2011. 61 с.; Мустафаева Н. Мустамлака ва совет даври тарихшунослигида Ўзбекистоннинг ХХ аср маданияти. Тарих фанлари докт. дисс. ... автореферати. Тошкент, 2016.

tarixshunoslik muammolariga ham e'tibor qaratdi[1999]. O'zR FA Tarix institutida o'tkazilib kelayotgan an'naviy "Tarixshunoslik o'qishlari" tarix fani, muammo tarixshunosligi holati, mavzular doirasini belgilash, istiqbolda o'rganiladigan dolzarb muammolarni aniqlashda muhim rol o'ynab kelmoqda[2000].

Mustaqillik yillarida muammoviy tarixshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni tavsiflar ekanmiz, shuni ta'kidlash zarurki, 1990-yillarning boshlaridagi muammo tarixshunosligiga doir tadqiqotlarda sovet davrida yaratilgan adabiyotlar o'rganilgan va ular sovet tarix fani g'oyalari asosida tahlil qilingan[2001].

Bu yillarda tadqiqotlar mavzusining yangilanishi ancha sekinlik bilan amalga oshdi. Tarixshunoslik tadqiqotlari mavzularining yangilanishiga ularning sifat jihatidan o'zgarishiga mazkur fanga doir ilmiy izlanishlardagi yangilanish jarayoni turtki bo'ldi. Muammo tarixshunosligi rivojidagi Vatan tarixining dolzarb muammolarini qayta mushohada etishda yangicha yondoshuvlarga asoslangan tadqiqotlar 1990-yillarning o'rtalaridan vujudga kela boshlaganligini kuzatish mumkin. Vatan tarixining dolzarb muammolarini o'rganishda yangicha yondoshuvlarning ommalashuvida 1994-yilda tayyorlangan O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti Tarixshunoslik bo'limida tayyorlangan "XX-асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани (Тарихшунослик очерклари)"ni[2002] alohida ko'rsatish kerak. Mazkur

---

[1999] Новая история Центральной Азии. Переоценка истории, современные проблемы и подходы. Материалы международной научной региональной конференции. 13–14 сентябрь 2004 г. Ташкент, 2004. 147 с.; Историческая наука постсоветской Центральной Азии: обретения и проблемы. Материалы Международной научно-теоретической конференции. Алматы: 2007. 205 с.

[2000] Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари материаллари. Историческая наука в Узбекистане: достижения и проблемы развития. Материалы историографических чтений – 2004. I қисм. Тошкент, 2006. 157 б.; Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари материаллари. Историческая наука в Узбекистане: достижения и проблемы развития. Материалы историографических чтений – 2004. II қисм. Тошкент, 2006. 115 б.; Тарихшунослик ўқишлари. Анжуман материаллари тўплами. Тошкент: Фан, 2010. 260 б.; Историографические чтения – 2011 / Сборник материалов конференции / Ташкент: Янги нашр, 2011. 426 с.; Историческая наука в контексте интеллектуального развития Центральной Азии. Ташкент, 2014. 367 с.; Ўзбекистонда тарих фани: муаммолар ва ривожланиш истиқболлари. Тошкент: Академнашр, 2018. 495 б.

[2001] Асриева Е. Проблема формирования и развития рабочего класса Узбекистана в исторической литературе (1920–1990 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Тошкент, 1991; Рашидов У. Освещение деятельности Советов Узбекистана в советской исторической литературе (1917-1990 гг.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Тошкент, 1991; Рахматуллаев М. Проблемы культурного развития Узбекистана в исторической литературе (60-х – середина 80-х гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1991; Темиров У. Освещение проблемы индустриализации Узбекистана в советской исторической литературе. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1992; Утепбергенова У. Изучение вопросов экономического и социально-культурного развития узбекского кишлака в исторической литературе Узбекистана (20-30-е годы). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1994. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur ishlar mustaqillikka qadar tarixshunoslikda hukmron bo'lgan mafkura nuqtai-nazaridan tayyorlanganligini e'tiborga olib, ushbu tadqiqotlardagi xulosa va holatlarni bugungi kunda tarix faniga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish kerak.

[2002] XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). I қисм. Тошкент: Фан, 1994. 207 б.; XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). II қисм. Тошкент: Фан, 1994. 455 б.

tarixshunoslik ocherklarida mustaqillik davri ilgari surgan, sifat jihatidan yangi vazifalardan kelib chiqib, XX asrning dastlabki 30 yilligida O'zbekiston tarixi fani rivojining asosiy bosqichlari har tomonlama izchillik bilan yoritildi. Ushbu asarning ijobiy momenti sifatida ilmiy o'rganish ob'yektiga kirgan muammo va masalalarni nihoyatda chuqur va jiddiy, yangi nazariy-metodologik yondoshuvlar asosida o'rganilganligini ta'kidlash zarur.

XX asrning 90-yillarida sovet tarixshunosligida ilgari o'rganilmagan prinsipial yangi mavzu paydo bo'ldi. Gap tarixiy sivilizatsion kommunikatsiyalar muammosi, avvalambor, Buyuk Ipak yo'li haqida ketmoqda[2003]. Bugungi kunda ushbu mavzu O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari nuqtai-nazaridan uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga asosli ravishda intilayotganligi, dunyoning turli davlatlari bilan (asosan, iqtisodiy va transport kommunikatsiyalar sohasida) har tomonlama munosabat o'rnatishida yetakchi mavzu bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillari ilmiy tarixshunosligida O'zbekistonning alohida hududlari tarixshunosligi masalalari tadqiq qilindi. Xususan, Qoraqalpog'iston[2004], Buxoro[2005] va Xiva[2006] tarixshunosligiga oid ishlar chop etildi. Shuni ta'kidlash zarurki, ushbu tadqiqotlarda O'zbekiston tarixining umumiy va regional jihatlari turli muammoviy mavzuviy va xronologik rakurslari vatan adabiyotlari doirasida tahlil qilish bilan chegaralanmaydi. Ishga yuqori mutaxassislik mahorati darajasida chet el tarixshunoslik manbalari jalb qilinadi. Bunday yondashuv orqali vatan tarixining u yoki bu muammosi tarixshunosligining yaxlit manzarasi yaratiladi.

So'nggi yillardagi "istoriografik mahsulotlar" ijtimoiy-siyosiy mavzularni yetarlicha intensiv tadqiq qilish bilan xarakterlanadi. Ular mustaqillikning ilk yillarida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan O'rta Osiyoning Rossiya

---

[2003] Кобзева О. У истоков научного изучения Великого шелкового пути // O'zbekiston tarixi. 2000. № 4. С. 79–82; Shu muallif. Великий Шелковый путь: проблемы научной периодизации и истоки изучения европейскими учеными во второй половине XIX – начале XX вв. Автореф. дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 200); Shu muallif. Изучение Великого Шелкового пути японскими учеными в начале XX века // ЎзМУ хабарлари. 2003. № 1. С. 56–58.

[2004] Пискунова И. Русские историки XVIII века о каракалпаках // Вестник ККО АН РУ. 1993. № 3. С. 91–93; Кощанов Б., Ибрагимова С. История Каракалпакстана в зарубежной историографии (1917–1925 гг.) // Shu joyda. 2001. № 4. С. 68–70; Кудиярова Т. К вопросу изучения истории профсоюзного движения в Каракалпакстане // Shu joyda. С. 77–79.

[2005] Касымов Ф. Некоторые вопросы новейшей историографии народных революций 1920 г. в Хорезме и Бухаре//ОНУ. 1990. №1. С. 44–48.; Қосимов Ф. Бухоро республикаси тарихшунослиги. Бухоро, 1995. 85 б.; Касымов Ф. Драма революции и правда истории. Бухара, 1996; Ртвеладзе Э. К зарубежной историографии Бухары // ОНУ. 1997. № 9–11. С. 161–164.

[2006] Ртвеладзе Э. К зарубежной историографии Хивы // ОНУ. 1997. № 7–8. С. 112–113; Эгамбердиева Н. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (IV-VI вв. до н.э.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Нукус, 20 Маткаримова С. Историография Хивинского ханства в период Кунградской династии (XIX – начало XXI века): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 2010. 31 с.

tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlari[2007], milliy-ozodlik kurashlari[2008], "bosmachilik harakati"[2009], milliy va diniy siyosatning amalga oshirilishi[2010] va xotin-qizlar muammolaridan[2011] iborat.

Jadidchilik harakati tarixshunosligi masalasini tahlil qilishda original yondashuvni qo'llayotgan O'zbekiston tarixshunosligi maktabi bir muammo doirasida birlashgan ilmiy hamjamiyat xususiyatlarini namoyon qilmoqda[2012].

Mustaqillik yillaridagi muammoviy tarixshunoslikdagi eng katta yutuqlaridan biri bu – O'zbekiston tarixining turli mavzularini xorijiy tarixshunosligini yoritish bo'ldi[2013]. Yangi avlod tarixchilarining chet tillarni

---

[2007] Ахмеджанов Г. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Ташкент, 1995; Алимбаев Ж. (Историография завоевания Туркестана Россией (XIX-начало XX вв.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001.

[2008] Зияева Д. Освещение восстания 1916 года в Туркестане в исторической литературе // ОНУ. 1991. № 9. С. 42–46; Shu muallif. Миллий озодлик учун кураш воқеалари Файзулла Хўжаев талқинида // ЎИФ. 1996. №4-5. 81–86-бетлар; Shu muallif. 1916 йил қўзғолони тарихшунослиги ва манбашунослиги // ЎИФ. 1997. №1-2. 53–56-бетлар; Shu muallif. Туркистон мустақиллиги учун кураш масалалари 20-30 йиллар талқинида // ЎИФ. 1998. №1. 67–73-бетлар; Shu muallif. Заки Валидий "Хотираларида" Туркистон мустақиллиги учун кураш масалалари // Жаҳон адабиёти. 1998. №6. 193–196-бетлар; Shu muallif. Ўлмас ҳақиқат // Ижтимоий фикр. 1998. №3. 61–65-бетлар; Shu muallif. Туркистонда мустақиллик учун халқ курашлари тарихшунослиги ва уни ўрганиш муаммолари // Ўзбекистон тарихи: Янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Давра суҳбати материаллари. Тошкент, 1998. 25–33-бетлар; Shu muallif. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). Тошкент, 2000. 174 б. Гарипов Р. Историографический ракурс некоторых аспектов политической и социально-экономической обстановки в Туркестане в начале XX века // O'zbekiston tarixi. 2001. № 1. С. 44–50; Shu muallif. Историография общественно-политических и национально-прогрессивных движений в Туркестане начала XX века (Тенденции в изучении проблемы тоталитарного периода и в эпоху независимости): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001.

[2009] Норжигитова Н. А. Историография «басмаческого движения» в Туркестане (Советский период). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1995; Сё Енг Чель. Проблемы борьбы народов Туркестана против советской власти в южнокорейской историографии // O'zbekiston tarixi. 2002. № 4. С. 41–47; Shu muallif. Зарубежная историография повстанческого движения в Туркестане в 1918–1924 гг. (На примере британо-американских и южнокорейских исследований). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2003.

[2010] Алимов Ш. Изучение национальной политики в исторической литературе Узбекистана (20-30-е годы): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1994; Алимова Д. Ислам и «воинствующий» атеизм в литературе Узбекистана 20-30-х годов // O'zbekiston tarixi. 2000. № 4. С. 58–64.

[2011] Мазкур муаммо тарих фанлари доктори, профессор Д. А. Алимова томонидан кенг тадқиқ қилинган. 1991 йилда Д. Алимова (Женский вопрос в советской историографии Средней Азии (20-80-е годы) мавзуида ҳимоя қилган докторлик диссертациясидан сўнг, ушбу мавзу тарихшунослик тадқиқотларида махсус ишланмади. Бу ўринда биз фақатгина Г. Эргашходжаеванинг Французская историография о проблемах эмансипации женщин Средней Азии в 20-е годы (Литература 50–80-х годов) мавзуидаги тадқиқотини кўрсатишимиз мумкин. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1996.

[2012] Ражабова Д. Проблемы молодежи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX вв.): Автореф. дис.... канд. ист. наук. Ташкент:, 2003. 27 с.; Кенжаев Д. Исламские ценности в воззрениях джадидов и их концепция духовного реформирования общества: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2007. 30 с.; Турсунов Р. Воззрения национальных прогрессистов на социально-экономические процессы в Туркестане в начале XX века: Автореф. дисс ... канд. ист. наук. Ташкент, 2008. 29 с.

[2013] Хакимов Р. Зарубежная историография истории басмачества в Средней Азии. 1917–1932. (на материалах англо-американской литературы): Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1992.; Хидоятова Н. Басмаческое движение в современной советологии. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Тошкент, 1993; Нишанова Д. Англо-русский конфликт в Средней Азии в конце XIX в. в современной зарубежной литературе. Автореф. дисс. канд. ист. наук.Тошкент, 1995; Эргашхўжаева Г. 20-йиллар Ўрта Осиё хотин-қизларининг эмансипацияси масалалари француз тарихшунослиги талқинида (50–80-йиллар адабиётлари

o'zlashtirishi, xorijiy mamlakatlarga safarga chiqish, ilmiy markazlar va kutubxonalaridan foydalanish imkonining vujudga kelishi bilan bu sohadagi tadqiqotlar ayniqsa kengaydi.

Hozirgi paytda muammo tarixshunosligi funksiyasi ikki yoqlama bo'lib, bir tomondan tarixshunoslar an'anaviy ravishda vatan tarixi muammolarini o'rganilishi, ilmiy maktablar va tadqiqotchilar faoliyatini baholashga, yoki bir so'z bilan aytganda ma'lum bir muammo bo'yicha ilmiy bilimlar to'planishi jarayonini ko'rsatishga urinmoqdalar. Ikkinchi tomondan – qadriyatli yondoshuv asosida muqaddam shakllangan tarixshunoslik an'analaridan ilmiy bilimlar rivojining zamonaviy bosqichi uchun nimalar muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlash funksiyasi bo'lib, bu ancha murakkab vazifa hisoblanadi. Bu kontekstda mustaqillik davrida muammo tarixshunosligining rivojlanish darajasi, holati, ko'lamini aniqlash muhimdir.

Sovet tarix fani holati, uning ilmiy-tashkiliy jihatlari, sovet tarixshunoslik maktabining xususiyatlari, sovet davlati mafkuraviy ko'rsatmalari asosida yaratilgan ishlarda tarixiy haqiqatning buzilishi, tarixiy jarayonlarni yoritishdagi noxolisliklar va muammolar tarixchilar tomonidan zamonaviy yondoshuvlar asosida tadqiq qilindi va baholandi[2014].

---

асосида): Т.ф.н. дисс. ... автореф. Тошкент, 1996.; Масалиева О. История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1999. 31 с.; Кобзева О. Великий Щелковый путь: проблемы научной периодизации и истоки изучения европейскими ученьми во второй половине XIX-начале XX вв. Автореф. дис. канд. ист. наук. Тошкент, 2000; Абиджанова Д. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 2001; Вайсман Д. Узбекистан в современной англоязычной историографии// O'zbekiston tarixi. 2001. №4. С. 55–60; Шодмонова С. Вопросы борьбы против советского колониализма в Туркестане в 1917–1924 годах в немецкой и турецкой историографии: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Тошкент, 2002. 31 с.; Shu muallif. Немис ва турк тарихшунослигида совет мустамлакачилигига қарши кураш масалалари. Тошкент, 2008. 128 б.; Се Енг Чель. Проблемы борьбы народов Туркестана против советской власти в южнокорейской историографии //O'zbekiston tarixi. 2002. №4. С. 41–48; Shu muallif. Зарубежная историография повстанческого движения в Туркестане в 1918–1924 гг. (на примере британо-мериканских и южно корейских исследований): Автореф. дисс....канд. ист. наук. Тошкент, 2003; Пуговкина О. История Туркестана в наследии Российской историографии середины XIX - начала XX века(политические и экономические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук.Ташкент, 2006. 30 с.; Абдурасулова Х. Ислам и религиозная политика в Узбекистане в 1940–1980 годы: анализ англо-американской историографии: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 2011. 25 с.; Турсунметов А. Англо-американские исследователи о социокультурной и политической деятельности туркестанских джадидов в начале XX века // O'zbekiston tarixi. 2009. № 3. С. 67–73; Shu muallif. Англо-американские исследователи о мусульманском реформаторском движении в Центральной Азии в конце XIX – начале XX вв. // O'zbekiston tarixi. 2010. №4. С. 81–86; Расулова Д. XVII–XX аср бошдаги франциузабон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2019. 52 б.

[2014] Асадова Ш. И. К оценкам изучения организации исторической науки Узбекистана советской историографией / Очерки историографии Узбекистана в XX столетии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. С. 178–197. Shu muallif. Основные характеристики советской историографической школы в Узбекистане / История и историки Узбекистана в XX столетии. Ташкент, 2014. С. 182–195; Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане в 20-е гг. XX в.: полемика и дискуссии // O'zbekiston tarixi. 2012. №1. С.39-51; Shu muallif. Историческая наука в Узбекистане в 30-е гг. XX в. Установление идеологического единомыслия // O'zbekiston tarixi. 2013. №2. С. 33–41; Мустафаева Н. XX асрнинг 50–60-йилларида Ўзбекистонда тарих фани ҳолати // O'zbekiston tarixi, 2010. №3. 15–23-бетлар

Ilm-fan rivojini rag'batlantirishda davlat grantlari muhim o'rin tutganligini e'tirof etgan holda shuni qayd etish mumkinki, bu tarixshunoslik tadqiqotlarini amalga oshirishda ham ma'lum rol o'ynadi. O'zR FA Tarix instituti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limida "O'zbekistonda tarixiy tafakkur evolyusiyasi va rivoji" granti doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar "XX asr O'zbekiston tarixshunosligi ocherklari" larida mujassamlashdi[2015]. Mazkur tadqiqotda butun XX asr davomida O'zbekistonda tarix fani shakllanishi va evolyusiyasini bosqichma-bosqich o'rganildi. Sovet davri va mustaqillik yillarida tarix fani holatini qiyosiy o'rganilishi demokratik jamiyat sharoitida fan taraqqqiyotida ro'y bergan tub o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. XX asrdagi tarixshunoslik jarayoni: tarix fanining tashkiliy jihatlari, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning tarix fanida aks etishi va o'z navbatida tarix fani rivojiga ta'siri yoritildi.

"Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limida "Ўзбекистонда таълим тарихи ва тарихшунослиги: тажриба, муаммолар, ривожланиш ва ўрганиш истикболлари" mavzusidagi fundamental granti ustida ilmiy izlanishlar natijasi ikki tomdan iborat kitobda o'z ifodasini topdi[2016]. Ushbu tadqiqot Vatan tarixi fanida ustuvor vazifalardan biri – O'zbekistonda ta'lim rivoji bosqichlari tarixi va tarixshunosligini u bilan bog'liq bo'lgan, mazkur hududdagi madaniy-intellektual muhitni ilk o'rta asrlardan to bugunga qadar bo'lgan davrgacha yaxlit yoritishga yo'naltirildi.

Shuningdek, ushbu fundamental loyiha ustida katta tadqiqotchilik ishi amalga oshirilishi jarayonida, O'z MA arxivida bugungi kunga qadar ilmiy muomalaga kirmagan ta'lim tarixiga doir katta hajmdagi hujjatlar o'rganilib, uning asosida ikki tomlik arxiv manbalarida ta'lim tarixini aks ettirgan to'plam tayyorlandi va nashr etildi[2017].

"Ўзбекистоннинг XX аср тарихи ва тарихчилари" mavzusidagi amaliy tadqiqot XX asrda yashab ijod qilgan tarixchi olimlar faoliyati va taqdirini o'rganishga bag'ishlandi. Mustamlakachilik va sovet tuzumi siyosiy ko'rsatmalari hamda mafkuraviy talablarining bu davrda ijod qilgan olimlar faoliyatiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot natijasida shu nomdagi kitob chop etildi[2018].

Tarixshunoslik bo'limida amalga oshirilgan muhim tadqiqotlardan yana biri O'zbekiston davlatchiligi tarixshunosligi masalasi bo'ldi[2019]. Ma'lumki,

---

[2015] Очерки историографии Узбекистана в XX столетии / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент: Yangi nashr, 2011. 235 с.

[2016] История и историография развития образования в Узбекистане. Ташкент: Tafakkur qanoti, 2015; История и историография развития образования в Узбекистане. Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2017.

[2017] История образования в архивных источниках. Том I. 1865–1917 / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент: Yangi nashr, 2015. 204 с.; История образования в архивных источниках. Том II. 1917–1991 / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент: Yangi nashr, 2015. 490 с.

[2018] История и историки Узбекистана в XX столетии / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент, 2014. 431 с.

[2019] Очерки историографии государственности Узбекистана. Т.I. Ташкент, 2018. 380 с.; Очерки историографии государственности Узбекистана. Т. II. Ташкент, 2019. 368 с.

mazkur bo'limning ilmiy yo'nalishlarida manbalar va hujjatlarni o'rganish hamda nashr etish[2020], yaratilgan ilmiy mahsulotlar bibliografiyasini tuzish muhim o'rin tutadi. Shuni inobatga olgan holda, ushbu sohada ham tadqiqotlar amalga oshirildi[2021].

O'zbekiston jamiyatining islohotlar, ochiq demokratik jamiyat qurish yo'lidan rivojlanayotgan bir paytda ilmiy-tarixiy tadqiqotlar hamda tarixshunoslikda nazariy-metodologik ishlanmalarning dolzarbligi va ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu mazmundagi ilmiy tadqiqotchilik ishini tashkil etish va amalga oshirishda "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limi tom ma'noda ilmiy izlanishlar yo'nalishlarini aniqlash va tadqiqotchilarni birlashtirishda ilmiy markaz vazifasini bajarib kelmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi tarix fanida yangi paradigmalarning shakllanishi va tarixchining ijtimoiy mavqeidan boshlab ijtimoiy fan infrastrukturasining o'zgarishiga olib keldi. Yangicha ilmiy qarashlar va yondashuvlarning shakllanishi, O'zbekiston tarix fanining dunyoga yuz tutishi, xorijdan axborotlarning kirib kelishi, kadrlar tarkibiy qismining yangilanishi, taqiqlangan arxiv manbalarining ochilishi, fan moddiy bazasining yaxshilanishi tarix fani taraqqiyotida ijobiy hol bo'ldi.

## Markaziy Osiyo respublikalaridagi tarixiy tadqiqotlar tahlili (XX asr 90-yillaridan bugungi kunga qadar)

**Qoraqalpoq xalqi tarixshunosligi.** Qoraqalpog'iston xalqlari qadimiy xalqlardan bo'lib, ular dunyoviy madaniyatda o'ziga xos va betakror o'ringa ega. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston tarixini mafkura ta'siridan xoli bo'lgan holda, ob'yektiv ma'lumotlarga asoslanib yoritish imkoni vujudga keldi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali Qoraqalpog'iston bo'limi maqomini oldi. Mustaqillik yillarida yangi institutlar va bo'linmalar tashkil etdi. Masalan, N. Davkaraev nomidagi Til va adabiyot instituti, Orolbo'yi mintaqasi bo'limi, Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti, Tabiiy fanlar instituti va boshqa ilmiy muasssasalar tashkil topdi. Bu tashkiliy o'zgarishlar tarix fani rivojida rag'batlantiruvchi omil bo'ldi.

1996-yilning 16-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi 445-sonli va 1997-yil 24-fevralda Qoraqalpog'iston Respublikasi

---

[2020] Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари / Масъул муҳаррир Д. Алимова. Тошкент: Маънавият, 1998. 112 б.; Фитрат А. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть) / Перевод с персидского А. Н. Кондратьева. Ташкент, 2007. 100 с.

[2021] Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти нашрлари (1991–2009 йй.) / Масъул муҳаррир Д. Алимова. Тошкент: Фан, 2010. 151 б.; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти нашрлари (1991–2015 йй.) / Масъул муҳаррир Д. Алимова. Тошкент: Фан, 2016. (Тўлдирилган ва қайта ишланган нашри.)

Vazirlar Kengashining 45/2-sonli "Qoraqalpog'istonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlarning qabul qilinishi ilmiy faoliyatni davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishini anglatar edi.

Mazkur Qarorning amaliyotga joriy qilinishi vujudga kelgan bir qator tadqiqotlarda ifodasini topdi. B. Koshanov va A. Jumashevlar tomonidan Turkiston, Xorazm hamda Qoraqalpog'iston xalqlarining XX asrning birinchi choragidagi tarixiga oid ilmiy asar tayyorlandi va 1997-yilda nashr etildi. Ushbu asar tarix fanidagi ijobiy jihatlar bilan birga kamchiliklarni yoritganligi va xorijiy tadqiqotlar ham tahlilga tortilganligi bilan ahamiyatlidir[2022].

1997-yilda J. Aytmuratov va T. Madreimovlar [2023] tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarda Qoraqalpog'istonning madaniyati va ommaviy axborot vositalarining rivoji tarixi yangicha qarashlar va mulohazalar asosida ochib berishga harakat qilingan.

1999-yilda R. J. Bazarbayev va E. L. Aleynikovalar[2024] dissertatsiyalarida Qoraqalpog'istonning ilmiy tadqiqot markazlari paydo bo'lishi hamda rivojlanishi tarixi, davrlashtirish masalalari, ilm-fan taraqqiyoti va uning muammo hamda istiqbollari to'g'risida ko'plab yangi xulosalar keltirilgan.

Ushbu davrda Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, hunarmandchik va boshqa sohalarni ahvoli hamda mustaqillikdan keyingi o'zgarishlarga bag'ishlangan bir nechta dissertatsiyalar himoya qilindi. Masalan, B. B. Utemuratovning tadqiqotlarida dehqon va fermer xo'jaligi masalalari[2025], A. K. Saribayevning ilmiy izlanishlarida paxta tozalash va to'qimachilik sanoati[2026] masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar Qoraqalpog'istonning XX asr oxiridagi iqtisodiy holati to'liq ochib bera olmasada, soha rivoji uchun muhim hisoblanadi.

2000-yilda boshlangan «Ўзбекистоннинг янги тарихи» ko'p jildlik kitobini yozishda Qoraqalpog'iston tarixchilari akademik S. K. Kamalov, professorlar K. S. Saribayev va B. A. Koshanovlar tegishli bob hamda paragraflarni shakllantirishda faol ishtirok etdilar[2027].

---

[2022] Кошанов Б. А., Джумашев А. М. Зарубежная и отечественная историография истории Туркестана, Хорезма и Каракалпакстана в первой четверти XX века. Нукус: Каракалпакстан, 1997.

[2023] Айтмуратов Ж. Культура Каракалпакстана в 70–90- годы: общее состояние и тенденции развития. Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Нукус, 1997; Мадреимов Т. История возникновения и развития средств массовой информации Каракалпакстана в 1930-1990 гг. (Радиовещание и телевидение). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Нукус, 1997.

[2024] Базарбаев Р. Ж. История формирования научного центра Каракалпакстана (1925–1997 гг.). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Нукус, 1999; Алейникова Э. Л. История становления и развития научной периодики Республики Каракалпакстан (1959–1998 гг.). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Нукус, 1999

[2025] Утемуратов Б. Б. Дехканские (фермерские) хозяйства Республики Каракалпакстан: история возрождения и развития (1917–1996 гг.). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. Нукус, 1999.

[2026] Сарыбаев А. К. Хлопкоочистительная и текстильная промышленность Каракалпакстана в 1980-1995 гг.: исторический опыт и проблемы возрождения национальной промышленности. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Нукус, 2000.

[2027] Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1–3-китоб. Тошкент: Шарк, 2000.

2000-yilda B. A. Koshanovning Qoraqalpog'istonning 1946–1960-yillardagi tarixi masalasi tahliliga bag'ishlangan maqolasi chop etilgan. Unda tarix fanidagi yuz bergan o'zgarishlar va muammolar yoritib berilgan[2028]. 2001-yilda esa ushbu tadqiqotchining xorijiy ilmiy nashrlar tahlilga bag'ishlangan tahliliy maqolasi chop etilgan[2029].

Qoraqalpoqlarning xalq bo'lib shakllanishi va milliy davlatchiligi bosqichlarini tadqiq qilgan S. K. Kamalovning kitobi juda muhim metodologik xarakterdagi asar hisoblanadi[2030]. Muallifning fikricha, hozirgi zamonda asosiy muammolardan biri qoraqalpoq etnosining kelib chiqishi va davlatchiligining shakllanish manbalarini topish sanaladi.

XXI asr boshlarida Qoraqalpog'istondagi sog'liqni saqlash tizimi, turli kasalliklarga qarshi kurashish va ijtimoiy ahvol K. Allambergenov tadqiqotida tahlil qilingan[2031]. Ushbu kitob mazkur yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlardan bo'lib, asosan, vabo kasalligiga qarshi kurash tarixiga bag'ishlangan.

2003-yilda "Qoraqalpog'istonning yangi tarixi" kitobi[2032] mustaqillik davrini o'z ichiga olgan mamlakat tarixchilarining birinchi asari hisoblanadi. Kitobning uchinchi bobini yozishda S. K. Kamalov, J. Bazarbayev, T. Yeshanov, B. Shamambetov, A. Kurbaniyazov, N. Ayimbetov, B. Bazarbayev, T. Madreimov, J. Sagindikov, J. Aytmuratov va R. Bazarbayevlar faol ishtirok etdi.

Mualliflar jamoasi asarda "ushbu katta ishning boshlanishida xalqning haqiqiy tarixini qayta tiklash, dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni va rolini ochib berishni" yozishi bilan baholandi. Bu o'rinda mualliflarning katta ishlari orqasida oldin maxfiy saqlangan hujjatlar va faktlar chop etilishi yangilik bo'ldi. Kitobning alohida ahamiyati mualliflar g'oyaviy dunyoqarashlarining yangi davrda bayon qilinishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yangi tarix davrlarida turli muammolarni o'zida aks ettirgan monografiyalar tadqiqotchilarning jiddiy izlanishlari asosida yaratildi. Bu Qoraqalpog'istonda tarixshunosligida yana bir muhim qadam bo'ldi.

Qoraqalpog'istondagi maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi va boshqa sohaga tegishli masalalar A. Kalilayevning tadqiqotida Xo'jaylidagi muassasa

---

[2028] Кошанов Б. А. Актуальные вопросы истории Каракалпакстана 1946-1960 годов // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. 2000. № 4.

[2029] Shu muallif. История Каракалпакстана в зарубежной историографии (1917-1925 гг.) // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. 2001. № 4.

[2030] Камалов С. К. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи хәм мәмлекетлиги тарийхынан. Нөкис, 2001.

[2031] Алламбергенов К. История организации профилактики чумы в Каракалпакстане в XX веке. Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2001.

[2032] Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қорақалпоғистон XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсирге шекем. Нөкис: Қарақалпақстан, 2003. 556 с.

misolida ochib berilgan bo'lsa[2033], ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlarini o'qitilishi bo'yicha ishlar B. J. Mambetovning izlanishlarida yoritib berilgan[2034].

Z. B. Kallibekovaning ayollar masalasidagi izlanishlari gender sohasini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, Qoraqalpog'istondagi 1991-yildan 2004-yilgacha ayollarni jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni huqularini himoya qilish va boshqa yo'nalishlardagi davlat siyosiy va ijtimoiy siyosatini tahlil qilib bergan[2035].

G. I. Xodjametovaning tadqiqotida Qoraqalpog'iston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi musiqa madaniyati tahlil qilingan[2036]. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar tadqiqotchining keyingi faoliyatida ham davom ettirilgan bo'lib, B. A. Koshanov bilan hamkorlikda Qoraqalpog'istonning yarim asrlik musiqa madaniyati tarixini tadqiq qilganlar[2037].

Qoraqalpog'istonning yaqin tarixiga oid maxsus monografiyalarning kamligini tadqiqotchilar dissertatsiyalarni yozish jarayonida maxsus bob va bo'limlarni kiritish orqali qoplashga harakat qilganlar.

L. K. O'rozovaning tadqiqotida Qoraqalpog'iston milliy madaniyatinining 1985-yildan 2005-yilgacha bo'lgan bosqichma-bosqich rivoji tahlil qilingan bo'lib, dissertatsiya ishida madaniyatni saqlab qolish va mustahkamlashga doir ko'plab yangi xulosalar berilgan[2038].

Z. B. Yesnazarovaning tadqiqotlarida Nukus shahri tarixi chuqur o'rganilgan bo'lib, ushbu ish S. K. Kamalov va V. Tatibayevalarning shaharlar tarixi bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlarining mantiqiy davomi hisoblanadi[2039]. Uning dissertatsiyasi ko'plab yangi manba va arxiv ma'lumotlari bilan boyitilgan.

R. J. O'rozbayevaning doktorlik dissertatsiyasida Qoraqalpog'istonda ta'lim tarixi kompleks tarzda o'rganildi va Respublika ta'lim tizimidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratildi[2040]. Mazkur tadqiqotchi o'z ilmiy izlanishlarida o'tgan davr bilan mustaqillik yillarini taqqoslagan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar, bugungi kunda

---

2033 Калилаев А. История развития среднеспециального образования в Каракалпакстане (1925–2000 гг.) (на примере Ходжейлинского педагогического училища). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2003.

2034 Мамбетов Б. Ж. Традиции физической культуры и спорта Каракалпакстана и проблемы возрождения, XX-й век. Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2005.

2035 Каллибекова З. Б. Место и роль женщин в современном развитии Каракалпакстана (1991-2004 гг.). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2005.

2036 Ходжаметова Г. И. Музыкальная культура Каракалпакстана периода независимости. Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2007.

2037 Кощанов Б. А., Ходжаметова Г. И. Музыкальная культура Каракалпакстана в 1950-2005 годы. Нукус: Билим, 2007.

2038 Уразова Л. К. История возрождения национальной культуры Каракалпакстана (1985-2005 гг.). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2009

2039 Есназарова З. Б. История города Нукуса периода независимости (1991-2005 гг.). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. Нукус, 2009.

2040 Уразбаева Р. Дж. История образования в Каракалпакстане (последняя четверть XIX – начало XXI вв.). Автореф. дисс. … доктора ист. наук. Ташкент, 2012. 40 с.

ikkita va Toshkent universitetlarining to'rtta filiallari faoliyat olib borayotganligini alohida ta'kidlagan[2041].

Qoraqalpog'iston tarix fani rivoji va tarixshunosligi masalalari tarixshunoslar e'tiboridan chetda qolmadi. 1994-yilda chop etilgan XX asrning dastlabki o'ttiz yilligidagi tarix faniga doir tarixshunoslik ocherkida Qoraqalpog'iston tarixiga oid umumiy ma'lumotlar uchraydi[2042].

XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasi Amudaryo bo'limi tarixiga doir ishlar G. A. Ahmadjonovning monografiyasida tahlil qilindi[2043]. Ushbu monografiya 1995-yilda chop etilgan bo'lib, o'lka to'g'risidagi ma'lumotlarni boyishiga xizmat qilgan.

Mazkur davrda Qoraqalpog'iston tarixshunosligini o'rganishda B. A. Koshanovning ishlari muhim ahamiyatga molik. Ushbu olimning faoliyati natijasida Turkiston, Xorazm, Buxoro va Qoraqalpog'istonning XX asrdagi tarixi mahalliy hamda xorijiy tarixshunosligiga bag'ishlangan bir nechta maqolalari chop etildi[2044].

2004–2010-yillarda B. A. Koshanovning Qoraqalpog'istonda tarix fani va uning muammolariga bag'ishlangan bir qator maqolalari chop etildi[2045]. Ushbu tadqiqotlarda olim tomonidan mustaqillik davrida tarix yo'nalishi tadqiqotlari rivoji uchun bir qancha ustuvor yo'nalishlar va muammolar qayd etilgan. Masalan, mamlakatda agrar munosabatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, respublika qishloq, ovul va shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qishloqlar ko'rinishining o'zgarishi hamda demografiya tarixiga oid ishlar yetarli emas, davlatning ijtimoiy sohalar, jamiyatni siyosiy jihatdan isloh qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda erishilgan tarixiy o'zgarishlar eng yangi

---

2041 Уразбаева Р. Дж. История образования в Каракалпакстане (последняя четверть XIX – начало XXI вв.). Ташкент: Yangi nashr, 2011. С.241.

2042 XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани / Тарихшунослик очерклари. Тошкент, 1994.

2043 Ахмеджанов Г. А. Российская империя в Центральной Азии. История и историография колониалной политики царизма в Туркестане. Ташкент: Фан, 1995.

2044 Кощанов Б. А. Зарубежная историография истории Туркестана, Хорезма и Бухары периода 1917-1922 гг. // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. 1995. №2; Shu muallif. Проблемы истории XX века // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. 1996. №2.

2045 Кощанов Б. А. Проблемы истории Каракалпакстана 1917–1918 годов // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. 2004. № 3; Shu muallif. Эпоха Нажима Давкараева и вопросы изучения истории // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. 2005. №3; Shu muallif. Историческая наука Каракалпакстана на современном этапе: обретения и проблемы // Вестник Каракалпакского государственного университета. 2008. № 1; Shu muallif. Историческая наука Каракалпакстана на современном этапе // Материалы Республиканской научно-практической конференции «Наука Каракалпакстана: вчера, сегодня, завтра», посвященной 50-летию Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. 19 ноября 2009. Нукус: Изд-во ККО АН РУз: Илим, 2009; Shu muallif. Актуальные проблемы историографии Каракалпакстана на современном этапе / Марказий Осиё манбашунослиги ва тарихшунослиги. Республика конференция материаллари. Тошкент, 2010; Shu muallif. Историография межнациональных отношений в Каракалпакстане / «Межнациональные отношения и толерантность». Материалы международной научной конференции. Ташкент: НУУ, 2010.

tarixning asosiy mavzulari bo‘lishi kerak; Qoraqalpog‘istonning eng yangi tarixi yilnomasini ishlab chiqib, nashr etish kerak va b.

B. A. Koshanovning bir qator tadqiqotlarida Qoraqalpog‘istondagi tarixiy bilimlar rivoji, tarixshunosligi va muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilgan. Tadqiqotchi eng yangi tarix va uning muammolari bo‘yicha ko‘plab tahliliy ishlar olib borib, muammoni yechimlarini ko‘rsatib berishga harakat qilgan[2046].

Z. I. Qurbonovaning etnografik bilimlarni rivojiga bag‘ishlangan tadqiqotida 1920-yildan 2000-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan holda, soha rivojini ko‘rsatib berishga harakat qilgan[2047].

**Qozog‘istonda tarix fani.** Mustaqil Qozog‘iston Respublikasi tarixini o‘rganishda Qozog‘iston Respublikasi Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarbaevning bir qator kitoblari va asarlari tahlil qilingan ilmiy maqolalar muhim ahamiyatga ega[2048].

N. Nazarbayevning “Сталной профил Казахстана”[2049] asarida Qozog‘istonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, unda tutib kelayotgan o‘rni, o‘tmishi, kelajagi, uzoq tarixi haqida ma’lumotlar berilgan. Uning “Казахстанский пут”[2050] nomli kitobida Qozog‘istonning uzoq o‘tmishidan to bugunga qadar bosib o‘tgan yo‘li haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Mustaqillik yillarida Qozog‘iston tarixini qayta tahlil qilish va baholash ishlarini amalga oshirildi. Mazkur jarayon davomida ko‘plab yangicha qarashlarga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo‘ldi. Jumladan, Qozog‘iston tarixini yoritishda metodolgik muammolar, tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari Z. A. Aldamjarov[2051], K. L. Yesmagambetov[2052],

---

[2046] Кошанов Б. А. Проблемы изучения новейшей истории Каракалпакстана «Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институтының илим, билимлендириў хәм тәрбия мәселелерин раўажландырыўдағы орны» атамасындағы республикалық илимий-теориялық хәм әмелий конференция материаллары. Нөкис: НМПИ. 2014; Shu muallif. Новейшая история Каракалпакстана: историки, исследования, проблемы / «Актуальные вопросы строительства независимой государственности и демократического общества в исследованиях по новейшей истории Узбекистана». Республиканская научно-практическая конференция. 5 декабря 2014 года. Ташкент: АГУ и КМЦ. 2014; Shu muallif. Современная историография новейшей истории Республики Каракалпакстан / “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадкиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика VII илмий-назарий конференцияси. Тошкент, 2015.

[2047] Курбанова З. И. Становление и развитие этнографической науки в Каракалпакстане (1920–2000 гг.). Автореф. дисс.… канд. ист. наук. Нукус, 2006.

[2048] Казахстанский путь", “Стальной профиль Казахстана”, “Без правых и левых”, “Стратегия ресурсосбережения и переход к рынку”, “Кремлёвский тупик”, “Стратегия становления и развития Казахстана как суверенного государства”, “Рынок и социально-экономическое развитие”, “На пороге XXI века” / Н. А. Назарбаев. Евразийский союз: идеи, практика, перспективы. 1994–1997. “Ғасырлар тоғысында”, “В потоке истории”, “Эпицентр мира”. Алма–Ата, 1996.

[2049] Назарбаев Н. Стальной профиль Казахстана. Алма-Ата, 1985.

[2050] Shu muallif. Казахстанский путь. Караганда, 2006. 372 с.

[2051] Алдамжаров З. А. О принципах методологии и источниках исследования вопросов истории и историографии освободительной борьбы казахского народа под покровительством С. Датова / Народно-освободительное движение в Казахстане в XVII–XX вв. как единый исторический процесс: Материалы науч.-теорет. конф., посвящ. 325-летию Есет батыра / Сост. В.З.Галиев и др. Актюбинск, 1992. С. 48–52.

[2052] Есмагамбетов К. Л. Что писали о нас на Западе. Алма-Ата: Қазақ университети, 1992. 150 с.

K. Abuev[2053], V. Z. Galiyev[2054], B. Abdurahmonova[2055], N. A. Abdullayev[2056], M. X. Abuseitova[2057], A. M. Abdildabekova[2058], R. Abdullin[2059], S. K. Igibayev[2060], K. Baypakov[2061], R. M. Jumashev[2062] va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida tahlil qilingan.

Qozog'istonning qadimgi davrga oida tarixi A. N. Maryashev, K. A. Akishev[2063], P. Marikovskiy[2064], B. N. Nurmuxanbetov[2065], K. M. Baypakov[2066], O. A. Artyuxova[2067], J. K. Kurmankulov[2068],

---

2053 Абуев К. Абылай (хан) и некоторые вопросы казахской историографии // Абылай хан. Кенесары (Проблемы нац.-освобод. движения) / Ин-т истории и этнологии; Сост.: В. З. Галиев и др. Алматы, 1993. С. 61–65.

2054 Галиев В. З. Национально-освободительное движение казахского народа в свете новых исследований // Мысль, 1993. № 11. С. 77–82; Shu muallif. К вопросу о периодизации истории Казахстана // Мысль, 1995. № 6. С. 84–86.

2055 Абдрахманова Б. Полное собрание законов Российской империи как источник изучения истории присоединения Казахстана к России // Издетс. Гуманит. Рылымдар сер. Поиск. Сер. гуманит. и обществ. наук. 1997. № 6. С. 78–82.

2056 Абдуллаев Н. А. Размышления об истории и исторической науке // Дуние. Вестник. 1998. № 1. С. 86.

2057 Абусеитова М. Х. Средневековые письменные источники о Великом Шелковом пути // Шелковый путь и Казахстан: Материалы науч.-практ. конф. (Алматы, 2-3 сент. 1998 г.). Алматы, 1999. С. 151–165. Shu muallif. Письменные источники по истории и культуре Казахстана и Центральной Азии в XIII–XVIII вв.: (Биобиблиогр. обзоры). Алматы: Дайк-Пресс, 2001. 426 с.

2058 Абдилдабекова А. М. Проблема принятия подданства России казахскими жузами в отечественной историографии 1991–2001 гг. // Вестн. КазНУ. Сер. ист. 2001. № 4. С. 19–24.; Shu muallif. Проблема вхождения Казахстана в состав Российской империи в современной Российской историографии // Вестн. КазНУ. Сер. ист. 2002. № 3. С. 29–32.

2059 Абдуллин Р. Корпус источников и документальных материалов по Западному Среднеазиеведению / Дздешс. Гуманит. гылымдар сер. Поиск. Сер. гуманит. наук. 2003. № 2. С. 36; Shu muallif. Средняя Азия и Казахстан в зеркале западных историографов // Мысль. 2003. № 7. С. 76–80.

2060 Игибаев С. К. Казахстан в источниках и материалах. Усть-Каменогорск: Медиа-Альянс, 2005. 284 с.; Shu muallif. Источники по истории народов Средней Азии и Казахстана (древность – XIV в.). // Игибаев С. К. Казахстан в источниках и материалах. Усть-Каменогорск, 2005. С. 8–59; Shu muallif. Письменные источники по истории Казахстана XVII–XVIII вв. // Игибаев С. К. Казахстан в источниках и материалах. Усть-Каменогорск, 2005. С. 113–185.

2061 Байпаков К. М. Древняя и средневековая история Казахстана в свете археологических исследований // Отан тарихы, 1998. №1. С. 35–42; Shu muallif. Археологическое культурное наследие: изучение, сохранение и использование // Промышленность Казахстана. 2006. № 6. С. 94–98.

2062 Жумашев Р. М. Источники по истории культуры Казахстана: Проблемы изучения // ҚарМУ хабаршысы. Тарих, философия, кукык сериясы, 2006. № 1(41). С. 46–57.

2063 Акишев К. А. Древние кочевники и мировая цивилизация: [генезис, проблемы, перспектива] // Вестн. АН КазССР. 1991. № 10. С. 3–10.

2064 Мариковский П. И. Камни рассказывают. Алматы: Credo, 1999. 70 с.; Shu muallif. Расшифровка некоторых наскальных рисунков Казахстана // Изв. АН Респ. Казахстан. Сер. обществ. наук. 2003. № 1. С. 229–247; Shu muallif. Рисунки на скалах южных и центральных районов Казахстана; Shu muallif. О-во архивистов и историков Алматинской обл. Алматы, 2004. 213 с.

2065 Нурмуханбетов М. Алтын адам – четыре мифа: Об истории находки Золотого человека // Туган елке. 2003. № 1–2. С. 75–78.; Shu muallif. Археологические исследования на могильнике Иссык // Мемлекетти «Медени мура-2004» багдарламасы бойынша 2004 жылы. Археологиялык зерттеулер жайлы есеп в Х. Маргулан атын.археология ин-ты; Ред. алка.: К. М. Байпаков, Ж. Е. Смаилов, З. С. Самашев и др. Алматы, 2005. С. 112–113.

2066 Байпаков К. Культурное наследие: Памятники археологии // Промышленность Казахстана. 2005. №4. С. 80.

2067 Артюхова О. А. Палеолитические памятники на территории Западно-Казахстанской области // Вопросы археологии Западного Казахстана: Сб. науч. тр. / Актюб. гос. ун-т им. К. Жубанова; Гл.ред. Г.Б. Избасарова. Актобе, 2005. Вып.2. С. 9–17.

Ye. I. Kichanov[2069], A. A. Pleshakov[2070] va boshqa izlanuvchilarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Qozoq xalqining etnogenezi va etnik tarixiga doir masalalar M. S. Mukanov[2071], N. Konshin[2072], A. Sh. Qodirboyev[2073], B. Ye. Kumekov[2074], Ye. Abil[2075], B. Irmuxanov[2076], A. Tajutov[2077], A. Jaksilikov[2078], O. Ismagulov[2079] va boshqalarning ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotlar Qozog'istondagi tarixiy yo'nalish rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillikdan keyingi bosqichni boshlab berdi. Yangi davr tadqiqotlarida asosiy e'tibor qozoq xalqining qadimiy tarixini tiklash, madaniyati va unga doir moddiy manbalarni qayta kashf qilishga qaratildi. Natijada, Qozog'iston bo'ylab ko'plab yangi arxeologik tadqiqotlar olib borilgan[2080].

---

2068 Курманкулов Ж. К. Обзор археологических раскопок на поселении Талдысай (1994–1996, 1998, 2001 гг.). // Изв. НАН РК. Сер. обществ, наук. 2005. № 1. С. 36–57.

2069 Кычанов Е. И. Законы, регулирующие ведение скотоводческого хозяйства: Период гуннов // Астана, 2005. № 3. С. 50–53.

2070 Плешаков А. А. Могильник эпохи бронзы Баганаты. Сев. Казахст. гос. ун-т им. М. Козыбаева. Петропавловск, 2005. 82 с.; Shu muallif. Свод памятников истории и культуры Северо Казахстанской области // Мемлекетти «Медени мура» багдарламасы бойынша 2005 жылгы Археологиялык зерттеулер ж айлы есеп: в. Х. Маргуланатын. археология ин-ты; Ред. алка.: К. М. Байпаков, Ж. Е. Смаилов, З. С. Самашев и др. Алматы, 2006. С. 285–287.

2071 Муканов М. С. Этническая территория казахов в XVIII – начале XX веков. Алма-Ата: Казахстан, 1991. 62 с.; Shu muallif. Из исторического прошлого. Алматы: Қазакстан, 1998. 160 с.; Shu muallif. Этногенез и этническая история казахского народа // История Казахстана: народы и культуры: Учеб. пособие. Алматы, 2001. С. 57-83.

2072 Коншин Н. Заметка о происхождении родов Средней Киргизской орды // Абай, 1992. № 1. С. 26–29.

2073 Кадырбаев А. Ш. Очерки истории средневековых уйгуров, джалаиров, найманов и киреитов. Алматы: Рауан, 1993. 165 с.

2074 Кумеков Б. Е. Об этнонимии кыпчакской конфедерации Западного Дешти Кыпчака XII – начала XIII века // Изв. НАН РК. Сер. обществ, наук. 1993. №1. С. 58-70; Shu muallif. О термине «Казак» // Абай. 1998. № 4. С. 55; Shu muallif. Кипчаки: [этнос и этноним] // Право и государство, 2002. № 1. С. 18–20.

2075 Абиль Е. Этногенез казахов: Опыт системного подхода. Костанай, 1997. 110 с.

2076 Ирмуханов Б. Хазары и казахи: поиск исторической связи: Хазарский каганат: роль и место в истории / Ирмуханов Б. Б. Казахстан: историко-публицистический взгляд. Алматы, 1996. С. 35–70; Shu muallif. Этническая история древнего Казахстана: (Очерк). Алматы: Олке, 1998. 146 с.; Shu muallif. Этническая летопись древнего Казахстана // Мысль, 1998. №6. С. 78–83; №7. С. 79–85; Shu muallif. Усунь и этногенез казахского народа // Мысль. 2006. № 11/12. С. 112–123.

2077 Тажутов А. Куманы, половцы, кипчаки и казахи: Этногенез казахов // Заря. 1999. № 1. С. 34–35; Shu muallif. Кто такие казахи? / Казахи и Казахстан. Алматы, 2003. С. 7–17; Shu muallif. Казахский народ сформировался из кипчакских племен / Казахи и Казахстан. Алматы, 2003. С. 18–27.

2078 Джаксылыков А. К проблеме происхождения слова и термина «Казак» // Науч. труды «Эдалет», 2001. № 2. С. 208–213.

2079 Исмагулов О. Антропология в системе музееведения: Морфология головы и лица, зубной системы, кожных узоров, группы крови, краниология // Қазакстан музейлер, 2002. № 11–12. С. 20–27.; Shu muallif. Древнейшие насельники Казахстана: взгляд антрополога // WORL discovery. Kazakhstan, 2004. №1. С. 38–42.; Shu muallif. Исследование этноисторических процессов в антропологии Казахстана // Казахская цивилизация, 2005. № 2. С. 37–57.

2080 Археологические памятники на Великом Шелковом пути: Межвуз. науч. сб./ Ред. кол.: К. М. Байпаков и др. Алматы, 1993. 200 с.; Археологические комплексы Кызылтау: В Джамбулской обл. / Каменный век Казахстана: Исслед. рос.-казахст. археол. экспедиции в Казахстане (1998–2001) / Ин-т археологии и этнографии СО РАН; Отв. ред. А. П. Деревянко. Новосибирск, 2003. С. 54–91; Археологическая карта Южно-Казахстанской области. Туркестан: Междунар. каз.- турец. ун-т им А. Яссави / Гл. ред. сов.: С. Ж. Пралиев, А. Ювалы, Р. Бердибай и др. 2004. Т.1 .Тюлькубасский район. 244

Mustaqillik yillarida qozoq xalqining kelib chiqish tarixi, etnogenezi masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Masalan, M. S. Mukanov[2081] "Этническая территория казахов в XVIII – начале XX веков" asarida Ch. Valixonovning fikrlarini inkor qilmagan holda, "Katta, O'rta va Kichik" – qirg'iz-qaysoq o'rdalari bitta – "qozoq" xalqi эkanligini qayd etgan. "Juz" atamasi "yuzlik", "yuz qabilasi" emas, balki "qism" yoki "bo'lak", "tomon" ma'nolarini anglatadi. Muallif XV–XVI asrlarda juzlarning vujudga kelish davri va sabablarini tushuntirishga harakat qiladi.

M. Tinishpayevning[2082] "История казахского народа" asarida qozoq xalqining o'rta asrlardagi tarixi yoritib berilgan. Muallif qozoq xalqi etnik tarixining muhim jihatlaridan yana biri – juzlarning kelib chiqishi sabablari va davri masalasiga to'xtalgan. 1931-yilda Kichik o'rdaga borgan tarjimon M. Tevkelevning ma'lum qilishicha, "Qirg'iz-qaysoq" o'rdasi uchta qism, ya'ni Uluyuz, Oretayuz va Kichik juzdan iborat bo'lgan.

S. Axinjonovning "Кипчаки в истории средневекового Казахстана" asarida[2083] qipchoqlar hamda ularning qozoq xalqi эtnogenezida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumki, IX–X asrlarda Qozog'iston hududida boshqa qabilalar qatorida qipchoqlar ham yashagan. Natijada, XI–XV asrlarda Irtishdan Dunaygacha bo'lgan Buyuk Yevroosiyo tekisligi, Qrimdan to Volga bo'yidagi Buyuk Bulg'oriyagacha arab va fors manbalarida "Poloveslar dalasi" deb ataladigan qipchoq-poloveslar ko'chib yurishar edi. Asardagi ma'lumotlarga ko'ra, XVI–XVIII asrlarda turk superetnosi bir necha mustaqil etnoslarga bo'linib ketgandan so'ng qudratli turkiy qipchoq qabilasining katta qismi qozoq xalqi tarkibiga kirdi va "Qipchoq cho'li" yoki "Cho'l" deb hozirgi Qozog'iston hududi ta'kidlandi.

J. Omari[2084] va B. Tasbolatұлы[2085] kabi mualliflar ham qozoq xalqi tarixa oid muhim mulohazalarini qayd etganlar. S, Joldasbayevning[2086] asarida Qozog'istonning XIX asr boshlaridagi tarixi masalalari tadqiq etilgan. Unga ko'ra, O'rta Juz xonlari Buke Vali vafotidan so'ng podsho hukumati xon hokimiyatini tugatib, 1822-yildan yangicha boshqarish tizimini joriy etgan.

---

с.; История изучения древних памятников г. Алматы и его окрестностей / Самашев З., Григорьев Ф., Жумабекова Г. Древности Алматы. Алматы, 2005. С. 6–16; Исследования могильника Чиликты / Мемлекетти «Мэдени мура – 2004» багдарламасы бойынша 2004 жылы. Археологиялык зерттеулер жайлы есеп. Алматы, 2005. С. 123-125; Исследования городища Акыртас / Мемлекетти «Мэдени мура-2004» багдарламасы бойынша 2004 жылы. Археологиялык зерттеулер жайлы есеп / Ред. кол.: К. М. Байпаков, Ж. Е. Смаилов., З. С. Самашев и др. Алматы, 2005. С. 131–133; Археологические исследования на могильнике Берел / Мемлекетти «Мэдени мура-2004» багдарламасы бойынша 2004 жылы. Археологиялык зерттеулер жайлы есеп / Ред. кол.: К. М. Байпаков., Ж. Е. Смаилов., З. С. Самашев и др. Алматы, 2005. С. 121–123.

2081 Муканов М. С. Этническая территория казахов в XVIII – начале XX веков. Алма-Ата: Казахстан, 1991.

2082 Тынышпаев Т. История казахского народа. Алматы: Санат, 1998.

2083 Ахинжонов С. М. Кипчаки в истории средневекового Казахстана. Алматы: Былим, 2000. С. 78.

2084 Жамбыл Омари. Қаз дауысты Қазыбек би. Астана: Фолиант, 2000.

2085 Бекболат Тасболатұлы. Қаңлының әлемдік өркениетке қосқан үлесі // Айқын. 2009. №128.

2086 Жолдасбаев С., Бабаев Д. История Средневекового Казахстана. Алматы: Атамұра, 2003.

1824-yilda Kichik juzda ham xon hokimiyati tugatilib, urug‘ oqsoqollari hokimiyatini cheklaydigan hududiy boshqaruvga o‘tilgan. Dasht yerlarning janubiy hududlari Qo‘qon va Xiva xonliklari tarkibida qolgan.

Q. Sartqojaning “Orxon mұralarы”[2087] kitobida qozoq xalqining shakllanish tarixiga doir ko‘plab yangi ma’lumotlar keltirilgan. O. Ismagulovning “Древнейшие населники Казахстана” deb nomlangan tadqiqotida[2088] qozoqlar antropologiyasi haqida ma’lumotlar uchraydi. Unga ko‘ra, qozoqlar “Janubiy Sibir tipi”ga kiradilar (bu tip o‘zi ichiga ham mongoloid, ham yevropeoid belgilarini oladi). Janubiy Sibir tipi mo‘g‘ul bashara irqqa mansub, ko‘zlari qisiq, yuzlari yumaloq, tanasi oq sariq-malla, puchuq burun, panjalari kalta, jussalari mayda, bosh chanog‘i braxikefal (dumaloq). Muallifning qayd etishicha, bepoyon dashtliklar, ot-ulov, tuya ularning jonu dili, erkin va ozod hayot turmush tarzi bilan suyagi qotgan.

N. A. Abdullayevning qozoqlarning etnik tarixiga oid asarida[2089] mahalliy qabila-urug‘lari tarixan uchta guruhga bo‘linib, alohida hududlarda yashaganliklari haqida ma’lumot berilgan. Muallifning qayd etishicha, Qozog‘iston hududida qadimgi odamlarning paydo bo‘lishi ilk paleolitning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Chamasi, bu vaqtda birinchi muzlik davri chekina boshlagan, ko‘plab tog‘ daralarining oqimlari pastga otilarkan, tosh va shag‘allarni ham sohillarga surib chiqargan.

G. V. Nosovskiyning[2090] tadqiqotida XVI asr o‘rtalarida No‘g‘oy O‘rdasi, keyinroq Mo‘g‘uliston va Sibir xonliklari parchalanib ketganligi, qozoq xonligi juzlarga bo‘linib, Katta juz (Yettisuv), O‘rta juz (Markaziy Qozog‘iston) hamda Kichik juz (G‘arbiy Qozog‘iston) deb atala boshlanganligini qayd etilgan.

B. Tasbolatұlыning asarlarida[2091] qozoq xalqining aytishuv va afsonalariga asoslangan holda mazkur masalaga oydinlik kiritishga harakat qilingan. U mo‘g‘ul ulusi namunasi bo‘yicha qozoq juzlarini XV–XVI asrlarda paydo bo‘lgan, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, mustaqillik davrida qozoq xonligi tarixini o‘rganish keng ko‘lamda amalga oshirildi. Rossiya imperiyasi bosqini davrida ham qozoq xalqi o‘zining boy tarixini saqlab qoldi. Mustaqillik davrida ushbu boy tarix qayta o‘rganildi va uning ayrim jihatlarini o‘rganishdagi muammolar bartaraf qilindi. Rene Grusse[2092] Markaziy Osiyo tarixiga bag‘ishlangan asarida bu haqda ko‘plab ma’lumotlar bergan.

---

[2087] Қаржаубай Сартқожа. Орхон мұралары. 1-ші кітап. Астана: Күлтегін, 2003. 25-б.

[2088] Исмагулов О. Древнейшие насельники Казахстана: взгляд антрополога // WORLD discovery. Kazakhstan, 2004. С. 20–27.

[2089] Абдуллаев Н. А. К вопросу этнической истории казахов. Оренбург, 2005.

[2090] Носовский Г. В., Фоменко А. Т. Русь и Орда. Великая Империя Средних веков. Москва: Астрель, 2007.

[2091] Бекболат Тасболатұлы. Қаңлының әлемдік өркениетке қосқан үлесі // Айқын. 2009. №128.

[2092] Рене Груссе. Империя степей. История Центральной Азии / Пер. с англ. Алматы, 2003.

Uning bergan ma'lumotlariga ko'ra, qozoqlarning Rossiya vassalligiga o'tishi natijasida barcha Qozog'iston hududlarini Rossiya tarkibiga kiritish harakati avj oldi. 1734-yilda qo'shib olingan yerlarni o'zlashtirish maqsadida ober-sekretar I. K. Kirilov boshchiligida maxsus Orenburg ekspeditsiyasi tashkil qilingan. Unga yordamchi qilib A. Tevkelev tayinlangan. 1737-yilda I. Kirilov vafotidan so'ng Orenburg ekspeditsiyasining nomi "Orenburg komissiyasi" deb o'zgartirilgan. Orenburgning qurilishi 1735-yilda boshlangan va 1744-yildan ushbu shahar Orenburg guberniyasining markaziga aylangan. 1748-yilda esa Orenburg kazak qo'shinlari tuzilgan. Qozog'istonda mustahkamlangan chegara chiziqlari paydo bo'lgan.

1740–1743-yillarda Kichik juz va Janubiy Ural yerlarida ko'plab qal'alar (Vozdvijennaya, Rassilnaya, Ilinskaya, Tanalikskaya, Urazimskaya, Kizilskaya, Magnitnaya, Karaulskaya, Prutoyarskaya, Nijneozernaya, Peregibenskaya, Ust-Uyskaya, Yelshanskaya, Krasnogorskaya, Guberlinskaya, Novesergievskaya va boshqalar) qurilgan. Bularning barchasi qozoqlarning roziligisiz amalga oshirilgan, shu yo'l bilan qozoqlarning dalalari qisqartirilgan. XVIII asrning 50-yillarida Gorkaya, Irtishskaya, Kolivanskaya, Ishimskaya, Orskaya va boshqa chegara chiziqlari paydo bo'ldi. Natijada, Yoyiq daryosidan Ust-Kamenegorsk tomonga 3,5 ming chaqirim uzunlikda ketma-ket qal'alar va chegara frontlari vujudga kelgan edi.

Tarixiy tadqiqotlarda mustamlakachilikning ushbu ko'rinishi unda harbiylar va kazaklar xizmat qilganligi sababli harbiy-kazakcha mustamlakachilik deb atalganligini qayd etiladi. Rossiyaning Qozoq juzlarida olib borgan mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining ozodlik kurashiga sabab bo'lgan. Masalan, 1783–1797-yillarda Ural va Emba daryolari oralig'idagi yerlarda baybaqti urug'i sardori S. Datov Bukeyev xonligida 1836–1838-yillarda Isatoy Taymanov va Mahambet Utemisov boshchiligidagi qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Qozoqlarning milliy-ozodlik harakatlari borgan sari kengayib borgan. Shunday qo'zg'olonlardan biriga xon Kenesari Qosimov (1802–1847) boshchilik qilgan. 1856-yilda shekti urug'i sardori Janxoja Nurmuhamedov boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan. Umuman olganda, Janubiy Qozog'iston yerlari mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik kurashi maydoniga aylanib qolgan.

M. X. Abuseitova va boshqalarning[2093] hammualliflikdagi "История Казахстана и сентралной Азии" asarida o'z mustaqilligi uchun kurashganligi bayon qilingan. Unda o'lkada milliy-ozodlik harakatining uyushmaganligi va bolsheviklar oddiy xalqni aldov yo'li bilan o'z ortidan ergashtira olganligi sababli tez orada Verniy, Semipalatinsk va Ust-Kamenogorskda ularga zarba berganligi qayd etildi. Bu paytda vujudga kelgan vaziyat markazga Markaziy Osiyoda turkiy xalqlarning yagona davlat atrofida jipslashuvi tomon bo'layotgan

[2093] Абусеитова М. Х., Абылхожин Ж. Б., Кляшторный С. Г., Масанов Н. Э., Султанов Т. И., Хазанов А. М. История Казахстана и Центральной Азии. Учебное пособие. Алма-Ата: Білім, 2001. 620 с.

harakatlariga jiddiy zarba berish uchun asos bo'ldi. Qozog'istonda boshlanib ketgan milliy-ozodlik harakati kuchlari zarbaga uchradi va Xitoy hududiga chekinishga majbur bo'ldi. 1920-yil 26-avgustda RSFSR tarkibida poytaxti Orenburg bo'lgan Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSRni tashkil etish to'g'risidagi RSFSR hukumati dekreti e'lon qilindi. 1920-yil 4–12-oktabrda Orenburgda bo'lib o'tgan Qozog'iston Sovetlarining ta'sis s'yezdi RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR tuzilganligini e'lon qildi.

G. V. Nosovskiyning[2094] "Империя" asarida sovet davrida qozoqlarning siyosiy holatini yoritib berilgan. Unga ko'ra, qizil imperiya bosqinidan so'ng Qozog'iston hududiy jihatdan chegaralanadi hamda o'zining hududi va nomiga ega bo'ladi.

Qozog'istonning mustaqillikdan keyingi davr tarixi ham turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Masalan, so'nggi yillardagi davlaning xalqaro munosabatlari K. Tokayevning "Мустақиллик байроғи остида. Ташқи сиёсат ҳақида эсселар"[2095], "Енгиб ўтиш: дипломатик очерклар"[2096], "Нур ва соя"[2097], "Енгиб ўтиш: дипломат очерклар"[2098]; T. Mansurovning "Ўзгаришлар давридаги Қозоғистон-Россия муносабатлари" tadqiqotlari[2099].

Ushbu davrda siyosiy tarix bo'yicha ham bir qator umumlashtiruvchi adabiyotlar chop etildi. Jumladan, K. Burhonov, B. Sultonov va B. Ayaganlarning "Қозоғистоннинг замонавий сиёсий тарихи (1985–2006)"[2100] asarini alohida ko'rsatish mumkin.

Zamonaviy Qozog'iston tarixini anglashda ushbu asarlarning ahamiyati katta: M. Joldasbekovning "Эл тағдыры – ер тағдыры"[2101], R. Kaliyevaning "Қозоғистон Республикаси ва замонавий дунё"[2102], Ye. Yertisbayevning "Қозоғистон ва Назарбоев: ўзгариш маъноси"[2103], T. Omarbekovning "Қозоғистон тарихининг долзарб муаммолари"[2104] va boshqalar.

Qozog'istonning zamonaviy tarixini o'rganish ishlari rivojlanish bosqichida. Shu sababli, barcha manbalar asosida 1990–2020-yillarda Qozog'istonning mustaqil yo'lini har tomonlama, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va xalqaro miqyosda har tomonlama tahlil qiladigan hamda

---

[2094] Носовский Г. В., Фоменко А. Т. Империя. Том II. Москва: Римис, 2004. 360 с.

[2095] Токаев К.-Ж. К. Под стягом независимости: Очерки о внешней политике Казахстана. Алматы: Білім, 1997. 736 с.

[2096] Shu muallif. Преодоление: дипломатические очерки. Алматы, 2003. 652 с.

[2097] Shu muallif. Свет и тень: очерки казахстанского политика. М.: Восток-Запад, 2008. 542 с.

[2098] Shu muallif. Преодоление. Очерки дипломата. М.: ЦЛНГ, 2009. 511 с.

[2099] Мансуров Т. Казахстанско-российские отношения в эпоху перемен: 1991–2001. Алматы: Реал-Пресс, 2001. 709 с.

[2100] Современная политическая история Казахстана (1985-2006 гг.) / Бурханов К. Н., Султанов Б. К., Аяган Б. Алматы, 2006. 264 с.

[2101] Ел тагдыры- ер тагдыры. Жолдасбеков, Мырзатай. Алматы: Санат, 1997. 688 б.

[2102] Калиева Р. М. Республика Казахстан и современный мир. Астана: Елорда, 2000. 281 с.

[2103] Ертысбаев Е. Казахстан и Назарбаев: логика перемен. Астана: Елорда, 2001. 576 с.

[2104] Омарбеков Т. Актуальные проблемы истории Казахстана XX в. Алматы, 2001.

o'rganadigan to'laqonli ko'p qirrali asar yaratish tarix fanining dolzarb vazifalaridan biridir. O'tgan yillar davomida ko'p tadqiqotlar olib borilgan, ammo ular xali yetarli darajada emas. Shunday qilib, Qozog'istonning zamonaviy tarixini o'rganish tarixchi, siyosatshunos, sotsiolog va kulturologlarning tadqiqotlarida ustuvor ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

**Qirg'izistonda tarix fani.** Qirg'izistonda davlat suvereniteti qo'lga kiritilishi bilan tarix fanining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Endilikda qirg'izlar tarixi SSSR xalqlari tarixining ajralmas qismi sifatida emas, balki mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlandi.

Qirg'izistonlik tarixchilar xalq tarixini o'rganishda eski yondashuvlardan uzoqlashib, yangicha qarashlar asosida xalq tarixini o'rganishga kirishdilar. Natijada tarixni qayta baholash ishlari uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Barsbeg, Tagaybiy, Kubatbiy, Borombay, Shabdan, Baytik, Alimbek Datka, Qurmanjon Datka va boshqa ko'plab davlat arboblari, ilgari faqat ekspluatatsiya qiluvchi sinf vakillari sifatida tilga olingan bo'lsa, endilikda ularning hayot yo'li o'z xalqlari tarixida munosib o'rnini topa boshladi. Masalan, A. G'oziyevning asarlarida Qurmonjon Dodxoh va Po'latxon shaxslari hayoti qayta baholangan bo'lsa[2105], T. Omurzakovaning tadqiqotlarida ushbu an'ana davom ettirildi[2106].

Qirg'iziston va qirg'izlar tarixi bo'yicha tadqiqotlar mamlakat mustaqilligidan so'ng anchagina jonlandi. Jumladan, A. Baytur[2107], V. M. Ploskix va V. P. Mokrinin[2108], Esen uulu Kilich[2109], T. O. Ojukeeva[2110], J. S. Baktigulov[2111] va O. J. Osmonov hamda J. D. Samievalarning [2112] asarlarida ushbu masala bo'yicha tadqiqot ishlari boshlab berilgan.

Qirg'izlar etnogenezi va etnik tarixini o'rganish ham mustaqillikdan keyingi davrning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Ushbu masala S. T. Tabishaliyev[2113], D. Remi[2114], Esen uulu Kilich[2115], T. K. Koychuyev,

---

2105 Газиев А. Курманжан-датка – некоронованная царица Алая. Бишкек, 1991; Shu muallif. Серебряная камча. Бишкек, 1992; Shu muallif. Пулат-хан. Бишкек, 1995.

2106 Омурзакова Т. Курманжан датка и ее эпоха. Бишкек, 1996; Shu muallif. Политическая деятельность Курманжан-датки. Бишкек, 1996.

2107 Байтур А. Кыргыз тарыхынын лекциялары (лекции по истории кыргызов). 1–2 книга. Бишкек, 1992.

2104 Плоских В. М., Мокрынин В. П. История кыргызов и Кыргызстана. Бишкек, 1992; Shu mualliflar. Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхы. Бишкек, 1993; Shu mualliflar. Кыргызстан тарыхы. Учебное пособие для 8–9 классов. Бишкек, 1995.

2109 Эсен уулу Кылыч. Древнекыргызское государство Хагяс. Каганат Кыргыз. Кыргызское великодержавие (840 – нач. X в.). Бишкек, 1994.

2110 Ожукеева Т. О. XX век: возрождение национальной государственности в Кыргызстане. Бишкек, 1993; Shu muallif. Кыргызы и Кыргызстан: опыт нового исторического осмысления. Бишкек, 1994.

2111 Бактыгулов Дж. С. Из истории древнего Кыргызстана (VII–V вв. до н. э.) // Вестник Кыргызского гос. нац-го. ун-та. Сер. общ. науки. Вып. 3. Бишкек, 1995. С. 80–89.

2112 Бактыгулов Дж. С., Осмонов О. Дж., Самиева Ж. Д. Уровень жизни и населения Кыргызстана (1961–1994 гг.). Бишкек, 1995.

2113 Табышалиев С. Т. Происхождение кыргызского народа. Бишкек, 1993.

2114 Реми Д. Кыргызы афганского Памира: историко-этнографический рассказ. На кырг. яз. Бишкек, 1993.

2115 Эсен уулу Кылыч. Древние Кыргызы. Кыргызы в Средней Азии. Бишкек, 1993.

V. P. Mokrinin va V. M. Ploskix[2116], K. Jusupov[2117], S. A. Attokurov[2118] hamda boshqalarning tadqiqotlarida yangi manbalar asosida ochib berishga harakat qilingan.

Qirg'izlarning tarixiy-madaniy yodgorligi hisoblangan "Manas" tarixini qayta tiklash, uning ahamiyatini ochib berish ishlari ham mustaqillikdan so'ng yanada jadallashdi. Mazkur masala V. M. Ploskix[2119], I. B. Moldobayev[2120], A. Jakipbek[2121], R. Z. Qodirbayeva[2122], B. N. Putilov[2123]; xorijlik tadqiqotchilardan S. M. Boura[2124], K. Rayxl[2125], Van der Gayd va boshqalarning tadqiqotlarida ochib berilgan[2126].

Mustaqillik sharofati bilan qirg'iz tarixchilari uzoq xorijdan kelgan hamkasblari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, YuNESKOning xalqaro dasturi doirasida Buyuk Ipak yo'lida joylashgan yodgorliklarni chuqur o'rganish ishlari boshlandi. Eng muhim tarixiy joylar qayta tiklanmoqda va o'rganilmoqda. Tarix instituti xodimlari har yili tarix, arxeologiya va etnologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, forumlarda doimiy ravishda qatnashib kelmoqda.

Arxeologiya sohasida Rossiya Fanlar akademiyasi, Moskva, Sankt-Peterburg olimlari va Ermitaj xodimlari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun stajirovkalar, qo'shma nashrlar hamda ekspeditsiyalar shaklida mustahkam va uzoq muddatli aloqalar o'rnatildi. Qirg'iziston Tarix instituti Vena universiteti (Avstriya) bilan faol hamkorlik aloqalarini amalga oshiradi. Hozirgi kunda ular o'rtasida arxeologlar almashinuvi, uzoq muddatli stajirovkalar, qo'shma qazish ishlari va ekspeditsiyalar davom etmoqda.

Ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Jumladan, YuNESKO shtab-kvartirasi bilan "Ipak yo'lini har tomonlama o'rganish – muloqot yo'li" dasturi bo'yicha doimiy aloqalar mavjud. Bundan tashqari, qo'shni davlatlardan O'zbekiston bilan aloqalar o'rnatilgan bo'lib, Samarqanddagi Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

So'nggi yillarda Germaniya, Turkiya va O'zbekistondagi arxeologlar bilan ilmiy aloqalar yanada mustahkamlandi. O'zgan tarixiy-me'moriy majmuasi va Sulaymon tog'ining qo'riq zonasi ob'yektlarini qo'shma tadqiq

---

[2116] Койчуев Т. К., Мокрынин В. П., Плоских В. М. Кыргызы и их предки. Бишкек, 1994.
[2117] Кыргызы. Составитель К. Жусупов. Бишкек, 1996.
[2118] Аттокуров С. А. Кыргыз этнографиясынын тарых наамасы (Историография кыргызской этнографии). Бишкек, 1996.
[2119] Плоских В. М. Манас не признал себя виновным. Бишкек, 1993.
[2120] Молдобаев И. В. "Манас" – историко-культурный памятник кыргызов. Бишкек, 1995.
[2121] Жакыпбек А. Тенири Манас. Роман. Бишкек, 1995.
[2122] Кыдырбаева Р. З. Эпос «Манас». Генезис, поэтика, сказительство. Бишкек, 1996.
[2123] Путилов Б. Н. Эпическое сказительство. М., 1997. С. 48-51.
[2124] Боура С. М. Героическая поэзия. / Пер. с англ. М., 2002. С. 143–147, 477–479, 485–487, 650–651.
[2125] Райхл К. Тюркский эпос. / Пер. с англ. М., Вост. лит., 2008. С. 76–80, 88.
[2126] Spirited Performance. The Manas Epic and Society in Kyrgyzstan. N. van der Heide, Amsterdam, 2008.

qilish, tiklash hamda muzeylashtirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda, shuningdek, “O‘sh–3000” davlat dasturini amalga oshirish doirasida ham ilmiy maslahat va nazorat ishlari olib borilgan.

Tarix instituti xodimlari “Qirg‘izlar va Qirg‘iziston tarixi” loyihasini amalga oshirishni yakunlashgan. Loyihaning maqsadi – yangi arxeologik, etnografik va hujjatli materiallarni jalb qilish asosida xalqning ko‘p asrlik tarixi masalalarida haqiqat hamda ob’yektivlikni tiklashdan iborat edi.

Ushbu loyihaga muvofiq, qadimgi davrlardan beri qirg‘iz xalqi tarixi va madaniyati to‘g‘risidagi materiallarni boyitish, xususan, O‘sh shahrining 3000 yilligiga tayyorgarlik bilan bog‘liq ravishda arxeologik tadqiqotlar sezilarli darajada kengaytirildi.

Qirg‘iz xalqi va Qirg‘iziston tarixining yangi uch jildi hamda boshqa asarlar insoniyat taraqqiyotining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda yangi yondashuvlar asosida tayyorlandi. Bunda ilgari noma’lum bo‘lgan yoki g‘oyaviy va boshqa sabablarga ko‘ra foydalanilmagan yangi materiallar, arxiv hujjatlari, arab, fors, turk va xitoy manbalaridan foydalanilgan.

Institut olimlarining Qirg‘iziston tarixining turli muammolari bo‘yicha yangi pozitsiyalardagi dastlabki ilmiy ishlanmalari “Қирғизистон тарихи” bo‘yicha universitetlarning ikki jildlik darsligida qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha (1997–1998), uchta nashri (1995, 1998 va 2000)da sinovdan o‘tkazildi. Bundan tashqari, “Қирғизлар ва Қирғизистон тарихи”, “Қирғиз Республикасининг тарихи”, “Қирғиз давлатчилиги тарихи”ға оид асарларида[2127] yangicha ko‘rinishda qayta nashr qilindi. Respublika tarixiga oid ilgari noma’lum bo‘lgan ko‘plab hujjatlar to‘plam sifatida nashr etildi.

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar qirg‘iz xalqining etnogenezini hamda boshqa sohalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, N. A. Manapaevaning “Совершенствование и развитие высшего образования Кыргизской Республики при содействие Фонда “Сорос-Кыргизистан” и других международных организатсий”[2128] nomli asarida qirg‘izlarning kelib chiqishi va davlatchilik tarixi masalalari o‘z aksini topdi.

Mustaqillikdan keyin o‘z asar va tadqiqotlari bilan Qirg‘iziston tarix fanini rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan olimlar – S. T. Tabishiliyev, E. Beyshembiyev, D. Junushaliyev, V. Mokrinin, Z. Kurmanov, T. Koychuev,

---

[2127] Койчуев Т. История кыргызов и Кыргызстана. Учебное пособие для вузов. Бишкек: Илим, 1995. 328 с.; Бактыгулов Дж. С., Момбекова Ж. К. История кыргызов и Кыргызстана с древнейших времен до наших дней. Бишкек: Кыргызстан. Мектеп, 2001. 344 с.; Плоских В. М., Джунушалиев Д. Д., Абдырахманов Т. А. История кыргызов и Кыргызстана. Учебник для вузов. 3-е дораб. изд. Бишкек: Кыргызско-Российский славянский университет (КРСУ), 2015. 566 с.

[2128] Манапаева Н. А. Совершенствование и развитие высшего образования Кыргизской Республики при содействие Фонда “Сорос-Кыргизистан” и других международных организаций. Бишкек, 2009. С. 112–114.

V. Ploskix, V. Ya. Butanayev, Yu. S. Xudyakov, A. A. Asankanov va O. J. Osmonovlarning[2129] xizmatlari alohida e'tirofga sazovordir.

Umuman olganda, Qirg'izistonda tarixiy fanlar rivoji to'xtab qolgani yo'q. Ushbu sohadagi ishlar mustaqillikdan so'ng yangicha qarashlar asosida rivojlanmoqda, lekin muammolar va hali yechilishi kerak bo'lgan tarixiy masalalar ham talaygina.

**Turkmanistonda tarix fani.** Turkmanistonda mustaqillikdan so'ng tarixiy fanlar doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning salmog'i haqida ma'lumotlar yetarli emas. Mamlakat tarixi va o'tmishi bo'yicha ma'lum bo'lgan ba'zi ishlar, ulardagi ma'lumotlar Turkmanistonning bugungi kundagi tarixiy izlanishlari haqida to'liq xulosa chiqarish uchun yetarli emas.

Mustaqillikning boshlarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan M. Annanepesovning asarlarini[2130] alohida ko'rsatish mumkin. Ushbu muallifning izlanishlarida turkman qabilalarining yashash tarzi, xo'jaligi, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixi aks etgan. Shuningdek, mazkur kitobda turkman qabilalarining bevosita Xiva xonligi va Buxoro amirligi bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin.

O'rta asrlarda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Қутадғу билиг" asari mustaqillik davrida [2131] yangi nashrdan chiqdi. Didaktik – pandnoma ruhida bitilgan ushbu asar turkiy xalqlarga bag'ishlangan bo'lib, uning turkman xalqiga bog'liqlik tomoni ham bor. Unda davlat boshlig'i (o'rta asrlarda davlat boshlig'i bek yoki elig deb atalgan) davlatni boshqarishda nimalarga e'tibor berishi kerakligi haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu asarda to'rtta obraz (Kuntug'di bek yoki elig, Oyto'ldi vazir, O'gdulmish vazirning o'g'li, O'zg'urmish vazirning qarindoshi) to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi.

Mahmud Koshg'ariyning "Девону луғотит-турк" asari ham muhim manbalardan biridir[2132]. Unda barcha turkiy xalqlarining kelib chiqishiga doir ma'lumotlar bilan birgalikda, turkiy xalqlarda uchraydigan so'zlarning ma'no-mazmuni va izohlari keltirilgan. Mazkur asarda turkiy xalqlar qatorida turkmanlarning tilidagi so'z va so'z birikmalari ham keltirilgan bo'lib, bu qadimdan turkmanlarning o'z tiliga ega ekanligidan dalolat beradi.

---

[2129] Табышылиев С. Т. Происхождение кыргызского народа. Фрунзе, 1991; Shu muallif. Кыргызстан на Великом шелковом пути. Бишкек, 1992; Бейшембиев Э., Джунушалиев Д., Мокрынин В., Плоских В. Введение в историю кыргызской государственности: Курс лекций для вузов. Бишкек,1994; Курманов З. Этапы становления государственности в Кыргызстане / Кыргызы и Кыргызстан: опыт нового исторического осмысления. Бишкек, 1994; Койчуев Т., Мокрынин В., Плоских В. Кыргызы и их предки: нетрадиционный взгляд на историю и современность. Бишкек. 1996; Бутанаев В. Я., Худяков Ю. С. История енисейских кыргызов. Абакан, 2000; Асанканов А. А., Осмонов О. Дж. История Кыргызстана. Бишкек, 2002.

[2130] Аннанепесов М. Юго-западные туркмены в первой половине XIX века / Под ред. Н. А. Кузнецовой. Ашхабад, 1995; Shu muallif. Atagarryýew Türkmenistanyň taryhyndan materiallar I- tom. Aşgabat, 1995.

[2131] Юсиф Баласагунлу. Қутадғу билиг. Бакı: Азәрнәшр, 1994. 492 s.

[2132] Маҳмуд Kaşğари вә онун «Диванӥ лӱғат-ит-тӱрк» әсәри. Бакı: МБМ, 2008. 432 s.

Turkmanlar haqida V. Ribalovning “Туркменская трагедия” asarida turli ma’lumotlar berilgan[2133]. Mazkur kitobda Saparmurod Niyozov xalqni qonunsizlik, qashshoqlik va ma’naviy qullikka botirgan zamonaviy diktatorlardan biri sifatida yoritilgan. Publitsistik shaklda yozilgan ushbu kitobda muallif Turkmanboshining mansab va totalitar boshqaruvi, o‘zi aldagan barcha turkmanlarning “boshi” hamda bugungi kungacha ma’naviy, huquqiy va iqtisodiy tahqirlarga uchraganligi haqida hikoya qilinadi. Mazkur kitob turli xil ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida fikrlash imkonini beradi. Ushbu kitob siyosiy ruhda yozilganligi bilan xarakterlanadi.

2006-yilda A. O. Kuliyevning “Два года в правителстве и тринадсат лет в оппозитсии” kitobi nashr etildi[2134]. Ma’lumki, Avdi Kuliyev 1990–1992-yillarda Turkmaniston tashqi ishlar vaziri bo‘lib ishlagan, keyinchalik iste’foga chiqqan edi. Muallif kitobda o‘z boshidan kechirgan voqealarni yozib qoldirgan. S. Niyazovning faoliyatini tanqid qilganligi uchun ta’qibga olingan va josuslikda ayblangan. Keyinchalik mamlakatni tark etib, umrini so‘nggigacha Norvegiyada yashagan.

Uning ma’lumotlariga ko‘ra, SSSR parchalanganidan so‘ng turkman xalqi fuqarolik huquqlari va erkinliklari yaxshilanishini kutgan edi, ammo, buning aksi sodir bo‘ldi. Ular G‘arbdan fuqarolik huquqlari va erkinliklariga erishishda yordam berishlarini kutgan edi, G‘arb esa Markaziy Osiyo respublikalarida inson huquqlari va demokratiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilishdan chekindi hamda ushbu mamlakatlar xalqlarini o‘zlarining sobiq hukmdorlari bilan yolg‘iz qoldirdi.

Muallifning o‘z xalqi taqdiriga qanchalik befarq emasligi uning xulosalaridan ham ko‘rinadi. Uning fikriga ko‘ra, Turkmanistonda hamma demokratiyaga muhtoj. Albatta, biror kun mamlakatda demokratik tartib o‘rnatilsa, hamma xursand bo‘ladi, lekin dunyodagi biron bir xalq yoki biron bir davlat biz uchun Turkmanistonda demokratiyani o‘rnatish uchun biror narsa qilmaydi, chunki bu bizning o‘z muammomizdir[2135].

S. Niyazovning “Рухнома”[2136] risolasida turkmanlarning qadimgi davlatlari, turkiy xalqlar orasida turkmanlarning qadimiyroq ekanligi va ularning kelib chiqishiga dior ma’lumotlar uchraydi. Ushbu asarda mubolag‘ali o‘rinlar ham mavjud bo‘lib, chunonchi, turkmanlarda davlatchilik 10 ming yilliklarga borib taqalishi qayd etilgan. Albatta, turkman xalqining qadim madaniyati ming yilliklarga borib taqaladi, ammo keltirilgan faktni asoslash uchun jiddiy tadqiqotlar olib borilishi zarur. Biroq, ushbu asar turkmanlar tarixini o‘rganishda muhim bo‘lib, unga ko‘p murojaat qilinadi.

---

2133 Рыбалов В. Туркменская трагедия. М.: Фонд Туркменистан, 2003. 240 с.
2134 Кулиев А. О. Два года в правительстве и тринадцать лет в оппозиции. М., 2006. 168 с.
2135 Электрон манба: https://razumru.ru/humanism/journal/43/kuliev.htm.
2136 Сапармурат Туркменбаши. Рухнама. Книга первая / Туркменская Государственная издательская служба. Ашхабад, 2006.

Mamlakat Prezidenti G. Berdimuhammedovning "Ахалтэкэ аты – ифтихарымыз вэ şöхрэтимиз"[2137] deb nomlangan asarida turkman xalqining milliy ramzlaridan biri bo'lgan – axaltekin otining sifatlari, ushbu ot zotining turkmanlar hayotidagi o'rni va uning paydo bo'lishi haqidagi faktlar keltirilgan. Darhaqiqat, turkmanlar tarixida Axalteke otlarining o'rni nihoyatda katta. Asarda tarixiy faktlar bilan birga ayrim hikoyalar ham uchraydi va unda etnografik yondashuv hamda tarixiylikni o'zida mujassamlashtirgan.

Ozarbayjonlik tadqiqotchi Farruh Shumerning turkmanlar tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan asarida[2138] o'g'uzlar haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Unga ko'ra, o'g'uzlar turkiy xalqlar, shuningdek, turkmanlarning kelib chiqishida muhim rol o'ynagan va eng kuchli qabilalardan hisoblanadi. O'tgan asrlar o'g'uz qabilalarining o'z vatani, xalqi va milliy istiqloli uchun kurashlari davridir. O'g'uzlar turkiy qabilalar hisoblangan ozarbayjon xalqining ajdodi hisoblanadi. Mashhur turk tarixchisi, professor F. Shumerning ushbu monografiyasi qiyinchilik bilan yig'ilgan ma'lumotlarning natijasidir. Undan o'g'uz xalqlarining hayoti, xo'jaligi, etnos bo'lib shakllanishi, davlatchiligining tashkil topishi va davlat qurilishi haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Ushbu kitob turkman davlatchiligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Turkmanistondagi tarix fani rivojini o'rganishda ma'lumotlar chegaralanganligi uchun, ilm-fanning o'zgarish dinamikasini aniqlash imkonsiz. Ochiq manbalarda mavjud adabiyotlar ham tarixiy sohani yoritib berish uchun yetarli emas. Mazkur asarlarning aksariyat qismi siyosiylashtirilgan bo'lib, asosan, mavjud hokimiyatning faoliyatini ijobiy ko'rinishda ochib berishga qaratilgan.

**Tojikistonda tarix fani.** Mustaqillik yillarida Tojikistonda tarix faniga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Ushbu sohadagi ilk qadamni R. M. Masov qo'ygan bo'lib, uning asarlarida tojik xalqi etnogenezi va etnik tarixi tanqidiy tahlil qilingan[2139]. Muallif o'z asarida tojiklarning mintaqadagi o'rni boshqa barcha xalqlarnikiga qaraganda muhimroq, etnik tarixi esa qadimiyroq ekanligini isbotlab berishga harakat qilgan.

Uning boshlab bergan ishini keyinchalik yangi avlod tojik tarixchilari davom ettirdi. Jumladan, X. Pirumshoevning tadqiqotlarida tojiklar tarixini o'rganishdagi zamonaviy qarashlar va muammolarni tahlil qilishga harakat qilgan[2140].

---

[2137] Berdimuhammədov Q. Axaltəkə atı – iftixarımız və şöhrə-timiz. Bakı, CBS, 2011. 232 s.
[2138] Farruh Shumer. Oguzlar (Turkmənlər). Tarixləri. Boy təşkilatı. Dastanları. (O'g'uzlar (Turkmanlar) tarixlari. Boy tashkiloti. Dostonlari). Baku: MBM, 2013. 448 səh.
[2139] Масов Р. М. История топорного разделения. Душанбе, 1991; Shu muallif. "Таджики: история с грифом "совершенно секретно". Душанбе, 1995.
[2140] Пирумшоев Х. Путь к подлинному историзму в изучении истории таджикского народа // Чунбиш, 1997. №9, 10; 1998. №1; Shu muallif. Новый подход к изучению истории таджикского народа / Академику Р. Масову 60 лет. Душанбе, 1999. С. 9–47.

Tojikiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng o‘z hududi va davlatchiligini qadimiyligi ko‘rsatish maqsadida turli tarixiy shaxslar biografiyasini hamda siyosiy faoliyatini qayta tiklashga harakat qildi. Ular orasida Ismoil Somoniy va Somoniylar sulolasi vakillari alohida tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu sulola mustaqil Tojikiston tarixini markaziy qismidan joy oldi. Jumladan, K. Olimov[2141], Yu. Yakubov[2142], A. Komiliy[2143], M. Isomatov[2144], S. Abdullayev[2145], A. Muxtorov[2146], S. Muxtorov[2147], F. S. Muxtorova[2148] va boshqalarning asarlarida tahlil qilingan. Somoniylarning Markaziy Osiyodagi o‘rni masalasini mamlakat Prezidenti E. Rahmon[2149] bir necha chiqishlarida alohida qayd etdi.

Ushbu masala ba’zi xorijiy tarixchilar, jumladan, Furne[2150] va Bosvorslarning[2151] asarlarida ham ko‘rib chiqilgan.

Tojik xalqining kelib chiqish tarixini “oriy” qabilalari bilan bog‘lash ishlari ancha keng tarqalgan yondashuvlardan biri bo‘lib, bu masala yuzasidan ham ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, ushbu muammo K. Rasuliyon[2152], U. Ibragim[2153] va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida kompleks tahlil qilingan.

1999-yilda 6 tomdan iborat “Тожик халқининг тарихи” asari akademik N. Ne’matov boshchiligida qaytadan nashr etildi. Ushbu asarda tojik xalqining qadimdan mustaqillik davrigacha bo‘lgan tarixi qamrab olingan bo‘lib, unda

---

2141 Олимов К. Фалсафа дар замонн Сомониён (Философия в эпоху Саманидов) // Сомониён ва эхёи тамаддуни форси-точики (Саманиды и возрождение персидско-таджикской цивилизации). Душанбе, 1998.

2142 Якубов Ю. Национальное самосознание в эпоху Саманидов // Сомониён ва эхёи тамаддуни форси точики (Саманиды и возрождение персидско-таджикской цивилизации). Душанбе, 1998.

2143 Комили А. Наука в жизни Саманидов // Книга Саманидов, и персидско-таджикская цивилизация. Душанбе, 1998. С. 279–285.

2144 Исоматов М. Сомониён ва ташаккули таърихнигории миллати точик (Саманиды и развитие историографии таджикского народа // Сомониён ва эхёи тамаддуни форси точики (Саманиды и возрождение персидско-таджикской цивилизации). Душанбе, 1998.

2145 Абдуллаев С. Амир Исмоили Сомони. Худжанд, 1999.

2146 Мухторов А. Амирон ва вазирони Сомони. Душанбе: Дониш, 1999.

2147 Shu muallif. Сомониён: замон ва макон. Душанбе: Усрушана, 1999.

2148 Мухторова Ф. С. Саманиды в исторических источниках // Известия АН Республики Таджикистан (серия общественных наук). Душанбе, 2011, № 4. С. 31–35; Shu muallif. Освещение науки эпохи Саманидов в печати. Душанбе: Пойтахт, 2011. С. 1–41; Shu muallif. Споры вокруг периодизации истории династии Саманидов // Вестник Таджикского национального университета. Душанбе, 2012. № 4/5. С. 270–274; Shu muallif. Отражение история Саманидского государства в прессе // Известия АН Республики Таджикистан (серия общественных наук). Душанбе, 2012. № 6. С. 20–24.

2149 Рахмон Э. Вклад Саманидов в культурное наследие Центральной Азии // Чумхурият, 1998, 16 июня; Shu muallif. Таджикская государственность: от Саманидов до рубежа XXI века // Чумхурият, 1999, 17 сентября.

2150 Frye R. N. The Samanids, in: The Cambridge history of Iran, in 7 volumes, vol. 4. The period from the Arab invasion to the Saljuqs. Cambridge, 1993. P. 136–161.

2151 Bosworth C. E. Samanids, in: Encyclopaedy of Islam, New Edition, prepared by a number of leading orientalists, vol. 8. Leyden, 1995. P. 1025–1029.

2152 Расулиён К. Кто такие Арийцы и где их Родина? Душанбе, 2004. 48 с.

2153 Ибрагим У. История цивилизации Арийцев. Душанбе, 2006.

tojiklar yashayotgan hudud eng qadimiy aholi o'choqlaridan biri sifatida tilga olinadi[2154].

Prezident E. Rahmonning asarlari tojik xalqi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Uning davr va o'zi haqidagi[2155] asari Prezidentning tojik xalqi ma'naviy-ma'rifiy prinsiplarining davlat tomonidan himoya qilinishiga bag'ishlangan. Asarda qayd etilishicha, Tojikiston o'z mustaqilligini 1991-yil qo'lga kiritgan bo'lsa-da, uning ichki muammolari 1992-yildan keyin boshlangan. Mamlakatning tashqi siyosatini mustahkamlash uchun Tojikistonga 10 yildan oshiqroq vaqt kerak bo'lgan. Emomali Rahmon Tojikistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini mustahkamlash uchun juda katta sa'y-harakat ko'rsatdi. Bu vaqt davomida respublikada hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammo – fuqarolik urushi o'choqlarini yo'qotish va ularning oldini olishdan iborat bo'ldi.

Mamlakatning iqtisodiyoti ravnaqini o'ylash uchun avvalo undagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish va iqtisodiyotni ko'tarish kerak edi. Buning uchun Respublikaga ko'proq chet el investorlarini taklif etish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi uchun yashash sharoitini yaxshilashga katta e'tibor qaratildi. Tojikiston xalqi juda katta umid bilan Rossiya va MDHdan yordam kelishini kutgan edi. Biroq, g'oyalarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi natijasida deyarli hech qaysi umid qilingan mamlakatlar yordamga kelmadi va 1995–2002-yillar Tojikiston uchun juda qiyin davr bo'ldi. Bunday vaziyatda mamlakatning ichki resurslari muammolarni bartaraf etishga qaratildi. E. Rahmonning boshqa bir asari Tojikiston tarixiga bag'ishlangan[2156]. Unda tojik xalqining tarixi, uning zamonaviy holati va mustaqillik davridagi muammolari tahlil etilgan.

D. Z. Majidzodaning Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasiga doir monografik tadqiqotida[2157] davlatchilikda qonunlarning o'rni yoritilgan. Asarda hukumatning muxolifatga nisbatan yuritgan siyosati ham fuqarolar urushining muhim sabablaridan biri sifatida keltiriladi.

S. R. Muhiddinovning Respublikaning mustaqillik yilaridagi tarixiga bag'ishlangan asarining[2158] bosh maqsadi, tojik xalqining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi masalalarini yoritishdan iborat. Shuningdek,

---

[2154] История таджикского народа. Том II: Эпоха формирования таджикского народа / Под редакцией академика Н. Н. Негматова. Душанбе. ИАН РТ, 1999.

[2155] Рахмон Э. О времени и о себе: [Записки Президента Республики Таджикистан Э. Рахмона] / Э. Рахмон; лит.запись и ред. А. Хамдама и Л. Чигрина / Отв. ред. М. Суруш и А. Асадов. Душанбе, 2015. 232 с.

[2156] Рахмонов Э. Точикон дар оинаи таърих. Кит. 1. Аз Ориен то Сомониен. Таджики в зеркале истории. Кн.1. От Арийцев до Саманидов / Э. Рахмонов. Лондон, 2000. 240 б.

[2157] Маджидзода Д. З. Конституция Республики Таджикистан: 20 лет / Д. З. Маджидзода; МВДРТ. Академия. Душанбе: ЭР-граф, 2014. 151 с.

[2158] Республика Таджикистан в годы независимости (1991–2011 гг.). Респ. науч. конф. (28 окт. 2011 г.): Сбор. докл. / Рос.-Тадж. (слав.) ун-т. Сост. С. Р. Мухидинов. Душанбе, 2013. 153 с.

X. Zarifiy[2159], Z. Saidov[2160], R. Haydarov[2161], H. Pirumshoyev[2162] va boshqa mualliflar[2163]ning asarlari ham mustaqillik yillarida tarix fanining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

## Afg‘oniston tarixshunosligining ba’zi masalalari

**O‘zbekistonda Afg‘oniston tarixining o‘rganilishi.** O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 13-oktabrda o‘rnatilgan. Ikki tomonlama hamkorlik 2016-yilga kelib izchil rivojlana boshladi. 2017-yil yanvarda Toshkentda ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning birinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili tayinlangani mamlakatimizning ikki tomonlama munosabatlarga qaratayotgan e’tibori namunasi bo‘ldi.

Bugungi kunda g‘arblik geosiyosatchilar Markaziy Osiyoga Afg‘onistonni ham qo‘shib, katta Markaziy Osiyo deb ataydilar[2164]. O‘zbekistonning yon qo‘shnisi hisoblangan ushbu davlat oxirgi yuz yil davomida turli geopolitik o‘yinlar qurboni bo‘lib kelayotgani hech kimga sir emas. Afg‘onistonda davom etayotgan notinchlik va siyosiy nizolar O‘zbekistonning ham asosiy muammolaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning ta’biri bilan aytganda: “Ushbu urush nafaqat Afg‘oniston, balki tobora murakkablashib borayotgan xalqaro muammoga aylandi. Afg‘oniston xavfsizligi – bu O‘zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotining garovidir”[2165].

---

[2159] Зарифи Х. Многовекторная дипломатия Таджикистана: статьи, интервью, выступления, хроника визитов и встреч / Х. Зарифи. Душанбе: Офсет, 2010. 352 с; Shu muallif. Таджикистан в системе обеспечения региональной безопасности ОБСЕ. Душанбе: Ирфон, 2011. 456 с.

[2160] Саидов З. Таджикистан: межгосударственные отношения в период становления внешней политики. Душанбе: Контраст, 2013. 636 с.

[2161] Хайдаров Р. Д. Таджикистан в орбите глобализационных и геополитических процессов. Душанбе: Ирфон, 2005. 150 с.

[2162] Пирумшоев Х. Россия-Таджикистан: история взаимоотношений / Отв. ред. М. С. Имомов. Душанбе, 2009. 688 с.

[2163] Алимов Р. Таджикистан и Китай. Курсом стратегического партнерства: Междунар.-полит.экон. и гуманитар. измерения сотрудничества. М.: Весь мир, 2014. 377 с.; Салихов Н. Н. Политическое противостояние в зеркале таджикской публицистики. Душанбе: Ирфон, 2010. 168 с.; Рахимов А. А. Особенности функционирования печатных СМИ Таджикистана после обретения государственной независимости. Душанбе, 2013. 153 с; Рахимов Р. К. Проблемы развития переходной экономики Республики Таджикистани. Душанбе, 2012. 812 с.; Маликов М. Энергетическая независимость Таджикистана: история, проблемы и перспективы. Душанбе, 2013. 392 с; Нурджанов Н. Опера и балет Таджикистана. Душанбе, 2010. 424 с.

[2164] Hafizullah Emadi. Culture and Customs of Afghanistan. Westport: CT Greenwood Press, 2005. – 286 p; Angelo Rasanayagam. Afghanistan: A Modern History. London, 2003. 336 p; Starr S. F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. Princeton University Press. 2013. 680 p.

[2165] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзуида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 28 март. №59–60.

Shu sababli, O‘zbekiston mustaqillik yillarida afg‘on muammosining yechimlariga doir turli takliflar bilan chiqdi[2166].

Afg‘oniston tarixi, siyosati, ta’lim tizimi, madaniyati va etnografiyasining o‘rganilish darajasi qanday, ushbu fan tarmoqlarida qanday yutuqlarga erishildi, bugungi kunda qaysi sohalar o‘rganilishi kerak, singari savollar o‘z yechimini kutmoqda.

O‘zbekistonning zamonaviy tarixshunosligida Afg‘onistonga oid masalalar A. S. Tursunov[2167], S. Safoyev[2168], R. Rashidov[2169], Sh. Akmalov[2170], M. Mirhamidov[2171], I. Boboqulov[2172] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tahlil qilishga harakat qilingan.

Afg‘onistonga oid nashr etilgan adabiyotlar tahlil qilinganda aksariyat ishlar siyosiy masalalarga yo‘naltirilganligi aniqlandi. Xususan, Sh. I. Akmalov[2173], N. U. To‘laganova[2174], S. S. Safoyev[2175], D. B. Sayfullayev[2176], R. R. Rashidov[2177] va A. A. Umarovlarning[2178] ilmiy

---

[2166] 2018-yil 27-mart kuni Toshkentda Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida konferensiya o‘tkazildi.

[2167] Tursunov A.S. O‘zbekiston va BMT: hamkorlikning yangi ufqlari. // “Milliy tiklanish” gazetasi. № 9 (122). 2011-yil 2-mart.

[2168] Сафоев С.С. Марказий Осиёнинг геосиёсати. Тошкент. Патент пресс, 2005. 160 б.

[2169] Rashidov R. Loyya Jirg‘a - afg‘on xalqi irodasini ifoda etuvchi demokratik institut sifatida / Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma’rifiy jurnal. 3 (67) 2015; Shu muallif. Amir Do‘st Muhammadxon hukmronligi davrida Afg‘oniston / Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o‘rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. ToshDShI, 2015.; Shu muallif. Afg‘onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2017. 264 b.

[2170] Акмалов Ш. О некоторых аспектах военно-политической обстановки в Афганистане // Востоковедение. 2008. №1-2.

[2171] Мирхамидов М.Ш. “Потенциал железнодорожного сообщения Термез - Мазари Шариф в улучшении транспортной инфраструктуры и развития экономики Афганистана”. Материалы международной конференции “Афганистан: проблемы стабилизации и перспективы реконструкции”. Ташкент, 2009.

[2172] Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы // Центральная Азия и Кавказ, Том 16. Выпуск 2, 2013.

[2173] Акмалов Ш.И. Проблема афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Автореф. дисс. канд. полит. наук. Ташкент, 2002. 22 с.; Shu muallif. О некоторых аспектах военно-политической обстановки в Афганистане // Востоковедение. 2008. №1–2. С. 11–15 с.; Shu muallif. Афганистан в современной системе международной безопасности // Центральная Азия и Кавказ. 2009. Выпуск 6 (66). С. 21–27.

[2174] Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 2004. 211 с.; Shu muallif. Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии. Автореф. дисс. ... докт. полит. наук. Ташкент, 2006. 34 с.

[2175] Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Тошкент: Патент пресс, 2005. 160 б.

[2176] Сайфуллаев Д. Б. Афганский вопрос и обеспечение безопасности в Центральной Азии / Вестник ПАГС. 2012. №32. С. 41–43; Shu muallif. Afghan for Central Asia and Uzbek Prescription for its Treatment / The publication is brought out under the project Cooperative Development, Peace and Security in South and Central Development sponsored by Ministry of External Affairs (MEA). New Delhi, 2013. P. 65–70.

[2177] Рашидов Р. Государственная власть в Афганистане после президентских выборов 2014 г.: нынешнее состояние и перспективы / “Ўзбекистон Республикаси миллий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент, 2016.

[2178] Умаров А.А. Фактор Афганистана в региональной безопасности Центральной Азии в начале XXI века. Автореф. дисс. ... докт. философии (PhD) по полит. наук. Ташкент, 2017. 48 с.

izlanishlarida Afg'onistoning Markaziy Osiyo davlatlari tinchligini saqlash hamda o'zaro aloqalaridagi o'rni, mintaqa geosiyosatidagi roli, hind-eron munosabatlaridagi ahamiyati singari masalalarni qamrab olingan. Xususan, S. Safoyevning "Афғонистон – Марказий Осиёнинг узвий қисми" nomli tadqiqotida 1746-yildan 2005-yilgacha bo'lgan siyosiy voqealarga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ushbu kitobda Afg'oniston davlatining mintaqa geosiyosatida alohida ahamiyat kasb etishi, "6+2" guruhining asosiy e'tibori afg'on muammosini hal qilishga yo'naltirilganligi, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin xalqaro terrorizmga qarshi ittifoqning shakllanishida Afg'onistonga chegaradosh bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari muhim rol o'ynaganligi, Afg'onistonning Fors ko'rfazi va Hind okeani portlari bilan bog'lashda yo'lak vazifasini bajarishi, tinchlik ta'minlansa, chegaradosh davlatlar uchun bozor vujudga kelishi hamda ushbu mintaqada yashovchi millatlar afg'on xalqining asosiy qismini tashkil etishi kabi masalalar tahlil qilingan[2179].

Ikkinchi guruh tadqiqotlari sifatida Afg'oniston davlatchiligiga oid ishlarni qayd etish zarur. Jumladan, L. F. Kashinskaya[2180], Sh. I. Akmalov[2181], R. R. Rashidov[2182] va I. I. Boboqulovlarning[2183] tadqiqotlarida bugungi kunda Afg'oniston davlatchiligidagi asosiy muammolar, ushbu masalada norasmiy guruhlarning o'rni, Afg'oniston Konstitutsiyalarining mamlakat davlatchiligi tarixida tutgan o'rni, markazlashishga g'ov bo'layotgan omillar tahlil qilingan.

R. Rashidovning tadqiqotida afg'on davlatchiligi masalasi har tomonlama qamrab olingan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan to XXI asr boshlari (2015-yil)gacha Afg'oniston atrofida ro'y bergan xalqaro va mintaqaviy jarayonlar, Afg'onistonda davlat boshqaruv shaklining bir necha bor (inqilob, to'ntarish, urush natijasida) transformatsiyalashuvi hamda ularning afg'on

---

2179 Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат... 40–43-бетлар.

2180 Кашинская Л.Ф. Становление национальной государственности Афганистана (Историко-правовое исследование). Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. Ташкент, 1993. 21 с.

2181 Акмалов Ш. Проблемы и перспективы становления современного Афганистана // Центральная Азия в XXI веке: сотрудничество, партнерство и диалог. Материалы международной конференции. Ташкент: Шарк, 2004.

2182 Рашидов Р. Афғонистонда давлатчилик масаласи: тарих ва хозирги замон. Тошкент: Наврўз, 2017. 264 б.; Shu muallif. Retrospective and Contemporary Analysis of the Formation of Afghan Statehood // International Journal of Central Asian Studies (South Korea). Volume 19. 2015. P. 31–58; Shu muallif. Афғонистон Конституцияларининг мамлакат давлатчилиги тарихида тутган ўрни // "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси жамиятнинг барқарор ривожланиш кафолати: ташкилий, сиёсий ва ҳуқуқий жиҳатлари" мавзусидаги тўртинчи анъанавий илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Тошкент: ТошДШИ, 2013. 227–230-бетлар; Shu muallif. The role of non-governmental organizations in the formation of the modern state in Afghanistan // «Advanced Studies in Science: Theory and Practice» / The Collection of Scholarly Papers (Materials of the International Scientific Conference, London, UK, April 18–19, 2016). Volume V. P. 22–26.; Shu muallif. The Reconstruction Process and State Development in Afghanistan: Achievements vs. Contradictions // «Личность, общество, государство, право: проблемы соотношения и взаимодействия» – V Международная научно-практическая конференция. Прага: Vedecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 15–16 октября 2016 г. P. 35–40.

2183 Bobokulov I. State Building in Afghanistan: Decentralization vs Centralization / Central Asia and the Caucasus, vol. 16, no. 2, 2015. P. 107–114.

davlatchiligidagi ta'siri va o'rni, Afg'onistonda "Tolibon" harakati boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy bosqichda yetakchi kuchlarning Afg'onistonga nisbatan tutgan pozitsiyasi singari masalalar ochib berilgan[2184].

R. Rashidov, shuningdek, "afg'on" atamasining kelib chiqishi[2185], Loyya Jirg'aning[2186] afg'on xalqi tarixida tutgan roli[2187], Amir Do'st Muhammadxon hukmronligi davrida Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat[2188], mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston bilan munosabatlari tarixi[2189] kabi masalalar borasida tahliliy ma'lumotlar bergan. Masalan, tadqiqotchi "Loyya Jirg'a"ning afg'on xalqi hayotidagi o'rniga to'xtalib, unga afg'onlarning o'ziga xos tarixiy demokratiyasining bir ko'rinishi, deya baho bergan. Ushbu tadqiqotchi fikrining tasdig'i sifatida Afg'onistonda 1747-yilda Ahmadxon Sadazoyni saylash marosimini misol qilib ko'rsatgan. Unga ko'ra, o'sha davrda Hoji Jamolxon Barakzoy asosiy talabgor bo'lgan. Lekin, sakkiz marta ovoz berilsa ham, u hamma saylovchilar ovozini ololmagan. Shunda shayx Sobirxon Ahmadxon Sadozoyni taklif qilgan va ham uni qo'llab-quvvatlagan.

R. Rashidov ushbu holatdan quyidagicha xulosa chiqaradi: "Shu o'rinda, yuqoridagi Loyya Jirg'a jarayonining yana bir jihatiga alohida e'tibor qaratish kerak. Ya'ni, unda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilishda nisbatan ko'pchilikning ovozini olish yoki qo'llab-quvvatlashiga erishish orqali masala hal etilmadi, balki barcha ishtirokchilarning yagona bir fikrga kelishi orqali masalaga yechim topildi. Shundan ham o'z davrida muayyan masalaning yechimi uchun ko'pchilikning ovozi talab etiladigan demokratiyaning o'ziga xos ravishda afg'on davlati boshqaruvida qo'llanilganligini ko'rish mumkin"[2190].

O'zbek tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida Afg'onistondagi etnik holat tahlili deyarli uchramaydi. Mazkur soha dolzarb va ko'plab yangi

---

2184 Рашидов Р. Афғон давлатчилиги шаклланишига халқаро ва минтақавий жараёнларнинг таъсири. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2018. 48 б.

2185 Shu muallif. "Афғон" атамасининг келиб чиқишига оид маълумот берувчи баъзи манбалар таҳлили // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: ТошДШИ. 2016. 177–181-бетлар.

2186 "Jirg'a" so'zi pushtu tilida "doira", "aylana" degani bo'lib, "kichik yoki katta miqdordagi fuqarolar yig'ilishi", "katta doira atrofida to'planib muayyan masalalarn imuhokama qilish, kengashish" ma'nosini beradi. Umumdavlat darajasidagi yig'ilish –"Loya Jirga" (Katta, Ulkan Jirg'a) deb ataladi.

2187 Рашидов Р. Лойя Жирға – афғон халқи иродасини ифода этувчи демократик институт сифатида // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. Илмий-маърифий журнал. 2015. №3. 54–60-бетлар.

2188 Shu muallif. Амир Дўст Муҳаммадхон ҳукмронлиги даврида Афғонистон // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: ТошДШИ, 2015. 162–165-бетлар.

2189 Shu muallif. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасининг Афғонистон билан муносабатлари тарихидан // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Қорақалпоғистон бўлимининг ахборотномаси. 2016. №4. 126–130-бетлар.

2190 Shu muallif. Лойя Жирға – афғон халқи иродасини ифода этувчи демократик институт... 54–60-бетлар.

mavzularga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, A. Haydarov[2191] va R. Rashidovlarning[2192] tadqiqotlarida din va etnomadaniy jarayonlar qisman o'rganilgan, ya'ni ushbu olimlar mazkur omillarning siyosiy vaziyatga ta'sirini ochib berishga harakat qilganlar.

Afg'on tili va adabiyotiga bag'ishlangan ishlar ham unchalik ko'p emas. Ushbu sohada asosan, A. Quronbekov, B. Boltayev[2193], X. Alimova[2194], tilshunoslar O. Shokirovlar[2195] dariy tili va uni o'rganishga oid ko'rsatmalar ishlab chiqqan bo'lsa, A. M. Mannonov afg'on adabiyotining dastlabki asoschilari hisoblangan "ro'shoniylar harakati"ni o'rgangan, shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini[2196] himoya qilib, adabiyotga oid bir qancha monografiyalar[2197] chop ettirgan. Bundan tashqari, mazkur olimning "Афғонистон халқлари фольклори ва мумтоз адабиёти тарихи" asarida pushtu adabiyotining XX asrgacha bo'lgan tarixi yoritib berilgan[2198].

F. Azizovaning "Жанубий-ғарбий Осиё мамлакатлари"[2199] asarida yozilishicha, hozirgi Afg'oniston hududida 30 dan ziyod millat, elat va etnik guruhlar yashaydi. Afg'onistondagi eng yirik etnik guruhlardan biri pushtun (afg'on)lardir. Mamlakat tarixidan ma'lumki, jirg'alar qadimgi davrlarda ham mavjud bo'lgan.

**Afg'on xalqi zamonaviy tarixshunosligi dunyo tarixchilari nigohida.** Geosiyosiy jihatdan qulay hududda joylashgan Afg'onistonning mintaqada o'rni juda ham muhim bo'lib, ko'pgina mamlakatlarni bir-biriga bog'laydi. Ammo, Afg'oniston tarixini o'rganishga qaratilgan zamonaviy tadiqotlar juda kam, chunki mamlakatdagi notinch vaziyat chuqur tadqiqotlar olib borishga yo'l qo'ymagan. Mavjud adabiyotlarda ham juda tor doiradagi masalalar yoritilgan xolos.

2002-yilda nashr etilgan S. Shumov va A. Andreyevlarning "История Афганистана" asarida[2200] yozilishicha, pushtunlar Afg'oniston davlatchiligini shakllantirishda asosiy rol o'ynaganlar. Qadimiy abdali qabilasi o'z navbatida asosan ikki tarmoqdan iborat bo'lib, uni populzoylar va barakzoylar tashkil

---

2191 Khaydarov, A. Role of Ethno-Religious Factor in Stabilisation of Internal Political Situation in Afghanistan and its Impact on Central Asia / India and Central Asia: Advancing the Common Interest (edit. Dwivedi, R. and Santhanam, K.). New Delhi: Institute for Defence Studies and Analyses & Anamaya Publishers, 2004. 339 p.

2192 Рашидов Р. Афғонистонда тинчлик ва барқарорликни таъминлашда тарихий ҳамда этномаданий омилларнинг ўрни // Шарқшунослик. 2012. №2. 109–114-бетлар; Shu muallif. Афғонистонда давлат ва дин муносабатлар: ўтмиши ва бугунги ҳолати // Тошкент Ислом университети илмий-таҳлилий ахбороти. 2014. №4. 41–44-бетлар.

2193 Ўзбекча-дарийча сўзлашув китоби / Тузувчилар: А. Қуронбеков., Б. Болтаев. Тошкент: ТошДШИ нашриёти, 2006. 132 б.

2194 Алимова Х. Дарий тили. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2008.

2195 Шокиров О. Дарий тили. 2-қисм. Тошкент, 2004.

2196 Маннанов А. М. Рошанийская литературная школа на пашту в XVI–XVII вв. (Источники и проблем реконструкции). Дисс. ... на соискание доктора филологических наук. Ташкент, 1996.

2197 Shu muallif. У истоков афганской классической литературы. Ташкент, 1994.

2198 Shu muallif. Афғонистон халқлари фольклори ва мумтоз адабиёти тарихи. Тошкент, 2001.

2199 Azizova F. Janubiy-g'arbiy Osiyo mamlakatlari. Toshkent, 2007. 74-bet.

2200 Шумов С., Андреев А. История Афганистана. М., 2002. С. 70.

qiladi. 1747-yildan to 1992-yil aprel oyigacha bo'lgan davr ichida (1928–1929-yillar bundan mustasno. Ushbu qisqa davrda Afg'oniston taxtini tojiklardan bo'lgan qaroqchi Bachai Sakao egallagan edi) Afg'onistondagi hokimiyat pushtunlarning abdali qabilasi qo'lida bo'lgan[2201].

Jirg'alar haqida XXI asrda, ya'ni eng yangi davrda ham ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, A. Arslanova 2002-yilda pushtunlar haqida yozgan asarida jirg'alarga ham alohida to'xtalgan[2202].

A. A. Lyaxovskiyning "Афғон қабилалари"[2203] nomli asarida jirg'alar masalasi tahlil qilingan. Bu borada yana bir mukammal ishlardan biri Hassos Abdul Matinning Loyi jirg'alar haqidagi ilmiy risolasidir. Ushbu risola 1993-yilda Sankt-Peterburgda e'lon qilingan. Unda asosan, Loyi jirg'aning afg'onlar hayotida tutgan o'rniga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, jirg'alarning paydo bo'lishi va qanday sharoitda chaqirilganligi haqida ham muhim fikrlar bildirilgan.

2009-yilda afg'on etnografi va sotsiologi Muhammad Salohiy "Афғонистон тарихида жирғалар роли ва аҳамияти"[2204] nomli maqolasini e'lon qiladi. Muallif jirg'alar tuzilishining sabablari, ularning ijtimoiy ahamiyati haqida so'z yuritadi. Uning fikricha, biror urug', qabila yoki guruhlar mushkul masalalarga duch kelsa, ular jirg'alar yordamida hal etilgan. Shu sababli, jirg'alarning ijtimoiy hayotga ta'siri juda ham katta bo'lgan. "Xalqning kundalik turmushidan tortib to siyosiy masalalargacha bo'lgan savollar jirg'alarda hal etilgan, ular bunga qattiq bog'lanib qolganlar, ular uchun bu asosiydir[2205]", – deydi Muhammad Salohiy. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida inqirozli holatlar vujudga kelsa, qabilaning kattalari, urug' xonlari va boshqa oqsoqollar jirg'a chaqirib, ushbu muammolarni hal qilganlar.

Muhammad Ibrohim Atoining Afg'oniston tarixiga bag'ishlangan[2206] asarida yozilishicha, dastlab jirg'alar ibtidoiy shaklda mavjud bo'lgan va birinchi ibtidoiy jirg'alar qadimgi davrda shakllangan. Eramizdan avvalgi III ming yillikda Oks daryosining chap sohilida ko'chmanchi tarzda yashagan oriy qabilalari o'z hokimiyatlarini kuchaytirish maqsadida qabila-urug' sardorlarini majlisga chaqirib, maslahat kengashlari tashkil etishga urinib ko'radilar. Ushbu holat ijobiy natija bergach, har doim shunday yig'inlarni chaqirishga qaror qiladilar. Ular o'zlari bilan bog'liq ko'pgina muammolarni yig'inlarda hal eta boshlaydilar. Ana shu davrdagi bu kabi yig'ilishlar ko'pgina olimlar tomonidan jirg'aning ilk ko'rinishlari, deb baholangan.

---

[2201] Poullada Leon. Reform and Rebellion in Afghanistan, 1919–1929. Cornell (Ithaca and London). New Press, 2003. P. 109.
[2202] Арсланова А.А. Современний Афганистан. М., 2000. С. 78.
[2203] Ляховский А.А. Афганские племени. М., 2008. 78 с.
[2204] Muhammad Salohiy, Jirg'a dar torixe Afg'oneston. Kobul, 2009.
[2205] Muhammad Salohiy, Jirg'a dar torixe Afg'oneston. Kobul, 2009. 54 b.
[2206] Muhammad Ibrohim Atoi. Torixe Maosere Afg'oneston. Kobul, 2010. 89-bet.

A. Gellerning asarida[2207] keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida hozirgi Afg'oniston hududida yunon-makedon davlati – Parfiya paydo bo'ladi. Aynan ushbu davrda hozirgi shakldagi jirg'alar tuzila boshlaydi. Parfiya davlati hukmdorlari ham o'z hokimiyatlarini kuchaytirish uchun jirg'alar tashkil etadi. Chunki, har bir hukmdorga tayanch zarur bo'ladi. Ular xalq ishonchini jirg'alar orqali qozonganlar.

Hanifi Shoh Mahmudning asarida ham Ahmadxonning tojida bug'doy tasviri tushirilganligini ta'kidlaydi[2208]. Bug'doy ular uchun ramziy ma'noga ega edi. Shundan so'ng davlat muhriga ham bug'doy tasviri tushiriladi. Barcha rasmiy hujjatlarda bundan foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu tasvir Afg'oniston gerbida o'z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston tarix chorrahalarida doimiy tutashgan hamda afg'on tarixi, madaniyati, tili jihatdan o'zbek xalqi bilan ko'plab umumiylikka egaligini yaxshi bilamiz. Ammo, tarixshunoslik tahlili natijalari Afg'onistonga oid tadqiqotlarning asosiy qismi siyosiy masalalarni o'rganishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Ayni paytda esa tarix, iqtisod, madaniyat, etnografik masalalar kabi jihatlarga e'tibor kamligini qayd etish o'rinlidir.

Guvohi bo'lganingizdek, Markaziy Osiyo respublikalari davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng tarixiy jarayonlarni qayta mushohada qilish ishlari boshlandi. Milliy tarix, etnogenez va etnik tarix, tarixiy shaxslar hamda ularning faoliyatini yoritishda yangicha yondashuv va metodologiyaga asoslandi. Milliy aftoxtonizm konsepsiyasi ba'zi Markaziy Osiyo davlatlarining ilmiy jihatdan bellashuv maydoniga aylanib qoldi.

Vaqtlar o'tishi, mamlakatlar mustaqilligining mustahkamlanishi, mustaqil davlatlarning xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishi natijasida tadqiqot yo'nalishlari ham kengaya bordi. Biroq, Markaziy Osiyo ba'zi davlatlarida tarix fani rivojlanishiga hanuzgacha yetarli e'tibor qaratilmayotganligini ham qayd qilish lozim. Jumladan, Afg'onistonda siyosiy vaziyat tufayli bu masalada ishlar sust rivojlangan. Tojikistonda esa tarixiy tadqiqotlar tojik xalqi va uning o'tmishini tiklashga yo'naltirilgan. Turkmanistondagi bu sohadagi tadqiqotlar siyosiylashgan bo'lib, tarixiy haqiqatdan ko'ra afsonalarga asoslangan asarlarni yaratishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, Qozog'iston va Qirg'izistonda esa tarixiy tadqiqotlar faollik bilan rivojlanmoqda. Ushbu mamlakatlar hukumatlari arxeologik, etnologik va antropologik hamda boshqa sohalardagi izlanishlar

---

2207 Geller, Armando and Shah Jamal Alam. A Socio-Political and Cultural Model of the War in Afghanistan // International Studies Review. 2010. Vol. 12. N1.

2208 Hanifi Shah Mahmoud. "Timur Shah transferred the Durrani capital from Qandahar in 1775–1776. Kabul and Peshawar then shared time as the dual Durrani capital cities, the former during the summer and the latter during the winter season."Connecting Histories in Afghanistan: Market Relations and State Formation on a Colonial Frontier. Stanford University Press, 2011. Retrieved 2012-08-04. P. 115.

uchun katta miqdorda grant mablag'lari ajratgan. O'zbekistonda ham mustaqillikdan so'ng bu sohada salmoqli ishlar bajarildi.

Bugungi kunda tarixiy bilimlar rivojini tahlil qilish, uning yechimini kutayotgan muammolarini aniqlash, istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olishda muhim bo'lib, fan rivoji uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida tarix fani muammolariga qanday usulda yondashilgan?
2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tarixiy tadiqiqotlarning o'ziga xosligi nimada?
3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining qaysi masalalari ko'proq o'rganildi?
4. Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tarixiga oid eng muhim adabiyotlar haqida ma'lumot bering.
5. Mazkur davlatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot tarixshunosligi xususiyatlarini izohlang.
6. Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tarixi tarixshunosligi haqida ma'lumot bering.
7. Mazkur davlatlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot tarixshunosligi haqida nimalar bilasiz?
8. Mustaqillik yillarida o'zbek olimlarining Afg'oniston tarixi, adabiyoti, siyosati va boshqa sohalariga oid nashr etilgan ishlari haqida ma'lumot bering.
9. Afg'oniston bo'yicha qaysi mavzulardagi tadqiqotlar dolzarb deb o'ylaysiz?

# GLOSSARIY

**Avesto** – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtlik e'tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta'limotdan boshlangan.

**Avestoshunoslik** – Avesto va zardushtiylik ta'limoti bilan maxsus tadqiqot olib boradigan yo'nalish. G'arb avestoshunos olimlar qatoriga T. Xayd, J. Bauje, A. Anketil-Dyuperron, Silvestr De Sasi, U. Jonc, J. Rode, E. Rask, E. Byurnuf, M. Xaug, M. Myuller, Dj. Darmsteter, M. Breal, X. Bartolome, M. Boys va boshqalar; rus va sovet olimlaridan K.A. Kossovich, K. G. Zaleman, A. L. Pogodin, K. A. Inostransev, A. A. Freyman, Ye. E. Bertels, M. M. Dyakonov, V. V. Struve, B. G. Fofurov, I. G. Aliyev, V. I. Abayev, S. N. Sokolov, O. A. Makovelskiy, O. Klima; mahalliy olimlardan M. Is'hoqov, A. P. Qayumov, A. Mahkam, H. Homidov, M. Eshmurodov, M. Imomnazarov, G. T. Mahmudova, R. Urazova va boshqalarni kiritish mumkin.

**Antropogenez** (yunon.) – inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyatining shuningdek, jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni. Antropogenez haqidagi ta'limot antropologiya tarmog'i hisoblanadi.

**Antropologiya** (yunon.) – odamning kelib chiqishi va evolyusiyasi, odamzod irqlarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq, tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan. Antropologlar odam haqida tushuncha, odamni o'rganuvchi fan odamning suyak tuzilishi, teri va sochining rangi va boshqa tiplari, fiziologik, jinsiy va boshqa xususiyatlarini o'rganadi. Antropologiya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasidir. Bu fanga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo'lganiga qaramay, u fan sifatida faqat XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshladi.

**Behistun qoyatosh yozuvlari** – Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi epigrafik manbalardan biri Midiyadagi shoh Doro I (mil. avv. 522-486) buyrug'iga binoan qadimgi forsiy, elam va bobil (akkad) tillarida mixxatning turli ko'rinishlarida tosh qoyaga bitilgan Behistun (Bisutun) yozuvidir.

**Genealogiya** (yunon.shajara) – yordamchi tarix fanlardan biri XVII-XVIII asrlarda vujudga kelgan. Bilimlarning amaliy sohasi, shajaralar tuzish, urug' va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxsning tarixiy va qarindoshlik aloqalarini o'rganadi.

**Globallashuv** – jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

**Davrlashtirish usuli** – ma'lum vaqt oralig'ida tarixiy tadqiqotlarning umumiy xususiyatlarini ko'rsatadi.

**Diskursiv tahlil usuli** – tarixshunoslik manbasi, ilmiy tadqiqot natijalari mazmuni va tarixiy jarayonlar hamda voqealar rivojining ijtimoiy madaniy konteksti o'rtasida korrelyatsiyani o'rnatishni nazarda tutadi.

**Doro I ning Suzadagi yozuvi** – Suzadagi mixxat Elamning sobiq poytaxti bo'lgan ushbu shaharda fors shohlarining asosiy qarorgohlaridan biri barpo etilishi haqida hikoya qiladi. Yozuv matnida O'rta Osiyoga taalluqli ma'lumot keltiriladi.

**Identiklik** – atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, uning o'zagini "*idem*", ya'ni "*xuddi o'zi*" degan ma'noni anglatadi va biror-bir ob'yektning turli transformatsiya jarayonlariga qaramay o'zligini saqlab qolishiga aytiladi.

**Ijtimoiy psixologiya (psixoanaliz) usuli** – biografik asarlarni tahlil qilishda yetarlicha mahsuldor bo'lib, tarixiy shaxslarning ichki tuyg'ulari, hissiyotli tomonini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

**Integratsiya** (lot.) – tiklanish, to'ldirish, turli xalqlarning birlashuvi, turli etnoslarning bir hududida etnik-madaniy aloqalarini o'rnatish jarayoni.

**Konsolidatsiya** (lot.) – mustahkamlayman, yiriklashuv, til va madaniyat jihatidan yaqin va qon-qardosh bo'lgan xalqlarning yagona bo'lib birlashuvi, etnoslarning bir-biriga yaqinlashib qo'shilib ketishi.

**Ko'k turk (*kök türk*)** – atamaning ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilgan holda "ko'k (rangli) turklar" yoki "osmon turk"lari deb tarjima qilgan tadqiqotchilar uchrab turadi. Ularni fikrini inkor qilgan holda bu atamani "ozod turklar" yoki "mahalliy turklar" deb tarjima qilishni taklif qilingan.

**Qiyosiy tahlil usuli** – turli manbalardan ilmiy maktablar va tarixiy ilmiy yo'nalishlar haqidagi olingan axborotni qiyoslash imkonini beradi.

**Madaniy-antropologik usul** – tarixshunoslik manbasi muallifining muammoni tanlashdagi yondashuvi va o'z nuqtai nazarini himoya qilishda argumentlar tanlashini ochib berishni ko'zda tutadi.

**Madaniyat** (ar.) – inson qo'li va aql idroki bilan yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar. Rus tilida "культура" so'zi aslida lotincha so'z bo'lib, "ishlab chiqarish", "yasash", "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Madaniyat tushunchasi tarixiy davr (antik madaniyat), aniq jamiyat, elat va millati hamda faoliyati yoki hayotining o'ziga xos sohalarini tavsiflash uchun qo'llaniladi.

**Muammoviy-xronologik usul** – ilmiy tadqiqotlar problematikasini aniqlab, tarix fani rivojining qaysi bosqichida uning dolzarblik kasb etgani va qanday o'rganilganini ko'rsatadi.

**Mustaqillik davri** – O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng boshlanib, bugungi eng so'nggi voqealarni o'z ichiga olgan siyosiy davr.

**Mustamlaka davri** – Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonilan bosib olinishi va boshqarilishini o‘z ichiga olgan siyosiy davr.

**Naqshi Rustam** – Persepoldan qariyb 5 km masofada, uning shimol tomonida Husaynkuh qoyalarida Doro I va Kserks I (mil. avv. 486–465-yillar), Artakserks I (mil. avv. 465–424-yillar) hamda Doro II (mil. avv. 424–404-yillar)ning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o‘yib yozilgan katibalar.

**Prosopografik usul** – (“prosopon” grekcha – yuz; tarixiy shaxslar tavsifiga doir o‘tmish haqidagi bilimlar sohasi) tarix fani tarixining tarkibiy qismi bo‘lgan tarixchilar biografiyasini o‘rganishda qo‘llaniladi.

**Sovet davri** – O‘zbekiston hududida sovet hokimiyati qaror topgandan, uning yakuniga qadar davom etgan siyosiy davr. 1917–1991-yillarni o‘z ichiga oladi.

**Tarix** – inson jamiyati taraqqiyotini o‘rganuvchi fandir. U xalq ma’naviyatining asosi, eng muhimi, ajdodlarning shonli o‘tmishini o‘zida mujassamlashtirgan fandir.

**Tarixshunoslik** – tarix fanining tarixini o‘rganuvchi fan. Tarixshunoslik tarixiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida – tarix fanining tarkibiy qismi hisoblanadi va ayni paytda intellektual tarixning ham bir bo‘lagidir. uzoq vaqt davomida ushbu so‘z mazmuniga ilmiy an’anada tarixnavislik, ya’ni “tarixni yozish” mazmuni yuklangan va uning “ijodkori” bo‘lgan tarixnavisga nisbatan “tarixshunos” termini qo‘llanilgan.

**Tarixshunoslik manbasi** – monografiya, risola, maqolalar, taqrizlar va turli anjumanlarda qilingan ma’ruzalar ekanligini nazarda tutgan holda tahliliy ishni amalga oshirish.

**Tarixshunoslik ob’yekti** – tarixiy (tarixshunoslik) manbasida mujassamlashgan, tadqiqotchilik konsepsiyasi shaklida aks etgan tarixiy bilimni o‘rganish hisoblanadi.

**Tarixshunoslik predmeti** – tarix fanida ma’lum muammoni o‘rganish jarayonlari va natijalarini tahlil qilishdan iborat.

**Tarixshunoslik fakti** – tarixchining bir yoki bir nechta tadqiqoti orqali taqdim qilingan konsepsiyasi va qarashlari majmui.

**O‘rxun-Enasoy bitiklari** – asosan ikki hududiy va mazmuniy jihatdan ikki guruhga ajratilib, *o‘rxunn bitiklari* – Mongoliya, Tog‘li Oltoy va Xakasiya, ba’zi manixey qo‘lyozmalar esa Sharqiy Turkiston hududidan, *enasoy bitiklari* – Enasoyninng yuqori va o‘rta oqimi, Sayano-Oltoy tog‘lik hududi va Mongoliyaning bir qismidan topib o‘rganilgan.

**Xronologik usul** – tarixshunoslik manbalari xronologik ketma-ketlikda joylashtirilishi asnosida ilmiy bilimlar to‘planish jarayoni, ma’lum muammoning ustivor jihatlari aniqlanib, uni o‘rganishdagi vorisiylik kuzatiladi.

**Sivilizatsiya** – insoniyat jamiyati ilgarilama harakatida erishilgan darajani hamda moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish usulini ifodalaydigan tushuncha.

**Etnik jarayon** – etnik birlik (elat) bilan uning tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi xo'jalik, iqtisodiy, madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishidir. Bu jarayon ikki xil bo'linib ketishga va birlanishga moyildir.

**Etnik simbioz** – xalqlar (etnoslar) bir emas, bir necha guruhlari o'rtasida o'zaro qorishib ketishning natijasida paydo bo'lishi.

**Etnogenez** (etnos – "qabila, xalq" va genezis – "kelib chiqish") –xalqning kelib chiqishi. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra, etnogenez deb ilgaridan mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat)ning vujudga kelishiga aytiladi. "Etnogenez" tushunchasi fanga ilk marotaba XX asr ning 20-yillarida N. Ya. Marr tomonidan kiritilgan.

**Etnogenetik jarayon** – bu jarayonda xalqning ilk ildizlari hosil bo'ladi. Bir qancha etnik guruhlar bir-birlari bilan yaqinlashib, qushilib boradi. Etnik guruhlarning tashqi qiyofasi, tili, moddiy va madaniy madaniyati har xil bo'ladi.

**Eftal** – *armancha* "xeptal", "xetal", "tetal"; *yunoncha* "eftalit", "abdel", "eftal", "Oq ovlar"; *suriya manbalarida* "eptalit", *arabchada* "baland", "xetal"; o'rta forschada "xeptal", *zardushtiylikka oid manbalarda* ular ba'zan "pyoz", hind manbalarida esa "hula" ko'rinishida uchraydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, 1992. 48 б.

2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 349 б.

3. Ислом Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ//Ислом Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. Тошкент: Ўзбекистон, 1999.

4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

5. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

6. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

7. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 488 б.

8. Абдураҳимова Н. А., Эргашев Ф. Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент: Академия, 2002.

9. Абдушукуров Т. Р. Закономерности и особенности культурно-технического роста рабочего класса Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1971.

10. Абиров В. Э. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи ўрганилиши хориж тадкиқотчилар талқинида / Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. Илмий тўплам. Тошкент: ТДШИ, 2018. 209–214-бетлар.

11. Абиров В. Э. Ўзбек халқи этногенези ҳақидаги фикрларнинг тадрижи // Шарқшунослик. 2019. №1–2. 90–103-бетлар.

12. Abirov V. E. O'zbek xalqi etnogeneziga doir konsepsiyalar tahlili // O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: TDShI, 2019. 137 b.

13. Abirov V. E. Tarixiy toponimiya // O'quv qo'llanma. Toshkent: TDShI, 2019. 202 b.

14. Абу-л Фазл Байхаки. История Масъуда. М., 1969. 218 с.

15. Абулгози Баҳодирхон. Шажарайи турк. Тошкент, 1992. 192 б.

16. Абусеитова М. Х. Казахское ханство во второй половине XVI века. Алма-Ата: Наука, 1985. 104 с;

17. Авесто. Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001. 127 б.

18. Адам Мец. Мусульманский ренессанс. М., 1973. 351 с.

19. Адиб Халид. Становление Узбекистана. Таджики как остаточная категория// Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии / Отв. ред. Ш. С. Камолиддин. Saarbrücken: LAP, 2016. С. 75–108, 155–180.

20. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: ( энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) Тошкент: Шарқ, 2000. 368 б.

21. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. Ташкент: Янги нашр, 2012. 224 с.

22. Акаев О. Туркменистан и туркмены в конце XV – первой половине XVI вв. Ашхабад, 1981.

23. Алексеева Г., Желтова Г. Становление и развитие советской системы научно-исторических учреждений (20-30-е годы). Ташкент: Фан, 1977. 136 с.

24. Алимова Д. А. История как история, история как наука. Том I. Историческое сознание. Ташкент: Узбекистан, 2008. 280 с.

25. Алимова Д. А. История как история, история как наука. Том II. Феномен джадидизма. Ташкент: Узбекистан, 2009. 170 с.

26. Алимова Д. А. История как история, история как наука. Том III. Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы. Ташкент: Media Land, 2018. 520 с.

27. Алимова Д. А., Илхомов З. Тарих фани методологияси. Тошкент: Navro'z, 2019. 310 б.

28. Алимова Д., Максудов Ф. Рефлексия исторического познания // O'zbekiston tarixi. 2018. №4. С. 3-33.

29. Alimova R. R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2009.

30. Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. Тошкент, 2003.

31. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Р. Қосимов. Тошкент: Шарқ, 2006. 336 б.

32. Амир Темур салтанати тарихига оид ёзма манбалар тадқиқи ва тавсифи / Тўпловчи: А. Шарипов. Тошкент: Фан, 2020. 256 б.

33. Аннанепесев М. Хозяйство туркмен в XVIII–XIX вв. Ашхабад, 1972.

34. Асадова Ш. И. Ўзбекистонда тарихшунослик тадқиқотлари ҳолати масаласига доир (1991–2000 йй.) // Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари материаллари. I – қисм. Тошкент. 2006. 76–84-бетлар.

35. Асадова Ш. И. Мустақиллик даврида Ўзбекистонда тарих фани: изланишлар ва натижалар (1991–2010) // Очерки историографии Узбекистана в XX столетии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. 197–221-бетлар.

36. Асадова Ш. И. Илмий-тарихий билим ва тарихчи масъулияти: методологик жиҳатлар // БухДУ илмий ахбороти. 2011. № 2. 15–19-бетлар.

37. Аскаров М. М. Историографический анализ религиозной идентичности узбеков (на основе англоязычных материалов) // Ўтмишга назар / Взгляд в прошлое / Look to the past. 2019. №2. С. 46–52.

38. Аскаров М. М. Роль гендерной политики в формировании узбекской идентичности (историографический анализ на основе англоязычных материалов) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2019. №2. С.

39. Аскаров М. М. Историография формирования современной узбекской идентичности в начале XX века (по англоязычным материалам) // Шарқшунослик / Востоковедение / Oriental Studies. 2019. №1–2. С. 64–76.

40. Аскаров М. М. Анализ категорий идентичности в конце XX – начале XXI века на территории современного Узбекистана (на основе англоязычных материалов) // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования. Ташкент, 2019. №4. С. 62–77.

41. Асланов М. Г. Афганская литература // БСЭ. 2- е изд. М., 1950. 155 с.

42. Асланов М. Г. Афганцы, язык и духовная культура // Народы Передней Азии. М., 1957. 170 с.

43. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихини баъзи бир назарий масалалари // O'zbekiston tarixi. 2002. №4. 43–46-бетлар.

44. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007.

45. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2015. 680 б.

46. Asqarov M. M. Some aspects of historiography of the ethnography of the peoples of Central Asia in 21st century // ЎзМУ хабарлари. Тошкент, 2017. №1/4. P. 20–24.

47. Асқаров М. М. Шарқ алломаларини ўрганилиши билан боғлиқ муаммоларнинг тарихий-этнографик таҳлили // НамДУ илмий ахборотлари. Наманган, 2017. Махсус сон. 266–276-бетлар.

48. Ахмедов Б., Мукминова Р. Г., Пугаченкова Г. А. Амир Темур. Ташкент: Фан, 1999. 263 с.

49. Ахунова М., Лунин Б. В. История историчекой науки в Узбекистане. Ташкент: Фан, 1970. 220 с.

50. Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. 32 б.

51. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 275 б.

52. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлар тарихи. (Воспоминания. История

борьбы за независимость и свободу в Туркестане). Тошкент: Истиқлол нури, 2014. 609 с.

53. Ахмеджанов Г. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Тошкент: Фан, 1995. 217 с.

54. Аҳмаджонов Ғ. Россия империяси Марказий Осиёда. Тошкент, 2003. 270 б.

55. Аҳмедов Б. Улуғбек. Тошкент, 1989. 252 б.

56. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоклар. Тошкент, 1994. 430 б.

57. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Тошкент, 2001. 310 б.

58. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. Т.1. М.: Наука, 1963. 497 с.

59. Бартольд В. В. Очерки истории туркменского народа / Сочинение. Т.1. Москва, 1963.

60. Бартольд В. В. Улугбек и его время. / Бартольд В. В. Соч., Т.2, Ч.2. М., 1964.

61. Бартольд В. В. Иран. Исторический обзор / Сочинения. Т. VII. М.: Наука, 1974. 231 с.

62. Бернштам А. Н. Проблемы древней истории и этногенеза южного Казакстана // ИАН Каз ССР. Серия археологии. Алма-Ата, 1947. №67. С. 32–36.

63. Беруний А. Р. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. Том. 1. Тошкент: Фан, 1968. 252 б.

64. Бичурин Н. Я. Собрание сведения о народах обитавших в Средней Азии в древние времена в 3-х томах Т. 2. М–Л., 1950. 151 с.

65. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузими. Тошкент: Янги нашр, 2018.

66. Бувақов Н. Турк хоқонлиги ва суғдлар (симбиоз ва ассимиляция жараёнлари: тарихшунослик таҳлили) // ФарДУ хабарлари. Фарғона, 2020. № 4. 84-88-бетлар.

67. Бувақов Н. Эфтал қабилалари тарихшунослигига доир // “Таълим сифатини такомиллаштиришда инновацион ҳамкорликнинг долзарб масалалари” мавзусида Халқаро илмий онлайн конференция Илмий тўплами (2020 йил 27 май Навоий). Навоий, 2020. 607-611 бетлар.

68. Бунёдов З. Ануштегин – Хоразмшоҳлар давлати. Тошкент, 1998. 255 б.

69. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё: тарихий-географик лавҳалар. Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 168 б.

70. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. / Перевод с немецкого З.Д.Голубевой. Под редакцией В.А.Ромодина. М.: Восточная литература, 2003.

71. Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. Тошкент, 1960.

72. Винников Я. Р. К этнической истории туркменского населения Чарджоуской области / Проблемы этногенеза туркменского народа. Ашхабад, 1977.

73. Гафуров Б. Таджики. Душанбе: Ирфон, 1989. Т.1. 197 с.

74. Ганковский Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. М., 1982. 368 с.

75. Германов В. Профессор Пулат Солиев и его время. (Жизнь и трагедия основателя узбекской исторической школы). Ташкент: Фан, 2002. 64 с.

76. Геродот. История в девяти книгах. Л.: Изд-во «Наука», 1972. / Перевод и примечания Г. А. Стратановского, под общей редакцией С. Л. Утченко.

77. Григорьев В. В. Русская политика в отношении к Средней Азии. СПб., 1874. С. 312.

78. Гумилев Л. Н. Древние тюрки. М.: Наука, 1967. 441 с.

79. Дандамаев М. А. Иран при первых Ахеменидах. М., 1963. С. 262–269.

80. Дебес Г. Ф. Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей //ПОАИА. Вып. 6. М., 1968.

81. Дониёров А. Х. Очерки истории этнографической науки Узбекистана (Конец XIX – 20–30-е годы XX в / В помощь студентам исторических факультетов. Кн. I. Этнографическое изучение Центральной Азии (конец XIX– начало XX вв.). Ташкент, 1996. 64 с.

82. Дониёров А. Х. Из истории этнографического изучения каракалпакского народа // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. Нукус, 2001. №4. С. 80–83.

83. Дониёров А. Х. Ўзбек халқи этнографияси бўйича 1940–1980 йилларда махсус этнографик журналда чоп этилган мақолалар хусусида // O‘zbekiston tarixi. 2002. №4. 31–40-бетлар.

84. Дониёров А. Х. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Хоразм манзилгоҳларини ўрганиш (тарихнавислик тавсифи) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2002. №6. 75–80-бетлар.

85. Дониёров А. Х. Мустақил Ўзбекистон этнографияси тарихшунослигининг айрим масалалари. Тошкент, 2003. 43 б.

86. Дониёров А.Х. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Ташкент: Янги аср авлоди, 2005. 332 с.

87. Дониёров А. Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнографияси фанида. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2007. 84 б.

88. Дониёров А. Х. Қорақалпоқларнинг анъанавий хўжалиги ва моддий маданияти // Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. Тошкент, 2011. 198–203.

89. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi / O'quv qo'llanma. Toshkent: TDSHI, 2014. 233 b.

90. Doniyorov A. Kh., Madraimov A. A. Iran in the era of Amir Temur and Temurids in the works of academic V. V. Bartold // Востоковедение. Научный журнал Ташкентского государственного института востоковедения. 2018. №4. С. 33–39.

91. Доранд Ф. Б. Труды Аму-дарьинский экспедиции. // Материалы собранные метеорологическим отделом Аму-дарьинской экспедиции. Вып. 2. Изд. Императорского русского географического общества. С-Петербург, 1878. 244 с.

92. Древние авторы о Средней Азии. Хрестоматия. Ташкент, 1986.

93. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Тошкент: Шарқ, 1999.

94. Жаббаров И., Жаббаров С. Жаҳон динлари тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

95. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент, 1999. 193 б.

96. Желтова Г.И. Социалистическое строительство в Узбекистане (историографический очерк). Ташкент: Фан, 1975.

97. Желтова Г.И. Историография социалистического и коммунистического строительства Советского Узбекистана (1930-1970-е годы). Ташкент: Фан, 1981.

98. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1990. 367 б.

99. Зиёев Ҳ. Ўзбек хонликлари чоризм асоратида (XIX асрнинг 50–60 йиллари). Тошкент, 1994. 128 б.

100. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар (XVIII–XIX асрлар). Тошкент: Шарқ, 1998. 478 б.

101. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент: Шарқ, 2006. 352 б.

102. Зияева Д. Ҳ. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Мустабид тузумга қарши 1916 ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.

103. Зунунова Г. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций. Ташкент: EXTREMUM PRESS, 2013. 300 с.

104. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории). Избранные отрывки Пер. с араб. языка, примеч. и коммент. П. Г. Булгакова. Дополнения к пер., примеч. и коммент., введ. и указ. Ш. С. Камолиддина. Ташкент - Цюрих: АН РУз, 2005. 595 с.

105. Ибрат. Фарғона тарихи / Мерос. Тошкент: Камалак, 1991.

106. Иброхимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Тошкент, 1993. 104 б.

107. Иноятов К. Историографические аспекты историографии Узбекистана. Опыт историографической работы в Узбекистане: Аналитико-критический очерк. Ташкент, 1993. 180 с.

108. Исмоилова Ж. Ҳ. Фарғона водийсида миллий-озодлик курашлари (1916 йил қўзғолони мисолида). Тошкент, 2003.

109. Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877). М., 1981.

110. Историческая наука в контексте интеллектуального развития Центральной Азии. Ташкент, 2014. 367 с.

111. Историческая наука постсоветской Центральной Азии: обретения и проблемы. Материалы Международной научно-теоретической конференции. Алматы: 2007. 205 с.

112. История вооруженных сил Афганистана. 1747–1977 / Под ред. Ю. В. Ганковского. М.: Наука, 1985.

113. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов / Отв. редакторы: Э. В. Ртвеладзе., Д. А. Алимова. Ташкент: Фан, 2017. 568 с.

114. История ат-Табари. Ташкент, 1987. 441 с.

115. История Узбекистана в источниках / Составитель Б. В. Лунин. Ташкент, 1984. 224 с.

116. История Узбекистана. XVI – первая половина XIX века. Ташкент: Фан, 2012. 776 с.

117. История и историки Узбекистана в XX столетии / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент: Navroz, 2014. 431 с.

118. Историографические чтения – 2011 / Сборник материалов конференции. Ташкент: Янги нашр, 2011. 426 с.

119. Исҳоқов М. М., Файзиев Х. Т. Марказий Осиё халқлари тарихи тарихшунослиги ва манбашунослиги. Ўқув қўлланма. 2-нашр. Тошкент: ТДШИ, 2017.

120. Исхаков М. М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Ташкент, 2008. 340 с.

121. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1990. 159 б.

122. Караев О. К. История Караханидского Каганата. Фрунзе, 1983.

123. Каримов Э. Э. Регесты казийских документов и ханских ярлыков Хивинских ханов XVII – начало XX вв. Ташкент, 2007. 224 с.

124. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976. 322 с.

125. Касымов Ф. Х. Переход народов Средней Азии к социализму, минуя капитализм. Ташкент: Фан, 1979.

126. Касымов Ф. Х. Минуя капитализм: Советская историография перехода народов Средней Азии к социализму. М.: Наука, 1980.

127. Кобзева О. П. Великий Шелковый путь: история и современность. Ташкент: Фан, 2005.

128. Костенко Л. Ф. Туркестанский край. В 3-х тт. СПб., 1880.

129. Крачковский И. Ю. Ал Беруни и географы XI в. на Востоке. М., 1957. Т.4. 224 с.

130. Кун А. Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 год / Известия Русского географического общества. Т. X. СПб, 1874.

131. Литвинский Б. А. Восточный Туркестан и Средняя Азия. История. Культура. Связи. М., 1984. 76 с.

132. Лунин Б. В. Средния Азия в научном наследии. Очерк. Ташкент, 1972. 145 с.

133. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент: Фан, 2007.

134. Мадраимов А. А. Культура эпохи Темуридов в «Мемуарах» З. В. Тогана // ОНУ. 2010. №1–2. С. 113–118.

135. Мадраимов А. А. Источники по истории культуры эпохи Темуридов // ЎзМУ хабарлари. 2010. №2. С. 54–58.

136. Мадраимов А. А. Историческое наследие эпохи Темуридов в трудах выдающегося востоковеда А. З. Валидова // ЎзМУ хабарлари. 2013. Махсус сон. С. 91–93.

137. Мадраимов А. А. Ахмад Заки Валидов о миниатюрах эпохи Темуридов // Маяк Востока. 2017. №3–4. С. 92–95.

138. Мадраимов А. А. Герат в эпоху Амира Темура и Темуридов в трудах академика В. В. Бартольда // Маяк Востока. 2018. №1. С. 113–118.

139. Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. Тошкент, 1990. 142 б.

140. Маликов А.М. Тюрки в среднеазиатском Междуречье в VI–VIII вв. Самарканд, 2000.

141. Маматалиев А. Р. Фарғона водийси этнографиясининг ўрганилиши (Мустақиллик йиллари ижтимоий-гуманитар журналлардаги мақолалар асосида) // ЎзМУ хабарлари. 2011. №4/1.

142. Маматалиев А. Р. Фарғона водийси этносллараро хўжалик-савдо муносабатларини ўрганилиши тарихидан / "Фарғона водийси тарихи муаммолари" мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. Наманган, 2012. 47–51-бетлар.

143. Маннонов А. М. Афғонистон халқлари фольклори ва мумтоз адабиёти тарихи. Тошкент, 2001.

144. Маннанов А. М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. 230 с.

145. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2009. №1. 353 б.

146. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоков.Тошкент: ТДШИ, 2010. №2. 495 б.

147. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2011. №3. 430 б.

148. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2012. №4. 355 б.

149. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2013. №5. 464 б.

150. Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. Тошкент, 2005.

151. Мартене Ф. Ф. Россия и Англия в Средней Азии. СПб., 1880.

152. Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. Ташкент, 1988. 414 с.

153. Махкамова Н. Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX 30-е годы – XX вв.). Ташкент: Aloqachi, 2009.

154. Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане в 20-е гг. XX в.: полемика и дискуссии // O‘zbekiston tarixi. 2012. №1. С. 39–51.

155. Махкамова Н. Историческая наука в Узбекистане в 30-е гг. XX в. Установление идеологического единомыслия// O‘zbekiston tarixi. 2013. №2. С. 33–41.

156. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару / Перевод Е. К. Бетгера. М.: Наука, 1975.

157. Межов В. И. Туркестанский сборник сочиненій и статей, относящихся до средней Азіи вообще и Туркестанскаго края в особенности, 1888.

158. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Тошкент, 1994. 350 б.

159. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.

160. Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Тошкент: Navro‘z, 2014. 334 б.

161. Мустафаева Н. XX асрнинг 50–60-йилларида Ўзбекистонда тарих фани ҳолати // O‘zbekiston tarixi. 2010. №3. 15–23-бетлар.

162. Муҳитдинов А. По Восточной Бухаре // Народное хозяйство Средней Азии. Ташкент, 1924. №2–3.

163. Мухториятли Туркистоннинг Муваққат ҳукуматидан // Эл байроғи. 1917 йил 9 декабрь.

164. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Тошкент, 1999.

165. Мўминов И. Ўрта Осиё тарихида Амир Темурнинг тутган ўрни. Тошкент, 1968. 43 б.

166. Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. Тошкент, 1993. 143 б.

167. Нестеров А. Л. Прошлое Приаральских степей в преданиях киргиз Казалинского уезда / Записи восточного отделения русского археологического общества. СПб., 1900. Т. IV.

168. Одилов Б. А. XIX аср охири – XX аср бошларига оид адабиётларда Туркистон аҳолисининг хўжалик фаолияти // O'zbekiston tarixi. 2017. №6. 61–68-бетлар.

169. Одилов Б. А. Археологик тадқиқотлар – анъанавий хўжалик фаолиятини ўрганишда муҳим манба (XX аср мисолида) // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 2017. №3. 57–63-бетлар.

170. Одилов Б. А. Фарғона водийси аҳолисининг хўжалик-маданий анъаналарини этнологик тадқиқотларда ёритилиши // Sharqshunoslik. 2018. №2. 113–121-бетлар.

171. Отахўжаев А. М. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент, 2010.

172. Очерки по истории государственности Узбекистана / Ответственные редакторы: Д. А. Алимова., Ртвеладзе Э. В. Ташкент: Шарк, 2011. 207 с.

173. Очерки историографии Узбекистана в XX столетии / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент: Yangi nashr, 2011. 235 с.

174. Очерки историографии государственности Узбекистана. Т.I. / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент, 2018. 380 с.

175. Очерки историографии государственности Узбекистана. Т.II. / Отв. редактор Д. Алимова. Ташкент, 2019. 368 с.

176. Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 32 б.

177. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920–1924 йиллар). Тошкент: Маънавият, 2002. 144 б.

178. Ражабов Қ. Фаргона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918–1924 йиллар). Тошкент: Yangi nashr, 2015. 240 б.

179. Раджабова Р. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. 1917–1983. Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

180. Рахимов М., Турсунова Р. Новейшая история Узбекистана: Учебное пособие. Ташкент: УМЭД, 2014.

181. Раҳматуллаев Т. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитишда археология материалларидан фойдаланиш. Тошкент, 1994. 33 б.

182. Раҳматуллаева А. Амир Темур салтанати тарихнавислиги. Тошкент: Fan va texnologiya, 2010. 96 б.

183. Ромаскевич А. А. Персидские источники по истории туркмен и Туркмении X–XV вв / МИТТ. Т.1. М.–Л., 1939.
184. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Ташкент, 2006.
185. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). М., 1990. 211 с.
186. Сагдуллаев А., Эшов Б. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 1999.
187. Сагдуллаев А. Огненные стрелы. Ташкент, 1993. 112 с.
188. Сагдуллаев А. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. Тошкент, 2001.
189. Сагдуллаев А., Аминов Б., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти: 1- қисм. Тошкент, 2000.
190. Сагдуллаев Т. Ўзбекистон тарихи илк ёзма манбаларда.` Тошкент, 1996. 255 б.
191. Саидқулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. Тошкент, 1993. 159 б.
192. Сарыбаев М. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917-1990 гг.). Ташкент: Изд-во национальной библиотеки Узбекистана имени А. Навои, 2008. 250 с.
193. Сафоев С. С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Тошкент: Патент пресс, 2005. 160 б.
194. Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970.
195. Стори Ч. А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. В трех частях. Часть II / Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под ред. и при участии А. А. Семенова. Т. 1. Ташкент, 1952. 80 с.
196. Сулейменов Б. С., Басин В. Я. Казахстан в составе России в XVIII – начале XX века. Алма-Ата: Наука, 1981. С. 78–80.
197. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2014. №6. 344 б.
198. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2015. №7. 464 б.
199. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2016. №8. 399 б.
200. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2017. №9. 437 б.

201. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2018. №10. 352 б.

202. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2019. №11. 319 б.

203. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Илмий тўплам / Масъул муҳаррир М. Исҳоқов. Тошкент: ТДШИ, 2020. №12.

204. Тарихшунослик ўқишлари. Анжуман материаллари тўплами. Тошкент: Фан, 2010. 260 б.

205. Толстов С., Шишкин В. Историческая наука в Узбекистане //25 лет советской науки в Узбекистане (1917–1942 гг.). Ташкент: УзФан, 1942.

206. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. 328 с.

207. Толстов С. П. Древний Хорезм. М., 1948. 348 с.

208. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962. 135 с.

209. Тревер К. В., Якубовский А. Ю., Воронец М. Э. История народов Узбекистана. Ташкент, 1950.

210. Туманский А. Г. Родословная туркмен. М., 1901.

211. Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. Тошкент, 1997. 158 б.

212. Узбеки. /Отв. редакторы С.Абашин, Д.Алимова, З.Арифханова. М.: Наука, 2011. 688 с.

213. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, 1992. 77 б.

214. Хильда Хукхем. Етти иқлим султони. Тошкент, 1994. 350 б.

215. Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876.

216. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1 том.Тошкент: Фан, 1976.

217. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 2 том.Тошкент: Фан, 1977.

218. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 том.Тошкент: Фан, 1978.

219. XX асрнинг дастлабки ўттиз йилида Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). I қисм. Тошкент: Фан, 1994. 207 б.

220. XX асрнинг дастлабки ўттиз йилида Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). II қисм. Тошкент: Фан, 1994. 455 б.

221. Чеботарева В., Раджапова Р. Историко-партийная наука в Узбекистане. Ташкент: Ўзбекистон, 1982.

222. Центральная Азия в эпоху средневековья и нового времени: общество, культура, источники. Ташкент-Вена: Академнашр, 2019. 496 с.

223. Чехович О. Д. Бухарские документы XVI века. Ташкент: Издательство АН УзССР, 1965.
224. Чвырь Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX–XX в / Очерки историко-культурных связей. М.: Наука, 1990. 301 с.
225. Шадманова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида. Тошкент: Yangi nashr, 2011.
226. Shadmanova S. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. Toshkent, 2018. 216 b.
227. Шамсиддинов Р. ва бошқ. Ватан тарихи. XVI–XX аср бошлари. Тошкент: Шарқ, 2003. 352 б.
228. Shamsutdinov R,. Karimov Sh. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Toshkent, 2010.
229. Шамукарамова Ф. Мирзо Улуғбекнинг ҳаёти ва ижоди XX аср тарихшунослигида. Тошкент: Yangi nashr, 2012. 256 б.
230. Шомансурова О. Бартольд – йирик шарқшунос олим. Тошкент, 1969. 27 б.
231. Шониёзов К. Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент, 1990.
232. Шониёзов К. Ш. Қарлуқ давлати ва карлуқлар. Тошкент, 1999.
233. Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқинниг шаклланиш жараёни. Тошкент, 2001. 464 б.
234. Шумов С., Андреев А. История Афганистана. М., 2002.
235. Энвер Хуршут. Этнологические исследования / Согдийский сборник. Вып. 3 / Отв. ред. Ш. С. Камолиддин. Saarbrücken: LAP, 2016. С. 143–202.
236. Энвер Хуршут. Арийцы Азии. Этнологический этюд. Saarbrücken: LAP, 2017. 111 с.
237. Якубовский А. Ю. Самарканд при Тимуре и тимуридах. Очерк. Л., 1933.
238. Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: УзФАН, 1941.
239. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори // O‘zbekiston tarixi. 1999. №1. 15-17-бетлар.
240. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти нашрлари (1991–2015 йй.) / Масъул муҳаррир Д. Алимова. Тошкент: Фан, 2016. (Тўлдирилган ва қайта ишланган нашри.)
241. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: O‘zbekiston, 2019. 560 б.
242. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Тошкент: O‘zbekiston, 2019. 576 б.

243. Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари – 2004 материаллари. I қисм. Тошкент, 2006. 157 б.

244. Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари – 2004 материаллари. II қисм. Тошкент, 2006. 115 б.

245. Ўзбекистонда тарих фани: муаммолар ва ривожланиш истиқболлари. Тошкент: Академнашр, 2018. 495 б.

246. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Тошкент, 1998. 218 б.

247. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1- жилд. Тошкент, 1992. 188 б.

248. "Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал-методологик муаммолар" мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. Тошкент: Академия, 1998. 359 б.

249. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб. Тошкент: Шарқ, 2000. 464 б.

250. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. Тошкент: Шарқ, 2000. 521 б.

251. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-китоб. Тошкент: Шарқ, 2000. 560 б. (443 б.)

252. Ўлжаева Ш. М. Амир Темур давлат бошқаруви. Тошкент: Академнашр, 2017. 148 б.

253. Ўлжаева Ш. М. Амир Темур дипломатияси. Тошкент, 2018. 156 б.

254. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда экс этиши (XVI – XIX аср биринчи ярми). Тошкент: Янги нашр, 2011.

255. Қорақалоғистон АССР матбуоти (1917–1975 йй). Библиографик кўрсаткич / Тузувчилар: М. П. Пайзуллаева., М. М. Ниёзова., Г. Х. Матёқубова. Тошкент, 1986. 428 б.

256. Қосимов Ф. Бухоро республикаси тарихшунослиги. Бухоро, 1995. 85 б.

257. Қосимов Ф. Истиқлол ва тарихий хотира. Бухоро, 2006. 155 б.

258. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Тошкент, 2007.

259. Ғиёсиддин Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахвори афроди башар. Тошкент: Ўзбекистон, 2013.

260. Ҳайдаров И., Ражабов Қ. Туркистон тарихи. Тошкент, 1992.

261. Ҳайдаров И. Ўзбекистон саноатининг Совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни. 1945–1991 йиллар. Тошкент, 2019. 296 б.

262. Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917–1941 й.). Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2012. 272 б.

263. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад. Абдулланома. 1-жилд. Тошкент, 1966.

### Xorijda nashr etilgan ishlar

264. Абдуллаев Н. А. К вопросу этнической истории казахов. Оренбург, 2005.

265. Абиров В. Э. XX асрнинг 40–50 йиллари тадқиқотларида ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи муаммосининг ёритилишига доир // International scientific journal «global science and innovations 2019: Central Asia». №2 (3). Серия «Исторические науки и археология». NUR-SULTAN, 2019. 116–124-бетлар.

266. Анке фон Кюгельген. Легитимизация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII—XIX вв.). Алматы: Дайк пресс, 2004.

267. Арсланова А. А. Современный Афганистан. М., 2000.

268. Аскаров М. М. Трансформация традиционного празднества суннат-туя (обрезание) в Узбекистане // Современные гуманитарные исследования. М., 2017. №4. С. 15–18.

269. Askarov M. M. The importance of studying the categories of Uzbeks identity / International scientific conference «Global science and innovations 2019: Central Asia». Nur-Sultan, Kazakhstan, 2019. P. 133–135.

270. Аскаров М. М. Обзор категорий идентичности в конце XIX – начале XX века на территории современного Узбекистана (на анг.) // Вестник КазНУ имени Аль-Фараби. Серия Историческая. 2019. №4 (95). С. 4–14.

271. Аскаров М. М. Англоязычная антропология о природе узбекской идентичности в конце XIX – начале XX вв // Вестник антропологии. М., 2020. №1(49). С. 239–251.

272. Атыгаев Н. А. Казахское ханство в XV – середине XVI века. Алматы, 2003. 35 с.

273. Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент, 2010. 744 с.

274. Balakrishnan V. The Game of Disappearance And Return: Ranajit Guha's Case For Historicality in History at the Limits of World History // International Journal of History and Research (IJHR). 2012. №2. P. 20–31.

275. Buvaqov N. Ethno-political Processes in V-VIII Centuries in Uzbekistan// International Journal of Psychosocial Rehabilitation (Scopus), 2020. Pp.3225-3234

276. Гродеков Н. И. Киргизы и каракиргизы Сыр-Дарьинской области: юридический быт. М.: Восточная литература, 2011. 566 с.

277. Дедамирзаев Ж. Хитой ҳудудига дунганлар мисолида ислом динининг кириб келиши / Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации". XVIII Международная научно-практическая конференция. Пенза: Наука и просвещение, 2018.

278. Dedamirzayev J. Illustration of ethnography of Central Asian people in early medieval Chinese source (in the example of Uyghurs and Dungans) // International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. 2019.

279. Dedamirzayev J. Illustration of the location and the image of the inhabitant's lifestyle of the Fergana valley in Chinese source // EPRA International Journal of Research and Development. India, 2020. P. 2455–7838.

280. Doniyorov A. Kh. On general methodological, ethno political and ethno cultural aspects of "diaspora issues" (to the theoretical formulation of the problem and the ways of its practical solution) // ACADEMICIA : An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 8, Issue 11, November 2018. P. 68–74.

281. Doniyorov A. Kh., Odilov B. A. Ethnographic Researches on Irrigated Agriculture and Collective Land Cultivation of the Uzbek People (In the Example of 20–30s of XX th Century). Vol. 9. Issue 1. India, 2019. P. 3645–3649.

282. Кармышева Б. Х. Каратегинские киргизы. РАН. Институт этнологии и антропологии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. М.: Наука, 2009. 283 с.

283. Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана. 1919 – 1999 гг. М., 2000.

284. Ляховский А. А. Афганские племени. М., 2008. 78 с.

285. Маджидзода Д. З. Конституция Республики Таджикистан: 20 лет. Душанбе: ЭР-граф, 2014. 151 с.

286. Madraimov A. A. The era of Amir Temur and Temurids in the scientific heritage of A. Z. Validov / International Journal Development Research. Vol. 08. Issue, 10. 2018. №10. P. 23662–23666.

287. Madraimov A. A. Interpretation of historical processes of the epoch of Amir Temur and Temurids in the works of Acad Bartold / Canadian Center of Science and Education. Asian Social Science. Vol. 14. 2018. №12.

288. Манапаева Н. А. Совершенствование и развитие высшего образования Кыргизской Республики при содействие Фонда "Сорос-Кыргизистан" и других международных организаций. Бишкек, 2009.

289. Новейшая история Центральной Азии. Проблемы теории и методологии. М.: ИВ РАН, 2018.

290. Нурпеисов К. Н. Мухамеджан Тынышпаев – в контексте истории // Известия Казахстана. Алма-Ата, 2004. №158.

291. Рахмон Э. О времени и о себе: [Записки Президента Республики Таджикистан Э. Рахмона] / Э. Рахмон; лит.запись и ред. А. Хамдама и Л. Чигрина / Отв. ред. М. Суруш и А. Асадов. Душанбе, 2015. 232 с.

292. Репина Л. История исторического знания: пособие для вузов 2-е изд. М.: Дрофа, 2006. 288 с.

293. Сабиров А. А. Библиография Афганистана. Казань, 2012.

294. Саидов З. Таджикистан: межгосударственные отношения в период становления внешней политики. Душанбе: Контраст, 2013. 636 с.

295. Сапармурат Туркменбаши. Рухнама. Книга первая / Туркменская Государственная издательская служба. Ашхабад, 2006.

296. Танышпаев М. История казахского народа / История Казахстана с древнейших времен до наших дней. Т 1. Алматы, 1994.

297. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996.

298. Тимохин Д. М. Эволюция историографии о государстве Хорезмшахов из династии Ануштегинидов / Вестник института востоковедения РАН. М., 2008. №4. С.

299. Helmut Hoffman. Die Qarluq in der tibetischen literature // Oriens. 1950. Vol. 3. №2. P. 91–96.

300. Farruh Shumer. Oğuzlar (Türkmənlər). Tarixləri. Boy təşkilatı. Dastanları (O'g'uzlar (Turkmanlar ) tarixlari. Boy tashkiloti. Dostonlari). Bakı: MBM, 2013. 448 səh.

301. John Schoeberlein-Engel. The prospects for Uzbek national identity / The national council for soviet and east european research. Title VIII programm. Harvard University. 1997. P. 2–3.

302. Odilov B. A. Characteristics of economic activity of the population of Fergana valley in XIX and at the beginning of XX centuries// International Journal of Development Rezerch (IJDR). Vol. 8. Issue 10. India, 2018. P. 23827–23829.

303. Odilov B. A. Study of traditional irrigation system in Uzbekistan (In the example of the investigations of the second half of XIX century and XX century). Vol. 12. Issue 2. Vienna, Austria, 2019. №2. P. 85–95.

304. Tchoroev Tyntchtykbek. Historiography of Post-Soviet Kyrgyzstan // International Journal of Middle East Studies. 2002. №34 (2). P. 351–374.

**Internet saytlari:**

305. www.academia.edu.

306. www.arxiv.uz.

307. www.centrasia.ru.

308. www.e-adabiyot.uz.
309. www.gazeta.uz.
310. www.gov.uz.
311. www.history.uz.
312. www.jahon.mfa.uz.
313. www.lex.uz.
314. www.natlib.uz.

## MUNDARIJA


**SO'Z BOSHI** ........ 3

**1-MAVZU: TARIX – INSONIYAT TARAQQIYOTINI O'RGANUVCHI FAN. TARIXSHUNOSLIK – TARIXIY BILIMLARNING MAXSUS SOHASI SIFATIDA. MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGINI O'RGANISH XUSUSIDA** ........ 5

Tarixni bilish va undan saboq olish... ........ 5

Tarix fani: predmeti, funksional vazifalari va tarixchi ........ 7

Tarixshunoslik tarixiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida ........ 10

Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligini o'rganish xususida ........ 20

**2-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMGI DAVR TARIXSHUNOSLIGI** ........ 24

Markaziy Osiyo tarixiga oid qadimgi manba va yodgorliklar ........ 24

"Авесто" – O'rta Osiyo tarixi haqidagi dastlabki yozma manba ........ 25

Zardushtiylik va "Авесто" tarixshunosligi ........ 26

Eron ahamoniylari va yunon-makedonlar bosqinining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi ........ 37

Makedoniyalik Aleksandr istilosi davri tarixshunosligi ........ 44

Yunon va rim tarixchilari asarlari tarixiy manba sifatida ........ 46

Qadimiy Xitoy manbalari ........ 65

Sug'd tilida bitilgan yodgorliklar ........ 68

O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar tarixshunosligi ........ 70

Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlarining qadimgi davr tarixshunosligi ........ 72

**3-MAVZU: VI–XII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI** ........ 76

Eftaliylar davlati tarixining o'rganilishi ........ 76

Turk xoqonligi davri tarixshunosligi ........ 89

Arablar bosqini va Markaziy Osiyo xalqlarining istilochilarga qarshi kurashi tarixshunosligi ........ 100

Uyg'onish davri O'rta Osiyo xalqlari tarixshunosligi ........ 102

**4-MAVZU: O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI TARIXSHUNOSLIGI** ........ 112

O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi tarixshunosligi ........ 112

Mustaqillik davrida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganilishi ........ 137

**5-MAVZU: XII–XIV ASRLAR MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI** ........ 148

Xorazmshohlar davlati tarixining adabiyotlarda yoritilishi ........ 148

Mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga hujumi tarixshunosligi ........ 150

Mo'g'ullar bosqiniga qarshi milliy-ozodlik kurashi tarixining o'rganilishi ........ 156

**6-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI** ........ 167

Amir Temur va Temuriylar davrining tarixiy manbalarda yoritilishi ........ 167

XX asr va XXI asr boshlaridagi tarixiy tadqiqotlarda Temuriylar davrining o'rganilishi........ 179
**7-MAVZU: XVI–XIX ASRLARDA TURKISTON XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI**........ **203**
XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo haqidagi tarixiy manbalar va ularni o'rganishning ba'zi masalalari........ 203
XVI–XIX asrlarda Buxoro amirligi tarixshunosligi........ 209
XVI–XIX asrlarda Xiva xonligi tarixshunosligi........ 221
XVIII–XIX asrlarda Qo'qon xonligi tarixshunosligi........ 230
XVI–XIX asr oxirlarida qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, afg'on, Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixiga oid asarlar........ 235
**8-MAVZU: ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI**........ **259**
Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik siyosati masalalarining yoritilishi........ 259
Rossiya imperiyasiga qarshi milliy ozodlik harakatlarining sovet tarixshunosligi........ 274
Markaziy Osiyo xalqlarining mustamlakachilik davri tarixini o'rganilishi........ 276
**9-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARINING XX ASR TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI**........ **293**
Sovet davrida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi. XX asrning 20–30-yillaridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixshunosligi........ 293
XX asrning 40-yillarida O'zbekistonda tarix fani........ 310
1950–1980-yillarda tarix fani holati........ 314
Markaziy Osiyo xalqlari tarixining XX asrda o'rganilishi........ 324
Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari, afg'on xalqi tarixshunosligi........ 340
**10-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA MARKAZIY OSIYODA TARIX FANI**........ **347**
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani........ 347
O'zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlarining amalga oshirilishi........ 381
Markaziy Osiyo respublikalaridagi tarixiy tadqiqotlar tahlili (XX asr 90-yillaridan bugungi kunga qadar)........ 391
Afg'oniston tarixshunosligining ba'zi masalalari........ 411
**GLOSSARIY**........ **419**
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**........ **423**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
– 10188 –

**Alisher DONIYOROV**

# MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI

*Darslik*

***Toshkent - "NIF MSH" - 2020***

*Muharrir Bakirov N.F.*

*Texnik muharrir*
*Vahobova D.A.*

*Bosishga 20.12.2020. da ruxsat etildi.*
*Bichimi 60x84.*
*"Times New Roman" garniturasi.*
*Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 28. Nashr bosma tabog'i 27.75.*
*Adadi 200 nusxa.*

*"NIF MSH" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.*
*Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*